ISBN 978-9910-697-00-5

D.SALOHIY, G.XALLIYEVA,
SH.HAYITOV, I.PARDAYEVA

NAVOIYSHUNOSLIK

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

DILOROM SALOHIY, GULNOZ XALLIYEVA,
SHAVKAT HAYITOV, IRODA PARDAYEVA

NAVOIYSHUNOSLIK

Oliy o‘quv yurtlari Sharq tillari fakultetlarining Filologiya va tillarni o‘qitish mutaxassisligi ta’lim yo‘nalishi uchun
DARSLIK

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
Samarqand – 2024

UO‘K: 575.144-25

D.Salohiy, G.Xalliyeva, Sh.Hayitov, I.Pardayeva. Navoiyshunoslik. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 388 bet.

Ushbu darslik Respublika Oliy o‘quv yurtlari sharq tillari fakultetlari filologiya va tillarni o‘qitish ixtisosligi bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Navoiyshunoslik fanining mavzularini qamrab oladi. Unda asosan o‘zbek mutafakkir allomalari tomonidan yaratilgan boy ilmiy-adabiy meros haqida, Alisher Navoiy adabiy merosining mavzu ko‘lami, tarixiy-ilmiy ahamiyati va g‘oyaviy xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Darslikda mavzularni mustahkamlash uchun topshiriqlar, mashqlar ham berilgan. Sharq tillarini o‘rganuvchi talabalarda Alisher Navoiy asarlarini ilmiy o‘rganish, adabiy manba matni yuzasidan mushohada yurita olish malakasini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Darslik sharq va sharqshunoslik fakultetlari filologoya va tillarni o‘qitish ixtisosligi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
I.M.TO‘XTASINOV –
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori,
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:
A.U.BINNATOVA –
AMEA Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot Instituti “Ozarbayjon-Turkmaniston-O‘zbekiston adabiy aloqalar” sho‘basi mudiri, professor
U.QOBILOV –
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

Darslik O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 15-oktabrdagi 408-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro‘yxatga olish raqami № 408/2.

ISBN 978-9910-697-00-5

© D.Salohiy, G.Xalliyeva, Sh.Hayitov, I.Pardayeva, 2024
© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024

NAVOIYSHUNOSLIK SOHASIDAGI MUHIM DARSLIK

Ma’naviy yetuk insonni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi qadimdan bunyodkor bo‘lgan o‘zbek xalqining eng muqaddas, barcha davrlar uchun dolzarb hisoblanmish vazifalaridan biri sanalgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti esa xalqimizning bu azaliy orzusi, maqsadini amalga oshirishda eng ijtimoiy faol va ishonchli omillardan biridir. Binobarin, o‘zbek mumtoz adabiyotini bugungi kunda yangicha o‘rganish o‘sib kelayotgan avlod tafakkur tarzini milliy ma’naviy qadriyatlarimiz asosida shakllantirishga keng imkoniyat ochib beradi.

Bugungi kunda jamiyatni ma’naviy yuksaklikka ko‘tarish masalasi davlatimiz siyosatining ham muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘zining 2019 yil 9-fevralda bo‘lib o‘tgan ijodkorlar bilan uchrashuvidagi ma’ruzasida buyuk ajdodlarimiz ilmiy-ma’naviy meroslarini o‘rganish va targ‘ib etish masalasini davlatning eng muhim vazifasi sifatida ta’riflaydi: «Ulug‘ shoir ijodiy merosi xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, yosh avlodni vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi»[1]. Qadimiy adabiy merosimizga yangicha - xolis va sof ilmiy munosabat bu sohada ham yangi yo‘nalishlardagi ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy izlanishlarni taqozo etadi. Davlat rahbarining buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarini chuqur tushunib tadqiq etish va keng miqyosda o‘rganish haqidagi maxsus ta’kidlari, shoirning o‘lmas asarlarida targ‘ib qilingan umumbashariy g‘oyalarni davrimiz ehtiyojiga yaratish zarurligi borasidagi qimmatli ko‘rsatmalari O‘zbekiston ilm-fani ahlini, Alisher Navoiy ijodi muxlislarini yangi tadqiqotlarga, amaliy harakatlarga ilhomlantirib yubordi.

Alisher Navoiy ijodiy merosi ma’no sarhadlarini tushunib yetishga bo‘lgan e’tibor o‘z davridan boshlab uzluksiz ortib borayotir. Bu o‘rinda XX asr alohida ta’kidga sazovor. Navoiyni o‘rganishning fan darajasiga ko‘tarilishi, shoir lirik merosining mukammal tarzda to‘planishi va tahlil etilishi, uning dunyoqarashi, ijodiy uslubi va adabiy-tanqidiy qarashlarining

[1] Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijodkorlar bilan uchrashuvidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2019 yil 9 fevr.

oʻzak-oʻzagigacha tadqiq etilishi ayni shu davrga hos boʻlib, bunda oʻzbek navoiyshunoslarining xizmati beqiyosdir. XX asr navoiyshunosligi tajribasi ulugʻ shoir ijodi sharq badiiy tafakkurining oliy mahsuli ekanini, oʻzigacha mavjud turkiy va forsiy adabiyot erishgan barcha yutuqlarni mujassam etgan, xususan, turkiy adabiyotning keyingi taraqqiyotiga zamin yaratgan poetik, falsafiy, badiiy-estetik qarashlar tizimini shakllantirgan mukammal nazariyaga asoslanganligini koʻrsatdi. Bu, tabiiyki, tadqiqotchilarni ulugʻ shoir dahosini yanada teranroq anglash uchun yangi-yangi izlanishlar olib borishga chorlamokda.

Navoiyshunos olimlar Dilorom Salohiy, Gulnoz Xalliyeva, Shavkat Hayitov va Iroda Pardaevalarning Respublika oliy oʻquv yurtlari sharq fakultetlari talabalari uchun navoiyshunoslik fanidan tayyorlagan ushbu darsliklari ana shu yoʻnalishdagi dastlabki jiddiy tadqiqotlardan biri sifatida koʻzga tashlanadi.

Mualliflar tadqiqotda Navoiy hayoti va faoliyati haqidagi maʼlumotlarni, ulugʻ shoir badiiy va ilmiy-ijodiy merosi yuzasidagi asarlarni sinchiklab oʻrganar ekanlar, imkon qadar mufassal va talabalarga tushunarli tarzda etkazishga harakat qiladilar.

Olimlarning Alisher Navoiy lirik va epik asarlari, nasriy-maʼrifiy ijodi namunalari, tarixiy asarlari va boshqa turli mavzu va janrlardagi asarlari yuzasidan bajarilgan tadqiqot mazmunan keng va mufassalligi, yangi maʼlumotlar bilan boyitilganligi jihatidan oʻquvchida qiziqish oʻygʻotadi. Darslik akademik ilmiy-tahliliy uslubda yozilgan, talqin uslubidan ham foydalanilgan. Unda ulugʻ shoirning Samarqand davri hayoti bilan bogʻliq tafsilotlarga ancha keng oʻrin berilgan.

Darslik mualliflarining koʻp yillik tajribalari va katta mehnatlari natijasida yuzaga kelgan ushbu kitob navoiyshunoslik fanining yana bir yangi sahifasi sifatida baholanishi mumkin. Kitob chuqur masʼuliyat hissi bilan yozilgan. Uning navoiyshunoslik fani nuqtai nazaridan ilmiy maʼlumotlarga boyligi, ravon va tushunarli bayon uslubi bilan bugungi ilmiy va ilmiy-ommaviy jamoatchilik vakillarining qiziqishini uygʻotishiga umid bildiramiz.

Usmon QOBILOV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

TAQDIM

Bugungi kunda mukammal shakllangan va taraqqiy etayotgan jahon navoiyshunosligi tajribasi ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodining Sharq badiiy tafakkuri oliy mahsuli ekanini e’tirof etmoqda. Bu olamshumul ijodning o‘zigacha mavjud bo‘lgan forsiy va turkiy adabiyot erishgan barcha yutuqlarni mujassam etgan, xususan, turkiy adabiyotning keyingi taraqqiyotiga zamin yaratgan poetik, falsafiy, badiiy-estetik qarashlar tizimini shakllantirgan mukammal nazariyaga asoslanganligi ayon bo‘ldi.

Alisher Navoiy she’riyati bugungi kunda o‘zbek adabiyotshunosligi fani sarhadlaridan ancha kengroq doirada, juda ko‘p xorijiy mamlakatlar olimlari ilmiy ishlarida ham o‘rganilmoqda. Bugungi kunga qadar Navoiy lirik merosining mukammal nashrlari amalga oshirildi, buning asosida shoir biografiyasi, dunyoqarashi, ijodiy metodi va adabiy-tanqidiy qarashlari, san’atkorligi masalalariga doir dalillar to‘plandi va tahlil etildi, shuningdek, shoir ijod etgan tarixiy sharoit va uning buyuk mutafakkir faoliyatiga ta’siri masalalari o‘rganildi.

O‘zbek adabiyotshunosligida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ijodiy merosi va badiiy mahoratini o‘rganish sohasida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va bu ilmiy yutuqlardan respublikamiz oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari bakalavriat va magistratura ta’lim yo‘nalishlarining barcha bosqichlarida foydalanilmoqda. Xususan, birinchi, ikkinchi kurslarda o‘tiladigan «O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti» fanini, yuqori kurslarda ikki yil davomida o‘qiladigan “Navoiyshunoslik” ixtisoslik kursi va Navoiy ilmiy-badiiy, nasriy hamda lirik ijodini chuqurroq o‘rganishga moslangan tanlanma fanlarni, magistratura yo‘nalishidagi maxsus fanlarni o‘tishda shu kunlarga qadar A. Qayumov, B. Valixo‘jayev, A. Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, Y.Is’hoqov, I. Haqqulov, S. G‘aniyeva, R. Vohidov kabi olimlar asarlari asosiy qo‘llanma vazifasini bajarib keldi. Ammo, fanimiz milliy mafkuramiz zaminida rivojlanib borayotgan bugungi kunda adabiy merosni o‘rganishning yangi mezonlari qaror topdi, yangi adabiy manbalar kashf etildi, yangi fikr-qarashlar ro‘yobga chiqa boshladi. Shu boisdan XX asrning 80-yillari oxirigacha chop etilgan va ulug‘ shoir she’riyati

masalalarini yoritishga bag‘ishlangan darslik va qo‘llanmalardagi ayrim qarashlarni qayta nazardan o‘tkazish, ayrim masalalarga aniqlik kiritish, munosabat bildirish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Ana shu ehtiyojga javoban yurtimiz o‘z siyosiy mustaqilligiga ega bo‘lgan va qadimiy milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz tiklangan keyingi chorak asr davomida navoiyshunos olimlar N. Komilov, M. Muhiddinov, A. Abduqodirov, Sh.Sirojiddinov, U.Qobilov, G. Xalliyeva, U. Jo‘raqulov, E. Nasrullayev, M. Asadov, Z.Amonova, D.Yusupova, K.Mullaxo‘jayeva, Z.Mamadalieva, O.Davlatovlarning ilmiy tadqiqotlari hamda o‘quv adabiyotlari yuzaga keldi. Ushbu o‘quv adabiyoti mualliflari ham tadqiqotda Filologiya va tillarni o‘qitish ixtisosligi Sharq fakultetlari bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlarga tuzilgan yangi dastur asosida “Navoiyshunoslik” fani uchun ulig‘ mutafakkir shoir adabiy merosi g‘oyaviy va badiiy-estetik xususiyatlarini yoritishni ko‘zda tutadilar. Mualliflar navoiyshunoslik sohasida bajarilgan avvalgi tadqiqotlarni to‘ldiruvchi, ba’zi o‘rinlarda yangicha munosabatni talab etuvchi ilmiy dalillar va mulohazalarni bayon etadilar, bu sohadagi qator masalalarga yangicha yondashadilar.

Darslikda Alisher Navoiy adabiy merosining ilmiy-ma’rifiy ahamiyati, she’riyati taraqqiyoti tarixini kuzatish, shoir g‘azaliyoti g‘oyaviy-badiiy qimmati haqida fikr yuritish va Navoiy poetik uslubi o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi nazariy masalalarga diqqatni jalb etish ko‘zda tutiladi, fanimizning bu sohada qo‘lga kiritgan yangi ilmiy natijalari, yosh olimlar tadqiqotlarida olg‘a surilgan g‘oyalar va fikr-mulohazalar e’tiborga olinadi.

Albatta, tadqiqotda qusur va kamchiliklar bo‘lishi tabiiy, shuning uchun ushbu o‘quv adabiyoti haqidagi har qanday xolisona fikr va mulohazalar mualliflar tomonidan samimiyat bilan qabul qilinadi, minnatdorchilik bildiriladi va kelgusida nazarda tutiladi. *(Manzilimiz: Samarqand shahri, Samarqand davlat Chet tillari instituti, sharq tillari fakulteti, Email:dsalohiy@gmail.com; Toshkent shahri, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, jahon adabiyoti kafedrasi, Email:gxalliyeva@gmail.com).*

Mazkur o‘quv adabiyoti garchi sharq tillarini o‘rganuvchi talabalarga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, undagi yangi adabiy-ilmiy material, adabiy-

ma’rifiy yo‘nalishdagi tahlil natijalari hamda xulosalar katta va kichik ilmiy izlanuvchi xodimlar, adabiyot tarixi mutaxassislari uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

MUALLIFLARdan

1 - MAVZU:NIZOMIDDIN MIR ALISHER NAVOIY IJODINING O‘RGANILISHI HAYOTIGA DOIR MUHIM MA’LUMOTLAR

Dars rejasi:

1.1. Alisher Navoiy ijodiy merosining o‘rganilish tarixi va manbalari.

1.2. Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosi. Shoir yoshlik lirikasida hayotiy tafsilotlar.

1.3. Alisher Navoiyning Samarqand davri hayoti.

Tayanch so‘z va iboralar: *Hirot, Sulton Husayn Boyqaro, Sayyid Hasan Ardasher, shoir ajdodlari, Mashhad, voqeaband g‘azal, Samarqand, Abullaysiylar xonadoni.*

1.

Turkiy xalqlar osmonining so‘nmas yulduzi, ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy jahon adabiyotining buyuk so‘z san’atkorlaridan biridir.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevrali (hijriy 844-yil ramazon oyining17-kuni) da Sohibqiron Amir Temurning o‘g‘li Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Hirotda dunyoga keldi. Otasi G‘iyosiddin Muhammad temuriylar saroyining amaldorlaridan hamda bu xonadonning ishonchli kishilaridan biri edi. U o‘g‘lining tarbiyasi va o‘qishiga jiddiy e’tibor beradi. Yosh Alisher Navoiyning she’riyatdagi ilk ustozlari - tog‘alari Mir Sayyid Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiylardir. Navoiy bu ulug‘ zotlarni “Majolisun-nafois” asarida ehtirom bilan tilga oladi. Kichikligidan she’riyat va musiqaga qiziqqan Navoiy olimu fozillar davrasida voyaga yetdi. Bo‘lajak temuriy hukmdor, Hirot taxtida qariyb yarim asr podshohlik

qilgan Sulton Husayn Boyqaro bilan birga o‘sdi, ta’lim oldi va ulg‘aydi.

1447-yilda Shohrux Mirzo vafot etgach, temuriy shahzodalar o‘rtasida Hirot taxti uchun kurash boshlandi. G‘iyosiddin Muhammad xonadoni ham bu notinch davrda ko‘p qatori vatanni tark etdi. Iroqqa yo‘l olgan Navoiylar oilasi Taft shahrida to‘xtaganda, yosh Alisher zamonasining mashhur tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi va uning e’tiboriga sazovor bo‘ladi.

1451-yilda Alisherlar oilasi Hirotga qaytadi. 1452-yilda Hirot taxtiga Abulqosim Bobur Mirzo o‘tiradi. Navoiyning otasi Sabzavorga hokim qilib jo‘natiladi. Ammo, oradan ko‘p o‘tmay, G‘iyosiddin Bahodir dunyodan ko‘z yumadi. Bu paytda Alisher Navoiy 12 yoshda edi. Abulqosim Bobur Mirzo Husayn Boyqaro va uning maktabdosh do‘sti Alisher Navoiyni o‘z tarbiyasiga oladi va 1459-yili o‘zi bilan Mashhadga olib ketadi. Bu yillar davomida Alisher Navoiy Mashhad madrasalarida ilm egallash bilan shug‘ullandi. Bir munosabat bilan u 50 ming bayt she’r yod olganini aytadi. She’r yodlash o‘sha davr yoshlari uchun ma’rifat, tafakkur mashqi ham edi.

She’riyatga qiziqish yosh Alisherni ijod qilishga undaydi. Uning 7-8 yoshlardan boshlab she’r yozgani ma’lum. 1455-1458-yillar xotiralarida Navoiy “Faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutib erdi”, - deb yozadi. Zamonasining mashhur kishilari bilan yaqindan tanishuv, ulardan saboq olish Navoiy dahosining yuksalishiga ham sabab bo‘ldi. 1464-yilda Navoiy Hirotga qaytadi. Biroq, poytaxtdagi noxushliklar sabab u Samarqandga yo‘l oladi. 1465-1469-yillarda Alisher Navoiyning hayoti asosan Samarqandda o‘tdi. Bu yerda yirik qomusiy olim, huquqshunos va arab tilshunosligi bilimdoni Xoja Fazlulloh Abullaysiy madrasasida ta’lim oldi. Samarqand hokimi Ahmad Hojibekning rag‘bat va homiyligida ilm sirlarini olishga

harakat qildi. Samarqandlik shoirlar Uloyi Shoshiy, Yusufshoh Badiiy, Safoyi Andijoniy, Riyoziy, Javhariy, Xavofiylar bilan yaqin munosabatda bo‘ldi. Keyinchalik bu shoirlar haqida Navoiy o‘zining “Majolisun-nafois” asarida ma’lumot beradi. 1465-1466 yillarda Navoiyning muxlislari u yozgan she’rlarni to‘plab devon tuzdilar. Bu asar keyinchalik “Ilk devon” nomi bilan mashhur bo‘ldi.

1469-yilda Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaydi va Alisher Navoiyni Hirotga taklif etadi. Ulug‘ shoir voqeadan xabar topishi bilan do‘sti huzuriga qaytadi, ramazon hayiti munosabati bilan do‘sti sharafiga bitilgan “Hiloliya” qasidasini unga taqdim etadi.

Sulton Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni o‘z saroyida muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi. Ana shu vaqtdan boshlab shoirning davlat xizmatidagi faoliyati boshlanadi. 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda Bosh vazir, 1487-1488-yillarda Astrobod hokimi bo‘lib xizmat qiladi. Sulton Husayn Boyqaro uni o‘ziga g‘oyat yaqin tutar, har bir masalada u bilan maslahatlashar va uning maslahatlarini nihoyatda qadrlar edi.

Bu davrda Hirot nihoyatda ko‘rkamlashdi, xalq turmushi yaxshilandi, nafis san’atlar rivoj topdi. Bir qancha madrasa, shifoxona, xonaqohlar qurildi, ariqlar, kanallar qazildi. “Amiri kabir”ning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirlar qo‘lyozmalarni oqqa ko‘chirish, ularni badiiy bezash ishlarini bajardilar. Madrasalarni, shifoxonalarni jihozlash, ta’mirlash uchun vaqf yerlar ajratildi, mudarrislar, tabiblar va boshqa xodimlarga maosh tayinlash, kiyim-bosh belgilash, talabalarga nafaqa berish, kitoblar bilan ta’minlash ishlarini shaxsan Navoiyning o‘zi nazorat qilib turdi. Shoir o‘z huzuriga tez-tez she’r, ilm va san’at ahlini chorlab, ma’rifiy suhbatlar uyushtirib turar, yosh iste’dodlarni tarbiyalar, ulargailm olish va ijod qilish uchun sharoit yaratib berar edi.

Alisher Navoiyga bag‘ishlangan tarixiy va ilmiy asarlarda batafsil tavsif qilinishicha, 1469-1481-yillar Navoiyning ijtimoiy hayot va obodonchilik borasidagi eng faol xizmat ko‘rsatgan yillari bo‘lgan. Shoir 1481-yilda “Vaqfiya” asarini yozib, unda o‘zining binokorlik va xayriya ishlariga yakun yasaydi.

Tarixchilarning yozishlaricha, Navoiyning bir kunlik daromadi 18 ming shohruxiy dinor miqdorida bo‘lgan. Ulug‘ Amir bu daromadning katta qismini xayrli ishlarga sarf qilgan. Tarixchi Xondamir Navoiy qurgan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko‘prik, bir qancha to‘g‘on, ariq, hammom, masjid-madrasalarni qayd etadi. Navoiy turli soha olimlariga homiylik qilib, o‘nlab ilmiy risolalarning yozilishida bevosita sababchi bo‘lgan. She’r ilmining bilimdoni Atoulloh Husayniy, ko‘p fanlarni egallab shuhrat qozongan Husayn Voiz Koshifiylar Navoiy homiyligida o‘zlarining tarixiy asarlarini yaratadilar. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida “Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy (madadkor) ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay...”, deb yozadi va shoir tarbiyasidagi musiqachilar - Qulmuhammad, Shayx Noyiy, Husayn Udiylarni, musavvirlar - Behzod va Shoh Muzaffarlarni ehtirom bilan tilga oladi.

Alisher Navoiy o‘z davri adabiy muhiti an’analariga ko‘ra, she’rni, shoirlikni hamma narsadan ustun deb bildi. Vaziri a’zamlik martabasida turib ham she’r yozishni to‘xtatmadi. Uning ilk she’riy devonini muxlislari tuzgan bo‘lsalar (1465-1466 yillar), birinchi she’riy devoni “Badoe ul-bidoya” (“Badiiylikning ibtidosi”) 1472-1476-yillarda tuzildi. 1480-1487-yillarda ikkinchi devon - “Navodir un-nihoya” (“Behad nodirliklar”) muxlislarga tuhfa qilindi. 1492-98-yillar oralig‘ida ulug‘ shoir o‘zining to‘rt devondan iborat bo‘lgan muhtasham asari – “Xazoyin ul-maoniy” devonlar to‘plamiga tartib beradi.

Shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan “Xamsa” asarini yaratish Navoiyning buyuk orzusi edi. Hatto shoir Samarqandga yo‘l olar chog‘ida otaxoni va yaqin do‘sti Sayyid Hasan Ardasherga yo‘llagan “Masnaviy” sida “Xamsa” yaratish uchun 2-3 yil kifoya ekanligini, ammo, bunga imkoni yo‘qligini yozgan edi. 1483-yilda shoir ushbu buyuk ishga qo‘l uradi va bir yarim yil davomida 50 ming misradan ortiq besh dostondan iborat asarni nihoyasiga yetkazadi.

1485-yilda Sulton Husayn Boyqaroning “Risola” asariga javoban “Nazm ul-javohir” asarini yaratadi. Asar muqaddima, 268 ruboiy va bir xotima-ruboiydan iborat bo‘lib, Hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” hikmatlar majmuasidagi hikmatlariga munosabat bildirilgan.

1488-yilda ulug‘ shoir tarixda o‘tgan payg‘ambarlar, hakimlar, Ajam shohlari hayoti, qilgan ishlari haqida hikoya qiluvchi “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Nabiylar va hakimlar tarixi”) va “Tarixi muluki Ajam” (“Ajam shohlari tarixi”) asarlarini yaratadi. Shoir podshoh rutbasidagi kishining darvesh xulqli bo‘lishini, har qanday holda ham kamtarin bo‘lib qolishini ta’kidlaydi.

1480-yillarning oxiri, 1490-yillar boshida Navoiyning yaqin do‘stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher (1489), Abdurahmon Jomiy (1492), Pahlavon Muhammad (1493) ketma-ket vafot etadilar. Navoiy ularga bag‘ishlab “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlarini yozdi. Bu asarlar nasriy bo‘lib, shoirning ulug‘ zamondoshlari haqidagi memuar xotiralaridan iborat edi.

1491-yilda muammo janriga bag‘ishlangan “Risolai muammo” asarini forsiy tilda yaratdi. Davr shoirlari haqida ma’lumot beruvchi tazkira asari “Majolisun-nafois” va islom ma’naviyatining buyuk siymolari haqidagi “Nasoyim ul-muhabbat” asarlari ham shu yillarda yaratildi. 1492-yilda aruz ilmiga bag‘ishlangan “Mezon ul-avzon” risolasini yozdi. 1492-1498-yillarda, yuqorida she’riy devonlar

munosabati bilan ma’lumot keltirilgan to‘rt devondan iborat “Xazoyin ul-maoniy” asarini yaratib, devon tuzishning mumtoz namunasini o‘z o‘quvchilariga tuhfa qildi. XIX asrdan boshlab “Chor devon” nomi bilan shuhrat topgan ushbu buyuk majmua 45 ming misraga yaqin 16 janrga mansub bo‘lgan 3132 ta she’rni o‘zida jamlagan.

1498-yilda “Lison ut-tayr” dostonini, 1499-yilda “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini, 1500-yilda “Siroj ul-muslimin” risolasini, “Mahbub ul-qulub” asarlarini yozdi. Navoiyga lug‘atshunoslik sohasidagi “Sab’atu abhur” risolasi va o‘q otish sir-asrorlari haqidagi “Risolayi tir-andoxtan” asari ham nisbat beriladi.

Alisher Navoiy arab va fors tillarini puxta bilgan va bu tillarda ham ajoyib asarlar yozish qudratiga ega edi. U 12 ming misra forsiy she’rlarni o‘z ichiga olgan “Devoni Foniy” asarini, shuningdek, “Mufradot” risolasini, “Sittayi zaruriya”, “Fusuli arbaa” turkum qasidalarni tuzdi.

1490-yillarning boshlaridagi og‘ir yo‘qotishlar, ayniqsa, ustozi Abdurahmon Jomiy, 40 yillik qadrdoni Pahlavon Muhammaddan judo bo‘lish Navoiyga qattiq ta’sir qildi. Sulton Husayn Boyqaro bilan farzandlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar ham Navoiyning sog‘lig‘iga ancha putur yetkazdi. Shoirning haj ziyoratiga borish orzusi ham ota-bolalar mojarosi tufayli amalga oshmay qoldi.

2.

Nizomiddin Amir Alisher Navoiyning yoshlik ayyomidagi hayoti haqida ko‘p tarixiy va ilmiy asarlarda qisqa-qisqa ma’lumotlar uchraydi. Shoirning 20 yoshlaridan keyingi hayoti tafsilotlari tarixiy manbalarda ancha mufassal yoritilgan.

Navoiyning yoshlik yillari haqida so‘z borganda, uning temuriylar oilalari bilan yaqinligi aytib o‘tiladi. Uni temuriy shahzodalardan Husayn Boyqaro Mirzo bilan ko‘kaldosh ekanligi,

ya’ni, bir enaganing tarbiyasini olganligini Xondamir o‘zining «Makorim ul-axloq» asarida ta’kidlaydi. Mirxond «Ravzat us-safo» asarida esa Amir Alisherning bobosi Sohibqiron Amir Temurning o‘g‘li Umarshayx Mirzo bilan ko‘kaldosh bo‘lganligi haqida ma’lumot bor.

Bundan ko‘rinadiki, Alisher Navoiyning bobosi bo‘lmish G‘iyosiddin Bahodirning otasi Amir Temur saroyida shahzodalar bilan birga bir onaning tarbiyasida voyaga etgan. Ularga G‘iyosiddin Bahodirning katta onasi – buvisi ko‘krak suti bilan boquvchi enaga bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Chunki Shahanshoh o‘zining shavkatli kunlarida dunyoga kelgan o‘g‘lini ko‘krak suti berib boqish uchun eng pokiza, taqvodor, sog‘lom va e’tiborli oilalardan birining – Navoiy ajdodlari xonadonining yangi farzand ko‘rgan bekasini saroyga taklif qilgan. Shunga ko‘ra G‘iyosiddin Bahodurning otasi va Umarshayx Mirzo yoshlari qariyb teng bo‘lgan.

Oilaviy an’analarga ko‘ra, shoirning otasi G‘iyosiddin Bahodur ham temuriy shahzodalardan biri bilan ko‘kaldosh bo‘lgan bo‘lishi mumkin. U Shohruh Mirzoning e’tiborli mulozimlaridan bo‘lgan. Shohruh Mirzo vafotidan keyin Hirot taxtiga o‘tirgan Abulqosim Bobur Mirzo uni Sabzavor hokimi etib tayinlagan. Kichkina Alisher tug‘ilganidanoq shoh saroyida tarbiyalanishidan u ham kelajakda shu saltanat sohiblarining ishonchli, sadoqatli kishilaridan biri sifatida davlat tinchligi va ravnaqi uchun jon kuydiruvchi arbob bo‘lib yetishishi ko‘zda tutilgan edi.

Tarixiy manbalardan shoirning rasman davlat xizmatiga kirishi 1469 milodiy, ya’ni Sulton Husayn Mirzo Xuroson taxtiga chiqish yili, deb ko‘rsatiladi. Shu yili Navoiy saroy muhrdori lavozimiga tayinlanadi va unga katta imtiyoz, martaba, mulk beriladi.

Shoir bolalik yillarida Hirotda, keyin Mashhadda, keyin yana Samarqandga ketgunga qadar Hirotda yashagan davrlarida biror mas’uliyatli davlat xizmatini bajarmagan. U bu davrda Xurosonda

mashhur shoir bo‘lib yetishgan. Abusaid Mirzo saroyida o‘z qobiliyati va kuch-qudratiga munosib biror vazifani bajarishni umid qilgan. Afsuski, shoir ma’lum muddatga Hirotni tashlab ketishga majbur bo‘ladi va yosh yigitning orzu-umidlari Samarqandda ro‘yobga chiqadi.

Buxoro amiri Abdullaxonning o‘g‘li Abdulmo‘minxon o‘zining – «Tom ut-tavorix» («Tarixlarning tugali») asarida Navoiyga maxsus bob bag‘ishlaydi. Uning bergan ma’lumotiga ko‘ra, Alisher Navoiy Samarqandda Sulton Ahmad Mirzoning mulozimi edi, «Chig‘atoy amiri» degan mansabga ega edi. Bu haqda «Majolis un-nafois» ni fors tiliga o‘girgan tarjimon Sulton Muhammad Faxriy Hirotiy ham shunday ma’lumot beradi: «Darhol Husayn Mirzo bir kishini yuborib, Sulton Ahmad Mirzodan Navoiyni talab qildi». Amirlik mansabi Navoiy hazratlarining ona tomon ajdodlaridan meros edi: bobosi – Amir Abusaid Chag, tog‘alari – Mir Kobuliy, Mir G‘aribiylar davlat xizmatidagi shaxslar bo‘lganlar.

Shoirning onasi haqida ham ba’zi tafsilotlarni aniqlash mumkin. O‘z farzandi qatorida Sulton Husayn Boyqarodek shahanshohni bag‘riga bosib katta qilgan bu mo‘tabar ayol Xuroson amirlardan Abusaid Changning qizi bo‘lgan. U turkiy – jaloyir urug‘iga mansub bo‘lgan. Buni shoir vafoti bilan bog‘liq bir ma’lumot tasdiqlaydi. Navoiy kitobdorlaridan biri Mavlono Ali Burhoniy shunday deydi: Navoiy podshohni kutib olishdan oldin bir she’r yozgan ekan. U kitobdorni yarim kecha chaqirib, «ko‘chir», deb buyruq beradi. Ko‘chirilgan uch baytdan iborat she’rni bir yigit orqali podshohga jo‘natadi:

Ne ko‘zum yoroy ul orazni manzur aylamak,
Ne tilim haddi oning otini mazkur aylamak.
Ya’ni ul ko‘nglumda, bal jonimda dard o‘ti erur,
Ko‘z bila tilni aning ishqida ma’zur aylamak.

Ey Navoiy, qil fido jong‘akim jon, lof erur –
Oshiq o‘zni ishq da’vosida mashhur aylamak.

Navoiy Shoh bilan Raboti Shohmalik yaqinidagi Xoja Abbos degan joyda Hirotdan 11 tosh uzoqda, Astrobod yo‘lida uchrashadi. U shu uchrashuvdan so‘ng hijriy yil hisobi bilan payg‘ambar yoshi sanalmish 63 yoshida sakta kasali bilan vafot etadi. Navoiyning dafn marosimini shoirning tog‘asi Hasan Ali Jaloyir boshqargan. Shoirning jasadi o‘zi qurdirgan Masjidi Jome’ burchagidagi maqbaraga qo‘yiladi. Demak, shoir ona tomonidan jaloyir urug‘iga mansub ekan.[2]

Shoir onasining shaxsiyati haqida biror manbada aniq ma’lumot uchramaydi. Hatto, bu mo‘tabar ayol ismi ham noma’lum. Bu borada ilmiy farazlargina mavjud. Shoirning onasi qachon vafot etganligini ham biz bilmaymiz. «Nasoyim ul-muhabbat» asaridagi bir kichik ma’lumot o‘spirin Alisher podshoh Abulqosim Bobur Mirzo bilan yangi poytaxt Mashhadga ketguniga qadar onasi hayot bo‘lganligidan dalolat beradi. Navoiy bu asarda Mavlono Lutfiy bilan bo‘lgan muloqotlari haqida gapirib, shunday yozadi: «Bu faqir borasig‘a ko‘p iltifoti bor erdi va fotiha o‘qur erdi va doim volida mulozamatig‘a, rizoi xotirig‘a targ‘ib qilur erdi». Ushbu parchadan ma’lum bo‘lishicha, Navoiy Mavlono Lutfiy huzuriga borib yurgan yillarida onasi hayot bo‘lgan, Lutfiy unga onasini rozi qilishni nasihat qilgan.

Alisher juda kichikligidanoq fazilatli, ulug‘ kishilar davrasiga intilgan. Taft cho‘llarida mashhur Sharafiddin Ali Yazdiy o‘ynab yurgan bolalardan birini yoniga chorlaganda, birinchi bo‘lib Alisher yugurib borgan va Shayxdan duo olgan. Hirotga qaytgach esa tabiatan ilmtalab Alisher shahar aslzoda zodagonlari xonadonlaridagi she’riyat majlislarida ishtirok etgan. Lutfiyshunos olim E. Ahmadxo‘jayev Alisherning eng yaqin do‘sti, keyinchalik

[2] Qarang: P. Ravshanov. Tarix badiiyati. Toshkent, 1989. 47-b.

sohibdevon shoir Shayximbek Suhayliy haqida shunday yozadi: «Lutfiyning diqqat-e'tibori va muhabbatini juda erta qozongan va uning doimiy do'stona munosabatiga sazovor bo'lgan yosh Alisher Navoiy qalbi she'riyatga muhabbat bilan to'lgan yosh do'sti Suhayliyni ulug' shoir bilan tanishtirgan bo'lishi mumkin». Ushbu muallifning fikricha, bu uchrashuv va do'stlik munosabatlarining boshlanishi Lutfiyning 90 yoshlariga, ya'ni 1456 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda Suhayliy 11-12 yoshlarda, Navoiy esa 14-15 yoshlarda bo'lgan.

H. Zaripovning «Navoiy Lutfiy bilan tanishuvi balki Sayyid Hasan Ardasher vositasi bilan bo'lgandir, chunki Sayyid Hasan Ardasherning uyida bo'lgan suhbatlarda Lutfiy g'azallari maqtalib o'qilar edi», deb yozadi.

Xuddi shu yillarda bo'lajak millat quyoshiga podshoh Abulqosim Bobur Mirzo e'tibor beradi va uni davlat xizmatiga tayyorlab tarbiyalash uchun o'zi bilan birga Mashhadga olib ketadi. Ammo, umri vafo qilmay Bobur tez orada vafot etadi, Navoiy esa Mashhaddan Hirotga mashhur shoir sifatida qaytadi.

Yosh Alisherning Mashhadga ketgunga qadar bo'lgan hayotida yuz bergan bir ajoyib voqea uchqunlari bizgacha etib kelgan. Navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov «Bolalikning she'riy ixtirolari» nomli maqolasida Alisher maktabga qatnab yurgan yillarida o'zi bilan hamsabaq bo'lgan, nihoyatda odobli, oyga yoki yulduzchaga o'xshagan bir qizchani toza muhabbat bilan sevganligini ma'lum qiladi. Bunga shoirning «Qachon maktabda ul mohi muaddab» misrasi bilan boshlanuvchi g'azalini misol keltiradi. G'azal mazmunidan ma'lum bo'lishicha, yosh Alisher qizchani chaqirib, uchrashish uchun uning muallimiga xat kiritib iltimos qiladi:

Muallim qullug‘iga xat berurmen,
Gar ozod o‘lsa ul sarvi shakarlab.

Shu mazmundagi ma’lumot shoir forsiy she’riyati majmuasi bo‘lmish «Devoni Foniy»dagi «Dar bayoni voqe’» (Bo‘lgan voqea bayoni) deb nomlangan g‘azalida ham bor. G‘azal:

So‘yi gulshan raftamu sarvi xiromonam nabud,
Girya zo‘r ovard, k-on gulbargi xandonam nabud.,

deb boshlanadi. Ma’lum bo‘lishicha, yosh Alisher o‘zi sevgan qiz bilan bir bog‘da (shubha yo‘qki, qizning bog‘ida) uchrashishga va’da olgan. Ammo, u boqqa kelganda uni «raqiblar» (balki qizning aka-ukalaridir) kutib olishgan va o‘rtada jang bo‘lgan. Bu paytda yomg‘ir yog‘ib turgan edi, deydi shoir. Ammo, men raqib bilan shunday olishdimki, o‘sha paytda qotil qo‘riqchilarga ishqim siri ayon bo‘ldi va menda jon g‘ami ham yo‘q edi:

Bo nigahbononi qotil sirri ishqam shud ayon,
Z-on ki az badholi on soat g‘ami chonam nabud,

deydi.

Yosh Alisher hayotining Mashhadga borgunga qadar bo‘lgan ba’zi tafsilotlari, samimiy, bolalarcha muhabbati uchqunlari ana shulardan iborat. Shoirning betakror sevgi qissasining keyingi davr tafsilotlari o‘zbek adabiyotshunos olimlari A. Hayitmetov, B. Valixo‘jayev, I.Salohiy kabi olimlar tadqiqotlarida ancha batafsil yoritilgan.

3.

Rub’i maskunning sayqali deya ta’riflanmish azim shahar Samarqand tariximizda o‘tgan ko‘pgina mutafakkirlar taqdirida

yorqin iz qoldirgan. Qadimul ayyomdan, miloddan avvalgi VIII asrlardan buyon bu muqaddas yurtga qarab yo‘l olgan ilm va ma’rifattalablarning, ustoz va murshidtalablarning qadamlari tingani yo‘q. She’riyat mulkining sohibqironi Amir Nizomiddin Alisher Navoiyni ham hayotining eng mas’uliyatli davrlarida shu shahar mehr bilan o‘z bag‘riga olgan edi. Buning natijasi sifatida esa Samarqand bir umr shoir qalbida nodir injudek taassurot qoldirdi, dilbar insonlarning siymosi esa shirin xotira bo‘lib qoldi.

Alisher Navoiy Movarounnahrning markazi bo‘lmish Samarqandni jannatlarga tenglashtirib «Samarqandi firdavsmonand» deb ataydi. Uning tasavvurida Samarqand – jannat, atrofidagi ariqlar ham jannat ariqlari. Rudi Ko‘hak (Zaraf shon daryosining) suvi asal bilan tengdir. Bu suv bemorni davolaydi. Undan butun Samarqand vodiysi bahramand bo‘ladilar. Samarqanddagi Ko‘hak (Cho‘ponota tepaligi) jahon xazinasining tilsimotidir. Undagi hatto «ushoq toshlar» ham «la’lu inju» bilan tengdir, o‘t-o‘lanlarning yam-yashil rangi moviy osmonni eslatadi.

Hazrat Navoiyning 24-25 yoshlarida Samarqandga qilgan safarlari, bu yerda kechirgan hayoti, bu sermashaqqat, ammo, farahli yillarning shoir keyingi ijodiga ta’siri masalalari samarqandlik olimlar tomonidan ancha mufassal tadqiq etilgan. O‘tgan asrning o‘rtalarida akademik Vohid Abdullayev ulug‘ shoirimizning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqida fundamental tadqiqot yaratdi. Bu tadqiqot bugungi kunga qadar ham o‘zining yuksak ilmiy qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Uning navoiyshunoslikdagi ahamiyati shundan iboratki, buyuk shoir hayoti davrlarining Mashhad, Hirot (Samarqandga kelgunga qadar), Astrobod tafsilotlari mufassal yoritilmagan. Fanimiz bu sohada umumiy ma’lumotlar bilan kifoyalanmoqda. Buning o‘ziga xos sabablari ham bor, albatta. Navoiy Mashhadda juda yoshlik davrlarida bo‘lgan. Uning bu yerdagi faoliyati asosan o‘qish-o‘rganishdan iborat bo‘lib, uni

qurshagan adabiy-ma’rifiy muhit haqida o‘z asarlarida ma’lumotlar qoldirgan. Astrobodda esa shoir bor-yo‘g‘i bir yil bo‘lgan. Shuning uchun uning bu davr hayoti tafsilotlarini yoritishning mushkullik jihatlari bor. Samarqandda esa shoir ongli hayotining eng jo‘shqin davri kechdi. U bu yerga mashhur shoir bo‘lib keldi. Samarqand hokimi Ahmad Hojibek Vafoiy uni o‘z martabasiga munosib tarzda izzat-ikrom qildi, samarqandlik yirik olimlar unga dars berganlarida alohida e’tibor bilan munosabatda bo‘ldilar. Ammo eng muhim va jiddiy masala borki, bu Samarqandning hazrat Navoiyning Mashhadda Shayx Kamol Turbatiy, Pahlavon Muhammadlar vositasida shakllana boshlagan falsafiy-ma’rifiy, diniy-tasavvufiy qiziqishlari bir o‘zanga tushishiga yo‘l ochgan, bu sohadagi dunyoqarashi takomiliga imkon yaratgan shaharlaridan biri ekanligidir. Akademik Boturxon Valixo‘jayevning ilmiy asoslangan mantiqiy xulosalariga ko‘ra, hazrat Navoiy Hirotdan chiqib ketishni niyat qilar ekanlar, qaysi shaharni tanlash o‘zlarining ixtiyorlarida edi. Ul zot Kamoli Turbatiydek, Pahlavon Muhammaddek do‘stu yorlari bor bo‘lgan yer - Mashhadni tanlashlari ham mumkin edi. Buning ustiga, shoir Hirotdan ketishni niyat qilgan paytlari otaxonlari Sayyid Hasan Ardasher ham Mashhadda edi. Ammo, Navoiy Samarqandni tanladi. Chunki bu yerda aqli kamolga yetgan, qalamining shuhrati keng yoyilgan yosh shoirni mehrigiyo singari o‘ziga tortib turgan yangi ilm – ilmi irfon darg‘asi, murshidi komil Hazrati Nosuruddin Xoja Ubaydulloh Ahrori Vali bor edilar. Navoiyning Samarqanddagi tahsil yillari, ul zotni qurshagan ma’naviy, adabiy muhit, shoir va Abullaysiylar xonadoni, shoirning mashg‘ulotlari va bilim doirasi, adabiy faoliyati, uning Hirotga qaytishi va Samarqand bilan doimiy munosabatda bo‘lishi, Navoiyning samarqandlik izdoshlari kabi mavzular akademik V.Abdullayev ilmiy tadqiqoti va «Navoiy Samarqandda» deb nomlangan monografiyasida keng tahlil etilgan bo‘lsa, keyingi yirik

navoiyshunos olim B. Valixo‘jayev shoir faoliyatining yangi tafsilotlariga ahli ilm e’tiborini tortdi. Olim Navoiyning Shayx Xoja Ahrori Vali nazariga tushishi, uning iltifotlariga musharraf bo‘lishi, yirik faqih Xoja Fayzulloh Abullays Samarqandiy va uning oilasi bilan munosabatlari, Samarqandda yaratilgan yoki bu shahar bilan bog‘liq asarlari xususida fikr yuritadi. U o‘zigacha yaratilgan tadqiqotlarni to‘ldirishga, yangi ilmiy faktlar bilan boyitishga intilar ekan, shoirning naqshbandiya tariqatiga rasman kirishi ham Samarqand bilan bevosita bog‘liq edi, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Uning kuzatuvlariga ko‘ra, shoir o‘zining piri, shayx Nuriddin Abdurahmon Jomiy bilan ham Samarqand safarida, karvon yo‘llarida uchrashgan edi. Olim Navoiyning samarqandlik yoru birodarlari, eng qadrli hamsaboq do‘stlari bilan munosabatlarini ham nazardan qochirmaydi.

Navoiyning Samarqandda yozilgan:
Ko‘kragimdir subhning pirohanidin chokrok,
Kiprigim shabnam to‘kilgan sabzadin namnokrok.

matlasi bilan boshlanuvchi ajoyib diltortar g‘azali haqida qiziqarli ma’lumotlar keltiradi.

Olimning yozishicha, yosh Alisher Samarqand bozorida kitob rastalarini tez-tez aylanib, o‘zini qiziqtirgan asarlarni topib o‘qishni odat qilgan edi. Bir kuni rasta aylanayotib, baland ovoz bilan bir baytni nihoyanda go‘zal xirgoyi qilayotgan bir tilamchini uchratib qoladi. Tilamchi yosh, baquvvat, ovozi ham bag‘oyat shirali edi. Bayr mazmuni va ohangi Navoiyga juda yoqib qoladi. Shu boisdan tilamchining yoniga borib, shu baytni sotib olish niyati borligini aytadi. Tilamchi: “Sotib olish shart emas, shunday yodlab olib, o‘qib yuravering”, deydi. Yosh Alisher tilamchiga: “Men baytni shuning uchun sotib olmoqchimanki, Siz uni bundan keyin o‘qib yurmaysiz”,

deydi. Tilamchi bu taklifga rozi bo‘lmaydi. Chunki u shu bayt vositasi bilan ro‘zg‘or boqar, bola-chaqa katta qilayotgan edi.

Oradan yillar o‘tadi. Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga qaytib, Sohibqiron Sulton Husayn Boyqaro saroyida Vaziri a’zam martabasida faoliyat yuritadi. U bir munosabat bilan yana Samarqandga keladi va Samarqand bozoriga yo‘li tushadi. Ittifoqo, qulog‘iga bundan ancha yillar oldin o‘zini maftun etgan bayt chalinadi. Ulug‘ shoir o‘girilib qarab, xirgoyi qiluvchini ko‘radi va taniydi. Bu o‘sha yosh shoirga yoqib qolgan baytni sotmagan gado edi.

Shoir unga yaqin kelib o‘zini tanishtiradi va hamon o‘sha niyati borligini aytadi. Endi gado bu taklifga rozi bo‘ladi va baytning narxi - shaharning tinch xiyobonlaridan birida bir hovli, bir tegirmon va bir eshak bo‘ladi, deydi. U shoirga kuchi ketib, ovozidan ham fayz ketganini, yoshlikdagi kabi bozorlarni keza olmasligini, qarilikda tinchgina tegirmonda mehnat qilib, kun o‘tkazmoqchi ekanligini aytadi. Navoiy darhol rozi bo‘lib, keksa otaxon so‘ragan narsalarning hammasini muhayyo qiladi va shu tariqa baytni sotib oladi. Shundan so‘ng ulug‘ shoirning yuqorida keltirilgan matla’li go‘zal g‘azali dunyoga keladi.

Shoirning zulqofiyatayn san’ati bilan darj etilgan, o‘tkir fahm-farosati bilan «saromadi zamona» sanalgan do‘sti Mirzobek xotirasiga yozib tugatilgan

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur,
Kim jonga qaro balo bo‘lubtur

deb boshlanuvchi g‘azali ham Samarqanddagi ijodiyoti namunalaridan biridir. U do‘sti qalami natijasi bo‘lgan mazkur matlani uning xotirasini abadiylashtirish uchun to‘liq g‘azal holiga keltirganligi haqida «Majolis un-nafois» tazkirasida ma’lumot beradi.

Navoiyning Samarqanddagi adabiy-ilmiy faoliyati hali juda koʻp tadqiqotlar uchun mavzu boʻlishi mumkin. Navoiyshunoslik sohasida izlanishlar olib boruvchilar shoirning bu yerda aniq va tabiiy fanlarni oʻrganish boʻyicha qilgan say'-harakatlari, qiziqishlari doirasi haqida chuqurroq fikr yuritmoqlari, uning maktuboti (yozishmalari)dagi Samarqand bilan bogʻliq tafsilotlarga aniqlik kiritishlari, Samarqanddagi qadamjolari xaritasi xususida oʻylab koʻrmoqlari lozim koʻrinadi. Shoir she'riyatida osmon jismlari, sayyoralar bilan bogʻliq chuqur ilmiy mulohazalar koʻzga tashlanadi. Bu uning Mirzo Ulugʻbek rasadxonasida olgan ta'limi samaralari emasmikin? Shoir asarlarida qimmatbaho toshlar, javohirlar haqida ham teran ilmiy tushunchalar, tashbehlar, badiiy lavhalar uchraydi. Bu bevosita Navoiyning biror javharshunos ustozi ham boʻlgandir, degan tasavvur uygʻotadi.

Bu kabi qator savollarga javob topish uchun hali samarqandlik tolibi ilmlar ixlos bilan juda koʻp izlanishlar olib borishlari lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Shoir oilasi a'zolarining shaxsiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Navoiy taqdirida hukmdor shaxslar ta'siri qanday boʻldi?
3. Navoiyning shaxsiy sevgi fojiasi tafsilotlari haqida nimalar deya olasiz?
4. Alisher Navoiyning Samarqanddagi ijodiyotidan nimalarni bilasiz?
5. Navoiy Samarqandda qaysi olimlar dargohida tahsil oldi?
6. Navoiy falsafiy-soʻfiyona dunyoqarashi shakllanishida Samarqanddagi hayoti qanday oʻrin tutadi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Abdullayev V. Navoiy Samarqandda. - Toshkent: Badiiy adabiyot - 1968. 136 b.
2. Abdullayev V. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. - Toshkent: Fan, 2002.
3. Valixo‘jayev B. Alisher Navoiyning Samarqanddagi qadamjolari //Muloqot.- 1991.- № 2. - B.23-31.
4. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. II jildlik, I-jild. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002.
5. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. Buxoro: Buxoro, 1994.
6. G‘aniyeva S. Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asari va samarqandlik shoirlar // O‘zbek tili va adabiyoti.- 1970.- № 6. - B.24-28.
7. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. Toshkent: Adabiyot va san’at, 1973.
8. Qayumov A. Alisher Navoiy. Toshkent: Kamalak, 1991.
9. Mirzoev A. Alisher Navoi va Abdurahmoni Chomi. – Dushanbe: Irfon,1968. - 64 s.
10. Muhiddinov M. Navoiyning ishq bayoni//Saodat.- 1991.- № 3. - B.8-9.
11. Ravshanov P. va b. Tarix badiiyati. – Toshkent: FAN,1989. - 234 b.
12. Salohiy D. «Badoe’ ul-bidoya» malohati. –Toshkent: Fan, 2003.
13. To‘xliev B. Navoiyshunoslik. – Toshent: Bayoz. 2021.
14. To‘xliyev B. Falak ko ‘rmadi men kebi nodire (Navoiyshunoslikka bag‘ishlangan maqolalar to‘plami) -Toshkent: Bayoz, 2024.

2 – MAVZU: ALISHER NAVOIYNING LIRIK MEROSI DEVONLARI

Dars rejasi:

2.1. Alisher Navoiy she'riyati misolida sharq devonchiligi an'analarining yangilanishi.

2.2. Alisher Navoiy ijodida qadimiy turkona she'riyat an'analarining yangilanishi.

2.3. Navoiyning turkiy tildagi devonlari.

2.4. Devoni Foniy.

Tayanch so‘z va iboralar: *g‘azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, janr, badiiy san'atlar, devon, xazoyin.*

1.

Sharqda devon tartib berish an'anasi ancha qadimiy tarixga ega. Devon tartib berish, she'rlar majmuasini yuzaga keltirib kitob yaratish arablarda islom dinigacha bo‘lgan davrda ham mavjud bo‘lgan. Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" kitobiga yozgan so‘zboshisida Ismatulla Abdullayev sharqshunos olim I.Yu.Krachkovskiy so‘zlariga asoslanib, arab she'riyatida asosiy o‘rin tutgan qasida Muhammad (s.a.v.) dan bir yuz ellik yillar ilgari paydo bo‘lganligi haqida gapiradi.[3] Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, u paytlarda turli-tuman mavzularda yozilgan hamda hajv janrini ham o‘z ichiga qamrab olgan qasidalardan devon tuzish odat bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariyning yirik olim Solih Mutallibov tomonidan nashr etilgan nusxasida Koshg‘ariy tomonidan " shoir yozdi", " shoir dedi", degan iboralar ishlatiladiki, shuning o‘ziyoq turkiy tilli xalqlar orasida ham she'riy to‘plamlar

[3] Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr. – Toshkent: "Fan", 1976. 46-b.

yuzaga keltirish tajribasi uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin, biz tushunadigan ma'nodagi mumtoz devonlar 1X-X asrlardan keyin yuzaga kela boshlagan. Shubhasiz, she'riy majmua, devon tartib berishning o'ziga xos xususiyatlari, an'analari ham ana shu davrlarda shakllangan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, o'sha paytlarda devonlar qofiya yoxud radiflari ma'lum harflar bilan tugagan she'rlarni bir kitob shaklida muqova bilan ihotalash asosida kitob yaratishdan iborat bo'lgan. So'ngra, arab yozuvida yigirma sakkiz harf mavjud bo'lganligi uchun devonlarda ham ana shu harflarni ma'lum miqdordagi she'rlar bilan to'ldirish asosiy qoidalardan hisoblangan.

G'azal janri forsiy va turkiy tillardagi adabiyotlarda X asrlardan keyin shakllana boshlab, X1V asrlarda o'z takomilini topadi.[4] Ammo bu hodisa turkiy tildagi adabiyotda forsiy tildagi adabiyotga nisbatan qariyb bir asrdan ko'proq vaqt keyin sodir bo'lganligini ham qayd etib o'tmoq lozim. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" kitobida bitta-ikkitagina g'azal uchrashi fikrimizni asoslay oladi. Zeroki, bu davrlarda Nosiri Xusrav (1004-1088) kabi forsiygo'y shoirlar sohibidevon bo'lganlar. Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda devon tartib berishning yana boshqa talablari ham mavjud bo'lgan. Xususan, shoirlar devon tartib berganda unga hamd va na'tlardan keyin birinchi galda qasida janrida yozilgan she'rlarni kiritganlar, shundan so'nggina boshqa janrlardagi she'rlarga o'rin berilgan.

Alisher Navoiy devon tartib berishning bunday an'analariga tanqidiy munosabatda bo'lgan. Bu o'rinda navoiyshunos olim Yo. Is'hoqovning: "Navoiyning devon poetikasi sohasidagi mavjud an'analarga tanqidiy munosabati yigitlik davridayoq

[4] Qarang: Shayxzoda M. Asarlar. 6 tomlik. 4-t.: G'azal mulkining sultoni. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1972.

shakllangan”[5]ligi xususidagi mulohazasi zamirida katta haqiqat yotadi. Agar ulug‘ shoirning o‘zi tuzgan birinchi rasmiy devoni bo‘lmish “Badoe’ ul-bidoya” debochasidagi devon takomili yuzasidan bildirgan fikrlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Navoiyning faqat o‘z davri she’r shunosligidagina emas, balki umuman ko‘hna Sharq poetikasi sohasida ham kashshoflarcha yo‘l tutganligining guvohi bo‘lamiz.

“Badoe’ ul-bidoya” devoniga yozilgan debocha Alisher Navoiyning badiiy ijod masalalariga munosabatini o‘rganish jihatidan ham muhim ahamiyatga molikdir, shoirning ma’lumot berishicha, u “umr shabistoni sham’lari nuridan munavvar hamda yigitlik gullari atridan muattar” bo‘lgan davrlaridayoq uning ko‘ngliga mahbuba ishqi g‘ulg‘ula soladi. Natijada uning tilidan “nazm durdonalari to‘kila boshlaydi”. Uning yozgan she’rlari “xarobot durdno‘shlari, munojot xirqapo‘shlari, avom va fozil xalq orasida” mashhur bo‘ladi. O‘z zamonasining “karim ul-xulq ozodalari, azim u sh- sha’n shahzodalarining iltifotiga musharraf bo‘ladi”. Ayniqsa, tug‘ma iste’dod sohibi bo‘lgan Navoiyning ijodi temuriy shahan shoh Sulton Husayn Boyqaro nazariga tushishi uni badiiy ijod bilan jiddiy shug‘ullanishiga rag‘bat beradi. Bu yirik davlat arbobi, yuksak madaniyat va salohiyat sohibi bo‘lmish shaxs Navoiy ijodining ibtidosidan to intihosiga qadar eng samimiy muxlisi, mubohisi, mudaqqiqi bo‘lgan. Navoiy o‘z ijodining ilk davri va ilk tanqidchisi haqida debochada shunday samimiy so‘zlarni bitadi: “... matla’e yo ortuqroq yo tamom g‘azal tilim xomasi taqririg‘a kelsa erdi, filhol ani mushkbor qalam birla kofurkirdor safhag‘a raqam qilib, oqu qaroni andin maxtut qilur erdi va yana ham anga qarobat hisobliq tezfahm shahzodalar va musohib intisobliq xushtab’ mirzodalar mutaaddid savob qilib, soyir ulusqa yoyilur erdi va oshiqpesha beqarorlar jalisi mehnati va ma’shuq sheva gul’uzorlar

[5] Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: “Fan”, 1983. 12-b.

anisi suhbati bo‘lub, xavosu avom arosida ishtihori tamom va intishori molokalom topar erdi”.[6]

Debochada shoir o‘zidan avval o‘tgan va o‘ziga zamondosh bo‘lgan Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz Ssheroziy, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiylarni she’riyat fanining payg‘ambari darajasida e’tirof qiladi. Yosh qalamka shlardan esa o‘zining “forsiydisor va turkiy shior yori azizi” shayxim Suhayliyni katta hurmat bilan tilga oladi. Buning boisi shuki, bu shoirlar she’rlarida ma’no latif badiiy libosga omuxta qilingan holda yuzaga chiqarilgan, shunday ekan, Navoiy bu donishmand zotlarni:

Oyni yorug‘, charxni demak baland,
Tab’i baland elga emas dilpisand

degan haqiqatni anglab yetmagan shoirlardan ajratib ko‘rsatadi.

Debochada yana shu narsa e’tiborga loyiqki, badiiy ijod uchun osoyishta, ma’mur, adolatga asoslangan davlatning yuzaga kelishi, davlat boshlig‘ining esa dono, xalqparvar bo‘lishdan tashqari ma’rifatparvar ham bo‘lishi katta ahamiyatga egadir. Alisher Navoiy o‘z hayotining ma’lum davrlarida ana shunday imkoniyatga ega edi, ya’ni “mulk shabistoni bir davlat mash’ali bila rav shan bo‘ldi”. Davlat rahbari Sulton Husayn Boyqaro unig do‘sti, musohibi, muqaviyi, ijodining mudaqqiqi ham edi. Shuning uchun ham Navoiy yozgan har bayt shohbayt, har bir noma – shohnoma rutbasiga ega bo‘ldi:

Bo‘ldi, chu shoh surdi isloh etarg‘a xoma,
Har bayti – shohbayte, har noma – shohnoma.

[6] Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 1-j. – Toshkent: Fan, 1987. 13-b.

Navoiy ba’zi asarlarida Husayn Boyqaro shaxsiyati va siyosatidagi nuqsonlarni ham tanqid qilgan va shu yo‘l bilan podshoh saltanatining ravnaqiga foyda yetkazgan.

Alisher Navoiy birinchi devonini tuzishgacha bo‘lgan davrlarda badiiy ijodga o‘ta talabchanligidan o‘z she’rlarini “xo shok singari qadri arzon” deb hisoblar edi. Husayn Boyqaro unga badiiy ijod mahsuloti shoirga farzand bo‘lishi, hatto shoirninggina emas, elning ham farzandi sifatida qadr topishi haqidagi fikrlarni uqdiradi. Uning:

Ulus tab’ing sahobi yomg‘uridin,
Bo‘lub serob, bal nazming duridin

degan so‘zlaridan badiiy ijod faqatgina xususiy ish emas, balki ijtimoiy ish ekanligiga imon keltiradi hamda zudlik bilan devon tartib berishga kirishadi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy devonlarining tuzilish jihatidan avvalgi devonchilikdan farqlari asosan uning “Badoe’ ul-bidoya” devoniga yozgan debochasida bayon etiladi. U badiiy ijodda xalqqa foydali mazmunning muhimligi, badiiy shaklning ham go‘zal ishlangan bo‘lishi, g‘azal yaratganda ko‘proq mavzuning yakpora usulda yozilishiga e’tibor berish, har bir lirik nav’ xususiyatiga ko‘ra mazmun tanlash, sevgi-muhabbat mavzuidagi she’rlarda ham ma’rifatomez fikrlarni jo qilish, bu nav’ she’riyatda behayo tavsifni yo‘latmaslik kabi masalalar yoritilishiga e’tibor qaratadi. Bizningcha, Alisher Navoiyga devon tuzish masalasida shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy ibrat rolini o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Bu hodisa Alisher Navoiyning Hofiz Sheroziy haqida umrining oxirlarida yaratgan bir asarida: “asrori g‘aybiya va maoniyi haqiqiyaki, surat kisvatida va majoz libosida ado qilibdurlar”, deb yozishi, Hofiz she’rlarining “alfoz latiflig‘i, tarki pokizalig‘i, ado salosati va latofati, ma’ni g‘ariblig‘i” xususida havas bilan so‘zlashi va “hech devon

Hofiz devonidan yaxshiroq emas”, degan fikrga qo‘shilishi fikrimizga dalil bo‘la oladi.[7]

2.

Markaziy Osiyoda mo‘g‘ul istibdodidan so‘ng boshlangan turkiy yuksalish davrida turkiy tilda badiiy asarlar yaratishga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. X-XII asrlar o‘zbek diniy adabiyotida, xususan, Xoja Ahmad Yassaviy ijodida turkiy she’riyatning asosiy tarkibiy omillaridan biri bo‘lmish xalqchillik an’anasi – badiiy fikrning til va uslub jihatidan oddiy xalqqa tushunarli, ta’sirchan she’riy ifodasi ko‘zga tashlansa, XVI asr boshlaridagi adabiy yodgorliklarda nafaqat mavzu va mazmun, balki shakl jihatidan ham o‘ziga xos turkonalikka intilish, aniqrog‘i, turkiy qo‘shiq uslubi va vazniga murojaat etish hollari kuzatiladi. Nosiruddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziyning «Qisas ul-anbiyo» (1310/11) asarida turkiy qo‘shiqning Shoyon vaznlaridan biri ramali musammani maqsurda yozilgan she’rning uchrashi bunga bir misol bo‘la oladi:

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro‘zi,
Kechdi bahman, zamharir qish, qolmadi qori bo‘zi…

Haydar Xorazmiy Nizomiyning «Maxzan ul-asror» dostoni tarjimasiga kirishar ekan, turkiy tilda yozilishi lozim bo‘lgan nazmiy asarlarning badiiy jihatdan yuksak, ya’ni tom ma’noda turkona bo‘lishi uchun she’rning qo‘shiq janri bilan uyg‘unligi muhim talablardan biri ekanligini ta’kidlab, «Gulshan ul-asror» dostonida yozadi:

[7] Alisher Navoiy. Asarlar. XV tomlik. XV-t. – Toshkent: G‘afur G‘ulom n-dagi AS nashriyoti, 1970. 184-b

Turk zuhuridur oʻchunda bukun,
Boshla ulugʻ yir bila turkona un.
Rost qil ohangi navovu hijoz,
Tuz yotugʻon birla shudurgʻuni soz.
Turk surudini tuzuk birla tuz,
Yaxshi ayolgʻu bila koʻkla qubuz.

Turkiy tildagi xalqchil she’riyatning turkiy mumtoz she’riyat darajasiga yetish jarayoni, ma’lum boʻlganidek, XV asrning ikkinchi yarimlarigacha davom etadi. Bu ijodiy takomil jarayoniga Alisher Navoiy lirikasi yakun yasadi. Navoiy qadimgi oʻzbek tilining taqdiri yuzasidan Sulton Husayn Boyqaro amalga oshirgan siyosati va amaliy tadbirlarni oʻziga xos yoʻsinda qoʻllab-quvvatladi. Har ikki tilda (forsiy va turkiy) ijod qilish iqtidoriga ega boʻlgan Husayn Boyqaro oʻz asarlarini, asosan, oʻzbek tilida yaratganligi tasodifiy emas edi va Navoiy «Muhokamat ul-lugʻatayn» da yozishicha, uning tomonidan «…iltifot va ixtimom yuzidin ba’zi ma’nilar topib, nazm qilurgʻa hukmlar ham joriy boʻldi va soʻz uslubigʻa ta’yinlar va adosigʻa ta’limlar ham izhori boʻldi». Binobarin, u «Majolis un-nafois» ning 8-majlisida Husayniy gʻazallarining qofiya va radiflaridagi ixtirolarini ta’rif etadi. Navoiy turkiygoʻy shoirlar ijodida qofiya masalasiga jiddiy e’tibor berib (Atoiy baytini eslang), qofiyaning ohang jihatidan muvofiq boʻlishini turkona (ya’ni, sodda, xalqona, ogʻzaki ijod namunalariga yaqin) deb baholaydi. Biroq, bu hodisani klassik sharq she’riyati badiiy qonuniyatlari talablari nuqtayi nazaridan tanqid («aybgʻinasi») qiladi. Shoirning Husayniy devonidan keltirgan baytlari muzmunan turkona, qofiyaning asosi boʻlmish raviy nuqtayi nazaridan esa klassik adabiyot qofiya nazariyasi talablariga javob beradigan boʻlganligi sababli ham tahsinga sazovor boʻladi. Demak, shu munosabat bilan Navoiy Husayniyning ijodi turkiy she’riyatni mumtoz adabiyot poetikasi

qonun-qoidalari doirasiga kirishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lganligini bilvosita ta’kidlaydi. Turkiy she’riyatning badiiy qonuniyatlar tizimi talablariga yaqin, tabiiy rivojini yanada tezlatish uning adabiy-estetik o‘ziga xosligi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun nimalarga e’tibor qilmoq kerakligini Navoiy birinchi bo‘lib anglab yetdi. Eng avvalo, shoir turkona uslubiy asoslardagi she’riyatning klassik uslub darajasidagi takomili uchun turkonalik an’analaridan katta mahorat bilan foydalanib ijod qildi. Ikkinchidan, turkiy she’riyatni musta’zod va musammat kabi yangi janrlar bilan boyitdi. Bundan so‘ng, betakror badiiy tasvir usullari va favqulodda ta’sirchan badiiy lavhalar yaratish bilan bir qatorda, tatabbu va tazmin san’atlarining ham yangicha namoyishini ko‘rsatdi.

Shu o‘rinda Alisher Navoiyning «turkona» atamasiga bo‘lgan munosabatini aniqlab olmoq lozim. Navoiy bu atamani ham ijobiy, ham salbiy ma’noda qo‘llaydi. Taniqli adabiyotshunos Y.Is’hoqov Navoiyning turkona she’riyatga bo‘lgan salbiy munosabatini quyidagi mulohazalar bilan izohlaydi: «…poetik sintaksisning oddiyligi, yengil vaznlarning (ko‘proq yengil vaznga ega ramal va hazaj bahri) qo‘llanilishi, qofiya masalasida folklorga yaqinlik (ya’ni, alliteratsion-intonatsion prinsipning saqlanganligi), janr hukmronligi (ko‘proq tuyuq) poetikasi (g‘azalning hajmi, kompozitsiyasi, tematikasi) borasida ham o‘ziga xoslikka ega. Lekin, bunday xarakterdagi she’rlar uchun xilma-xil murakkab figuralar xarakterli bo‘lmasa-da, tajnis san’ati muhim mavqega ega. Shoirning «turkona» ga bo‘lgan ijobiy munosabatini esa «turkiy» deb atalmish qo‘shiq turiga nisbatan aytilgan mulohazalaridan anglab olish mumkin: «Yana surudedurkim, ani «turkiy» debdurlar, bu lafz anga alam bo‘lubdur va ul g‘oyatdin tashqari dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoyiz aysh ahdig‘a sudmand va majlisoro suruddur…» Ko‘rinayotganidek, Navoiy turkona she’riyatga shakl va poetika talablari nuqtayi nazaridan baho berganda salbiy

munosabat bildiradi, mavzu, ma’no-mazmun nuqtayi nazaridan yondashganda esa ijobiy fikrlar bayon etadi. «Mezon ul-avzon» asarida shoir turkiy tildagi she’rlarni «asosan, qo‘shiqlar» vaznlari nuqtayi nazaridan tahlil etar ekan, «turkiy» deb atalmish qo‘shiq turiga alohida to‘xtaladi. Navoiy yuqorida keltirgan tavsifda «turkiy»ni «surud» deb atagan. Surudning bir ma’nosi – ashula, qo‘shiq bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi she’r – demakdir. Akademik B. Valixo‘jayev mulohazalariga ko‘ra, Navoiy «turkiy» ning yozma adabiyot poetikasi qoniniyatlarini qabul qilganligiga e’tibor berib, uning she’rlik ma’nosiga ko‘proq moyillik ko‘rsatganligi sezilib turadi. Shu nuqtayi nazardan, «… Shoir «turkiy» ga alohida she’r janri sifatida qaraydi va uning o‘ziga xos janriy xususiyatlarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Bulardan birinchisi shundan iboratki, turkiy eski o‘zbek tilida yozilib, shu munosabatda turkiy nomi bilan shuhrat qozongan… Ikkinchidan «turkiy» «g‘oyatdin tashqari dilpisand va ruhafzo va majlisoro suruddur», uchinchidan, «turkiy» da fikr ravon til va badiiy jihatdan noziklik bilan ifodalangan, va nihoyat, to‘rtinchidan, u ramali musammani maqsur vaznida yozilgan». Shu tarzda olim Navoiyning «Mezon ul-avzon» da bergan ma’lumotlariga asoslanib, «turkiy» ning boshqa She’riy janrlardan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarini, qisqacha bo‘lsa-da bayon etadi. Ta’kidlash joizki, Navoiyning «Majolis un-nafois» va «Mezon ul-avzon» asarlaridagi boshqa ma’lumotlar ham «turkiy»ning janr xususiyatlarini aniqroq tasavvur etishga imkon beradi.

Bobur ham xalq qo‘shiqlaridan tarxoniy va turkiy haqida ma’lumot berar ekan, «Sulton Husayn Mirzoning zamonida yana bir surud chiqdikim, «turkiy» ga – o‘q mavsum bo‘ldi, anga ushbu vaznni taqsim qilurlar, ul dag‘i ikki davrda bog‘lanibdur», – deydi. Demak, Alisher Navoiy va Boburning ilmiy risolalarida maxsus qayd etilib, muayyan shakl va mazmun hamda tematik jihatdan o‘z

qiyofasiga ega bo‘lgan «turkiy» she’r bu davrda lirik janr darajasiga ko‘tarila borgan.

She’riyatda shakl va mazmun munosabatlari masalasida mazmun yetakchiligini doim ta’kidlagan Navoiy «turkiy» ni yangi mazmun va rang-barang mavzular bilan boyitishni maqsad qildi. Ya’ni, Alisher Navoiy «turkiy»si faqat ishq va muhabbat bilan bog‘liq bo‘lgan kayfiyat bayoni yoki tasviridan iborat bo‘lib qolmay, unda falsafiy munosabat kuchayadi, ishq va muhabbat tushunchasi, yor va uning tasviri tushunchasi yanada kengayadi. Shu nuqtayi nazardan, Navoiyning «turkiy» uslubda muayyan sujet chizig‘iga ega bo‘lgan yakpora va tadrijli g‘azallarni ko‘plab yaratganligi e’tiborlidir. Xossatan, «Ilk devon» dan «Kecha kelgumdur debon…», «Ul pariva shkim…», «Yog‘lig‘ing, eykim, tikarsen…» kabi g‘azallarining o‘rni olishi fikrimizga yorqin misoldir.

Navoiy «turkiy»sining yana bir xususiyati shundaki, shoir devonlarida, bir tomondan, oshiqona turkiy she’rlar mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, «turkiy»ga xos vazn va uslubda bitgan ijtimoiy, falsafiy va satirik g‘azallar ham uchraydi.

Alisher Navoiyga qadar yashagan va unga zamondosh bo‘lgan turkiygo‘y shoirlar ijodi, asosan, ma’lum ma’noda tematik jihatdan chegaralangan «turkiy» janridagi she’rlar doirasida qolgan bo‘lsa (tuyuq janrini istisno etganda), Navoiy bu janr imkoniyatlaridan, vazni va badiiy tasvir uslubidan foydalanib, yangi mavzu va shakldagi g‘azallar yaratdi.

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» da qo‘shiqlarning bir necha turini tavsiflab beradi, ya’ni, «Birisi «tuyug‘» durkim, …», «Yana «qo‘shiq» durkim, …», «Yana «chinga» durkim, …», «Va yana turk ulusida bir suruddurkim, ani «muhabbatnoma» derlar…», «Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim… ani «musta’zod» derlar emish…», «Yana Iroq ahli tarokimasida surude shoe’kim, ani «aruzvoriy» derlar…», «Yana sudedurkim, ani «turkiy» debdurlar»

kabi. Ana shu qo‘shiq turlaridan bo‘lmish musta’zodning Navoiyga qadar ijod qilgan shoirlardan faqat Gadoiy devonida yagona namunasi uchraydi.

Navoiy musta’zod uslubida she’rlar bitib, o‘zining birinchi rasmiy devoni «Badoe’ ul-bidoya» ga uning uchta namunasini kiritadi. «Xazoyin ul-maoniy» devonlarning har biriga bittadan asarni joylashtirgan. Shoirning devonlari debochalarida batafsil asoslab bergan tadvinchilik (devon tartib berish) sohasidagi badiiy-estetik tamoyillarini nazarda tutadigan bo‘lsak, uning bu hodisadan ko‘zda tutgan maqsadi ayon bo‘ladi. Buyuk shoir devon tartib berganda imkon qadar barcha lirik janrdagi asarlarni kiritmoq lozimligini ta’kidlar ekan, musta’zodni o‘zbek mumtoz she’riyatining lirik janrlaridan biri sifatida o‘rnashib qolishini maqsad qiladi. Shu bilan birga, o‘zidan keyin devon tartib beruvchilarga bu janrda ham she’rlar ijod qilish lozimligini bilvosita uqdiradi.

Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz she’riyatida musammat janri taraqqiyotiga asos solgan ijodkordir. Navoiyga qadar musammatning faqat mustaqil (tab’i xud) shakllaridagi namunalarigina yaratilgan edi. O‘zbek lirik poeziyasida g‘azal va musammat tarixi va rivojini mufassal tadqiq etgan olim R.Orzibekov bu haqda shunday yozadi: «…Musammatning tazmin usulidagi ilk namunalarini yaratish bilan Navoiy o‘z g‘azali asosida musammatlar yaratish an’anasini boshlab berdi. Alisher Navoiy boshqa qator lirik janrlarning reformatori bo‘lganidek, sharq musammatchiligi imkoniyatlarini kengaytirdi. U o‘z ijodi misolida bu sohada ham hayotbaxsh adabiy maktab yaratdi. Musammatning muxammas, musaddas va musamman kabi tazmin shakllarini kashf etdi». Olim keyingi yillarida Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog‘a» nomli asarining topilishi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishi munosabati bilan yozgan maqolasida garchi Navoiy va Husayniyning ijodida musammatning g‘azallar asosidagi tazmin namunalarini yaratish usullari kashf qilingan va

badiiy ijod tajribasiga joriy etilgan bo‘lsa-da, uning mustaqil (tab’i xud) namunalari XV asr 1-yarmi turkiy-o‘zbek she’riyatida ham mavjudligi ayon bo‘lganligini qayd etadi. Ya’ni, ta’kidlanishicha, Hofiz Xorazmiyga zamondosh boshqa qator turkiygo‘y hamda fors-tojik tilida qalam tebratgan shoirlar ham mustaqil muxammaslar yaratganlar, ammo: «Shu zaminda Alisher Navoiy davri adabiy hayotida musammatning tazmin usulida yaratilgan namunalari ham kashf etilib, turkiy-o‘zbek she’riyatining janr tarkibi boyitilgan».

Navoiy «Badoe’ ul-bidoya» devoniga 5 ta muxammas kiritgan va shulardan 3 tasi Lutfiy g‘azaliga, 2 tasi o‘z g‘azaliga bitilgan. Devondan joy olgan 2 musaddasning har ikkalasi ham Lutfiy g‘azaliga yozilgan.

«G‘aroyib us-sig‘ar» devoniga kiritilgan uch muxammasning bittasi Lutfiy g‘azaliga, ikkitasi o‘z g‘azaliga bog‘langan. Devonga kirgan bir musaddas Navoiyning o‘z g‘azaliga bitilgan. Shuningdek, «Navodir ush- shabob» dagi uch muxammasdan bittasi Lutfiy, ikkitasi o‘z g‘azaliga, bir musaddas o‘z g‘azaliga bog‘langan.

«Badoe’ ul-vasat» devoniga bittadan Lutfiy va o‘z g‘azallariga muxammaslar, bittadan yana Lutfiy va Husayniy g‘azallariga musaddaslar joylashtirilgan.

«Favoyid ul-kibar» devonidan esa shoirning o‘z g‘azallariga bog‘langan ikki muxammasi, Lutfiy g‘azali oltilantirilgan bir musaddas va yana shoirning o‘z g‘azali sakkizlantirilgan bir musamman o‘rin olgan. Demak, Navoiy hammasi bo‘lib Mavlono Lutfiy g‘azallariga uch muxammas va ikki musaddas, Husayniy g‘azaliga bitta musaddas va o‘z g‘azallariga yetti muxammas, ikki musaddas va bir musamman bog‘lagan. Navoiyning o‘z g‘azallaridan ijodiy foydalanib, yangi lirik janrdagi asarlar yaratganligi haqida navoiyshunos A.Abdug‘afurov o‘z mulohazalarini shunday bayon etadi: «Xazoyin ul-maoniy» dagi qolgan o‘n musammat Navoiyning o‘z g‘azallari asosida yaratilgan. Navoiy birinchi galda o‘z

zamonasida shuhrat qozongan g‘azallarni muxammaslar shakliga keltirgan.

Turkiy tildagi xalqchil she’riyatning turkiy mumtoz she’riyat darajasiga yetish jarayoni, ma’lum bo‘lganidek, XV asrning ikkinchi yarimlarigacha davom etadi. Bu ijodiy takomil jarayoniga Alisher Navoiy Navoiy Husayniyning ijodi turkiy she’riyatni mumtoz adabiyot poetikasi qonun-qoidalari doirasiga kirishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lganligini Alisher Navoiyning «turkona» atamasiga bo‘lgan munosabatini aniqlab olmoq lozim. Navoiy bu atamani ham ijobiy, ham Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» da qo‘ shiqlarning bir necha turini tavsiflab beradi, ya’ni, «Birisi «tuyug‘» durkim, …», «Yana «qo‘ shiq»durkim, Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog‘a» nomli asarining topilishi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishi munosabati bilan yozgan maqolasida garchi «Xazoyin ul-maoniy» devonlarining avvalgi ikkitasida uchtadan muxammas va bittadan musaddas, keyingi ikkitasida ikkitadan muxammas va ikkita musaddas («Favoyid» da bittasi musamman) kiritilgan. Shoir rioya qilgan yana bir estetik qonuniyat shuki, barcha devonlarda Mavlono Lutfiy g‘azallariga bog‘langan musammatlar birinchi o‘rinda keltiriladi. Devon tahlili sohasida mukammal badiiy-estetik prinsiplarni ishlab chiqqan Navoiy shu yo‘sinda musammat janrlarining devon kompozitsiyasi uchun muhim tarkibiy unsurlardan biri ekanligini ta’kidlab, uning turkiy tildagi ajoyib namunalarini namoyish etadi.

Navoiy devonlarida yana bir e’tiborga molik jihat mavjud. Bu hodisani badiiy usullardan tazmin va tatabbu qilish san’atida shoirning tutgan o‘ziga xos uslubi, deb baholasak bo‘ladi. Masalan, shoir «Navodir un-nihoya» ga kirgan yyetti baytli 575-g‘azal matlaidan foydalanib, «Xazoyin ul-maoniy» ga yyetti baytli yangi g‘azal yozib kiritadi. Buni Navoiyning o‘z g‘azaliga qilgan tatabbusi deyish lozim. Shoir g‘azalning matlaini aynan keltirib, uning vazni

va uchta qofiyasini yangi kontekstda saqlab qoladi. G‘azallar ishqiy mavzuda bo‘lib, mazmunan ham bir-biriga juda yaqindir. Ayni shu usulni u «Navodir un-nihoya» dagi 546- va «Xazoyin ul-maoniy» dagi 433-g‘azallarda ham qo‘llaydi. Ya’ni, bu g‘azallarning matlalari bir xil bo‘lganidek, hajm jihatidan ham ular bir xil, yetti baytlidir.

Tazmin va tatabbu san’ati ishlatilgan «Xazoyin ul-maoniy» dagi 433-g‘azalda avvalgi g‘azalning vazni, radifi va beshta qofiyasi saqlangan. Ikkala g‘azal ham tasvir asosiga qurilgan bo‘lib, semantik-emotsional tasvir g‘azallar kompozitsiyasi asosini tashkil etadi. G‘azallarni baytma-bayt tekshiradigan bo‘lsak, birinchi g‘azalda tasvirlangan biror obraz yohud badiiy lavha ikkinchi g‘azalda ham shu tasvir obyekti yoki u bilan bog‘liq voqyealarni yanada yorqinroq, kengroq ifodalab keladi. Ikki she’rda mazmunan mos bo‘lgan baytlarning qofiyalari ham bir xil. Endi baytlarni yonma-yon qo‘yib, muqoyasa qilib ko‘raylik.

Avvalo, ko‘ngil obrazi bilan bog‘liq lavha:
Demang ko‘nglung qanikim, hajrdin behush edim,
Qay sori borg‘onin ul bexonumonim bilmadim.
(«Navodir un-nihoya», 3-bayt)
Ul pari to jilva qildi bordi ko‘nglum, vah, qayon,
Bo‘ldi ul ovvorai bexonumonim, bilmadim.
(«Xazoyin ul-maoniy», 5-bayt).

Yorning ta’na qilishi bilan bog‘liq lavha, «Navodir un-nihoya», to‘rtinchi bayt:

Vaslidin so‘z deb bu yanglig‘ ta’nig‘a xush kelmasin,
Bilmadim, ey qotili nomehribonim, bilmadim.
«Xazoyin ul-maoniy», uchinchi bayt:

Demadingmu, dema ra Shkimniki, boqting g‘ayrima,
Bilmadim, ey kofiri nomehribonim, bilmadim.

Maqtadan oldingi bayt ikki g‘azalda ham ijtimoiy-falsafiy fikrlar o‘zanida, shoirning foniy bo‘lmoq, o‘zligidan qutulmoq xususidagi mushohadalari asosiga qurilgan.

«Navodir un-nihoya», oltinchi bayt:
O‘zlukimdin ranja erdim ichkali jomi Fano,
Bexud o‘ldum o‘ylakim nomu nishonim, bilmadim.
«Navodir ush- shabob», oltinchi bayt:
Do‘stdin bildim nishon, to topmadim o‘zdin nishon,
Lek o‘zdin toki bor erdi nishonim, bilmadim.

G‘azallar maqtalarida mazmunan lirik qahramon – shoirning ruhiy holati bayonida tafovut ko‘rinadi. Birinchi g‘azal maqtaida oshiqning tushkun, shikoyatomuz holati tasvirlansa, ikkinchi g‘azal maqtai optimistik ruh bilan sug‘orilgan:

«Navodir un-nihoya», yettinchi bayt:
Ey Navoiy, oshiq o‘lg‘onda dedim qolg‘ay nihon,
Bo‘ylakim olamni tutqay dostonim bilmadim.
«Navodir ush- shabob», yettinchi bayt:
Ey Navoiy, yor ko‘ngli mehrmu qildi ayon,
Yo asar qildi anga o‘tlug‘ fig‘onim, bilmadim.

Shu va boshqa jihatlariga ko‘ra «Xazoyin ul-maoniy»ga kiritilgan mazkur g‘azalni tatabbu san’atining go‘zal namunasi deb baholash mumkin.

Shuningdek, g‘azallariga o‘z baytlarini tazmin qilish hodisasi boshqacharoq shaklda shoirning yana bir g‘azalida uchraydi.

«Navodir ush- shabob» dagi 468-, 469-g‘azallarning ikkinchi baytlari aynan o‘xshash, matlalari esa mazmunan bir-biriga juda yaqin. Bu g‘azallar misolida ham Navoiy tatabbuning ijodiy namunasini, iqtizo san’ati va tazmin san’atining salx shaklini namoyish etadi. Ya’ni, 468-g‘azalga tatabbu qilib yaratilgan 469-g‘azalning ikkinchi bayti tazmin qilinib, avvalgi g‘azal matnidan aynan olingandir. Tazminning salx shakli esa g‘azalning matlai:

– Vahki, o‘tlug‘ chehra ochib xonumonim o‘rtading,
Otashin la’lingdin aytib nukta, jonim o‘rtading (468-g‘).
– Otashin ruxsori ochib xonumonim o‘rtading,
Xonumonim xud ne bo‘lg‘ay jismu jonim o‘rtading (469-g‘).

To‘rtinchi bayt:

– O‘t aro qil to‘lg‘onib kuygondek ul yuz shavqidin,
Nechakim tob urdi jismi notavonim o‘rtading (468-g‘).
– To‘lg‘onib kuysam ajab yo‘q o‘tqa tushgan sho‘ladek,
Chun firoq o‘tida jismi notavonim o‘rtading (469-g‘).

va maqtaida ishlatilgan:

– Ey Navoiy, to belu og‘zi xayoli aylading,
Boru yo‘q, ya’niki paydovu nihonim o‘rtading (468-g‘).
– To Navoiydek belu og‘zing xayoli birla men,
Ushbu yo‘q savdoda paydovu nihonim o‘rtading (469-g‘).

G‘azallarning har biri alohida o‘z tasvir usuli, ixcham, yaxlit kompozitsiyasiga ega bo‘lgan g‘azallar ekanligidan dalolat beradi. G‘azallarning biri (468) «Navodir un-nihoya» ga 354-o‘rinda, ikkinchisi (469) «Badoe’ ul-vasat» ga 358-o‘rinda o‘zgartirishsiz kiritilgan. Demak, Navoiy g‘azallarini devonlariga tartib bilan joylashtirar ekan, ularning semantik strukturasi, kompozitsion tuzilishiga alohida e’tibor bergan. Buning natijasida g‘azal

kompozitsiyasi bilan bog‘liq badiiy san’at usullarining (tatabbu’, tazmin) o‘z g‘azaliyotida ijodiy rivojlanishiga va bu sohadagi an’analarning yangi-yangi o‘zanlarda taraqqiy etishiga imkoniyat yaratgan.

Xulosa shuki, donishmand adabiyot nazariyotchisi va mutafakkir shoir Alisher Navoiy benazir lirikada o‘zbek She’riyatining qadimiy an’analari va badiiy o‘ziga xosliklaridan ijodiy foydalanib ulkan ijodiy muvaffaqiyatlarga erishgan va bu hol avlodlar uchun alohida ibrat va xos maktab vazifasini o‘tayveradi.

3.

Alisher Navoiy o‘zbek va tojik tillarida o‘n olti she’riy janrda asarlar yaratdi. Uning «Xazoyin ul-maoniy» majmuasi va boshqa she’riy devonlarida g‘azal birinchi o‘rinda turadi, shuning uchun taniqli olim Maqsud Shayxzoda uni «G‘azal mulkining sultoni» deb ta’riflagan edi.

Navoiyga qadar g‘azal yaratish an’anasi qariyb besh asrlik tarixni qamrab oladi. Navoiy poetika sohasida o‘zigacha bo‘lgan an’analarni ijodiy davom ettirdi. U uch daryo - arab adabiyoti, fors-tojik adabiyoti, turkiy adabiyot - suvini ichib, o‘z badiiy mahoratini kamolga yetkizdi.

Alisher Navoiy lirik merosi yetti turkiy va bir fors-tojik tilidagi devonda jamlangan. Uning manbalari quyidagilar:

I. **«Ilk devon»** Bu devonning ikki nusxasi mavjud, ular Sankt-Peterburgda Saltыkov- shchedrin kutubxonasida saqlanadi. Devon Navoiy davrining mashhur xattoti Sultonali Ma shhadiy tomonidan tuzilgan, deb taxmin qilinadi. Chunki uning kotibi Sultonali Mashhadiydir. Devonning ikkinchi nusxasi 1568-yili Hirotda Mahmud kotib tomonidan ko‘chirilgan.

Mazkur devon 870-hijriy, 1465-66-melodiy yillarda shoirning muxlislari tomonidan tuzilgan. Devonga juda zukko she'riyat muxlisi tartib bergan. Asar yetti rangdagi bezaklar bilan nihoyatda chiroyli bezatilgan. Devonning faksimil (foto) nusxasini birinchi marta professor Hamid Sulaymonov nashrga tayyorladi va uni «Ilk devon» deb nomladi.

Alisher Navoiy bu devon haqida o'zining birinchi rasmiy devoni «Badoe' ul-bidoya» debochasida shunday deydi: «Xaloyiq orasida ming bayt – ikki ming bayt ortuqroq – o'ksukrakkim, o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lib erdi».[8]

«Ilk devon» uch ming baytga yaqin asardir. Unda to'rt she'riy na'vdagi asarlar mavjud. Bular: g'azal, musta'zod, muxammas va ruboiy. Devonga 391 g'azal joylashtirilgan bo'lib, shulardan ikkitasi «Ul parivash muddaiga mehribondur, bizga yo'q» misrasi bilan boshlanuvchi g'azal 203, 228-o'rinlarda va «Yuzungni ko'rdi, ko'zlarimni bog'la, ey qotil» misrasi bilan boshlanuvchi g'azal 237, 281-o'rinlarda ikki qaytadan berilgan, shunga ko'ra, devondan Navoiyning 389 g'azali o'rin olgan, muxammas va mustazod – 1 tadan, ruboiy esa 41 ta. Devon:

Iloho, podshoho, kirdigoro,
Sanga ochug' nihonu o shkoro

matlali hamd bilan boshlanadi. Bu g'azal devonni tuzgan yoki ko'chirgan kishi tomonidan birinchi – «ochuvchi» g'azal sifatida tanlab olingan. Keyinchalik, u Navoiyning tahriri bilan «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga joylashtirilgan. Devon ruboiy janridagi asarlar bilan tugaydi. Oxirgi ruboiy ushbu:

[8] Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 1-j. – Toshkent: Fan, 1987. 24-b

Oxir dami umr ista shitob, ey soqiy,
Tutg‘il manga oncha mayi nob, ey soqiy,
Kim ha shrda mast o‘layu, xarob, ey soqiy,
To anglamay, etsalar azob, ey soqiy.

Ushbu devon Alisher Navoiyning 24-25 yoshlariga qadar yozgan lirik merosini qamrab oladi. Devonning oqquyunli turkmanlar mujallad qilgan nusxasi haqida navoiyshunos olim A.Erkinov ma’lumot beradi.[9] Mazkur devon 1378-1508 yillarda Ozarbayjon va G‘arbiy Eron hududida hukmronlik qilgan o‘g‘uz turklari bo‘lmish Oqquyunlilar sulolasi muxlislari tomonidan tuzilgan va fanda “Oqquyunli muxlislar devoni” nomi bilan yuritilmoqda.[10]

II. **«Badoe’ ul-bidoya».** («Go‘zallikning boshlanishi»). «Badoe’ ul-bidoya» devonining tuzilgan davri haqida taniqli adabiyotshunos olimlar Hodi Zaripov, Hamid Sulaymonov, Maqsud Shayxzoda, Natan Mallayevlar fikr bildirib, umumiy tarzda 1469-yildan 1470-yilning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni belgilaydilar. Professor A. Abdug‘afurov esa bu devon 1478-79-yillarda tuzilgan ekanligini ta’kidlaydi.[11]

Devonning XV asrda kitobat qilingan nusxalari jahonning turli kitob ma’xazlarida saqlanadi. Uning 1481-1482-yillarda ko‘chirilgan bir nusxasi Londonda, 1484 yilda yozilgan bir nusxasi Bokuda, 1486-yilga taalluqli bir nusxasi Toshkentda, XVI va XX asrlarga tegishli ikki nusxasi Samarqandda saqlanmoqda.

Devon haqida birinchi ma’lumotni Hamid Sulaymonov «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga yozgan so‘zboshisida keltiradi. Uni birinchi bo‘lib nashrga tayyorlagan olim esa Sharofiddin Sharipov edi.

[9] Erkinov A. Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan yana bir devoni.// O‘TA, 2012, 1-son, 28-34-b.
[10] Bu haqda yana qarang: Yusupova D. O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). – Toshkent: “TAMADDUN”, 2016. 34-35-b.;
[11] Bu haqda qarang: A. Abdug‘afurov. «Badoe’ ul-bidoya»ning tuzilish sanasi.//O‘TA, 1991, 4-son, 3-9-betlar. [2] Qarang: Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik, 1-tom. T.: Fan. 1987.

Alisher Navoiyning 20 tomlik MATi nashr etilishi munosabati bilan filologiya fanlari nomzodi Maryamxon Rahmatullayeva devonning ikkinchi, ancha mukammal nusxasini nashrga tayyorladi.[2]

Alisher Navoiy 1469-yilda Xuroson poytaxtini egallagan do‘sti Sulton Husayn Boyqaro taklifi bilan Hirotga qaytgach, podshoh hokimiyatini mustahkamlash uchun ko‘p vaqt va katta kuch sarfladi. Ammo, tabiatidagi o‘ta kamtarlik va oriyatchanlik bois o‘z she’rlarini devon sifatida tartibga keltirmadi. Bunga Sulton Husayn Boyqaroning befarq qarab turmaganligi, do‘stiga devon tuzish uchun farmon berganligi haqida “Badoe’ ul-bidoya” devoni debochasida shunday satrlar keltiriladi:

Nido yetkurdi nogah mun shiyi roz,
Ki: - «Ey afsungaru afsonapardoz…
So‘zung bir avj uza chekti alamni,
Ki surdung ar sh lavhig‘a qalamni…
Valekin bu qadar bikri parison,
Banot un-na’ shdek bo‘lmish parishon.
Tilarbiz bu parishon bo‘lsa majmu’,
Ravon bo‘lkim, emastur uzr masmu’.
Bu nav’ istaydur emdi royi oliy,
Ki qilg‘ay fikrating devon xayoli…
Chu bilding hukm, bor, ishtin ruju’ et,
Ravon maqsud sori – o‘q furu’ et.
Murattab qilmag‘uncha, tinma bir dam,
So‘z o‘ldi muxtasar, v-Allohu a’lam.[12]

«Badoe’ ul-bidoya» ning ungacha yozilgan devonlardan ajralib turuvchi xususiyatlarini shoir o‘zining shu devonga yozgan

[12] Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 1-j. – Toshkent: Fan, 1987. 19-b.

debochasida koʻrsatib oʻtadi. Bunday tub farqlar debochada koʻrsatilishicha, beshtadir. «Necha navʼ ishkim, munda marʼiy boʻlubturur, oʻzga davovinda koʻrinmaydurur», - deb yozadi shoir. Bular quyidagilar:

- Alisher Navoiy oʻzigacha yaratilgan devonlarning qusuri sifatida devon tartib beruvchilar forsiy va turkiyzabon shoirlar yozuvida mavjud boʻlgan 4 harfga eʼtibor qilmasliklarini taʼkidlaydi va u devonini 32 harf bilan tugagan sheʼrlardan iborat qilib tartib beradi;

- Navoiy devonining yana bir xususiyati unda har bir harfdagi sheʼrlarning boshida hamd yoxud naʼt mazmunidagi sheʼrlar kiritilishidir. Navoiyning eʼtiroficha, har bir harfga bitilgan gʻazaliyotning avvalgi harflarga bitilgan gʻazallar bilan uslub jihatidan tafovutlari mavjud boʻlib, unga rioya qilmaslik sohibi devonlarning nuqsonidir;

- shoir oʻz devonining xususiyati sifatida koʻrsatgan yana bir belgisi – har bir harfdagi turkum sheʼrlarning gʻoyaviy va badiiy taʼsir quvvatiga alohida eʼtibor qaratganligida koʻzga tashlanadi. Navoiyning fikricha, muhabbat mavzuida yozilgan sheʼrlarda ham «nasihatoro va maʼvizatoso» baytlar kiritilishi lozim;

- «Badoeʼ ul-bidoya» ni oʻzga devonlardan ajratib turuvchi yana bir xususiyati shundan iboratki, gʻazal yozgan ayrim shoirlar sheʼrlarining tadrijiylik, yakporalik jihatiga eʼtibor qilmaydilar. Navoiy devonida sheʼrlarning yakpora boʻlishiga eʼtibor beriladi;

- nihoyat, «Badoeʼ ul-bidoya» ning beshinchi xususiyati - unda shoirning oʻz zamonida shoeʼ boʻlgan barcha navʼ (janr)dagi sheʼrlarini devon tarkibiga kiritishidir.

Devonga faqat masnaviy va qasida janrida yozilgan asarlar kiritilmagan. Shunday qilib, devondan 777 gʻazal, 3 ta mustaʼzod, 5 ta muxammas, 2 ta musaddas, 3 ta tarjeband, 46 ta qitʼa, 85 ta ruboiy, 10 ta lugʻaz, 52 ta muammo, 10 ta tuyuq, 53 ta fard oʻrin olgan. Bu

jihatdan «Badoe' ul-bidoya» janrlar nuqtayi nazaridan Navoiygacha tuzilgan va Navoiy davrida tartib berilgan devonlar ichida eng mukammal devon hisoblanishga loyiq.[13]

III. «Navodir un-nihoya» («Nihoyatda ko'p nodirliklar»).

«Badoe' ul-bidoya» devonidan keyin oradan 6-7 yillar o'tgach, Navoiy ikkinchi devoni – «Navodir un-nihoya» ga tartib beradi. Bu devonning 1487 yili Hirotda mashhur xattot Abduljamil kotib tomonidan ko'chirilgan nusxasida esa 860 g'azal bor. Bu devonlar Hamid Sulaymonov tomonidan Parij Milliy kutubxonasi Britaniya muzeyidagi qo'lyozmalar asosida fanga ma'lum etilgan edi. Keyinchalik bu devonlarning Toshkent nusxalari ham aniqlandi. «Navodir un-nihoya» devonining yagona nodir qo'lyozmasi haqida 1968-yilda Porso Shamsiyev «Navoiy asarlarining yangi topilgan qo'lyozmalari» nomli maqolasida ma'lumot beradi.

O'zbek adabiyotshunoslari tadqiqotlarida «Navodir un-nihoya» devoni «… 1486 yilda tuzilgan deb taxmin qilinadi».[14] A. Abdug'afurov Husayn Boyqaroning «Risolai Husayn Boyqaro» asari 1485-yilda yozilganligini tasdiqlovchi xulosalarida bu asarda Navoiyning faqat bitta devoni – «Badoe' ul-bidoya» haqida fikr bildirilganligini ta'kidlaydi. «Navodir un-nihoya» ning esa 1487-yilda ko'chirilgan nusxasi ma'lum. Demak, 1486-yilda «Badoe' ul-bidoya» devonining navbatdagi nusxasi ko'chirilishi davrida Navoiy «Navodir un-nihoya» devonini tuzish bilan band bo'lgan yoki uni tuzish ishini yakunlagan.

B. Valixo'jayev devonning Tehrondagi Guliston qasrida saqlanayotgan noto'liq nusxasi haqida ma'lumot beradi. Bu devon nusxasida Alisher Navoiyning o'z dastxati va muhrining aksi bor.[15] XX asr 80-yillari oxirida adabiyotshunos olima S.G'aniyeva ushbu

[13] Bu haqda to'laroq ma'lumot olish uchun qarang: D. Salohiy. «Badoe' ul-bidoya» malohati. T.: Fan. 2004. 134 b.

[14] Abdug'afurov A. Erk va ezgulik kuychilari. Toshkent, 1979 y. 62-b..

[15] Ma'lumot uchun qaralsin. Valixo'jaev B. Alisher Navoiy she'riyati. Qo'llanma. Samarqand: 2001.

devonning Alisher Navoiy muhri bosilgan nusxasi faksimilesini Eron Islom Respublikasi kitob ma'xazidan olib keldi va 1991-yilda "Navoiy dastxati" nomi bilan nashr ettirdi.

«Navodir un-nihoya» devoniga «Ilk devon» tarkibidagi she'rlardan 91, «Badoe' ul-bidoya» devonidan 117 g'azal kiritilgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, «Navodir un-nihoya» ning ilmiy-tanqidiy nashridan (MAT, 20 tomlik, II tom) 862 g'azal o'rin olgan, deb ko'rsatilgan. Aslida devonning bu nashri 860 g'azaldan tashkil topgan. «Yuz o'tida yuz qatra su ne tong xo'yi g'altonidin» va «Necha davron ahlining bedodidin shiddat chekay» misralari bilan boshlanuvchi g'azallar ikki qaytadan – birinchi g'azal 563 va 635 o'rinlarda, ikkinchi g'azal esa 760 va 838 o'rinlarda takror keltiriladi.

Alisher Navoiyning o'zining ma'lumotiga ko'ra, u bu devoniga ham debocha yozgan. Ammo, bu debocha «Navodir un-nihoya» ning bizga ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalarida yo'q. Devonning janr tarkibi yakrang, ya'ni faqat g'azallardan tashkil topganligini nazarda tutsak, shoir bu devonga yozgan debochasida g'azal haqida o'zining nazariy va badiiy-estetik qarashlarini chuqurroq rivojlantirgan, degan fikrga kelish mumkin. «Navodir un-nihoya» devonidan joy olgan 860 g'azaldan 851 g'azal keyinchalik shoirning «Xazoyin ul-maoniy» devonlari tarkibiga kiritilgan.

IV. «Xazoyin ul-maoniy». (Ma'nolar xazinasi). Alisher Navoiy o'zining «Xazoyin ul-maoniy» devonlar kulliyotiga debocha yozar ekan, bu kulliyotning ham yuzaga kelishida barcha imkoniyatlarni Husayn Boyqaro yaratganligini, shunday devon tuzishga yana buyruq bilan muallifni majbur etganligini alohida uqtirgan. Bu bilan buyuk shoir xalq orasida «Chor devon» deb shuhrat qozongan «Xazoyin ul-maoniy» ning yuzaga kelishida Sulton Husayn Boyqaroning beqiyos madadini yuksak baholaydi va o'z devonlar kulliyotini ana shu maqsad evaziga «Xazoyin ul-maoniy» deb ataganligini faxr bilan tilga oladi:

Bu bahrki, ganji lomakoniy dedilar,
Har qatrasin obi zindagoniy dedilar,
Shah maxzani tab'idin nishone dedilar,
Kim, ani «Xazoyin ul-maoniy» dedilar.

Alisher Navoiyning bu qiyin, ammo, saodatbaxsh yumushga sa'y ko'rsatgan davri 1490-yillar edi.[16]

A. Abdug'afurov «Xazoyin ul-maoniy» devonlarining tuzilishi davriga oid tadqiqotlarida bu devonlarning Navoiy tomonidan uch qayta tahrir etilganligi va ularning oxirgi redaksiyasi 1498-yilga tegishli ekanligi xususida fikr yuritadi. Olimning xulosalariga ko'ra, Navoiy bu devonlarini yangi yozilgan she'rlar bilan muntazam to'ldirib borgan. Devonlarning ikkinchi redaksiyasi 1498-yilda tahrir etib yakunlanadi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlarining H. Sulaymonov tomonidan tiklangan avtor redaksiyasi 1959-1960-yillarda O'zbekiston Respublikasi FA «Fan» nashriyotida chop etildi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlaridan 3132 asar o'rin olgan. Bular 2600 g'azal, 133 ruboiy, 10 muxammas, 4 musta'zod, 5 musaddas, 4 tarje'band, 210 qit'a, 10 lug'az, 52 muammo, 13 tuyuq, 86 fard, 1 masnaviy, 1 qasida, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 soqiynoma bo'lib, 16 she'riy janrdagi asarlardir. Devonlardagi baytlarning umumiy soni 22450,5 tadir.

Kulliyot to'rt devondan iborat:

-«G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik davrining qiziqarli hodisalari»);
-«Navodir ush- shabob» («Yigitlikning nodirliklari»);
-«Badoe' ul-vasat» («O'rta yoshlik go'zalliklari»);
-«Favoyid ul-kibar» («Keksalik foydalari»).

[16] Abdug'afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» devonlarining tartib berilish davri haqida. //O'TA, 1995. №3,4; Abdug'afurov A. She'riyat saroyi. //O'zAS, 1998. 6 fevral, 1-3 betlar.

Bu asar ham shoir tomonidan debocha bilan ziynatlangan. Debochada adabiyotshunoslikning nazariy masalalari xususida so‘z yuritiladi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlariga shoirning avvalgi devonlaridan qanchadan g‘azal kiritilgan va kiritilmay qolganligi quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan:

Devonlar	**G‘azallarning umumiy soni**	**«XAZOYIN UL-MAONIY» devonlariga**	
		Kiritilgan	Kiritilmagan
Ilk devon	389	263	126
Badoe’ ul-bidoya	777	735	42
Navodir un-nihoya	860	851	9

Kuzatishlardan shu narsa aniqlandiki, Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniy» devonlari uchun 1014 ta yangi g‘azal ixtiro qilgan. Shoir «Badoe’ ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» devonlaridan «Xazoyin ul-maoniy» tarkibiga ko‘chirgan 1586 g‘azaldan 252 tasini turli mazmun va shaklda tahrirdan o‘tkazgan. 1334 g‘azal esa «Xazoyin ul-maoniy» ga o‘zgartirishsiz kiritilgan.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlari tartib berilgandan so‘ng shoirning 1498-1500 yillar orasida yozgan g‘azal va boshqa na’vlardagi she’rlari to‘liq holda hozircha fanga noma’lum. Ammo, bu she’riyat durdonalarini qidirish ishlari davom etmoqda.[17]

[17] F. Sulaymonova. Alisher Navoiyning yangi topilgan va «Xazoyin ul-maoniy» tarkibiga kiritilmagan 40 g‘azalini «Ayyomi visol o‘ldi yana…» (T. 1998) nomli to‘plamda e’lon qildi; M. Salohiddinova Sulton Mas’ud Mirzo Shohiy muxammaslari tarkibidan shoirning yana bir yangi g‘azalini fanga ma’lum qildi (nomz.diss. Samarqand, 2004).

4.

«Devoni Foniy». Bu devonga 1499-1500-(m) yildan oldin, taxminan 90-yillarning ikkinchi yarmida tartib berilgan. Devondagi she'rlarda Foniy taxallusi qo'llanilganligi bois «Devoni Foniy» deb yuritilgan.

«Devoni Foniy» ning Parij (2 ta), Turkiya (2 ta), Hirot (2 ta) va Eron (1 ta) kutubxonalarida saqlanayotgan yetti nodir qo'lyozma nusxalari mavjud. Bulardan Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan ikki nusxa H. Sulaymonov e'tirofiga ko'ra, ancha mukammaldir.

Devon debocha bilan boshlanadi va 9 ta she'riy nav'da yozilgan asarlardan iborat. Bular quyidagilar: qasida – 10 ta, g'azal – 554 ta, musaddas – 1 ta, marsiya – 1 ta, qit'a – 72 ta, ruboiy – 73 ta, tarix – 16 ta, muammo – 373 ta, lug'az – 9 ta. Devondan jami 1109 asar o'rin olgan bo'lib, ular 6197 baytni ta shkil etadi.

«Devoni Foniy» g'azaliyoti o'zbek va tojik adabiyotshunoslaridan H. Sulaymonov, A. Mirzoyev, R. Hodizoda, Sh. Shomuhammedov, B. Valixo'jayev, A. Shomuhammedov, Y.Is'hoqov tomonidan g'oyaviy mazmun va badiiyat nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Devon tarkibidagi g'azallar shoirning turkiy tildagi she'rlaridan ayrim xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunonchi, ularni ikki guruhga ajratish mumkin; birinchisi – tatabbu' deb nomlangan g'azallar Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa shoirlar g'azallariga javobiya tarzida yozilgan she'rlardir. «Muxtara'» esa «mening ixtirom» degan ma'noni bildiradi. Navoiy bu turdagi g'azallarni yangi, o'ziga xos uslubda yaratganligi uchun shunday deb ataydi.

Devonda «Dar bayoni voqe'» deb nomlangan g'azallar guruhi uchraydi. Bu g'azallar mazmuniga ko'ra voqyeaband she'rlar bo'lib,

shoir ularda o‘z boshidan kechirgan ba’zi voqea-hodisalarni hikoya qiladi.

Devondan ikki turkum qasidalar o‘rin olgan. Birinchi turkum olti qasidadan iborat bo‘lib, «Sittai zaruriya» («Olti zarurat») deb nomlanadi. Shoir asarga alohida debocha yozib, unda asarning tuzilish sababi, yili, qasidalarning joylashtirilish tartibi va har birining mavzusi haqida aniq ma’lumot beradi. Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida bu mavzuda shunday yozadi: «Bu olti qasida hamd va na’t va sano va ma’vizatdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma’rifat». Bu qasidalar quyidagilar: 1) «Ruhul-quds»; 2) «Aynul-hayot»; 3) «Tuhfat ul-afkor»; 4) «Quvvat ul-qulub»; 5) «Minhoj un-najot»; 6) «Nasim ul-xuld».

Qasidalarning ikkinchi turkumi «Fusuli arbaa» («To‘rt fasl») deb ataladi va o‘n qasidani o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda Navoiy Xoja Salmon qasidasiga javoban yana bir qasida boshlaganligi haqida ma’lumot beradi. Ammo, bu qasida hozirgacha fanga noma’lum.

Alisher Navoiyning forsiy devonidan o‘rin olgan boshqa lirik nav’ va turdagi she’riyat namunalari ham nihoyatda go‘zal ma’nolar va badiiy bezaklarga boy bo‘lib, Sharq badiiy tafakkurining betakror namunasi sifatida e’zozlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Alisher Navoiy lirikasining umumiy hajmi va janrlari haqida ma’lumot bering.
2. «Badoe’ ul-bidoya» devonida shoir adabiyotshunoslikka doir qanday nazariy masalalarni muhokama etgan?
3. «Xazoyin ul-maoniy» devonlari nashri, devonlar kompozitsiyasi, ularga kirgan asarlar janrlari, mavzulari va g‘oyaviy asoslari haqida ma’lumot bering.
4. Alisher Navoiyning har bir devoniga nechta janrdagi lirik asarlar kiritilgan?

5. Ulug‘ shoir devonlariga kirgan g‘azallarni qanday tartibda joylashtirgan?

6. “Ilk devon” qo‘lyozmalari va nashr nusxalari haqida nimalarni bilasiz?

7. “Badoe’ ul-bidoya” devonining Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida saqlangan Toshkent qo‘lyozma nusxasi haqida ma’lumot bering.

8. Navoiy devonlarining dunyo kitob xazinalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalari haqida nimalarni bilasiz?

9. “Devoni Foniy” ning tuzilish davri, qo‘lyozma nusxalari va tadqiqotchilari haqida ma’lumot bering.

10. “Devoni Foniy” tarkibi, mazmun-mundarijasi, asarlar janrlari haqida gapirib bering.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT. XX tomlik. 1-6 tomlar. -Toshkent: FAN - 1987-1990. T. 1. - 1987-724 b; T. 2. - 1987-620 b; T. 3. - 1988-614 b; T. 4. -1989-558 b; T.5. – 1990 542 b; T.6. - 1990-366 b.

2. Alisher Navoiy. Ilk devon. Faksimil nashr.

3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. IV tomlik. - Toshkent: O‘z FA - 1983-1984-1985. T. 1. - 1983-656 b; T. 2. - 1983-642 b; T. 3. - 1984-622 b; T. 4. - 1985-646 b.

4. Abdug‘afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» jumboqlari. (Birinchi maqola) //O‘zbek tili va adabiyoti. - 1994.- № 4-5-6.- B.9-16.

5. A.Abdug‘afurov. «Xazoyin ul-maoniy» jumboqlari. (Ikkinchi maqola) //O‘zbek tili va adabiyoti. - 1995.- № 1.- B.10-18.

6. Abdug‘afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» jumboqlari// O‘zbek tili va adabiyoti. - 2000.- № 5.- B.3-11.

7. Abdug‘afurov A. «Xazoyin ul-maoniy» jumboqlari //O‘zbek tili va adabiyoti. - 1998, №6.- B.3-10.

8. Valixo‘jayev B. Alisher Navoiy she’riyati.- Samarqand: SamDU, 2002.

9. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: Buxoro, 1994. - 176 b.

10. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1972 -56 b.

11. Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. Toshkent: Ma’naviyat, 2005.

12. Salohiy D. «Badoe’ ul-bidoya» malohati. - Toshkent: Fan, 2003.

13. Sulaymonova F. Ayyomi visol o‘ldi yana... - Toshkent: Fan,1997.

14. To‘xliev B. va boshqalar. Alisher Navoiy. “G‘aroyib us-sig‘ar. G‘azallarning sharh va izohlari. 10 jildlik, 2-jild. – Toshkent, “O‘ZKITOBSAVDO” nashriyoti, 2020. –240 bet.

15. To‘xliev B. va boshqalar. Alisher Navoiy. “G‘aroyib us-sig‘ar. G‘azallarning sharh va izohlari. 10 jildlik, 5-jild. – Toshkent, “O‘ZKITOBSAVDO” nashriyoti, 2020. – 240 bet.

16. To‘xliev B. va boshqalar. Alisher Navoiy. “G‘aroyib us-sig‘ar. G‘azallarning sharh va izohlari. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent, “O‘ZKITOBSAVDO” nashriyoti, 2020. – 240 bet.

17. To‘xliev B. va boshqalar. Alisher Navoiy. “G‘aroyib us-sig‘ar. G‘azallarning sharh va izohlari. 10 jildlik, 10-jild. – Toshkent, “O‘ZKITOBSAVDO” nashriyoti, 2020. – 240 bet.

18. Yusupova D. O‘zbek mumtoz va milliy Uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). – Toshkent: TAMADDUN, 2016.

19. Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: Adabiyot va san’at,1989. – 240 b.

3 – MAVZU: ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI VA JANRLAR POETIKASI

Dars rejasi:

3.1. Alisher Navoiyning o‘z davrida keng tarqalgan lirik janrlardagi asarlari.

3.2. Ijtimoiy ruhdagi g‘azallarda g‘oya-mazmun va badiiy obraz takomili.

3.3. Navoiy she’riyati va musiqa

Tayanch so‘z va iboralar: *Sharq mumtoz poetikasi, an’anaviy lirik janrlar, kichik lirik janrlar, orifona g‘azallar, shaxs erki, vatan, nafs yuki, hikmat.*

1.

Buyuk shoir mumtoz Sharq poetikasining o‘n olti lirik janridagi asarlardan tarkib topgan birgina “Badoe’ ul-bidoya” devoni misolida bo‘lsa ham o‘z davri poetik uslubiga xos juda ko‘p ilmiy masalalarni, xususan turkiy til imkoniyatlari, yozma adabiyotda stilistika qonuniyatlari, og‘zaki badiiy ijodning lirikaga ta’siri masalalarini ko‘rib chiqib, tahlil qilishga muvaffaq bo‘ldi. U she’riyatda g‘oyaviy mazmun va badiiy shakl omillarining g‘azaldan tashqari o‘z davrida keng tarqalgan lirik janrlarda turli ko‘rinishlardagi takomiliga erishar ekan, bu mazmundagi estetik tamoyillarining yangi qirralarini namoyish etdi. Xususan, “Badoe’ ul-bidoya” devonida o‘sha davrda mashhur bo‘lgan barcha janrdagi she’rlar kiritilgan. Devonda uchta musta’zod joylashtirilgan:

Ey, husnungga zarroti jahon ichra tajalli,
mazhar sanga ashyo,
Sen lutf ila kavnu makon ichida mavli,

olam sanga mavlo...
Din ofati bir mug‘bachayi mohiliqodur,
mayxoravu bebok,
Kim ishqidin oning vatanim dayru Fanodur,
sarmastu yaqom chok...
Ne vo‘smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,
ne g‘amzayi jodu,
Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,
xurshid anga ko‘zgu...

Navoiy “Mezon ul-avzon” asarining beshinchi, turkona she’riyatga bag‘ishlangan qismida musta’zod faqat turkiy xalqlar og‘zaki ijodida mavjud bo‘lib, to‘ylarda kuylanishi haqida yozadi. Shoir bu turkiy qo‘shiq janrini mumtoz poetika talablari asosida sayqallab, mukammal she’riy janr sifatida devoniga kiritadi. Shoirning zamondosh tarixnavislari shoh saroyidagi bazmlarda bu “bag‘oyat ruhafzo” qo‘shiq kuylanar ekan, tinglovchilar zavqu shavqdan “yoqalarini chok etgan”lari haqida yozadilar. Musta’zodlar ma’rifiy mazmunda yozilgan. Ammo diqqatga sazovor jihat shuki, buyuk shoir bir mavzu doirasidagi asarlarini ham yangi-yangi tasviriy vositalar bilan boyitadi, fikrni yangi badiiy libos bilan o‘raydi. Masalan, quyidagi baytlar fikrimizni tasdiqlay oladi:

Masjid yo‘lin asrab necha din ahli yo‘luqsa,
rahzanliq etarsan,
Tengri yo‘lini asramoq, ey kofiri xudroy,
bu nav’ bo‘lurmu?
Ul sho‘x Navoiyni dedikim, qilayin qatl
bir ko‘z uchi birla,
Ey voyki, bir ham anga ko‘z solmadi, ey voy,
qatl ushbudur, ushbu!

Devondan joy olgan muxammas va musaddaslarda mavzu tanlash, bandlarga asos bo‘lgan baytlar oldingi misralarda kengaytirilib, mazmuni boyitilib kelinishi, qofiyalarning barcha uzvlari uyg‘unligi shoir poetik uslubi xususiyatini yorqin namoyon etadi. Muxammaslarning uchtasi Mavlono Lutfiy g‘azallari asosida yaratilgan, ikkitasi esa “tab’i xud” muxammaslardir. Shoir bu janrlardagi asarlarida ham uz ijodiy uslubiga sodiq holda she’rlarni ijtimoiy-falsafiy ma’nolar bilan to‘yintiradi. Masalan, tab’i xud muxammaslarning birida oxirgi band quyidagicha bitilgan:

Shahlik etgandin ne hosil faqr sirrin bilmayin,
Hech kim mulki baqo sultoni bo‘lg‘onmu ekin,
Foniyi mahz o‘lmayin Sulton Abulg‘oziy bikin,
Ey Navoiy, davlati boqiy tilarsen vaslidin,
Oni kasb etmak Fano bo‘lmay, ne imkon oqibat?

“Badoe’” ga joylangan musaddaslar ham ikkita bo‘lib, ular ham Mavlono Lutfiy g‘azallari asosida yaratilgan. Bu janrdagi she’rlarga ham Navoiy muxammaslarga qo‘llangan talablar darajasida yonda shadi. Masalan, Mavlono Lutfiy g‘azalidagi bir baytda poetik obraz sifatida qo‘llangan bodom, ko‘z, qaro so‘zlaridan foydalanib, quyma badiiy band yuzaga keltiradi:

Ko‘zlaring bodomi hajridin bo‘lub jismim saqim,
Chiqti jonim, ey qaroko‘z, baski hajring berdi biym,
Bu vasiyat qilmishamkim, mushfiqu yoru nadim,
Na’ shima ul ko‘y tufrog‘ini qilg‘aylar harim,
Chun qaro bodom tobut uzra rasmedur qadim,
Ko‘z janozam sori solkim, sensizin bo‘ldim qatil.

Tarje’band janridagi she’rlar buyuk shoirning ijtimoiy-falsafiy, ma’rifiy-sufiyona qarashlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Tarje’bandlarda shoir muayyan turkum masalalarga qayta-qayta murojaat etadi. Xudo va borliqning mohiyati, eng so‘nggi haqiqat, odam aqlini tanish qobiliyati, din va tasavvuf kabi bir qancha masalalar shular jumlasidandir. Besh-olti yoshlaridayoq Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” kabi ma’rifiy dostonini yod olgan, bolalarcha ongiga singdirishga intilgan, butun umri davomida tahlil va idrok eta borgan, ilmi va qalbi kamolini istagan shoir tarje’bandlarida o‘y-fikrlarini ochiqroq, yorqinroq bayon etdi. U 1476- yilda Abdurahmon Jomiy rahbarligida naqshbandiya sulukiga rasman kirib, o‘zini qiziqtirgan savollarga birma-bir javob izladi. Ammo, uni qiziqtirgan masalalarni na falsafa, na ilm-fan, na tariqat va suluklar, na din qoniqarli tarzda hal qilib bera oldi. Shu boisdan tarje’bandlarda shoirning chuqur o‘y-mulohazalari, uzluksiz savollari, hayratlari va hayrona kayfiyati o‘z ifodasini topadi:

Nechun may bila bo‘lmasun ulfatim,
Ki jon qasdi aylar g‘amu mehnatim.
Nazar ayla bu korgah vaz’ig‘a,
Ki ortar tamo shosida hayratim...

Yoki:

Jahon qasrig‘adur suv uzra bunyod,
Chu yo‘q bunyodi ondin bo‘lmog‘il shod.

Ne shod o‘lg‘ay kishi bir qasrdinkim,
Oni tengri yaratmish mehnatobod.

Emastur qasr, balkim qosiredur,
Ki taqsir aylamas aylarg‘a bedod...

Vale ne ishvasig‘a i’timode,
Ne oning va’dayi vaslig‘a bunyod.

Visoli ko‘z yumub-ochquncha oxir,
Firog‘i ko‘z ochib-yumg‘uncha barbod...
Refrent:
Baqosizdur jahon ra’nosi, valloh,
Jahon ra’nosi yo‘qkim, mosivalloh!

Buyuk shoir inson umri va jamiyat hayotiga nazar tashlar ekan, uning bag‘oyat bebaho va inson uchun baxt-saodat manbai emasligiga ishonch hosil qiladi. Ammo, u jamiyatdan yuz o‘girishni xayoliga ham keltirmaydi, balki qanoat, sabr kabi yuksak insoniy fazilatlar vositasida hayotni oqilona kechirishga da’vat etadi. Uning bu mazmundagi fikrlari qit’a janridagi she’rlarida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Jumladan, u bir qit’asida:

Qanoat tariqig‘a kir, ey ko‘ngul,
Ki xatm o‘lg‘ay oyini izzat sanga.
Desang shoh o‘lay, yeru ko‘k basdurur
Bu bir taxtu ul chatri rif’at sanga

deya ko‘ngliga nasihat qiladi. Qit’aning davomida shoir bu maqsadni kishi amalga oshirishi uchun naqshbandiylik tariqatini o‘zlashtirishi lozimligini aytadi. Hatto naqshbandiylik tariqatining asosiy talablarini bir-bir sanab o‘tadi:

Desang, xilvatim anjuman bo‘lmasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.
Vatan ichra sokin o‘lub, soyir o‘l,
Safardin agar yetsa mehnat sanga.

Nazarni qadamdin yiroq solmag‘il,
Bu yo‘l azmi gar bo‘lsa rag‘bat sanga.

Bu to‘rt ish bila rub’i maskun aro
Cholinmoq ne tong, ko‘si davlat sanga.

Ulug‘ shoir qit’alarida ko‘tarilgan axloqiy-ma’rifiy fikrlar bu beqiyos san’at namunalarining bugungi kunda maqollar, qanotli iboralar tarzida jamiyatimiz hayotida muqimlashishi uchun sabab bo‘lgan. Ba’zi misollar:

Viqor gavhariyu hilm ma’dani bo‘lako‘r,
Desangki, qilg‘ay itoat sanga gado ila shoh.

Yana :

Biyik maqomig‘a ulkim tilar sabot kerak,
Ki egrilikni qo‘yub tuzluk aylasa qonun.

Yana:

Xiromon suda soyir bo‘lmoqu uchmoq havo uzra,
Ajab ermas qachonkim, rostravliq qilsa ozoda.

Navoiy o‘z qit’alarining ahamiyati haqida shunday yozadi:

Mundoq muqattaotkim, men yig‘misham erur,
Har bir hadiqai xirad aylar uchun farog‘.
Majmo‘in o‘yla kishvare anglaki, sathini,
Hikmat suyidin aylamisham qit’a-qit’a bog‘.

Bayoni: Men yiqqan qit’alarning har biri osoyishta yashash uchun yaralgan bilim bog‘laridir. Ularning barchasini bir mamlakat deb tasavvur etsang, har bir qit’ani donishmandlik suvi bilan sug‘orilgan bog‘ deb bil.

Devonlarda ruboiy janridagi asarlarga keng o‘rin berilgan va ularning aksariyati ruboiyi taronadir. Xususan, “Badoe’ ul-bidoya”

devonidan 85 ruboiy o‘rin olgan. Bu ruboiylar orasida tabiat mo‘jizalarining go‘zal tasviri berilgan mo‘jaz lavhalar uchraydi.

Misol:

Suv ko‘zgusini bog‘ aro aylarda shitob
Siymob qilur erdi taharruk ila tob.
Day qildi bu siymobni andoq ko‘zgu,
Kim ko‘zgu aning qoshida bo‘lg‘ay siymob.

Bayoni: Bog‘da ko‘zgudek jilolanib turgan suv yuzida simob o‘ynar edi. Yoki bir sho‘la simobdek suv yuzida jilolanar edi. Qish sovug‘ining shiddati bu simobni shunday bir ko‘zguga aylantirdiki, uning tiniqligini ko‘rgan ko‘zgu simobdek erib ketdi.

Gul vaqti muyassar o‘lsa gulfom qadah,
Andin so‘ng tutsa gulandom qadah,
Man’ aylasa garchi ahli islom qadah,
Kofirmen agar qilmasam oshom qadah.

Bayoni: Bahor faslida menga bir gulchehra yor gul rangli qadah tutsa-yu, men din ahli may ichishni man etganligi tufayli uni olib no‘sh etmasam – kofir bo‘lay, dindan kechay!

Xuddi shu mazmundagi bir ruboiyda shoir o‘z ijodiy uslubiga xos so‘z o‘yini qiladi. Shoir mug‘bacha obrazida, albatta, dayr piri, ya’ni bu dunyodagi bir ma’rifiy yo‘lboshchini nazarda tutadi, jomu may obrazlarida ham, albatta, ma’rifiy suhbatlar, pok muhabbatga intilish nazarda tutiladi. Ammo, ushbu ruboiyda bizni o‘ziga tortgan hodisa shoir adabiy-estetik prinsiplariga xos so‘z o‘yinidir. Shoir bir jom may haqiga jonini beryapti, ikki jom may uchun esa ikki dunyosini hadya etmoqda. Ilohiy muhabbat zavqidan bir tomchisini to‘kkanimdan ko‘ra, qonim to‘kilsin, demoqda ulug‘ shoir:

Ber jomu ol, ey mug‘bacha, jonimni ivaz,
Qo‘sh tutqilu, ol ikki jahonimni ivaz,
Oni sumururda qatrae tomsa agar,
Sen ham to‘k aning o‘rniga qonimni ivaz.

Shoirning bu mazmundagi ma’rifiy fikrlari ijtimoiylashgan tarzda ba’zi ruboiylarda namoyon bo‘ladi:

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va’daki, aylasa vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, Fanodur anga shart,
Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.

Bayoni: Podshoh bo‘lishni istagan kishi saxovatli, va’dasiga vafo qiluvchi bo‘lishi kerak. Faqirlik, darveshlik da’vo qilgan kimsa esa, Allohdan neki kelsa rizo bo‘lib, shukr qilib, maqsadi - hayotiy talablar va ehtiyojlar yukidan o‘zini xalos etmoq bo‘lishi kerak.

Aksariyat ruboiylarda dunyoviy muhabbatning zavqbaxsh onlari tasviri yoki va’dasiga vafo qilmagan mahbubaga itob, uning taqdiriga ishora motivlari seziladi:

Bir sori sorig‘ po‘lovu men tutsog‘ yo‘l,
Ne tog‘u ne tuz desang, ne obodu ne cho‘l,
Yirtuq kepanaktin chiqorub yolong qo‘l,
Ul qochsavu men qovsamu, men qochsamu ul.

. . .

Bir gul g‘amidin dedim qo‘yay bag‘rima dog‘,
Berg‘aymu debon atri dimog‘img‘a farog‘,
Bargin chu mulavvas ayladi bum ila zog‘,
Endi ani islamoqqa yuz hayf dimog‘.

Lug‘az (topishmoq) janridagi she’rlar qalam, tanga, igna, anor, yumurtqa va h. lar haqida. Ularda ham shoir har bir narsa – predmetning o‘ziga xos xususiyatini badiiy so‘z yoki usul bilan bayon etib boradi. Ba’zi topishmoqlarda Navoiyga xos hazil tarzidagi tasvirlar uchraydi. Masalan, igna haqidagi lug‘azda hazil aralashgan shunday bayt bor:

Pardai ismatda har gulruhki ursun lofi zuhd,
Ko‘nglakining darzi-darzi ichra ko‘rmu shlar ani,

ya’ni, hayo pardasi bilan o‘ralgan gulyuzli go‘zal o‘zining zohidligi, iffatu pokizaligi haqida har qancha maqtanmasin, u kiygan ko‘ylakning qat-qatlariga igna kirganligini odamlar ko‘rishgan.

“Xazoyin ul-maoniy” devonlariga ulug‘ shoirning muammo, tuyuq, fard, qasida janrlaridagi asarlari ham kiritilgan.

Shoirning eng mo‘jaz san’at asarlari bo‘lmish fardlarda navoiyona zakovat, mahorat, dilrabo va ruhafzo jibilliy nazokat namoyon bo‘ladi. Masalan, mumtoz sharq poetikasida ko‘zning tashbehi aksariyat qotil, lab esa obi hayot manbai sifatida tilga olinadi. Navoiy ana shu ancha ommaviylashib ketgan tashbehlardan quyidagicha sahli mumtane yaratgan:

Ikki ko‘zingu labing g‘amidin
Men xasta o‘lib-o‘lib, tirildim.

Baytda o‘lib-o‘lib so‘zining ikki bor takrorlanishi – har ko‘zing uchun bir marta jon berdim, ammo, labing xayoli meni tiriltirdi, degan ma’noni ifodalaydi.

Belu og‘zingdin, dedilarkim, degil afsonae,
Boshladim filholkim: “Bir bor edi, bir yo‘q edi”.

Baytda “bir bor” deganda ingichka belni, “yo‘q” deganda og‘izni anglash lozim. Quyidagi fardda ham o‘ziga xos, yangi so‘z o‘yini ishlatilgan:

O‘q edi, ey tongki, otting jonima vuslat tuni,
Bu jihatdin yoruma dermen seni har subhidam.

Fardning birinchi ma’nosi: ey tong, vuslat (yor vasli nasib etgan) tun jonimga o‘q otting. Shu boisdan men seni “yorishma”, deb qarg‘ayman.

Ikkinchi ma’nosi: vasl tuni jonimga otgan o‘qingni, ey tong, har subhidam yorimga aytib berib, shikoyat qilaman.

Alisher Navoiy ijodida lirik janrlarning poetik jihatdan shu tariqa mukammal darajadagi takomili uni sharq mumtoz she’riyatini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqanligidan dalolat beradi.

2.

Alisher Navoiy o‘z umri va jamiyat hayotiga nazar tashlar ekan, uning bebaho hamda inson uchun baxt manbai emasligiga ishonch hosil qiladi. Biroq, u jamiyatdan yuz o‘girishni xayoliga keltirmaydi. Balki, qanoat, sabr kabi fazilatlar vositasida insonni yaxshi axloq va ibratli hayotga tashviq etadi. Uning bunday fikrlari ijtimoiy ruhdagi she’rlarida o‘z aksini topgan.

Alisher Navoiyning qarashlariga ko‘ra, tangri taolo yaratgan narsalar ichida eng sharaflisi insondir. Inson o‘ziga nasib etilgan umrni behuda emas, ongli kechirishi, shu bilan birga u erkin va xudo manzuri bo‘lishi lozimdir. Shoir Shaxs erkinligi masalasini bir necha yo‘nalish bo‘yicha ta’riflab beradi. Birinchidan, inson ijtimoiy jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham erkin bo‘lishi kerak:

Qushqa yung maskan aro xushroqdurur ozodliq,
Bo‘lg‘onidin band aro sayyod ipak domi bila.

Zahrni o‘z komi birla ichsa andin yaxshikim,
Ichsa hayvon sharbatin nokomliq jomi bila.

So‘ngra, shoirning ta’kidlashicha, erkinlik shaxsning o‘z vatani bilan bevosita bog‘liq bo‘lib turgan paytda qo‘lga kiritiladi. Ya’ni inson o‘z sevimli maskanidan chekkada haqiqiy erkin bo‘la olmaydi:

Yuz dilorom aylagandin ravza hibsi yaxshiroq,
Bo‘lmoq o‘z vayroni ichra ko‘ngli oromi bila.

Masalaning boshqa, uchinchi bir tomoni ham borki, shaxs ozodligi faqat ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan birovga mute’ bo‘lmasligidangina iborat emas. Shaxs komil erkin bo‘lishi uchun u o‘zini ruhan poklashi, harom-harishdan, barcha salbiy xususiyatlardan nafratlanishi, adolat, haqiqat sari intilishi lozim. Chunki ruhiy poklikka mol-davlatga ortiqcha hirs qo‘yish bilan, yoxud mansab, yoki birovning qo‘llashi bilan erishib bo‘lmaydi. Biz yuqorida keltirib o‘tgan baytlar mavjud bo‘lgan g‘azalning davomida ham shunday fikrlar bayon etilgan satrlar mavjud. Navoiyning orifona g‘azallarida katta ma’rifiy, axloqiy ahamiyatga molik fikrlar uchraydi:

Bo‘lmoq itlar mun’imi tan to‘’ma aylab yaxshiroq,
Tanni qilg‘uncha samin nokaslar in’omi bila.

Islom dinida farz sanalmish shariat ahkomlaridan biri ramazon ro‘zasini tutishdir. Har bir mo‘min uchun ma’naviy va jismoniy poklanish, e’tiqodini tarbiyalash vositasi bo‘lgani sababli ham bu

muborak oy yuksak ruhiy koʻtarinkilik, bayramona kayfiyat bilan oʻtkazilgan, uning ilohiy fazilatlari tarannum etilgan. Hazrat Alisher Navoiy nazmiyotlarida orifona va oshiqona, ijtimoiy mavzulardagi, alohida shaxslarga bagʻishlangan turli xil va turdagi gʻazallar qatorida roʻzai ramazon, iydi qurbon bayramlari tarannum etiluvchi nazmiyot durdonalari ham uchraydi. Piri komilning «Badoe' ul-bidoya» devonlaridagi:

Yetishti bayramu daf' yetti roʻza qaygʻusin,
Shamol musqili yogʻutti boda koʻzgusin.

matlali gʻazallarida ixlos bilan dil, til va tan ibodatlarini ado etgan musulmonlarning muborak ramazon oyi oxirgi tunini kuzatib, iyd saharini kutib olishlari tasvirlangan. Ammo, matla' mazmuniga e'tibor berar ekanmiz, shoirning zuxdu taqvo, ta'magirona ibodatdan bezgan, oʻzining xos oʻquvchilarigagina tanish va sevimli boʻlgan lirik qahramoni koʻz oʻngimizda jonlanadi.

Zohidu avomning namoyishkorona ibodatlari tugagan bayram kuni ahli dil yana boda toʻla jomni ilgiga oladi. Mayning jilvalanib turgan yuzida uch kunlik oy misoli ma'shuqa jamoli gavdalanadi, balki ma'shuqa jamolining yogʻdusi vahdat mayi toʻla boʻlgan oshiq koʻngli jomini jilolantiradi. Axir ahli dil nafslarini tiyish, imonini sayqallash muddati sanalmish bir oylik roʻzai ramazonda oʻzini nimalardan pokladi? Uning qalbi Haq taolo muhabbatidan limmo-lim, oʻzligidan asar ham qolmagan boʻlsa?! Haq taoloni topib, uning mohiyatiga singib ketgan soʻfiy uchun avomga xos ramazon roʻzasini tutish qaygʻudan boshqa narsa emas. Chunki uning foniy dunyodagi butun umri roʻza tutishdangina iboratdir. Buning mukofoti ham avom roʻzasining mukofotiga oʻxshamaydi. Avom tutgan roʻzasining mukofoti sifatida Alloh taolo roziligi va jannatidan umidvor boʻladi. Ahli xos esa mahbubi mutlaq visolini talab qiladi. Avom jannat

ne’matlariga u dunyoda erishsa, xos oshiq uchun esa tiriklik, o‘lim, o‘limdan keyingi hayot degan tushunchalar qolmagan, boqiy dunyo mohiyatini u allaqachon tushunib yetgan. U jismonan mavjud bo‘lsa ham, o‘zining tasavvurida nomavjud, faqat ruh olamidangina iboratdir. Demak, bu ruh o‘z mabda’iga intilaveradi va nihoyat, vahdatga erishadi. Uning uchun eng oliy mukofot ana shudir. Shu sababdan ham xos oshiqqa avomning bir oygina davomida o‘zini yomon nafslarini ma’lum darajada tiyib, bayram qilayotganligi erish tuyuladi va betoqatlik bilan «etishti bayramu daf’ yetti ro‘za qayg‘usin…», deya hayqiradi.

Biroq, oshiq qalbida kechayotgan bu hayajonlardan qat’i nazar, tabiat bayram tongini qarshilayveradi:

Sipehr jomi hiloliga jilva berdi magar,
Ki boda zabt eta olmas nashot kulgusin.

Falak shu qadar qorong‘i bo‘ldiki, jomi hiloliy (may to‘la jomga o‘xshab ko‘ringan Oy) nihoyatda jilolandi, chunki qora rang oqlikni yanada ravshanroq ko‘rsatadi. Vaholanki, bayram tongi zavqi, shodligini boda ham bosa olmaydi.

Iyd shohidi bo‘lmish yangi Oy qorong‘i tunda paydo bo‘lishi bilan charx uning suyunchisiga inju kabi yulduzlarini sochib yuboradi:

Magarki qildi shabistonga azm shohidi iyd,
Ki to‘kti charx ayog‘iga axtar injusin.

Shoir iyd tuni manzarasini tasvirlar ekan, yana yangi tashbeh, yangi lavhalar chizishda davom etadi: zangori jom rangiga shafaqning zangori yo‘li guvoh bo‘ldi, lekin, sen shafaq mayini va falakning shisharang jomini solishtirib ko‘rchi, qay biri ustun ekan:

Dalil rohi shafaq rangu jomi miynoni,
Shafaq mayini koʻru charx jomi miynusin.

Shundan keyingi baytlarda shoir oʻz ijodiy anʼanasiga koʻra lirik tasvirdan chekinib, sheʼrga ijtimoiy-falsafiy tus beradi:

Farogʻate tilar ersang, kup ogʻzi xishtini ol,
U Shat bu xisht bila nangu nomusin.

Kup – may solinadigan idish, uning ogʻziga gʻisht («xisht» - forscha soʻz, turkiysi «kirpich») qoʻyib qoʻyiladi. Baytning zohiriy maʼnosi shuki, kup ogʻzi gʻishtini ol-da, shu bilan taʼmagir zohidning nomusini urib sindir, riyokordan qutulib koʻngling taskin topadi, deyiladi. Biroq, baytga chuqurroq eʼtibor qilsak, uning ikkinchi xil maʼnosi ham koʻrinadi: kup ogʻzi gʻishtini ol, uning ichidagi vahdat sharobidan ichsang, yorga etishasan va farogʻat topasan. Sening bunday baxtdan sarafrozu sarxushligingni koʻrib, benasiba zohid uyatu nomusdan adoi tamom boʻlsin. Keyingi baytda shoir fikrini davom yettirib, mubolagʻa qiladi: sahar chogʻi xalq ibodat qilish uchun joynamozga bosh qoʻyar ekan, sen bu damni gʻanimat bil va oʻtkinchi riyoiy dunyodan qochib qol:

Saharki, xalq Musallogʻa yuz qoʻyar, xush tut,
Borurga dayri fano sari tong qorongʻusin.

Tasavvufning hayotsevar naqshbandiya tariqatiga mansub boʻlgan Navoiyning eng kichik fardlaridan tortib barcha asarlarida ushbu tariqatning oʻzak masalalari targʻib etiladi. Mazkur gʻazalda ham hayot neʼmatlaridan voz kechib, umrni yolgʻiz toat-ibodat bilan uzlatda oʻtkazish Yaratganning xohish-istagiga ham zid ekanligi badiiy lavhalar orqali tasvirlanadi. Hali naqshbandiylik tariqati

dunyoga kelishidan ancha ilgari Yusuf Bolosog‘uniy aytgan «Tangrini toat ila topmas quli» hikmati – ibodat dildan bo‘lishi lozimligi, namoyishkorona ibodat esa shuhrattalablik, munofiqlikdan boshqa narsa emas ekanligini uqtiradi. Xuddi shu ma’noda mashhur so‘fiy Jaloliddin Rumiy tariqat yo‘liga kirgan so‘fiylarga shunday deydi: «Muftilar har qancha fatvo bersalar ham, sen olimning fatvosiga quloq os». Zero, Allohni tanimay turib, gumrohona ado etilgan ro‘za ham, namoz ham suratdan o‘zga narsa emas ekan. Haqiqiy ibodat Haq vaslidan ogohlik bilan pinhona qilingan ibodatdir. Naqshbandiylik tariqati yo‘lchisi o‘zi qaerda, qay maqomda va qay tarzda bo‘lmasin, biror dam tangri ibodatidan forig‘ bo‘lmaydi va bu faqat uning o‘zigagina ayondir. U tangri qoshida juda ulug‘ martabada bo‘lishi mumkin, lekin, bundan xalq bexabar bo‘lishi lozim. Uning talabi gumnomlikdir. Ya’ni shuhratdan, xalqqa tanilishdan qochish. Chunki shuhrat dilni o‘ldiruvchidir. Hazrat Navoiy mansub bo‘lgan so‘fiylik tariqatining xuddi ana shu hukmi biz tahlil etayotgan g‘azalning maqtasida namoyon bo‘ladi:

Navoiy, ich qadahu foniy o‘lki, topti baqo,
Biravki, topmadilar el so‘rog‘u belgusin.

Navoiyning mazkur she’ri zohiran ramazon hayiti shodligiga bag‘ishlangan g‘azal namunasi bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida uning har baytida shoirning g‘oyaviy intilishlari, ideallari aks etib, misralarda pinhona yotgan navoiyona dard uchqunlari ziyrak she’rxonni hayratga soladi. Hazrat Navoiy ijodlari boqiy hayratdir.

Xullas, Hazrat Alisher Navoiyning ulug‘ligi shundaki, u she’rlarida INSON haqida fikr yuritadi. Bu fikr doirasi esa har qanday milliy, diniy, mazhabiy, mafkuraviy hududlarni yorib chiqadi. Shu nuqtayi nazardan uning har bitta bayti katta bir risolaviy tadqiqotni talab qiladi:

To g‘amdadur Navoiy, dahr anga tiyradur,
Shod anglamas ulusni birov bo‘lsa qayg‘uliq.

3.

Akademik Oybek: «She’r va musiqaning ichki chuqur robitasini bilgan Navoiy har bir shoirning musiqadan xabardor bo‘lishini istagan» deb ta’kidlaydi. A. Hayitmetov esa «Navoiyning fikricha, har qanday lirik she’r ma’lum bir musiqaga tushadigan bo‘lishi kerak», deydi.

Navoiy g‘azallarining ravonligi va musiqaga o‘ng‘ay tushishi haqida Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da ma’lumot berishicha, shoirning o‘zi musiqa va uning nazariy masalalaridan yaxshi xabardor bo‘lgani holda, maqom yo‘llariga ko‘pgina naqsh peshrav, amallar bog‘lagan bastakor edi. She’r o‘lchovi asoslari va qoidalarini egallashda musiqaning ritmik asosi hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham ba’zi olimlar aruz ilmi musiqa nazariyasi asosida yuzaga kelganligini uqtirib o‘tganlar. Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida she’r vaznlarini buzib yozgan shoirlarni tanqid qilarkan, musiqa ilmida ularning iste’dodsiz va bilimsiz ekanliklarini ko‘zda tutadi. Chunki u aruz san’atini egallashda, shoirdagi estetik hisni tarbiyalashda musiqa ilmining katta ahamiyatga ega ekanligini yaxshi bilar edi. O‘zining «Xamsatul-mutaxayyirin» asarida Navoiy bir necha olimlarga, shu jumladan, Abdurahmon Jomiyga ham musiqa haqida risola yozib berishni iltimos qilganligini so‘zlaydi. Natijada Abdurahmon Jomiyning «Risolayi musiqiy», Zaynulobiddin al-Husayniyning «Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy» kabi asarlari yaratildi.

O‘zbek kuy-qo‘shiqlari va turkiy navolar Alisher Navoiy badiiy tafakkurida yorqin namoyon bo‘lgan. Shoirning «Navoiy» taxallusini tanlashi ham ahamiyatli. Ma’lumki, fors-tojik tilidagi

«navo» so‘zi o‘rta asrlar Sharq adabiyotida bir necha, ya’ni: 1) tovush, ovoz, ohang, kuy, qo‘shiq; 2) vosita, imkoniyat, boylik, quvvat; 3) nabira; 4) garov, omonat, qalin va b. ma’nolarda ishlatilgan. Ammo, bu so‘zning ma’no doirasi nechog‘lik keng ilmiy-falsafiy mazmun kasb etmasin, Navoiy o‘z taxallusida, asosan, uning musiqiy-estetik talqinini nazarda tutadi va ushbu ma’noni qator asarlarida yoritib beradi:

Bo‘yla bulbul navosi so‘zduru bas,
Nag‘mai jonfizosi so‘zduru bas,
Bo‘lmasa so‘z ajab balo bo‘lg‘ay,
Bulbuli nutq benavo bo‘lg‘ay…
Bo‘yla bulbulni benavo tutma,
Benavolig‘ anga ravo tutma.
Xossa so‘z bulbuli Navoiy zor,
Kim anga nukta bog‘idur gulzor.

«Sab’ai sayyor»

Yoki:

G‘ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asiru benavo bo‘ldum sango.

«G‘aroyib us-sig‘ar»

Yoki, yana:

Zuhd ohangin Navoiy har nechakim soz etar,
Bir navo birla mug‘anniy yona yo‘ldin ozg‘irur.

«G‘aroyib us-sig‘ar».

Navoiy musiqiy merosi uning keng qamrovli estetik olamining tarkibiy qismi bo‘lib, mazmunan rang-barang, shaklan tugal

koʻrinishga ega. Bu bebaho boylik oʻzbek musiqa madaniyatining asosi, milliy maʼnaviyatimizning xazinasidir. Oʻrta asrlarda riyoziyot fanining muhim sohalaridan biri hisoblangan «ilmi musiqiy»ga ulkan hissa qoʻshgan buyuk allomalardan Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Xoja Abdulqodir Marogʻiy, Abdurahmon Jomiy va boshqalar arab va fors tillarida qalam tebratishgan boʻlsa, Alisher Navoiy ilk bor turkiy musiqashunoslikka ilmiy, teran amaliy va metodologik zamin yaratdi. Ayni vaqtda Navoiyning musiqiy olamini faqatgina bir milliy-jugʻrofiy hudud bilan chegaralab boʻlmaydi. U baynalmilal taʼsir va aloqalar jarayonida shakllangan, tarixiy ildizlari esa qadimiy turkiy va forsiyzabon xalqlarning asotirlari, sheʼriy-musiqiy anʼanalariga, yunon, hind va arab madaniyatlariga borib taqaladi.[18]

Navoiy oʻzining barcha lirik asarlarini aruzdan mukammal foydalangan holda yuksak darajada yaratganligi maʼlum. Biroq, shu nuqtayi nazardan mutaxassislar tomonidan maxsus ilmiy ishlanmagan bir soha boʻlib, u ham boʻlsa, Navoiyning gʻazal yaratish asnosida aruz qonuniyatlari bilan bir qatorda musiqa nazariyasi qonun-qoidalariga ham qatʼiy amal qilganligi masalasidir. Navoiy gʻazaliyotidagi badiiy tasvir usuli oʻn ikki maqom yoʻllaridagi va uning asosida tashkil topgan «Shashmaqom» dagi harakatlardan biriga mos keladi. Yaʼn, "… oʻzbek va tojik kuylari asosiy tonikadan boshlanib, sekin-asta rivojlanib, oʻrta va katta avjga chiqadi-da, yana oʻrta avj orqali tonikaga qaytib tushadi". Bu hodisani, albatta, maqom yoʻllariga nisbatan doim joriy eta berish notoʻgʻri, biroq, musiqada shunday harakatning borligi maʼlum. Musiqa ilmidan mukammal xabardor boʻlgan Navoiy oʻz gʻazali musiqiy ijrosida har bir baytning mazmunan va emotsional badiiy ifoda jihatidan kuy qismlaridan qaysi biriga mos tushishiga katta ahamiyat bergan.

[18] Bu haqda yana qarang: A. Nazarov, I. Tuxarinov. Navoiyning musiqiy olami. // «Yoshlik», 1991, №8. 70-73-b.

Binobarin, ashulaning Saraxbor, Talqin, Nasr va Ufarlarida, Namud va Avjlarida, Taronalarida ma’no-mazmun va badiiy zavq ulashish jihatidan, g‘oya-maqsad ifodasi yuzasidan kuy mazmuniga hamohang baytlarni ijod etgan. Kuyning avj pardalarida g‘azal matnidagi badiiy tasvir jihatidan eng mukammal, sermazmun, g‘oyaviy maqsad mohiyatini chuqurroq aks yettiruvchi yoki boshqacha aytganda, lirik asar kulminatsiya darajasini ifodalovchi baytlarni keltirishga harakat qilsa, talqin pardalarida esa «Nasihatomuz va ma’rifatangez», o‘zining ijtimoiy-falsafiy, ba’zan siyosiy-falsafiy qarashlarini ham ifoda etuvchi baytlarni joylashtirgan. Musiqa ilmining chuqur bilimdoni bo‘lgan Navoiy «Isfahoniy» deb nomlangan kuy ham bastalagan.

Xullas, Navoiyning Sharq musiqasi va she’riyati xususidagi nazariy qarashlari va amaliy mehnati doirasi nihoyatda chuqur va keng. Bu sohani ilmiy o‘rganish yangi davr navoiyshunoslarining zaruriy vazifalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. “Mezon ul-avzon” dagi janrlar haqida gapiring?
2. Shoir devonidagi she’riy san’atlar, “Xazoyin ul-maoniy” devonidagi janrlar va ularning tuzilishi haqida so ‘zlang?
3. Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» da qo‘shiqlarning necha turini tavsiflab beradi?
4. «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga tartib berish davrida hamd ruhidagi g‘azallar mavqe’ini Navoiy qay tariqa belgilaydi?
5. Hirot adabiy muhitida shoyon bo‘lgan lirik janrlar haqida ma’lumot bering.
6. Ulug‘ shoir Sharq musammatchilik an’analariga qanday yangilik kiritdi?
7. Shoir tarje’bandlari badiiyati haqida so‘zlab bering?
8. Alisher Navoiyning musiqaga munosabati qanday bo‘lgan?

9. Navoiyning qo‘shiq qilib kuylanadigan qanday mashhur asarlarini bilasiz?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik.3-jild. – Tosh: Fan,1988.-616 b.
2. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik.14-jild. – Tosh: Fan,1998.-304 b.
3. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik. 17-jild. – Tosh: Fan, 2001.-520 b.
4. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 1-2 jildlar. – Tosh: Sharq, 2016.
5. Abdug‘afurov A. Navoiy satirasi. 1-kitob. - Tosh: FAN - 1966. -131 b.
6. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. – Tosh: Kamalak,1991.173 b.
7. Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – Tosh: Zarqalam 2006. - 144 b.
8. Olimov M. Risolai aruz. – Tosh: Yozuvchi, 2002. -88 b.
9. Stebleva I.V. Ritm i smьsl v klassicheskoy tyurkoyazьichnoy poezii. – Moskva: Nauka, 1993.
10. To‘xliev B. va boshqalar. Alisher Navoiy. “G‘aroyib us-sig‘ar. G‘azallarning sharh va izohlari. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent, “O‘ZKITOBSAVDO” nashriyoti, 2020. – 240 bet.
11. To‘xliev B. va boshqalar. Alisher Navoiy. “G‘aroyib us-sig‘ar. G‘azallarning sharh va izohlari. 10 jildlik, 10-jild. – Toshkent, “O‘ZKITOBSAVDO” nashriyoti, 2020. – 240 bet.
12. Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi mas-ri. – Tosh: FAN,1963.173 b.
13. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – Toshkent: Fan, 1970. 331 b.

4 – MAVZU: ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA TASAVVUF MASALALARI

Dars rejasi:

4.1. Navoiy lirikasida ijtomoiy-ma'rifiy ruhdagi g'azallar.
4.2. Navoiy lirikasida ishq-muhabbat mavzusi.
4.3. Diniy-orifona she'riyat namunalari.

Tayanch so'z va iboralar: *jamiyat hayoti, fazilatlar, orifona g'azallar, shaxs erki, nafs yuki, hikmat, ibodat, ta'lim.*

1.

Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida o'z ijodiga komil ishonch bilan «xayolimg'a andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdin quyi inmag'ay va tartibim kavkabasi a'lo darajadin o'zga yerni beganmagay», deya yuksak baho beradi. Shoirning bu fikrlari zamirida yotgan katta haqiqat izoh talab etmaydi. Biroq shu narsa ayonki, Navoiy benazir shoir va daho mutafakkir sifatida XV asr adabiy hayotida birdan paydo bo'lmadi. U juda kichik yoshligidanoq yorqin iste'dod bo'lib ko'zga tashlandi va o'z asri madaniy, adabiy muhiti ta'sirida buyuk shoir va mutafakkir darajasiga yetdi. O'zidagi ilohiy inoyat – iste'dod ne'matini juda erta anglagan Navoiy uni yuzaga chiqarish uchun qattiq mehnat va mashaqqatlar chekish lozimligini ham tushundi. Xuddi shu narsa, keyinchalik, shoirning olamshumul ijodini tinmay yuksaklikka undovchi kuch bo'ldi.

Bu ilohiy iste'dod o'z ijodiga nisbatan nihoyatda talabchan bo'ldi. Navoiy o'z iste'dodiga o'zi hakamlik qildi, asarlariga muttasil yangiliklar, o'zgartirishlar kiritib turdi. Yoshi 50 dan oshgan, salomatligi ancha yomonlashgan bir davrda esa «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga tartib berish kabi juda katta va sermashaqqat mehnatni

ham amalga oshirdi. Bu davrda Navoiy nazmiyotining adadi ancha katta bo‘lib shoir o‘z lirik yaratmalari kulliyotini saylanma sifatida, she’rlarining eng yaxshilarini tanlab tartib bersa ham bo‘lar edi. Biroq, har bir asarini o‘ziga farzand deb bilgan shoir, bu merosni qaytadan ko‘zdan kechirishni, unga yangidan sayqal berib, takmilga yetkazishni lozim topdi. Shu tariqa bungacha biror shoir yoxud nasrnavis tajribasida ko‘rilmagan, o‘z davri adabiy jamoatchiligining yuksak etiboriga sazovor bo‘lgan «Xazoyin ul-maoniy» devonlari dunyoga keldi. Ijodiy mahsuldorlikning bu ko‘rinishi Navoiydan keyingi adabiyot ahli biografiyasida ham uchramaydi. Navoiy o‘zining bu farahbaxsh ijodiy mehnati qay yo‘sinda kechganligini «Xazoyin ul-maoniy» debochasida batafsil bayon etadi. Shoirning yoshlik va yigitlik davri lirikasida ilohiy ilhom bilan dunyoga kelgan quyma g‘azallar uchraydiki, keyinchalik shoir ularning biror satriga ham qalam tegizmagan. «Kecha kelgumdur debon...», «Ul parivashkim...», «Furqatingdin za’faron...», «Orazin yopqoch...» kabi mashhur g‘azallar shular jumlasidandir. Biroq, ana shu g‘azallar yaratilgan davrdagi yolqinli ilhom, yetuk mahorat shoirning keyingi davrlardagi she’riyat sohasida erishgan chuqur bilimi, tajribasi, yuksak ijodkorlik saviyasi uchun asos bo‘ldi, desak ada shmaymiz. Demak, yoshlik davridagi mahorat yetukligi, keksalik davridagi bilim, tajriba barkamolligi shoir poetik uslubining muntazam takomili uchun xizmat qildi. Shu munosabat bilan shoir devonlari qo‘lyozma nusxalarida she’riyat matnlari turli variantlari uchrashi hodisasiga e’tibor qilsak.

«Badoe’ ul-bidoya» devoniga tartib berishga kirishgan shoir unga «Ilk devon» dan 161 g‘azal kiritadi va g‘azallardan 34 tasi variantlarga ega. Jumladan, «Ilk devon» dagi «vafo» radifli g‘azalning birinchi misrasiga kiritilgan tuzatish o‘n yildan ortiq vaqt mobaynida Navoiy poetik uslubida ijtimoiy ruh keskin ortib, uning bu sohadagi dunyoqarashi g‘azallarida yorqinroq aks eta

borganligidan dalolat beradi. G‘azalning bosh misrasi «Ilk devon» da «Kimsa hargiz ko‘rmadi chun nav’i insondin vafo» tarzida berilgan bo‘lib, shoir «nav’i insondin» izofali so‘z birikmasini «ahli davrondin» birikmasi bilan almashtiradi. Demak, Navoiy 20-25 yoshlarida umuman inson zotidan vafo kutish befoyda, degan xulosaga kelgan bo‘lsa, 30-40 yoshlarida esa bu fikrini o‘z davri ijtimoiy voqye’ligi sabablari bilan bog‘laydi. U davron ahli bevafoligi konkret, muayyan feodal jamiyatda xalqning ijtimoiy himoyasizligi, siyosiy notinchliklar girdobidagi nochorligi zaminida yuz berayotganligi oqibati ekanligini idrok etadi. Shu bois «Ilk devon» lirikasidan farqli o‘laroq, «Badoe’ ul-bidoya» da Navoiy tabiat yetukligi javhari bo‘lmish insonga qaratilgan norozilik, shikoyatlarini o‘z davrining ma’lum tabaqasi vakillariga, jamiyatning muayyan tipdagi shaxslari - xudbin, johil, munofiqlarga nisbatan bayon etadi. Keyingi devonlardan o‘rin olgan ijtimoiy ruhdagi g‘azallarda shoirning davr ahliga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabati «inson», «nav’i inson» iboralari o‘rnida «ahli davron», «ahli zamon», «ahli jaќon», «el», «ulus» iboralari vositasida ifodalanadi. «Badoe’ ul-bidoya» devonidagi g‘azallar esa Navoiyning o‘z davri ijtimoiy muhiti voqye’ligiga, bu muhitni ma’naviy tubanlashtiruvchi shaxslarga qaratilgan fikrlari, falsafiy mushohadalari o‘zanida rivojlanib, ijtimoiy-falsafiy ruh kasb eta borganligidan guvohlik beradi.

Shu bilan bir qatorda devonning aksari she’rlarida «zamon ahli», «davron ahli» dan shikoyat motivlari ustunlik qiladi. Ma’lumki, shoirning «Ilk devon» idan bevosita shu mavzuda ijod etilgan 7 g‘azal o‘rin olgan. Bu g‘azallar quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Dahr elidin naf’ agar yo‘qtur zarar ham bo‘lmasa;
Oncha davron birla ko‘rdum ahli davrondin jafo;
Ey kungul bir nav’ o‘lubmen ahli davrondin malul;

Bo‘lmish andoq munqati’ ahli zamondin ulfatim;
Xalq mehriga yana yorab meni zor aylama;
Manga ne manzilu ma’vo ayon, ne xonumon paydo;
Kimsa hargiz ko‘rmadi chun nav’i insondin vafo.

Bu davrda Navoiyning o‘z davri va zamonasiga munosabati lirik qahramonning davron va xalqdan shikoyati ohangidagi shaxsiy kechinmalari doirasida torroq mazmunda:

Ey ko‘ngul, fikringni qilkim, do‘stu dushmanlar yuzun
Ko‘rmas erdi bo‘lmasa sen zori hayrondin malul

yoki

Turfa ko‘rkim xalq komi birla umrum bo‘ldi sarf,
Turfaroq bukim, birovg‘a yoqmadi bir xizmatim

tarzida ifodalansa, «Badoe’ ul-bidoya» devonida mazkur mavzu chuqur sotsial mazmun kasb etib, shoir mulohazalari ba’zan falsafiy oqimga yo‘naltiriladi. Zotan, «Shoir hayotining turli davrlarida yaratilgan g‘azallarda barcha muammolarning qo‘yilishi va hal etilishi yo‘llari ham turlicha bo‘lgan».[19]

Shoir «Badoe’ ul-bidoya» devoniga bu g‘azallardan bittasini («Bo‘lmish andoq munqati’ ahli zamondin ulfatim») kiritadi. Biroq, u «Badoe’ ul-bidoya»ga shu mavzudagi 7 yangi g‘azalini joylashtiradiki, ularda davr va davr ahlidan shikoyat, tanqid ijtimoiy falsafiy yo‘nalishda g‘azaldan g‘azalga izchil rivojlantirilib, shoir uslubida tendensioz mohiyat kasb etadi:

Parim bo‘lsa uchib qochsam ulustin to qanotim bor;
El tilidin jonima gar yuz balo mavjud erur;

[19] Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: Adab.va san. - 1973. - 36 b.

Men jahondin kechdimu kechmas mening jonimdin el;
Bu kun ahli jahondin xastaxotirmen, jahondin ham;
Mehr koʻp koʻrguzdim ammo, mehribone topmadim;
Vafo ahligʻa davrondin yetar javru jafo asru;
Vahki, umrum borcha zoyiʼ boʻldi el komi bila.

Mazkur gʻazallarda «ahli davron», «ahli zamon», «xalq», «dahr eli» kabi iboralar «jahon», «ahli jahon» kabi iboralar orqali kengroq tushunchalar darajasiga koʻtariladi, «el», «ulus» kabi umumlashma obrazlar vositasida shoirning keskin, murosasiz xulosalari uning «oʻz davri xaqidagi siyosiy aybnomasi»20 sifatida ifodalanadi. Mazkur mavzulardagi gʻazallarda «Ilk devon» dagi shu mazmunda yaratilgan gʻazallardan farqli oʻlaroq, shoirning falsafiy mushohadalari bir necha yoʻnalish da taraqqiy yettiriladi. Ijtimoiy ruh hukmron boʻlgan kichik lirik asarga jahon falsafiy tafakkurining oʻzak masalalari boʻlmish - inson xilqati va uning ongli umr kechirish borasidagi qarashlari, insonning mukammal shaxs sifatida shakllanuvi, ana shu shaxsning tom maʼnodagi erkinligi masalalari ham mohirona singdirib yuboriladi. Shu taxlit lirikaning eng xalqchil navi boʻlmish ijtimoiy ruhdagi gʻazal keng falsafiy mohiyat kasb etadi, bu esa oʻz navbatida buyuk shoirning Sharq falsafasi taraqqiyotiga qoʻshgan qimmatbaho ulushidir. Shoir poetik uslubining bu xususiyati uning 25 yoshgacha yaratgan asarlarida koʻzga tashlanmaydi. Navoiyning «jahon» va «ahli jahon» dan noroziligi, zamondoshlari haqidagi tanqidiy mulohazalari uning ijtimoiy voqyeʼlik va ilgʻor falsafiy dunyoqarash asosida shakllangan oʻz ijobiy ideali bilan bevosita aloqador tarzda aks etadi.

Shoirning taxminan 1485-yillarda tartib berilgan «Navodir un nihoya» devonini «Ilk devon» va «Badoeʼ ul-bidoya» devonlari bilan

[20] Oʻsha kitob, 42-б.

qiyoslab, bu devon uchun yangi yozilgan g‘azallarni aniqlash qiyin emas. Ushbu devonga shoirning ijtimoiy mavzudaga 12 yangi g‘azali joylashtirilgan:

Do‘stlar ahli zamondin mehr umidi tutmangiz;
Do‘stlar, olam eliga yoru hamdam bo‘lmangiz;
Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjmand etmas;
Qildi dushman rahm baskim, qildi javr izhor do‘st;
Dahrd in mehru vafo qilma havas;
Menku, davron zulmidur ko‘nglumg‘a, balki jong‘a ham;
Oncha yig‘latti jafodin do‘stdur deb sevganim;
Qon yutib umri jahon ahlidin bir yor istadim;
Shahru kishvardin ilik yub, xonumondin kechgamen;
Oshiq o‘ldim necha javr ahli zamondin tortayin;
Topmadim ahli zamon ichra bir andog‘ hamdame;
Demangiz har kimni kim bir yor ila bor ulfati.

Bu g‘azallarda ijtimoiy ruh hukmron bo‘lsa-da, «Badoe’ ul-bidoya» ning shu mavzuda yozilgan she’rlaridagi kabi badiiy tasvirda keng, chuqur falsafiy fikrlarning ijtimoiy masalalar zaminida ifodalanish xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Bu davr lirikasida (shoirning 45 yoshlaridan keyin) tasvir obyekti muayyan sotsial masalaning etik plandagi ko‘rinishidan iboratdir. Ba’zan ijtimoiy muammolar yechimi shoirning sufiyona mulohazalari zaminida yakun topadi. Navoiyning bu tipdagi g‘azallarida «davron», «jahon» va «ahli jahon» dan qattiq shikoyat, norozilik, o‘zining bu sohada nochorligi uchun iztirob chekish motivlaridan ko‘ra, zamonning nomukammalligi sabablarini mushohada etish, o‘zini undan chetga olish kayfiyatlari ustun turadi:

Shahru kishvardin ilik yub, xonumondin kechgamen,
Xonumondin kim desun ikki jahondin kechgamen.
Har zamon boshimg‘a yuz tig‘i halok aylab qabul,
Umrdin tortib etak, billahki jondin kechgamen,
Shahru kishvar, xonumon, ikki jahonu umru jon
Xud ne bo‘lg‘ay, muncha yuz kom o‘lsa ondin kechgamen...
Voizo, aylab yengillik, nechakim kavsar mayin
Maqtasang xoshoki men ratli garondin kechgamen;
Ey Navoiy necha qilg‘aylar etakdek poymol,
Men dog‘i emdi etak ahli jahondin tortayin;
Yo‘q vafo jinsi bani odamda bo‘l navmidkim,
Sen vafo ko‘rmak uchun xalq o‘lg‘usi yo‘q odame.
Nukta nozik bo‘ldi asru, bo‘lg‘ay erdi koshki,
Shammai bu ramzdin zohir qilurg‘a mahrame.

«Navodir un nihoya» devoni shoir 40-50 yoshlari orasida tuzilganligi, «Badoe’ ul bidoya» yaratilgandan keyin (1479-1485-yillar oralig‘ida) yozilgan she’rlar shu devondan o‘rin olganligi hodisasi mazkur devonning shoir poetik ijodi bu davri xususiyatlarini ifoda etuvchi tekshirish obyekti sifatida katta ilmiy qimmatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Navoiy ijtimoiy lirikasi takomili tahlili bu mavzuning «Xazoyin ul-maoniy» g‘azallarida g‘oyaviy-semantik va badiiy ifoda uslubi sohasida mavjud bo‘lgan yo‘nalishlarini kuzatishni ham taqozo etadi.

Albatta, Navoiy lirikasida ijtimoiy masalalarning qo‘yilishi va hal etilishi ancha keng doiradagi g‘azallarda kuzatiladi. Shoir bu masalaga o‘z lirikasida goh bevosita, goh bilvosita munosabat bildiradi. Navoiyning mazkur mavzu doirasidagi muammolarga bevosita yondashuvi uning shu plandagi tadrijli g‘azallarida aks etadi. Biz o‘z mulohazalarimizni asosan shunday g‘azallar yuzasidan bayon etmoqdamiz.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlariga avvalgi uch devon tarkibiga kirmagan ijtimoiy mavzudagi 62 g‘azal joylashtirilgan.

Bu g‘azallarning avvalgi devonlarda uchramasligi ularning «Navodir un-nihoya» tartib berilgandan keyin yozilganligiga ishora etadi. Navoiyning 45 yoshdan keyingi hayoti davomida davr voqyealari va «davron ahli» ga bo‘lgan munosabati, jamiyat ijtimoiy voqye’ligining shoir taqdiridagi aks sadosi uning ushbu davr lirik ijodida o‘ziga xos yo‘nalish larda ifoda etiladi. Jumladan, hamdlarda (orifona g‘azallarda) avvalgi devonlarning shu tipdagi g‘azallarida ko‘rinmagan xususiyat - tasvir obyekti bo‘lmish Tangri taologa munojot, iltijo ohanglarining ustuvorligi ko‘zga tashlanadi. Badiiy ifodaning vasf, ta’rif, tavsif formasida ijod etilgan hamdlar turkumi shoir keksalik lirikasida sharhi hol, mushohada tipidagi tasviriy usullar vositasida mazmunan kengayib boradi. Mamduhga bevosita murojaat, o‘tinch, iltijoli fikrlar Navoiy hamdlarining aksari maqta’dan oldingi baytlari va maqta’larida ifoda etilib, shoirning bu sohadagi estetik prinsiplari asosini belgilaganligi ma’lum. Ammo, quyidagi g‘azal Navoiyning ko‘tarinki ruh, yuksak stilda ijod etilgan vasf tipidagi hamdlaridan lirik qahramon - shoirning ichki kechinmalari, tushkun kayfiyati, shu bilan birga g‘oyaviy maqsadining pessimistik ruhdagi ifodasi bilan ajralib turadi. G‘azal kopozitsiyasi uning semantik-emotsional planida munojot motivining tadrijiy ifodasiga asoslangan:

Yorab, o‘lg‘on chog‘da jonim jismi vayrondin judo,
Ul bo‘lib mundin judo, sen bo‘lmag‘il andin judo.
Chun judo bo‘lsam meni g‘amnok yo‘qu boridin,
Ne g‘amim, sen bo‘lmasang men zori hayrondin judo.
Naqdi jon chiqqonda imon gavharin ko‘nglumga sol,
Aylag‘il jondin judo, lek etma imondin judo.
Xonumondin oyirib, qilg‘onda zindon ichra hibs,

Qilma lutfung men aloxonu alomondin judo.
Hashr g‘avg‘osi aro osiylig‘img‘a rahm qil,
Lutf ila ilgim tutub, qil ahli isyondin judo.
Garchi o‘ldum kofiri ishq ahli islom ichra qot,
Ul zamonkim bo‘lg‘usi kofir musulmondin judo.
Elga maxlas istasang, yyetti tamug‘ni ayla kul,
Aylabon bir sho‘la bu ohi durax shondin judo.
Jannat istab aylaganlarni ibodat, qilmag‘il,
Kavsaru to‘biyu qasru huru rizvondin judo.
Borchadin ayru Navoiyg‘a qilib vasling nasib,
Qilmag‘il, yorab, ani mundin, muni andin judo.

Demak, Navoiyning ketma-ket tuzilgan devonlaridagi ijtimoiy mavzudagi g‘azallari uning har bir devonida son jihatidan ortib borgan. «Ilk devon» da bu mavzuda 7 g‘azal joylashtirilgan bo‘lsa, «Badoe’ ul-bidoya» da yana 7 g‘azal kiritilgan. Bu 7 yangi g‘azal Navoiyning 25 yoshlaridan 38 yoshlargacha bo‘lgan hayoti mobaynida ijod etilgan va bevosita shoirning ana shu yillardagi ijtimoiy, falsafiy, ma’rifiy, badiiy-estetik qarashlarini ifoda etadi.

«Navodir un-nihoya» devonidan o‘rin olgan ijtimoiy-ma’rifiy mavzudagi g‘azallar avvalgi ikki devon doirasidagi shunday g‘azallardan g‘oyaviy-mundarijaviy qurilish jihatidan jiddiy farq qiladi. Bu g‘azallarda shoir lirik qahramoni kayfiyatidagi tushkun, pessimistik ruh badiiy tasvir jarayonida yorqin fon bo‘lib xizmat qiladi. Shoir badiiy obrazlari ana shu fonda talqin etiladi. Bu davr lirikasida sotsial didaktika Navoiyning panteistik dunyoqarashi asosida yuzaga kelgan so‘fiyona xulosalari bilan uyg‘unlashib ketadi (Nukta nozik bo‘ldi asru, bo‘lg‘ay erdi koshki, shammai bu ramzdin zohir qilurg‘a mahrame...»). «Dahr» va «dahr eli» bevafoligi, johilligidan qattiq iztirob chekkan shoir bu jahon va undagi insonlar uchun qayg‘urish befoyda, undan butunlay ko‘ngul uzmoq kerak,

degan xulosaga keladi. Navoiyning shu mazmundagi eng mashhur baytlarining ham ayni shu davrda yaratilganligi muhim ahamiyatga egadir:

Gar budur olam, kishig‘a mumkin ermas anda kom,
Haq magarkim kom uchun boshtin yarotqoy olame.
Yo‘q vafo jinsi bani odamda, bo‘l navmidkim,
Sen vafo ko‘rmak uchun xalq o‘lg‘usi yo‘q odame.

«Navodir un-nihoya» devoni shoirning 45 yoshigacha yaratgan g‘azallarini o‘z ichiga olib, uning «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga yozgan debochasida keltirgan kishi hayoti fasllari haqidagi o‘z e’tiroflariga ko‘ra, o‘rta yoshlik lirikasini tashkil etadi.

«Navodir un-nihoya» tuzilgandan keyin yozilgan va «Xazoyin ul-maoniy» devonlaridan o‘rin olgan ijtimoiy-ma’rifiy ruhdagi g‘azallar Navoiyning keksalik lirikasida ham g‘oyaviy-tematik va badiiy jihatdan muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lganligini ko‘rsatadi. Chunonchi, bu davrda shoirning ijtimoiy masalalarga bo‘lgan munosabatida so‘fiylik dunyoqarashining kuchli ta’siri seziladi.

2.

Alisher Navoiy she’riyatining asosiy qismi «Xazoyin ul-maoniy» devonlar kulliyotidan joy olgandir. Uning she’riyati mavzusi uch qismga bo‘linadi: falsafiy-tasavvufiy mavzu, ijtimoiy mavzu va ishq-muhabbat mavzusi.

Navoiyning tushunchasida ishq – eng oliyjanob insoniy fazilatdir. U g‘ayriixtiyoriy ravishda yuzaga kelgan pokiza his-tuyg‘udir. Shoir «Mahbub ul-qulub» asarida yozishicha, ishq shunday bir yulduzdurki, bashar farzandlari ko‘zining nuri va ravshanligi undan, so‘ngra, u bir quyoshdirki, qayg‘uli xotirlar tikanzori undan chaman

hosil qiladi. Xullas, u kishilik tojining bezagi, inson ishqi bilan baholanadi. Muallif ishq haqida keng va ibratli ta’rif bergach, uni uch qismga bo‘ladi: avom (oddiy kishi) ishqi va xavos (xos kishilar) ishqi va pok ishq. «Xazoyin ul-maoniy» devonlarida ishqning ana shu uchala qismiga ham doir she’rlar anchagina. Shoirning «Hayrat ul-abror» dostonida «Sittai zaruriya» nomli forsiy qasidalar majmuasi tarkibiga kiruvchi «Qasidai Ruhul-qudsi tavhidi bori taolo» asarida podshoh tarzida tasvirlangan «ko‘ngul» obrazini ko‘zdan kechiraylik. Navoiy lirik she’rlarida ko‘ngulning xilma-xil holatlardagi tasvirini chizish bilan o‘zining falsafiy, axloqiy fikrlarini nafis tarannum etishga erishdi. Shoirning ayrim g‘azallarida ko‘ngul lirik qahramonning eng yaqin musohibi, muhibi tarzida gavdalanadi. U lirik qahramon bilan o‘zining eng nozik tuyg‘ularini o‘rtoqlashadi:

Yordin kelmish manga bir turfa maktub, ey ko‘ngul,
Kim erur ham satri, bal, har lafzi marg‘ub, ey ko‘ngul.
Lafz yo‘q, har harfi jon hirzi, dag‘i har nuqtasi
Mardumak yanglig‘, biaynih, ko‘zga matlub, ey ko‘ngul.

Mazkur baytlarda yordan kelgan maktubning oshiq qalbida o‘yg‘otgan tug‘yoni mubolag‘a va inkor hamda musalsal tashbeh san’atlari vositasida juda nafis ochib berilgan. Ya’ni ma’shuqa maktubi ta’riflanar ekan, bunday ta’rif oshiqning o‘zini ham qoniqtirmaydi. U maktubni yanada asosliroq ta’riflashga kirishadi: «Yo‘q-yo‘q, xatning har lafzi emas, balki har bir harfi jonimni balo-qazodan asraguchi tumordir (hirzi jon – tumor). Uning har bir nuqtasi esa ko‘z qorachig‘i yanglig‘ aziz va sevimlidir», degan fikr bayon etiladi. Uchinchi baytda yana bir favqulodda poetik fikr bayon etiladi. Ma’lumki, tumor insonning fe’lidagi junun asarlarini daf’ etsa, ma’shuqaning maktubidan qilingan tumor esa oshiqni «ilgida mag‘lub» qilib qo‘yadi:

Ayladim tumor, agar tumor etar daf’i junun,
Bu meni qilmish junun ilgida mag‘lub, ey ko‘ngul.

Buyuk shoir g‘azal matlasida tasvirlangan fikrni tadrijiy rivojlantira borib, shunday poetik fikrlarni bayon etadiki, o‘quvchi tasavvuri poetik tasvir qarshisida mo‘jizaviy bir holat oldiga kelib qolganday lol bo‘lib qoladi. Shoirning tasviricha, tumor qilingan xatning mo‘jizasi shunda emishki, unda mahbuba o‘z muhabbatining sharhini yozgan emas ekan. Balki o‘zi kofirgun libos kiyib, ajoyib mahbuba qiyofasida oshiqning oldiga kelgan ekan:

Safhada ermas muhabbat sharhikim, kelmish kiyib
Hullayi kofirgun bir turfa mahbub, ey ko‘ngul.

She’rning davomida lirik qahramonning o‘sha parivash nomasini takror-takror o‘qiyverishi (yoki kofirgun – oppoq libosli mahbubani takror-takror ko‘raverishi) tufayli el orasida majnunlikka mansub bo‘lib qolganligi bayon etiladi. Bu yerda parivash va majnun so‘zlari vositasida ham tanosib san’ati yaratilgan. Zero, el orasida pari insonga uchrasa, uning aqlu hushini olib devona qilib qo‘yadi, degan rivoyat shoyondir. Ana shu voqealardan keyin lirik qahramon Ko‘ngulga nasihat qiladi:

Asru ko‘p takror etardin ul parivash nomasin,
Bo‘lmisham el ichra majnunliqqa mansub, ey ko‘ngul.
G‘ayrdin sahfangni qilg‘il pok, ya’ni aylama
Xotiring lavhini har xat birla ma’yub, ey ko‘ngul.

G‘azalning maqtasida xat so‘zini ikki ma’noda qo‘llashdan iborat yana bir chiroyli san’at – iyhom ishlatilgan:

G‘amdin ozod o‘ldi xattidin Navoiy, bermasa,
Begiga qulluqqa xat bo‘lg‘aymu mahsub, ey ko‘ngul.

Birinchi misrani ma’shuqa xati tufayli Navoiy g‘amdan ozod bo‘ldi, ma’nosida tushunish mumkin. Yana uni yorning labi ustidagi xattini ko‘rib, Navoiy g‘amdan ozod bo‘ldi, degan mazmunda anglasa ham bo‘ladi. Oxirgi misrada esa xat so‘zi uchinchi ma’noda qo‘llanilgan. Ya’ni lirik qahramonni xo‘jayini – begi – ma’shuqasi g‘amdan ozod etgan, unga «sen endi ozodsan» deb tilxat bermasa bo‘lmaydiku, bu narsa beklik va qullik o‘rtasidagi sheriklik qoidasidir, degan fikr anglashiladi. Shu tariqa Navoiy ko‘ngul obrazi vositasida majoziy ishqning turfa bir lavhasini yaratadi. «Badoe’ ul-bidoya» ning 134 g‘azalida ham hijron dardida o‘rtanayotgan oshiqqa xabarchi (qosid) yordan keltirgan maktub tufayli oshiq qalbida tug‘yon urgan quvonch hissiyotlari badiiy aks yettiriladi. G‘azalning umumiy mazmuni quyidagilardan iborat: qosid tomonidan mening jonimga orom bag‘ishlash uchun etkazilgan xabar ahunday bir jonbaxah shabbodaki, unda obi hayvonning bo‘yi bor. Nomaku, menga xabarchining qo‘lidan, xabarchi esa yorim yonidan keldi. Eldan jon hidi kelmoqda, el esa Kan’on osmonidagi oydan xabar beryapti. Agar e’tibor berilsa, ayni shu fikrlarni ifodalashda muallif yonma-yon qo‘yish (parallelizm), ya Shirin o‘xshatish (tashbehi po‘shida) hamda talmeh san’atlarini o‘ta san’atkorlik bilan tasvir vositasiga aylantirgan. Chunki mohi Kan’on istilohi ostida shoir hazrati Yusuf hamda Ya’qub payg‘ambar qissasi voqealariga ishora qilmoqda:

Noma qosid ilgidin, qosid habibim ollidin,
Mujdai jon eldinu el mohi Kan’ondin kelur.

Navbatdagi baytda yor tomonidan vasl va’da qilib yuborilgan maktub hijron azobida o‘rtanayotgan oshiqqa jon bag‘ishlovchi jarangdor so‘z sifatida baholanadi. Oshiqning nazarida mazkur xatni yozayotganda yor qalamining uchidan tomayotgan har tomchi siyoh – gavhardir. Lekin, oddiy gavhar tomchisi emas. Xatni o‘qiyotganda oshiqning kipriklaridan tomgan shodlik yoshlariga o‘xshagan gavhardir. Mana, musalsal tashbih, zanjirli o‘xshatish deb ataluvchi san’atning go‘zal namunasi bo‘lgan o‘sha bayt:

Gavharedurki, chiqmish xomasining no‘gidin,
Noma uzra shodlig‘ ashkimki mujgondin kelur.

Navbatdagi misralarda yor yuborgan maktub mazmuni ahli dard kishilarining nomaqbul jamiyatda chekayotgan azoblari bayonidan iborat ekanligi aytiladi hamda ahli dard, ya’ni jamiyatning asl farzandlari boshiga tushgan dardu balolar charxu gardondan ekanligi qayd qilinib, yorning maktubiga jiddiy ijtimoiy-siyosiy libos kiydiriladi:

Vahki, mazmunidir ahli dard sargardonlig‘i,
Har balo maktubikim, bu charxi gardondin kelur.

She’rning maqtasi ham o‘zining milliy ruhi bilan xalqimizga xos so‘z o‘yini (askiya) uslubidan yaxshi foydalanilganligi jihatidan ham diqqatni tortadi. Baytning mazmuniga ko‘ra, maktub egasi «mening nomamga Navoiy jonini nisor qilmaydi», degan mazmunda qochirim qiladi. Bu qochirimga esa muallif «koshkiydi, menda jon bo‘lsa, yo‘q jonni qanday qilib xatingizga nisor etay», degan javob qaytaradi. Chunki u hijron azoblarini torta-torta jonsiz tanaga aylanib qolgan edi:

Deb emish nomamg‘a qilmaydur Navoiy jon nisor,
Anda jon bo‘lsa, qachon bu nav’ ish ondin kelur.

Baytda «Anda jon» iborasini iyhom qilib, shoir «Yorim Andijonda bo‘lsa, shuncha yo‘lga jonni nisor qilib yuborish qanday qo‘limdan kelsin», degan mazmunni ham bayon etadi.

G‘azalda jon va ko‘ngul so‘zlarining bir necha bor takrorlanishidan iborat san’atlar ham mavjudki, bular ham she’rning mukammal chiqishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Navoiy ijodini asosan ishqiy mavzudagi she’rlar tashkil etadi. Bu, albatta, tasodifiy emas. Chunki Sharqning mutafakkir shoirlari ishqni juda chuqur ma’noda tushunganlar. Ularning nazarida haqiqiy oshiq komil inson bo‘lishi kerak, shunday ekan, ishq ham loyqa tuyg‘ular pardasi ostidagi xira nimarsa emas, balki pokiza insonning qalb ko‘zgusida aks etuvchi beqiyos go‘zallik, uning ongini ham go‘zallikka yo‘llovchi ilohiy nurdir, shuning uchun ham, mumtoz sharq shoirlari butun qobiliyatlarini ana shunday she’rlarni yaratishda namoyish etganlar. Alisher Navoiy komil insonning xislat xususiyatlarini aks yettiruvchi yuzlab g‘azallar yaratgan. Uning «Ashraqat…», «Ul parivashkim…», «Ko‘rgali husnungni…», «Ko‘nglum o‘rtansun agar…», «Ne ajab…», «Navbahor ayyomi bo‘lmish…» va boshqa o‘nlab g‘azallarining xalq og‘zidan tushmay kelayotganligiga sabab ham shu.

3.

«Siroj ul-muslimin». «Musulmonlar charog‘i» deb ataluvchi bu asar 905-hijriy - 1499/1500 melodiy yilda 197 baytdan iborat bo‘lib masnaviy tarzida yozilgan. Bu asar asari ma’rifiy mazmun badiiy talqin etilgani bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy asarning kirish va xotima qismlarida uning yozilish sabablari haqida so‘z yuritgan.

Hazrat Navoiy, avvalo, Allohga hamd va payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ga salot va salomlarini yo‘llagach mazkur kitob nazmining sababi bayoniga o‘tadi. Dastavval, sulton Husayn Boyqaroga cheksiz hurmatini izhor etib, bir voqeani bayon qiladi. Asarni yozishga marhum Xoja Ubaydulloh-Xoja Ahrori Valining so‘z asnosida Alisher Navoiyni eslab, «u juda ko‘p asarlar bitdi, agar u islomiy mavzularni ham nazm qilsa edi, munosib ish bo‘lardi» («Kim, ul ko‘p nazm derga bo‘ldi rog‘ib, Bu yanglig‘ nazm ham erdi munosib») degan so‘zlari ham bois bo‘lgan ekan. Albatta, Alisher Navoiyning bunday e’tiroflari bejiz emas, chunki u Xoja Ahrori Vali murshidi bo‘lgan naqshbandiya sulukining irodatmandi bo‘lib, murshidning istaklarini amalga oshirishi kerak edi.

Ikkinchi tomondan esa shariat ahkomlarini turkiy tilda sodda va tushinarli tarzda bayon etish zarurati ham bu asarning yozilishiga sabab bo‘lgan. Bu haqda Alisher Navoiy quyidagicha yozgan:

Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur,
Ki bo‘lg‘ay dinu islom uyi ma’mur.
Nekim, din ahlig‘a bo‘lg‘ay zarurat,
Bari tutqay ani bilgancha surat.
Ham etkaymen burun sharhi aqoyid
Ki islom ahlig‘a bergay favoyid.
Yana ham farz, ham vojib, sunnan ham,
Nekim oriz bo‘lur yaxshi , yamon ham-
Ki din ahlining o‘lg‘ay dilpaziri,
Musulmonlig‘ ishida noguziri.
Bayon qilg‘aymen andoq rav shanu pok,
Ki idrok etkay oni xayli atrok.

Asarning asosiy qismida Alisher Navoiy dastavval aqoid hamda shariat hukmlari sharhiga to‘xtaladi.

“Siroj ul- muslimin” ning hamd qismi ham o‘ziga xos: na hazrat Navoiy va na o‘zga mumtoz shoirlar nazmidagi birorta ham hamdni takrorlamaydi.

Hamddan keyin muallif payg‘ambar alayhissalom na’tiga o‘tadi: (Qilib barhaq ulusqa anbiyosi, Muhammad - barchasining peshvosi. Munga yuz ming salom andin damodam, yana avlodiyu as’hobig‘a ham.)

Na’t - payg‘ambarlar sultoni, Odam ota farzandlarining afzali Muhammad alayhissalom ta’rifi. Unga ummat bo‘lish sharafining vasfi. Na’tlar o‘quvchini komillikka da’vat qiladi, o‘zlik manziliga yo‘llaydi. Darhaqiqat, hazrat Navoiy qisqa satrlarga ulkan ma’noni joylaydi. “Muhammad - barchasining peshvosi” misrasi orqali Alloh taolo insoniyatga juda ko‘plab payg‘ambarlar yuborgan bo‘lsa ham, Rasulullo alayhissalom ularning eng afzali ekanini ifodalaydi. Ul zotning o‘ziga ham, avlodiyu as’hobiga ham yuz ming salom yo‘llaydi.

“Kitob nazmining sababi” bobida muallif zamona hukmdori Sulton Husaynga bag‘ishlab qasida-baytlar ijod etadi. Asar dastlab Suyima G‘aniyevaning “Navoiy yodga olgan asarlar” risolasida ushbu asar haqida fikr bildirilgan[21]. Unda asar yozilgan sana, tarkibiy tuzilishi, mazmuni haqida muxtasar ma’lumot beriladi.

Alisher Navoiy “Siroju-l-muslimin” asarini aqoid va fiqh kitobi sifatida yozdi. Ma’lumki, aqoid - e’tiqod ilmi. Aqida masalalari musulmon ma’naviyatida barcha davrlarda ham muhim o‘rin tutgan. Asarda aqida masalalari o‘ziga xos ifodalangan. Muqaddimada ulug‘ shoir nazmda o‘z zamonasining bemisl ijodkori sifatida shuhrat qozongani, she’rlarining “xayli odam ichra” ofat solganini aytadi. Tafakkur egalaridan biri - Sulton Husayn bazmining nuktadoni buyuk mutafakkir asarlarini oliy bir imoratga qiyoslaydi. Bu shunday bir

[21] G‘anieva S. Navoiy yodga olgan asarlar. – Toshkent, 2001.

inshootki, musofirlar, ya’ni mutolaa qiluvchilar uchun barcha sharoit muhayyo: unga yetishganlar orom topadi, maqsadi hosil bo‘ladi. Biroq u odamning andak e’tirozi ham bor: Shoir nazmi odamlar qalbiga ishq otashini solgan, kimki bu she’rlarni o‘qisa, hamisha oshiqu mast bo‘lmoqni tilaydi. Uning e’tiroziga ko‘ra, dini islom uyiga g‘avg‘o solib, yaxshilik imoratini bunyod etish mumkin emas.

Alisher Navoiy “Siroj ul-muslimin” asari orqali dini islom uyini obod etmoq, barcha zarur masalalarni bayon etmoq istaydi. “Kitob nazmining sababi” bobida muallif islom ahliga foyda yetkazmoq uchun avval aqoid sharhini maqsad qilganini, bundan tashqari, farz, vojib sunnat kabi fiqhiy masalalarni yoritish niyatini bildiradi. Toki, u din ahlining ko‘ngliga xush yoqsin, musulmonlikda zaruriy ehtiyojga aylansin. sobit e’tiqodli, ma’naviyati butun shaxslarni tarbiyalashga xizmat qilsin.

Alisher Navoiy “Siroj ul-muslimin” aqida va fiqh kitobi hamdir. “Shariatda ahkom Sharhi va aqoid va qavoidi adosi” bobida ulug‘ shoir asarning bu xususiyatini quyidagicha izohlaydi:

Burun bilkim, erur shar ‘ ichra ahkom –
Ki, bilmak oni bo‘lmish elga nokom.
Ul ahkom ikki yanglig‘ bo‘ldi mavjud –
Ki, bordur har birida o‘zga maqsud.
Birisidin murod o‘ldi aqida,
Amal matlub bo‘ldi ul birida.

Ya’ni shariat hukmlarini bilmoq juda muhim. Taassufki, el bundan mahrum. Bu hukmlar ikki qismga bo‘linadi va har birining maqsadi o‘zgacha. Biridan murod - aqida bo‘lsa, ikkinchidan maqsad - amal. Avvalgisi aqoid, ikkinchisi esa far’iy ahkomlar deb atalgan.

Asarda Navoiy e’tiqod ilmiga doir qarashlarni quyidagi tizim asosida ifodalaydi:

1) iymon qoidasining qisqacha bayoni;
2) iymon keltiriladigan narsalar tafsiloti;
3) Alloh taoloning sakkiz sifati - e’tiqodning asosi ekani;
4) haq deb bilinishi aqidadan hisoblangan boshqa narsalar haqida.

Burun ul nimakim, farz yetti Yazdon.
Erur oqilg‘a bolig‘ bo‘lg‘ach iymon.
Aningma’nisidur til birla iqror,
Ko‘ngul birla inonmog‘lig‘ dag‘i bor.

Ya’ni oqil va balog‘atga yetgan inson uchun Yazdon - Alloh taolo farz qilgan dastlabki amr iymon keltirmoqdir. Demak, iymon farz bo‘lmog‘ining ikki sharti bor: birinchisi, aql rasoligi, ikkinchisi, balog‘atga yetmoq.

Tilar bo‘lsang anga o‘zni yeturmak,
Bil olti nimaga iymon keturmak.

Alisher Navoiy asarda olti narsaga iymon keltirish shartligini bayon etadi:

1) Xudoni tanish, uning na o‘xshashi, namonandi borligiga iymon keltirmoq. U boru yo‘qni yaratgan bo‘lib, undan o‘zga iloh mavjud emas;

2) Farishtalarni Alloh taolo ibodatga muvofiq qilib yaratganiga ishonmoq;

3) U Zot nozil etgan kitoblarga iymon keltirish, ularning barchasini ilohiy va qadimiy deb bilish;

4) Payg‘ambarlarga iymon keltirish: *Yana ham anbiyog‘a qilmoq iqror- Ki, borin elga irsol yetti Jabbor;*

5) Qiyomatga iymon keltirmoq;

6) Yomonlik yoki yaxshilik Haq taolo taqdiri ekaniga ishonmoq.

Asarni o‘qigan har bir kitobxon shariat qonun-qoidalari, ahkomi, besh ruknlari to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘ladi. Alisher Navoiyning uqtirishicha:

Chu ravshan aylar islom ahli zotin,
«Siroj ul-muslimin» qo‘ymishmen otin.
Umidim ulki, har kim o‘qug‘ay,
Munung nuri bila ko‘ngli yorug‘ay.

Bu asar davlatimiz istiqlolga erishgani munosabati bilan olima Suyima G‘aniyeva tomonidan nashrga tayyorlanib, muxtasar kirish so‘zi bilan ta’minlandi va 1991-yilda bosmadan chiqarilib, o‘quvchilarga taqdim etildi.

«Arba’in hadis» yoki «Arba’in». «Qirq hadis» deb nomlangan bu asar 886 hijriy- 1481 melodiy yilda yozilgan bo‘lib, uning yozilish sabablari Alisher Navoiyning «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida shunday bayon qilingan:

«Ul vaqtdakim alar (ya’ni Abdurahmon Jomiy) «Arba’in hadis»ni forsiy nazm bila tarjima qilib erdilar va ma’hud odat bila borcha ashobdin burunroq faqirg‘a iltifot qilib, musavvadasin (qo‘lyozmasini) berdilar, chun mutolaasig‘a mashg‘ul bo‘ldum… hamul «Arba’in»-g‘a turkicha til bila tarjima orzusi ko‘ngulga tushti. Alardin (Abdurahmon Jomiydan) ruxsat sharafiga musharraf bo‘lg‘ondin so‘ngra hamul kun ul samin javohir nazm silkiga kirdi» [22].

Arba’in - (qirq hadis) hadislarning she’riy tarjimasi bo‘lib, an’anaviy hamd va na’t bilan boshlanadi. “Arba’in” muqqaddima (46 misra), 40 ta hikmatli qit’a (160 misra) va xotima (10 misra) dan

[22] Valixo‘jaev B. Mumtoz siymolar. -Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.- 148-b.

iborat. Qit'alar 40 ta qadimiy arabiy hadis (hikmat) mazmunidan kelib chiqib yozilgan.

Arba'in arabcha "arba'", ya'ni "qirq" so'zidan olingan bo'lib, qirqta mashhur, sahih hadis mazmunini she'riy vaznda, aniqrog'i, bir ruboiyda ifodalash san'atini anglatgan. Bunday asarlar oddiy xalq vakillari hadislar mazmunini oson tushunishi va xotirasida uzoq saqlab qolishi uchun xizmat qilgan. Navoiy zamonida ham butun ulus, xususan, oddiy xalq ommasi arab tilini bilmagan va bu tilda yozilgan manbalarni tushunmagan.

Hadislarni sharhlashdan kuzatilgan asosiy maqsadni Alisher Navoiy «Arba'in» uchun masnaviy shaklida yozilgan kirish qismida shunday bayon etgan:

Ul Rasule, ki ham kalomi faseh,
Elga tegurdi ham hadisi saheh.
To ulus jahldin xalos bo'lub
Ilm xilvatgahiga xos bo'lub.
Chun tamuqdin najot topqaylar
Ujmoq ichra hayot topqaylar.

Demak, asar xalqni jaholatdan qutilib, ilmli va ma'rifatli bo'lishi kerakligi kabi olijanob niyat bilan yozilgan. Darhaqiqat, asarda pand-nasihat mavzusidagi qirqta hadis tanlanib, ular nihoyatda katta mahorat bilan o'zbek tiliga talqin qilingan.

Bu ishning qanday amalga oshirilganini aniq tasavvur yettirish maqsadida ulardan ayrimlarini nazardan o'tkazish ma'qul.

1. Hadisning asli:

Al-ilmu la yahillu man'hu, ya'ni ilm o'rganishga mone'lik qilma.

Abdurahmon Jomiyning sharhi:
Ey garonmoya mardi donishmand,

Ki turo ilmi din buvad ma’lum.
Musta’idro az on mashav mone’,
Mustahiqro az on makun mahrum.
Alisher Navoiyning tarjima- sharhi:
Ey xiradmand olimeki sanga
Ilmdin ro‘ziy ayladi sone’.
Kishi o‘rgansa, qilmag‘il mahrum,
Yoki naf’ olsa , bo‘lmag‘il mone’.

Keltirilgan misolda arab, fors va turkiy tillar qatnashmoqda. Arab tilidagi matn nihoyatda ixcham bo‘lib, to‘rt so‘zdan tashkil topgan. Jomiy va Navoiy misralari asliy matnning so‘zma-so‘z tarjimasi bo‘lmay, balki badiyat qonuniyati asosida amalga oshirilgan to‘rt misralik qit’a talablariga muvofiq mufassal sharhlardir, ularda qofiya bor, vazn bor. Hadisning asl matnida esa saj’ ham, qofiya ham yo‘q . Ammo unda o‘ziga xos boshqa xususiyat mavjud. U ham bo‘lsa, har bir asosiy uch so‘zdan- «al-ilm», «yahill», «man’h» dan so‘ng «u» unli tovushi takrorlanib, hadisdagi ohangdorlik-kuyni maydonga keltirgan. Jomiy va Navoiy sharh-qit’alarining birinchi baytida olim-donishmandga murojaat qilish bor. Bu murojaat asl matnda yo‘q, demak u sharhlovchilarning ilovasi. Qit’alarning ikkinchi baytida esa hadisning mazmuni qamrab olinib, ular asosiy maqsadni ifodalovchi yakuniy baytga aylanganlar. Shunday qilib, bu sharhlar hadis ruhidagi mustaqil, axloqiy mavzudagi qit’alar shaklini olgan.

2-misol: Hadisning asli:

Xayr un-nasi man yanfa’uli-n-nasi, ya’ni insonlarning yaxshisi insonlarga foydasi tegadiganidir.

Aburahmon Jomiyning sharhi:
Ey ki pursi, ki behtarin kas kist?
Go‘yam az qavli behtarin kason:

Behtarin kas kase buvad, ki zi xalq
Besh boshad ba xalq naf'rason.
Alisher Navoiyning tarjima- sharhi:
Xalq aro yaxshiroq, deding kimdur?
Eshitib, ayla shubha raf' andin.
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,
Etsa ko'prak ulusqa naf' andin

Umumiy yo'nalish , ya'ni tarjima- sharhlik nuqtayi nazaridan bu misol ham avvalgisiga o'xshash bo'lsa-da, ammo, bu misolning yana o'ziga xos tomonlari ham bor. Bu o'ziga xosliklardan birinchisi shundan iboratki, arab tilidagi matnda ohangdoshlik (nasi,nasi) ko'zga tashlanadi. Hadis o'z ruhi bilan savol –javob uslubini eslatadi. Ana shu uslub Jomiy va Navoiy sharhlarida ham mavjud. Shuning uchun har ikki muallif qit'alarining birinchi bayti shoirlarning savol beruvchi shaxsga murojaati shaklini olgan bo'lsa, ikkinchi baytlar unga javob tarzida bo'lib, hadisning mazmunini o'zlarida mujassam etganlar. Uchinchidan, hadisning birinchi qismidagi «xayr un-nasi»- «yaxshi odam» iborasi Jomiyda uch marta «behtarin kas» tarzida takrorlangan bo'lsa, Navoiyda «yaxshiroq» so'zi ikki marta ishlatilib, asosiy urg'u shunga qaratiladi hamda oxirda unga javob beriladi. Shunday qilib, Jomiy ham, Navoiy ham bu xulosani fikrning yuqori nuqtasi darajasiga ko'taradilar va o'quvchini unga zina-bazina olib chiqadilar.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning «Arba'in hadis» yoki «Arba'in» deb ataluvchi asari hadislar misolida muallifning hayot va insoniylikka doir mulohaza va mushohadalarini yaqqol gavdalantiradi.

«Nazm ul-javohir». «Tizilgan gavharlar» ma'nosini anglatuvchi bu asar 890 h.- 1485-melodiy yilda yozilib, Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan.

“Nazm ul javohir” asari muqaddima va hazrat Ali (Alloh undan rozi bo‘lsin) hikmatlarining she’riy tarjimasi sifatida kelgan 255 ta ruboiydan («Makorim ul-axloq» da 260 ruboiy deb ko‘rsatilgan) iborat. Aynan ruboiy tanlanganidan maqsad, shaklan ixcham, lekin, katta ma’no tashiydigan janrda hikmatlar tez og‘izga tushadi, odamlar ongiga tezroq singadi. Ruboiylarning barchasi qofiyali va radifli, ya’ni “taronai ruboiy” shaklida bitilgan. Alisher Navoiyning uqtirishicha, asarning yozilishiga sabab bo‘lgan manba hazrat Alining «Nasr ul-laoliy» nomli hikmatli so‘zlar to‘plamidir: « Parishon xotirg‘a… bu orzu… erdikim,- deb yozadi Alisher Navoiy,- turkiy tili bilan men ham ul laolini orasta qilg‘ayman… to andin turk ulusig‘a ham hazzi shofi va bahrai vofi muyassar bo‘lg‘ay». Ana shu orzuni Alisher Navoiy amalga oshirib, «Nasr ul-laoli»dagi hikmatli so‘zlarni o‘zbek tiliga ruboiy tarzida o‘giradi. «Har ruboiyning to‘rtalasi misra’ini muqaffoi muraddaf mar’i tutuldi». Darhaqiqat asardagi 255 ruboiyning hammasi ana shunday(to‘rt misrasi ham qofiyali va radifli) tartibdadir.

Asarda avval hazrat Alining arab tilidagi hikmatli so‘zi keltiriladi so‘ng esa uning Alisher Navoiy tomonidan amalga oshirilgan sharhi beriladi.

“Ruboiy” arabcha “arba’” (to‘rt) so‘zidan yasalgan, to‘rtlik ma’nosini anglatadi. Asar muqaddimasidayoq “to‘rt” soni bilan bog‘liq qiziq ma’lumotlar keltiriladi. Masalan, Alloh hamdi, Payg‘ambar na’tidan so‘ng to‘rt sahoba vasf etiladi:

Avvalg‘ini fazl durig‘a ummon bil,
Soniysini adl gavharig‘a kon bil,
Solisni hayo gulbunig‘a bo‘ston bil,
Robi’ni valoyat badanig‘a jon bil.

Shoir ushbu ruboiyda tartib bilan hazrat Abu Bakr, hazrat Umar, hazrat Usmon va hazrat Alini o‘ziga xos uslubda vasf qiladi.

Shundan so‘ng hazrat Ali alohida: “Robi’kim, anosiri arba’ aning tarkibi maxzanig‘a chahor devor va rub’i maskun chahor devori aning panjai valoyati bila barqarordur” singari jumlalar bilan tavsif etiladi. Ma’nosi: “(Ulardan) to‘rtinchisikim, to‘rt unsur (havo, tuproq, suv, olov) uning xazinasi tarkibini to‘rt devordek o‘rab turadi va aholi yashovchi yerlar to‘rtdan bir qismining to‘rt devori uning hokimlik qo‘li ostida barqarordir”. Bu jumlada to‘rt soni bilan bog‘liq uchta birikma bor: anosiri arba’, chahor devor, rub’i maskun.

Shoir to‘rtinchi ulug‘ sahobani ta’riflash bilan cheklanmay, to‘rt soniga aloqador keng qamrovli birikmalarni zargarona qo‘llab, ham asar badiiyatini oshirgan, ham hazrat Aliga cheksiz hurmatini izhor etgan.

Alisher Navoiy hikmat durlarini she’r ipiga tizar ekan, so‘z san’ati turlaridan ustalik bilan foydalanib, ularga ayricha jilo beradi. Masalan, hazrat Alining : “Jalla man lo yamutu” (O‘lmaydigan Zot buyukdir) hikmatini bunday nazmga soladi:

Gardunki xaloyiqg‘a vafosi yo‘q aning,
Javr ichra ulug‘-kichikka posi yo‘q aning.
Har kimki kichik bo‘lsa, baqosi yo‘q aning,
Kimki ulug‘, bilki, fanosi yo‘q aning.

Shoir hikmatning ma’nosini to‘rtinchi misrada bergan hamda “kichik”, “ulug‘”, “fano”, “baqo” so‘zlari vositasida tazod san’atini qo‘llagan. Ushbu qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni keltirib, o‘quvchi ko‘z o‘ngida muqoyasaga sharoit yaratadi va maqsadiga oson etadi.

“Sabotul mulki fil ‘adli” (“Davlat adolat bilan mustahkam bo‘ladi”) hikmatining nazmi:

Adl aylaki, ul xalq hayoti bo‘lmish,
Xush ul kishikim adl sifoti bo‘lmish,
Ham mulk bila adl jihoti bo‘lmish,
Ham adl bila mulk saboti bo‘lmish.

Ya’ni mulk (mamlakat, yurt)ning saboti – barqarorligi adolat tufaylidir. Buning uchun esa hukmdor adolatni kasb etmog‘i kerak, deydi shoir. Uchinchi va to‘rtinchi misralardagi “adl” va “mulk” so‘zlari o‘rin almashib tardu aks san’atini hosil qiladi.

Yana bir hikmat: “Sodatul ummatil fuqahou” (“Ummatning yetakchilari faqihlardir”). Bu o‘gitda fiqh ilmi ulug‘lanadi. Alisher Navoiy esa buni asoslaydi.

Qolg‘an kishi kasbi ilmdin zahmat aro,
Fiqh o‘rgansun sa’y ila avval mehnat aro,
Ilm ichra sharaf fiqhda bil nisbat aro,
Kim, sarvar erur faqih bu ummat aro.

Ya’ni, ilmsiz mashaqqatda qolgan kishi mehnat qilib, fiqh ilmini o‘rgansin. Shoir hazrat Alining , ummat orasida faqihlar boshliq, etakchi, ma’nosidagi hikmatini sharh qilib beradi, deb yozadi akademik Aziz Qayumov.

Ruboiydagi “fiqh” va “faqih” so‘zlari bir o‘zakdan yasalgani bois ishtiqoq san’ati ro‘yobga chiqqan.

Ruboiylarda adolat va imonlilik, saxiylik va ilmlilik, do‘stlik va muruvvat, ota-ona hurmati kabi masalalar yoritilgan. Fikrimizning tasdig‘i uchun bir necha ruboiyni misol tarzida keltirish mumkin:

1.Qardo shing emas ulki qo‘yub bosh sanga,
Davlat chog‘i qilg‘ay o‘zni yo‘ldosh sanga.
Kim qildi qatig‘lig‘da vafo bosh sanga,

Ul boʻldi haqiqat ichra qardosh sanga.

(MAT, 15-tom, 137-bet,№2)

2.Ista ato yoʻlida fido jon qilmoq,
Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq.
Zuhri abad istasang farovon qilmoq.
Bil oni ato-anogʻa ehson qilmoq.

(oʻsha asar, 138-bet, №11)

3.Farzand ato qullugʻin chu odat qilgʻay,
Ul odat ila kasbi saodat qilgʻay.
Har kimki, atogʻa koʻp rioyat qilgʻay,
Oʻgʻlidin anga bu ish siroyat qilgʻay.

(oʻsha asar, 151-bet, №89)

4.Kimni tilasang bilay, maqolin angla,
Aslin desang anglayin, fiolin angla.
Kirdorigʻa boqib, asl holin angla,
Asligʻa dalil aning xisolin angla.

(oʻsha asar, 148-bet, №72)

5.Xub el bila suhbat tutubon xub oʻlgʻil,
Yaxshini talab qilgʻilu matlub oʻlgʻil,
Shirin soʻz ila xalqqa margʻub oʻlgʻil.
Yumshoq de hadisingniyu mahbub oʻlgʻil.

(oʻsha asar, 171-bet, №201)

Demak, Alisher Navoiy islomiy tamaddun manbalarida insonni komil boʻlishlikka da’vat etuvchi barcha ezgu fikrlarni turli shaklda xalqqa etkazgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarining tuzilishi haqida ma’lumot bering?
2. «Xazoyin ul-maoniy» devoni tartibi haqida gapiring?
3. Shoirning ilk devoni va uning tuzilishi?
4. «Siroj ul-muslimin» asarining yozilish sababi?
5. «Arba’in» asarining mazmun mohiyatini so‘zlab bering.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Siroj ul-muslimiyn. TAT. O’n jildlik. 10-j. – Toshkent: G’afur G’ulom n-dagi AS nashriyoti, 2011.
2. Alisher Navoiy. “Navoiydan chu topqaylar navoye”. – Toshkent: Hilolnasr, 2014.
3. Alisher Navoiy. MAT. Yigirma tomlik. 16-t. “Sirojul-musliminning izoh va tarjimalari”. – Toshkent: Fan, 2000.
4. Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. 2 jildlik. 2-j. – Toshkent, 2002.
5. G’aniyeva S. Navoiy yodga olgan asarlar. – Toshkent, 2007.
6. Arba’in //Nashrga tayyorlovchi: Karimbek va Saidbek Hasan; Sharhlovchi A. Rustam. - Toshkent: Meros, 1991.
7. Arba’in: Qirq hadis sharhi / So‘z boshi mualliflari va sharhlovchi: Q.Ahad, O.Mahmud. -T: Adabiyot va san’at, 1995.
8. To‘xliev B. Navoiyshunoslik. – Toshent: Bayoz. 2021.

5 – MAVZU: BADIIY SAN'ATLAR VA UNING ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDAGI O'RNI

Dars rejasi:

5.1. Alisher Navoiy she'riyatida adabiy-estetik tamoyillar va uslub xususiyatlari.

5.2. Poetik matnda shakl va mazmun masalasiga doir.

5.3. Navoiy she'riyatida badiiy timsol talqini

Tayanch so'z va iboralar: *muammolar, vazn masalalari, badiiy san'atkorlik, ijtimoiy lirika, shakl, mazmun, Yevropa, germenevtika.*

1.

Alisher Navoiy lirikasi xususiyatlarini tekshirish sohasi keyingi yillarda qator ilmiy tadqiqotlar bilan boyidi. Ammo, bu mavzu hanuz navoiyshunoslikning juda ko'p yo'nalish larida ilmiy izlanishlar olib borishga ehtiyoj tug'dirmoqda. Bunday izlanishlar jarayoni Navoiy poetik uslubining haqiqiy qiyofasini, uning butun boyligi, go'zalligi, sermazmunligini kashf etish imkoniyati bo'lib xizmat qiladi.

Navoiyning she'riy uslubini aniq tasavvur etish uchun bir qator ilmiy masalalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bu – shoirning aruz texnikasi sohasidagi mahorati, uning badiiy san'atkorlik sohasida qo'llagan yangi tasvir usulllari va kashfiyotlari, she'r kompozitsiyasi sohasidagi yangicha qarashlar, lirikaning ijtimoiy vazifasi haqidagi o'ziga xos mulohazalar va sh.k. masalalardan iborat. Shu masalalarga qisqicha to'xtalsak.

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida aruz vaznlaridan eng mukammal foydalangan shoirlardan biri Alisher Navoiydir. U o'z badiiy ijodi misolida o'rta asrlarda arab va fors-tojik adabiyotlarida ancha mukammal ishlangan va go'zal lirik she'rlar, devonlar shaklida ommalashgan aruz vazniga asoslangan she'riy san'atni

turkiy til imkoniyatlari vositasida badiiylikning eng baland maqomiga koʻtardi va bu bilan aruz fanining yana bir til doirasidagi nazariy va amaliy taraqqiyotiga asos soldi. U oʻzining aruz nazariyasiga bagʻishlangan «Mezon ul-avzon» asarida bu ilm sohasidagi maʼlumotlarni yigʻib, tartibga solib, tushuntirib berish bilangina chegaralanib qolmadi. Uning bu risolani yozishdan maqsadi aruz fanidagi muammolarni ommalashtirish, ularni arab va fors-tojik adabiyotlari maydoniga olib kirishgina emas, «balki aruz muammolarining birmuncha yangi talqinini berish va aruzni boyitish»23 dan iborat edi.

Arab alifbosining turkiy til ehtiyojlariga toʻliq javob bera olmasligi va bu til imkoniyatlarini ancha chegaralab qoʻyishi, aruzda bitilgan nazmiy asarlarda biror harfning notabiiy choʻzilishi bilan bogʻliq nuqsonlar yuz berishi xususida Zahiriddin Muhammad Bobur oʻz davrida muxtasar maʼlumot bergan edi. Maʼlumki, vazn sheʼriy misralarda koʻp noaniqliklarni ravshanlashtiradi. Soʻz tarkibi, talaffuzi, shakl va boʻgʻinlari, majoziy maʼno, koʻp ohanglilik kabi unsurlar vazn talablaridan kelib chiqadi. Agar matnda baʼzi anglashilmovchiliklar koʻzga tashlansa, uni vazn talablari nuqtayi nazaridan tekshirib aniqlik kiritish mumkin.

Navoiy lirikasi, epik va nasriy asarlari vaznlari xususida bir qator ilmiy tadqiqotlar bajarilgan boʻlsa-da, ular Navoiyning aruz fanida naqadar mukammal ijod etganligini taʼkidlagan, isbot etgan holda, uning turkiy aruz taraqqiyotiga qoʻshgan hissasini aniqlash uchun yetarli manba boʻla olmaydi. Bu hol Navoiy ijodiy jarayoni xususiyatlarini ham jiddiy va har tomonlama oʻrganishni taqozo etadi. Navoiy asarlari matnlarini vaznlar sohasida qiyoslab oʻrganish natijalari esa shoir gʻazallari matnlarining mukammalroq, asliyatga yaqinini topish, ilmiy-tanqidiy matn yaratish sohasidagi izlanishlarga muhim yangilik boʻlib qoʻ shiladi.

[23] Abdugʻafurov A. Navoiy satirasi. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 1966.- 267-bet.

Turkiy tilli xalqlar ijodiyotida aruz juda uzoq tarixga ega boʻlsada, uni adabiyotshunoslik fani talablari nuqtayi nazaridan nazariy jihatdan oʻrgangan va ommalashtirgan shaxs Navoiy edi. Aruzning amaliy taraqqiyotini taʼminlashda shoirning «Xazoyin ul-maoniy» devonlarini tuzish davridagi ijodiy mehnati boshqa juda koʻp omillar qatorida oʻziga xos bir bosqich boʻldi.

Alisher Navoiyning aruz sohasida erishgan yutuqlari va uning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati belgilanar ekan, eng avvalo XIV-XVI asrlarda yashagan barcha fors-tojik va turkiy shoirlar asarlarining poetik matn variantlari qiyosiy tekshirilishi, ikkinchidan, arab, fors-tojik va turkiy adabiyotlarda mavjud boʻlgan barcha asarlarning vazn tahrirlari sohasi qiyosiy oʻrganilishi, uchinchidan, kelib chiqishi turkiy boʻlib, fors-tojik tilida ijod qilgan shoirlarning ham sheʼriy uslublari oʻrganilishi lozimdir. Bu oʻz navbatida Navoiy ijodi badiiy yetukligiga asos boʻlgan muhim unsurlarning ochilishi uchun imkon yaratadi.

Navoiy oʻzining har bir asarida adabiyotga biror yangilik berishni maqsad qilib qoʻyadi. Klassik sheʼriyatning eng koʻp bahs-munozaralarga sabab boʻladigan badiiy sanʼatlar sohasida shoir gʻazallari variantlarini oʻrganish ham turkiy sheʼriyatning baʼzi nazariy masalalarini ilmiy idrok etishga, shubhasiz, xizmat qiladi:

Birinchidan, Alisher Navoiy oʻz lirikasida badiiy sanʼat vositalaridan mukammal darajada foydalanar ekan, oʻsha davr turkiy sheʼriyatida avvaldan maʼlum boʻlgan va mustahkam qonuniyatga asoslangan sanʼatlarning shoir gʻoyaviy maqsadini yanada aniqroq aks yettirib faoliyat koʻrsata olishi mumkinligini isbotlab berdi.

Ikkinchidan, Navoiy badiiy adabiyotning vazifasi jamiyatga badiiy shaklda xizmat qilishdan iborat ekanligini, mukammal yaratilgan insonning fikri va soʻzi ham goʻzal, mukammal, yoqimli boʻlishi lozimligini oʻz sheʼriyati misolida tasdiqlaydi. Bu bilan Navoiy oʻrta asr Sharq adabiy merosi butun insoniyat kelajagiga

daxldor olamshumul ahamiyatga ega boʻlib, uning shaklbozlikdangina iborat emas ekanligini qayta-qayta uqtiradi. Agar lirikaning katta ijtimoiy vazifasi shubhasiz ravshan boʻlmaganda edi, Navoiy oʻz she'rlaridagi har bir bayt yoxud soʻz mavqei masalasiga jiddiy e'tibor bermagan boʻlar edi.

Uchinchidan, shoir turkiy til xususiyatlari, stilistikasi qonuniyatlari, ogʻzaki badiiy yodgorliklarning yozma adabiyotga, xususan, lirikaga ta'siri masalasi, umuman, XV asr ijodiy poetik uslubi va bu uslub negizini tashkil etuvchi xalqchillik tamoyilini mukammal darajaga yetkazishga muvaffaq boʻldi. Shoir yangi turkiy soʻzlar, iboralar, maqollarni oʻz nazmiga kiritdi, ularga sayqal berdi. Demak, turkiy tilning hazrat Navoiy ijodi orqali boyishi va yangilanishi, kamolot choʻqqisiga koʻtarilishida uning oʻziga xos estetik zakovatining ham ma'lum darajada oʻz oʻrni va hissasi bor ekan.

Toʻrtinchidan, «Majolis un-nafois» tazkirasidan ma'lumki, Navoiy oʻzidan ilgari oʻtgan va zamondosh boʻlgan shoirlar ijodini ziyraklik bilan kuzatgan, badiiy jihatdan tahlil etgan, ba'zilariga oʻz mulohazalarini bildirgan. Navoiy tahlillari chuqur nazariy asosda puxta ishlangan ilmiy tahlillar boʻlib, oʻrta asr sxolastikasidan ancha yiroqdir. Navoiy oʻz asarlariga ham tanqidiy nuqtayi nazardan yondashadi, tahlil etadi, qayta ishlaydi. Demak, Alisher Navoiy bugungi rivojlangan adabiyotshunosligimizdagi analitik uslubning ham boshlovchisi, asoschisi boʻlib qoladi.

Beshinchidan, Navoiy davrida badiiy san'at vositalari haqidagi ilmlarni oʻrganib, umumlashtirib va tasnif etib beruvchi ikki asarning24 paydo boʻlishi oʻsha davrda adabiyotshunoslikning bu sohasiga nisbatan boʻlgan qiziqishni kuchaytirdi. Navoiyning oʻz she'rlarida badiiy san'atlar takomiliga e'tibor berishi unga

[24] Husayn Voiz Koshifiyning «Badoe' al-afkor fi sanoyi' al-ash'or» va Atoulloh Husayniyning «Badoyi' us-sanoe'» asarlari.

zamondosh bo‘lgan va undan keyin ijod etgan turkiy tilli shoirlarni ham ijodiy izlanishlarga rag‘batlantirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur, Fuzuliy, Ogahiy, Avaz O‘tar, Furqat kabi shoirlar ijodi bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Alisher Navoiy g‘azallari matnlarining badiiy san’at vositalari nuqtayi nazaridan tahlili va talqini uning nihoyatda keng dunyoqarashi va zakovati, she’rshunoslik sohasidagi chuqur bilimi va o‘z davri uchun taraqqiyparvar bo‘lgan g‘oyaviy-estetik mavqye’idan dalolat beradi.

Alisher Navoiy badiiy asar kompozitsiyasini ishlashda jahon adabiyoti miqyosida tengi yo‘q so‘z san’atkorlaridan biri hisoblanadi.25 U o‘zining birinchi rasmiy devoni «Badoe’ ul-bidoya»ga yozgan debochasida g‘azal poetikasi va kompozitsiyasi masalalariga to‘xtaladi va bir qator tanqidiy mulohazalar bayon etadi.

U she’rning g‘oyaviy va badiiy ta’sir kuchiga alohida e’tibor bergani holda, g‘azalning g‘oyaviy-estetik asoslarini tashkil etuvchi qat’iy adabiy qonuniyatlarni yuzaga keltiradi, deb hisoblaydi. Shu maqsadda shoir Sharq devonchiligi sohasida to‘plangan an’ana va tajribalarni umumlashtirib, ularni tamoman yangi shakl va mazmunda rivojlantirib dunyoga keltirgan devoni «Badoe’ ul-bidoya»ga «Debocha» yozadi. Bu debochada Navoiy badiiy ijodda xalqqa foydali mazmunning muhimligi, badiiy shaklning ham go‘zal ishlangan bo‘lishi, g‘azal yaratganda ko‘proq mavzuning yakpora usulda yozilishiga e’tibor berish, har bir lirik janr xususiyatiga ko‘ra mazmun tanlash, muhabbat haqidagi she’rlarda ham ma’rifatli fikrlarni joylashtirish, bu nav’ she’riyatda behayo tavsifni yo‘latmaslik masalalari xususida fikr bildiradi.

Navoiy ijodiy prinsipining muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida uning o‘z devonlarini «Debocha» lar bilan ta’minlaganligi hodisasini

[25] Бертельс Е.Э. Избранные труды. «Наваи и Джами». – М: Наука, 1965.- С.164.

qayd etish lozim. Bu mavzu o‘zbek adabiyotshunosligida V. Zohidov,26 M.Solihova27 maqolalarida, F.Karimova[28] ning nomzodlik dissertatsiyasida maxsus o‘rganilgan. Shoir o‘zi tartib bergan «Badoe’ ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlari, «Xazoyin ul-maoniy» devonlar kulliyotiga maxsus debochalar yozadi. «Navodir un-nihoya» devoniga yozilgan debocha hali noma’lum bo‘lib, bizgacha yetib kelgan ikki debocha mazmunidan anglashilishicha, Navoiyni kompozitsiya borasida nafaqat alohida olingan lirik janr doirasidagi, balki, umuman badiiy ijoddagi an’anaviy yakranglik qanoatlantirmay, u bu sohada ham yangilikka, mukammallikka intiladi. Shu jihatdan mazkur «Debocha» lar, shoir devonlari mundarijasi haqida qisqacha ma’lumot beruvchi «muqaddimalargina» bo‘lib qolmay, Navoiyning poetika sohasidagi chuqur ilmiy kashfiyotlarini, she’rshunoslikning nazariy masalalari tahlili va taraqqiyotini, qolaversa, yangi adabiy kanonlar majmuasini o‘zida aks yettiruvchi ilmiy asarlar hamdir. Bundan ko‘rinadiki, Navoiy fehrast yoki debocha kabi bir qarashda katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lmagandek tuyulgan, alohida adabiy janr sifatida e’tirof etilmagan, biroq, devon muallifining adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari xususidagi fikrlarini bayon etishi uchun qulay imkoniyat yaratuvchi ushbu miniatyur ilmiy asarlar kompozitsiyasiga ham o‘ziga xos yangiliklar kiritadi, ularning ilmiy funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu debochalarda va sharq klassik nazmiyotida Alisher Navoiy ko‘rsatib bergan asosiy adabiy-estetik prinsiplar haqidagi fikrlar mavjud edi. Shu boisdan ham Navoiy «Xazoyin ul-maoniy» devonlar kulliyotiga yozgan debochasida «agar mening devonlarimni ko‘chirar ekanlar, bu devonlarning yuzaga

[26] Zohidov V. Debochaning siri.- Toshkent: 1975; Jahon badiiyati zarvaraqlari.- Toshkent: 1980.
[27] Solihova M. Navoiy debochalarida shoir biografiyasiga doir ma’lumotlar. //Adabiy meros. 1-t. Toshkent: 1968.
[28] Karimova F. O‘zbek adabiyotida debocha. (NDA). -Toshkent: 1993.

kelishidan iborat debochamni ham albatta qo‘shib ko‘chirsinlar», deb uqdiradi.

Navoiyning kompozitsiya masalasida g‘azalga nisbatan bo‘lgan qator talablari, ya’ni g‘azalning aniq bir mavzusi bo‘lishi lozimligi, shoir g‘oya-maqsadining shu mavzu orqali ifodalanishi, lirik qahramon kechinmalarining konkret sharoit bilan bog‘lanishi, baytlarning mazmunan izchil rivoji, matla’ va maqtaning ham mavzu va mazmun yuzasidan mantiqan o‘rinli, g‘azal g‘oyasi bilan uyg‘un bo‘lishi kabi masalalar uning o‘zi tomonidan nazariy jihatdan ishlanib, qat’iy adabiy kanon darajasiga yetgan edi.

Navoiy devonlarida yetuk sharqona falsafiy tafakkurning yuksak badiiy ifodasi bo‘lmish hamdlar keng o‘rin egallaydi. Ma’lumki, daho so‘z san’atkorining umumbashariy ijodi har qanday milliy (tor ma’noda: millat ma’nosida), irqiy, diniy, mafkuraviy hududlarni yorib chiqadi va faqat insonni ulug‘laydi, uning kamoloti uchun xizmat qiladi. Navoiy ijodining olamshumul ahamiyatini ta’minlovchi asosiy omillardan biri ham uning islom ma’naviy xazinasidan, tasavvuf ilmidan bahramandligi, ilg‘or fikrli s o‘fiylar oqimiga mansubligi edi.

Alisher Navoiyning dunyoqarashiga ko‘ra, adabiy tafakkur insonning katta jismoniy, ruhiy mehnatlarning zahmatini chekib, o‘zini har tomonlama poklab erishadigan ba shariy boyligidir. Navoiy adabiy tafakkurining beqiyos, olamshumul parvoziga sabab bo‘lgan narsa uning badiiy tasvir sohasidagi beqiyos san’atkorligidir.

Har qanday devonning birinchi - boshlovchi g‘azali muallif nazarida shu devonni tashkil etuvchi boshqa g‘azallardan g‘oyaviy-badiiy yetukligi, tasvir prinsiplari va ifoda uslubining yangiligi, o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi lozim. Ikkinchidan, devonni ochuvchi g‘azal o‘quvchi nigohida shu devonning badiiy qimmati, g‘oyaviy ruhi, shoir uslubi va poetik stillari, adabiy an’analarga munosabati, poetika sohasidagi ilmiy-nazariy bilim va imkoniyatlari

kabi jihatlardan muayyan tasavvur hosil qiladi. Devonning boshlovchi g‘azaliga mazkur ma’nodagi talab va mas’uliyatlarning yuklanishi bu g‘azal mavqe’ining devon g‘azaliyoti doirasida ustunligi haqida fikr uyg‘otadi.

Shoir lirikasida aynan shu davrda janr rang-barangligi ham kuchli bo‘lganligini (16 xil janrda ijod qilgan), badiiy san’atlar texnikasi, tasvir usullari va boshqa sohalardagi dinamik rivoj namoyishi ko‘zga tashlanadi.

Navoiy o‘z hamd va na’tlarida til ilmi qonuniyatlari va qoidalariga, ayrim so‘zlar va so‘z birikmalari etimologiyasiga, sodda va xalqchil til xususiyatlariga katta e’tibor berdi.

O‘rta asr adabiyotshunoslari shakl va mazmun munosabatlari tushunchasini «lafzu maoniy» jumlasi bilan ifodalaydilar va shaklga aloqador bo‘lgan barcha unsurlarni «lafz» so‘ziga tegishli deb biladilar. Ularning aksariyati o‘z asarlarida shakl va mazmunning to‘liq mutanosibligini, o‘zaro teng darajada uyg‘unligini yoqlaydilar. Alisher Navoiy esa bu masalaga yangicha yondashadi, ya’ni, har qanday badiiy asarda, jumladan, lirikada ham mazmun har doim shakldan ustun bo‘lmog‘i kerakligi, she’rning go‘zal shakli g‘oya va mazmunning to‘la va yorqin ifodasi uchun xizmat qilmog‘i lozimligini birinchilardan bo‘lib ta’kidlaydi. Bu hodisa Navoiyning adabiyot va adabiyotshunoslik taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi va beqiyos yutug‘i edi. Alisher Navoiyning badiiy asarda ma’no va mazmunni birlamchi o‘ringa qo‘yishi, shaklni va uning ma’no va mazmunga nisbatan bo‘lgan munosabatlarini ikkilamchi, tobe’ unsur sifatida baholashi hozirgi davr adabiyotshunosligining estetik talablariga mos keladi va buyuk ijodkorni taraqqiyparvar adabiyot nazariyotchisi sifatida namoyon etadi.

Alisher Navoiy she’r kompozitsion mukammalligi sohasida ijodiy ish olib borar ekan, avvalo, g‘azallarining semantik-stilistik strukturasi va ulardagi emotsional tasvir yo‘siniga alohida e’tibor

berdi, she’r kompozitsiyasini poetik usullar, badiiy tasvirning yangi ko‘rinishlari bilan yanada boyitdi. Navoiy nafaqat g‘azalning kompozitsion butunligi, undagi qismlarning emotsional-estetik funksiyalari haqidagi qarashlarini, balki har bir she’riy asarda g‘oyaviy mazmun va badiiy shakl garmoniya prinsiplari asosida bequsur yaratilishi lozimligini ifoda etdi. Navoiy g‘azallar g‘oyaviy-badiiy takomilini ko‘zda tutib olib borgan ijodiy mehnati g‘azal janrining turkiy adabiyotdagi kompozitsion mukammallikka erishuviga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Navoiy lirikasida ijtimoiy masalalarning qo‘yilishi va hal etilishi ancha keng doiradagi g‘azallarda kuzatiladi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlariga avvalgi uch devon tarkibiga kirmagan ijtimoiy mavzudagi 62 g‘azal joylashtirilgan. Bu g‘azallarning avvalgi devonlarda uchramasligi ularning «Navodir un-nihoya» tartib berilgandan keyin yozilganligiga ishora etadi. Navoiyning 45 yoshdan keyingi hayoti davomida davr voqealari va zamondoshlariga bo‘lgan munosabati, jamiyat ijtimoiy voqeligining shoir taqdiridagi aks sadosi uning ushbu davr lirik ijodida o‘ziga xos yo‘nalish larda ifoda etiladi. Hamdlarda (orifona g‘azallarda) avvalgi devonlarning shu tipdagi g‘azallarida ko‘rinmagan xususiyat - tasvir obyekti bo‘lmish Tangri taologa munojot, iltijo ohanglarining ustuvorligi ko‘zga tashlanadi. Badiiy ifodaning vasf, ta’rif, tavsif formasida ijod etilgan hamdlar turkumi shoir keksalik lirikasida sharhi hol, mushohada tipidagi tasviriy usullar vositasida mazmunan kengayib boradi. Mamduhga bevosita murojaat, o‘tinch, iltijoli fikrlar Navoiy hamdlarining maqtadan oldingi baytlari va maqtalarida ifoda etilib, shoirning bu sohadagi estetik prinsiplari asosini belgilaydi.

Navoiyning keksalik davrida yozilgan ijtimoiy ma’no kasb etuvchi g‘azallar badiiy tasvir usullari va mazmun-mundarijasiga ko‘ra shoir dunyoqarashining bu davrdagi o‘zgarishlarini bir necha aspektda ifodalab beradi. Bu g‘azallarning barchasida mavzu-g‘oya

ifodasi, tasvirlanmish va tasviriy imkoniyatlar turlicha bo‘lsa-da, yakuniy fikr bir xil ma’noda, ya’ni o‘zlikdan kechib, Fanoga yuz tutish maqsadi ifodasi bilan intiho topadi. Jumladan, qarilik lirikasi g‘oyaviy motivlari shoir tasvir-ifoda uslubining quyidagi yo‘nalishlarida talqin etiladi:

a) munojot tipidagi g‘azallarda;

b) didaktik nasihat yoki tajribali keksaning yoshlarga beradigan pand-o‘gitlari ifodalangan g‘azallarda;

v) so‘fiylik ruhida yozilgan - orifona yoki bevosita tasavvuf masalalarini muhokama va targ‘ib etuvchi g‘azallarda;

g) «qarilik» va «yigitlik» mafhumlari vositasidagi mushohadaviy-didaktik g‘azallarda.

Ijtimoiy-ma’rifiy mavzu vositasida yuzaga kelgan didaktika shoir hayotining turli davrlarida o‘sha davr mazmuni bilan hamohang ravishda namoyon bo‘ladi. Yigitlik davrida u optimistik, hayotsevar tonusda falsafiy mohiyat kasb etadi; o‘rta yoshlikda umuman bu foniy dunyodan «qo‘l yuvish», uni rad etish ma’nosidagi passiv didaktika shaklida ifodalanadi; keksalik davri g‘azallarida didaktik bo‘yoq shoirning so‘fiylik dunyoqarashi asosidagi fikrlarida o‘z aksini topadi. Keksalik lirikasida ijtimoiy mavzuning mantiqiy rivoji va xulosasi uchun xizmat qiluvchi didaktikaning avvalgi davr g‘azaliyotidan farqli jihati shundaki, unda yana hayotga muhabbat (yigitlik lirikasidagi kabi jo‘shqin, ilmiy-falsafiy ohanglarda bo‘lmasa-da), uni ongli kechirishga rag‘bat targ‘ib etiladi.

Navoiyning «Ilk devon» da ijtimoiy-ma’rifiy mavzu talqini kuchli biografik asosga ega bo‘lsa, «Badoe’ ul-bidoya» da bu mavzu shoir falsafiy qarashlarining nazariy masalalarini ham qamrab olgan holda ifoda etiladi. Chunonchi Navoiy «zamon» va «ahli zamon» dan qattiq shikoyat, tanqid ruhidagi fikrlari vositasida shu zamon noyetukligiga sabab bo‘luvchi muammolar, illatlarni ochib tashlashga, shu munosabat bilan inson ruhiy dunyosi va jamiyat

kasalliklariga davo izlashga intiladi, o‘z davrida ma’rifat vositasida komil insoniy jamiyat qurishga umid bog‘laydi. Bu g‘azallarda yuksak optimistik ruh hukmron bo‘lib, ular Navoiyning barcha davrlarda yaratilgan g‘azallaridan ana shu jihatlari bilan ajralib turadi. Agar Navoiyning 30-40 yoshlari oralig‘ida buyuk Temuriylar davlatidagi g‘oyat katta ijtimoiy-siyosiy faoliyatining badiiy ijodiga bo‘lgan ta’sirini idrok etadigan bo‘lsak, bu hodisaning tabiiy ekanligiga amin bo‘lamiz. Bu davr lirikasida Navoiy ijtimoiy didaktikani falsafiy didaktika darajasiga ko‘tardi. Shoir lirikasida namoyon bo‘lgan hayotsevar pafos keyinchalik uning epik asarlarida yanada yuksakroq maqomda o‘z ifodasini topdi. Navoiy lirikasi qahramoni keyinchalik uning ijodiy kamoloti cho‘qqisi bo‘lmish «Xamsa» dostonlari qahramonlari obrazlarida o‘zining mukammal siymosiga, ko‘rinishiga ega bo‘ldi.

Muxtasar xulosa shundan iboratki, Navoiy o‘zining olamshumul ijodi misolida lirikaning jamiyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida tutgan o‘rni, uning badiiy ijod, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid sohalari rivojiga bo‘lgan ta’siri doiralarini ham ko‘rsatib berdi va bu narsa shoir lirikasini keng ko‘lamda – g‘oyaviy-badiiy, adabiy-estetik, ilmiy-nazariy aspektlarda yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi

2.

O‘rta asrlar klassik poeziyasining turli masalalari G‘arb adabiyotshunoslari asarlarida o‘rganilgan bo‘lib, uzoq tarixga egadir. G‘arb olimlari o‘rta asrlar Sharq adabiyotida o‘ziga xos mustaqillik, originallik haqida fikr yuritar ekanlar, aksari Yevropa poeziyasi materiallariga suyanib ish ko‘radilar. Ana shu sababdan ham ularning bildirgan fikrlari va xulosalarida biryoqlamalik, chegaralanganlik ko‘zga tashlanadi. Jumladan, biz nazarda tutayotgan mavzu -

badiiylik ilmi masalalarining o‘rganilishi xususida ham xuddi shu holni ko‘rish mumkin. Bunday g‘arb nazariyotchilarining fikrlariga ko‘ra, sharq klassik poeziyasida an’anaviylik kuchli bo‘lganligi sababli, originallik, o‘ziga xoslik faqat badiiy asarning tashqi ko‘rinishi, shaklidagina namoyon bo‘ladi. Ya’ni, klassik poeziyada mavzu va mazmun avvaldan belgilab berilganligi, har bir Shoir o‘z mahoratini ana shu mavzuning yangicha talqini, badiiy ishlanilishida ko‘rsatishi lozim ekanligi, bu sohadagi qat’iy an’anani buzishga huquqi yo‘q ekanligini ko‘zda tutib, g‘arb mualliflari: «... авторы стремятся превзойти друг друга в мастерстве владения формой и достигают в соперничестве высокого артистизма», degan xulosaga keladilar. Bu nuqtayi nazarga ko‘ra, o‘zining mustaqil ijodkor ekanligini ta’kidlash uchun o‘rta asr klassik poeziyasi vakili o‘z badiiy yaratmasining shakligagina e’tibor qaratishi lozim (ya’ni badiiy san’atlar o‘yinini ko‘rsatishigina kifoya) bo‘ladi.

Fransuz olimi P. Zyumtor asarlarida ham xuddi shu mazmundagi fikrlar takrorlanib, u hatto o‘rta asr o‘quvchisi poetik asardan uning badiiy shaklidan o‘zga hech narsa kutmaydi, bu poeziyaning asosiy xususiyati uning namoyishkorligidadir (aynan: «teatralnost» so‘zini qo‘llaydi) deyishgacha boradi. U e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan bir tarzda o‘rta asr sharq poeziyasida «mazmun, ma’no va axborotga nisbatan shakl katta ahamiyatga egadir», degan fikrni bildiradi.

Arab poeziyasini o‘rgangan ingliz olimi X. Gibbning ta’-kidlashiga ko‘ra ham, «целью его (ya’ni klassik shoirning) было, развивая ту или иную тему по четко обозначенной канве, украсит её всеми доступными средствами искусства, превзойти своих пред шественников и современников красотой, выразителностю, сжатостю фразы, правдивостю описания и восприятия действительности».29 Shunga o‘xshash fikrlarni bir-

[29] Tarjimasi: uning maqsadi (ya’ni klassik shoirning) u yoki bu mavzuni aniq belgilangan chiziq boyicha rivojlantira borar ekan, uni turli san’at vositalari bilan bezashga, bu sohada o‘zidan oldingu

birini takrorlovchi va shu zamindan fikrlarini rivojlantiruvchi boshqa bir qator G‘arb va ba’zi rus olimlari asarlarida ham ko‘rish mumkin. Qizig‘i shundaki, klassik arab, fors-tojik yoki turkiy poeziyaning ayrim davrlari yoxud alohida olingan yozuvchilar zumrasi faoliyati yuzasidan chiqarilgan xulosalar ko‘p hollarda umuman O‘rta asr sharq poeziyasi va uning barcha davrlariga nisbat beriladi.

Albatta, bu muammoga turli yondashuvlar, nuqtayi nazarlar mavjud bo‘lib, jumladan, rus olimlari D.S. Lixachev, I.Ya. Krachkovskiy, M.V. Jirmunskiy, A.B. Kudelin kabilar yuqorida keltirilgan mulohazalardan tamoman farq qiluvchi fikrlarni bayon etganlar. Masalan, M.V. Jirmunskiy jahon adabiyotshunosligidagi bunday «formalistlar»ni tanqid qilib, klassik arab poeziyasidagi badiiy libos bevosita davr va uslub masalalari bilan ham bog‘liq ekanligini, ya’ni har bir davrda adabiy asar ma’lum uslubda yozilib, davr yangilanishi bilan uslub ham yangilanishini ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, har qanday qalamkash o‘z asarini biror maqsadni ko‘zlab yaratadi. Islomgacha bo‘lgan davr arab sahrolarida bitilgan g‘azallarda shoir o‘zining nuktadonligi, topqirligi, fahmi tez va farosatliligi, hofiza quvvati bilan boshqalardan ustunligini namoyish etishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, o‘rta asrlar nihoyasi, insoniyat Sharq o‘yg‘onish davrining kamolot cho‘qqisiga yetgan bir davrda bu davrning eng yetuk vakili Alisher Navoiy, albatta, badiiy asar yaratishdan tamoman o‘zga maqsadlarni ko‘zlagan edi.

Navoiy ijodida poetik san’atlar shoirning ezgu maqsadlari, estetik idealini badiiy ifoda etish uchun vosita bo‘lib xizmat qilgan. Navoiy uchun hech qachon she’riy san’atlar shunchaki bir san’atkorlikni namoyish qiluvchi vositalar bo‘lgan emas. U haqiqiy novator ijodkor sifatida, o‘zining butun san’atkorlik mahoratini, muhim ijtimoiy-

so‘z ustalaridan o‘zib ketishga, balog‘atda, voqe’likni to‘g‘ri talqin etishda ustunlikni ko‘zda tutish edi.

siyosiy fikrlari, olijanob g‘oyalarini yuksak badiiy saviyada ifoda qilish uchun dadillik bilan ishga solgan.

Alisher Navoiy butun ilmiy va badiiy ijodida, davlat arbobi sifatidagi siyosiy-ijtimoiy faoliyatida islom sarcha shmalari bo‘lmish Qur’oni Karim va hadisi shariflardagi umumbashariy, ilg‘or g‘oya-larga tayandi, tasavvuf nazariyasi, uning ilmiy-g‘oyaviy asosi bo‘lmish vujuduyun ta’limotini chuqur o‘rgandi va targ‘ib etdi. Buyuk shoir sharq o‘yg‘onishi jarayonida yuzaga kelgan eng ilg‘or ijtimoiy-falsafiy hamda badiiy tafakkur yutuqlarini o‘z asarlarida boy falsafiy mazmun va go‘zal badiiy nafosat uyg‘unligida o‘quvchisiga taqdim etdi. Uning falsafiy badiiy tafakkuri taraqqiyoti islom ma’naviyatini keng idrok qilish va uni o‘z ijodiy va ijtimoiy faoliyatida targ‘ib etish g‘oyalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Al-Jurjoniy badiiy shakl va mazmun uyg‘unligida yaratilgan badiiy asarda mazmun yetakchi o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Biroq, uning fikricha, har qanday mazmun biror shaklda namoyon bo‘ladi. Adabiy asarda shakl o‘zgarishi bilan mazmun ham ma’lum darajada o‘zgaradi. Shu nuqtayi nazardan arab adabiyotshunosi klassik adabiyotda shakl mukammalligi ma’no, mazmun mukammalligiga, dinamikasiga xizmat qiladi, degan xulosaga keladi.

O‘rta asrlarda sharq adabiyoti tarixida adabiyotshunoslik masalalari bilan eng ko‘p va izchil shug‘ullangan Alisher Navoiy bu masala xususida katta ilmiy qimmatga ega bo‘lgan fikrlarini bayon etdi.

Shoirning fikricha, poetik asarda badiiylikni ta’minlovchi omillardan birinchisi poetik mazmundir. Shoirning katta ishonch bilan uqdirishicha, poetik mazmun badiiy asarning joni bo‘lsa, boshqa omillar go‘yo unga komillikni, bashariy qiyofani bag‘ishlovchi chiroyli libosga o‘xshaydi.

Shoir o‘zining «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida turkiy tilning badiiy asar yaratishdagi imkoniyatlari xususida fikr yuritib «...bu

lafzda muncha vus’at va maydonida fus’hat topilur. Kerakkim, munda har nav’ suxanguzorlig‘ va fasehguftorlig‘ va nazmsozlig‘ va fasonapardozlig‘ osonroq bo‘lg‘ay ...Bu tilda g‘arib alfoz va ado ko‘pdur», deb yozadi. Buyuk shoir ana shu mulohazalardan kelib chiqib, fikrni badiiy ifodalashda turkiy tilning badiiy shakllari, xilma-xil imkoniyatlaridan g‘oyat san’atkorlik bilan foydalanadi. Shoirning g‘azallarda tadrijiylik va yakporalik, voqeabandlik va voqeabayonlik xususiyatlari haqidagi fikrlari orqali poetik asar mukammalligini ta’minlovchi omillar badiiy shaklga nisbatan badiiy mazmun bilan, muallifning g‘oyaviy maqsadlari bilan ko‘proq bog‘liq ekanligi anglashiladi.

Navoiy o‘zining shu tariqa nazariy qarashlarini turkiy va fors-tojik tillarida yaratgan barcha nazmiy asarlarida barkamol namoyish etdi. U adabiyotshunoslikka oid «Majolis un-nafois» tazkirasida, «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Mezon ul-avzon», «Mufradot» kabi asarlarida, bir qator holotlarida biz yuqorida keltirgan ba’zi G‘arb tanqidchilarining Sharq g‘azalchiligini «artistizm» dan iborat, degan tushunchalariga nisbatan o‘zining sof ilmiy nuqtayi nazarini bayon etgan edi, lirikasi misolida esa o‘z fikrlarining amaliy ifodasini ko‘rsatdi.

3.

Inson umrini Hazrat Alisher Navoiy bir yo‘l deb tasavvur etadilar. Hayoti davomida hech qanday yo‘lni ko‘rmay, bilmay o‘tib ketadiganlar ham bor. Ammo, shoirning tinglovchisi, dil yoruvchisi, hamdardi mazmun bor yo‘lni maqsad qilgan, ya’ni hayotni oson va chiroyli tarzda o‘tkazish uchun zaminlar bor yo‘lni topishga qasd qilgan «ahli xirad», «ahli hush» – aql egalaridir.

Shoir tafakkurining mo‘jizasi shundaki, unga ko‘ra, ma’no va hikmat istab yo‘lga chiqqan xiradmand asl ma’noni topgach, hushu

xirad unga ortiqcha ekanini tushunadi va bu yukdan o‘zini xalos etadi. U ma’noni aql bilan emas, pokiza tuyg‘u bilan his etadi. Aql yo‘lchini ma’no eshigiga qadar yetaklab keladi. Shunda unga namoyon bo‘lgan mukammal mohiyatning bir zarrasigina uni oshiqqa aylantiradi. Shundan boshqa hamma narsadan u bezor, hamma narsa uning uchun bee’tibor bo‘lib qoladi. Uning ahvoli xuddi quyosh yanglig‘ yonishdangina iborat bo‘ladi. Bu yonishga na aql, na hush, na fahm, na his parda bo‘la oladi, uni pinhon tutishning imkoni yo‘q:

Mehrim o‘tin hushu aqlu fahmu his yoshurmadi,
Mehri lomi’ to‘rt burqa’ keynidin pinhon emas.

Hazrat she’riyatlarida vasf etilgan barcha oshiqlar hayotdan chin ma’no istab yo‘lga chiqqan soliklardir. Ular shoir devonlarida turli badiiy timsollar sifatida namoyon bo‘ladilar. Hazrat Navoiyning shunday hammaslaklaridan biri – Hubob ekan!

«Badoe’ ul-bidoya» devonidan o‘rin olgan bir g‘azalda shoir taqdir haqida fikr yuritadi. Chuqur mushohadaga chorlovchi bu g‘azal shoir uslubida juda kam ko‘rinadigan hodisa – matlasidanoq o‘git bilan boshlanadi. Taqdir hukmi o‘zgarmas, deya saboq beradi, shoir, garchi falak yorqin dur singari yulduzlarini boshingdan to‘kib tursa ham, emin bo‘lmaki, bitta ofatlar bilan to‘yingan bulut ustingdan g‘am jalalarini yog‘dirishi mumkin:

Sochsa anjumdin falak boshingg‘a yuz ming durri nob,
Jolayi g‘am, bilki, yog‘durg‘ay bir ofatliq sahob[30] .

Balo yog‘diruvchi bulutning bunday qilishdan maqsadi, albatta, sening umring niholini sindirib, gul xirmani yanglig‘ taningni xarob qilishdano‘zga narsa emas:

[30] Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. I-j. –Toshkent: Fan, 1987: 70-71-betlar.

Ne g‘araz bu jolani yog‘dursa andin o‘zgakim,
Umr naxlin sindurub, tan gulbunin qilg‘ay xarob.

Keyingi baytda Hazrat yana taqdir hukmi va Yaratguvchi hikmati xususida mushohadaga beriladilar. Rizqu ro‘zi ortiq yoki kam bo‘lishini har kim taqdirdan ko‘radi. Adashgan, gumrohlar ham qilgan amallarini yaratguvchi taqdiri deb biladilar. Shu nuqtada shoirning jabar va qadar masalalariga munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Ustoz adabiyotshunos olim Yoqubjon Is’hoqov Navoiyning islomiy, shar’iy dunyoqarashida jabariya va qadariya aqidalarining o‘rni, namoyon bo‘lishi, ijodidagi talqini xususida ravshan dalillangan tadqiqotlar yaratib, aniq xulosalarini bayon etganlar[31]. Albatta, ahli sunna val-jamoa e’tiqodidagi shoir qadariya tariqida bo‘lgan. Ya’ni har bir yaratilmish avvaldan belgilangan ilohiy taqdir bilan dunyoga keladi. Jabar ahli o‘zlarini to‘la mahkumi hukm hisoblab, hayotguzaronlikda hech qanday mas’uliyat his etmaydilar. Ahli sunna esa insonga berilgan idrok, erk, tanlov huquqi nuqtayi nazaridan taqdirga o‘zgartirish kiritilishi mumkin, deb hisoblaydi. Masalan, inson umrining qanchaligi taqdir qilingan. Uni Yaratguvchigina belgilaydi. Ammo, o‘zining hukmiga o‘zi marhamati bilan o‘zgartirishlar ham kiritib turadi. Masalan, sadaqa qilgan insonning umrini uzaytiradi, har yili qadr kechasida insonning bir yillik amallari hisob-kitobi yuzasidan kelgusi bir yillik taqdirini belgilaydi. Bunda mutlaq adolat namoyon bo‘ladiki, payg‘ambar alayhissalom o‘zlarining hadisi shariflarida shunday xabar qiladilar: «Musulmonlar dunyoda yaxshilik ko‘rsalar Allohga hamd aytsin. Agar yomonlik ko‘rar ekanlar, o‘zlaridan ko‘rsin, qilmishlari ularga qaytarilmishdir». Binobarin, yaxshilikni insonlarga faqat yaxshilik istovchi Yaratguvchidan, yomonlikni esa insonning o‘z fe’li va

[31] Is’hoqov Y. Naqshbandiya va o‘zbek adabiyoti. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi XMN, 2002, 47-91-betlar.

amalidan deb bilgan shoir biz anglashga intilayotgan baytda Zol timsolini iyhom qiladi. Zol – hayotda adashganlar oʻzlarining gumrohliklarini Yaratguvchi hukmidan bilib, unga xitob qilar ekanlar, haqiqatan, eʼtiqodda ham adashibdilar, deydi shoir:

Roʻziy ortugʻ boʻlmagʻin har kimki bilgay charxdin,
Zol yangligʻdurki roziq charxini qilgʻay xitob.

Shoir Yaratguvchini dengizga qiyos qiladi. Hubob – har yil kech sumbulada suv yuzida aylanib, suzib chiqib ketadigan suv pufakchalari. Hubobning suv yuzida boʻlgani – u dengizdan ustun degani emas. Chunki suv manbai dengizdir. Qani hubob biror kimsaga bir qatra suv bersinchi?

Ofarinish bahridin gardun hubobi besh emas,
Bormu imkon kimsaga bir qatra suv bermak hubob?

Hubob dengizdan hosil boʻladi. Uning yaratilishi ham, imon-ixtiyori ham, taqdiri ham dengizga bogʻliq. U oʻzi uchun biror narsa qila olish qudratiga ega boʻlmaganligi sababidan oʻz holiga hayron, boshini har tarafga uradi. Ana shu oʻrinda shoirning qoʻliga qalam olishi siri ochiladi. Shoir oʻzini hubob timsolida tasavvur qiladi. Hubobning suv yuzida sirgʻalib ketishidan maqsadi noma'lum. Haqiqat tolibining esa maqsadi ma'lum, ammo, har qancha gʻayrat qilmasin, qasd qilganini topmogʻi noma'lum. Shoir hubob taqdiri vasfini davom ettiradi:

Boʻlsa erdi qudratikim lahzae topqay qaror,
Tunu kun tinmay bu nav' etgaymu erdi iztirob?
Ul dogʻi oʻz holigʻa hayron erur andogʻki men,
Anda ham sargashtaliq andoqki menda pechu tob.

Jismi oning ham havodis zarbasidin nilgun,
Topmayin maqsudini mendek necha aylab shitob.

«Nilgun» so‘zini iyhom qilib, shoir hubobning ko‘kishtob rangi va tolibning hayot zarbalaridan ko‘karib ketgan taniga ishora qilyapti. Shoir keyingi baytda ham o‘zining taqdirini hubob taqdiri bilan solishtirishda davom etadi. Taqdir qo‘lidagi ikki sargashta bir-biriga hisob ham bermaydi, so‘ramaydi ham:

Qudrat ilgida bo‘lub ul ham zabun andoqki men,
Olmay ul mendin hisob, andoqki men andin hisob.

Maqtada yana shoirning taqdir masalasidagi nuqtayi nazari aniq, ravshan namoyon bo‘ladi. U – solik, o‘zini qiyoslagani hubob ham – solik. Hubob dengizdan hosil bo‘ladi, demak, o‘z manbaiga – dengizga intilmog‘i lozim. Navoiy esa faqatgina Haq vujudi mavjud ekanligini tushunsin. Shu vujuddan mavjudlik topgan hamma narsa – mosivalloh, ya’ni yo‘q bo‘lib ketguvchidir. Solik aql va ilhom bilan Haqni tanidi, uning borlig‘ida yo‘q bo‘lib ketishga intildi va bu borada ham Haq taoloning o‘ziga tavakkul qildi:

Ey Navoiy, solik ersang Haq vujudin bil vujud,
Mosivallohni adam, vallohu a’lam bis-savob.

Shu tariqa Yaratganning benihoya ojiz, sirli va yashirin mo‘jizasi bo‘lmish hubob Navoiy she’riyatining betakror badiiy timsollaridan biri sifatida yangi ma’no kasb etadi. Haqiqatan ham, hubobni hamma ham ko‘ravermaydi. U yilda bir marta qish chillasi kelishidan oldin, kech tiyramohda dengiz, daryo yuzidan ko‘kish ko‘piklar yig‘indisi shaklida suzib qayoqqadir o‘tib ketadi. Uni Yaratgan istaganlargina ko‘rib qoladi. Xuddi shunday Yaratgan yashirin odamlar nazdida

ojiz, sirli, mo‘jiza bo‘lmish orifini ham o‘zi tanlaganlargagina tanitadi. G‘ayr, begonalar ko‘zidan rashk pardasi bilan to‘sib qo‘yadi. Orifni, solikni, tolibni taniganlar, ba’zan holini, ba’zan so‘zlarini anglaganlar esa, u va Yaratgan orasidagi sirni muqaddas deb bilmoqlari, omonat saqlamoqlari lozim. Agar aksincha bo‘lsa, boshlariga ofat yetmog‘i ehtimoli bor. «Lison ut-tayr»da shoir shu ma’noda ogohlantiradi:

Shart bukim, anglag‘on sharh etmagay,
To tilidin boshqa ofat etmagay.

Donishmand Navoiy shu g‘azali orqali Tangri taolo o‘zi yaratgan barcha maxluqot va maxluqot gultoji bo‘lmish insonlar orasidan tanlaganlari bilangina sirlashadi, ma’rifatidan bahramand etadi, demoqchi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Turkiy tilli xalqlar ijodiyotida aruz uzoq tarixga ega ekanligi haqida Alisher Navoiy qaysi asarida ma’lumot beradi?
2. Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida qay tariqa o‘zidan ilgari o‘tgan va zamondosh bo‘lgan shoirlar ijodini badiiy tahlil etgan?
3. Navoiy ijodiy tamoyillaridan biri bo‘lmish uning o‘z devonlarini «Debocha» lar bilan ta’minlaganligi hodisasini qanday tushuntirish mumkin?
4. O‘rta asr adabiyotshunoslari tomonidan qo‘llangan «lafzu maoniy» jumlasini qanday tushunasiz?
5. Ulug‘ shoirning ijtimoiy mavzu vositasida yuzaga kelgan didaktik g‘azallari haqida nimalarni bilasiz?

6. G‘arb olimlari O‘rta asrlar Sharq adabiyotida o‘ziga xos mustaqillik, originallik haqida fikr yuritar ekanlar, Sharq poetikasiga qanday baho beradilar?

7. Arab musulmon nazariyotchilaridan Abd-al-Qahir Jurjoniy o‘zining «Dalo‘il al-e’joz» va «Kitob asror al-balog‘a» asarlarida Qur’oni Karimning betakror badiiyatini ta’minlashi mumkin bo‘lgan omillar haqida qanday ma’lumot beradi?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Abdug‘afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. – Toshkent, 1995.
2. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. 2 jildlik. – Toshkent, 2002.
3. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994.
4. Zohidov V. Debochaning siri. – Toshkent, 1975.
5. Rarimova F. O‘zbek adabiyotida debocha. (NDA). – Toshkent, 1993.
6. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. – Toshkent: TAMADDUN, 2012.
7. Куделин В.Г. Средневековая арабская поэтика. - Москва: Наука, 1991.- 362 с.
8. Османов М.Н. Стил персидско- таджикской литературы. (X-XП вв). - Москва: Наука, 1971.- 267 с.
9. Проблемы арабской культуры. - Москва: Наука, 1987. - 392 с.
10. Проблемы восточного стихосложения. - Москва: Наука, 1973.- 184 с.
11. Филлмор Ч. Основные проблемы лексической семантики. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. X11. – Москва: 1983. - С. 32-34.
12. Ҳасанов С. Бобурнинг “Аруз рисоласи” асари. – Тошкент: Фан,1981.- 132 б.

13. Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (У1-ХП вв). – Москва: Наука, 1979.- 254 с.

14. Шпет Г.Г. Внутреняя форма слова. – Москва: Наука, 1927.- 136 с.

15. Шпет Г.Г. Герменевтика и её проблемы. – Москва: Наука,1923.-128с.

6 - MAVZU: XAMSANAVISLIK AN'ANASI VA ALISHER NAVOIY "XAMSA" SI

Dars rejasi:

1. Alisher Navoiy «Xamsa» si yaratilishi arafasida Xuroson ijtimoiy-madaniy muhiti ko'rinishlari.

2. Alisher Navoiy «Xamsa»si va Sharq xamsachiligi an'analari.

Tayanch so'z va iboralar: *monumental asarlar, Uyg'onish davri, badiiy ijod, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, xattot, tasavvuf, xamsa.*

1.

Sharq shoirlari ijodidagi umumiylik, ularning asarlarini yaxlit g'oyaviy qolipga solib turuvchi xususiyatlardan biri – insonparvarlik, gumanizmdir. Bu g'oyani ular bir baytda ham, yirik monumental asarlarda ham mahorat bilan ifoda etganlar. Alisher Navoiy:

Odamiy ersang demagil odame
Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami

deyish bilan Sharq Uyg'onishi mohiyati haqida teran fikr yuritdi.

Uyg'onish davri – insonni, shaxsni kashf etdi. Bu davrning ijodiy metodi insonni ulug'lashdan iborat edi.

Uyg'onish davri madaniyat va san'at, badiiy adabiyotning barcha sohalariga ta'sir qildi. Zero, renessans – badiiy tafakkur demakdir.

Renessans G'arb badiiy tafakkurining yirik vakillari Rafael, Leonardo do Vinchi, Mikelanjelolar qatorida sharq Rafaeli – Kamoliddin Behzodni maydonga keltirdi. Behzod va uning maktabi dunyoga kelishida Sharqda zamin bor edimi?

Ha, renessansga qadar Sharqda badiiy san’atning miniatyura janrida ajoyib asarlar yaratilgan edi. Masalan, «Me’rojnoma» nomi bilan yaratilgan miniatyuralar turkumida Muhammad (a.) ning ko‘kka parvozlari va o‘sha davrdagi hodisalar o‘z aksini topgan edi.

Bu davrda rassomchilikda realistik qarashlar yuzaga kela boshlagan. XIV-XV asrlarda rassomchilik faqat qog‘oz bilan cheklanib qolmagan, balki qasr va ma’muriy binolarda, madaniy imoratlarda sher va ajdaholar, arslon va kiyiklar, laylak va humoylar rasmi chizilgan. Hirotdagi «Tarabxona» qasri devorlarida podshohlarning yurish manzaralari o‘z aksini topgan.

O‘sha davrdagi rassomchilik rivojida ikki yo‘nalish ni ko‘rsatish mumkin:

1) an’anaviy (kitobiy); va 2) hayotiy (realistik).

Rassomchilikdagi tarixiylik an’anasi tarixiy shaxslarning rasmlarini chizishga olib keldi. Bunga misol sifatida Behzod tomonidan chizilgan Sulton Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiyning portretlarini keltirish mumkin. Buyuk rassomning shogirdi Mahmud Muzahhib shoirning keksalikda hassaga tayanib turgan rasmini chizadi.

Hindistonda Humoyun shohning o‘g‘li Akbar zamonida miniatyura san’ati juda rivojlanib ketadi. Hindiston rassomlik maktabi tomonidan Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur portreti dunyoga keladi.

Bobur rasmi esdaliklar asosida chizilgan. Akbar saroy olimlariga bobosining adabiy merosini to‘plashni, esdaliklar yozishni buyuradi. Uning ammasi Gulbadanbegim tomonidan «Humoyunnoma» yuzaga keladi.

Tasviriy san’atning bu darajadagi rivoji badiiy adabiyotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Misol uchun Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida kichkina shahzodaning kasal bo‘lishligi sababli to‘rt qasr quriladi va bu qasrlarda yilning to‘rt fasli tarovati o‘z aksini

topadi. Farhod ul g‘aygach, «Bahr ul-hayot» va «Nahr un-najot» deb nomlangan ariq va hovuz qoshida yaxlit tog‘ning toshidan qasr quradi va uning ichida Shirinning siymosini chizadi.

Alisher Navoiy boy kutubxonaga ega edi. Navoiy Mirxondni mukammal tarix haqida asar yozishga da’vat etadi. Olim «Ravzat us-safo» ni yaratishda Navoiyning Unsiyadagi uyiga kelib, kutubxonasidan foydalanadi. Kutubxonadagi kitoblar teridan qilingan sandiqlarda saqlanar edi.

Mirxondning nabirasi (qizining o‘g‘li) Xondamir Navoiy kutubxonasini ipidan ignasigacha bilgan. Kutubxonaning birinchi mudiri Sultonmurod Naqqosh shahzoda Badiuzzamon Mirzo tomonidan tayinlangan, undan keyin Xondamir mudir bo‘lgan va barcha asarlarini shu kutubxonada yaratgan.

Ana shu tarixchilarning o‘z asarlarida ma’lumot berishlaricha, temuriy shahzodalardan biri uchun chinni idish – guldon tayyorlangan. Uni yaratishda Xoja Ali Kulol rahbarligida 32 hunar egasi jalb etilgan. Bu hodisa o‘sha davrda hunarmandchilikning ham nihoyatda rivojlanganligidan guvohlik beradi.

«Makorim ul-axloq» da Farangiston – G‘arbiy Yevropadagi bir shahardan sandiq-soat keltirilganligi hikoya qilinadi. Sultonmurod Naqqosh shunga o‘xshatib sandiq-soat yasagan. Sandiq ustida odam, uning qo‘lida nog‘ora, nog‘ora yuzida soat, odamning qo‘llarida cho‘plar yasalgan. Soat bir bo‘lsa odam nog‘ora cho‘pini bir marta, ikki bo‘lsa ikki marta uradi. Bu soat Navoiy kutubxonasida saqlangan. Shoir kutubxonasida hatto chinnidan yasalgan sandiqlar bo‘lgan.

Amaliy san’at yo‘nalish ining bunday rivoji ham albatta badiiy adabiyotga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bunga misol sifatida Navoiyning «Sab’ai sayyor» dostonidagi ikkinchi hikoyatni keltirish mumkin. Unda Zayd Zahhokning podshohga yaxshi ko‘rinish uchun sakkiz zinadan iborat o‘zi yurar taxt (eskalator) ixtiro qilganligi hikoya

qilinadi. Bu o‘sha davrdagi amaliy san’at taraqqiyoti darajasini va uning badiiy so‘z san’ati bilan uzviy bog‘liqligi holatini namoyon etadi. Madaniyat, san’at va adabiyotning barcha sohalaridagi har tomonlama bir-biri bilan mahkam aloqada rivojlanib yuksak bir madaniy jarayonning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Bu jarayonda musiqa san’ati rivojining ham o‘z o‘rni bor. G‘ijjak, doira, ud (arfa), chang, qonun, dutor kabi cholg‘u asboblaridan foydalanilgan. «Dutor haqida risola» kabi asarlar yaratilgan.

Shu tariqa amaliy san’at va hunarmandchilikning uyg‘un rivoji natijasida hunarmandlarning san’atkorlarga, shoirlarga aylanishi yuzaga keldi. Ko‘p shoir va san’atkorlar hunarmandlar oilasidan chiqqan.

Bu davrda baland mavqega ega bo‘lgan xattotlik san’ati haqida ham to‘xtalish o‘rinli. Xattotlar juda e’zozlanganlar. Hirotning mashhur xattotlari Sultonali Mashhadiy va Abduljamil Kotiblar tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmalar hozirgi kunda jahonning nufuzli kutubxonalarida saqlanadi.

Xattot o‘z davri badiiy tafakkuri yutuqlarini avlodlarga etkazadigan shaxs bo‘lgan. Shoir – yaxshi xattot, yaxshi rassom, yaxshi musiqachi bo‘lishi lozim bo‘lgan.

Alisher Navoiyning kichik zamondoshi Faxriy Hirotiy shoirning rahbar va rahnamoligida Hirot madaniy hayoti gullab yashnaganligi haqida ma’lumot beradi. «Shu daraja, - deb yozadi Faxriy, – ko‘p nodir xattotu xonanda, sozandayu naqqosh, muzahhibu musavvir, muharrir, shoiru muammoiy kamolga yetib, nash’u namo topdilarki, biron-bir davr bunchalik taraqqiyotni bilmaydi».

Markaziy Osiyo, xususan, Xuroson hayotida ilmiy-falsafiy tafakkur va tasavvuf ta’limoti taraqqiyoti ham o‘z mavqeiga ega bo‘lgan. O‘zining g‘oyaviy yo‘nalishi jihatidan yaxlit oqim bo‘lmay, bir necha tariqatlar (qodiriya, mavlaviya, kubraviya, chishtiya, yassaviya, naqshbandiya va b.) ko‘rinishida rivojlangan tasavvuf

ta’limoti boshlang‘ich davrida yirik ekstazchi[32] so‘fiylar Mansur Halloj, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiylar faoliyati vositasida birgina borliq, Vohid, boshlang‘ich, yagona haqiqat, birgina mohiyat borki, u ham bo‘lsa Haq, ya’ni Xudodir, degan mazmunda yoyilgan bo‘lsa, keyinroq, Imom G‘azzoliy, Xoja Ahmad Yassaviylar davriga kelib tasavvufda Xudo bilan birlashib ketish g‘oyasi ilgari suriladi. Musulmon renessansining faol rivoji davrida Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta sharq mamlakatlarida keng tarqalgan, o‘z davriga nisbatan ilg‘or oqim bo‘lgan Naqshbandiya tariqati asl mohiyatiga ko‘ra, tasavvufdagi asketizm, ya’ni tarkidunyochilikni keskin rad etdi.

Alisher Navoiy davriga kelib bu tariqat o‘zining hayotiyligi, inson va jamiyat ehtiyojlariga mosligi bilan taraqqiyparvar ahamiyat kasb etdi va shoir bu falsafiy ta’limotni chuqur o‘zlashtirgach, o‘z ijodida uni yanada boyitishga, ijtimoiy hayot talablariga yaqinlashtirishga harakat qildi.

Xullas, ana shunday yuksak madaniy taraqqiyot va badiiy tafakkur rivoji donishmand shoir Alisher Navoiyning shoh asari turkiy tildagi «Xamsa» yaratilishi uchun muhim omil bo‘ldi va shoir insoniyat va hayvonotni to‘fon balosidan o‘z kemasida asrab, omon olib chiqqan Nuh alayhissalom singari Sharq Uyg‘onishi yutuqlarini o‘zining bebaho asarlari orqali kelajak avlodga etkazib berdi.

2.

Alisher Navoiy badiiy yuksak devonlar tartib berish bilan birga bir necha epik poemalar – dostonlarni ham dunyoga keltirdi. U 1483-1484- yillarda «Xamsa» dostonlar turkumini, 1501 yilda esa «Lison ut-tayr» dostonini yaratdi. Ammo, shoirning o‘zi ma’lumot berishicha, bu sohada uning ba’zi rejalari ham bo‘lgan. U «Yusuf va

[32] Yakuniy estetik kechinmalar tasavvuf adabiyotida «vajd» goho «tarab» deb nomlanadi. Bu Evropa tillaridagi «ekstaz»ga yaqinroq tushunchadir.

Zulayho» sujeti bilan bir doston yozishni, o‘z ishqiy fojeasi haqida bir doston yaratishni, do‘sti va hamfikri Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan dostonni dunyoga keltirishni niyat qilganligini aytadi. Ammo, shoirning bu rejalari amalga oshmagan ko‘rinadi.

Navoiygacha Sharq adabiyotida turkum asarlar yaratish an’anasi bor edi. Arab adabiyotida «Alfa laylo va laylo» («Ming bir kecha»), hindlarda «Kalila va Damina», «Shubxisaddati» («To‘tinoma»), forslarda Firdavsiyning «Shohnoma», Rudakiyning «Sindbodnoma», turkiylarda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» kabi asarlari mavjud edi. Ammo, Alisher Navoiy boshqacha asar yozishni niyat qildi. U 24-25 yoshlaridayoq o‘zini katta asar yozishga tayyorlaydi:

G‘azal tarzig‘a chu avval aylab sitez,
Jahon ichra soldim ulug‘ rustaxez
Vale qone’ o‘lmay u shoq ishga hech,
Dimog‘imda erdi ulug‘ pech-pech.
Ne maydon aro sursam erdi samand,
Havosin ko‘ngul qilmas erdi pisand.
Xayolimda kishvaristonlig‘ kirib,
Mamolikda sohibqironliq kirib.
Bu ande shadin erdi ko‘nglumda shayn
Ki bo‘ldi ko‘ngul moyili xamsatayn.

Alisher Navoiy o‘zining e’tirof etishicha «xamsa dunyosiga maftun bo‘lib qoldi» va beshlik an’anasiga murojaat qildi. Navoiy o‘z «Xamsa»sida birinchi bo‘lib Nizomiy Ganjaviyni (XII asr) tilga oladi. Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) 1179-1201 yillar oralig‘ida fors tilida beshta doston yaratdi. Ularning birinchisi «Maxzan ul-asror» (1179), ikkinchisi «Xusrav va Shirin» (1180-81), uchinchisi «Layli va Majnun» (1188-89), to‘rtinchisi «Haft paykar» (1196-97), beshinchisi «Iskandarnoma» (1196-1201) dir. Nizomiy bu dostonlarini o‘zi «Xamsa» deb atamagan. Uning muxlislari bu

asarlarni yig‘ib, ularga «Panj ganj» («Besh xazina») deb nom berganlar. IV asr oxiri va V asr boshlarida Hindistonda yashagan vatandoshimiz (asli Shahrisabzdan bo‘lmish) Xusrav Dehlaviy (12531325) 1299-1302 yillarda fors tilida besh doston yaratdi va ularni «Xamsa» deb atadi. Bu turkum quyidagi dostonlardan iborat: «Matla’ul-anvor», «Shirin va Xusrav», «Majnun va Layli», «Oinai Iskandariy», «Hasht behisht».

Bu ikki shoir asarlarining o‘zaro umumiy xususiyatlari ham bor, ya’ni ulardagi birinchi dostonlar sujetli emas, keyingi dostonlar esa sujetli, ikkala turkum asarlarda ham voqealar islomgacha bo‘lib o‘tadi.

XIII asrda Xojui Kirmoniy ham beshlik yaratib, uni «Xamsa» deb atadi. Bu asar tamomila yangi xususiyatlarga ega bo‘lgan asardir. Buni dostonlarning nomlaridan ham sezish mumkin: «Humoy va Humoyun», «Gul va Navro‘z», «Ravzat ul-anvor», «Kamolnoma», «Gavharnoma» (1332-1348).

Bundan tashqari Alisher Navoiygacha Salmon Savojiy, XV asrda Jamoliy Tabriziy, Kotibiy, Kavkabiy, Ashraf kabi shoirlar turli tarzdagi beshliklarni yaratgan edilar. Jumladan, Ashraf Marog‘aviyning shaxsiyati (vaf. 1459) va uning «Xamsa»si haqida Navoiy «Majolis un-nafois» asarida to‘xtalib o‘tadi. Ashraf beshligining tarkibi quyidagicha: «Minhoj un-najot», «Shirinu Xusrav», «Laylovu Majnun», «Haft avrang», «Zafarnoma». Bu asarlar orasida Nizomiy va Xusrav Dehlaviy dostonlari g‘oyaviy-badiiy jihatdan yaxlitlikka, umumiylikka ega. Demak, «Xamsa»lar ikki xil tipdan iborat ekan, Navoiy o‘zigacha xamsanavislikda bo‘lgan yaxlitlikni tashkil etuvchi an’anani davom ettirishni niyat qildi.

Bu davrda «Xamsa» larning tiplari quyidagicha tasniflandi:

- Nizomiy va Xusrav dostonlari (g‘oyaviy-badiiy yaxlit asarlar, qahramonlari yaxlit);

- Xojui Kirmoniy «Xamsa» si faqat besh dostondan iboratligi jihatidan «Xamsa» deb nomlangan;
- Abdurahmon Jomiy sab'asi (yetti dostondan iborat asar).

Alisher Navoiy birinchi bo'lib turkiy tilda o'zining «Xamsa» sini yaratar ekan, Nizomiydan ijtimoiy-falsafiy ifoda tarzini, Xusrav Dehlaviydan sarguzasht asar yaratish tajribasini o'rgandi. U «Hayrat ul-abror» dostonini yozishda Nizomiyga, «Farhod va Shirin», «Sab'ai sayyor» dostonlarida Xusrav Dehlaviyga ergashadi. Chunki bu ikki asar o'sha davrda juda katta ahamiyatga ega mashhur asarlar edi.

Alisher Navoiy «Xamsa» sining to'ng'ich nusxasi 1484- yilda Abduljamil kotib tomonidan ko'chirilgan. Bu nusxa Samarqanddan topilgan edi va bunda professor E.E. Bertelsning xizmatlari katta bo'lgan. Shundan keyin Navoiy «Xamsa» sini Sultonali Mashhadiy va boshqalar ko'chirganlar. 1485- yilda «Xamsa» ning Sultonali Mashhadiy ko'chirgan nusxasi Londonda saqlanadi.

1960- yillarda Porso Shamsiyev «Xamsa»ning 1485- yilgi nusxasidan foydalanib, nashr ettirdi. Bu ikkinchi tahrir etilgan nusxa bo'lib, unda ba'zi so'zlar o'zgartirilgan.

«Xamsa» 25615 baytdan iborat asardir. Hajm jihatidan eng katta doston «Saddi Iskandariy» dostonidir. Chunki Navoiy o'z ideallari badiiy tarzda ifoda etilgan dostonlarga katta e'tibor beradi. «Hayrat ul-abror» dostoni 3988 baytdan, «Farhod va Shirin» 5282 baytdan, «Layli va Majnun» 3622 baytdan, «Sab'ai sayyor» 5008 baytdan va «Saddi Iskandariy» 7215 baytdan iborat.

Alisher Navoiyning o'zi e'tirof etishicha, u «Xamsa»ni olti oy ichida yozgan. Lekin, bu mashaqqatli mehnatga uzoq tayyorgarlik ko'rgan. U 25-27 yoshlaridan 42 yoshigacha ham ilmiy salohiyat, ham badiiy mahorat jihatidan muayyan yuksak darajaga yetadi, ham yozilajak asar uchun material yig'adi, fikrlarini «pishitadi». Shoirgacha turkiy tilda bitilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq», Haydar

Xorazmiyning «Mahzan ul-asror» kabi epik asarlari bor edi. Lekin, turkiy adabiyotda «Xamsa» tipidagi turkum asarlar tajribasi yo‘q edi. Navoiy bunday asarni yaratishdan maqsadim «Xamsa»ni takomillashtirish edi, bu asar xalqning mayliga loyiq bo‘lishi kerak», deydi. U o‘zaro o‘xshash narsalardan o‘xshamaydigan (nazirai benazir) narsalarni dunyoga keltirdi.

Nizomiy o‘z asarini Sharq ma’rifiy yuksalishining boshlanishida yozgan bo‘lsa, Navoiy ijodi Sharq Renessansining yakuniga to‘g‘ri keldi. Navoiy «Xamsa»si keng jug‘rofiy hududni qamrab olib, o‘zida Renessans davri ilmiy-badiiy tafakkuri mahsulini ifoda ettirdi.

«Xamsa»da arab, yunon, hind, fors, turk adabiyotshunosligi o‘z aksini topdi. U davr adabiyotshunosligining asosiy talabi yangi asar yozish edi. Navoiyning ulug‘vorligi shundaki, eskirgan deb hisoblangan dostonlarga murojaat etib, ularni yangitdan eng baland saviyada qayta yaratdi.

Bu hodisa faqat jasorat va qahramonlik emas, balki so‘z topish qiyin bo‘lgan juda yuksak bir xislat edi. Navoiy «Xamsa»si o‘z davridayoq to‘g‘ri tushunilgan edi. Bu yuksak mahorat mahsulini shoirning ustozi Mavlono Abdurahmon Jomiy quyidagi samimiy satrlarda madh etib, uning mohiyatiga baho bergan edi:

Turkiy tilda dag‘i naqsh keldi ajab,
Hatto sehrgarlar bog‘ladi lab.
Bunday yoqimli naqsh tushirgan qalam,
Boshiga ofarin yog‘dirsin olam.
Kechirsin forsiyda gavhar terganlar,
Dariy tilida dur, g‘azna terganlar,
Buning tili ham gar bo‘lganda dariy,
Majolsiz qolardi ularning bari.

(«Oinai Iskandariy»).

Turkiy til mavqeini baland maqomga koʻtarish ishini davlat siyosati darajasiga koʻtargan Shahan Shoh Sulton Husayn Boyqaro esa shoirga qarata «Siz mening pirimsiz, men sizga muridman. Men mamlakat podshohi boʻlsam, siz nazm mulkining shohisiz», deydi.

Xullas, buyuk maʼnolar ummoni, Sharq adabiyotida moʻjizaviy hodisa boʻlmish Alisher Navoiy «Xamsa»si hali uzoq yillar oʻrganilishi lozim boʻlgan asardir.

Alisher Navoiy «Xamsa»sining birinchi dostoni «Hayrat ul-abror»dir.

«Xamsa»da Alisher Navoiyning ideallari oʻzining badiiy ifodasini topadi. Uning haqiqiy doʻst haqidagi, odil podshoh haqidagi orzu-xayollari «Hayrat ul-abror» dostonida aks etadi. Bu asar shoirning butun «Xamsa» uchun yozgan dasturnomasidir.

«Farhod va Shirin» dostonida shoirning qahramonlari faol, gʻayratli, «Layli va Majnun»da esa qahramonlar passiv. «Hayrat ul abror»da shoir lirik chekinish qiladi.

Navoiyga xos boʻlgan tasvir uslubi – romantik tasvir uslubidir. Maʼlumki, romantik uslubda yozilgan asarlar qahramonlari real hayotga yaqinlashgan sari fojiaga uchraydi. Masalan, Majnunni hayvonlar tushunadi, lekin, odamlar tushunmaydi. Farhod va Shirin oʻsgan muhitda yoshlar uchun hamma narsa muhayyo qilingan edi, ammo, ular baxtli boʻla olmaydi. «Layli va Majnun» dostonida esa yoshlarga ijtimoiy nomutanosiblik xalal beradi. Bu ideallar orzusi amalga oshmaganligining birinchi sababi boʻlsa, ikkinchi sabab toʻrtinchi dostonda ochib beriladi. Yaʼni komil insonlar baxtiga Bahrom kabi podshohlar toʻgʻanoq boʻlishi mumkin. Shoir shunday savol qoʻyadi: «Ideallar amalga oshmogʻi uchun nima kerak?» va oʻzi javob beradi: Iskandar kerak, yaʼni odil shoh kerak.

«Xamsa» dostonlari yaxlit asar sifatida yaratilgan. Ularning hatto oʻrni almashtirilsa, bu yaxlitlikka putur yetadi. Buni Navoiyning oʻzi ham taʼkidlab oʻtgan:

Chu «Hayrat» ga soldim ko‘ngul rag‘batin,
Anga g‘olib yettim ulus hayratin.
Chu «Farhod» ga bo‘ldum ande Shavar,
Tuz yettim base tog‘ – o‘lub te Shavar.
Chu «Majnun» hadisig‘a tuzdum funun,
Base xalqni qildi Shaydo junun.
Yana «Sab’a» g‘a tab’im o‘lg‘och qarin
Eshittim yeti charxdin ofarin.
Skandarga til tortib ozar kibi,
Dedim oni «Sadi Skandar» kibi.

Shu bois «Xamsa»ga ta’rif berganda besh mustaqil dostondan iborat, deb aytish to‘g‘ri emas. Chunki «Xamsa» g‘oyaviy-badiiy yaxlit asardir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xusrav Dehlaviy “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”) dostonining Nizomiy “Haft paykar”idan farqlari nimada?
2. Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj”asariga kirgan dostonlar haqida ma’lumot bering.
3. Sharq adabiyotida birinchi bo‘lib Farhod mavzusini qalamga olgan adib?
4. Navoiy “Xamsa”sining o‘ziga xosligi nimada?
5. Mirxondning «Ravzat us-safo» asari haqida gapiring.
6. Abdurahmon Jomiyning xamsachilik an’anasi haqida ma’lumot bering.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Navoiyning ijod olami. –Toshkent, 2001.

2. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 7-11-tomlar – Toshkent, 1990-93.

3. Jalolov T. “Xamsa” talqinlari. – Toshkent, 1968.

4. N.Mallayev. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent,1974.

5. N.Komilov.Tasavvuf. – Toshkent, 1996.

6. Navoiyga armug‘on. 3-4 kitob. – Toshkent, 2003.

7. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 16-tom. – Toshkent, 2000.

7 – MAVZU: “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONI

Dars rejasi:

7.**1.** Dostonning tuzulishi va mavzulari.

7.2. Sulton Husayun Boyqaro va Shoh G‘oziy.

7.3. «Hayrat ul-abror»da komil inson tasviri.

Tayanch so‘z va iboralar: *qomusiy asar, axloqiy-ma’naviy, ijtimoiy-falsafiy, Sulton Husayn Boyqaro, Bahovaddin Naqshband, Xoja Ahrori Vali, Shoh G‘oziy, karam vasfida.*

1.

«Hayrat ul-abror» («Yaxshilarning hayrati») dostoni 3988 baytdan iborat.

«Hayrat ul- abror» - Navoiyning falsafiy-ta’limiy qarashlarini ifodalaydi. Doston masnaviy yo‘lida yozilgan bo‘lib, lirik ifoda bilan epik tasvir uyg‘unlashib ketadi.

«Hayrat ul-abror»ning nomlanishi va yozilish yili haqida Alisher Navoiy shunday yozadi:

Hayrati abror ko‘rub zotini,
«Hayrat ul-abror» dedim otini.
Nuktai ta’rixiki, ahsan edi.
Sekkizu sekkiz yuzu seksan edi.

Doston 63 bobdan iborat. Uning asosini 20 maqolat hamda 20 hikoyat va masallar tashkil etadi. 23 bob esa asosiy boblarga xizmat qiluvchi boblar bo‘lib, kirish va yakunlovchi qismlardan iborat.

Dostondagi har bir maqolat 2 qismdan iborat, ya’ni, avval nazariy fikr bildiriladi, keyin hikoyat va tamsillar keltiriladi.

«Hayrat ul-abror»ning arxitektonikasi – qurilmasi shundan iboratki, unda maqolat va hikoyatlarni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. «Xamsa»ning yaxlitligi bu holatlarda ham namoyon bo‘ladi.

Doston aruz vaznining sare’i matvii makshuf bahrida yozilgan:

Hayrati ab/ror ko‘rub/ zotini,/
«Hayrat ul- ab/ror» dedim/ otini
-vv- -vv- -v-
muf ta i lun/ muf ta i lun/ fo i lun/

Bu baytda cho‘ziq va qisqa hijolar olti marta takrorlanadi. Shuning uchun musaddas – oltilik deyiladi. Bu juda o‘ynoqi vazn.

«Hayrat ul-abror»ning maqolot va hikoyot, masallardan iborat asosiy qismidan boshqalari, ya’ni kirish va xotima boblari ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularda shoir o‘zining falsafiy tushunchalari, inson va Alloh taolo, koinot, so‘z va uning ta’rifi, ulug‘ daholar bo‘lmish Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylar, naqshbandiya tariqatining piri-murshidi Bahovaddin Naqshband va uning davomchisi Xoja Ahrori Vali, zamona podshohi Sulton Husayn Boyqaro haqidagi mulohazalarini bayon etgan. Bu boblarda mutafakkir Alisher Navoiy ulug‘ shoir sifatidagi fazilatlari bilan o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Qizig‘i shundaki, shoir Alloh taolo va uning barcha buyukliklari haqida so‘z yuritib, u yaratgan xazina-koinot va Yer kurrasidagi eng go‘zal durdona bu Inson ekaniga alohida urg‘u beradi:

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g‘araz inson edi.
Turfa kalomingg‘a dog‘i komil ul,
Sirri nihoningg‘a dog‘i homil ul.
(MAT, 7-tom, 21-bet)

Bu falsafiy mushohada bejiz aytilmagan. Bu bilan shoir hamma imkoniyat va afzaliyatlarga ega bo‘lgan hazrati Insonning o‘z mavqeini qanday saqlashi lozimligi masalalariga diqqatni qaratadi. Shundan so‘ng hazrati Rasulullоh alayhissalom, nazm sohasining daholari Nizomiy, Xusrav va Jomiylar, tasavvufning atoqli arboblari, podshohlik saltanatning ardoqli namoyandasi haqida so‘z yuritib, ularning shu sohada namuna va ibrat ekanliklariga ishora qiladi. Shunday qilib, «Hayrat-ul abror»ning fikriy-nazariy qurilmasining asosiy sababini ham ana shulardan izlash mumkin. Demak, asosiy diqqat hazrati Insonga qaratilgan ekan, u qanday bo‘lmog‘i kerak va qanday bo‘lmasligi kerak degan masalaga javob dostonning maqolotlarida nazariy umumlashma tarzida bayon etiladi.

Shundan bo‘lsa kerak, maqolotlarda, bir tomondan, insonning ma’naviy-ma’rifiy fazilatlari, jamiyat oldidagi burchi va vazifalari to‘g‘risida so‘z yuritilsa, ikkinchi tomondan, hazrati Insonga dog‘ tushiradigan qabih illatlardan bahs yuritiladi hamda ular qoralanadi.

Dostondagi birinchi maqolat imon haqida, ikkinchisi esa islom haqida. Bu maqolatda tasavvufiy va kalomiy yo‘nalish lar birlashib ketadi va Shoirning falsafiy dunyoqarashi namoyon bo‘ladi.

Uchinchi maqolat adolatli sultonlar – Shohlar madhiga bag‘ishlangan, to‘rtinchi maqolat ikki xil shayxlar ta’rifiga, beshinchi maqolat – karam va saxovat vasfiga, oltinchi maqolat – adab zikriga, yettinchi maqolat – qanoat tariqiga, sakkizinchi maqolat – vafo, to‘qqizinchi maqolat – ishq, o‘ninchi maqolat – rostlik, o‘n birinchi maqolat – ilm, o‘n ikkinchi maqolat – qalam ahli haqida, o‘n uchinchi maqolat – bulut kabi foyda keltiruvchilar zikrida, o‘n to‘rtinchi maqolat – aflok (dunyo) hay’atidan Shikoyat, o‘n beshinchi maqolat – johil va mayparast amaldorlar haqida, o‘n oltinchi maqolat – xudnamolar haqida, o‘n yettinchi maqolat – bahor fasli va uning fazilatlari haqida, o‘n sakkizinchi maqolat – falak g‘amxonasi haqida, o‘n to‘qqizinchi maqolat – Hirot va Xuroson

tasvirida, yigirmanchi maqolat – valiahd Shahzoda Badeuzzamon Mirzo va uning ta’rifiga bag‘ishlangan.

«Hayrat ul-abror»ning leytmotivi (boshidan oxirigacha o‘tadigan masala) ijtimoiy hayot – ijtimoiyot masalasidir. Bu asarda qahramonlar ko‘p. Lekin bu asarning bosh qahramoni mutafakkir Shoirdir. Navoiy o‘z zamonasidagi kamchiliklarni ko‘proq tanqid qildi. Shoir dehqon Shaxsini nihoyat darajada yuksakka ko‘taradi. Podshoh ham mamlakatni boshqarishda dehqondan o‘rganishi kerak, deydi Shoir. U podshohdan ko‘ra dehqonni fazilat va insoniylikda yuksak ekanligini tasvirlashga intiladi. Shoir o‘z zamonasini «farhodkush zamona» deb ataydi. Uning o‘zi har doim xalq manfaatini o‘ylagani uchun bu ahvoldan nihoyatda iztirob chekadi.

Alisher Navoiy musulmon edi. Ammo, u musulmon bo‘la turib xalqni aldovchi, mo‘minlarga zarar keltiruvchi riyoyi Shaxslarni «dev ila Shayton» deb ataydi:

Bu el erur barcha yamondin yamon,
Kimsa yo‘q andin yamon, andin yamon.

Albatta, Navoiy yashagan XV asr Sharoiti ham havas qilgulik emas edi. Buni Shoir nihoyatda haqqoniy ifodalaydi:

Necha sitam qilguchi obod o‘lub,
Barcha sitam chekkuchi barbod o‘lub…

«Hayrat ul-abror»da garchi alohida bosh qahramon yoki obraz bo‘lmasa-da, bu asar badiiy jihatdan juda kuchli asardir.

Shoir insonni tarbiyalash orqali uni tuzatish mumkinmi?, degan masalaga e’tibor berib, insonni ilm tarbiyalashi mumkin, degan fikrni aytadi. U «ilm» so‘zini ع – quyosh, ل – oy, g – kunduz, deb sharhlaydi. Shoirning nazarida ilmning bor – yo‘g‘i yorug‘likdan iborat. Ilm

jaholat nurini yoritadi. Ilmli inson esa ilmiga yara Sha amal qilmog‘i lozim. Ammo:

Ilmni kim vositai joh etar,
O‘ziniyu elini gumroh etar.

Shoirning fikricha, «jaholat tunini yoritaman», degan odamgina haqiqiy olim bo‘la oladi. Olimlar ganj singari er ostida tuproqqa ko‘milib yotadi, johillar esa tikanlar kabi er yuzida yuradi.

Insoniylikning shartlaridan biri ilm bo‘lsa, biri – ishqqa sadoqat, deyiladi:

Yorki bor anda vafo bordir,
Umr degin, yori vafodordir.

Shoir bu tushunchani nihoyatda keng tushunadi. Uning nazdida ishq insonlarga nisbatan, xudoga nisbatan, kasbga nisbatan, ota-onaga nisbatan, do‘stga nisbatan va h.k. bo‘lishi mumkin. Ammo, uning asli, mohiyati poklik bo‘lmog‘i lozim:

Oshiq anikim bil, erur dardnok,
Ham tili, ham ko‘ziyu ham ko‘ngli pok.

Saxovat haqida so‘z yuritar ekan, mutafakkir «Saxovat – bu isrofgarchilik emas», deydi. Ya’ni, shunday kishini saxiy deb bo‘ladimi –

Kim yuborur la’l Badaxshon sari,
Ham uzotib zirani Kirmon sari.
Muhtojning hojatini chiqarish – saxiylikdir.

Alisher Navoiy o‘quvchisi oldiga «Kim saxiy?», deya savol qo‘yadi:

- Davlatmand saxiymi yoki o‘z mehnatidan kelgan ne’matga qanoat qilgan odammi?

Shu jihatdan Alisher Navoiyning V-maqolotdan so‘ng «Hotami Toyi hikoyati» deb keltirgan hikoyati nihoyatda diqqatga sazovordir. Unda keltirilishicha, saxiylikda mashhur bo‘lgan Hotami Toyidan: sen o‘zingdan ham himmatliroq-olijanobroq insonni ko‘rganmisan; deb so‘rabdilar. Hotami Toyi aytibdi: men katta ziyofat tashkil etib, hammani taklif qildim. Ko‘p kishi keldi. Shu vaqtda dam olish niyatida ziyofat bo‘layotgan joydan tashqari chiqib, dasht tomon yo‘l oldim. Qarasam, qaddi egilgan bir chol ko‘p tikonlarni orqasiga yuklab, zo‘rg‘a qadam tashlab kelayotgan ekan. Unga aytdim: Hotami Toyi hammani ziyofatga chaqirgan, nega sen unga bormading? Shunda Alisher Navoiy tikonchi chol javobini shunday bayon qiladi:

K-ey, solibon hirs ayog‘ingg‘a band,
Ozu tama’ bo‘ynuga bog‘lab kamand.

Vodiyi g‘ayratga qadam urmag‘on,
Kunguri himmatg‘a alam urmag‘on.

Sen dog‘i chekkil bu tikan mehnatin,
Tortmag‘il Hotami Toy minnatin.

Bir diram olmoq chekibon dast ranj.
YAxshiroq andinki, birov bersa ganj.

Tikonchi cholning halol mehnat, luqmai halol bilan yashamoq, garchi bu og‘ir bo‘lsa-da, birovning, jumladan Hotami Toyining

xazina-boylik, ziyofatlaridan ham ortiqdir, chunki kimki halol mehnat bilan yashasa, birovning minnatini tortmaydi, degani Hotami Toyining quyidagi e’tirofiga, ya’ni oliyhimmatlilikda tikonchi cholning o‘zidan (Hotami Toyidan) ham ustun ekanligiga sabab bo‘ladi:

«Ulki bu yanglig‘ so‘zi mavzun edi,
Mendin aning himmati afzun edi.
Himmat agar bo‘lsa Navoiy sanga
Bandadurur Hotami Toyi sanga.

(MAT, 7-tom, 153-bet)

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy Sharqda saxiylik timsoli sifatida shuhrat qozongan Hotami Toyidan o‘z halol mehnati bilan yashashni afzal biluvchi oddiy mehnatkash tikonchi cholni komil insonning namunasi, timsoli sifatida alohida ta’kidlaydi. Odil podshohni esa zolim podshohlardan komilroq deb biladi, o‘z ilmiga amal qiluvchi olimni podshohlardan ham komilroq deb e’tirof etadi. Bu masala, xususan, XI maqolotdan so‘ng «Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh»- haqida keltirilgan hikoyada yaqqol namoyon bo‘ladi. VIII maqolotdan so‘ng ikki vafodor do‘st haqidagi hikoyada esa samimiy va haqqoniy do‘stlik o‘limlarni ham yengadi degan g‘oya ilgari surilgan VII maqolotdan keyin keltirilgan «Qone’ javonmard» hikoyasida esa sabru qanoatning buyuk fazilati, oqibatda murod-maqsadga erishuv sababi deb talqin qilinadi va ta’na bilan yashashning oqibat-natijasi pastlik va xor-zorlik deb tushuntiriladi.

Insonning fazilatlaridan biri o‘zini tuta bilishdir, yana bir fazilati – ota-onasini hurmat qilishidir.

Jumladan, insonning imonli va e’tiqodli bo‘lishi masalalari birinchi (imon) va ikkinchi (islom) maqolotlarda bayon etilsa, uning (bu o‘rinda sulton-podshoh sifatida tilga olinadi) adolatli (z-maqolot),

karam, saxovatli (5-maqolot), odobli (6-maqolot), sabr-qanoatli (7-maqolot), vafodor (8-maqolot), haqiqiy oshiq (9-maqolot), to‘g‘ri, rost (10-maqolot), ilm-ma’rifatli (11-maqolot), odamlarga foydasi tegadigan (13-maqolot) dehqon kabi bo‘lish masalalari ham alohida-alohida qarab chiqilgan. Bular Insonning komilligiga xizmat qiluvchi fazilatlar bo‘lib, shu maqolotlarning har biridan keyin keltirilgan kichik hikoya va masallarda ular yanada kuchaytiriladi. Hazrati Insonga dog‘ tushiradigan adolatsizlik, riyokorlik-firibgarlik (4-maqolot), johillik (15-maqolot), manmanlik (16-maqolot) va boshqa yomon xislatlar esa tanqid qilinadi, demakki, ulardan uzoq bo‘lish, ularga qarshi kurashish g‘oyasi olg‘a suriladi. Ana shu maqolotlarning ayrimlarini ko‘zdan kechirish masalani yaqqol gavdalantirishda ko‘maklashadi. «Hayrat ul-abror»ning uchinchi maqoloti «Salotin bobidakim, … adolatlari «ayn»ining chashmai zuloli mulk bo‘stonin serob qilg‘ay, to bu bo‘stondin amniyat va farog‘at gullari ochilg‘ay…» tarzida boshlanadigan sarlavhaga ega. Demak, maqolotda so‘z podshohlar va ularning adolatli bo‘lishlari lozimligidan bormoqda. Darhaqiqat, maqolotda aniq bir podshoh misolida emas, balki umumlashtirilgan holda so‘z yuritilgan. Unda podshohning mamlakat va xalq oldidagi burch va vazifalari-adolatli bo‘lish, xalqni obod qilish, osoyishtaligini saqlash, fuqarolarni himoya qilish belgilangan. Shuning bilan birga podshohning bu vazifalarni bajarish o‘rnida adolatsizlikka yo‘l qo‘ygani, aysh-ishratga berilgani, kecha-kunduz fisq-fujur-yaramas ishlar bilan band bo‘lgani kabilarga e’tibor qaratilib, bu hol podshohlikdan kuzatilgan asosiy maqsaddan uzoq ekanligi alohida uqtiriladi va bu yo‘ldan qaytib, adolatli bo‘lishga da’vat etiladi:

Haq seni adl etgani sulton etib,
Zulm ila sen xalqni vayron etib…

Necha bu bexudluq ila yilu oy,
Voy, agar kelmasang o‘zungga voy…

Zulmni tark aylavu dod aylagil,
Marg kunidin dog‘i yod aylagil…

Sahvungg‘a de uzr, tavahhum bila,
Zulmdin et tavba, tazallum bila.
(MAT, 7-tom, 128-129-betlar).

2.

«Hayrat ul-abror»da jamiyat farovon, hukumat adolatli, inson baxtli bo‘lmog‘i uchun nimalar lozim ekanligi xususida fikr yuritiladi. Maqolatlarda baxtli yashashni istagan inson uchun zarur bo‘lgan fazilatlar haqida so‘z yuritiladi. Ammo, shoir dostonda keltirgan Shohi G‘oziy va Tilla kampir hikoyati vositasida davlat mustahkamligi va jamiyat farovonligining asosi adolatli hukmdor ekanligini ta’kidlaydi. Davlatda adolat, jamiyatda osoyishtalik barqaror bo‘lishi uchun podshoh hatto o‘z farzandlarini ham qurbon qilmoqqa tayyor bo‘lmog‘i lozim. Bu fikrning mubolag‘a emasligini tasdiqlash uchun shoir Xuroson podshosi Sulton Husayn Boqaro hayotida yuz bergan tarixiy bir voqeani misol qilib aytadi.

Ma’lumki, Shohi G‘oziy laqabi XV asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan Sulton Husayn Boyqaroga nisbatan qo‘llanilgan. Demak, Alisher Navoiy bu hikoyada Sulton Husayn Boyqaro faoliyatidan bir lavhani badiiyat qoniyatlari asosida qalamga olgan. Hikoyatda Shohi G‘oziy adolatliligi bilan hurmat qozongan podshoh sifatida talqin qilingan. Shuning bilan birga unda qonun (bu o‘rinda shariat qonunlari nazarda tutilgan) oldida shohu gadoning tengligi muammosi amaliy tarzda tasvirlangan: bir kampir Shoh G‘oziyga

da’vogar bo‘lib, aytadi: sen urushlaring vaqtida o‘g‘limni o‘ldirding. Endi shar’iy qonun oldida javobini ber. Shoh G‘oziy rozi bo‘lib, qozi oldiga keladi. Qozi ularni shariat qonunlari asosida kampirning da’vosini eshitadi va guvohlar so‘zlarini ham tinglaydi. Shunda Shoh G‘oziy: shunday bo‘lishi mumkin. Agar maqsading boshimni olish bo‘lsa, mana senga tig‘ va mening boshim, agar maqsad qon puli bo‘lsa, mana senga boylik, deb hamyonlarni qo‘yadi. Bu holni ko‘rgan kampir:

Tushti ayog‘iga bo‘lub uzrxoh,
Dediki: Ey, xusravi anjumpanoh.

Gar yigitim qildi fido jon sanga,
Men qari joni dog‘i qurbon sanga…

Zol kechib da’viyu dostonidin,
Yo‘qki, o‘g‘ul qonidin, o‘z jonidin.

Turfa bukim xusravi odil ani,
Adl ila ul davrda aylab g‘ani.
(MAT, 7-tom, 132-bet).

Demak, Alisher Navoiy bu hikoyada juda katta va muhim masalani hal qiladi: qonun oldida shohu gado tengdir, ikkinchidan, bu hodisa adolatning barqaror bo‘lishi uchun asosiy omil hamdir. Albatta, bu Alisher Navoiyning orzusi edi, Alisher Navoiy shunday sharoit va shunday zamon bo‘lishini xohlardi.

«Hayrat ul-abror» dostoni har jihatdan g‘oyalar xazinasidir. Unda har nuqtai nazardan komil inson Alisher Navoiy davrining zukko o‘quvchisi ko‘z o‘ngida gavdalanib turadi.

3.

«Hayrat ul-abror» ning maqolotlarida insonning komillikka erishuvi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy omillar ham keng tarzda qalamga olingan. Jumladan, odob va hayoni insonning eng ajoyib ma’naviy fazilatlaridan deb biladi:

Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab.
Chunki yog‘in manbai o‘ldi hayo,
Qatrasi tuprog‘ni qilur kimyo.
Bo‘lmas adabsiz kishilar arjmand,
Past etar ul xaylni charxi baland.

(MAT, 7-tom, 155-bet)

Odoblilikning shartlari sifatida ota – ona hurmatini joyiga qo‘yish, katta-kichikka shafqatli, mehribon bo‘lish, xizmat lavozimini adolat va insof ila ado etish kabilar ham belgilangan. Shuning uchun Alisher Navoiy yozadi:

Biri erur makramati volidayn,
Bilki munung qilmog‘idur farzi ayn.

Bu ikkining xizmatini bir bil,
Har necha ifrat esa taqsir bil.

Boshni fido ayla, ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.

Ikki jahoningg‘a tilarsen fazo,
Hosil et ushbu ikisidin rizo.

Tun-kunungga aylagali nur fosh,
Birisin Oy angla, birisin Quyosh,

So‘zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari.

Bo‘lsun adab birla bori xizmating,
Xam qil adab «dol» i kibi qomating.

So‘ngra rahmning silasin qarz bil,
Rahm o‘shal toifag‘a farz bil.

Satri nos ichra ulug‘ to kichik,
Yoxud aro erda vasat chargalik,

Kimki ulug‘roq anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq anga shafqat kerak.
(MAT, 7-tom, 160-161-betlar)

Alisher Navoiy rostlik-to‘g‘rilik, vafodorlik sifatlari ham inson ma’naviyatining tarkibiy qismlaridan ekaniga alohida urg‘u beradi. Insonning ma’naviy boyliklari bilan birga ma’rifati ham ularni (ma’naviy fazilatlarni) yanada yorqinroq va mukammalroq ko‘rinishiga xizmat qilajagini nazarda tutib, ilm, ilm o‘rganish va unga amal qilish masalalariga ham alohida to‘xtaladi. Masalan, XI maqolot ilm masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, sarlavhasidayoq ilm so‘zining arab yozuvidagi har bir harfi sharhlanadi: «ayn»i-quyosh, «lom»i-oy, «mim»i-kunduz. Bundan ko‘rinadiki, Alisher Navoiy ilmning har bir harfini yorug‘lik taratadigan jismlarga o‘xshatib, shundan kelib chiqib, ilmning o‘zini jaholatni-qorong‘ilikni yorituvchi ulug‘ vosita deb talqin qiladi. Bas shunday ekan, ilmni

egallagan inson-jaholatga qarshi ma’rifatni tarqatuvchi va o‘zi unga amal qilguvchi deb biladi:

Ko‘ngli bo‘lib maskanu ma’voyi ilm,
Qatra kibi paykari daryoyi ilm.

Ibriyu, yunoniyu, suryoni ham,
Hindi agar so‘rsa, bilib oni ham.

Ko‘ngli uyin ilm etibon bir jahon,
Qatrada ul nav’ki daryo nihon…

Mushkili aflok bulub bejadal
Bu Ali fikrati olinda hal.

` (MAT, 7-tom, 217-bet)

Ana shunday buyuk martaba sohibi bo‘lgan olim o‘zi egallagan ilmni jaholatga qarshi ma’rifatni tarqatish uchun foydalanmasdan ilmni mansab va boylik orttirish vositasiga aylantirsa, unda u olim emas, balki johil bo‘ladi:

Ilmni kim vositai joh etar,
O‘ziniyu xalqni gumroh etar.

Olim agar joh uchun o‘lsa zalil,
Ilmi aning jahlig‘a bo‘lg‘ay dalil…
Olim agar qat’i amal aylasa,
Ilmig‘a shoyista amal aylasa.

Solmasa ko‘z jifai dunyo sari,
Boqmasa tuz dunyiyi foni sari.

Oni sharaf gavharining koni bil,
Gavharu kon, har ne desang oni bil…

Egnida gar xirqasi yuz chok erur,
Gulga to‘ni yirtug‘i ne bok erur.

(MAT, 7-tom, 220-bet)

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy insonning ma’naviy-ma’rifiy jihatdan komillikka erishuvi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina masalalarni qalamga oladiki, ular insonning ijtimoiy hayotdagi vazifa va burchlarini talab darajasida ado etishiga ham ijobiy ta’sir etadi. Shuning uchun «Hayrat ul-abror»dagi maqolotlardan so‘ng o‘sha mavzularga daxldor bo‘lgan kichik hikoyat va masallarni keltirishi ham bejiz emas. Chunki bu hikoyatlarda ham tarixiy shaxslar hamda badiiy to‘qima timsollar qatnashar ekan, ular ijtimoiy toifalarning turli guruhlariga mansub shaxslardir: podshoh (Iskandar-XIV maqolot, Anushervoni odil-VI maqolot, Sulton Muhammad Xorazmshoh-XI maqolot, Shohi G‘oziy – III maqolot, Bahrom – XIX maqolot), tasavvuf ahli (Ibrohim Adham-II maqolot, Boyazid Bistomiy-I maqolot, Shayx Iroqiy – IX maqolot, Imom Faxr Roziy – XI maqolot, Xoja Muhammad Porso va Xoja Abu Nasr-XX maqolot), xorkash (tikon teruvchi), dehqon, oddiy fuqaro- ikki yor, qone’ va boshqalar.

Demak, bu bilan Alisher Navoiy komil inson turli ijtimoiy toifalar orasida mavjudligini, ya’ni undan yetishib chiqishini ta’kidlamoqda.

Keltirilgan ayrim hikoyalarning qahramonlari tarixiy shaxslar (Sulton Muhammad Xorazmshoh, Imom Faxr Roziy) bo‘lsa, ba’zilari to‘qima (ikki vafodor yor, qone’ javonmard) obrazlardir. Alisher Navoiyning bu obrazlarni yaratishdagi mahorati shundan iboratki, har ikkala xildagi obrazlarni badiiyat qonunlariga muvofiq tarzda

qalamga oladi, ular harakat qiluvchi zamon va makonning obrazlar mohiyatini ochishga xizmat qildiradi (qiyomat kuni-hammom; qirg‘in davom etayotgan makon va zamon, safar jarayoni va topilmaga ishora…), obrazlarning mohiyatini bayon etuvchi so‘z, iboralar, ruhiy holatlarni qo‘llaydi. Shuning natijasida jallod nazdidagi ikki vafodor yor ma’naviy buyukligi bilan o‘limni engadi; olimni pisand qilmagan podshoh xijolatda qoladi; tama’dan ko‘ra sabr-qanoatni afzal bilgan qone’ javonmard shahriyorlik martabasiga erishadi. Bu o‘rinda yana bitta hikoyaga diqqatni qaratmoq lozim. Chunki bu hikoya o‘z mohiyati bilan bu dunyoda yashash, uni obod qilish uchun hamma odamlar burchli ekanligi, oxirat kuni o‘zi bilan hech narsani olib bormasligini ifoda etadi. Bu hikoya XIV maqolotdan so‘ng keltirilib, «Iskandarning …» deb boshlanadi. Unda hikoya qilinishicha, Iskandar ulug‘ podshoh sifatida turli mamlakatlarni oldi, ko‘p xazinalarga ega bo‘ldi, ammo, umri oxirlashganda shunday vasiyat qiladiki, agar men vafot etsam:

Qabrg‘a chun boshlag‘unguzdur yo‘lum,
Na’sh yonidin chiqaring bir qo‘lum.

To kishikim qilsa nazar ul sori,
Ibrat ila boqqay o‘shal qo‘l sori.

Bilgay anikim, eti kishvar shahi,
Etti falak mushkilining ogahi,

Jismida jon yo‘q bu makondin borur,
Xoli ilik birla jahondin borur.

Kimki jahon mulki havasdur anga,
Ushbu ilik tajriba basdur anga.

(MAT, 7-tom, 255-256-betlar)

Bunda juda katta falsafiy xulosani ifoda etuvchi obraz – «xoli ilik», ya’ni etti kishvarning podshohi vafotidan so‘ng tobutdan uning bir qo‘lini-xoli qo‘lini chiqarib qo‘yish holati mavjud. Demak, bu «xoli ilik»- bo‘sh qo‘l hammaga tajriba- saboq bo‘lmog‘i lozim. Bas shunday ekan, inson hayoti davomida hamma narsani-boylikni ham, qobiliyatlarini ham ana shu hayotga, vatanning obod va tinch-osoyishtaligi, xalqning farovon va farog‘atda yashashiga sarf qilmog‘i darkor. Chunki u hech narsani o‘zi bilan birga qabrga olib bormaydi. Hamma narsa shu bor dunyoda qoladi, tirik insonlarga qoladi. Bunda chuqur ma’no bor, falsafiy hikmat bor- hamma narsa inson uchun yaratilgan va unga xizmat qilmog‘i kerak. Chunki dunyo mavjudoti orasida eng mo‘’tabari insondur. Demak, inson ana shunday ulug‘ martabali zot ekan hayoti vaqtida unga munosib tarzda yashamog‘i darkor.

Shunday qilib, «Hayrat ul-abror» «Xamsa»ning birinchi dostoni bo‘lib, u bu buyuk beshlikning falsafiy-axloqiy nazariy dasturi sifatida o‘ziga xos qurilmaga ega.Undagi nazariy qarashlar shu dostondagi kichik hikoya va masallar misolida umumlashtiriladi. Shu jihatdan unda keltirilgan juda ko‘p baytlar maqol va zarbulmasal tariqida mashhurdirlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. “Hayrat ul- abror” dostonidagi maqolatlar haqida bilasizmi?
2. Navoiy “Hayrat ul- abror” dostonida “To‘rt sadaf gavharining durji ul, Yetti falak ahtarining burji ul”- degan ta’rif haqida gapiring?
3. «Hayrat ul-abror» ning maqolotlarida insonning komillikka erishuvi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy omillar haqida ma’lumot bering?
4. Rostlik-to‘g‘rilik, vafodorlik sifatlari dostonning nechanchi maqolatida berilgan?
5. Asardagi hikoyalarda qaysi tarixiy shaxslar tasviri berilgan?

Zaruriy adabiyotlar :

1. Abdug‘afurov A. «Buyuk beshlik saboqlari». – Toshkent, 1995.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent, 1986.
3. Alisher Navoiy. Asarlar. 20 jildlik. 7-11 jildlar. – Toshkent: Fan, 1987-1992.
4. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. 2 jildlik. 2-j. – Toshkent, 2002.
5. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2000.
6. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1976.
7. Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent, 1981.
8. Qayumov A. «Hayrat ul-abror» talqini. – Toshkent, 1977.

8 – MAVZU: “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINING TIMSOLLAR OLAMI

Dars rejasi :

8.1. Doston kompozitsiyasi va mavzulari.
8.2. Farhod va Shirin timsollari talqini.
8.3. Dostondagi boshqa obrazlar tasviri.

Tayanch so ‘z va iboralar: *Farhod, Shirin, qissa, rivoyat, Xusrav Parvez binni Hurmuz, Badeuzzamon Mirzo, Shohg‘arib Mirzo.*

1.

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonidagi ideallarini «Farhod va Shirin» dostonida yoritib beradi. Navoiyga qadar turli xalqlarning yozma adabiyotida, xalq og‘zaki ijodida hamda badiiy adabiyotda bu syujetdagi kabi asarlar bor edi. Ammo, Navoiy tamoman yangi mazmun va uslubdagi asar yaratishni niyat qiladi: Doston 1484-yilda an’anaga ko‘ra aruzning hazaji musammani mahzuf (mafoilun mafoilun mafoil) bahrida yozilgan:

Hunarni as/rabon netkum/dur oxir,
Olib tufroq/qamu ketgum/dur oxir.
v - - - /v- - - /v - -
mafoilun/ mafoilun/ mafoil
v - - - /v- - - /v - -
mafoilun/ mafoilun/ mafoil

Doston an’anaviy hamd va na’tlar bilan boshlanib, qalam vasfi, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy haqidagi boblardan

so‘ng dostonning yozilish sabablari va undan kuzatilgan maqsad bayoni beriladi. Shundan so‘ng Badeuzzamon Mirzoga bag‘ishlangan bob keladi. Bularning hammasi dostonning muqaddimasi bo‘lib, undan keyin Farhodning tug‘ilishi, unga nom qo‘yish bilan bog‘liq hamda Farhodning vafotigacha bo‘lgan sarguzashtlar bayon qilinadi. Farhod vafot etgach, Sheruya Xusravni o‘ldirib, Shiringa talabgor bo‘ladi. Shirin esa Farhod qabrida uning yonida vafot etadi. Bu xabarni eshitgan Mehinbonu ham olamdan o‘tadi. Huddi shu vaqtda Chindan Farhodni yo‘qlab, Bahrom keladi, Farhod vafotini eshitadi. Sheruyani yengib, Arman o‘lkasida bir odil kishini podshoh qilib qo‘yadi.

Dostonning voqeasi shu yerda tugaydi. Shundan so‘ng yana ikki bob bor: biri – Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li Shohg‘arib Mirzoga bag‘ishlangan bo‘lsa, ikkinchi va oxirgisi xotima – xulosa bo‘lib, unda dostonning yozilish tarixi (889 h. – 1484 m.) ham bayon etilgan:

Chu tarixi yilin onglay dedim tuz,
Sekiz yuz sekson erdi dog‘i to‘qquz, –

Farhod timsoli barcha asar va rivoyatlarda xalq nazdida mehnatkash inson sifatida namoyon bo‘ladi. Xorazm vodiysida tarqalgan rivoyatlarga ko‘ra Farhod – toshyo‘nar, Sirdaryo vodiysida esa Farhodning kanal qazishi haqidagi rivoyatlar bor.

Qadimgi Xorazm ekspeditsiyasini amalga oshirgan olim A.S. Tolstov «Devqal’a» deb atalmish qal’aga duch keladi. XII asrda qum ostida qolib ketgan Devqal’a haqida shunday rivoyat borligi hikoya qilinadi: Xorazm shohi qizining go‘zalligi ovozasi Farhoddevgacha etib boribdi. Dev qizga sovchi qo‘yibdi. Qizini devga berishni istamagan Shoh bir kampirni maslahatga chaqiribdi. Kampir shohga «Devga qumlikda toshdan imorat qurishni buyur», deb o‘rgatadi.

Farhoddev ishga kirishadi va tez orada qal’a tayyor bo‘ladi. Shunda kampir devdan qutulish uchun bir hiyla ishlatadi. 7 ming tuya, ot, qo‘yning ko‘z oldida bolalari so‘yiladi. Faryod urgan jonivorlarning ovozlari g‘ayritabiiy eshitiladi. Shu payt kampir dev oldiga kelib: «Dev, shoh qizi olamdan o‘tdi, xalq yig‘layapti», deydi. Alamda yongan dev oxirgi toshni o‘z boshiga otib, o‘ladi.

Bu fikrlar yozma adabiyotda ham qayd yettirilgan sosoniylardan bo‘lmish Xusravi Parvez haqidagi asarlarda, birinchi bo‘lib bu mavzuda doston yozgan Firdavsiyning «Shohnoma» sida bu syujet o‘z ifodasini topadi.

Ko‘pgina sharqshunoslarning tadqiqotlarida qayd qilinganidek, bu qissa aslida tarixiy shaxs bo‘lmish Xusrav Parvez bilan bog‘liqdir.

Xusrav Parvez binni Hurmuz sosoniylar sulolasiga mansub shohlardan bo‘lib, u 590-628 yillar orasida hukmronlik qilgan. Uning shaxsiy va davlat arbobi sifatidagi fazilatlari zamondoshlari bo‘lmish misrlik Simokatta va arman tarixchisi Sebeosdan boshlanib, XV asr tarixchilaridan Mirxond va Xondamirning asarlarida, jumladan, Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam»ida ham bayon etilgan.

Tarixiy asarlar, yodnomalarda Xusrav va Shirin muhabbati, hatto Shirin Xusravning jufti haloli ekanligi haqidagi ma’lumotlar bor. Ammo, X asrgacha bo‘lgan davrdagi manbalarda Farhod eslanmaydi. Faqat X asr tarixchisi Abu Ali Muhammad al-Bal’amiyning «Tarixi Tabariy»ni fors tiliga o‘girgan nusxasida Xusrav va Shirin tarixi bayonida Farhodning tilga olingani kuzatiladi.[1]

Keyinchalik esa u badiiy tarzda bitilgan dostonlarning asosiy qahramonlaridan biri bo‘lib qoladi. Shunday qilib, mazkur qissaning asosini tarixiy voqelik, ya’ni tarixiy shaxslar hayotidagi voqealar tashkil etsa-da, ammo, keyinchalik bu tarixiylik faqat nomlarda

[1] Г.Бегдели. Шарг адабиjjатинда «Хусрав ва Ширин» мавзусу. Баки, «Илм», 1970, 22-бет; Abu Dulafning
«Ar-risolat as-soniya»sida ќam uchraydi. Abu Dulaf. Al-risolat us-soniya.- Moskva: 1970 Asl matn. 61-bet.

saqlanib qolib, voqealar, sarguzashtlar bayonida badiiylik qonuniyati amal qila boshlaydi. Natijada bu mavzuga murojaat etgan har bir shoir o‘zining ijodiy maromi, dunyoqarashi va estetik mezonlari asosida asar yaratdi. Shuning natijasida bunday asarlarda tarixiylikdan ko‘ra badiiy yaratuvchilik me’yori yetakchilik qilib, undagi obrazlar, voqealarning talqini ham turlicha yo‘nalish va maqsadlarda amalga oshiriladi. Shundan-da, Xusrav, Shirin, Farhod obrazlarining turlicha tavsvirlari, har xil talqinlari maydonga keladi. Jumladan, Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sida Xusrav va Shirin tarixiy nuqtayi nazardan tasvirlanib, unda Shirinni sevuvchi Farhod ko‘rinmaydi. Balki unda tilga olingan Farhod Xusrav sarkardalaridan biri bo‘lib, Shiringa hech qanday aloqasi bo‘lmagan bir shaxs sifatida tasvirlangan. Nizomiy Ganjaviy bu mavzuga murojaat etar ekan, avvalo, unga tarixiylikni emas, balki badiiylik mezonini ustun qilib qo‘yadi, ikkinchidan esa obrazlar talqinini o‘zgartiradi. Natijada Farhod toshyo‘nar hunarmand hamda Shirinni sevuvchi oshiq sifatida tasvirlanadi. Ammo, u dostonning voqealarida boshdan oyoq qatnashmaydi, balki sut kanalini qazish ehtiyoji tug‘ilgandan voqealar maydoniga kirib keladi. Xusrav Dehlaviy ham o‘z «Xamsa»sini yozayotganda bu mavzuga murojaat qilganda, unga xuddi Nizomiyda bo‘lganiday, badiiylik mezonidan kelib chiqib munosabat qiladi. Buning natijasida Xusrav Dehlaviy qalamiga mansub «Shirin va Xusrav» dostoni qurilmasida ham, uslubi va obrazlar talqinida ham Nizomiydan farq qiladigan tomonlar anchagina. Jumladan, Xusrav Dehlaviy Farhodni Chin xoqonining o‘g‘li sifatida qalamga olib, Shirinni sevuvchi oshiq sifatida tasvirlaydi. Bunda Shirin ham Farhodni sevajagini e’tirof etadi (bu e’tirof Nizomiyda yo‘q). Xusrav Dehlaviy dostoni voqealarida Farhodning ishtiroki Nizomiy dostonidagidan ko‘ra ko‘proq, kengroq. XIV asrga kelib, Ardabil shahridan (Ozarbayjon) bo‘lgan Orif Ardabeliy «Farhodnoma» nomli doston yaratdi. Bu doston 717

hijriy 1369-yilda fors tilida yozilgan. Dostonda Farhod bosh qahramon tarzida tasvirlangan. Orif Ardabiliy dostoni ikki qismdan iborat ekani haqida shunday yozadi:

Zi no‘gi xomaam «Farhodnoma»,
Du qismat gasht hamchu no‘gi xoma.

Yake dar ishqi Farhodu Guliston,
Kanori havzu ayshi bog‘u bo‘ston.

Duvum dar ishqi Farhod astu Shirin
Safoi qasru ko‘hu cho‘i shirin.

Mazmuni: «Farhodnoma» dostonim ikki qismdan iborat: birinchisida Farhod va Guliston ishqidan hikoya qilinsa, ikkinchisi Farhod va Shirin ishqi qissasidan iboratdir. Demak, Orif Ardabiliyning dostonida Farhod bosh qahramon qilib olinar ekan, xuddi Xusrav Dehlaviyda bo‘lganidek, Chin xoqoni o‘g‘li sifatida tasvirlanadi. Ammo dostonning birinchi qismi Nizomiy va Xusrav Dehlaviylarda bo‘lmagan voqea bilan , ya’ni Farhodning Abxaziyalik mashhur toshyo‘nar ustaning qizi Gulistonga oshiq bo‘lishi bilan boshlanadi. Voqea davom etib , Farhod Abxaziyaga kelib, Gulistonga uylanadi, uch farzand ko‘radi. Guliston vafot etadi. Shundan so‘ng dostonning ikkinchi qismi, ya’ni Farhodning Abxaziya hokimi qizi Shirin bilan bog‘liq qissasi boshlanib, Farhodning vafoti bilan nihoyasiga etadi. Ko‘rinadiki , Orif Ardabiliy Farhod haqida to‘liq doston yaratgan bo‘lsa-da, ammo, unda Farhod obrazining tasviri o‘zgacha yo‘nalishda amalga oshirilgan. Bu esa Orif Ardabiyning ijodiy konsepsiyasi, ya’ni Farhodni ideal emas, balki oddiy inson sifatida tasvirlashga intilishi bilan bog‘liqdir.

XV asrda yashagan Ashraf Marog‘aviy ham o‘z «Xamsa» si tarkibida Farhod, Shirin va Xusrav qissasidan bahs yurituvchi «Shirin va Xusrav» dostonini kiritgan. Alisher Navoiyning qayd qilganidek, Ashraf ham bu mavzuga o‘zgacha tarzda yondashgan ekan:

Bu maydonga chu Ashraf surdi markab,
Bu so‘zni o‘zga nav’ etti murattab.

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy mazkur mavzuga murojaat qilgunga qadar unga ko‘pgina mualliflar turli xilda yondashib, dostonlar bitganlar. Alisher Navoiy bularning ko‘pidan xabardor edi. U o‘zigacha yozilgan asarlardan farq qilguvchi yangi dostonni yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganini shunday ifoda etgan:

Burun jam’ et nekim bo‘lg‘ay tavorix,
Borida ista bu farxunda tarix.

Topilg‘ay shoyad andog‘ bir necha so‘z,
So‘z aytur elg‘a ul yon tushmagan ko‘z.

Ani nazm etki tarhing toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.

Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq,
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq…

Birov kim , bir chamanda soyir erdi,
Nechakim gul ochilg‘on ko‘rdi, terdi.

Hamul erda emas gul istamak xub,
Bu bo‘ston sahnida gul ko‘p, chaman ko‘p.

Bu she’riy parchada qiziq bir ishora bor: Alisher Navoiy o‘ziga murojaat qilib aytadiki, sen Farhod, Shirin va Xusrav mavzusiga oid barcha tarixni ko‘zdan kechirib, Nizomiy, Xusrav Dehlaviylar dostonlarida uchramaydigan lavha, voqealarni topgil. Shundan so‘ng o‘zi bunday e’tirof etadi:

Qilib ko‘nglumni bu andesha paydo,
Tavorix ayladim har sori paydo.

Nazar aylab borin avvaldin –oxir,
Bo‘lub boshdin oyoq olimda zohir.

Topildi oncha so‘zkim, komim erdi.
Quyildi oncha maykim, jomim erdi.

Demak, Alisher Navoiy mavzuga doir ko‘pgina tarixlarni ko‘zdan kechirgan. Shunisi ham borki, bu tarixlar faqat yozma manbalardan iboratmi yoki xalq og‘zaki ijodidagi shu mavzuga oid tarix – rivoyatlarni ham qamrab oladimi-yo‘qmi, bu haqda aniq aytilmagan. Buni eslatishdan maqsad shuki, Farhod Shirin haqidagi qissa faqat yozma manbalarda, dostonlardagina emas, balki xalq og‘zaki ijodida ham X-XI asrlardan boshlab ko‘zga tashlanadi. Ana shulardan biri Xorazmdagi mashhur Dev qal’a yodgorligi bilan bog‘liq rivoyatdir. Unda Farhod dev tarzida, ya’ni odamzod bajara olmaydigan ishlarni amalga oshiruvchi sifatida tasvirlanadi. Yoki Sirdaryo vohasidagi Farhod tog‘i va Shirin soyi bilan bog‘lanadigan rivoyat ham ana shu xildagi qissalardandir. Bu qissa – rivoyatlardagi ko‘pgina lavhalar - Farhodning toshyo‘narligi, oddiy insonlar bajara olmaydigan ishlarni bajara olishi, Shirin xohishi bilan suv arig‘i qazilgani, Farhodning makkor kampir hiylasi bilan vafoti va boshqalar Alisher Navoiy dostonidagi voqealar bilan hamohangdir.

Shunday bo‘lsa-da, Alisher Navoiy bu qissa- rivoyatlardan xabardor edimi-yo‘qmi bu haqda aniq mulohaza yuritish qiyin. Har holda Alisher Navoiy o‘z dostonini yozishdan oldin juda ko‘p manbalarni ko‘rib , ulardan ajralib turadigan go‘zal dostonini yaratgan.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin»i undan oldin shu mavzuda yozilgan dostonlardan, hususan, Nizomiy va Husrav Dehlaviy talqinidagi dostonlardan tubdan farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, ustozlar tomonidan qalamga olingan Farhod obrazining butun bir dostonning bosh qahramoni sifatida talqin qilinishida, Farhodni yaxlit bir ideal obraz- komil inson darajasida tasvirlanishida ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Bu jarayonda Alisher Navoiyning dostonda Farhodning ishqu muhabbatdagi «so‘zu dard»- kuyish va dardlariga alohida e’tibor berganini o‘qtirish lozim. Bu xaqda Alisher Navoiy shunday yozadi:

Bo‘lurdin dahr bo‘stonida mavjud,
Emasdur g‘ayri so‘zu dard maqsud.

Ki ishq ahlidin o‘lg‘ay dostoni,
Muhabbat xaylidin qolgay nishone.

Demak, Farhod timsoli yaratilar ekan, garchi u Chin xoqoni o‘g‘li bo‘lsa-da, ammo, unda «ishq ahli»ning komil insonning barcha fazilatlari mujassam etilgan. Ana shu jihatdan Alisher Navoiy Farhodi ustozlar yaratgan Farhodlardan mukammalligi bilan farq qiladi.

Dostondagi boshqa obrazlar talqini esa ana shu asosiy g‘oya yo‘nalishiga bo‘ysindirilgan.

Nizomiy Ganjaviy badiiy jihatdan yangi «Xusrav va Shirin» dostonini yuzaga keltirdi. Nizomiyning dostonida Xusrav podshoh va oshiq bir kishi. Navoiyning fikricha, Xusrav podshoh ekan, haqiqiy

oshiq bo‘la olmaydi. Dostonning bosh qahramoni – Shirin. Farhod dostonda faqat bitta epizodda uchraydi. U Shirinni sut bilan ta’minlash uchun sut kanalini qazish lavhasida ko‘rinadi.

Xusrav Dehlaviy bu syujetdagi dostonini «Shirin va Xusrav» deb ataydi. Dostonda bosh qahramon Xusravdir. Lekin, bu Nizomiyning qahramonidek ma’naviy tarbiyalanuvchi, yomon xulqlaridan qutulib, «tuzaluvchi» Xusrav emas, balki u boshdan oyoq adolatli shohdir.

Nizomiy dostonida Farhod faqat hunarmand edi. Xusrav Dehlaviy dostonida esa Farhod – shahzoda, Chin hoqonining o‘g‘li. Xusrav Dehlaviy asaridagi Shirin Nizomiy tasvirlagan Shirindek mag‘rur emas, u boshqa Shirin.

Ko‘rinayotganidek, «Xamsa»larning Alisher Navoiy davrigacha bo‘lgan dostonlarida obrazlar talqini o‘zgarib boradi.

Navoiy o‘zigacha yozilgan Farhod qissalarining hammasini bilar edi. U Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy ijodiy an’analarini davom yettirib, o‘zining takrorlanmas, Yangi «Farhod va Shirin»ini maydonga keltiradi. Shoir bu asar ustida ish boshlagan paytda Qutb Xorazmiyning turkiy tildagi asari (Nizomiyning tarjimasi) bor edi. Lekin, Navoiy Nizomiyning originaliga murojaat etadi. Shoir bu dostonida podshohzodalar qanday bo‘lishi kerak, degan savolni qo‘yadi. U Farhodda o‘sha zamondagi shahzodalarda bo‘lmagan sifatlarni mujassam etdi. Bu Navoiy davrining siyosiy-ijtimoiy sohadagi masalalaridan biri edi. Ya’ni, davr ijtimoiy tafakkuri « Shahzoda qanday bo‘lishi kerak?», degan savolga javob izlar edi.

Davlat mustahkamligi va jamiyat ravnaqining yana bir asosiy talabi – bu shahzodalar va bo‘lg‘usi davlat arboblari tarbiyasiga qattiq kirishmoqdan iboratdir. «Munshaot»da Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro, vali’ahd shahzoda Badeuzzamon Mirzoga davlat ishlarini yuritih sohasidagi maslahat va nasihatlari aks etgan maktublari joylashtirilgan. Shoir shahzodalar tarbiyasida nimalarga e’tibor qilmoq kerakligini aniq ta’kidlaydi. U «Farhod va Shirin»

dostonining shahzoda Shohg‘arib Mirzoga bag‘ishlangan 53-faslida shoh ilmni chuqur o‘rganmog‘i lozimligi, haqiqiy ilm esa shoir yashagan davrning etakchi mafkurasi bo‘lmish – din ilmi ekanligini uqtiradi. Ilmda asosiysi, deydi Shoir, fiqh, ya’ni islom qonunshunosligi (yurisprudensiya), hadisi nabaviy – to‘g‘ri yashash dasturi va tafsir – ilohiy kitob hikmatlarini anglamoqdir:

Shah uldurkim, shiori ilmi dindur,
Nedinkim, ilmi din ilmul-yaqindur.
Ulum ichra o‘qusang yuz tuman fasl,
Tamomi farru, din ilmi erur asl.
Bu din ilmiki, xomam qildi tahrir,
Erur fiqhu, hadisu, so‘ngra tafsir.

Alisher Navoiy o‘z dostonida ideal shahzodanigina emas, komil insonni gavdalantirdi. Dostonda namunali shahzoda yaratish g‘oyasi borligi tufayli obraz doirasi nihoyatda kengayib ketadi. Shoir bu obrazni yaratishda xalq og‘zaki ijodiga ham murojaat etadi. Navoiyning Farhodi dev emas, ammo devning ishini qiladi, suv kanalini qazadi. Chunki, sutdan ko‘ra xalqqa suv kerak.

Navoiyning Shirini ham mustaqil, nihoyatda ajoyib tarbiya topgan, atrofi hunarmand, bilimdon qizlar bilan o‘ralgan obraz. U va Farhod bir-birlariga muvofiq shaxslar. Ularning ajoyib insonlar bo‘lib etishuviga Sharoit yaratuvchilar bor edi. Bulardan biri Farhodning otasi – xoqon, ikkinchisi – Shirinning ammasi Mehinbonu. Navoiyning romantik qahramonlari maydonga kelishi uchun romantik sharoit mavjud edi.

Dostondagi Xusrav obrazi ham avvalgi shoirlarning asarlaridagi Xusravdan farq qiladi. Bu obraz talqini Navoiyning ijtimoiysiyosiy dunyoqarashi asosida yuzaga kelgan. Shu boisdan ham bu dostondagi Xusrav salbiy qahramondir.

2.

Shundan soʻng qahramonlik – sarguzasht dostonning asosiy voqealari bayoni boshlanadi. Alisher Navoiy dostonining asosiy qahramoni Farhoddir. U ham xuddi Xusrav Dehlaviy singari Farhodni Chin xoqonining oʻgʻli sifatida tasvirlaydi. Shoir Farhodning ismini sharhlar ekan, komil inson sifatlarini sanab, uning portretini yaratishga harakat qiladi.

Alisher Navoiy tasviridagi Shirin ham har jihatdan goʻzal inson. Uning maʼnaviy dunyosi va uni oʻrab turgan muhit ham har jihatdan Farhodga mos, goʻzal va yuksak darajada. Shoir bu ikki badiiy timsol misolida ham oʻz davri uchun, ham oʻzidan keyingi barcha davrlar uchun ibrat boʻla oladigan maʼnaviy goʻzal va samimiy, komil insonlar konsepsiyasini yaratadi.

Farhod va Shirin sarguzahti fojia bilan tugaydi. Lekin, doston bu bilan tugamaydi. Farhodning koʻkaldoshi Bahrom Arman oʻlkasiga kelib doʻsti Shahzodaning oʻzini emas, qabrini topadi. U koʻz yoshlarini toʻkib:

Koʻzim chiqsun seni koʻrguncha mundoq,
Kesilsun til seni soʻrguncha mundoq,
Nelar kelmush boshingga gʻurbat ichra,
Ne gʻurbatlar chekibsen kulfat ichra,

deya faryod qiladi. Bahrom Xusravning oʻgʻli Sheruyani jangda engadi va Armanistonga odil hokim qoʻyib ketadi. Shu bilan birga zulmga chek qoʻyilib, adolat tantana qiladi. Bunday xotima bilan Alisher Navoiy oʻz ideallariga qattiq ishonishini namoyish etadi. U Farhodu Shirinlar maqsadiga yetolmay vafot etsalar-da, baribir Bahromlar keladi va haqiqat gʻalaba qozonadi, degan fikrni bayon etadi.

Farhod va Shirin qissasi ularning vafoti bilan nihoyasiga yetsa-da, ammo, doston Arman oʻlkasida odil bir podshohning faoliyati boshlanishi bilan hamda shohzoda Shohgʻarib Mirzo haqidagi bob bilan yakunlanadi. Bu hol bejiz emas, chunki shoir bu bilan garchi u istagan komil insonlar – Farhod va Shirinlar oʻz maqsadlariga erisha olmagan boʻlsalar-da, ammo, komil inson, adolat gʻoyasi, albatta, amalga oshishi, gʻalaba qilishiga ishonadi. Buni esa Alisher Navoiy odil podshoh gʻoyasi bilan bogʻlaydi va shundan boʻlsa kerak, mazkur dostonda ikki tarixiy shohzoda – Badeuzzamon Mirzo va Shohgʻarib Mirzolarga alohida boblar ajratib, ularga pand – nasihatlar beradi:

Ishim chun pand bermaktur payopay,
Eshit pandu manga tut bir qadah may.

Xuddi shu bobda, yaʼni Shohgʻarib Mirzoga bagʻishlangan bobda podshohlarning ilmli boʻlishi lozimligidan soʻz yuritib, Ulugʻbek Mirzoni eslatishi sababsiz emas:

Temurxon naslidin sulton Ulugʻbek,
Ki olam koʻrmadi sulton aningdek.

Aning abnoyi jinsi boʻldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.

Valek ul ilm sori topti chun dast,
Koʻzi olinda boʻldi osmon past.

Rasadkim bogʻlamish zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.

Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi «Ziji Kuragoniy».

Qiyomatga degincha ahli ayyom.
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.

Demak, Alisher Navoiy Farhod va Shirin kabi komil insonlarning baxtli bo‘lishi, orzu-istaklariga erishishi uchun shart bo‘lgan omil – bu odil podshohning o‘qimishli, ilmli bo‘lishi lozim deb biladi, ya’ni komil insonning maydonga kelishi uchun komil sharoit ham, ya’ni Farhodkush zamona – sharoit emas, balki Farhodparvar zamona – sharoit darkorligidan so‘z yuritadi. Huddi shuni nazarda tutib, zamondoshlari bo‘lgan tarixiy shahzodalarga murojaat qilib, ular shoh bo‘lgach, shunga amal qilishlari lozimligini istardi.

Alisher Navoiy dostonining bosh qahramoni Farhoddir. Shoir e’tiroficha, u ham, Xusrav Dehlaviyda bo‘lganidek, Farhodni Chin xoqonining o‘g‘li sifatida tasvirlaydi. Shunisi muhimki, Hoqon oilasida dunyoga kelgan Farhodga nom qo‘yish masalasiga shoir alohida e’tibor berib, shu nomni talqin qilishda, Farhodning tug‘ilishi – kelajakdagi komil insonning tug‘ilishi sifatida sharhlaydi:

Jamolidin ko‘ringach, farri shohi,
Bu fardin yorudi mah to ba mohi.

Qo‘yub yuz himmatu iqbolu davlat,
Hamul far soyasidin topti ziynat.

Bu javharlarg‘a chun isnod topti,
Murakkab aylagach Farhod topti.

Keltirilgan misolda Farhod so‘zining ma’nosi quyidagicha sharhlangan:

Chaqaloqning yuzidan shohlik farri-shohlik shon shukuhi, yorug‘ligi ko‘rindi. Bunda Farhod so‘zining birinchi qismi-«far» izohlangan. To‘rtinchi baytida esa Farhod so‘zining ikkinchi qismi-«hod» shunday izohlanadi: uning «h» harfi «himmat» so‘zining birinchi harfidan, «alif»(o) «iqbol» so‘zining arabcha yozuvda birinchi harfi-«alif»dan , uchinchi harfi «d» «davlat» so‘zining birinchi harfidan olingan bo‘lib, ular to‘plansa («h»+ «o» + «d») «hod» so‘zi kelib chiqadiki, uning ma’nosi «yo‘l boshlovchi»dir. Bas shunday ekan, Farhod so‘zining ma’nosi shohlik shon-shuhratiga ega bo‘lgan, himmatu iqbol, baxtu saodat va davlat sohibi degan ma’noni anglatadi. Bu bilan Alisher Navoiy Farhod shahzodagina emas, balki eng olijanob fazilatlarga ega shahzoda ekaniga ishora qilmoqda.

Ikkinchi sharh:

Bu «far» ni «hodi»yi baxt etgach irshod,
Ravon shohzoda otin qo‘ydi Farhod.

Bunda shoir «Farhod» so‘zini ikki qismga – «far + hod» bo‘lib shunday sharhlaydi: shohlik shon-shukuhi va olijanob fazilatlar egasi bo‘lgan shahzoda Farhod – baxt tomon «hodiy» lik-yo‘lboshchilik qiluvchi shaxsdir, ya’ni Farhod baxtli bo‘lishga intiluvchilar rahnamosidir.

Uchinchi sharh:

Bu nav’ ermas ato qo‘ymadi otin,
Ki ko‘rgach ishq aning pokiza zotin.

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,
Hurufi ma’xazin besh qism qo‘ydi.

Firoqu rashku hajru oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism oʻldi murattab.

Bunda shoir Farhod soʻzining har bir harfi «firoq», «rashk», «hajr», «oh» va «dard» soʻzlarining birinchi harflaridan («firoq»dan «f», «rashk»dan «R», «hajr»dan «H», «oh»dan «o» va «dard»dan «d») iboratligiga ishora qilib, bu bilan Farhodning «ishq» ahlidan ekaniga urgʻu beradi.

Shunday qilib, «Farhod» soʻziga berilgan bu uch sharhga diqqat qilinsa, unda shu nomga (Farhod) ega boʻlib, Alisher Navoiy tasvirlagan badiiy obrazning mohiyati ochiladi hamda butun doston davomida u ana shunday fazilatlari bilan namoyon boʻladi.

Bu hol uning yoshligidan, maktabda oʻqish jarayoni, ilm oʻrganishidan koʻzga tashlanadi. Alisher Navoiyning yozishicha, yosh Farhod:

Agar bir qatla koʻrdi har sabaqni,
Yana ochmoq yoʻq erdi ul varaqni…

Oʻqub oʻtmak, oʻqub oʻtmak shiori,
Qolib yodida safha –safha bori…

Jahonda qolmadi ul etmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm…

Ulum avroqi chun bir-bir yopildi,
Dilovarliq silohi mayli qildi…

Shuning bilan bir qatorda Farhod:
Demonkim, koʻngli poku ham koʻzi pok,
Tili poku soʻzi poku oʻzi pok,

-bir olijanob inson sifatida ham shakllanib boradi. Bu bayt «Hayrat ul-abror»da oshiq haqida:

Oshiq ani bilki erur dardnok,
Ham tili, ham koʻziyu ham koʻngli pok,

-deb yozganlarining Farhod misolida amalga oshganini, ya'ni umumlashma fikrlarning badiiy obrazda mujassamlashganini koʻrsatadi.

Farhodning keyingi faoliyati ham ibratli: Farhod shahzoda boʻlsa-da, mashhur usta Qorandan toshyoʻnarlik, Moniydan naqqoshlik san'atlarini mukammal oʻrganib, ustozlarini hayratda qoldiradi. Xoqon oʻgʻliga toj-taxtni taqdim etishini aytganda Farhodning asosli uzrlar aytishi, Xoqonning oʻgʻliga xazinasini koʻrsatgani, «Oinai Iskandariy» sirlarini bilish uchun Yunon tomon safari, undagi ajoyib-gʻaroyib sarguzashtlari nihoyatda jozibali va goʻzal tasvirlangan. Bu sarguzashtlarda Farhod faqat lashkarboshi, pahlavon sifatida emas, balki donishmand, adolatli va olijanob inson sifatida koʻzga tashlanadi. Farhod Yunon safaridan Chinga qaytib, «oinai Iskandariy»da Arman oʻlkasidagi dasht, unda kanal qazuvchilar va bir goʻzal boshchiligidagi qizlarni koʻrdi va oʻsha goʻzalga oshiq boʻlib qoldi. Ishq Farhodni kasal qiladi, uni davolash uchun dengiz sayohatini uyushtiradilar. Kemalar halokatga uchrab, Farhod bir yogʻoch ustida tanho qolib, tijoratchilar kemasi uni qutqaradi. Farhod esa ularni qaroqchilardan himoya qiladi, Shopur bilan tanishadi. Soʻng ular Arman dashtida kanal qazayotganlar oldiga keladilar. Farhod ularga rahmi kelib,

Hunarni asrabon netgumdur oxir,
Olib tuproqqamu ketgumdur oxir,

- deb hunarini, mo‘jizakor teshasini ishga solib, kanal qazadi. Uning ovozasi Arman malikasi Mehinbonu va jiyani Shiringa yetib boradi. Shirin o‘zining donishmand kanizaklari bilan Farhodni ko‘rishga keladi. Farhod «Oinai Iskandariy»da ko‘rgan go‘zali Shirin ekanini bilib, hushdan ketadi… Keyin voqealar Farhodning Arman o‘lkasidagi faoliyati-kanal - «Ayn ul-hayot», hovuz- «Bahr un-najot» va qasr qurish, Xusravga qarshi kurash, oxirida esa vafoti bilan bog‘liqdir.

Bunda Farhod quruvchi, naqqosh , toshyo‘nar va pahlavongina emas, balki Shirinning haqiqiy oshiqi , uning uchun o‘zini ham qurbon qilishga tayyor inson sifatida gavdalanadi. Shuning uchun Alisher Navoiy dostonini yozayotganida ham ana shu masalaga asosiy diqqatni qaratib yozadi:

Meni mahzung‘akim , ishq etti bedod,
Solib g‘am tog‘ida andoqki Farhod.

Munosibdur agar tortib navoni,
Desam Farhodi mahzun dostoni.

Yozib jon mushafidin ikki oyat,
Debon Farhodu Shirindin hikoyat.

Dostonda ana shu ikki timsol o‘zining jozibadorligi bilan, samimiyligi, haqiqiyligi, buyuk insonga xos fazilatlari bilan kishini maftun etadi.

3.

Alisher Navoiy tasvirida Shirin Mehinbonu tarbiyasidagi malika. U har jihatdan: zohiriy, botiniy, ma'naviy va ma'rifiy jihatdan ham go'zal va beqiyos. Shuning uchun shoir Shirin siymosi-portretini shunday bir mahorat bilan chizadiki, uni o'qigan kishining ko'zi o'ngida bu timsol butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari uning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi ham ana shunday go'zal va yuksak darajada. Shuning uchun uning atrofidagi o'n qiz - Dilorom, Diloro, Diloso, Gulandom, Sumanbu, Sumanso, Parichehr, Parivash va Paripaykarlar ham Shiringa munosib bo'lib, biri she'riyat, biri musiqa , biri mantiq, biri hay'at, biri tarix, biri hisob, biri muammodonlikda tengi yo'q foziladirlar:

Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,
Yuz ul fanliq aro har qaysi yak fan.

Bunda Alisher Navoiy Mehinbonu saroyidagi ajoyib bir ijodkorlik va bilimdonlik muhitini tasvirlaydi. Buning sababini esa Mehinbonuning o'zida ko'radi:

Mehinbonu ki donishparvar erdi,
Bilik ahlig'a shohi sarvar erdi.

«Farhod va Shirin»dagi bu tasvir Shirin kabi komil insonlarni etishtiruvchi komil sharoitni ham nazarda tutadi. Shunday bo'lganda faqat erkaklargina emas, balki ayollar ham o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini har tomonlama yuzaga chiqara oladilar. Bu esa Alisher Navoiyning orzusi va asosiy maqsadi hamdir. Shuning uchun Alisher Navoiy tasviridagi Shirin o'z taqdirini o'zi hal qiladigan erkin shaxs. Bu holat quyidagi lavhada yaqqol ko'zga tashlanadi:

Shirinning dovrug‘ini eshitgan Xusrav unga sovchi yuboradi. Bu haqda Shiringa aytganlarida, u shunday javob beradi:

Manga ne yoru ne oshiq havasdur,
Agar men odam o‘lsam ushbu basdur.
Agar Bonu iloji bilsa, qilsun,
O‘zumni o‘ltururmen, yo‘qsa bilsun.

Dostonda Mehinbonu, Farhod otasi Xoqon, Shopur, Bahrom va shunga o‘xshash timsollar ham borki, ular asosiy qahramonlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlaguvchi ijobiy timsollar sifatida tasvirlanadi. Ana shulardan biri bo‘lgan Shopur haqida quyidagilar yozilgan:

Hunar bobida ustodi zamona,
Zamona ichra naqqoshi yagona.

Varaqni kilki aylar chog‘da tasvir,
Bo‘lub noyib manobi kilki taqdir.

Ne surat yozg‘ali topib chu dast ul,
Jahonni aylabon suratparast ul…

Qalam ahlig‘a oning tarhi dastur,
Jahon ahli debon otini Shopur…

Guzin Farhodg‘a bexavfu kulfat,
Bo‘lub Shopur ila ul nav’ ulfat-
Ki, onsiz bir dam o‘lg‘och istab oni,
So‘rub dardu muhabbat dostoni.

Shunday qilib, Farhod Shopur timsolida o‘ziga munosib do‘stni ko‘rib, umri oxirigacha u bilan birga bo‘ldi.

Ammo, dostonda Xusrav, Sheruya singari salbiy timsollar ham borki, ular qattiq qoralanganlar. Buning sababi esa ularning xatti-harakat va qilmishlari ezgulik, osoyishtalik, obodonlikka qarshi bo‘lib, insonlarni komillikka intilishlariga g‘ov bo‘lganliklaridadir. Farhod, Shirin, Mehinbonu va minglab odamlarning o‘limiga sabab bo‘ladilar. Oxirda esa Xusrav o‘z o‘g‘li Shero‘ya tomonidan o‘ldiriladi, Shero‘yani esa Farhodning do‘sti Bahrom mag‘lubiyatga uchratadi.

Demak, Alisher Navoiy tasvirida zolimlik yengiladi, adolat tantana qiladi.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni o‘zbek dostonchiligi tarixida alohida mavqega ega bo‘lgan badiiy yodgorliklardan bo‘lib, unda ulug‘ shoirning komil inson haqidagi konsepsiyasi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Shuning uchun u juda ko‘p tillarga, jumladan, tojik, turk, rus, gruzin hamda Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilingan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Farhod, Shirin va Xusrav haqidagi qissa, rivoyat va dostonlarning yaratilish tarixini gapirib bering.
2. XV asrda yashagan Ashraf Marog‘aviyning «Shirin va Xusrav» dostoni haqida nimalarni bilasiz?
3. Dostonning tuzilishi va tarkibi haqida ma’lumot bering?
4. Dostondagi Xusrav obraziga ta’rif bering?
5. Shopur obrazining dostondagi o‘rni haqida nima deysiz?
6. Dostondagi ijobiy qahramonlarni sanang?

Zaruriy adabiyotlar :

1. A.Navoiy. Farhod va Shirin.- Toshkent, 1990.
2. A.Navoiy. Farhod va Shirin. Nasriy bayon. – Toshkent, 2009.
3. A.Qayumov. Farhod va Shirin sirlari. – Toshkent, 1978.
4. A.Hayitmetov. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent, 1996.
5. N.Komilov. Tasavvuf. 1 kitob. – Toshkent, 1997.
6. A.Abdug‘afurov. Buyuk beshlik saboqlari. – Toshkent, 1995.
7. S.Hasanov. Navoiyning yetti tuhfasi. – Toshkent, 1996.
8. Navoiyning ijod olami. – Toshkent, 2001.

9 – MAVZU: “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA MUALLIF BADIIY NIYATINING IFODALANISHI

Dars rejasi:

9.1. “Layli va Majnun” qissasi tarixi va sharq epik she’riyatidagi talqinlari. **9.2.** Dostonning kompozitsion qurilishi.

9.3. “Layli va Majnun” – eng mahzun ishq qissasi.

Tayanch so ‘z va iboralar: *ishq-muhabbat, Layli, Majnun, Qays, Navfal, muhabbat afsonasi, Ka’ba tavofi, komil inson.*

1.

Bu doston Alisher Navoiy «Xamsa»sining uchinchi dostoni bo‘lib, 1484 yilda yozilgan. Bu mavzuda Alisher Navoiydan oldin asar yozgan adiblar arablarning Omir qabilasidan bo‘lgan Qays qissasiga asoslanadilar. Bu qissa avvalo arab Shoirlari she’rlarida kuylangan bo‘lsa, keyinchalik «Xamsa»lar tarkibiga kiritiladi. Alisher Navoiy Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy yozgan dostonlarini o‘z asarida hurmat bilan tilga oladi. Navoiy bu dostonlardan farq qiluvchi turkiy tilda yangi doston yaratishni niyat qiladi:

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati chun jahong‘a to‘lg‘ay,
Turk elig‘a dog‘i bahra bo‘lg‘ay.

Doston hajaz bahrining «maf’ulu mafoilun faulun» ruknida yozilgan.

Yozmoqqa bu ishqi jovidona,
- v v / v – v - / v - -

Maqsudim emas edi fasona.
- v v / v – v - / v - -
Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,
- v v / v – v - / v - -
Afsona anga libosi mavzun.
- v v / v – v - / v - -
- maf’ulu/ mafoilun/ faulun
- v v / v – v - / v - -
- maf’ulu/ mafoilun/ faulun

Alisher Navoiy bu dostonda o‘z ideallarining fojiaga uchrashi sabablarini ochib beradi. Dostonda, go‘yoki, boshdan oxirigacha shoirning hazin yig‘isi eshitiladi:

Bir na’shqa soldilar ikovni,
Jonsiz kelinu o‘luk kuyovni…
So‘ngin nechakim uzattim oxir,
Yig‘lay-yig‘lay tugatdim oxir.

Doston voqealari Layli va Majnun sarguzashti boshlanmasdan oldin «Ul tun muhabbati ta’rifida…» deb nomlangan bob bilan boshlanadi. Layli va Majnun qissasi nihoyasiga etgach esa, «Ishq ta’rifidakim» sarlavhasi bilan bir bob keltiriladi. «Bu bob diqqat bilan o‘qilganda, Shu narsa ayon bo‘ladiki, - deb yozadi B. Valixo‘jaev, - unda Alisher Navoiy biz javobini topishga intilgan savollarga ham, doston va uning timsollarini tahlil qilish bo‘yicha asosiy yo‘nalish larni ham bayon etadi».[33]

Alisher Navoiy har bir dostonini boshlar ekan, dostonning vaznini ham uning mavzuiga bog‘lab tanlaydi, asar boshlanishidagi voqea tasviri bilan ham o‘quvchini tayyorlaydi. Shoir o‘zining

[33]Valixo‘jaev B. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-qism. Samarqand: 2002. 44-bet.

ideallariga hamisha umid bilan qaraydi, ularning mag‘lubiyatga uchraShini istamaydi.

Majnunning Layliga bo‘lgan muhabbatini tarannum etar ekan, shoir bu ishqning avvalo oddiy insonga – er go‘zaliga nisbatan bo‘lgan majoziydan Mutlaq Go‘zallik – Alloh taologa nisbatan bo‘lgan haqiqiy ishq darajasiga ko‘tarilishini yoritib beradi: Bu ishqki, baxti komrondin, Xoli bo‘lmay zamone ondin. Garchi iki nav’ o‘tti rozi, Avvalg‘ini anglag‘il majoziy. Kim durru gudozu so‘z birla, Yuz Sho‘’lai jonfiro‘z birla.

Chun ayladi poklikka mavsuf,
Ul nav’ qilur birovga ma Sh’uf.
Kim ishq aro firoq ila dard,
O‘zlukdin etar tamom ani fard.
Bil so‘ngrag‘i ishqni haqiqiy,
Kim davlat erur aning rafiqi…
Majnung‘a biri bo‘lub musallam,
Bahra topti ikkinchisidin ham.

Alisher Navoiy nazdida Majnun insoniy, avom ishqi – majoziy ishqda kamolotga erishib, haqiqiy ishq maqomiga etgan orif insonlar timsolidir.

Layli esa Majnun uchun Buyuk yaratuvchi kamolotini o‘zida namoyon etgan ko‘zgudir. Shu bois Majnun jismoniy xilqat bo‘lmish Laylini – ko‘zguni emas, balki ko‘zgu ichidagi mohiyatni sevadi. Buni shunday misol orqali tushuntirish mumkin: ajoyib san’at asarini tomosha qilgan inson bu asarning o‘zini emas, uning ustasini maqtab, ofarin aytadi. Shoir ushbu dostonda dunyo hayotida har jihatdan poklikka erishgan komil yigit va komila qiz haqidagi mulohazalarini Majnun va Layli timsollari vositasida yoritib beradi.

Dostonda boshqa ma’naviy yetuk shaxslar timsoli ham mavjud.

Bulardan biri Shoh Navfaldir:
Navfalki arabda erdi nodir,
Tig‘iki qadar o‘qiga qodir.
Yaxshiliq ila Arabda mavsum,
Oramgahi bu marz ila bum…
Navfal dag‘i ishq ko‘rgan erdi,
G‘am daShti aro yugurgan erdi.

Ammo, Navfal ishqi, uning qizi va qizining sevgilisi ishqi Shoir ta’riflagan «avvalg‘i ishq» darajasida edi. Shu boisdan ham Navfal Majnun muhabbatini chuqur tushunmay, unga o‘zining qiziga uylanishni taklif etadi.

Akademik B. Valixo‘jaev «Layli va Majnun» dostonining xususiy g‘oyaviy-badiiy jihatlari haqida fikr yuritar ekan, jumladan, Shunday deydi: «Agar diqqat bilan qaralsa, bu ikki dostonni birbiriga yaqinlashtiruvchi muShtarak mavzu – komil inson mavzusidir. Bu mavzu ularni bir-biriga bog‘labgina qolmaydi, balki mavzuning har bir dostonda o‘ziga xos tarzda yoritilishi ularning uslubiy o‘ziga xosliklarini namoyon etadi, ya’ni «Farhod va Shirin» da bu mavzu ijtimoiy faollik ko‘lamida yoritilsa, «Layli va Majnun»da esa asosan ishq maydonidagi ichki kechinmalar, ruhiy holatlarning chuqur tasviri orqali nihoyatda mahorat bilan tasvirlanadi».[34]

Mazkur sujet dastlab arab diyorida yuzaga kelgan bo‘lsa, uning qahramonlari Layli va Majnun asrlar osha ko‘plab xalqlar adabiy tafakkurining so‘nmas va boqiy timsollariga aylanadi. Ular arab xalqlarining ommaviy qahramoni bo‘lib[35], mutaxassislarning

[34] Valixo‘jaev B. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-qism. Samarqand: 2002. 49-bet.

[35] Sharqning arablar talqinidagi Qays va Layli muhabbati haqidagi ommaviy qahramoni. Oshiq Qays ishqdan aqlini yo‘qotish darajasiga boradi va uni Majnun deb atay boshlaydilar. Afsonaning ayrim versiyalariga ko‘ra Layli go‘zal bo‘lmaydi, ammo, Majnunga hammadan go‘zal bo‘lib ko‘rinadi...ularni hech bir to‘siq, hatto ayriliq ham ajrata olmaydi. Tasavvuf adabiyotida “abadiy va ilohiy ishq” ramzi sifatida talqin etiladi. Layli “tun”, “qorong‘ulik”, “qora” ma’nolarini bildiradi [Qobilov U.Nubuvvat va valoyat terminlari qisqacha izohli lug‘ati, 61-b.].

aniqlashicha, qariyb o‘n uch asrdan ortiq vaqt mobaynida ushbu qahramonlar taqdirini yorituvchi ko‘plab dostonlar bitilgan.

Ma’lumki, bu borada izlanish olib borgan akademik I.Yu.Krachkovskiy[36] qissaning vujudga kelish kurtaklarini VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqalishini qayd etadi. Qissa qahramonlari tarixiy shaxslar bo‘lib, ushbu sujet hayotiy sevgi fojiasi negizida yuzaga kelgan. Majnun Bani Omir qabilasidan chiqqan, uning asl nomi Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, al-Aqra, ba’zan al-Buhturiy ibn al-Ja’d bo‘lgan. Qays o‘z qabiladoshi Layli degan qizni sevgan, o‘z sevgisi va hijron alamlari haqida mungli she’rlar bitgan. Albatta, olim arab manbalaridan kelib chiqib shunday xulosaga keladi. Uning bu fikrlarini sharqshunos E.E.Bertels[37] o‘z izlanishlarida tasdiqlaydi. Bertelsning fikricha, Layli va Qays fojiaviy voqeasi o‘zaro qarindoshlar o‘rtasida yuz bergan. Qays amakisining qizi bo‘lgan Laylini sevib qoladi va buni sezdirmaslik uchun Majnun taxallusli she’rlar yozadi. Olim fors-tojik shoiri Nosir Xusravning “Safarnoma” (XI asr) asarida berilgan ma’lumotlarga ham e’tiborini qaratadi. Jumladan, sayohatchi Arabistonda bo‘lganida, Toif shahri yaqinida unga odamlar Layli yashagan qo‘rg‘on xarobalarini ko‘rsatgan, ya’ni Layli o‘sha Toif yaqini – Araviya qo‘rg‘onida yashaganida, Omir qabilasidan al-Mulavvahning o‘g‘li Qays sevib qoladi va undan ayrilgach, sahroda halok bo‘lgan[38]. Adabiyotshunos Natan Mallayev yuqoridagi olimlarning ma’lumotiga tayangan holda boshqa bir qator manbalarning bu ma’lumotlarni rad etganini ta’kidlaydi. Xususan, arab olimi Avon ibn-Hakim al-Qalbiy, arab tarixchisi Hishom al-Qalbiylar Majnun tarixiy shaxs emas, uning

[36] Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе Избранные соч.- М: 1946.(31.)

[37] Bertels E.E. Navoiy. Monografiya. (Rus tilidan I.Mirzaev tarjimasi). – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015 yil.

[38] Mallaev N. Alisher Navoiy va xalq og‘zaki ijodiyoti. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974 yil.- 157-b.

nomi majoziydir, she’rlar esa o‘z yaqin qarindoshlaridan birining qiziga oshiq bo‘lgan ummaviylar xonadoniga mansub bir yigitning she’rlari bo‘lib, u o‘z nomini oshkor etmaslik maqsadida Majnun taxallusini qo‘llagan degan, ma’lumot qoldirgan. Shu tariqa o‘tmish arab qabilalari hayotida sodir bo‘lgan oshiq yigit Qaysning qayg‘uli sevgi voqeasi Majnun bo‘lib she’rlarga ko‘chib, folklorda bu to‘g‘rida har xil afsona va rivoyatlarning yaratilishiga asos bo‘lgan. Xalifalik yuzaga kelgach, bunday afsona va rivoyatlar boshqa xalqlarga ham keng tarqalgan. Kichik sujet bo‘lishiga qaramay, bu mavzuda adabiyot tarixida turli tillarda turkum asarlar yaratilgan. Sharq mumtoz adabiyotida ulkan xamsachilikning yuzaga kelishi, shuningdek, o‘sha davrda keng tarqalgan tasavvuf ta’limoti badiiy adabiyotda “Layli va Majnun” kabi asarlarning g‘oyaviy konsepsiyasiga mos kelib, ularning ommalashishiga olib keladi. Shu bilan birga mavzuning bu qadar keng ko‘lam kasb etishi Sharq mumtoz adabiyoti taraqqiyoti bilan ham bog‘liqdir.

Mumtoz adabiyotda bu qissa fors-tojik va turkiy tilli ijodkorlarning sevimli mavzusiga aylanadi. Mazkur qissaning doston shaklidagi variantini ilk bor Nizomiy Ganjaviy (1188) yaratadi. Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalanib, “Layli va Majnun” dostonini g‘oyaviy va badiiy jihatdan mukammal asar darajasiga ko‘taradi. Muallif Bani Omir qabilasi boshlig‘ining o‘g‘li Qaysning o‘z maktabdoshi Layliga bo‘lgan muhabbatini tasvirlash orqali har ikkala qahramonning ruhiy va ma’naviy dunyosini ochib berishga alohida e’tibor qaratadi. Xalq rivoyatlarida faqat tashqi go‘zalligi bilangina mashhur bo‘lgan Layli timsoli ijtimoiy omillar va badiiy-estetik yuk orqali mukammallashtiriladi. Nizomiy Ganjaviy dostoni Sharq xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozondi va oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o‘tgach, Amir Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi. Dehlaviyning dostoni 1299-yilda yaratilgan bo‘lib, “Majnun va Layli” deb

nomlanadi. Muallif doston qahramonlari nomini almashtirish orqali o‘z salafidan yangilikka, o‘zgachalikka intilganligini ta’kidlaydi hamda ushbu qissaning arab xalqlari orasida dastavval “Majnun va Layli” shaklida ommalashganligiga e’tiborni qaratadi. U Nizomiy dostonining kompozitsion qurilishini asosan saqlab qolgan holda uning sujetiga ba’zi o‘zgartirishlar kiritadi (munajjimning Majnun taqdiri haqidagi bashorati, Navfalning o‘z qizini Majnunga nikohlab berishi, Majnun Layli qabilasidan bo‘lgan itni quchib, u bilan hasratlashishi va b.)[39]. Xusrav Dehlaviy ushbu dostoni bilan Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusidagi dostonga javob yozish an’anasini boshlab berdi. Dehlaviydan keyin forsiy adabiyotda, xususan, Hirot adabiy muhitida Ashraf Marog‘aviy, Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy, Shayxim Suhayliy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy, Xoja Imod Loriy va boshqalar ham ushbu mavzuda asar yozgan edi[40]. Turkiy adabiyotda ham Layli va Majnun orasidagi muhabbat afsonasi ijodkorlarning sevimli mavzusiga aylanadi. Turk olimi A.S.Levendning yozishicha, turkiy adabiyotning o‘zida “Layli Majnun” sujetli asarlarning soni 30 ga yaqinlashadi[41]. Jumladan, Usmonli turk shoiri Gulshahriy o‘zining “Mantiq ut-tayr” (1313) dostonida Hudhud tilidan “Majnun afsonasi”ni keltiradi. Bu afsona 79 baytdan iborat bo‘lib, unda Laylining Majnunni izlab chiqib, uni qum va toshlar orasida hushsiz holda topganligi bilan bog‘liq epizod tasvirlanadi. Ushbu epizodga ko‘ra, Majnun hushiga kelgach, Laylini tanimaydi. Layli o‘zini Majnunga tanita boshlaydi, lekin Majnun unga ishonmaydi va “Nega Majnun bittayu, Layli ikkita? Bunday

[39] Ahmedov T. Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni. – T.: Fan, 1970. 28-b.; Yusupova D. Layli va Majnun / Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 1-jild / Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016. 247-b.

[40] Tohirov S. Temuriylar davrida xamsanavislik (Monografiya). - Samarqand: SamDU nashri, 2020. 6-b.

[41] Agah Sirri Levend. Arap, fars ve turk edebiyatlarinda Leyla ve Mecnun hikayesi. - Ankara, 1959. S-3.

bo‘lishi mumkin emas! Majnun yuzta bo‘lishi mumkin, lekin Laylining ikkita bo‘lishi xatodir” - deydi[42]. Mazkur epizod Gulshahriy afsonasida Majnunning muhabbati tasavvufiy mohiyat kasb etib, ishqi majoziydan ishqi ilohiyga o‘tgan bosqichni ifodalaydi, zero, bu holat “Mantiq ut-tayr”ning umumiy mohiyatiga mos edi. Yana bir turk shoiri Oshiq Poshshoning “G‘aribnoma” dostoni tarkibida ham “Layli va Majnun” afsonasi keltirilgan bo‘lib, bu afsona hajman juda kichik – jami 30 baytdan iborat. Unda Layli va Majnunning ilk marta maktabda uchrashganlari, Majnunning Layliga oshiq bo‘lgani, buni bilgan Laylining yaqinlari uni maktabga yubormay qo‘yganlari, Majnunning bu holdan iztirobga tushganligi, qabila atrofida telbadek kezganligi va odamlar uni “Majnun” deb ataganlari bilan bog‘liq voqealar keltirilgan[43]. Turk tilida yaratilgan yana bir asar Shohidiyning “Gulshani ushshoq” asari bo‘lib, 1476-1479-yillar oralig‘ida yozilgan. Doston Jom shahzodasi Xon Muhammadga bag‘ishlangan bo‘lib, 6446 baytdan iborat. Muallif o‘z dostonining nomlanishi haqida: “Ishq bilan bezangani uchun ushbu dostonimga “Gulshani ushshoq” deb nom berdim. Lekin agar bu nomlanish sizni qoniqtirmasa, “Layli va Majnun” tarzida mashhur bo‘la qolsin”, - deydi[44].

2.

Doston kompozitsion qurilishi va sujetning umumiy xususiyatlari jihatidan Nizomiy va Dehlaviy dostonlariga yaqin turadi. Lekin dostondagi ikkinchi darajali qahramonlar: Zayd va

[42] Agah Sirri Levend. Arab, fors ve türk edebiyatlarinda Leyla ve Mecnun hıkayesi. Ankara, 1959. – S.Б 103-106.
[43] Yuqoridagi asar. 107-b.
[44] Bu haqda qarang: Алиев Г. Темы и сюжеты Низами в литературах народов востока. – М.: Наука, 1985. – С. 268.

Zaynabning bu dunyodayoq ishqqa yetishuvlari bilan bog‘liq epizodning kiritilganligi turk muallifning o‘ziga xos pozitsiyasini ko‘rsatadi. Bu bilan u Zayd va Zaynabning muhabbati bosh qahramonlar ishqidan farqli ravishda haqiqiy ishqqa o‘sib boruvchi emas, balki u avom ishqining namunasidir, demoqchi bo‘ladi[45]. Alisher Navoiy Shohidiyning bu dostoni bilan tanish bo‘lmagan. Buni shoirning doston muqaddimasida salaflar bilan bog‘liq o‘rinda aytgan fikrlari, ya’ni turkiy tilda bu afsonani ilk marta qalamga olganligi haqidagi baytlari ham tasdiqlaydi. “...Shohidiyning asari o‘z davrida keng shuhrat qozonolmagan. Shuning uchun ham u, o‘z davrining korifeylari bo‘lgan Jomiy va Navoiylarga ma’lum bo‘lmagan bo‘lsa kerak”[46].

Alisher Navoiy o‘zining «Layli va Majnun»ini yozayotganda eslatilgan va boshqa asarlardan xabardor edi. Bas shunday ekan, Sharqda mashhur bo‘lgan bu mavzuga Alisher Navoiyning yana murojaat qilishiga bois nima edi, degan savolning tug‘ilishi tabIIy, albatta.

Alisher Navoiy o‘zigacha yozilgan «Xamsa»larning fors tilida ekanligini uqtirib, o‘z «Xamsa»sini turkiy tilda yozishga kirishgan.

Navoiy «Layli va Majnun» dostonida shu mavzuda o‘zigacha yozilgan asarlarga, bir tomondan, o‘xshaydigan (mavzu, voqea, timsollar), ikkinchi tomondan va eng muhimi, o‘xshamaydigan (voqea, timollar talqinida) asar yaratish borasida ko‘p o‘ylagani va nihoyat, bu masalaning yechimini topgani haqida shunday yozadi:

Avvalda ko‘p ayladim taammul,
To ko‘ngluma kirdi bu taxayyul-

[45] Aliyev G. Yuqoridagi asar. 269-б.
[46] Ahmedov T. Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni. – T.: Fan, 1970. 32-b.

Kim, Ganjada ganjlar yoshurg‘on,
Har ganjigakim yasadi qo‘rg‘on.

Yo hindnajodi hinduvizod-
Kim, qasrlarini qildi obod.

Har qal’a uchun kerakdurur shahr,
Ham qasrg‘a bog‘u sabzadin bahr.

Bo‘lsa manga fursat ul qadar chog‘
Kim , shahr ila tarh solibon bog‘.

Bog‘ini riyozi xurram etsam,
Shahrini savodi a’zam etsam.

Mazmuni: Bu masalada men ko‘p o‘yladim va shunday xayol – fikrga keldim. Nizomiy o‘z dostoni bilan bir qo‘rg‘on yasadi, Xusrav Dehlaviy esa qasr bunyod qildi. Men bo‘lsam, ularning ishini davom ettirib, «qo‘rg‘on»ni «shahr»ga aylantirib, «qasr»- atrofida jannat monand bog‘lar quraman. Badiiy obrazlar (shahr, bog‘) tarzida bayon qilingan bu fikrni qanday tushunmoq darkor ? Bizningcha, Alisher Navoiy «shahar» so‘zi vositasida Nizomiy yaratgan «qo‘rg‘on» –dostonni kengaytirishni «bog‘» so‘zi orqali esa Xusrav Dehlaviy yaratgan «qasr» dostonni badiiy jihatdan yanada go‘zallashtirishni nazarda tutgan . Shuning bilan bir qatorda o‘zi yaratadigan dostonni «nomai dard», «hangomai dilafro‘z» –dard nomasi, yurakni kuydiruvchi, ya’ni ishq haqida, bu yo‘ldagi «fig‘on bila oh»lar «ko‘z yoshlar», ko‘ngullarning o‘t bo‘lib yonib, ohlarning uning (kungul o‘tining) dud –tutunlari bo‘lishini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda , Alisher Navoiy bu mavzuni yoritishda ruhiy holat , ichki kechinmalarning nihoyatda go‘zal ,nihoyatda

samimiy va chuqur bo‘lishiga e’tiborni qaratadi . Xuddi shuning uchun doston voqealari, ya’ni Layli va Majnun hikoyati boshlanmasdan avval «Ul tun mahobati ta’rifida»… deb nomlangan bobni keltirib, ishq vodiysining murakkabliklaridan, ofat va qiyinchiliklaridan juda baland shoirona ruhda so‘z yuritadi (MAT, 9-tom, 48-57-betlar). Dostonda Layli va Majnun vafotidan , ya’ni bu qissa nihoyasiga yetgandan so‘ng yana «Ishq ta’rifidakim» sarlavhasi bilan bir bob keltiriladi. Bu bob diqqat bilan o‘qilganda shu narsa ayon bo‘ladiki, unda Alisher Navoiy biz javobini topishga intilgan savollarga ham, doston va uning timsollarini tahlil qilish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni ham bayon etgan. Shunday tuyuladiki, go‘yo Alisher Navoiy bu bob bilan dostonni, timsollarni tushunish uchun ochg‘ich –kalitni o‘quvchiga taqdim etadi.

Bunday mulohazaning bayon etilishiga sabab shuki, bu doston haqida juda ko‘p olimlar fikr yuritdilar, uni har bir davr talabi asosida tahlil qilishga urindilar. Ammo, ular Alisher Navoiy e’tiroflaridan kelib chiqib bu asarga yondashmasdan, balki o‘z tushuncha va maqsadlari asosida ish tutdilar.

Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilovning «Tasavvuf» deb nomlangan birinchi kitobining (Toshkent, «Yozuvchi», 1996) «Ishq otashining samandari» bobi Alisher Navoiy «Layli va Majnun»iga bag‘ishlangan. Unda dostondagi ishqni «ishqi haqiqiy» tarzida tushinishga moyillik ko‘proqdir. T.G‘afurjonova esa «Layli va Majnun» nashri so‘ngidagi izohlarda (MAT, 9-tom, 318-bet) dostonda «tasavvufga doir talqinlar bo‘lsa-da,… majoziy ishq qismati, ijtimoiy adolatsizlik tasviri… hayotiy tasvirlangan» tarzida mulohaza yuritadi. Aslini olganda ikki muallif ham haq. Chunki Alisher Navoiy dostonning eslatganimiz «Ishq ta’rifi» bobida haqiqiy va majoziy ishqlar haqida ham so‘z yuritib, Majnun majoziy ishqga erishgan va haqiqiysidan ham bahramand bo‘lgan timsol ekanligi to‘g‘risida shunday yozadi:

Bu ishqki baxti komrondin,
Xoli bo‘lmay zamone ondin.

Garchi ikki nav’ o‘tti rozi,
Avvalg‘ini anglag‘il majozi.

Kim dardu gudozu so‘z birla,
Yuz sho‘’lai jonfiro‘z birla.

Chun ayladi poklikka mavsuf,[1]
Ul nav’ qilur birovga mash’uf[2]

Kim ishq aro firoq ila dard,
O‘zlukdin etar tamom ani fard.

Bil so‘ngrag‘i ishqni haqiqiy,
Kim davlat erur aning rafiqi.

Avvalg‘i vujudni etsa zoyil,
Chun bo‘lsa ikkinchisig‘a moyil.

Yo‘q-yo‘qki ikkinchi oni cheksa,
Ko‘nglida visol tuxmin eksa.

Ul nav’ ketursa turktozi[3]
Kim qolmasa surati majozi.

Mazhardin ko‘runmayin nishone,
Mazharda o‘zini topsa foni.

[1] Poklikka mavsuf- poklikda shuhrat qozongan.
[2] Mash’uf- maftun.
[3] Turktozi—tolon-toroj.

Maqsud budur hayotdin bu,
Bal xilqati koinotdin bu.

Majnung‘a biri bo‘lub musallam[4]
Bahra topti ikkinchidin ham.

3.

«Layli va Majnun» dostoni inson muhabbati ifodasining eng ajoyib namunasi bo‘lib, Alisher Navoiy badiiy mahoratining yangi qirralarini o‘zida namoyish etadi.

Majnun – birinchi navbatda inson. Insonning komillik-poklikka intilishida esa ishqi majoziy imtihon maydoni. Chunki ana shu maydonda inson ishq yo‘lidagi dard, kuyish-yonishlar, jonni kuydiruvchi yuzlab sho‘la-yolqinlar qo‘rasida toblanadi – har xil xiraliklardan poklanadi va poklikda shuhrat qozonadi («poklikka mavsuf»).

Ul o‘tda chu ehtizoz topdi,
Andoqki kerak gudoz topdi.

Har g‘ashlig‘din erdi noqis
Bo‘ldi bu gudoz bila xolis.

Boshqacha aytganda, u «o‘zligi» - surati majoziyligidan qutulib, ma’naviy – axloqiy poklik darajasiga, ya’ni komil inson darajasiga erishib, odamlarni maftun etadi («birovga mash’uf»). Majnun ana shu darajadagi timsol bo‘lib, Ilohiy zotning sifatlaridan bahramand bo‘lgan- komil insondir. Demak, Majnun majoziy ishqda komillikka

[4] Musallam- munosib, erishilgan

erishib, haqiqiy ishqdan bahramand bo‘lganlarning ramzidir. Majnunning bunday yuksak komillik darajasiga erishuvining asosiy omili Laylidir. Layli komillikni namoyon etadigan ko‘zgudir, mazhardir. Majnun ana shu ko‘zguda o‘zini emas, balki Laylini-komillikni ko‘radi:

Ham Layli o‘lub tilida zikri,
Ham Layli o‘lub ichida fikri.

Har yon nazar etsa oshkoro,
Layli nazarida jilva oro.

Shuning bilan bir qatorda:

Majnun sog‘inib o‘zini Layli,
Aylar edi nozu ishva mayli.

Layli o‘zini sog‘indi Majnun,
Shukr ettiki, yori bo‘ldi maqrun.

Ul bu bo‘ldiyu lek bu ul
Topmadi aroda ikkilik yo‘l.

Demak, Majnun va Layli komillikda vahdatni-yagona- yaxlitlikni tashkil etadi. Bu esa nihoyatda baland darajadagi ishqning-xos ishqning ko‘rinishi bo‘lib, unda jismoniylik emas, balki ma’naviylik yetakchi mavqeni egallaydi. Bunday yuksak darajadagi xos ishqni tushunmaydiganlar Majnun va Layli ishqi mohiyatini ham tushinmaydilar. Bular qatorida Laylining otasi Ibn Salom ham bor.

Shuning bilan bir qatorda Alisher Navoiy dostonda Majnun va Laylilar ishqi mohiyatini tushunuvchi va ularga yordam qo‘lini cho‘zganlar ham borligini Navfal obrazi misolida ko‘rsatadi. Chunki:

Navfalki Arabda erdi nodir,
Tig‘iga qadar, o‘qig‘a qodir.

Yaxshiliq ila Arabda mavsum,
Oromgahi bu marz ila bum…

Navfal dag‘i ishq ko‘rgan erdi,
G‘am dashti aro yugurgan erdi.

Shu jihatdan Navfal qizi va uning sevgilisi taqdirining ijobiy hal qilingani tushunarlidir. Ammo, Navfal qizi va uning sevgilisining muhabbati Majnun va Laylilar o‘rtasidagi ishq-xavos ishqi darajasiga ko‘tarilgan emas. Navfal qizi va sevgilisining o‘zaro ishqi Alisher Navoiy ta’riflagan «avom ishqidurkim, …derlar: «falon falonga oshiq bo‘lubdur… va bu qismning (avom ishqining) biyikrak martabasi shar’iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnat…».

Alisher Navoiy dostonida bu ikki xil ishqning talqinida shoir majoziy ishq martabasiga Majnun va Laylilar ishqi misolida alohida urg‘u beradi, chunki bu martaba komillik martabasi bo‘lib, unda «pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngul ul pok yuz oshubidin ko‘zg‘olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq»dir.

Demak, Alisher Navoiy mazkur dostonda hamma sohada poklikka erishgan komil inson haqidagi mulohazalarini Majnun va Layli afsonasi vositasida bayon qiladi:

Yozmoqda bu ishqi jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun…

Insonga erur kamol matlub,
Andin dag‘I dardu hol matlub…

Yo rab, bu raqamki bo‘ldi marqum,
Har kim o‘qumoqdin etsa ma’lum.

Har ne ki o‘qur taammul etsa,
Degan g‘arazim taxayyul etsa.

Shunday qilib, Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi ikkinchi – «Farhod va Shirin», uchinchi – «Layli va Majnun» dostonlari haqida umumiy yo‘nalish tarzida mulohaza yuritdik. Agar diqqat bilan qaralsa, bu ikki dostonni bir-biriga yaqinlashtiruvchi mushtarak mavzu – komil inson mavzusi bor. Bu mavzu ularni bir-biriga bog‘labgina qolmaydi, balki mavzuning har bir dostonda o‘ziga xos tarzda yoritilishi ularning uslubiy o‘ziga xosliklarini namoyon etadi, ya’ni «Farhod va Shirin»da bu mavzu ijtimoiy faollik ko‘lamida yoritilsa, «Layli va Majnun»da esa asosan ishq maydonidagi ichki kechinmalar, ruhiy holatlarning chuqur tasviri orqali nihoyatda mahorat bilan tasvirlanadi.

Demak, Alisher Navoiy bu dostonlarda bir mavzuni ikki yo‘nalishda davom ettirib, uning ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatishga ,

badiiy timsollar, voqealar, hikoyatlar orqali tasvirlashga katta mahoratini namoyon etgan.[47]

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xalq ogʻzaki ijodida yaratilgan Layli va Majnun dostonlaridagi motivlar haqida bilasizmi?
2. Nizomiy yaratgan "Layli va Majnun" dostonining gʻoyaviy va badiiy jihatlari haqida maʼlumot bering?
3. Navoiyga qadar uning salaflari tomonidan yaratilgan Layli obrazi haqida maʼlumot bering?
4. Doston kompozitsion qurilishi va sujetning umumiy xususiyatlari haqida gapiring?
5. «Ishq taʼrifi» bobidagi haqiqiy va majoziy ishqlar haqida maʼlumot bering?

Zaruriy adabiyotlar :

1. Abdugʻafurov A. Buyuk beshlik saboqlari. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom n-dagi ASN, 1995.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Layli va Majnun. TAT. 10 jildlik. 7-j. - Toshkent: Gʻafur Gʻulom n-dagi NMIU, 2011.
3. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. TAT. 10 jildlik.8-j. - Toshkent: Gʻafur Gʻulom n-dagi NMIU, 2011.
4. Valixoʻjayev B. Mumtoz siymolar. 2 jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy n-dagi XMN, 2002.
5. Valixoʻjayev B. Oʻzbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1993.
6. Valixoʻjayev B. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 2-jild. – Toshkent: ZILOLBULOQ nashriyoti, 2023. 145-152-b.

[47] Bu haqda mufassil maʼlumot olish uchun qarang: B. Valixoʻjayev. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 2-jild. – Toshkent: ZILOLBULOQ nashriyoti, 2023. 145-152-b.

10 – MAVZU: “SAB’AI SAYYOR” DOSTONINING TARKIBIY TIZILISHI

Dars rejasi:

10.1. Dostonning tarkibi va asosiy g‘oyalari.

10.2. Doston qurilmasidagi yangicha talqin.

10.3. Romantik hikoyatlarning g‘oyaviy-badiiy qimmati.

Tayanch so‘z va iboralar: *haft paykar, tarixiy-adabiy manbalar, hikoyat va sarguzashtlar, Varaxran V, hoqon, Xorazm, axiy, Moniy.*

1.

«Sab’ai sayyor» dostonida Alisher Navoiy «Xamsa»ning avvalgi dostonlarida qo‘ygan savollariga hanuz javob izlaydi. U insonlarning kamolotga, o‘z ideallarining maqsadga erishmaganliklarining birinchi sababi ota-onalarning ularni tushunmaganliklari bo‘lsa, ikkinchi sababi – adolatsiz shohlardir, deydi.

Bahrom qissasiga bag‘ishlangan bu doston o‘zbek tilida, aruzning xafifi musaddas (foilotun mafoilun failun) bahrida yozilgan.

Shoh Bahrom haqidagi qissa tarixiy asosga ega. Chunki Bahrom ibn Yazdijurd-Bahromi Go‘r[1] Varaxran V sosoniylar xonadonining vakili bo‘lib, 421-439-yillarda Ajamning podshohi edi. Alisher Navoiy o‘zining «Tarixi muluki Ajam» asarida o‘sha davrdagi

[1] Amerikalik sharqshunos olim Richard Frayning uqtirishicha, «Go‘r» so‘zi odatda qulon-yovvoyi eshak tarzida tushunilsa-da, ammo nemis sharqshunosi O.Kansen «podshoh» ma’nosini anglatadigan qadimgi «gul<qula-vula» so‘zi buzilib talaffuz etish natijasida «go‘r» bo‘lib qolgan, ya’ni Bahrom gul (podshoh) Bahrom gur (go‘r) tarzida ishlatilib, shu bilan bog‘liq rivoyatlar yaratilgan, degan fikrni o‘rtaga tashlaganini ham eslatadi. Qaralsin: Richard Fray. Nasledie Irana. Moskva: Nauka, 1972-str. 308.

tarixchilar dunyoqarashi asosida Bahrom binni Yazdijurd haqida ma’lumot bergan.[48]

Shoir «Sab’ai sayyor»ni hijriy 889-yilning jumodiyus-soniy, milodiy 1484 yilning iyun oyida yozib tugatgan. Doston shoirning yozishicha, 5000 baytdan iboratdir.

Ammo bu katta asarni u to‘rt oyda, balki to‘rt haftada yozib tugatishi mumkin edi:

Menga ayyomi garchi yod emas,
Lek to‘rt oydin ziyod emas.
Bo‘lsam o‘zga umurdin emin,
Bor edi to‘rt hafta ham mumkin.

Asarning bunday nomlanishi sababini shoir shunday izohlaydi:

Lutf bu nazm aro bag‘oyatdur,
G‘araz ammo yetti hikoyatdur.

Chunki qoyil yetti musofir edi,
Ki alar sayr ishiga mohir edi,

Bo‘ldi chun bu raqam ishi tayyor,
Qo‘ydum otini «Sab’ai sayyor».

Shoir aytmoqchiki, bu dostonda lutf-ko‘p qirrali ma’no va mazmun ko‘pdir, ammo, asosiy maqsad undagi yetti hikoyatdir. Chunki hikoyalarni aytuvchilar sayru sayohat ishiga mohir bo‘lgan yetti musofirdir. Shuning uchun doston yozilgach, unga «Sab’ai sayyor» - yetti kezuvchi, sayr qiluvchi musofir deb ot qo‘yildi.

[48] Alisher Navoiy. MAT, 20 tomlik, 16-tom, 234-237-betlar.

Alisher Navoiyning bu masalaga alohida urg‘u berishi bejiz emas. Chunki bu bilan, ya’ni asarga nom qo‘yish bilan o‘z dostonining shu mavzuda bitilgan boshqa asarlardan ham shakl va mavzuning talqini jihatidan farq qilishiga ishora qiladi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy salaflaridan Nizomiy Ganjaviyning shu mavzuga bag‘ishlagan asari «Haft paykar» (yetti go‘zal) deb atalgan bo‘lsa, Xusrav Dehlaviy uni «Hasht bihisht» (Sakkiz bihisht), zamondoshi Ashraf Marog‘aviy esa «Haft avrang» (yetti taxt) deb nomlagan edilar.

Ularda asosiy diqqat Bahrom qissasiga qaratilgan bo‘lsa, Alisher Navoiy asosiy e’tiborni musofirlar tomonidan aytilgan hikoyalarga qaratdi («G‘araz (maqsad) ammo yetti hikoyatdur») va Bahrom qissasini ana shu hikoyalarning aytilish vositasiga aylantirdi. Demak, Alisher Navoiy salaflariga o‘xshash (Bahrom, yetti hikoya) asarni yangicha talqin, yangicha tahlil bilan yaratib, nazirai benazirni (o‘xshash-o‘xshamas) maydonga keltirgan edi.

Alisher Navoiy bu dostonda ham salaflari bilan musobaqaga kirishadi. Firdavsiyning «Shohnoma»sida Bahrom va Ozoda, Nizomiyning «Haft paykar»ida Bahrom va Fitna, Xusrav Dehlaviyning «Hasht behisht»ida Bahrom va Dilorom, Navoiydan keyin yaratilgan asarlar – Ozarbayjon shoiri Abdibek Sheroziy (XVI asr) «Xamsa»sida Bahrom va Nohid (Zuhra), urdu adabiyoti vakili Hamid (XVII asr) beshligida Bahrom va Husn, Sayqaliy (XVIII asr) asarida Bahrom va Gulandom qissalari bayon etiladi.

Bahrom – tarixiy shaxs, sosoniylar davlatining vakili. Uning ma’shuqasi esa to‘qima obraz. Shuning uchun ham Shoirlar Bahrom nomini o‘zgartirishsiz qoldirib, uning ma’shuqasi ismini o‘zgartirganlar.

Alisher Navoiy o‘z dostonini yaratishda ko‘proq Xusrav Dehlaviyga mayl ko‘rsatadi. Shoir salaflaridan farqli o‘laroq, mazmunan bir-biriga bog‘lanmagan hikoyatlarni keltirmaydi. U

dostonda hikoyatlarni o‘zaro mantiqiy bog‘lay boradi va asar nihoyasida Dilorom timsoliga yana qaytadi. Navoiydan avvalgi Shoirlar dostonlarida hikoyatlar malikalar tilidan aytilar edi. Navoiy bu usulni ma’qul ko‘rmaydi. Chunki, Shoir yashagan davrda an’anaga ko‘ra, har bir temuriy podshoh va Shahzodalar huzurida qissaxonlar bor edi. Shuning uchun Shoir malikalarning qissaxon bo‘lishini xohlamaydi.

«Sab’ai sayyor» ning qoliplovchi qissasi Bahrom va Dilorom sarguzashtlaridan iborat. Dostonning qoliplovchi hikoyasida Shoh Bahrom va Xitoy savdogarining kanizagi Diloromning ishq qissasi tasvirlanadi. Go‘r – qulon oviga chiqqan Shoh Bahrom rassom Moniydan Diloromning ta’rifini eshitib, suratini ko‘radi va unga oshiq bo‘lib qoladi. U Xitoy mamlakatining bir yillik xiroji evaziga kanizakni sotib oladi va saroyiga keltiradi.

Dilorom o‘zining beqiyos go‘zalligi va usta san’atkorligi bilan Bahrom qalbini butunlay rom etadi. Buning natijasida mamlakat ishlarida parokandalik yuz berib, mulk tanazzulga yuz tutadi. Ov sayohatlarining birida o‘ta g‘ururga berilgan Bahrom Diloromning haq so‘zlarini mag‘rurlik nishonasi deb bilib, uni o‘z sochlari bilan bog‘latib, sahroga taShlab ketadi. Ammo, ertasi kuni mastligi tarqagan Bahrom uni yo‘qlab topa olmaydi va pushaymonlik hamda qattiq iztirob chekish natijasida bemor bo‘lib qoladi.

Shohning bedavo dardiga biroz taskin berish uchun yetti go‘zal qasr bino qilinadi va yetti iqlim podshohlarining qizlari yetti malika keltiriladi. Bahrom shanba kunidan boshlab yetti rangli qasrda yetti musofirdan hikoya tinglaydi va juma kuni xorazmlik musofir tilidan hikoya qilingan sarguzashtdan o‘z sevgilisi daragini topadi. Shundan so‘ng o‘z ishqiga vafodor bo‘lgan Diloromni yana saroyiga keltiradi va so‘ngsiz aysh-ishratga beriladi. Navbatdagi ov sayohatlaridan birida ularning hammasini er yutadi.

Dostonning asosiy g‘oyalaridan biri shundan iboratki, Alisher Navoiy bitta Shaxs timsolida ham adolatli podshohni, ham komil oshiqni mujassam etishni istamaydi. Ammo, Shoh Bahrom bu ikki yuksak mas’uliyatni birdan bo‘yniga olmoqchi bo‘ladi:

Ki, «Agar bo‘lsa shohlig‘ boqiy,
Topilur bo‘yla mahvash soqiy.
Buki vaslini topmisham payvast,
Shohlig‘ o‘lmasa, bermas erdi dast».

Navoiy xuddi shu masalada Shoh Bahrom fojeasini ko‘radi. Chunki, pokiza ishq inson qalbiga kirishdan avval undagi boshqa barcha dunyoviy narsalarga bo‘lgan muhabbatni chiqarib tashlashga majbur etadi. Ya’ni, bir inson qalbida hukmdorlik orzu-havasi va ta Shvishlari bilan birgalikda eng oliy insoniy tuyg‘ulardan bo‘lmish ishq o‘rin ola olmaydi.

Alisher Navoiy shu tariqa o‘zining siyosiy qarashlarini, o‘z davri hukmdorlari shaxsiga bo‘lgan munosabatini bilvosita badiiy timsollar orqali ifoda etadi.

2.

Alisher Navoiy «Sab’ai sayyor»ining qoliplovchi qissasida Bahrom va Diloromning sarguzashtlaridan hikoya qilinadi.

Yazdijurd o‘g‘li Bahrom otasidan so‘ng o‘zining qahramonligi-sherni yenggani bilan podshohlik toju taxtini qo‘lga kiritadi. Mamlakatda adolat va osoyishtalikni o‘rnatishga intiladi va shuning bilan birga go‘r-qulon oviga ham beriladi. Shundan uni Bahromi go‘r deb atash ham odat bo‘lib qoladi. Ov jarayonining birida Bahrom rassom Moniy bilan uchrashib, go‘zal Dilorom va uning ta’rifi hamda Moniy chizgan rasmni ko‘rib, unga oshiq bo‘lib qoladi. Diloromni

Xojasidan Xito mulki evaziga sotib olib, saroyiga keltiradi. Dilorom go‘zallikda, xulqu atvorda hamda chang cholishda nodirai davron bo‘lganidan Bahromni o‘ziga maftun etadi. Natijada Bahrom mamlakatdorlik ishlari bilan shug‘ullanishdan ko‘ra ko‘proq aysh-ishratga beriladi, Diloromning suhbati, musiqasi, san’atisiz tura olmaydigan bo‘ladi. Hatto ov jarayonida ham bu hol davom etadi. Ana shunday ov jarayonlaridan birida Bahromning kiyik ovlash-otishdagi mahoratini Dilorom «mashqning kamoloti natijasi» deb baho berishi mast mag‘rur podshoh Bahromning g‘azabini keltiradi. Bahrom Diloromni jazolaydi: qo‘l-oyog‘ini sochlari bilan bog‘lab, dasht-sahroda tashlab ketadi. Mastligi tarqalgan Bahrom Diloromni yonida ko‘rmay, uni so‘raganida, unga bo‘lib o‘tgan voqeani bayon qiladilar. Bahrom o‘sha dasht-sahroga boradi, ammo, Diloromni topa olmay qaytib keladi. Shundan so‘ng Bahrom Diloromni qumsab, kasal bo‘lib qoladi. Uni davolashga harakat qildilar, natija bermaydi. Nihoyat yetti go‘zal qasr bino qilib, unga yetti malikani keltiradilar. Bahrom shanba kunidan boshlab, haftaning har kuni bir qasrda bo‘lib, turli o‘lkalardan kelgan musofirlarning qiziqarli, shuning bilan birga katta ma’rifiy ahamiyatga molik hikoyalarini eshitadi. Yettinchi qasrda musofir tomonidan aytilgan hikoyada Diloromning dasht-sahroda tashlab ketilgandan keyingi sarguzashtlari bayon qilingach, Bahrom Dilorom daragini topib, uni Xorazmdan olib keltiradi va yana ayshu ishrat hamda ovga beriladi. Ana shunday ov jarayonining birida botqoq yer ularning hammasini yutadi. Qoliplovchi qissa ana shunday yakunlanadi.

Bahrom va Dilorom sarguzashtlaridan iborat bo‘lgan qoliplovchi qissada ikki masala badiiy tarzda hal qilingan. Ulardan biri podshoh-oshiq masalasi bo‘lsa, ikkinchisi podshoh-hukmdor masalasidir. Bu masala, ya’ni Bahrom kim bo‘lishi kerakligi masalasi qissaning qahramoni Bahromning o‘zi tomonidan ham muhokama qilingan. Bu haqda Alisher Navoiy dostonning o‘n beshinchi – «Bahromning ishq

tug‘yonidin bexirad…» deb nomlangan bobida alohida to‘xtaladi. Unda Bahromning o‘zi bu ikki yo‘ldan birini – yo haqiqiy hukmdor – podshoh bo‘lish yoki haqiqiy oshiq bo‘lishni tanlashi lozimligini tushunadi. Shunday bo‘lsa-da, Bahrom podshoh-hukmdor bo‘la turib, oshiq bo‘lishni ham istaydi.

Bu esa uning har ikkala sohadagi fojiasini –podshohlikda mamlakatni xarobalikka yuz tutishi, adolatsizlikning avj olishi oshiqlikda esa komillik darajasiga yetmaganiga bois bo‘lib, bu holat, ikki kemaning uchini tutgan g‘arq bo‘ladi, deganlaridek, Bahromning botqoqlikka botib ketganligi bilan fojiaviy nihoyasiga etadi. Alisher Navoiy Bahrom obrazini chizayotganda uning «ishq» so‘zi – ishqdagi kuyish – yonishlari – iztiroblarini qalamga olajagiga ishora qiladi. Bu esa Alisher Navoiyning asosiy diqqatni Bahromni oshiq sifatida tasvirlashga qaratganidan dalolat beradi. Ammo, podshoh Bahrom Alisher Navoiy tasvirlamoqchi bo‘lgan oshiq Bahrom bo‘lishni emas, balki ham podshoh-hukmdor va ham oshiq bo‘lishni ixtiyor qiladi. Demak, tasvirlanayotgan obraz shoir istagiga bo‘ysunmaydi. Bu esa nihoyatda muhim bir adabiy hodisa. Shoir ham o‘zi tasvirlayotgan obrazning, bu o‘rinda podshoh Bahromning qarorini (ham hukmdor podshoh hamda oshiq bo‘lishni) o‘zgartira olmaganidan iztirobda qolib, uni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, ya’ni yo hukmdor-podshoh bo‘lish yoki oshiq bo‘lishlikni tanlashi zarurligini uqtirish yo‘llarini qidiradi va o‘zining maqsadini birinchi musofir tomonidan Bahromga aytgan hikoyada ifoda etadi. Mazkur hikoyada Alisher Navoiy Sarandeb shahzodasi Farrux bilan sevgilisi Gulchehra o‘rtasidagi munosabatlarni boshqacha hal qiladi, ya’ni shahzoda Farrux sevgilisining tarixini bilgach, uni o‘z «singlisi» deb e’lon qiladi va shundan so‘ng Sarandebning odil podshohi bo‘ladi. Demak, Farrux oshiqlikdan voz kechgandan so‘ng adolatli podshohga aylanadi va baxt-saodatga erishadi. Bu hikoyani eshitgan Bahrom esa o‘zining ham hukmdor-podshoh va ham oshiq bo‘lish qarorini o‘zgartirmaydi.

Natijada o‘z qilmishlarining fojiali yakuni tomon qadam tashlayveradi. Oqibatda Bahromning taqdiri nihoyatda ayanchli tarzda yakunlanadi.

Alisher Navoiy o‘zi tasvirlayotgan obraz taqdirining bunday bo‘lishini istarmidi? Bu savolga Alisher Navoiy bunday bo‘lishini istamas edi, uning oldini olish uchun shoirligining barcha imkoniyatlarini ishga solgan edi, deb javob berish mumkin. Ammo, tasvirlanayotgan Bahromda joh, mansab, shohlik g‘ururi oshiqlikdan ustun bo‘lganligidan shoirning pand-nasihatlariga quloq solmadi va oqibatda fojiaga uchraydi. Bunda qiziq bir hol ham kuzatiladi: Alisher Navoiy zamonasida shoh-«zillillohi fi-l-arzi» -«Allohning yerdagi soyasi» tarzida ulug‘lanib, hurmat-ehtirom qilinardi. Ana shunday ruhda tarbiyalangan Alisher Navoiy ham shoh rayiga qarshi bora olmasdi, ammo, uni xatarli yo‘l va faoliyatdan ogohlantirish va saqlanishga da’vat-nasihatlarini nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bayon etardi. Bu hol, xususan, Bahrom obrazini tasvirlashda yorqinroq ko‘zga tashlanadi.

Shunday qilib, dostondagi qoliplovchi qissaning bosh qahramoni Bahrom murakkab timsollardan bo‘lib, Dilorom changining ham fojiali taqdiriga sababchi bo‘ldi. Shoir tomonidan juda katta samimiyat va mahorat bilan tasvirlangan hunarmand va oqila Dilorom mag‘rur shoh Bahrom injiqliklariga duch keldi, ammo, uni tark etmadi, aksincha, uning fojiali taqdirini baham ko‘rdi.

Dostondagi qoliplovchi qissa voqealari bayonida musofirlar tilidan aytilgan yetti hikoya mazmuni, g‘oyasi, badiiyati va qiziqarliligi bilan alohida ajralib turadi. Ulardagi voqealar Sarandeb (Hindiston janubidagi hozirgi Shri Lanka)dan tortib, Misr, Rum, Hindiston, Xorazm, Shahrisabzgacha bo‘lgan katta jug‘rofiy hududda sodir bo‘ladi. Xuddi ana shu hikoyalardan ikkinchi musofir tilidan bayon qilingan voqealar tasvirida Alisher Navoiy muhandislikning

mukammal mujassamasi bo‘lgan o‘zi yurar taxt, o‘zi harakat qiluvchi zinalarni aks ettiradi.

Eng muhimi shundaki, barcha hikoyalar ezgulik va olijanoblikning tantanasi bilan nihoyasiga yetadi; sevishganlar murod-maqsadlariga erishadilar, adolat g‘olib keladi, yovuzlik va adolatsizlik yengiladi. Hikoyalarda romantik tasvir usuli (taxayyul) yetakchi o‘rinni egallaydi.

Hikoyalardagi Farrux, Axiy, Gulchehra (1-hikoya), Zayd Zahhob (2-hikoya), Sa’d, Gulrux (3-hikoya) Mas’ud (4-hikoya), Mehr, Suhayl (5-hikoya), Muqbil (6-hikoya) kabi qahramonlarning surat va siyrati, faoliyat va sarguzashtlari shu darajada maroqli va jozibaliki, ularni o‘qigan kishi Alisher Navoiyning she’riy hikoya yozishdagi ulkan mahoratidangina hayratda qolmay, balki umumbashariy ahamiyatga molik nihoyatda muhim masalalarni falsafiy va axloqiy yo‘nalishda qalamga olganining guvohi ham bo‘ladi. Ular insonni komillikka da’vat etguvchilardir. Shuning uchun ham Alisher Navoiy «Sab’ai sayyor» dostonini yozishdan asosiy maqsad-yetti hikoyatni yozishdan iboratdir, deb aytgani bejiz emas edi:

Lutf bu nazm aro bag‘oyatdur,
G‘araz ammo yetti hikoyatdur.

Shunday qilib, «Sab’ai sayyor» o‘zining qoliplovchi qissasi va go‘zal yetti hikoyasi bilan «Xamsa»-dan o‘rin olgan o‘ziga xos va Alisher Navoiy mahoratiga mos dostonlardandir.

3.

Doston qurilmasida shoirning romantik hikoyalari muhim o‘rin tutadi. «Hikoyalardagi Farrux, Axiy, Gulchehra, Zayd Zahhob, Sa’d, Gulruh, Mas’ud, Mehr, Suxayl, Muqbil kabi qahramonlarning surati

va siyrati, faoliyat va sarguzashtlari shu darajada maroqli va jozibaliki, ularni oʻqigan kishi Alisher Navoiyning sheʼriy hikoya yozishdagi ulkan mahoratidangina hayratda qolmay, balki umumba Shariy ahamiyatga molik nihoyatda muhim masalalarni falsafiy va axloqiy yoʻnalish da qalamga olinganining ham guvohi boʻladi. Ular insonni komillikka daʼvat etguvchilardir».[49]

Alisher Navoiy «xavosu avom» - podshohu raiyat, barcha sinf va toifalardagi insonlar tarbiyasi borasida soʻz yuritgan donishmand mutafakkir edi. U davlat va jamiyat kelajagini oʻylab qalam tebratdi, hamisha mehnatka Sh xalq gʻamu taShvishiga Sherik boʻldi. «Hayrat ul-abror» dostonida mehnatka Sh xalqni oʻz maʼnaviy himoyasiga olar ekan, Shohga qarab:

Bil munikim, sen dagʻi bir bandasen,
Koʻpragidan ojizu afgandasen.
Ermas alar tufrogʻu sen nuri pok,
Xilʼat alargʻa-u senga tiyra xok –

deydiki, mulohaza etib koʻrilsa, Navoiydan oʻzga qay bir Sheryurak Shoir qaysi davrda Xuroson Shahan Shohiga bu qadar nasihat qila olgan? «Sabʼai sayyor» dostonida Shoh Bahrom timsolida Sulton Husayn Boyqaro Mirzoga va Dilorom timsolida malikai oliymaqom Xadichabegimga faqat Navoiygina shunday soʻzni ayta olar va uni tuShungan maʼrifatli Shahan Shoh uchun ham bu soʻzlar juda qimmatli, qadrli edi. Hazrat Navoiyga qadar ham, undan keyin ham na gʻarb adabiyotida, na Sharq adabiy hayotida badiiy soʻz vositasida faqat raiyat – oddiy insonlarga emas, balki podshohu Shahzodalar maʼnaviy tarbiyasiga bu qadar qattiq kirishgan, oʻktam fikr yuritgan mutafakkirni uchratish amri mahol.

[49] Mufassal maʼlumot uchun qarang: Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи. 2-қисм. Самарқанд: 2002. 60-бет.

Alisher Navoiy dostonni yozishga kirishishdan oldin Bahrom qissasi bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy-adabiy manbalarni shunchalik sinchiklab o‘rgandiki, bu haqda asar oxirida «yetti iqlim shohi-Bahrom»ni tush ko‘rganida, uning tilidan shunday yozadi:

Sanga navbat chu yetti sa’y yetting,
Qissaning harf-harfig‘a yetting…

Sen bu ishning payig‘a chun bording,
Eski daftar base ko‘p axtarding.

Lojaram ko‘p g‘aroyib o‘ldi ayon,
Ki bu afsona ichra topti bayon.

Demak, Alisher Navoiy Bahrom qissasini, xususan, undagi yetti hikoyani shunchalik mahorat bilan yaratadiki, natijada, hatto Bahromshoh ham o‘zi haqidagi bu dostondan hayratda qolib, shunday deydi:

Bu ki tariximiz bayon qilding,
Elga ahvolimiz ayon qilding.

Til aning vasfidin erur ojiz,
Sehr xud bor, agar emas mo‘’jiz

Garchi Bahrom tarixiy shaxs bo‘lsa-da, ammo, u og‘zaki va yozma adabiyotda tarixiy shaxslikdan ko‘ra badiiy obraz-timsol sifatida ko‘proq mashhurdir. Shuning uchun uning «sarguzashtlari» shunchalik badiiylashtiriladiki, natijada tarixiylik o‘rnini badiiylik egallab boradi. Bu holni Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sidagi Bahrom va Ozoda haqidagi, Nizomiy Ganjaviy «Haft paykar»idagi

Bahrom va Fitna, Xusrav Dehlaviy «Hasht bihisht»idagi Bahrom va Dilorom to‘g‘risidagi qissalarda ham kuzatish mumkin. Alisher Navoiy ham o‘z dostonida ana shu badiiy timsolga aylangan Bahromni o‘zining g‘oyaviy-estetik aqidalariga mos tarzda tasvirlab, asarini «afsona» (tarixiy emas!), «qissa» (badiiylashtirilgan talqin!) deb tavsiflaydi.

Alisher Navoiyning «Sab’ai sayyor»i tuzilish jihatidan o‘zi yozgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlaridan farq qiladi. Bu farq dostonning qissa ichida hikoya yoki qoliplovchi qissa va hikoyalar turkumining qorishuvi usulida yozilganidan ham bilinadi. Shuni eslatish joizki, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy dostonlari ham shu tariqada bitilgan. Ammo, ulardagi Bahrom va sevgilisi (Fitna, Dilorom) haqidagi asosiy qissa bilan malikalar tomonidan aytilgan yetti hikoyatning o‘zaro g‘oyaviy-badiiy jihatidan bog‘lanishi ancha bo‘sh bo‘lganidan qoliplovchi qissa va yetti hikoya alohida-alohida bo‘lib tuyuladi. Alisher Navoiy esa o‘z dostonida yettinchi musofir tomonidan aytilgan hikoyatni qoliplovchi qissa voqealari (Dilorom sarguzashti) bilan bog‘laydi. Natijada doston qurilishida yaxlitlik maydonga keladi.

«Sab’ai sayyor»ning qoliplovchi qissasi Bahrom va Dilorom sarguzashtlaridan iborat. Qissa Bahrom yoki Diloromning tug‘ilish voqealari bilan emas, balki voyaga yetgan shoh Bahromning ov jarayonida rassom Moniy bilan uchrashuvi, undan Dilorom tavsifini eshitib, suratini ko‘rib, unga oshiq bo‘lib qolish voqeasi bilan boshlanadi. Bundan ko‘rinadiki, «Sab’ai sayyor»dagi qoliplovchi qissaning, ya’ni Bahrom va Dilorom qissasining boshlanishi «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun»larning boshlanishidan farq qiladi. Chunki ularda voqealar Farhod va Majnunning tug‘ilishidan boshlanadi.

Demak, Alisher Navoiy har bir dostonni undan kuzatgan g‘oyaviy-estetik mazmun mohiyatidan kelib chiqib asardagi voqealar bayonining qurilmasini belgilaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sharqda badiiy tafakkur, madaniyat va san’at rivoji, xususan, daho mutafakkirlar ijodi shakllanishida Uyg‘onish davrining ta’siri qanday bo‘ldi?
2. Sharq Rafaeli – Behzod maktabining dunyoga kelishida Sharqda zamin bor edimi?
3. Alisher Navoiyning hunar ahliga munosabati qanday bo‘lgan?
4. Alisher Navoiy «Xamsa» sining salaflari yaratgan beshliklardan farqi nimada edi?
5. Alisher Navoiy «Xamsa» si yaxlit asar ekanligini ko‘rsatuvchi qanday g‘oyaviy-badiiy omillar haqida so‘zlash mumkin?
6. Farhod va Majnun, Shirin va Layli obrazlari talqinida qanday farqlar mavjud?
7. Alisher Navoiyga nazira qilib «Xamsa» yozgan qanday shoirlarni bilasiz?
8. «Husni Dil» dostonining g‘oyaviy-badiiy qimmati haqida so‘zlang.
9. Qaysi turkiygo‘y shoir Navoiy «Xamsa»siga javob yozishni niyat qilib, uning birinchi dostonini yozib tugatgan?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Абдуллаев В. О поэте Нишоти и его поэме «Хусни Дил». Труды тадж.уч.инст.им.С.Айни, т.III, 1955.
2. Abdullayev V. Xorazmdagi XVIII asr o‘zbek adabiyotida mafkuraviy kurash. O‘zDU ilmiy asarlari, №63, 1956.
3. Abdullayev V. Alisher Navoiy traditsiyalarining Xorazm shoirlari tomonidan davom ettirilishi. //« Sharq yulduzi», 1959, №4.
4. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. II jildlik, II jild.- Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002.
5. O‘zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: O‘zadabiy nashr, 1964.
6. Nishotiy. «Husn va Dil». Lirika». - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.

11 – MAVZU: “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Dars rejasi:

11.1. “Saddi Iskandariy” – jangnoma-qahramonlik dostoni.

11.2. Aleksandr Makedonskiy va badiiy adabiyot.

11.3. Navoiy “Xamsa”si badiiy-estetik tamoyillarining keyingi davr o‘zbek dostonchiligiga ta’siri.

Tayanch so‘z va iboralar: jangnoma-qahramonlik, afsona-rivoyat, makedoniyalik Aleksandr, Filipp, Doro, Kashmir, Lo‘bati Chiniy, bahr.

1.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” («Iskandar devori») deb atalmish bu dostoni mashhur jangnoma asardir, doston aruzning mutaqoribi musammani mahzuf bahrida yozilgan:

Skandar jahondori kishvarsiton,
Ishidin chu nazm o‘lsa har doston.
V - - / v - - / v - - / v –
V - - / V - - / V - - / V –
Faulun faulun faulun faul.

Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» asari «Xamsa»ning beshinchi-yakunlovchi dostoni bo‘lib, u 1484 yilning ikkinchi yarmida (taxminan sentyabr-oktabr oylarida) yozib tugatilgan. Bu holni Alisher Navoiyning shaxsiy kotiblaridan biri bo‘lmish Abduljamilning yaxlit «Xamsa»ni 1484yilda ko‘chirgan va hozirda O‘z RFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan

nusxasi ham tasdiqlaydi. Bunga ilova tarzida shuni ham eslatish joizki, Abdurahmon Jomiy o‘zining «Xiradnomai Iskandariy» dostonini 1484-yilning 28-dekabrida yozib tugatgan edi. Ayni ana shu dostondan Alisher Navoiy «Xamsa»siga Abdurahmon Jomiy tomonidan berilgan yuksak baho (Ba turki zabon naqshe omad ajab, Ki jodu damonro buvad muhri lab) o‘rin olgan.

«Saddi Iskandariy» dostoni «Xamsa»ni yakunlovchi bo‘lganidan «Xamsa»ga kiruvchi dostonlarning qurilish va mazmun – g‘oya jihatidan bo‘lgan xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi, ya’ni unda ham nazariy-axloqiy doston («Hayrat ul-abror») hamda sujetli dostonlarning («Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ai sayyor») tuzilma xususiyatlarining qorishuvi – birlashuvi ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun har bob to‘rtta qismdan iborat: Iskandar faoliyati (qisqa), ma’lum bir masala (mas., adolat, avf…) haqidagi nazariy mulohaza , uni tasdiqlovchi hikoya yoki masal va Arastuning bu masalaga oid mulohazalari. Buning natijasida Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy»da shu mavzuda asar yozgan Nizomiy, Xusrav Dehlaviylar hamda Abdurahmon Jomiy qo‘llagan bayon uslublari an’analarini yangicha tarzda davom ettirib, o‘ziga xos dostonni maydonga keltiradi. Bu haqda Alisher Navoiyning o‘zi shunday yozadi:

Skandar jahondori kishvarsiton,
Ishidin chu nazm o‘lsa har doston.

So‘zidin dog‘i yaxshi taqrib ila,
Hamul doston zaylida zeb ila.

Suray hikmatoso maqolotini,
So‘z ichra ajoyib xayolotini.

Berib doston zebi elga fireb,
So‘zidin fireb o‘lg‘ay ortuqsi zeb.

Ki farzonalar deb ko‘p afsona ham,
So‘zin nazm etibdur bu farzona ham.

Qadam ursam ushbu iki yo‘lg‘a men,
Nekim borcha debdur, demish bo‘lg‘amen.

Alisher Navoiy «Xamsa»sining barcha dostonlarida bo‘lganidek, «Saddi Iskandariy» dostonida ham odil podshoh ideali ifoda etiladi. Bu doston insoniy jamiyatda adolat, adolatli hukmdor va komil inson ma’rifati kabi masalalar tavsifidan iboratdir.

Doston avvalida Iskandarning, ya’ni makedoniyalik Aleksandrning tarixiy shaxs sifatidagi ta’rifi beriladi va shoir sekin-asta undan badiiy obraz yaratishga kirishadi. Bu hodisa dostonning boshidanoq Iskandarning ustozi Arastu bilan qilgan savol-javoblarida ko‘zga taShlanadi. Asarda keltirilgan hayotiy hikoyatlar va masal xarakteridagi tamsiliy hikoyatlar badiiy timsolning turli jihatlarini ochishga xizmat qiladi.

«Saddi Iskandariy» dostonining maydonga kelishi «Xamsa»ning yaxlitligini badiiy jihatdan yakunlash bilan bog‘liq.

Sharq adabiyotida Iskandar qissasi va uning badiiy obraz sifatidagi tavsifi mashhur badiiy dostonlarda – Firdavsiyning «Iskandarnoma», Xusrav Dehlaviyning «Oinai Iskandariy», Jomiyning «Xiradnomai Iskandariy» kabi asarlarida yoritilgan edi. Navoiy bu qissaning nihoyatda uzun tarixi borligini bilar edi. Shu nuqtai nazardan u o‘z dostonida aniq ilmiy faktlarni berishga, o‘zidan oldin yaratilgan asarlarning tahlilini berishga harakat qiladi.

Alisher Navoiy Iskandarni valiy tarzida tasvirlaydi. Shoirning nazdida Iskandar oddiy podshoh emas, balki g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan podshohdir.

Alisher Navoiygacha bo‘lgan asarlarda Iskandarning bir «sadd» - devor qurganligi aytilib ketiladi. Navoiy uShbu devor epizodini bevosita Iskandar nomi bilan bog‘laydi. Ya’ni, bu devor Iskandar hayoti va mulkdorlik faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Chunki, bu devor oddiy devor emas, balki adolat devoridir.

Alisher Navoiy bu dostonida o‘z davri siyosiy tafakkuri uchun tamomila yangi bir masalani, ya’ni, podshohlik vorisiylik yuzasidan bo‘lmasligi lozimligi masalasini ko‘tarib chiqadi. Uning dostonidagi podshohning taxtga chiqishi ham adolat yuzasidan amalga o Shadi.

Navoiyning Iskandari odil podshoh, lekin oddiy inson. Shoirning muqaddas niyati ideal Iskandar obrazini yaratishdir.

Davlatchilik siyosati mukammal tizimga solingan, jamiyat farovon taraqqiyotga yuz tutgan, inson esa tom ma’noda erkin va o‘z qadru qimmatiga ega bo‘lmog‘i uchun Iskandardek podshoh kerak! Chunki, Iskandar shu qadar adolatliki, o‘z toji taxtini o‘zidan ko‘ra aqlliroq bo‘lgan gadoga bo‘shatib berishga tayyor, xotinlarini ham hirsu havas bilan emas, balki Nozmehr kabi oqilaligi, Lo‘bati Chiniy kabi o‘ktamligi, qahramonligi uchun sevadi. U olimlar majlisini xush ko‘radi, katta shaharlarni olimlarga vaqf qilib beradi va hokazo. Davlat mustahkamligining asosiy sharti, deydi Shoir, sipohning (ya’ni qo‘shinning – armiyaning) podshohdan rozi bo‘lmog‘i lozimligidir:

Shahekim, spah bo‘ldi obod anga,
Erur dushmanidan ko‘ngul shod anga.
Agar shohdin xalqi g‘amnok emas,
Qalin bo‘lmog‘idan aduv bok emas.

Maozalloh, ar boʻlsa noshod eli,
Aduv yoʻq, berur ani barbod eli.

Shu sababdan tarixchilar, xususan, Navoiyning oʻzi ham maʼlumot berishicha, Shoir har yili cherikka (armiyaga) xususiy mablagʻidan katta-katta ehsonlar, hadyalar qilar edi.

Odil shoh timsolini yuqori darajada badiiy gavdalantirar ekan, bu jarayonga asta-sekin mutafakkir Navoiy timsoli ham qoʻshilib ketadi. Iskandar hayotining soʻnggi yillarini tasvirlar ekan, Shoir oʻzi yaratgan idealning ham jilovini tortib qoʻyadi. Yaʼni, Iskandarning hoyu havas, mulku ha Shmat dagʻdagʻasi, suv mulkiga ham egalik qilish istagi Navoiyga yoqmaydi. Shu oʻrinda Alisher Navoiyning buyuk daho sifatidagi qiyofasi bir epizodda bevosita namoyon boʻladi. Shoir yaratgan mutafakkir podshoh oʻz hayotida xatolarga yoʻl qoʻysa-da, umri yakun topib, oxirat diyoriga yoʻl olar ekan, oʻquvchi koʻz oʻngida yana mutafakkir sifatida namoyon boʻladi.

Tobutdan chiqarib qoʻyilgan ochiq qoʻl epizodi Shoir yaratgan ideal Shohning komil inson sifatidagi qiyofasini yanada yaqqol gavdalantiradi.

Bu asar rus sharqshunos olimi akademik Konradni ham hayratda qoldirgan va u Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida yaratgan birgina tobutdan chiqarib qoʻyilgan ochiq qoʻl epizodi Shoirning boshqa barcha asarlarini istisno etgan taqdirda ham uni jahon mutafakkirlari zumrasiga qoʻshilishi uchun etarli boʻlar edi, degan bahoni beradi.

Ushbu dostoni bilan Alisher Navoiy oʻzining insonsevar gʻoyalari hech eskirmaydigan barhayot gʻoyalar ekanligini yana bir bor namoyish etadi.

Shoir bu asarda ilm qudratiga, olimlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan oʻrniga, maʼrifatning nimalarga qodir ekanligiga bilvosita

ishora etadi. Navoiyning Iskandari butun bir shaharni olimlar uchun vaqf qilib beradi.

Xususan, dostonlarda bir o‘rinda Navoiyning o‘zi ixtirochi kimyogar olim sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning ilmiy fantaziyalari esa rivoyatgina bo‘lmay, o‘zining real hayotiy asoslariga ega bo‘lganligini biz bilamiz.

Fotih Iskandar jahonga mashhur Samarqandi firdavsmonandni bino etgach, Kashmir o‘lkasi tomon yurish qiladi:

Chu Kashmir haddig‘a qo‘ydi ayog‘,
Padid o‘ldi bir charxpayvand tog‘.

Bu tog‘ning to Shlari haybatidan Oy ko‘kimtir tusda ko‘rinar edi. U go‘yoki falakka qadar taro Shlab yasalgandek edi, ikki tomoni Shunday yiroq ediki, uni o‘tish uchun yo‘lga chiqmagan yaxshiroq. Ammo,

Bu yanglig‘ biyik tog‘, aningdekki Qof,
Bo‘lub charxdin erga tegru shigof.

Shigof – yoriq orasida yo‘l bor edi. Bu tog‘dan o‘tadigan yo‘lning kiraverish joyida ka Shmir ahli nihoyatda katta temir darvoza yasagan edi. Ammo, bu darvozani ya Shirish uchun uning to‘g‘risida xarsangto Shlardan duShmanni qaytarish niyatida bir qal’a yasalgan edi. Bu qal’ani ko‘rgan kishi vahimaga tuShar, uni jodu deb tasavvur qilar edi. Qal’a ichida ikki mingta sehrgar afsunchi joylashgan edi. Ularning niyati hech kimni bu erga yaqin keltirmaslik edi. Agar noxost biror kishi qal’a tomonga qadam qo‘ysa, oyog‘i sustlashib, harakatdan qolar, o‘z jonini halokatda ko‘rar edi. Agar ot bu tomonga qarab chopsa, oyoqlarining kuchi yo‘qolar edi.

Iskandar navkarlari bu erga kelib hayron boʻladilar va voqeadan Shohni xabardor etadilar. SHoh ustozi Arastu bilan birgalikda aytilgan gaplarga ishonmay, qalʼaga yaqinroq keladi va

Dedikim: «Bu nayrangi Kashmirdur,
Fusungar ishi makru tazvirdur.

Kerak qilmoq andoq aning chorosi
Ki boʻlgʻay nigun burj ila borasi.

Shoh ehtiyot uchun cherigini qalʼadan uzoqroqda tushiradi va oʻzi bilan doimo birga yurgan oʻn besh hakimga murojaat etib, Ka Shmir afsunini dafʼ etish uchun nima tadbir etmoq lozim?, deydi.

Hakim – olimlar shohga hech gʻam chekmaslikni, ikki kun oʻylashib, uchinchi kun bu afsun yechimini aytishliklarini bayon etadilar.

Dostonning shu oʻrnidan Navoiyning ilmiy fantaziyasi, olimona tadqiqoti boshlanadi. U Iskandar yonidagi olimlar avval yulduzlar ahvolini va ularning tabiatlarini qiyoslab oʻrganganliklarini bayon etadi. Soʻng ular temirchilarning metall eritadigan va havo beradigan asboblarini, ancha metallni hozir qiladilar. Simob, qalay va bronzani aralashtirib, bir oʻq hozirlaydilar. Bu oʻq xuddi falak kabi yumaloq Shaklda boʻlib, ichi ham falakning ichi kabi boʻ Sh edi. Ichini porox bilan toʻldiradilar. Ikki te Shigiga fatila (pilik) oʻrnatadilar. Xuddi duShman boshidek oʻqning piligiga oʻt bogʻlab, uni toʻpga joylab, duShman qalʼasi tomon otishni niyat qiladilar. Oʻq ichidagi pilik havoda uchib borish asnosida yonib, ichida ya Shirilgan a Shyoga ham oʻtadi. Bu tilsimli oʻq erga qattiq tegib tuShgach, pora-pora boʻlib yoʻq boʻlib ketadi. Shu onda undan gʻaroyib sado chiqadi, atrofga ajib bir Shoʻʼla, Shamol va tutun tarqaladi. Sado sehrni buzadi, Shoʻʼla esa qalʼa e Shiklarini ochib yuboradi. Tutun

sehrgarlar yuzini qop-qora qiladi. Shamoli, ya’ni hidini kim hidlasa, sehr ilmini butunlay unutadi. Hakimlar Iskandarga:

Tilismi nihonni ayon qildilar,
Nihon barcha ramzin bayon qildilar.

Shundan so‘ng, Iskandar kashmiriylar tilsimiga qarshi yasalgan bu tilsim vositasida sehrli qal’ani zabt etadi va Mallu zulmidan bezor bo‘lgan mamlakatga egalik qiladi.

E’tibor qilinsa, shu birgina parchaning o‘zidayoq Navoiy o‘z davri ilmida ham ancha oldin ketganligi ko‘zga taShlanadi. U badiiy konflikt yaratar ekan, o‘zining chuqur bilimini namoyish etadi. U simobning havoda yo‘q bo‘lib, er ostiga kirib ketish xususiyatini, qalayning tez eruvchanligini, bronzaning esa biriktiruvchi xossasini bilgani tufayli aynan Shu moddalardan metall yasaydi. O‘qning Shaklini esa falaklardan andoza oladi. Sehr – bu bir maromda ovga qarata yuboriladigan fikrlar to‘lqini. Qattiq sado havodagi har qanday to‘lqinni sindirib yuboradi. «Afan is», ya’ni badbo‘y hid, zamonaviy tibbiyotda ham ta’kidlanganidek, miya faoliyatini ishdan chiqaradi. Shu bois afsungarlar barcha o‘rgangan ilmlarini butunlay unutadilar. SHamol bilan e Shiklarni ochish hodisasiga esa texnikaviy taraqqiyotga erishgan bugungi kunimizdan ko‘plab misol keltirishimiz mumkin.

Shu birgina misol barcha fanlarda nodiri zamon Navoiy dahosining yana bir yorqin qirrasini namoyon etadi. Shoir shu munosabat bilan ham ilmni ulug‘laydi; olimni jahonlarga tenglashtiradi:

Bilikdin erur har biri bir jahon,
Jahon hikmati har birida nihon.

Demak, faqat ilm va hikmatgina har qanday muShkulotni hal etib, hatto qattiq sehrni ham chil-chil sindirar ekan:

Qilib hikmat oyinig‘a iltijo,
Buzoli alar sehrini jobajo.

Dostonda mumtoz adabiyotdagi badiiy san’at vositalari betakror, yangi shakl, mazmun va usullarda mahorat bilan qo‘llanilgan.

Masalan, tazod:

Mengizlari gul-gul, kipriklari xor,
Qaboqlari keng-keng, og‘izlari tor.

Maqol:

O‘zi sari boqma, so‘zi sari boq,
va shu kabi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy o‘zining «nazirai benazir» «Xamsa» sini yaratar ekan, uning birinchi dostonida aytgan fikrlarini keyingi dostonlarda bevosita davom yettiradi va «Saddi Iskandariy» dostonida o‘zining yakuniy xulosasini bayon etadi.

Alisher Navoiy «Xamsa» sini o‘z davri ijod ahli, «buyuk adabiy hodisa – kashfiyot», deb e’tirof etadilar. Binobarin, asar mazmunidan shu narsa ayon bo‘ladiki, Alisher Navoiy o‘z ijodining buyuk va betakror ekanligini mutafakkir daho sifatida o‘zi ham idrok etgan edi.

2.

Iskandar obrazi dunyo xalqlari orasida ancha mashhurdir. U Yaqin va O‘rta Sharqlarda Iskandari Zulqarnayn, Iskandari Rumiy, Iskandar Maqdon nomlari bilan tarqalgan. Iskandar Aleksandr

Makedonskiyning Sharqdagi nomidir. Tarixdan ma’lumki, Aleksandr Makedonskiy (1356-1323-yillar) qadimgi dunyoning mashhur lashkarboshisi va davlat arbobidir. Aleksandr Makedonskiy haqida ko‘plab afsona, rivoyatlar yaratilgan. IX asr arab tarixchisi Dinovariyning «Al-axbor at-ti’ol» asarida hikoya qilishicha, Filipp Doro II dan yengilib, unga xiroj to‘lash va qizini xotinlikka berishga majbur bo‘ladi. Doro xotinini haydab yuboradi. Filipp bolani o‘z o‘g‘li qilib ko‘rsatadi. Filipp o‘ladi. Iskandar taxtga chiqadi. U Doro III ga qarshi urush qiladi, yengib, taxtga chiqadi. Iskandar «qonuniy voris» sifatida Eron taxtiga chiqadi. Iskandarning afsonaviy tarixi 923-yilda vafot etgan tarixchi At-Tabariyning «Tarix arrusul va-l-muluk» («Payg‘ambarlar va podsholar tarixi») asarida to‘laroq bayon etiladi. Tabariyning hikoya qilishicha, Filipp Doroga boj to‘lar ekan. Filippning vafotidan keyin taxtga chiqqan Iskandar Doroga boj to‘lamay qo‘yadi. Doro Iskandarga «go‘y» bilan «chavgon» va kunjut yuboradi. Iskandar «go‘y»ni yer yuzi deb, uni egallashini, kunjutni tovuqlarga yediradi. Doroning ikki amaldori suiqasd qilib, uni o‘ldiradilar. Doroning oldiga kelgan Iskandar uning suiqasdchilarini jazolash, qizi Ravshanakka uylanish va qarindoshlariga aziyat bermaslik haqidagi vasiyatni eshitadi. Iskandar uni bajaradi.

Klitarx va Oneskrit Iskandar haqida asar yaratadi. Shundan keyin Plutarx ham asar yozadi. Eramizning I asrida Iskandar haqida Psevdo Kallesfen roman yozadi. X asrdan boshlab yozma adabiyotda Iskandar obrazi an’anaviy obrazga aylanadi. Nizomiy Ganjaviyning «Iskandarnoma» asaridan boshlab Iskandar xamsachilikning an’anaviy obraziga aylanadi. Xusrav Dehlaviy «Oinai Iskandariy», Abdurahmon Jomiy «Xiradnomai Iskandariy» asarlarini yaratishdi. Bu asarlarda Iskandar fotih, olim, faylasuf va payg‘ambar sifatida talqin etiladi.

Turkiy adabiyotda Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk», Rabg‘uziyning «Qissai Rabg‘uziy» asarlarida Iskandar obrazi

keng o‘rin tutadi. Iskandar Qur’onning surasida eslangan Zulqarnayndir. Demak, Iskandar obrazi Qur’oni karimda ham uchrar ekan.

Navoiy o‘zigacha mavjud manbalarni chuqur o‘rganadi. «Xamsa»ning boshqa dostonlarida, lirikasida va boshqa asarlarida ilgari surgan ilmli, olim, adolatli shoh obrazini «Saddi Iskandariy»dagi Iskandar obrazida yoritishga harakat qiladi. Aytish kerakki, Navoiy «Tarixi mulki Ajam» asarida Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlar asosida yoritgan bo‘lsa, «Saddi Iskandariy» dostonida Iskandarning shoh va olim sifatida ideal obrazini chizishga harakat qiladi.

Ma’lumki, Iskandar – makedoniyalik Aleksandrning Sharqdagi nomi bo‘lib, aslida u eramizdan oldingi IV asrda yashagan mashhur sarkarda va jahondordir. Ammo, Sharqda Iskandar o‘z tarixiy «qolipini»gina saqlab qolib, adib va shoirlar asarlarida badiyat qonuniyatlari hamda yozuvchi adabiy-estetik niyatlari asosida yaratilgan badiiy obrazdir. Bu badiiy obraz-Iskandar qaysi davrda yaratilgan bo‘lsa, ana shu davr talab va ehtiyojlari asosida o‘ziga xos tarzda yaratiladi. Natijada Firdavsiy ham, Nizomiy ham, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy ham o‘zlari istagan Iskandar badiiy obrazini chizdilar. Alisher Navoiy ham ana shu uslubni davom ettirdi. Shuning natijasida Alisher Navoiy Iskandarni XV asrda yashab ijod etgan shoir nuqtayi nazaridan qalamga oldi va talqin etdi. Alisher Navoiy uchun Iskandar qissasi bir bahona-yu, aslida dostonda ulug‘ mutafakkir shoirning ijtimoiy va ma’naviy hayot haqidagi ijtimoiy, ma’rifiy va axloqiy qarashlari badiiy obrazlar ba’zan maqolot-hikmatlar, masal va hikoyalar vositasida ifoda etilgan. Dostonda tasvirlangan voqealar va ularning talqini bilan tanishish shundan guvohlik beradiki, Alisher Navoiy Iskandarni tasvirlashda ham nihoyatda murakkab bir uslubni qo‘llagan. Bu o‘ziga xoslik shundan iboratki, zohiran qaraganda Iskandar odil podshoh sifatida talqin

etiladi, ammo, tasvir va talqinlar botiniga nazar tashlaganda oʻzi tasvirlayotgan Iskandarning barcha xatti-harakatidan ham shoirning qoniqish hosil qilmaganini sezish mumkin. Bu hol, xususan, boblarning soqiy va mugʻanniyga bagʻishlangan qismlarida koʻzga tashlanadi. Chunki ularda goʻyo shoir tasvirlayotgan voqea, hodisa, obraz talqiniga boʻlgan munosabatini umumlashtiradi. Masalan, asarning 27-bobi Iskandarning Doro ustidan gʻalabasi va Doro mulkiga ega boʻlishi tasviriga bagʻishlangan. Demak, bunda gʻoliblik kayfiyati hukmron boʻlmogʻi kerak. Ammo, shu bob oxirida Doroni dafn etish marosimi tasviri ham bor. Shoir bob yakunida soqiy va mugʻanniyga murojaat etib, shunday yozadi:

Ketur soqiy ul mayki, jone topay,
Gʻam ichra oʻlardin amone topay.

Ki gar davr ogʻu berdi Doroga bot,
Skandarga ham bermas obi hayot.

Mugʻanniy, bugun nagʻmai chang tuz,
Vale navha soz aylab ohang tuz.

Ki dardimgʻa tortib figʻon yigʻlayin,
Dame oʻylakim, shisha qon yigʻlayin.

Koʻrinadiki, Alisher Navoiy voqealar tasviridan soʻng falsafiy yakun chiqaradi. Bu yakun esa xojagon tariqatidagi naqshbandiya yoʻnalishni targʻib etuvchi gʻoyalar bilan mosdir. Bobdagi ikki tasvir – Iskandarning Doro ustidan gʻalabasi va Doroning magʻlubiyati-yu oʻlimi shu jihatdan nihoyatda ibratli, yaʼni shoir har bir ish oqibatini oʻylash lozimligi va shunga asosan yashash, faoliyat koʻrsatish

kerakligini uqtirmoqda. Shundan-da Alisher Navoiy bobni quyidagi misralar bilan tugatadi.

Navoiy, jahong‘a vafo yo‘qturur,
Aning da’bu rasmi jafo – o‘q durur.

Vafo aylab, oning vafosin unut,
Navo istasang benavolig‘ni tut.

Bunday holni 56-bob yakunida ham kuzatish mumkin. Bobda Iskandarning Ravshanak va Mehrnozlarga uylanish to‘yi nihoyatda ko‘tarinki ruhda tasvirlanadi. Oxirda esa o‘ziga murojaat qilib, shunday yozadi:

Navoiy, chu sarmanziling Chingadur,
Suruding dog‘i sur aro chingadur.

Ayolg‘ung necha yor-yor o‘lg‘usi,
Mening yig‘larim zor-zor o‘lg‘usi.

Bir tomonda to‘y, xursandchilik, ikkinchi tomonda esa «mening yig‘larim zor-zor o‘lg‘usi», deydi Alisher Navoiy. To‘yda azo tutmoq kayfiyatining boisi nedur? Alisher Navoiy bu hashamat va tantanalarning boisi bo‘lgan Iskandar taqdirining oxiri – «xoli ilgini» -bo‘sh qo‘lini tobutdan chiqarib qo‘yishga vasiyat qilgani Alisher Navoiyni zor-zor yig‘latadi va shundan kelib chiqib, yashashdan asosiy maqsad nimaligini o‘ylab ko‘rishga da’vat etadi. Bu zamonasi shohlariga ham, amaldorlarga ham, oddiy fuqarosiga ham, umuman bashariyatga tegishli da’vatdir, xitobdir. Bu esa umumbashariy muammo bo‘lib, uni hal qilishga donishmandlar ham, adib va shoirlar

ham, mutafakkir va mutasavvuflar ham asrlar davomida bosh qotirib kelmoqdalar.

Dostonda turli mavzuga bag‘ishlangan hikoya va masallar ham keltirilgan, deb eslatilgan edi. Hikoyatlarning ayrimlari tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan aloqador bo‘lsa (masalan, 21-bobdagi Mahmud G‘aznaviy va uning o‘g‘li Mas’ud, 29-bobdagi Sulton Abusaid Kuragon haqidagi hikoya), ba’zilari sayyor sujetlarning qahramoni bo‘lmish Majnun (33,66-hikoyalar), Bahrom (54-bob) bilan bog‘lidir. Boshqalari esa to‘qima obrazlar (ikki yor-25-bob; g‘ofil yigit-41-bob; ikki rafiq-37-bob…) bilan aloqadordir.

Shuning bilan bir qatorda bulbul (58-bob), baliqlar(62-bob), kabutar (70-bob) bilan bog‘liq masallar ham keltirilgan. Shunisi ham borki, bu hikoya va masallar bevosita Iskandar bilan bog‘li emas, ya’ni ularda, xususan, hikoyalarda Iskandar qatnashmaydi. Ammo, bitta hikoya (Iskandar va gado rivoyati –17-bob) Iskandar bilan bog‘li tarzda keltiriladi, ya’ni unda Iskandar qatnashadi. Bunday holat «Hayrat ul-abror» va «Sab’ai sayyor» dostonlaridagi hikoyat va masallarning ularda tutgan mavqei va asosiy qoliplovchi qissa bilan g‘oyaviy-badiiy bog‘liligi masalasining «Saddi Iskandariy»da o‘ziga xos tarzda umumlashtirilganidan dalolat beradi. Hikoyat va masallar ma’lum bir masalaga oid (avf, muxolafat…) nazariy qarashlarni badiiy jihatdan tasdiqlash maqsadida keltirilganliklaridan doston umumiy yo‘nalishining ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, «Saddi Iskandariy» «Xamsa»ning oxirgi dostoni sifatida bu muhtasham badiiy qomusni ham g‘oyaviy-mazmun va ham badiiy mahorat nuqtayi nazaridan nihoyatda salmoqli tarzda yakunlaydi.

Ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning ijodiy jasorati sifatida maydonga kelgan buyuk «Xamsa»si faqat shoirninggina emas, balki turkiy-o‘zbek adabiyotining yuqori

taraqqiyot bosqichiga koʻtarilganidan dalolat beruvchi adabiy-badiiy yaxlit bir qomusdir.

Darhaqiqat, buyuk «Xamsa» oʻzbek adabiyoti tarixida shunday ulugʻ bir kashfiyot, muhim bir moʻjizaviy hodisaki, uning mohiyatini ulugʻ shoirning ustozi Abdurahmon Jomiy «Oinayi Iskandariy» asarida quyidagi misralarda gʻoyatda samimiyat bilan ifoda etganlar:

Turkiy tilga dogʻi naqsh[1] keldi ajab,
Hatto sehrgarlar bogʻladilar lab.

Bunday yoqimli naqsh tushirgan qalam,
Boshiga ofarin yogʻdirsin olam.

Kechirsin forsiyda gavhar terganlar,
Dariy tilida dur, gʻazna berganlar.

Buning tili ham gar boʻlganda dariy,
Majolsiz qolardi ularning bari.

Bu Alisher Navoiy «Xamsa»si oʻsha davrda mavjud boʻlgan sharq xamsanavisligi anʼanasida ulugʻ bir adabiy kashfiyot ekanining shu sohada oʻzi ham qalam tebratgan buyuk shoir va alloma ustoz Abdurahmon Jomiy tomonidan eʼtirof etilishidir. Agar buni forsiygoʻylarning eʼtirofi deb bilsak, unda Sulton Husayn Boyqaroning «Xamsa» muallifiga koʻrsatgan buyuk hurmati - oʻzi minadigan oq otga mindirib, jilovdor boʻlganligi, Alisher Navoiyni “nazm mulkining sohibqironi va qahramoni”, deb atashini turkiygoʻylarning eʼtirofi sifatida qabul qilish mumkin. Demak, sharqda - forsiy va turkiy tillarda soʻzlashuvchilar Alisher Navoiy

[1] naqsh-bu oʻrinda «Xamsa» maʼnosida.

«Xamsa»sini buyuk adabiy hodisa-kashfiyot deb bilganlari diqqatga sazovordir.[50]

3.

O‘rta asrlar jahon adabiy hayotida g‘oyat muhim ijobiy mo‘’jizalardan hisoblangan Alisher Navoiyning ijodi besh asrdan ortiq davr ichida Afg‘onistondan Kavkazgacha, Iroqdan Qashqargacha, Qozog‘iston sahrolaridan Volga sohillarigacha bo‘lgan hududda yashagan ma’rifatparvar Shoirlar, adabiyotshunoslar uchun o‘ziga xos bir kamolot maktabi bo‘lib xizmat qildi.

Keyingi yillarda ma’lum bo‘lganidek, samarqandlik adabiyotshunos olim Shayx Ahmad Taroziy 1437 yilda yozilgan «Funun ul-balog‘a» asarida turkiygo‘y Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro‘z» nomli doston yozganligini qayd etadi. Bu ma’lumotni Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘zining «Risolai aruz» (yoki «Muxtasar») asarida qayd etgan. Akademik Boturxon Valixo‘jaev bu asar va uning muallifi xususida fikr yuritar ekan, Alisher Navoiyga qadar ham turkiy tilda «Xamsa» yaratishga urinishlar bo‘lganligini ta’kidlaydi. U Haydar Xorazmiy yozgan asarlar haqida Boburning «Risolai aruz» idan misollar keltirar ekan, «Agar bu dalillar e’tiborga olinsa, unda Haydar Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy «Xamsa» lariga turkiy tilda javob aytishga bel bog‘lagani ham ma’lum bo‘ladi».[51] Aniqrog‘i, mavlono Haydar XV asrning birinchi choragida turkiy – o‘zbek tilida «Xamsa» - beshlik yozishga bel bog‘lab, uning dastlabki ikki dostonini – «Gulshan ul-asror» (bu

[50]Mufassal ma’lumot uchun qarang: Valixo‘jaev B. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-qism. Samarqand: 2002.

[51] Qarang: Valixo‘jaev B. Mumtoz siymolar. II jildlik, II jild. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002. 107-110-betlar.

asar hozirda «Maxzan ul-asror» tarzida yuritilmoqda) hamda «Gul va Navro‘z» ni yozgan va o‘ziga xos tarzdagi original asarlar yaratgan. Ammo, olim ta’kidlaganidek, bu ajoyib ta Shabbusning keyingi taqdiri noma’lum. Keyingi uch doston yozilmay qolgan bo‘lishi ham mumkin. Chunki, yuqorida tilga olingan dostonlarda muallifning qarilikdan shikoyatlari ifoda etilgan satrlar mavjud.

Biz bu o‘rinda Alisher Navoiyning o‘zidan keyingi o‘zbek dostonchiligiga ko‘rsatgan ta’siri haqida, bu ta’sirning umumiy manzarasi haqida ba’zi fikrlarni bildirmoqchimiz.

Alisher Navoiy axloqiy-falsafiy, ishqiy-romantik va qahramonlik dostonlarining ustasi sifatida o‘z davridayoq ustoz dostonnavis bo‘lib tanilgan edi. «Xamsa» yaratilishi bilanoq uning tarkibiga kirgan dostonlarga naziralar paydo bo‘la boshlaydi. Masalan, XVI asrda Poshshoxo‘ja Abdulvahobxo‘ja o‘g‘li «Hayrat ul-abror» ga o‘xshatma tarzida «Maqsad ul-anvor» («Nurlarning maqsadi») degan doston yaratganligi haqida ma’lumot mavjud.

Keyingi asrlarda Alisher Navoiyning dostonnavislik an’anasi turli ijodkorlar tomonidan turlicha ko‘rinishlarda davom yettiriladi. Hatto Navoiy singari turkiy tilda «Xamsa» yaratishga urinishlar ham bo‘ldi. Bu jihatdan XVIII asrda Xorazm va Buxoroda yashagan Muhammad Niyoz Nishotiyning faoliyati diqqatga sazovordir. Chunki, u o‘zining «Husnu Dil» dostonida xamsa yozish niyati borligini ochiq-oydin bayon etgan.

Nishotiy ijodini ancha chuqur o‘rgangan akademik V.A. Abdullaev o‘zining qator qimmatli tadqiqotlarida Shoirning xamsa yozish niyati bo‘lganligini bayon etmaydi. Bu haqda Nishotiy she’rlari va «Husnu Dil» dostonidan namunalar berilgan to‘rt tomli «O‘zbek adabiyoti» kitobining III tomida ham gapirilmaydi. Biroq, Nishotiyning xamsa yozish niyati bo‘lgani haqida Shoirning 1967 yilda bosilib chiqqan kitobining so‘zboshisida (so‘zboshi muallifi Xolid Rasul) shunday taxmin uchraydi: «Nishotiy Navoiyning

original badiiy mahoratiga yuqori baho berib, ulug‘ ustozga munosib shogird bo‘lishni orzu etadi va «Xamsa» yaratgan to‘rt Shoir ovoziga o‘z ovozini qo‘shmoqchi bo‘ladi.

Shunga ko‘ra ulug‘ ustozlar kabi Shoir Nishotiy ham «Xamsa» yaratgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qilish mumkin. Balki, ular bizgacha etib kelmagandir.

E’tirof qilish kerakki, bu taxmin jiddiy asosga egadir. Chunki, kirish so‘z muallifining taxminini «Husnu Dil» dostonidagi ko‘plab dalillarga asoslanib, Nishotiy Navoiyga ergashib «Xamsa» yaratishga kirishgan, uning ayrim dostonlarini yozgan, deb qat’iy aytish mumkin.

Misollarga murojaat etaylik. Dostonning kirish qismida Shoirning yozishicha, u Xorazmda yaxshi kunlar hukm surgan davrda bir e’tiborli kishi bilan qalin do‘st bo‘ladi:

Qaydaki bir nahli sayodat edi,
El boshiga toju saodat edi.
Yaxshilari rutbasi haddin fuzun,
Erdi yamon el dog‘i xoru zabun.
Anda birov birla bo‘lib ulfatim,
Kechau kunduz edi hamsuhbatim.
Qaysi birovkim ul edi komkor,
Ahli viloyatda zavil iqtidor.

Ammo Shoir «yaxshi» deb ta’riflagan zamon uzoqqa cho‘zilmaydi:

Charx duniy nogoh o‘lub badmijoz,
Dun eliga berdi kamoli rivoj.

Shu tufayli ham ikkala do‘st mamlakatdan chiqib ketib, Buxoro hukmronligiga qaraShli joylarga qochishga majbur bo‘ladilar:

Bizga iloji aning ixroj o‘lib.
Necha qilib oning ila jahdu jid,
Lek bizing baxtimiz o‘lmay mudid.
CHiqmoqi fikr aylabon ikki rafiq,
Ul dedi: - G‘urbat sori boshla tariyq.
Men dog‘i amriga qilib inqiyod,
Yo‘lga tushub izladim o‘zga savod,
Toki Buxoro sori qo‘ydum qadam,
Ohi buxoriy aro bo‘ldum adam.

Bir kun shoirning qadrdoni, g‘ariblikdagi hamrohi unga shunday deydi:

Bir kun etib fikr ila diqqat base,
Dedi: - Emas yaxshi bu g‘aflat base.
Garchi o‘tar umr bu mehnat ila,
Yozu qishi ranj suubat bila.
Lekin o‘lur har kuni kundin hisob,
Har tuni ham bo‘lg‘usi tundin hisob…
Anglading emdi muni qilma xayal,
Bir nima qil umrga bo‘lsun badal.
Toki saning birla bizing otimiz –
Qolgay, agarchi yo‘q erur zotimiz.
Ahli suxankim edilar nuktasanj,
Topti alar ranj chekib mulk, ganj.
San qilibon bizga fido mulku mol,
Nukta adosida ayon qil maqol.

Bu misralardan anglashiladiki, Shoirning safardoshi uni yangi bir badiiy asar yozishga rag‘batlantiradi. Bugina emas, u Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiylarning xamsanavislik faoliyatlarini ibrat qilib ko‘rsatib, uni Navoiy «Xamsa» siga o‘xshash xamsa yaratishga da’vat etadi:

Chekti alar mehnat ila dardu ranj,
Topti aning har birisi «Panj ganj»,
Ganj ila gul Shanga adad panj erur,
To‘rtovi lek anda suxansanj erur.
Ganj ila gulshan biri bordur ziyod,
Ol birini sen dog‘i anda kushod.

Shuni ham aytish lozimki, shoirning maslahatdoshi unga original xamsa yaratishni maslahat bergan edi. Shuning uchun ham xamsalarning birinchi dostonlariga javoban Nishotiy original asar yozishga kirishadi:

To‘rt kitob andaki mazkur erur,
Xamsalig‘ oti bila mashhur erur,
Har birining avvalida bir kitob –
Bor edikim andin edi fathi bob.
Birning oti: «Maxzani asrori shavq»,
Ul birisi: «Matla’i anvori shavq».
Yona biri: «Tuhfatul ahror» erur,
Biri aning: «Hayratul abror» erur.
Man dog‘i alarg‘a demaklik javob,
Istabon aydim bu so‘zi inkitob.

Demak, «Husnu Dil» Navoiy ta’sirida yozilishi lozim bo‘lgan Nishotiy xamsasining birinchi kitobidir. Buni barcha xamsalar

birinchi kitobining bahrida, aruzning sari’ bahrida (mufta’ilun mufta’ilun foilun) yozilishi ham, muallifning e’tirofi ham, boshqa juda ko‘p dalillar ham tasdiqlaydi.

15584 misradan iborat g‘oyaviy-badiiy yuksak bir asarni 1771 yilning besh oyi ichidagina yoza olgan Shoir o‘z xamsasining boshqa dostonlarini yozganmikin, degan tabiiy savol tug‘iladi.

Bizningcha, u yozgan bo‘lishi kerak. Lekin, Nishotiy «Xamsa» sining ikkinchi dostonini Farhod, Shirin, Xisravlarga taalluqli mavzulardagi asarlar orasidan emas, balki Vomiq va Uzrolarga doir asarlar orasidan axtarmoq lozim. Bunga Shoirning o‘zi ham «Husnu Dil» ning oxirida ochiq ishora qilgan:

Soqiy, olib kel mango rohat mayin,
Ber ichoyin xobi farog‘at mayin.
Behud o‘lub lahzai aylay xayol,
Vomiqu Uzroga na erkon xayol.

Nishotiy ijodining bu tomonini aniqlash, u niyat qilgan «Xamsa» dagi birinchi dostonni ilmiy tekshirish adabiyotshunosligimizning muhim va qiziqarli masalalaridandir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sharqda badiiy tafakkur, madaniyat va san’at rivoji, xususan, daho mutafakkirlar ijodi shakllanishida Uyg‘onish davrining ta’siri qanday bo‘ldi?
2. Sharq Rafaeli – Behzod maktabining dunyoga kelishida Sharqda zamin bor edimi?
3. Alisher Navoiyning hunar ahliga munosabati qanday bo‘lgan?
4. Alisher Navoiy «Xamsa» sining salaflari yaratgan beshliklardan farqi nimada edi?

5. Alisher Navoiy «Xamsa» si yaxlit asar ekanligini koʻrsatuvchi qanday gʻoyaviy-badiiy omillar haqida soʻzlash mumkin?

6. Farhod va Majnun, Shirin va Layli obrazlari talqinida qanday farqlar mavjud?

7. Alisher Navoiyga nazira qilib «Xamsa» yozgan qanday Shoirlarni bilasiz?

8. «Husni Dil» dostonining gʻoyaviy-badiiy qimmati haqida soʻzlang.

9. Qaysi turkiygoʻy Shoir Navoiy «Xamsa»siga javob yozishni niyat qilib, uning birinchi dostonini yozib tugatgan?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Abdullaev V. O poete Nishoti i ego poeme «Xusnu Dil». Trudы tadj. uch. inst. im. S. Ayni, t. III, 1955.

2. Abdullaev V. Xorazmdagi XVIII asr oʻzbek adabiyotida mafkuraviy kurash. OʻzDU ilmiy asarlari, №63, 1956.

3. Abdullaev V. Alisher Navoiy traditsiyalarining Xorazm Shoirlari tomonidan davom yettirilishi. //«Sharq yulduzi», 1959, №4.

4. Valixoʻjaev B. Mumtoz siymolar. II jildlik, II jild. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002.

5. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Toshkent: «Oʻzadabiy nashr», 1964.

6. Nishotiy. «Husn va Dil». Lirika». Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.

12 – MAVZU: “LISON UT-TAYR” DOSTONI VA UNDAGI OBRAZLAR TIZIMI

Dars rejasi :

12.1. Dostonning tarkibiy tuzilishi.
12.2. Dostonning goyaviy xususiyatlari.
12.3. Ramziy timsollar tahlili**.**

Tayanch so‘z va iboralar: *kamolot maktabi, Mantiq ut-tayr, Attor, Shayx San’on, original, sari’ bahri, niyat, besh doston.*

1.

«Lison ut-tayr» dostoni Alisher Navoiyning oltmish yoshga qadam qo‘yganida, ya’ni 904-hijriy, 1498-1499 milodiy yillarda yozilgan. Bu haqda shoirning o‘zi dostonning ikki bobida alohida to‘xtalgan:

Oltmishqa umr qo‘yg‘onda qadam,
Qush tilin sharh etgali yo‘ndum qalam.
(189-bob)

Yil to‘qiz yuz o‘tmish erdi dog‘i to‘rt,
Kim ulusning ko‘ngliga soldi bu o‘rt.

Ham bu tarix ichrakim qildim shuro‘’
Ixtimomiga dog‘i bo‘ldi vuqo‘’.
(193-bob).

Doston aruzning ramali masaddasi mahzuf bahrida yozilgan:

Er kirar er sonig‘a himmat bila,
Er emas faxr aylagan ziynat bila.

-v - - / - v - - / - v –
-v - - / - v - - / - v –
foilotun/ foilotun/ foilun.

Doston 176 kichik boblardan iborat. Matnshunos olim Sh. Eshonxo‘jaev uning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab, nashr yettirgan. Dostonning nasriy bayoni esa adabiyotshunos olim SH. SHaripov tomonidan amalga oshirilgan va nashr yettirilgan. O‘zbek adabiyotshunosligining atoqli namoyandalaridan E.E. Bertels, V. Zohidov, N. Mallaev, B. Valixo‘jaev, A. Hayitmetov, SH. SHaripov, N. Komilov, S. Olimov, I. Haqqulov ilmiy tadqiqotlarida dostonning g‘oyaviy-badiiy, ma’rifiy-ta’limiy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Alisher Navoiy oltmish yoshga qadam qo‘yganida mazkur dostonni yozgani sabablari asarning «Bu kitob nazmida o‘z munosabatining taqribi» deb atalgan 189-bobida ma’lum darajada bayon etilgan. Uning mohiyati shundan iboratki, Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» asari Alisherning hali maktabda o‘qub yurgan chog‘ida uning diqqatini o‘ziga tortibgina qolmay, balki o‘ziga shunday maftun etgan ediki, yosh Alisher uni boshdan oxirigacha yodlab olib, takror-batakror o‘qib yurardi. Bu holdan xabar topgan ota-onasi uni o‘qishni man’ etib, asarni yashirib qo‘yadilar.

Alisher Navoiy shunday yozadi:

Lek chun yodimda erdi ul kalom,
Yoshurun takror etar erdim mudom.

Ondin o‘zga so‘zga maylim oz edi,
Qush tili birla ko‘ngul hamroz edi.

Demak, Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr»i Alisher Navoiyni yoshligidan oʻziga maftun etib, umri davomida uning bilan hamroh boʻldi, unga javob yozish niyati ham shoirning koʻnglidan joy olgan edi. Ana shu niyat Alisher Navoiyning oltmishga qadam qoʻyganida amalga oshdi. Bu bejiz emasdi. Chunki shu davrda Alisher Navoiy oʻzining «Munojot», «Siroj ul-muslimin» asarlarini ham yozgan edi. Bularda, xususan «Munojot»da goʻyoki umri boʻyicha qilgan ishlarini sarhisob qilib, yana bajarilishi lozim boʻlgan ishlar, yaʼni hali koʻp «qarzi» borligiga ham ishora qilganday boʻladi. Ana shunday bajarilishi lozim boʻlgan ishlardan biri «Mantiq ut-tayr»ga javoban turkiy tilda bir asar yaratish muddaosi ediki, Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» dostonini yozish bilan bu ishni amalga oshirdi.

Farididdin Attor XII asrning mashhur shoir va adiblaridan boʻlib, oʻzining «Ilohiynoma», «Tazkirat ul-avliyo» va xususan, «Mantiq ut-tayr» asarlari bilan oʻzidan keyingi adabiy va maʼnaviy hayotda katta mavqega ega edi. Hatto Jaloliddin Rumiy Farididdin Attorning orifona kashfiyotlariga yuqori baho berib, shunday yozgan edi:

Haft shahri ishqro Attor gasht,
Mo hanoʻz andar xami yak koʻchaem.

Mazmuni: Attor ishqning yettita shahrini kezib chiqdi, biz boʻlsak hali ham ishqning bir koʻchasi boshidamiz.

Darhaqiqat, Attor ishqni tasavvufona talqin qilgani tufayli Alisher Navoiyning ham diqqatini oʻziga qaratgan edi. Shuning uchun yozadi:

Haq munung nutqin chu goʻyo ayladi
«Mantiq ut-tayr» oshkoro ayladi.

Bu til izohin kamohiy aylabon,
Sharhi asrori ilohiy aylabon…

O‘zining dostoni haqida esa shunday deydi:

Ulcha asroring manga erdi ayon,
Ayladim qushlar tili birla bayon.

Bunda Alisher Navoiy «Lison ut-tayr»ining mavzusi va uni ochishdagi o‘ziga xoslik bayon etilgan, ya’ni doston tasavvufiy mavzuda («Sharhi asrori ilohiy») bo‘lib, bu mavzu qushlar tili vositasida majoziy tarzda ifoda etilgan.

Shoir bu asarga javob yozishni hayotining ilk yillaridanoq niyat qilgan bo‘lsa, bu niyatini umrining so‘nggi yillarida amalga oshirdi. Ushbu mavzu islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni karimda ham, me’rojnomalarda ham bor. Mavzuning etakchi ohangi, motivi bitta xudoni axtarib sayohat qilish. Bu mavzuda yaratilgan asarlarda panteistik dunyoqarash o‘z aksini topgan. Asarlar qur’oniy motiv bilan yozilgan. Shu jihatdan Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni ham hakimona-tasavvufiy asardir. Shoir dostonning boshida Qaqnus va qaqnusbacha haqidagi hikoyani keltirar ekan, o‘zini Attorning farzandi sifatida e’tirof etadi: «Men qaqnusbachaman» deydi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy «Xamsa» si tarkibiga kirgan dostonlarning asosiy qahramonlari insonlardir. «Xamsa» da tamsilning izlari ko‘rinadi. «Lison ut-tayr» dostoni esa tamsiliy, boshdan-oyoq masallardan iborat doston. Bu dostonda Navoiy mahoratining yangi qirrasini – tamsiliy doston yozish mahoratini namoyon etadi.

XV asrda munozara janrida yozilgan asarlar bor edi va ularda tamsiliy elementlar ham bor edi. Ammo, Navoiyning bu dostoni

oʻzbek mumtoz adabiyotida bor boʻlgan «Gul va Navroʻz» kabi masal tipidagi asarlardan ham farq qiladi.

Asarning syujet liniyasi murakkab emas. Bir gala qushlar suhbat qurish maqsadida bir erga toʻplanadilar. Biroq, odob, etiket qoidalariga rioya qilmaganlari bois, joy talashib, oʻzaro janjallashib qoladilar. Shunda ular «agar bir podshohimiz, boshligʻimiz boʻlganda, bunday gʻavgʻo boʻlmas edi», deb afsus qilishadi. Qushlar mojarosini kuzatib turgan Hudhud ularga butun olam qushlarining podshohi Simurgʻ haqida xabar beradi. Hudhudning taʼrifiga koʻra, Simurgʻ qushlarning barcha hol-ahvollaridan ogoh, ularga nihoyatda yaqin, ammo, qushlar koʻrmaydilar va idrok ham etmaydilar:

Sizga shohe bor beshibhu misol,
Vasfini ayturda yuz ming nutq lol.
Barcha olam qushlarigʻa shoh ul,
Holingizdin moʻ-bamoʻ ogoh ul.
Ul yaqin sizgʻavu siz ondin yiroq,
Vasl anga oyin, vale sizga firoq…
Har kishi boʻlsa tirik ondin yiroq,
Ul tiriklikdin oʻlum koʻp yaxshiroq…

Bu hikoyani eshitgan qushlar Simurgʻ huzuriga borish va uni koʻrishni orzu qiladilar. Qurʼa taShlab, Hudhud boshchiligida yoʻlga tushadilar. Ammo, Simurgʻ huzuriga eltadigan yoʻl nihoyatda ogʻir mehnat va mashaqqatlardan iborat edi. Koʻpgina qushlar oʻzlarining avvalgi hayotlari va maishatlarini sogʻinib orqaga qaytadilar, bir qanchalari halok boʻladilar.

Hudhud taʼriflagan goʻzal manzilga yetti mashaqqatli vodiyni chidam va matonat bilan qatʼ etgan oʻttiz qush etib keladi. Ammo, etib kelgach, qaysi tomonga boqmasinlar afsonaviy Simurgʻni emas, oʻzlarini koʻradilar:

Kim qilib Simurg‘ o‘ttuz qush havas,
O‘zlarin ko‘rdilar ul Si murg‘u bas.

Alisher Navoiy bu holni sadaf ichida durning hosil bo‘lishiga o‘xshatadi. Ya’ni, o‘ttiz qush riyozat chekib, o‘z xulqlarini poklab, sayqallanib, o‘z qobiqlarida durga aylanadilar; qushlarda endi vujud, o‘zlik tuShunchasi qolmay, ong va qalbiy his – intuitsiya bilan ilohiy go‘zallik va poklik timsoliga aylanadilar.

Qushlar mashaqqat bilan kezib chiqqan vodiylar Alisher Navoiy yashagan davr ijtimoiy mafkurasining eng faol yo‘nalish laridan biri bo‘lmish tasavvuf ta’limotining yetti ma’rifiy tabaqasi – yetti vodiysi tavsifidan iborat edi. Bu vodiylar xuddi zanjir singari o‘zaro bog‘liq bo‘lib va mazmunan bir-birini davom yettirib, solik – yo‘lchining riyozati asta-sekin ularni bosib o‘tgan sayin yanada baland pardalarga ko‘tarila boradi. Buning natijasida esa solikning ma’rifiy komillik darajasi ham oliy maqomga qarab yuksala boradi. Bu vodiylar quyidagilar: talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavahhud, hayrat, faqru fano.

Alisher Navoiy Simurg‘ni ideal, ya’ni hamma narsani tartibga soluvchi kuch sifatida namoyon etadi. Bu bilan Shoir «insonning o‘zida ilohiy kuch to‘plangan», degan fikrni bayon etadi:

O‘z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen o‘zungdin istagil.

Bu dostonda Shoir tomonidan insonning ulug‘ligi masalasi ko‘tariladi va har qanday xurofiy tuShunchalarga qarShi chiqiladi. Muallif o‘zining hayotsevar g‘oyaviy qaraShlarini doston tarkibiga kirgan kichik hikoyalarida ham ifoda etadi. Xurofiy tushunchalar va urf-odatlarning chayon zahriga teng ekanligi bangixayol bir devona haqidagi hikoyada tasvirlab beriladi.

Dostondagi sadoqat zikrida, ta’magirlik va battollik, ayyorlik va hiylagarlik, xudshikanlik va xudnamolik, valoyat va valitaro Shlik haqidagi hikoyalarda asosiy g‘oyaviy maqsadni turli timsollar va voqea-hodisalar, epizodik lavhalar vositasida bayon etish mayli kuzatiladi.

2.

Alisher Navoiy «Lison ut tayr»ida «sharhi asrori ilohiy» masalasi bevosita hazrati inson va uning bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni bayon etish, sharhlash yo‘nalishida hal qilinadi. Shuning uchun dostonning «hamd» bobidayoq shoir shunday deydi:

Ofarinishdin qilib inson g‘araz,
Oni aylab xalq ichinda beavaz.
Ko‘nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra o‘zin pinhon qilib.

Ana shu insonning o‘zligini tanishi lozimligi masalasi Alisher Navoiy dostonida alohida ta’kidlanadi va bu haqda shunday deyiladi:

Muttasif bo‘lsang sifotilloh ila,
Jazm etarsen xotiri ogoh ila.

Kim sen- o‘q sen harnekim maqsud erur,
Sendin o‘zga yo‘q nekim mavjud erur.

Zotning ijmoliga tafsilsen,
Ham vujud ishkolig‘a ta’vilsen.

O‘z vujudingg‘a tafakkur aylagil,
Har ne istarsen o‘zungdin istagil.

Dostonning asosini tashkil etgan qushlarning Simurg‘ tomon intilishi va ularning bu yo‘lda boshdan kechirgan sarguzashtlari, shu munosabat bilan keltirilgan turli hikoyat va masallarda ham ana shu masala bosh yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

Doston va uning xususiyatlaridan ko‘pgina olimlar, jumladan, B.Valixo‘jayev, E.E.Bertels, V. Zohidov, N.Mallayev, A.Hayitmetov, Sh.Sharipov, N.Komilov, S.Olim, I.Haqqul va boshqalar turli xilda so‘z yuritganlar.

Matnshunos Sh. Eshonxo‘jayev esa uning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab nashr ettirdi. Alisher Navoiy mukammal asarlari to‘plamining 12-tomida ham dostonning matni Sh.Eshonxo‘jayev tomonidan izohlar bilan nashr ettirilgan. Uning nasriy bayoni esa Sharofiddin Sharipov tomonidan bajarilib, nashr ettirilgan. Ana shu ilmiy tadqiqotlar va matn asosida shuni ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy dostonida o‘z davri falsafiy aqidalari xojagon tariqatining naqshbandiya suluki ta’limoti asosida yoritilib, unda Inson va Alloh taolo, Inson va koinot yaxlitligi, Insonning o‘zligini tanish yo‘llari kabi muhim masalalardan mulohazalar yuritilgan.

Jaloliddin Rumiy tomonidan aytilganidek, Farididdin Attor, jumladan, Alisher Navoiy ham ishqning yetti shahri-vodiysini kezganlar va uning natijasini bayon etganlar. Masalan, Alisher Navoiy qushlar sarguzashtining oxirida «Qushlarning fano husulidin baqo vusulig‘a etkoni» sarlavhali 169-bobda shunday yozadi:

Chun ul o‘ttuz qushqa bu erdi xayol,
Muncha ko‘rgandin o‘kush ranju malol-

Kim magar Simurg‘ ko‘rguzgay liqo,
Bu fanolardin etishqay ul baqo.

Ko‘rdilar o‘zni qayonkim tushti ko‘z,
Alloh-Alloh, ne ajoyibdur bu so‘z.

Kim qilib Simurg‘ o‘ttuz qush havas
O‘zlarin ko‘rdilar ul si murg‘u bas.

Munda zohir bo‘ldi sirri «Man araf»
Kim ko‘rubtur gavhar o‘lmog‘lig‘ sadaf.

Ey ko‘ngul, bu nuktadur qushlar tili,
Ramzu imo mulkiga tushlar tili.

Garchi bu so‘zda ayondur ta’miya,
Kim riyozatdinki, topti tasfiya.

Chun riyozat raf’ etib ruhoniyat,
Salb bo‘lg‘och kimsadin nafsoniyat.

Qolmag‘ay ruhoniyatdin o‘zga hech,
Sen taxallufdin bu ma’ni ichra kech.

Bordur inson zotida oncha sharaf,
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.

Mazmuni: Ko‘p azob-uqubat chekkan o‘ttiz qushda «Simurg‘ jamolini ko‘rsatib, o‘ttuz qushni foniylikdan boqiylikka erishtirgay», degan xayol – tushuncha bor edi. Ammo, qushlar yetib kelgan manzilning qaysi tomoniga qaramasinlar faqat o‘zlarini ko‘rdilar.

Shunisi nihoyatda ajoyibki, o‘ttiz qush Simurg‘ni ko‘rishga havas qilardilar, ammo, ular o‘zlarini – o‘ttiz qush – Si murg‘ni ko‘rdilar, xolos. Xuddi shu vaqtda qushlar sadaf ichida durlarning hosil bo‘lishi sirlarini angladilar. Ey ko‘ngul, bu so‘zlar qushlarning ramzlarga to‘la tilidir. Bu so‘zlarda yashirin ma’nolar bor, ya’ni riyozat-azob-uqubat chekish poklanishga erishishdir. Chunki riyozat ma’naviyatni yuksaklikka ko‘taradi va insonni nafs balosidan qutqazadi. Shunda insonda ruhoniyat-ma’naviyatdan boshqa hech narsa qolmaydi. Sen bu holatni noto‘g‘ri tushunishdan voz kechgil. Inson zoti yomon axloqni o‘zidan ketgizsa, u eng sharaflidir.

Dostonda aytilmoqchi bo‘lgan asosiy mazmun bu baytlarda qush tili misolida, qushlar timsolida o‘z aksini topgan.

Insonning ma’naviy jihatdan poklanishi masalasi dostonda turli munosabat bilan Hudhud tilidan bayon qilingan o‘git – nasihatlarda, qushlarning savollariga bergan javoblarida, hikoya va masallarda ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan, sodiq bo‘lishga oid, (41-bob), mehnat qilmay, xor-zor kun kechirishni qoralovchi (47-bob), fireb va hiylagarlikning oxiri voyligi (50-bob), Mudbir va Muqbil (53-bob) , Shayx Najmiddin Kubroning so‘zi va itga tushgan ko‘zi (86-bob) haqidagi hikoyalar; Shayx San’onga oid ajoyib qissa (79-bob); parvona va sham (164-bob) haqidagi va boshqa masallar aytilganlarga guvoh bo‘la oladi. Shunisi ham borki, ayrim hikoya va masallar sayyor bo‘lib, undagi timsol va voqealar talqini asarning mavzui asosida amalga oshirilgan. Ana shunday hikoyalardan biri Mudbir va Muqbil haqidadir. Ma’lumki, bu hikoyadagi voqeaga o‘xshash holat Alisher Navoiy «Xamsa» sining «Hayrat ul-abror» va «Sab’ai sayyor» dostonlarida ham uchraydi. Jumladan, «Hayrat ul-abror»ning qanoat mavzusiga bag‘ishlangan yettinchi maqolotining oxirida «Qone’ javonmard va tome’ jahongard hamrohligi…» sarlavhasi bilan (35-bob) bir hikoyat keltirilgan. «Sab’ai sayyor»da esa oltinchi musofir tilidan Boxtar diyoridan bo‘lgan Muqbil va

Mudbirlarning sarguzashtlari (25-bob) ancha keng va qiziqarli hikoya qilingan. Bu dostonlarda mazkur hikoyalarning voqea va timsollari hayotiy-axloqiy yo‘nalishda talqin qilingan bo‘lsa, «Lison ut-tayr»dagi Muqbil va Mudbirga doir hikoyada voqea va timsollar dostonning asosiy mavzusidan kelib chiqilgan holda tasavvufiy – ma’naviy yo‘nalishda talqin qilingan. Hikoyada tasvirlanishicha, Muqbil va Mudbirlar birga sayohatga chiqdilar. Yo‘lda Mudbir o‘zining yaramas qilmishlari va so‘zlari bilan Muqbilning joniga tegadi. Ammo, u chidam bilan yo‘l yuradi va bir shaharga yetgach, bir-birlaridan ajralib, Muqbil faqirxonaga borsa, Mudbir bayt ul-lataf-ayshxonaga boradi. Muqbil faqirxonaga odob va e’tiqodining olijanobligidan hurmat-ehtiromga sazovor bo‘ladi. Mudbir esa ayshxonada birovni o‘ldiradi.

Shunda mamlakat podshohi faqirxonadagi Muqbilga mehrubonliklar ko‘rsatib, uni o‘ziga yaqinlashtiradi, odam o‘ldirgan Mudbirni esa qatl ettiradi.

Alisher Navoiy hikoyani shunday bayt bilan yakunlaydi:

Xudshikanga etti ul oliy maqom,
Xudnamo topti bu yanglig‘ intiqom.

Demak, xudshikanlik – faqir yo‘liga kirgan solikning xususiyatlaridan bo‘lib, unda Rasulullohning «al-faqru faxri» hadisi sharifi hayot va yashash mezoni sifatida qabul qilinadi. Ma’lumki, bu naqshbandiya suluki soliklari uchun xos xususiyat bo‘lib, Alisher Navoiy ham ana shuni nazarda tutadi va insonning komillikka erishuvida bu xususiyatning qanchalik zarurligini badiiy timsol (Muqbil) xatti-harakatlari vositasida bayon etadi.

Demak, sayyor sujet va timsollar har bir asarning xususiyatlaridan kelib chiqilgan holda qalamga olingan va talqin

qilingan. Bu esa Alisher Navoiy badiiy mahoratining rang-barang qirralarini namoyish ettiradi.

Xuddi shunday holni sayyor timsollardan boʻlmish Iskandar haqida «Lison ut-tayr»ning 77-bobida keltirilgan hikoyada ham kuzatish mumkin. Maʼlumki, Alisher Navoiyning koʻpgina asarlarida Iskandar timsoliga murojaat qilingan va hatto «Xamsa»ning bir dostoni- «Saddi Iskandariy»da uning Alisher Navoiy tasavvuridagi yaxlit timsoli yaratilgan. Ammo, «Lison ut-tayr»dagi hikoya voqealari va Iskandar timsolining talqini dostonning umumiy gʻoyasidan kelib chiqib amalga oshirilganidan u oʻziga xos va yangicha xususiyatlarni oʻzida mujassam etadi. Hikoyada keltirilishicha, podshoh Iskandarning oʻzi bir mamlakatga elchi sifatida borib:

Dedi elga: budur Iskandar soʻzi,
Turfa bukim erdi Iskandar oʻzi.
Elchilardek soʻz bayon aylar edi,
Oʻzi oʻz hukmin ayon aylar edi.

Shundan soʻng Alisher Navoiy quyidagi baytlarda oʻzining hikoyadan kuzatgan maqsadini ifoda etadi:

El ne bilsunlarki Iskandardur ul,
Yoʻqki qosid, hokimi kishvardur ul…

Xalqning mingdan biri bilmay bu hol,
Kim nedur bu parda naqshida xayol.

Sen dogʻi shahdin qilursen nukta goʻsh
Sogʻinursen lek noqildin Suroʻsh.

Shoirning maqsadi shuki, elchi Iskandar-podshoh Iskandarning oʻzi ekanligini taʼkidlash bilan Simurgʻga intilayotgan qushlarning oʻzlari Simurgʻ, yaʼni afsonaviy qush ekanliklarini uqtirishdan va shundan kelib chiqib, ularning (qushlarning) oʻzligini tanishi lozimligini bayon etishdan iboratdir. Bas shunday ekan, mazkur dostonda Iskandar (elchi-podshoh) timsoli ana shu aqidani badiiy timsol vositasida isbotlashdan iboratdir. (Shuni eslatish kerakki «elchi-shohning oʻzi» mavzusi «Saddi Iskandariy» dostonida ham «Elchi-Chin xoqonining oʻzi» tarzida foydalanilgan boʻlsa-da, undan kuzatilgan maqsad boshqadir).

Shunday qilib, «Lison ut-tayr» da keltirilgan turli xil hikoya, masal va qissalar ham dostonning yaxlit tarkibiy qismini tashkil etib, asosiy mavzuni har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

Shuni ham nazarda tutmoq kerakki, dostonning asosiy qahramonlari qushlar boʻlsa-da, ammo, hikoya va qissalarda tarixiy va badiiy toʻqima shaxs-insonlar tasvirlanadi. Qizigʻi shundaki, turli toifa va xususiyatga ega boʻlgan shaxs-insonlar faoliyati haqida qushlar hikoya qiladi, yaʼni qushlarga insonlardan oʻrnak va saboq olish kerakligi uqtirilganday boʻladi.

3.

«Lison ut-tayr» dostonining asosiy obrazlaridan biri – Hudhud. Hudhud kishilik jamiyatidagi pir, murShid, hodiy va rahnamo timsolidir. Shoir bu obrazda eng dono va sezgir, zukko va rahmdil mutafakkir shaxs fazilatlarini mujassamlashtirgan. Hudhud har bir qushning qalbini hol koʻzi bilan aniq-rav Shan koʻra oladi. Shu bois ularning har biriga oʻziga munosib muomala qiladi. Uning maʼnaviy qudrati, kuchi shunda koʻrinadiki, qushlar unga ishonadilar va oʻzlarini unga toʻliq topshiradilar.

Hudhud qushlarning avval boshdagi janjalini kuzatib turgan paytidayoq, ruhiy poklanishning yetti mashaqqatli vodiysini faqat o‘ttiz qushgina kesib o‘ta olishini idrok etadi va shu boisdan ham afsonaviy Shohning nomini «Simurg‘» deb ataydi. Bu xuddi insonlar jamiyatida pirning murid tanlashiga o‘xshaydi. Zakovatli ustoz – pir shogirdining nimaga qodir ekanligini, ilmning mashaqqatli yo‘lida qaysi manzilgacha yetib bora olishini avval boshdanoq biladi, ammo buni hech kimga bildirmaydi.

Alisher Navoiy juda go‘zal va yuksak fazilatlarga ega bo‘lgan Hudhud timsolida o‘z davri naqshbandiya tariqati yirik namoyandalarining tipik portretini – qiyofasini mohirona ifodalab beradi.

Dostonda Shayx San’on hikoyati alohida o‘rin tutadi. Alisher Navoiyning bu hikoyasi orqali shu narsa idrok etiladiki, ishq – bu insonning sevgilisi muhabbatini topish yo‘lida o‘zida bor bo‘lgan barcha qadrli narsalardan voz kechish va butunlay o‘zini mahv etishidir. Shu tufayli ham Navoiy tasvirlagan Shayx San’onning e’tiqodi din emas, balki ishqdir. Din esa oshiqning katta ishqni his etish yo‘lidagi tarbiya vositasidir.

Shayx San’on Sharq adabiyotida mashhur bo‘lgan obrazlardandir. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, u tarixiy Shaxs bo‘lib, XI-XII asrlarda yashab o‘tgan. Alisher Navoiy bu obrazni o‘zi mansub bo‘lgan tasavvufning naqshbandiya tariqati eng oliy maqomi – haqiqatga erishishi, «fanofilloh» darajasiga etishi uchun boshidan kechirishi lozim bo‘lgan barcha sinovlarga duch qiladi. Shayx bu imtihonlarni a’lo darajada o‘tadi. U tarso (xristian) qiz timsolidagi Oliy mahbub vasliga etish uchun o‘zining yaxshi nafslari – nafsi lavvomadan ham qutuladi, izzat nafsini ham mahv etadi. YOmon nafslar – nafsi ammoradan esa Shayx tarso qizga muhabbat qo‘ygunga qadar qutulgan va Shu bois ahli mo‘min hurmatiga sazovor bo‘lgan edi.

Alisher Navoiy bu hikoyada soliklar tarbiyasi masalasiga ham e’tiborini qaratadi. U pirni tarso qiz dargohida qoldirib, Ka’baga qaytib ketgan muridlarni malomat qiladi. Pirning bag‘oyat ixlosmand, xulqi kamolga etishgan muridi tilidan «pir nima bilan mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsa, siz ham shu narsa bilan mashg‘ul bo‘lmog‘ingiz lozim edi, pirga ixlos va sadoqatingizni yanada ko‘proq namoyon etmog‘ingiz lozim edi», deb aytadi.

Dostondan o‘rin olgan bu ajoyib hikoya bevosita Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy dunyoqarashi haqida tasavvur hosil qiladi. Shayx San’on obrazi esa Shoir butun epik va lirik ijodiyotida yaratgan komil insonlarning timsolini yana bittaga ko‘paytiradi.

Xo‘sh, Alisher Navoiy tasvirlagan Shayx San’on va uning sarguzashtlaridan kuzatilgan asosiy maqsad nimadan iborat?

Bu savolga shoirning qissada bayon etgan fikrlari asosida javob topmoq maqsadga muvofiqdir.

Alisher Navoiyning yozishicha, Shayx San’on «Ka’bada shayx ul-mashoyix», ya’ni Ka’badagi shayxlarning rahnamosi bo‘lib, «Ko‘ngli g‘ayb asroridan ogoh» bo‘lgan siymodir.

Shuning uchun:

Ostonining gadoyi shohlar,
Qullug‘iga muftaxir ogohlar.

Har duokim qilsa bir g‘amgin uchun,
Qo‘l ochib xayli malak omin uchun.

Shunday yuksak darajadagi siymoning keyingi sarguzashtlarini qanday izohlamoq lozim. Bu masala Alisher Navoiy tomonidan shu qissadan oldin keltirilgan «Qushlarning yo‘l kayfiyatin Hudhuddin savoli va oning javobi» sarlavhali 78-bobda va qissaning o‘zida izohlangan ko‘rinadi.

78-bobda Alisher Navoiy Hudhud tilidan shunday yozadi:

Kim bu yo‘lda ishqdur kulli sifat,
Ishq ahlidin yiroqdur maslahat.

Kimki oshiqdur anga jondin ne bok,
Kufr olib, bermak imondin ne bok.

Gar kerak oshiqqa o‘z jononidin,
Sahl erur chekmak jahonu jonidin.

Demak, haqiqiy ishq ahli, ya’ni «ko‘ngli g‘ayb asroridan ogoh» bo‘lganlar uchun «jonon»- Alloh taoloning istagi bilan yashash shartdir. Agar «jonon» oshiqdan jon fido qilishni istasa, oshiq «jahonu jonidin» voz kechmog‘i hech gap emas. «Jonon» - Alloh taolo esa o‘z oshiqining unga nisbatan bo‘lgan haqiqiy ishqda sodiqmi – sodiq emasmi ekanligini imtihon qilishning turli yillarini ishga soladi. Shayx San’on sarguzashtlari unga nisbatan qo‘llangan imtihonlardan biri edi. Shayx San’on esa bu imtihondan a’lo darajada o‘tdi: «jonon» ning barcha istaklarini azob-uqubatlarga giriftor bo‘lgan bo‘lsa-da, bajardi va oqibatda yana o‘zining holatiga qaytdi:

Ka’badin andoqki qildi azmi dayr,
Dayrdin ham Ka’bag‘a ko‘rguzdi sayr.

Tengriga arz etti uzri momazo,
To ani ham yorig‘a qo‘shti qazo.

Bunga asosiy sabab Shayx San’onning haqiqiy ishqga sodiqligi va uning barcha imtihonlaridan sharaf bilan o‘tganligidir. Chunki bu yo‘lda Shayx San’on «jonon» irodasiga bo‘ysunadi va uning

xohishlarini so‘zsiz bajaradi. Bunday bo‘lish esa «faqr ahli atvori» - faqirga taalluqlilarning sifatlari bo‘lib, unga amal qilmaslik «vafosizlik» bo‘lib, bu qoralanadi. Bu holni Shayx San’onni Rumda qoldirib kelgan muridlarga Shayx San’on safariga qatnashmagan va shayx safaridin so‘ng Ka’baga kelib, bu hodisani eshitgan Shayx San’onning sodiq muridi tomonidan shayxga nisbatan vafosizlik qilgan muridlarga qarata aytgan quyidagi so‘zlaridan ham anglash mumkin:

Shayxkim, pir erdiyu sizlar murid,
Borchag‘a irshodidin behbud umid.

Faqr aro sharti irodat keldi bu
Kimni qilsa murshidi farxundaxo‘,

Xaylu ashobi tashabbuh aylamak,
Tengriga lekin tavajjuh aylamak.

Gar taalluq bo‘lsa, gar tajrid anga
Har ne qilsa aylamak taqlid anga.

Siz vafosizlarga faqr atvori hayf,
Ahli taqvo xirqau dastori hayf.

Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» dostoniga o‘z davri real hayoti masalalarini, yaxshi va yomon xulqli zamondoshlari faoliyati, fe’latvorini tasvir etuvchi hikoyalarni ham kiritadi. Bu vosita bilan u o‘zi yashagan muhitning bir qator illatlarini o‘tkir satira va ajoyib yumor bilan tanqid qiladi. Yuqorida to‘xtalib o‘tilganidek, axmoq va befarosat bog‘bon, dangasa va xayolparast darvesh, la’lni eshakmunchoqdan farqlay olmaydigan soxta javharshunos, badnafs

va beqanoat polvon, choponiga oltin tangalarni tikib suvga g‘arq bo‘lgan ochko‘z va johil Shaxs timsollari vositasida Shoir feodal muhitining ayrim illatlarini fosh etadi.

«Lison ut-tayr» dagi ajoyib hikoyatlardan biri – Majnun ul-Haq haqidagi hikoyatdir. Bu hikoyat xalq latifasi asosida yaratilgan.

Majnun ul-Haq laqabli Alloh taologa do‘stlik da’vosida bo‘lgan bir kishi sahro sayohatiga chiqadi. Yo‘lda yomg‘ir yog‘adi va devona e Shagini sahroga qo‘yib yuborib, unga qarab turishni Xudodan iltimos qiladi va o‘zini panaga oladi. Ko‘zi uyquga ketgan devonaning ustidan chakka o‘tib uyg‘onadi. Sahroga chiqib, qorong‘uda eshagini topa olmaydi va uni yo‘qotib qo‘ygani uchun Xudodan arazlab, unga achchiq-achchiq ginakudurat to Shlarini otadi. Shu payt chaqmoq chaqadi va devona shu yaqinda o‘tlab yurgan eshagini ko‘radi. Uning kayfiyati birdan o‘zgaradi. Ahvolidagi qahru g‘azab o‘rnini pushaymonlik va sharmu hayo hissi qoplaydi. Endi u sodiq do‘sti bo‘lmish Xudoga dildorliklar qilib, uni bisotida bor bo‘lgan eng go‘zal so‘zlar bilan alqaydi. Shoir qalbi pok devona samimiyatini nihoyatda maroqli hikoya qilib beradi.

«Lison ut-tayr» dostoni turkiy tilda yozilgan bo‘lsa-da, unga Navoiy «Foniy» deb taxallus qo‘ygan. Dostonning «Bu kitobda taxallus tag‘yirining uzri» deb nomlangan bobida buning sababi bayon etiladi. Shoir, avvalo, doston tasavvuf va ilohiy ishq mavzuida bo‘lgani bois, so‘ng esa muallifning bu dostonni yozishdan maqsadi o‘zi ham o‘tkinchi dayrda navo tuzib, navosoz bo‘lib yurishni emas, xuddi o‘ttiz qush misoli o‘zligidan kechib, «foniy», «fanofilloh» bo‘lishni orzu qilganligini ifoda etishdan iborat edi. Bu mazmunda shoir shunday satrlarni keltiradi:

Bu raqamda Foniy aylarda laqab,
Mustali’ bo‘lg‘ong‘a ayturmen sabab,

Kim bu daftar nazmidin kulli murod,
Chunki marje’ mayli erdiyu maod,
Munda Foniy bo‘lmay ish o‘lmas tamom,
Foniy andin topti nazmim ixtimom.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning epik she’riyati misolida faqat o‘zbek adabiyoti tarixidagina emas, balki musulmon madaniyati yoyilgan Sharq adabiy-madaniy hayotida muhim hodisa bo‘lgan bu asar Shoir ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy qaraShlarini davom yettiradi va ma’lum darajada yakunlaydi. Bu asar o‘rta asr falsafiy-ijtimoiy fikrlari taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatganligi bois o‘zbek adabiyoti tarixining nodir yodgorliklaridan biri bo‘lib qoladi. Bu esa bejiz emas.

Shunday qilib, «Lison ut-tayr» dostoni ma’rifiy-tasavvufiy asar bo‘lib, unda Alisher Navoiyning umri oxirlaridagi falsafiy-ijtimoiy va axloqiy qarashlari ramziy timsollar hamda tarixiy va badiiy to‘qima obrazlar misolida gavdalantirilgan.

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy, bir tomondan, dostonlarning yaxlit turkumidan iborat bo‘lgan buyuk «Xamsa»ni va ikkinchi tomondan, alohida dostonning go‘zal namunasi bo‘lmish «Lison ut-tayr»ni yaratish bilan bu sohada sharq mumtoz adabiyotida mavjud bo‘lgan an’analardan ilhomlanib, turki-o‘zbek dostonchiligi tarixiga ulkan adabiy yodgorliklarni hadya etdi. Alisher Navoiyning dostonchilik sohasidagi faoliyati faqat o‘zbek adabiyoti tarixidagina emas, balki Sharq adabiy-madaniy hayotida ham muhim bir hodisa ekanligi ko‘pgina shoir va allomalar tomonidan e’tirof etilgan.

Shuning uchun sharqning ulkan shoir va adiblarigina (jumladan, Muhammad Fuzuliy) emas, balki G‘arbning mashhur yozuvchilari (jumladan, Xristofor Armeniy, Volter, Mark Tven) ham Alisher

Navoiy dostonlaridan ilhom oldilar, ulardagi sujetlardan foydalandilar.[52]

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» dostonining asosiy g‘oyasi nimadan iborat?
2. Shayx San’on nega tarso qizga bo‘lgan muhabbatini eldan pinhon tutmadi?
3. «Lison ut-tayr» nima sababdan ilmiy-ma’rifiy doston deyiladi?
4. Navoiy nima uchun “Lison ut-tayr”da aynan Foniy taxallusini qo‘llagan?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Valixo‘jayev B.N. O‘zbek adabiyoti tarixi. XV asr ikkinchi yarmi. Samarqand: SamDU, 2002.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. I kitob. - Toshkent: Ma’naviyat, 1996.
3. Qayumov A. Alisher Navoiy “Xamsa”si. Asarlar. T.1. K.2. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2008.
4. Qayumov A. Bu ohang ila bo‘lg‘aysen naqshband... - Toshkent: Davlat Adabiyot Muzeyi, 2001.
5. Qayumov A. “Saddi Iskandariy” sarlavhalari.//Navoiyning ijod olami. – Toshkent: Fan, 2001.
6. Quronbekov A. Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarida ramz va timsollar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Ғаниева С. Алишер Навоий. – Тошкент: Фан, 1968. – 148 б.
8. Hayitmetov. A. Alisher Navoiy ijodi jahon adabiyoti kontekstida// Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2001.

[52] Mufassal ma’lumot uchun qarang: Valixo‘jayev O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-qism. Samarqand: 2002.

13 – MAVZU: ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI

Dars rejasi :

13.1. “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida qiyosiy tilshunoslik masalalari

13.2. “Mezonul-avzon” - adabiyotshunoslikka doir asar.

13.3. “Majolisun-nafois” asarida davr adabiy muhiti va shaxsiyatlar talqini.

Tayanch so‘z va iboralar: *turkiy til mavqei, Hasson ibn Sobit, adabiyot va she’riyat, malik ul-kalom, muxtasar, siyosiy jarayon, tahlil, talqin.*

1.

«Muhokamat ul-lug‘atayn» - «Ikki til muhokamasi» deb nomlangan bu asar 905 hijriy yilning jumodiyul avval oyi- 1499-melodiy yilning dekabr oyi oxirlarida chorshanba kuni yozib tugatilgan:

Bu nomaki, yozdi qalamim tortib til,
Tarixin aning jumodiyul-avval bil.
Kunnung raqamini chorshanba qilg‘il,
To‘qqiz yuz yildin o‘tub erdi besh yil.

Asarda turkiy-o‘zbek va fors-tojik tillarini qiyosiy o‘rganish vositasida turkiy-o‘zbek tilining Sharqda mashhur bo‘lgan arab va fors-tojik tillari darajasidagi mavqeidan so‘z yuritiladi. Xususan, tillarning bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlari turli xildagi ko‘pgina misollar, jumladan, «yuz lafz» (yuzta so‘z) keltirilib, talqin qilish

bilan isbotlanadi. Bu ma’no Alisher Navoiyning quyidagicha yozganlarida ham o‘z ifodasini topgan:

«Turkiy va sort lug‘ati kayfiyati va haqiqati sharhida bu risolani jam’ qilib bitidim va anga «Muhokamat ul-lug‘atayn» ot qo‘ydum, to turk eli tili fasohatu diqqati va balog‘atu vus’ati… zohir qildim. Va xayolimg‘a mundoq kelurkim, turk ulusi fasihlariga ulug‘ haq sobit qildimki, o‘z alfoz va iboratlari haqiqati va o‘z til va lug‘atlari kayfiyatidin voqif bo‘ldilar».

Shuni eslatish joizki, Alisher Navoiy turkiy tilning fazilatlari haqida so‘z yuritganda o‘sha davrda mashhur bo‘lgan arab, fors-tojik va hind tillarini kamsitmaydi, aksincha, ularning har biriga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham ehtirom bilan bayon etadi.

Bundan kuzatilgan maqsad turkiy tilning fasohati va balog‘ati haqida ilmiy asoslangan mulohazalarni bayon etish bilan bir qatorda «turk nozimlari (shoirlari) o‘z alfozlari bilan she’rg‘a mashg‘ulluq qilg‘aylar va ko‘ngul g‘unchasi dog‘idinki, pechlar chirmanibdur, bahor nasimidek anfos bila guldek ochilg‘aylar». Demak, Alisher Navoiy turkiy tilning fasohati va lug‘aviy boyligini dalillar bilan isbotlash vositasida turkiy tildagi adabiyot - she’riyatning yanada ravnaq topishi lozimligini ham nazarda tutgan.

«Muhokamat ul-lug‘atayn» da faqat qiyosiy tilshunoslik masalalaridan so‘z yuritilgan emas, balki unda til tarixi, o‘zbek adabiyoti tarixi, she’riy janr va badiiy san’atlar, fors-tojik adabiyoti namoyandalari asarlari va o‘zi (Alisher Navoiy) ning ijodiga doir qimmatbaho mulohazalar ham mavjud.

Alisher Navoiyning qayd qilishicha, turkiy til va turkiy tildagi adabiyot tarixi o‘zaro chambarchas bog‘lidir. Shuning uchun asarda Hulokuxon, Amir Temur, Shohruh Mirzo hamda Sulton Husayn Boyqaro zamonlarida turkiy tilning rivojlangani tufayli turkiy she’riyatning Mavlono Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Amiriy, Yaqiniy, Gadoyi, Mavlono Lutfiy, Husayniy va

o‘zi (Alisher Navoiy) kabi zabardast siymolari maydonga kelganlarini alohida qoniqish bilan uqtirib o‘tadi. Shuning bilan birga bu jarayonning Sulton Husayn Boyqaro-Husayniy tomonidan qo‘llab-quvatlashi tufayli yanada rivojlangani ta’kidlanadi.

«Muhokamat ul-lug‘atayn» da she’riy janr (tuyuq), badiiy san’atlar (iyhom, tajnis, tarse’) haqida turkiy she’riyatdagi o‘ziga xos xususiyatlari jihatidan ma’lumot beriladi. Fikrning isboti uchun misolga murojaat qilaylik:

«She’rda barcha tab’ ahli qoshida ravshan va majmu’i fusaho ollida[1] mubarhandurki, tajnis va iyhom bag‘oyat kulliydir. Va bu farxunda iborot va xujasta alfoz va ishorotda forsiydin ko‘prak tajnisomez lafz va iyhomangez nukta borki, nazmga mujibi zebu ziynat va boisi takallufu san’atdur. Masalan: ot lafziki, bir ma’nosi alamdur[2], yana bir ma’nisi markabdur[3] va yana bir ma’nisi amrdurkim, toshni yo o‘qni ot, deb buyurg‘aylar. Bu tajnisda mundoq deyilibdurkim, bayt:

Chun pariyu hurdur oting, begim,
Sur’at ichra dev erur oting, begim.
Har xadangekim, ulus andin qochar,
Notavon jonim sari oting, begim.»

Eslatilganidek, «Muhokamat ul-lug‘atayn» da fors-tojik adabiyotining Xoqoniy, Anvariy, Firdavsiy, Nizomiy, Sa’diy, Xusrav

[1] Alisher Navoiyning MAT (20 tomlik, 16-tom)da keltirilgan «Muhokamat ul-lug‘atayn»matnida (o‘sha tom, 17-bet) bu ibora «majmo‘’, fusaho oldida» tarzida bosilgan. SHu asarning Anqara nashrida esa biz keltirgan tarzda to‘g‘ri bosilgan: Alisir Nevayi. Muhakemetul- lugatayn. Anqara, 1996, 17-bet.

[2] «Alam» so‘zi arab alifbosida «ayn» bilan yozilib, «belgili, ma’lum» ma’nosini beradi. Yuqorida keltirilgan matnda «kishining nomi-oti» ma’nosida ishlatilgan. Shuning uchun «alam»ni, «a’lam» tarizida yozish kerak. «Muhokamat ul-lug‘atayn»ning Anqara nashrida shunday-to‘g‘ri yozilgan. MATning 16-tomida keltirilgan «alam» (17-bet) arab alifbosida «alif» bilan («ayn» bilan emas) yozilib, «g‘am-g‘ussa» ma’nosini anglatadi. Alisher Navoiy esa bu o‘rinda bu ma’noni (g‘am-g‘ussa) emas, balki «a’lam» tarzida yozib, «kishining nomi-oti» ma’nosini nazarda tutgan..

[3] Markab- minadigan ulov: ot, eshak

Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Xojui Kirmoniy, Ashraf, Abdurahmon Jomiy kabi mashhur namoyandalarining asarlari, ularning turli janrlar sohasidagi xizmatlari muxtasar tarzda bo‘lsa-da, adabiyotshunos sifatida baholangan va xulosaviy fikrlar bayon etilgan. Jumladan, forsiy tilda qasida janrining mukammal namunalarini yaratgan Xoqoniy, Anvariy, Zahir, Salmonlar; masnaviy-doston sohasida «ustozi fan Firdavsiy va nodiri zamon Shayx Nizomiy» (16-tom, 35-bet); g‘azal janri sohasida muxtare’ Shayx Sa’diy va Hofiz Sheroziylar ekanliklari haqidagi xulosaviy fikrlar hozirgi adabiyotshunoslar tomonidan faqat e’tirof etilib qolmasdan, balki ular ilmiy jihatdan ham isbotlangan.

Bundan tashqari Alisher Navoiy arab she’riyatining zabardast namoyandalari haqida ham muxtasar, ammo, hozirgi kunda arab adabiyotshunoslari tomonidan ma’qullangan mulohazalarni bayon etadi. Jumladan: «To mulk arab xulafosi va salotinida erdi, falak ul vaqtda nazm dabiriga arab tili bila jilva berdi, andoqki, Hasson Sobitdek va Laxitdek malik ul-kalom suxanguzorlar va ma’niofarin fasohatshiorlar paydo bo‘ldilar va o‘z tillari bila nazm adosining dodini berdilar».

Alisher Navoiyning arab shoirlari haqidagi muxtasar, ammo haqqoniy mulohazalari XX asr arab adabiyotshunosi Hanna al-Foxuriyning «Arab adabiyoti tarixi» kitobida qo‘llab-quvvatlangan. Masalan, Hanna al-Foxuriy VII asrda faoliyat ko‘rsatgan Hasson ibn Sobit (vaf.-54 hijriy-674 melodiy yil) ijodining ahamiyati haqida so‘z yuritib, uni islom davri arab adabiyotida islomiy va siyosiy she’riyatning asoschisi ekanligini alohida uqtiradi.[1]

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy Hasson ibn Sobitni malik ul-kalom deb ta’riflagan bo‘lsa, Hanna al-Foxuriy uni islomiy va siyosiy she’riyatning asoschisi tarzida tavsiflaydi. Demak, Alisher Navoiy

[1] Hanna al-Faxuriy. Tarix al-adab al-arabi, 1953. Rus tilidagi tarjimasi: История арабской литературы. Т.1, Москва, ИИЛ, 1959, стр. 181-187

XV asrdayoq bu shoirning mavqeini o‘sha davr adabiyotshunosligi mezoni asosida «malik ul-kalom» iborasi bilan to‘g‘ri aniqlagan. Keltirilgan mulohazalar shundan guvohlik beradiki, Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug‘atayn» da o‘zini faqat tilshunos olim sifatida emas, balki arab, fors va turkiy adabiyot tarixining ham ulkan bilimdoni – olimi ekanini namoyish etgan.

«Muhokamat ul-lug‘atayn» ning adabiyotshunoslik sohasidagi ahamiyati yuqorida qayd qilingan fazilatlar bilan cheklanmaydi. Asarda Alisher Navoiyning turkiy va forsiy tillarda yaratgan asarlari, ularning yozilish sabab va tarixlari, ijodiy hamkorliklari haqida ma’lumotlar uchraydiki, ular ulkan shoirning ijodiy tarjimayi holini yaratishda qimmatbaho material bo‘lib xizmat qiladi. Bu jihatdan «Xazoyin ul-maoniy», «Tuhfat ul-afkor», «Xamsa» va boshqalar haqida yozganlari ardoqlidir.

Bundan tashqari «Muhokamat ul-lug‘atayn» ning adabiy ahamiyati yana shu bilan ham belgilanadiki, unda o‘sha davr nasri uchun xos uslub – saj’ san’ati (nasrda ohangdorlik va qofiya, radif unsurlari) mahorat bilan ishlatilgan hamda turli xil she’riy nav’lardan misol keltirish bilan ziynatlangan.

Misollar,

Saj’ san’ati:

«Takallum ahli xirmanining xo‘shachini va so‘z durri samini maxzanining amini va nazm gulistonining andalebi nag‘masaroyi, ya’ni Alisher al-mutaxallis bin Navoyi … mundoq arz qilurkim…»

Yana: «Umid ulkim, bu faqirni xayr duosi bila yod qilg‘aylar va ruhumni aning bila shod qilg‘aylar».

She’riy parchalar: Ruboiy:

Ey so‘z bila qilg‘on ofarinish og‘oz,
Insonni aroda aylag‘on mahrami roz.

Chun «kun fa yakun» safhasiga boʻldi tiroz,
Qilgʻon oni nutq ila boridin mumtoz.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lugʻatayn» ilmiy asari turkiy tilshunoslikning nodir yodgorligi boʻlib, unda turkiy tilning oʻziga xos xususiyatlari, uning buyuk ahamiyatga molik badiiy yodgorliklarni yaratishga qodirligi masalasi ilmiy asosda yoritilgan. Shuning bilan birga asarning mavzu doirasi keng boʻlib, unda umuman adabiyotshunoslikning turli xildagi muhim muammolari tilga olingan va oʻsha davrdagi nasrning oʻziga xos xususiyatlari oʻz ifodasini topgan.

2.

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida aruz vaznlaridan eng mukammal foydalangan shoirlardan biri Alisher Navoiydir. U oʻz badiiy ijodi misolida oʻrta asrlarda arab va fors-tojik adabiyotlarida ancha mukammal ishlangan va goʻzal lirik she'rlar, devonlar Shaklida ommalashgan aruz vazniga asoslangan she'riy san'atni turkiy til imkoniyatlari vositasida badiiylikning eng baland maqomiga koʻtardi va bu bilan aruz fanining yana bir til doirasidagi nazariy va amaliy taraqqiyotiga asos soldi. U oʻzining aruz nazariyasiga bagʻishlangan «Mezon ul-avzon» asarida bu ilm sohasidagi ma'lumotlarni yigʻib, tartibga solib, tushuntirib berish bilangina chegaralanib qolmadi. Uning bu risolani yozishdan maqsadi aruz fanidagi muammolarni ommalashtirish, ularni arab va fors-tojik adabiyotlari maydoniga olib kirishgina emas, «balki aruz muammolarining birmuncha yangi talqinini berish va aruzni boyitish»dan iborat edi53. «Mezon ul-avzon» asarining mazmuni va

[53] Alisher Navoiy. XV tomlik. T.12. – Toshkent: Adabiyot va san'at, – 1966.- 267-b.

shoirning butun poetik ijodi shundan guvohlik beradiki, bu vazifani yetuk qalam sohibi o‘z ulug‘ rutbasiga munosib bir tarzda amalga oshirdi.

Adabiyot nazariyasi, xususan, aruz ilmi aruz masalalariga bag‘ishlangan «Mezon ul-avzon» (vaznlar o‘lchovi) asari o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan ilmiy risoladir. To‘g‘ri, Alisher Navoiyning mazkur risolasi yaratilgunga qadar va uning zamonasida ham arab, fors-tojik hamda o‘zbek tillarida mazkur masalaga oid risolalar yozilgan edi. Jumladan, Halil ibn Ahmadning arab tilidagi «Kitob ul-ayn», Shamsiddin Qays Roziy «Al mo‘jam» ining bir qismi, Abdurahmon Jomiy, Sayfiy Buxoriylarning fors-tojik tilidagi «Aruz» risolalari, Shayx Ahmad Taroziy qalamiga mansub o‘zbek tilidagi «Funun al-balog‘a» asarining bir qismi va boshqalar.

Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon»i esa bu risolalardan o‘zining ko‘pgina fazilatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, risola faqat aruz ilmiga bag‘ishlanib, o‘zbek tilida yozilgan; ikkinchidan, aruz ilmi turkiy she’riyat asosida talqin qilingan; uchinchidan esa, Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi: «Chun ul Hazratning muborak xotirlari she’r buhuru avzonig‘a va nazm qavoidu mezonig‘a muncha moyil erdi aruz fanidan bu muxtasar sabt bo‘ldi va anga «Mezon ul avzon» ot qo‘yuldi va necha qoidau doira va vaznkim, hech aruzda, misli fan voze’i Xalil ibn Ahmad va ilm ustodi SHams Qays kutubida va Xoja Nasir To‘siyning «Me’yor ul ash’or» ida, balki Hazrati Maxdumiy navvara marqaduhi nuran «Aro‘z»larida yo‘q erdikim, bu faqir bu fan usulidin istixroj qilib erdikim, bu kitobg‘a izofa qildim».

Demak, Alisher Navoiyning e’tiroficha, asarda oldingi risolalarda tilga olinmagan masalalar yoritilgan. Darhaqiqat, «Mezon ul-avzon» da turkiy xalqlar she’riyati va ularning rasmiy aruzga

munosabati masalasi birinchi marta tilga olinib, nihoyatda katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlar bayon etilgan.

«Mezon ul-avzon» ning yozilgan yili asarda ko‘rsatilmagan. Shuning uchun bu masalaga oid taxminlar mavjud bo‘lib, shulardan biri asar XV asrning 90-yillarida (ya’ni 90-99-yillar orasida) yozilgan bo‘lsa kerak, degan fikrdir.

«Mezon ul-avzon» da arabiy, forsiy va turkiy tillardagi she’riyatda qo‘llanilgan hazaj, rajaz, ramal, munsareh, muzore’, muqtazab, sare’, jadid, qarib, xafif, mushokil, mutaqorib, mutadorik, vofir, komil, tavil, madid, basit kabi o‘n to‘qqizta bahr haqida o‘zbek tilidagi misollar asosida mulohaza yuritilgan.

Alisher Navoiy mazkur bahrlarning xususiyatlarini yoritish bilan bir qatorda ulardan qaysilari arab she’riyatiga xosligi, qaysilari Ajam va turkiy she’riyatda ko‘proq ishlatiladigani hamda zamondoshlari tomonidan qo‘shilgan yangi bahrlar haqida ham o‘z kuzatishlari natijalarini bayon etgan. Jumladan;

«Tavil va madid va basit bahri arab shuarosining maxsusidur... va Ajam shuarosi anga mashg‘ul bo‘lmaydurlar».

Shunday bo‘lsa-da, mazkur bahrlar haqida so‘z yuritganda shu bahrlarda o‘zbek tilida yozilgan misollarni ham keltirgan. Bu bilan, garchi ular kam ishlatilsa-da, ammo, o‘zbek tilida bu bahrlarda ham she’rlar yaratish mumkin, degan fikrni ifoda etadi. Bu misollar Alisher Navoiyning qalamiga mansub baytlar bo‘lsa kerak.

Yana, asarda zamondoshlari va Alisher Navoiyning aruz bahrlarini boyitish, yangi doiralarni tuzish sohasidagi xizmatlari ham alohida ta’kidlanadi.

Jumladan, Alisher Navoiy aruz bahrlari doiralari qatoriga o‘zi aniqlagan «Doirai mujtamia» ni qo‘shgani haqida kamtarlik bilan shunday yozadi:

«Bu mazkur bo‘lgan to‘qquz asl bahrning (sare’, jadid, qarib, munsareh, xafif, muzore’, muqtazab, mujtas, mushokil) solimini …

bir doirai azimada jam’ qilib, har birining o‘rnig‘a alohida misol kelturub, to‘qqiztasini yana bir misra’din ham istixroj qilib, ul «Doirai mujtamia» deyildi va bu doira rasmi zamon zurafosidin ba’zining xayolig‘a kelib erdi, ammo faqir anga tartib berdim va ul bu nav’ surat biladur» (surati keltirilgan: 16-tom, 56-57-betlar).

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» da o‘zi va zamondoshlari tomonidan o‘zbek aruziga kiritilgan yangi vaznlar haqida to‘xtalib, shunday yozadi:

«Chun doirag‘a kirgan buhurdin forig‘ bo‘luldi, yana bir necha vaznki, ba’zini Ajam shuarosi mutaaxxirlari aytibdurlar va ba’zi bu zamonda nazm topibdur va hech aruzg‘a doxil bo‘lmaydur, agarchi filhaqiqat aruz buhurig‘a doxildurlar, ishorate alar sori qilmoq xoli az munosibate ermas erdi. Ul jumladin, ramali maxbundurki, har misrai sakkiz rukndurki, bayti o‘n olti bo‘lg‘ay, Xoja Ismat Buxoriyda purbaho debdurlar, bu uslub biladur:

> Qomatu zulfu ko‘zu qoshu uzoru xat ila xoli labingdurki,
> alarcha emas, ey sho‘xi sitamgar,
> Failotun failotun failotun failotun failotun failotun
> failotun failotun
> Sarv ila sunbul nargis yangi oyu quyoshu sabzai jannat
> girehi nofau gulbarg aro shakkar.
> Failotun failotun failotun failotun failotun failotun
> failotun failotun».

Ikkinchi misol:

«Ajam shuarosining mutaaxxirlaridan ba’zi maqbuzi aslam binosini o‘n olti rukng‘a qo‘yub, nazm aytibdurlar, bu nav’kim, bayt:

Yuzung xayolida zor bo‘ldum, beling g‘amidin nizor bo‘ldum,

Dedim bu shiddatda nola chekmay, netayki beixtiyor boʻldum.

Faulu faʼlun faulu faʼlun, faulu faʼlun faulu faʼlun

(Faulu faʼlun faulu faʼlun, faulu faʼlun faulu faʼloʻn)

Shuni eslatish joizki, bu misolning muallifi aniq aytilmagan; ikkinchidan, nashrda faqat sakkiz rukn keltirilgan, biz qavsda yana sakkiztasini qoʻshdik; uchinchidan esa Alisher Navoiy misolni «bayt» deb nomlagan boʻlsa-da, nashrda u bir bayt sifatida emas, balki ikki bayt sifatida keltirilgan. Bu esa Alisher Navoiy aytmoqchi boʻlgan fikrni tushinishga xalaqit beradi.

«Mezon ul-avzon» da Alisher Navoiy «turk ulusi, bataxsis chigʻatoy xalqi aro shoeʼ avzondurkim, alar surudlarni ul vazn bila yasab, majlisda ayturlar», deb «tuyugʻ, qoʻshuq, chinga, muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy, turkiy» kabi surudlarni tilga olgan, ularning mavzu, vazn va tili haqida diqqatga sazovor mulohazalarni bayon qilgan, har biridan misol keltirib, aruziy bahrlarning vaznlari ruknlarini ham qayd qilgan. Asarning mazkur bobi turkiy aruz tarixini oʻrganishdagina emas, balki xalq qoʻshiqlari va mumtoz yozma sheʼriyat orasidagi oʻzaro taʼsirni aniqlashda ham katta ahamiyatga ega. Fikrning isboti uchun faqat bitta surud-chinga haqida yozilganlarni keltirish maqsadga muvofiq koʻrinadi:

«Yana «chinga» durkim, turk ulusi zufof va qiz koʻchurur toʻylarida ani ayturlar. Ul surudedur bagʻoyat muassir. Va ikki navʼdur: bir navʼi hech vazn bila rost kelmas va bir navʼida bir bayt aytilurkim, munsarehi matviyi mavquf bahridur va «yor-yor» lafzini radif oʻrnigʻa mazkur qilurlar, andoqkim, bayt:

Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor,
Kim damidin tushti oʻt jonim aro, yor-yor

Shunday qilib, «Mezon ul-avzon» Sharq poetikasining tarkibiy qismi bo‘lgan aruz ilmini turkiy-o‘zbek she’riyati qonun-qoidalari asosida o‘zbek tilida yoritgan hamda bu masalaga doir ko‘pgina ilmiy muammolarni hal qilgan asardir. Bu ish esa keyinchalik Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan «Aruz risolasi» da rivojlantirildi.

Arab alifbosining turkiy til ehtiyojlariga to‘liq javob bera olmasligi va bu til imkoniyatlarini ancha chegaralab qo‘yishi, aruzda bitilgan nazmiy asarlarda biror harfning notabiiy cho‘zilishi bilan bog‘liq nuqsonlar yuz berishi xususida Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrida muxtasar ma’lumot bergan edi. Ma’lumki, vazn she’riy misralarda ko‘p noaniqliklarni ravshanlashtiradi. So‘z tarkibi, talaffuzi, shakl va bo‘g‘inlari, majoziy ma’no, ko‘p ohanglilik kabi unsurlar vazn talablaridan kelib chiqadi. Agar matnda ba’zi anglashilmovchiliklar ko‘zga tashlansa, uni vazn talablari nuqtayi nazaridan tekshirib aniqlik kiritish mumkin. Ana shu nuqtayi nazarlardan kuzatishlarimiz natijasida «Xazoyin ul-maoniy» devonlaridan ilgari tartib berilgan ikki devondagi ba’zi baytlarning yangi devonga boshqa shakl va mazmun bilan kiritilganligining guvohi bo‘ldik. Masalan, «Badoe’ ul-bidoya» devonidagi 114-g‘azalning ikkinchi bayti fikrimizga dalil bo‘la oladi. G‘azal:

Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod,
Bulbul kibi hajringda ishim nolavu faryod.

matlai bilan boshlanadi. Bu matlani Navoiy namunaviy misol tariqasida «Mezon ul-avzon»ning hazaj bahriga taalluqli bo‘limiga ham kiritgan. G‘azalning ikkinchi bayti «Badoe’ ul-bidoya»da quyi-dagichadir:

Ko‘zlaringga sayd o‘ldi ko‘ngul, vah, qutulurmu,
Bir qushki, aning ko‘yida bo‘lg‘ay iki sayyod.

G‘azal «Navodir un-nihoya» ga kiritilmagan, «G‘aroyib us-sig‘ar» ga esa ikkinchi baytining quyidagicha ko‘rinishi bilan joylashtirilgan:

Sayd o‘ldi ko‘ngul ko‘zlaringga, vah, qutulurmu,
Bir qushki, aning ko‘yida bo‘lg‘ay iki sayyod.

G‘azal aruzning hazaji musammani axrabi makfufi maqsur bahrida yozilgan bo‘lib, o‘zgarishga uchragan baytlarning taqtilarini solishtirib ko‘raylik. Baytning «Badoe’ ul-bidoya» ko‘rinishidagi taqtii:

Ko‘z la: ri/maf’ulu/ na say do‘l di /mafo‘iylu/ ko‘ nul vah qu /mafo‘iylu/ tu lur mu /mafo‘iyl/

Bir qush ki /maf’ulu/ anin ko‘: yi /mafo‘iylu/ da bo‘l g‘ayi /mafo‘iylu/ ki say yod /mafo‘iyl/.

«G‘aroyib us-sig‘ar» da o‘zgartirib berilgan misra’ning taqtii:

Say do‘l di /maf’ulu/ ko‘ nul ko‘zla /mafo‘iylu/ ri na vah qu /mafo‘iylu/ tu lur mu /mafo‘iyl/.

Ko‘rinib turganidek, bayt musamman bo‘lib
(sadr hashv hashv aruz
ibtido‘ hashv hashv zarb),

baytning sadr va ikki hashvida o‘zgarish uchraydi. Aruz ilmidan xabardor o‘quvchiga ma’lumki, bayt ruknlarga bo‘linib, ruknlar qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarning turli birikmalaridan tashkil topadi va buning natijasida bahr vujudga keladi. Sabab, vatad, fosila deb ataluvchi turli hijolardan tashkil topgan juzv yoki ruknlar o‘z qat’iy qonuniyatlariga ega bo‘lib, ulardagi ahamiyatsiz ko‘ringan kamchilik ham vaznning buzilishiga yoki ohangning notekisligiga sabab bo‘ladi. Demak, bayt xoh arabiy, xoh forsiy, xoh turkiy bo‘lsin,

aruzning «afoiyl» va «tafoiyl»lari[54] talablariga rioya qilinishi zarur. Biroq, biz shu o‘rinda mazkur qonuniyatlar arab tilining leksik-semantik va orfoepik xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil topganligini unutmasligimiz lozim. Ana shu jihatdan ham turkiy tilda g‘azal yozish shoirdan ikki hissa ko‘proq mahoratni talab qiladi. Nazarda tutayotgan baytimizning «Ko‘zlaringga sayd o‘ldi» birikmasida وكز - sababi xafiyf, (aruz vaznining eng kichik ko‘rsatkichi sifatida harf va harakatlar tushuniladi. Unli va undosh harflar, fatha, kasra va zamma harakatlaridan tashkil topgan bo‘laklar juzvlar deyiladi. Ular sabab (arabcha: bois, bog‘lov, arqon), vatad (arab.: qoziq) va fasila (arab.: oraliq, ajralish) bo‘lib, har biri o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi: sababi xafiyf, sababi saqiyl, vatadi majmu’, vatadi mafruq, fasilai sug‘ro, fasilai kubro. Aruzning bu tarkibiy qismlari haqida «Mezon ul-avzon» va «Muxtasar»da sodda va tushunarli ma’lumotlar berilgan. Arab va ba’zi fors-tojik aruz shunoslari asarlarida bu sohada ba’zi bahs-munozarali fikrlar ham mavjud bo‘lib, masalan, ularning bir necha turi - sababi mutavosit, vatadi mujtami’, vatadi xafiyf, fasilai axaf, fasilai vasati, fasilai xafiyf, fasilai uzma’ va b. haqida ham ma’lumotlar bor. Hatto, XVI asr mashhur aruzshunosi Sayfi Buxoroyi ham, masalan, fasilaning asosiy juzv bo‘lmay, balki sabab va vatadlarning turli birikmalaridan hosil bo‘lishi haqida o‘zidan avvalgi fors-tojik mualliflari fikrlariga qo‘shiladi. لىر…- vatadi majmu’ bo‘lib kelyapti. Aslida qisqa bo‘g‘in bo‘lishi kerak bo‘lgan - «la» vazn talabi bilan cho‘ziq bo‘g‘in bo‘lib kelishga mahkum. Chunki, aruzda prosodik urg‘u har doim vatadga tushadi, shu sababdan ham vatad bo‘linmaydi. Ma’lumki, nutqda pauzalar yoki sintagmalarda hyech qachon so‘zlar bo‘linmaydi. Prosodik pauzalar esa albatta so‘zlarni bo‘lib keladi. Bundan tashqari, bir so‘z yonidagi so‘zning ham bir qismini olishi mumkin. Masalan: /ko‘z/ lo: ri / na say / do‘l di / yoki / ko‘ nul / vah qu / tu lur mu / kabi

[54] Alisher Navoiy. XV tomlik. T.22. – Toshkent: Adabiyot va san’at – 1966. 139-b

va h.k. Bu esa ruknning tahlilida turkiy til xususiyatlari nuqtayi nazaridan so‘z ohangida notabiiylik hosil qiladi. G‘azal matnining ikkinchi variantida birikmadagi arabcha «sayd» so‘zi misraning boshiga qo‘yilib, sadrning - دیصد یدلوا ko‘rinishiga erishilgan. Ya’ni bu birikmada یصد…- sabab, یدلواد…- vatad bo‘lib, biror hijo zo‘raki cho‘zilmaydi. Bunda tabiiyki, arab alfaviti bilan kirill yozuvi o‘rtasidagi, arab va turkiy tillar o‘rtasidagi tafovutni ham unutmaslik lozim, albatta.

Hashvlarda ko‘zda tutilayotgan so‘z birikmasining sabab va vatad munosabatlari o‘zgarmagan. Umuman, baytda aruzning nazariy talablaridan birortasiga ham putur yetmagan, ammo, bu yerda she’rshunos o‘quvchi nozik tabini qoniqtirmagan narsa turkiy so‘zdagi bitta hijoning notabiiy cho‘zilishi natijasida paydo bo‘lgan ohangdagi notekislikdir. Bu bir qarashda «aruz buzilganmikin», degan fikrga ham olib keladi. Baytning keyingi ko‘rinishi nihoyatda ravon va xushohangdir.

Aruz taraqqiyotida yangicha qarashlarni ilgari surgan Navoiy bu fanning keyingi davr turkiy xalqlar adabiyotshunosligida chuqur o‘rganilishi uchun zamin yaratdi. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida aruzi turkiyning samarali o‘rganilishi va aruz ilmida yana yangi nuqtayi nazarlarning kashf etilishi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bobur o‘zining «Muxtasar fil aruz» asarida aruz vaznining 21 bahri, axram va axrab turkumidagi ruboiylar, doira va uning turlari, 500 dan ortiq rukn shoxobchalarini aniqladi. Bobur Navoiyning ruboiy vaznlari tahlili bobida 4 ta xatolik borligini ham aniqlaydi. Biroq, bu adabiyotshunos olimlar fikrlariga ko‘ra, kotiblar e’tiborsizligi tufayli sodir bo‘lgan bo‘lib, «Mezon ul-avzon» ning ilmiy qimmati va ahamiyatiga aslo putur yetkazmaydi. Bobur Navoiy tomonidan kashf etilgan 2 doira (doirai mujtamia va doirai muxtalifa) ga qo‘shimcha tarzda yana 2 doira (doirai mujtalibai muzoxafa va

mujtalibai muxtaraa) ni ixtiro qiladi va vaznlar tarkibiga ham ikki qo‘shimcha vazn (ariz va amiyq) ni kiritadi.

Bobur o‘z ilmiy tadqiqotlari bilan XV asr adabiyotshunosligida bo‘lgan aruz haqidagi bahsu munozaralarga to‘liq yakun yasadi, ijodiy kuzatishlari natijasida aruz ilmini yanada yuqori bosqichga ko‘tardi.

«Muxtasar» o‘zigacha fors-tojik adabiyotida bo‘lgan va «Mezon ul-avzon» dagi aruz nazariyasiga oid qarashlarni ijodiy jihatdan umumlashtirganligi va buning natijasida aruz nazariyasi hududlarini kengaytirganligi bois keyingi davrda eng ishonchli nazariy qo‘llanma hamda manba bo‘lib qoldi.

Aruz nazariyasining keyingi ilmiy o‘rganilishi Abdulrauf Fitrat, Izzat Sulton, Sodiq Mirzayev, Alibek Rustamov, Ummat To‘ychiyev, Anvar Hojiahmedov va A.Abdurahmonov kabi olimlar faoliyati bilan bog‘liqdir. O‘zbek aruzining Navoiy va Boburdan keyingi rivoji A.Fitratning «Adabiyot qoidalari», «Aruz haqida», (Toshkent, 1936), I.Sultonning «Adabiyot nazariyasi» (1939), N. Shukurovning «Adabiyotshunoslikka kirish», A.Rustamovning «Aruz haqida suhbatlar» (1972), «Navoiyning badiiy mahorati» (1979), U.Tuychi-evning «Aruzshunoslikka doir» (1973), A.Abdurahmonovning «Aruz nazariyasi» kabi asarlarining dunyoga kelishi bilan bog‘liq. I.Sultonov tomonidan «Mezon ul-avzon» ning (1949), Saidbek Hasanov tomonidan esa «Muxtasar» ning (1971) tanqidiy matnlari tayyorlanib, nashr yettirilishi, mashhur sharqshunos olim Sodiq Mirzayevning Navoiy aruziga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi bu sohada qo‘lga kiritilgan eng katta muvaffaqiyatlardan biridir.

Adabiyotshunoslikda asarlar matnlarini qiyosiy o‘rganish, ularda ko‘zga tashlangan turli mazmundagi o‘zgarishlarni tekshirish bu fanning ma’lum sohalarida qandaydir yangiliklar kiritilishiga, muammoviy masalalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bugungi

kunda aruz ilmining keyingi rivoji va ommalashuvi masalasi davrimiz adabiyotshunosligining dolzarb nuqtalaridan biridir. Navoiy asarlari vaznlari va u bilan bog‘liq ko‘pgina muammolar, jumladan, shoir g‘azaliyotida vazn nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan tahrirlarni jiddiy o‘rganish bu sohada ma’lum darajada ijobiy siljishga olib kelishi mumkin. Tojik olimi R. Musulmonqulov o‘zining «Персидская-таджикская классическая поэтика X-XV вв» nomli kitobida shunday yozadi: «Анализ наблюдений средневековых авторов по поводу нарушений отдельными поэтами некоторых канонов аруза помог бы выяснить вопрос о происхождении и развитии таджикско-персидского аруза».

Turkiy tilli xalqlar ijodiyotida aruz juda uzoq tarixga ega bo‘lsada, uni adabiyotshunoslik fani talablari nuqtayi nazaridan nazariy jihatdan o‘rgangan va ommalashtirgan shaxs Navoiy edi. Aruzning amaliy taraqqiyotini ta’minlashda shoirning «Xazoyin ul-maoniy» devonlarini tuzish davridagi ijodiy mehnati boshqa juda ko‘p omillar qatorida o‘ziga xos bir bosqich bo‘ldi.

3.

«Majolis un-nafois». «Nafosat ahlining majlislari» deb atalgan bu mashhur asarning birinchi tahriri 1491-melodiy yilda yaratilib, shundan so‘ng u yanada to‘ldiriladi va 1498-melodiy yilda uning ikkinchi-to‘ldirilgan nusxasi maydonga keladi. Asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzgan olima Suyima G‘aniyevaning ta’kidlashicha, birinchi tahrirda asar tarkibiga 350 ta shoir kiritilgan bo‘lsa, ikkinchi tahrirda 459 ta shoir va she’riyatga daxldor siymolarning zikri keltirilgan.

«Majolis un-nafois» ning kirish qismida uqtirilganidek, unda Sulton Husayn Boyqaro tavalludidan (1438y) to kitob yaratilgan davr oralig‘ida faoliyat ko‘rsatgan she’r va she’riyatga aloqador siymolar,

ya’ni asosan Alisher Navoiyga zamondosh bo‘lganlarning zikri keltirilgan.

Ma’lumki, Alisher Navoiyga qadar va uning zamonasida ham arab va fors-tojik tilida shoirlarga bag‘ishlangan ko‘pgina tazkiralar yaratilgan edi. Masalan, Saolibiyning «Yatimat ud-dahr», Davlatshohning «Tazkirat ush-shuaro» va boshqalar. Shunday ekan, Alisher Navoiy yaratgan tazkira boshqalardan farq qiladi-mi, agar farq qilsa, ular nimalardan iborat? -degan savolning paydo bo‘lishi tabiiydir. Bu savolga quyidagicha javob qaytarsa bo‘lar:

1. Alisher Navoiygacha bo‘lgan tazkiralarning hammasi arab yoki fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, ularda asosan arab she’riyati yoki fors-tojik she’riyati namoyandalari haqida ma’lumot berilgan.

Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» i esa turkiy-o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, unda XV asrdagi zullisonayn adabiy muhitning xususiyatiga ko‘ra ham turkiy-o‘zbek va ham forsiy-tojik tilida ijod qilgan shoirlar qamrab olingan.Asarda shoirlarga daxldor ma’lumotlar o‘zbek tilida bo‘lib, ularning asarlari qaysi tilda (turkiy, forsiy) yozilgan bo‘lsa, aynan keltirilgan.

Shu jihatdan «Majolis un-nafois» tazkirasi XV asrdagi turkiy-o‘zbek she’riyati va forsiy-tojik she’riyati haqida ma’lumot beruvchi muhim manbadir. Shundan kelib chiqib, bu asar XVI-XVIII asrlar davomida to‘rt marta Faxriy Hirotiy, Muhammad Qazviniy, Shoh Ali, Abulboqi Sharif Razaviylar tomonidan fors-tojik tiliga tarjima qilingan edi.

2. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» ida shoirlarni joylashtirish, ularga doir ma’lumotlar berish, asarlaridan namuna keltirish va ularga baho berish mezoni boshqa tazkiradagilardan farq qiladi. Jumladan, Alisher Navoiy asarning birinchi, ikkinchi va uchinchi majlislarida shoirlarni ko‘rgani-ko‘rmagani, muloqotda bo‘lgani va bo‘lmagani nuqtayi nazaridan joylashtiradi; ikkinchidan, shoirlar asarlaridan eng yaxshi namuna sifatida bir yoki ikki baytni

keltiradi; shoirlar bilan muloqotda bo‘lgan bo‘lsa, o‘zining unga bo‘lgan shaxsiy yoki ijodiy munosabatini ham uqtirib o‘tadi; shoirlar haqidagi ma’lumotlar esa haqqoniy va xolisonaligi bilan ajralib turadi.

3. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»ida Sharq adabiyotshunosligidagi ikki an’ana ko‘rinadi: biri-tazkirachilik, ikkinchisi biror-bir shoir she’rlariga sharh yozish.

Ma’lumki, biror-bir shoir she’rlariga sharh yozish arab va fors-tojik adabiyotshunosligida ancha tajribalarga ega. Jumladan, Hofiz, Rumiy asarlariga yozilgan sharhlar. Ammo, bu tajriba turkiy-o‘zbek tilidagi adabiyotshunoslikda Alisher Navoiygacha bo‘lgan davrda ko‘zga tashlanmaydi.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotshunoslikdagi bu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida «Majolis un-nafois» tazkirasining sakkizinchi majlisida Husayn Boyqaro she’riyatiga yozgan sharhini joylashtiradi. Shuning natijasida «Majolis un-nafois» da ham tazkirachilik an’anasi va ham sharh yozish an’anasi mujassam bo‘lib, «Majolis un-nafois»ning boshqa tazkiralardan farq qiluvchi xususiyatini ham maydonga keltiradi. Shuning bilan bir qatorda Alisher Navoiy turkiy-o‘zbek adabiyotshunosligida shoirlar she’rlariga sharh yozish an’anasini boshlab beradi. Alisher Navoiy bu an’anani Shoh G‘arib Mirzo devoniga sharh yozish bilan davom ettirish niyatida edi, ammo bu niyat amalga oshmagan ko‘rinadi.

4.Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» da birinchi marta Amir Temur va temuriyzoda shoirlar haqida tizimli ma’lumot va asarlaridan namunalarni keltiradi. Bu nihoyatda muhim va nodir ma’lumotlardir.

Demak, Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois»i o‘zining bu va boshqa xususiyatlari bilan bundan oldin yaratilgan tazkiralardan farq qiladi hamda tazkirachilik an’anasida, xususan Movarounnahr, Xuroson, Ozarbayjon hududlarida XVI-XIX asrlar davomida

yaratilgan tazkiralarda zamondoshlarga bag‘ishlanganlik an’anasining ustivor bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois»i kirish, sakkiz majlis va xilvatdan iborat.

«Kirish» qismida asarning yozilish sabablari bayon etilgan.

«Majolis un-nafois» dagi majlislarni uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga- birinchi, ikkinchi va uchinchi majlislar mansub. Ularda shoirlar Alisher Navoiyning o‘sha mualliflar bilan uchrashgan-uchrashmaganligi mezoni asosida joylashtirilib, 311 shoirning zikri keltirilgan. Ikkinchi guruhga-to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi majlislarni kiritish mumkin. Bularga she’riyatga daxldor shaxslar – fozillar, Mirzodalar hamda Xurosondan tashqari hududlarda yashovchi 125ta fozil va donishmand kishilar kiritilgan. Uchinchi guruhga-yettinchi va sakkizinchi majlislarni kiritish mumkin. Bu majlislarda she’r va she’riyatga daxldor Amir Temur va temuriyzodalar (23 kishi) zikri berilgan.

«Majolis un-nafois» ning birinchi majlisi Amir Qosim Anvor zikri bilan boshlanib, uning sakkizinchi bobi Husayn Boyqaro zikri bilan nihoyasiga etadi. «Xilvat» bo‘limida esa Husayn Boyqaroning nozik she’rshunosligidan dalolat beruvchi hayotiy hikoyatlar keltiriladi va asar yakunlanadi.

«Majolis un-nafois» da Alisher Navoiy tarjimayi holi, ustoz va zamondosh shoirlar bilan uchrashuvlari, jumladan, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiy, Fazlulloh Abulaysiy, Mirzobek, Sayfiy Buxoriy, Shayximbek Suhayliy va boshqalar haqida nihoyatda qimmatli ma’lumotlar bor.

«Majolis un-nafois» XV asrdagi ko‘pqirrali adabiy muhitning nihoyatda yoriq ko‘zgusi bo‘lganidan undan adabiy muhit tarkibi, xususiyatlari (zullisonaynlik, janriy rang-baranglik), undagi adabiy yo‘nalishlar (yuksak mazmunli badiiy yodgorliklar yaratish va shaklbozlik), har bir shoirning o‘ziga xos fazilatlari haqida nodir

ma’lumotlar joy olgan. Biroq Navoiy tazkiraga kirgan hamma shoirlar haqida ham to‘liq ma’lumot keltirmaydi, an’anaga ko‘ra, XV asr kitobxoni uchun buning qiziqarli jihati ham yo‘q edi. U ko‘p shoirlar haqida qiziqarli biror epizodni yoki detalni bayon qilish bilan kifoyalanadi.[55]

«Majolis un-nafois» turkiy adabiyotshunoslikning nodir ilmiy yodgorligi bo‘lishi bilan bir qatorda o‘sha davr nasri uchun xos bo‘lgan badiiylik xususiyatlari (saj’, she’riy parchalar) bilan ziynatlangan asardir.

Asarning muhim ilmiy-tarixiy aniqlik nuqtayi nazaridan biografik qimmati ham bor. Ulug‘ shoir barcha ma’lumotlarning aniq bo‘lishiga intiladi, ayrim ma’lumotlarning taxminiy ekanini yoki qat’iy aniq emas ekanligini qayd etib o‘tadi.

“Majolis un-nafois” XV asr Xuroson va Movarounnahr adabiy hayotining muhim bir hujjatidir, deya qayd etadi N. Mallayev o‘z darsligida. Bu asar o‘z davridagi adabiy hayotni ma’lum darajada yoritib berish bilan birga, so‘z san’atining taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Adabiyot ahlini va kitobxonlarni ko‘p yozuvchi va shoirlarning ijodiy faoliyati, ularning yutuqlari va kamchiliklari bilan tanishtirdi. Asar keyingi davrlarda mashhur Temuriylar tamadduni davri adabiyoti va adabiy-tanqidiy qarashlarining bir yodgorligi bo‘lib qoldi va tazkirachilik taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatdi.

«Majolis un-nafois» ning ilmiy tanqidiy matni arab alifbosida Suyima G‘aniyeva tomonidan nashr ettirildi - (Toshkent: Fan, 1961). Uning to‘liq matni MATning 13-tomida - (Toshkent: Fan, 1997) nashr etildi.

Alisher Navoiy nasriy merosining bu nodir yodgorligi janr va mavzu doirasining rang-barangligi, turkiy-o‘zbek nasrining nodir va

[55] Bu haqda batafsil ma’lumot olish uchun qarang: N.M. Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. XVII asrgacha. – Toshkent:– 1976.- 536-546-b.

bebaho namunasi bo‘lgani bilan ahamiyatlidir. Bu asar misolida Alisher Navoiy o‘z ijodiy-ilmiy merosi ko‘lamining naqadar keng ekanligini yana bir karra namoyish etib, o‘zbek adabiyotini yangi taraqqayot pog‘onasiga olib chiqdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. XV asr adabiyotshunosligida bo‘lgan aruz haqida ma’lumot bering
2. Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» ida Sharq adabiyotshunosligining an’anaviy ahamiyati nimada?
3. Aruz nazariyasining keyingi ilmiy o‘rganilishidagi olimlar haqida ayting?
4. Alisher Navoiyga qadar va uning zamonasida ham arab va fors-tojik tilida shoirlarga bag‘ishlangan ko‘pgina tazkiralarning mazmun va ahmiyati haqida bilasizmi?

Zaruriy adabiyotlar:

5. Abdullayev V. О поэте Нишоти и его поэме «Хусну Дил». Труды тадж. уч.инст.им.С.Айни, т. III, 1955.
6. Abdullayev V. Xorazmdagi XVIII asr o‘zbek adabiyotida mafkuraviy kurash. O‘zDU ilmiy asarlari, №63, 1956.
7. Abdullayev V. Alisher Navoiy traditsiyalarining Xorazm shoirlari tomonidan davom ettirilishi. //« Sharq yulduzi», 1959, №4.
8. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. II jildlik, II jild.- Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002.
9. O‘zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: O‘zadabiy nashr, 1964.

14 – MAVZU: ALISHER NAVOIYNING DINIY-TASAVVUFIY ASARLARI

Dars rejasi:

14.1. “Nasoyimul-muhabbat” – diniy-tasavvufiy nasr namunasi.
14.2. Yodnoma-asarlar – Holotlarda ma’rifiy talqin.
14.3. Tarixiy asarlar – ma’rifiy-xronologik nasr namunasi.
14.4. “Mahbub ul-qulub” – axloqiy-ma’rifiy nasr namunasi.

Tayanch so‘z va iboralar: *hamd-u nat’, Darvesh Hoji Irqbadan, Husayn Boyqaro, Shayxim Suhayliy, Mavlono Abdussamad, Xoja Hasan Dehlaviy, ma’rifat, fano, ilm.*

1.

“Nasoyim ul-muhabbat” asarining to‘liq nomini Alisher Navoiy shunday keltiradi: «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat», ya’ni «Muhabbat shabadalari va do‘stlikning xushbuy hidlari».[56]

Mazkur kitobning yozilish tarixi 901 hijriy – 1496-melodiy yildir. Alisher Navoiy shu asarning kirish qismida uning yozilish sababini bayon qilib, «Nasoyim ul-muhabbat» Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» asaridan ilhomlanib, uni yanada mukammallashtirib yozilganini uqtiradi.

Darhaqiqat, Abdurahmon Jomiyning mutasavvuflar tarixi – tazkirasi hisoblanmish «Nafahot ul-uns» asari 1476-1477-yilda Alisher Navoiyning xohishi bilan yozilgan bo‘lib, unda 618 mutasavvuf (584 erkak, 34 ayol) ning zikri berilgan.

[56] Qarang: Tanlangan asarlar. Botirxon Valixo‘jayev. 2-jild. – Toshkent: Zilol buloq, 2023.- 235-263-b.

Asarda arab va fors-tojik mutasavvuflariga keng o‘rin ajratilgan bo‘lib, turkiy mutasavvuflar zikri to‘liq emasdi. Ikkinchi tomondan esa mutasavvuflar haqida turkiy-o‘zbek tilida birorta tazkira mavjud emas edi. Alisher Navoiy ana shularni nazarda tutgan holda mutasavvuflar haqida turkiy- o‘zbek tilida tazkirani yaratib, unga ko‘p yangiliklar kiritdi, turkiy mashoyix-mutasavvuflar tarixini ham o‘sha davr nuqtayi nazaridan birinchi bo‘lib mukammal tarzda maydonga keltirdi. Bu esa Alisher Navoiyning nihoyatda ulug‘ xizmatlaridan biridir. Bu haqda Alisher Navoiyning o‘zi kitobning kirish qismida shunday go‘zal va aniq yozganki, uni to‘liq keltirish har qanday sharhu izohdan afzaldir.

Alisher Navoiy yozadi:

«Tarix to‘qquz yuz birdaki, ul kitob («Nafahot ul-uns»)ning ta’lifidan yigirma yil o‘tub erdi, Tengri taolo tavfiqi birla bu ulug‘ ishg‘a ilik urdum va bu azim amrg‘a qalam surdum. Va Hazrat shayx Fariduddin Attor q.s. bitgan «Tazkirat ul-avliyo»din ba’zi kibor mashoyixkim, «Nafahot ul-uns»g‘a doxil bo‘lmabdur erdi, har qaysini munosib mahalda doxil qildim. Va Hind mashoyixi sharhi ham («Nafahot ul-uns»da) oz mazkur erdi, mumkin bor tilab, topib, hazrat Qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj q.s.din so‘nggi mashoyixgacha ilhoq qildim (ya’ni kiritdim, qo‘shdim). Va turk mashoyixi zikri ham («Nafahot ul-uns»da)ozroq erdi, oni dog‘i Hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy r.a.din bu zamong‘acha ulcha mumkin bor tilab, topib, zikrlarin va ba’zi holotu so‘zlarin o‘z mahallida darj qildim. Va Hazrat Maxdumiy n.m.n. (Abdurahmon Jomiy)ning oti va muosiru musohib mashoyix q.a.zikri dag‘ikim, ul mutabarruk kitobda («Nafahot-ul-uns»da) yo‘q erdi, munda qo‘shdum. Va ul kitobda («Nafahot ul-uns»da) dag‘i avliyoulloh zikridin ba’zi so‘zkim, zamon ahlig‘a ko‘p muhtoj un-ilayh ermas erdi (ya’ni zamon ahliga uncha ehtiyoji yo‘q edi) itnob

vahmidin (ya’ni, cho‘zilib ketishidan qo‘rqib) tarkin tutdim (ya’ni, qisqartirdim)».

Bu parchadan ma’lumki, «Nasoyim ul-muhabbat» Abdurahmon Jomiy «Nafahot ul-uns»idan ilhomlanib yozilgan mukammal va mustaqil qomusdir.

Navoiy bu asarida ko‘p mashhur so‘fiylar suhbatiga musharraf bo‘lib, ularning duolarini olganliklarini yozadi: “… Bu haqirni farzandlik lafzi bila sarafroz qilib, xayr duosi ko‘p etib, boramda fotihalar o‘qib erdilar”; “… Bu haqir bir-ikki qatla suhbatig‘a ul mutabarrak manzilda musharraf bo‘ldi”; “… Va bu haqirni farzandlikka maxsus qilur erdi” kabi va h.k.

«Nasoyim ul-muhabbat» kirish, asosiy qism va xulosadan iborat. Asarning «Kirish» qismida mutasavvuflar uchun mushtarak bo‘lgan odat va fazilatlar muxtasar tarzda bayon etilgan.

«Nasoyim ul-muhabbat»da 770 mutasavvuf (735 erkak, 35 ayol) haqida ma’lumot keltirilgan. Asarning erkak mutasavvuflar haqidagi qismi Shayx Uvays Qaraniy zikri bilan boshlanib, Abdurahmon Jomiy zikri bilan yakunlansa, ayol mutasavvuflarga bag‘ishlangan qismi Robiai Adaviyadan boshlanib, Bibichai Munajjima zikri bilan nihoyasiga etadi.

Qayd qilinganidek, asarda turk mashoyixlariga keng o‘rin ajratilgan bo‘lib, unda Xoja Ahmad Yassaviy, Qutbiddin Haydar, Hakim ota, Ismoil ota, Is’hoq ota, Hubbi xoja , Ko‘k shayx, Temurchi ota, Xudoyquli shayx, Ilyos Shayx va boshqalar zikri keltirilgan. Bunday zikrlardan ayrimlari quyidagilardir:

«Xoja Ahmad Yassaviy q.t.s. Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Muridu ashobi g‘oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish».

«Qurqut ota a.r. Turk ulusi arosida shuhrati andin ortug‘roqdurki, shuhratqa ehtiyoji bo‘lg‘ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o‘zidin burunqini, necha yil o‘zidin so‘nggi kelurni debdurlar…»

«Ilyos shayx r.t. Muhammad shayx r.ning o‘g‘lidur. Zohir ulumida bu silsilada andin olimroq yo‘q ermish… Arabiyatda mohir ermish. Va ul til bila so‘zlashur ermish va nazm dag‘i aytur ermish. Va Samarqandda Qum tog‘ida sokin ermish. Muborak marqadi go‘yo ham anda-o‘qdur.[1]

«Nasoyim ul-muhabbat»da arab va fors-tojik tilida mingdan ortiq oyat, hadis, hikmat va she’riy parchalar keltirilgan. Ular mashoyixlar yoki Navoiyning tilidan bayon qilingandir.

Alisher Navoiy zamondoshlari kabi adolatni, halollikni, yuksak ahloqni himoya qiladi va “Nasoyim ul-muhabbat” asarida shaxsning komil inson sifatida shakllanishi uchun qay tarzda to‘g‘ri fikr yuritishi, nimalardan o‘zini tiyishi va qanday insoniy fazilatlarga intilishi kerakligini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlab beradi. Aziz avliyolar vasfi bitilgan “Nasoyim ul-muhabbat” asarida islom dini targ‘ib etgan barcha oliy insoniy sifatlar – poklik, sadoqat, sahovat, hilm, shafqat, muovanat (odamlarning bir-birlariga yordam bermakliklari) bashoshat (ochiq yuzlilik), tavozu (kichik ko‘ngillik, manmanlikdan yiroqlik), sobirlik, vatanparvarlik, mustahkam imon, e’tiqod egasi bo‘lmoqlik kabi sifatlar vasf etiladi. Chunonchi, mazkur asarda axloq-odob bobida eng oliy maqomlarga erishgan shayxlar hayotidan ibratli hikoyalar keltiriladi. Hazrat ta’kidlaganlaridek, bu toifa ahli (ya’ni so‘fiy shayxlar) shariat yuzidan tariqat odobini mahkam tutadilar. U qanday odob ekan? Hazrat Navoiy yozadilar: “Ul adabdurki; yaxshi va yamonga va ulug‘ va kichikka bajo keltirurlar. Andoqqi, barcha xaloyiqdan o‘zlarin kichik va kamroq tutarlar va barchag‘a xizmat huzurida bo‘lurlar. Hattoki o‘z

[1] Bu joy Kattaqurg‘onning g‘arbi-janubida Ostonabobo nomi bilan mashhurdir. Bu haqda qaralsin: B.Valixo‘jaev. Xoja Ahror tarixi.- Toshkent: YOzuvchi, 1994: «Ostona bobo ziyorati» bo‘limi,- 80-93-betlar.

farzandlarig‘a va xodim va mamluklarig‘aki, har necha alardin beqoidalig‘ ko‘rsalar, xushunat bila alarga so‘z demaslar, balki nasihatni yumshoq va chuchuk til bila qilurlar, hattoki o‘g‘rig‘acha”. Shundan so‘ng, Navoiy bir hikoyat keltiradi. Bu voqeiy hikoyat chuqur ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, uni to‘liq keltiramiz.

“Manquldurki, hazrati Xoja Abul Vafoi Xorazmiy… bir ravzan yorug‘lig‘ida o‘lturub, mutoala qilurlar ermish. Bir o‘g‘ri angdib, ularning dastorlarin sirmobdur. Alar o‘zlari tarafidin tutubdurlar va o‘g‘ri iztirob bila tortar ermish, der ermishlarki, hey, valloh, eski va yirtiqdur. Sizning hech ishingizga yaramas. Bu so‘zni mukarrar qilibturlar. O‘g‘riga asar qilmay tortar ermish. Xoja ojiz bo‘lg‘ondin so‘ngra dastorni qo‘ya borib, dermishlarki, sizga har necha ayttuk, inonmadingiz, ochqaningizda ko‘rgunguzdur. O‘g‘ri nariroq borg‘ach, ochib ko‘rsa, Xoja degondek, bag‘oyat eski va pora ko‘rib, tashlabdur. Xoja bilibki, ko‘rgach tashlag‘usidur, keyinicha borib dastorni olmishlar va boshlarig‘a chirmarda o‘z-o‘zlari bila der ermishlarki, har necha ayttuqki yaramas, inonmaslar, o‘zlari ko‘rmaguncha tashlamadilar”.

Islom ma’naviyatining eng zaruriy oliy sifatlaridan bo‘lmish vafo va hayo zikrida Alisher Navoiy nasriyotida go‘zal tashbehlarga boy boblar, hikoyalar, hayotiy voqeiy misollar keng o‘rinni egallaydi. “Vafo shunday seviklidirki, yaratilishi pok, pok ko‘ngildan boshqaga ulfatchiligi yo‘q. Shunday istakdirki, zoti pokiza, pokiza tabiatlidan boshqaga mayl va rag‘bati yo‘q”, - deb yozadi shoir “Mahbub ul-qulub” da.

“Nasoyim ul-muhabbat”ning Abu Homid Do‘ston nomli so‘fiy shayxga bag‘ishlangan bo‘limida bu avliyoning va’daga vafo bobida barcha zamonlar va turli ellar uchun namuna bo‘lgulik fazilati bir hayotiy voqea misolida vasf etiladi: Bir kun bir rafiq bila bir yo‘lda borur erdi. Rafiq aytdi: Sen munda tur. Mening bu yaqinda juzviy

ishim bor. Kelurmen. Bordi va kelmadi. Ul hamul erda turdi. Kecha azim qor yog‘di. Tonglasi keldi. Ko‘rdikim, ul qor ostida tebranadur. Qorni oritti va dedi: Sen hanuz mundasen? Ul dediki, sen demadingmuki, tur, men kelurmen. Do‘stlar do‘stlar vafosin asrag‘aylar.

Xayru saxovat bobida «Nasoyim ul-muhabbat»da ibratli hikoyatlar ko‘p keltiriladi. Jumladan, Abdurrahim Istaxariyga bag‘ishlangan bo‘limda shunday voqeiy hikoya zikr etilgan: Anga otasidin yigirma ming diram meros qoldi. Ammo el zimmasida erdi va o‘n mingni elga kechdi va mingni oldi. Kecha tong otquncha ul vajh ani gohi savdo xayolig‘a, gohi ziroat xayolig‘a parishon qilib erdikim, sahar qo‘pub ul vajhlarni ovuch-ovuch qo‘shnilar uyiga sochdi. Kunduz ul elga xayol bo‘ldikim, go‘yo yormoq yog‘ibdur. Ul to‘brani silkti, yarim diram qolib erdi, tushti, ashobiga dedikim: ishorat sizgakim, non va boqlo bo‘ldi. El dedilar: “Bu devonani ko‘rung, o‘n ming diramni sochib, yarim diram uchun shodlik qilur.”

Asarda botini munavvar, poksiyrat va poktiynat sufiy shayxlarning sobirlik, hilm, vatanparvarlik bobidagi ibratli holatlari madh etiladi. Chunonchi, mashhur xorazmlik avliyolardan shayx Najmiddin Kubro mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi jangga kiribdilar va tengsiz olishuvda shahid bo‘libdilar. Jon taslim qilayotgan chog‘larida bir kofirning bayrog‘ini tutgan ekanlar. Dushmanlardan o‘n kishi harakat qilsalar ham ul zoti mukarramning qo‘llaridan bayroq parchasini ayira olmabdilar, noiloj qolgan kofirlar u parchani kesib olib ketibdilar.[57]

Hazrat Nizomiddin Amir Alisher Navoiy o‘zining nasriy-ma’rifiy asarlarida maroqli hikoyatlar, betakror timsollar, rangdor badiiy lavhalar orqali ifodalagan islomiy madaniyat va ma’rifat

[57] Bu haqda qarang: Dilorom Salohiy. Tasavvuf va badiiy ijod. – Toshkent: NAVRO‘Z, 2018. 114-129-b.

unsurlarini tadqiq etish ulug‘ shoirning diniy dunyoqarashini, uning so‘fiylik qarashlarini ilmiy yoritishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, «Nasoyim ul-muhabbat» islom sivilizatsiyasi hududlarida VII-XV asrlar davomida faoliyat ko‘rsatgan arab, fors, turk va hind mutasavvuflaridan bahs yuritadigan va o‘sha davrda bu sohada mukammal hisoblangan tazkira-qomuslardandir

2.

Navoiyshunoslikda “Xamsatul-mutahayyirin”ga doir bir qator tadqiqotlar bajarilgan[58].

Asarning 1964-yilgi nashri “Jomiy va Navoiy” to‘plamidan o‘rin olgan. Mazkur nashr taniqli matnshunos olim P. Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan. “Xamsatul-mutahayyirin” ning 1967-yilgi ommaviy matni ham filologiya fanlari doktori P.Shamsiyev tomonidan tayyorlangan. Alisher Navoiy yigirma tomlik Mukammal asarlar to‘plamining o‘n beshinchi jildi “Xamsatul-mutahayyirin” bilan boshlanadi. Uni P.Shamsiyev matni asosida olima S.G‘aniyeva nashrga tayyorlagan. Alisher Navoiy saylanmasining o‘n to‘rtinchi jildidan (1967) tushirib qoldirilgan “Xamsatul-mutahayyirin”ning “Hamdu na’t” qismi mukammal nashrda mavjud. Asardan ayrim parchalar 1989-yilda professor Sh.Shomuhammedov so‘zboshisi bilan chop etilgan “Jomiy va Navoiy” to‘plamida ham berilgan.

[58]Shamsiyev P. Ulug‘ do‘stlik lavhalaridan. – Jomiy va Navoiy. –Toshkent: Fan, 1966. – B. 5-12; Vohidov S. Ravobiti adabii xalqhoi tojik va o‘zbek dar asri XV dar asosi “Xamsatul-mutahayyirin”i Alisher Navoiy. Dushanbe: Irfon, 1974; O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik, 2-tom. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 374-384; Vohidov R. XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlarida o‘zbek va tojik she’riyati /Adabiy aloqa va o‘zaro ta’sir masalalari/. – Toshkent: Fan, 1983; Vohidov R. Sharqning buyuk allomasi. – Toshkent: Fan, 1989; Vohidov R. Navoiyning ikki durdonasi. – Toshkent: Fan, 1992. Hayitov Sh. Barkamol inson timsoli. -Toshkent: Fan, 2003. Olimov F. Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin” asari badiiyati. Filol.fanl.bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi. -Toshkent: 2018.

“Xamsatul-mutahayyirin” Tojikistonda ikki marta (1961, 1989) bosilib chiqqan[59].

Ilmiy tadqiqot ishlariga kelganda, yirik matnshunos olim P. Shamsiyevning xizmatlarini alohida ta’kidlash joiz. Professor R.Vohidov yozadi: “Porsoxon Shamsiyev asar matnini salkam yigirma sahifalik [14-jild, 238-259-betlar] sharh-u izohlar, taglama tarjimalar, so‘z va birikmalar, badiiy san’atlarga berilgan batafsil talqinlar bilan ta’min etgan. Yetuk olim zakovati bilan amalga oshirilgan bunday mashaqqatli ijodiy ishning natijalari “Xamsatul-mutahayyirin” haqida yaratilgan kattagina ilmiy tadqiqot bilan teng turadi, desak xato bo‘lmaydi”[60].

Navoiyshunos olima S.G‘aniyevaning 1964-yilda chop etilgan “Jomiy va Navoiy” to‘plamiga P.Shamsiyev bilan hamkorlikda yozgan so‘zboshisi, xususan, “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh jildligining ikkinchi tomidan o‘rin olgan maqolasida “Xamsatul-mutahayyirin”ning yaratilish tarixi, tuzilishi, badiiy-adabiy ahamiyati haqida muhim mulohazalar o‘rtaga tashlangan.

Ustoz S.Ayniy, Y.E.Bertels, A.Afsahzod, A.Mirzoyev, Sh.Shomuhammedov, N.Mallayev, I.Sultonov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Komilov kabi atoqli olimlarning Alisher Navoiy ijodining turli muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida asarning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni, axloqiy-badiiy qimmati to‘g‘risida keng fikr yuritilgan[61].

---

[59]“Xamsat ul-mutahayyirin”ning tojik tilidagi nashrlari xususida mufassal ma’lumot olish uchun qarang: R.Vohidov. Navoiyning ikki durdonasi. - Toshkent: Fan, 1992. -B 7-10; 34-52.

[60] Vohidov R. Navoiyning ikki durdonasi. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 8.

[61]Ayniy S. Tanlangan ilmiy asarlar. – Toshkent: Fan, 1978; Бертельс ЕюЭ. Навои и Джами. – М.:Наука, 1965; Shamsiyev P. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. – Toshkent: Fan, 1966; Афсахзод А. Лирика Абу ар-Рахмана Джами. Проблемы текста и поэтики. – М.: Наука, 1988; Mirzoyev A. Sezdah maqola. – Dushanbe: Irfon, 1977; Shomuhammedov Sh. Fors-tojik adabiyoti klassiklari. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1963; Sultonov I. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2010; Qayumov A. Nazm va tafakkur quyoshi. – Toshkent: Fan 1992; Yana o‘sha/ Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011; Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – Toshkent, O‘qituvchi, 1993; Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009; G‘aniyeva S. Xamsatul-mutahayyirin. – O‘zbek adabiyoti tarixi.

Atoqli navoiyshunos Y.Is'hoqov, taniqli olimlar Q.Ergashev va E.Ochilovlarning tadqiqotlarida ham "Xamsatul-mutahayyirin" haqida muhim fikr-mulohazalar aytilgan[62].

Tojik olimlari – A.Afsahzod, A.Maniyozov, S.Vohidovning ishlarida "Xamsatul-mutahayyirin" maxsus tadqiqot manbai sifatida tahlilga tortilgan. Mazkur tadqiqotlarning fazilatlari, sifat-saviyasi, ayrim qusurlari haqida R.Vohidovning yuqorida ishora qilingan kitoblarida atroflicha fikr yuritilgan. Asarning tojikcha tarjimalari xususida dotsent M.Qosimova va prof. R.Vohidov tomonidan amalga oshirilgan ishlar e'tiborga molik.

"Xamsatul-mutahayyirin"ga bag'ishlab yaratilgan ilmiy ishlar orasida filologiya fanlari doktori R.Vohidovning "Navoiyning ikki durdonasi" kitobi qiyosiy-ilmiy teranligi bilan diqqatni o'ziga jalb qiladi. Risola quyidagi ilmiy yangiliklarga ega:

– Muallif "Xamsatul-mutahayyirin" ma'lumotlariga tayangan holda chuqur ilmiy tahlillar va tarixiy dalillar shohidligida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning ilk uchrashuvi masalasida ustoz Sadriddin Ayniy o'rtaga qo'ygan raqamlarning haqiqat ekanligini, ya'ni bu tarixiy voqea 1459-1460-yillarda yuz berganini isbotlagan.

– Asardagi mavzular mafkuraviy cheklanishlarsiz, umuminsoniy rejada o'rganilgan.

– "Xamsatul-mutahayyirin" ning tojikcha tarjimalari ilmiy-chog'ishtirma uslubda nozik tadqiq etilgan. Risolaning "Qardoshlik ko'ngillararo ko'prikdir" faslidagi talqinlar, nazariy mushohadalar

Besh tomlik, 2-tom. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 374-384. Yana "Xamsatul-mutahayyirin" haqida. – Jomiy va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Movarounnahr, 2005.

[62]Is'hoqov Y. Ikki jahon xalqiga hayrat // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2001. 9-fevral; ErgaShev Q. Navoiyning memuar-biografik asarlarining janriy-uslubiy xususiyatlariga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 2009, 4-son. Ochilov E. Jomiy – Navoiy idealidagi komil inson. // – Jomiy va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Movorounnahr, 2005.

kelgusida asarning tojik tilidagi mukammal nashrini yaratishda mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

“Xamsatul-mutahayyirin”ning yaratilish tarixi, yozilish sabablari, muallif ijodidagi o‘rni, badiiy-estetik xususiyatlari, Mavlono Jomiy hayoti va ijodini o‘rganishdagi ahamiyati, manoqibdagi tarixiylik va obrazlilik tanosubiyati, Nuriddin Abdurahmon Jomiyning ustozlik va pirlik fazilatlarini ko‘rsatib berish, Alisher Navoiyning ifoda, tasvir, bayon mahorati hamda asardagi zullisonaynlikni teran yoritish nuqtayi nazaridan F.Olimovning “Xamsatul-mutahayyirin” badiiyati” mavzuida yozilgan dissertatsiyasi muhim ilmiy qimmat kasb etadi.

F. Olimovning tadqiqotida Alisher Navoiyning barcha asarlaridagi Jomiyga bag‘ishlangan ta’rif-u tavsiflar jamlanib, “Xamsatul-mutahayyirin”dagi Nuriddin Abdurahmon Jomiy siymosi yaratilishiga qiyoslangan holda asarda Jomiy siymosi yaxlit tarzda har taraflama gavdalantirilgani, boshqa asarlarda esa unga muayyan bir masala yuzasidangina munosabatda bo‘lingani chuqur ilmiy asoslangan.

Nuriddin Abdurahmon Jomiy – komil insonning hayotiy timsoli. Alisher Navoiy talqinicha, axloq − shaxsning qimmatbaho libosi, hilm esa insonga ko‘rk, husn beruvchi shu bebaho kiyim navlarining (ya’ni xulq turlarining) nozik va nafis naqshlar solib ipakdan to‘qilgan, shu bilan birga eng qattiq, eng mustahkam va eng chidamli matosidir: “Axloq shaxsning og‘ir baholig‘ libosidir va ul libos jinsining sangin debosi”[63]. Hilm sharhi adib yashagan davr bilan bog‘lanib, o‘tkir ijtimoiy hayot tanqidi bilan yo‘g‘riladi. Og‘ir tabiatli odam – viqorli (ulug‘vor, mag‘rur) tog‘, yengiltak kimsa − xas-xashak, yel, uyurmali shamol (“quyun”); hilm ahli – yuksakdagi quyosh, “davron bog‘ining xas va xoshokoyinlar”i – olov. Istiora va

[63] Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. MAT. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 83.

tashbih san’atlari bilan yonma-yon amal qilgan tazod usuli vasf qilinayotgan hodisaning (hilm) axloqiy-ma’naviy qimmati benihoya baland ekanligi xususida yorqin tasavvur paydo qiladi. Ijodkorning tabiat hodisalarini tanlab badiiy-g‘oyaviy maqsadga bo‘ysundira olish salohiyati nihoyatda baland. Navoiy tasviricha, haqqush sabot bilan “haq-haq” deb, zikr aytib, ko‘ngilga orom berib, ma’naviy quvvat yetkazib turganida qaldirg‘ochning tortinmasdan surbetlarcha sayrab yuborishi yurakka og‘ir botadi. Qalbi ma’nolar xazinasiga aylangan piri komil Qur’oni karim oyatlarini qiroat qilayotgan damda nokas bolaning o‘ynab kelib Ilohiy kitob varaqlari ustiga yelpig‘ich bilan shamol berishi dilda g‘ashlik uyg‘otadi: “Haqgo‘y qushning tamkin bila zikr ayturi qoshida qarlug‘ochning bemalol yangshamog‘i malolat kelturur va Mushaf avroqin Xirad piri tilovat qilurda laim tiflning yelpug‘uch bila varaqni sovurmog‘i kudurat yetkurur”[64]. “Mahbub ul-qulub”da g‘oyaviy-badiiy tavsifini bergan hamda qit’alaridan birida:

Viqor gavhariyu hilm ma’dani bo‘la ko‘r,
Desangki, qilg‘ay itoat sanga gado ila shoh[65], −

degan Hazrat Alisher Navoiy “viqor gavhari-yu hilm ma’dani”ga aylangan komil insonning hayotiy timsolini “Xamsatul-mutahayyirin”da keltirgan. Asarda komil inson axloqiga xos nodonning jaholatidan sabrning ziyoda bo‘lishiga qator hayratlanarli lavhalar mavjud. Bu ta’sirchan lavhalar badiiy to‘qima emas, balki tarixiy haqiqat, Hazrat Alisher Navoiyning o‘zlari ko‘rgan, kuzatgan, shohidi bo‘lgan, ijodkorga zamondosh, hamfikr, hammaslak insonning hayotidan olinganligi bilan katta ilmiy va amaliy qimmat kasb etadi.

[64]O‘sha joyda. – B. 84.
[65] Alisher Navoiy. Ilk devon. MAT. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 558

Nuriddin Abdurahmon Jomiy kabi buyuk insonlar – odamiylik timsoli, “viqor gavhari-yu, hilm ma’dani”. Ammo, bu xazinadan bahramand bo‘lmoq uchun ma’rifat, o‘tkir aqlu farosat zarur. Ko‘ngil ko‘zi ko‘r, nazari so‘qir bandalar Jomiy shaxsidan ibrat ola bilmaganidek, ulug‘ mutafakkirning ma’nolar xazinasi – she’riyatidan zavqlanish, undagi go‘zallik asroridan lazzatlanish, ma’naviy farog‘at tuyishdan ham mahrumdirlar. Nafaqat ma’naviy-ruhiy dunyoda, balki ayni mantiq va manzarani ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, hatto hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. O‘z hunarida mohir kasb sohibining qoshida layoqatsiz va noshud kimsaning qo‘li ishga qovushmasa, aybni ustaga qo‘yadi. Lochinsimonlar oilasiga mansub itolg‘u qushiga tuvaloq nomli qushning kuchi yetmasa, axlati bilan uni bulg‘aydi: “Hunarmand qoshida behunar ilik tebratmasa, ayb tuhmatin anga taqar. Itolg‘uga tug‘dorining kuchi yetmasa, songg‘i bila ani bulg‘or... Ammo, yel agar ko‘kka yetsun sabukbordur va bemiqdor va tog‘ agar tufroqqa botsunki, sohibviqordur, hilmshior...”[66]. “Xamsatul-mutahayyirin”da bayon qilinishicha, shoh Husayn Boyqaroning amirlaridan biri Muzaffar barlosning Seyidam Iroqiy ismi shariflik bir navkari bo‘lib, u o‘z vazifasini a’lo darajada bajargan. Ammo g‘oyati nodonligidan Nuriddin Abdurahmon Jomiy maslagining mohiyatini mutlaqo anglamagan. Hakim shoir ash’orining mag‘zidagi ma’rifiy ma’nolarni tushunishga aqli yetmagan. Shuning uchun ham ko‘ngli botil bu kimsa Mavlono Jomiyga dushmanlik nazari bilan qaragan. Jaholatning qora quyuni butun vujudini chulg‘ab, qalbini ko‘r qilib qo‘ygan bu battol banda Mavlono Jomiy devonining sahifalarini birma-bir yirtib, o‘tda yoqishgacha borib yetadi: “Seyidam Iroqiy... g‘oyati nodonlig‘idin alarg‘a munkir ermish, g‘oyati inkoridin alarning devonin birin-birin uzub, o‘tg‘a solib kuydurubtur”[67].

[66]Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. MAT. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 84.
[67] Alisher Navoiy. Xamsatul-mutahayyirin. MAT. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 74.

Shunday qaltis vaziyatlarda ham Mavlono Jomiyda achchiqlanish, ranjish alomatlari mutlaqo sezilmagan. Zero, naqshbandiya xojalari e'tiqodiga ko'ra, "...g'azab yuritmak botinning zarfini ma'noning nuridin xoliy qilur"[68]. "Xamsatul-mutahayyirin"da keltirilgan tarixiy lavha hajman va mantiqan Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi qit'asi bilan hamohangdir:

Dur anga na so'z siflai nahs deb,
Qilur turku hindug'a zohir nifoq.
Biaynih aningdekki sichqay chibin,
Oq uzra qaro-u qaro uzra oq[69].

Qit'ada Seyidam Iroqiy kabi gumroh kishilar atrof-muhitni ifloslantiruvchi chivinga qiyoslangan. Hikoyatda qit'adagi g'oya hayotiy dalil keltirish bilan tasdiqlangan. Hikoyatda ham, qit'ada ham johil kimsa axloqining o'ta ixcham va chuqur talqini yaratilgan. "Xamsatul-mutahayyirin"ning "Xotima" qismida keltirilgan hikoyatning o'ziga xosligi shundaki, unda Seyidam Iroqiyning fojiali qismatini aks yettirish bilan jaholat o'z sohibini badbaxtlik sohiliga yetaklashi ta'sirchan ifodalangan: "Hamul uch-to'rt kunda go'yo bir uzvig'a tugan qo'pub, ul jarohat gazak bo'lub, oxir bo'ldi"[70].

Nuriddin Abdurahmon Jomiyni zohiriy va botiniy ilmlar sohasida olam yagonasi, inson jinsining eng pokizasi va afzali, - deya tavsif etgan Alisher Navoiy Murshidikomil tabiatidagi hazil-mutoyibaga moyillik; gina-kudurat, qasd-g'azabdan mutlaqo poklikka bir necha hayotiy lavhalar, badiiy dalillar keltiradi: "Fanoiyya"» bog'chasin yasardakim, ul Hazrat havlilarining ichinda yer inoyat qilib berib

[68] Safiy Faxriddin.Ali . Rashahot. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2003. – B. 237.
[69] Alisher Navoiy. Favoyidul-kibar. 6-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 517-518.
[70] Alisher Navoiy. Xamsatul-mutahayyirin. MAT. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 74.

erdilarkim, faqir oʻziga muxtasar manzil yasabmen”[71]. Alisher Navoiy hovlining oʻziga inʼom qilingan qismiga gul va daraxtlar ekishni zamonasining epchil va ishbilarmon, ammo tabiatan oʻjar va bir oz qoʻrsroq bogʻboni Darvesh Hoji Irqbadanga topshiradi. Mavlono Jomiy ijodiy ishdan boʻshagan paytlarida dam olish, muborak zehnlariga orom berish maqsadida bogʻbonning ishini kuzatadilar, unga ayrim nihollarni oʻtqazish uchun joy koʻrsatadilar. Tabiatan oʻjar Darvesh Hoji allomaning iltifotlariga javoban sarkashlik qiladi. U kishining maslahatlaridan boʻyin tovlab, Mavlono Jomiy bilan bahslashuv-tortishuvlargacha borib yetadi. Uning bunday xatti-harakati, betga choparligi Shayxi murShidga xush kelib, Mavlono Jomiy muloyimlik va xushsuxanlik ila bogʻbon bilan bahsda davom etadilar: “Bir kun yigʻochqa alar yer taʼyin qilibturlar. Devona bogʻbon inod yuzidin debturkim: “Munda ekmasmen”. Alar inbisot bila debturlarkim: “Nevchun ekmassen?”. Ul debturkim: “Rajadin tashqaridur, tongla cherik kelsa, Mir Shayxim (Alisher Navoiyning “yori azizi” isteʼdodli shoir Shayxim Suhayliy) bogʻbonliqda voqif kishidur, koʻrib eʼtiroz qilgʻusidur”. Alar debturlarkim: “Bogʻcha Shayximning emas, Alisherningdur, ul eʼtiroz qilmagʻusidir”.

Cherik shahrga kelgandin soʻngra Darvesh Hojining tundliqlaridin asʼhob naqllar qilurlar erdi. Ul hazrat dagʻi zavqu nishot yuzidin ul yigʻochni koʻrguzub, oʻtgan hikoyatnikim, alar bila Darvesh Hoji orasida voqeʼ boʻlgʻondur, naql qilur erdilar”[72].

Nuriddin Abdurahmon Jomiy hayotidan keltirilgan ushbu lavhada darvesh siyrati − komil inson axloqiga xos muhim bir xususiyat − hilmning gʻazabdan gʻolib kelishi mukammal aksini topgan.

[71]Oʻsha joyda. – B. 16.
[72]Oʻsha joyda. – B. 16-17.

Mavlono Jomiy mamlakat hukmdoridan tortib yuksak martabali amirlar, oliyshon vazirlar e'tiborida turgan ulug' inson edi. Shunday yuksak shuhrat egasining bevosita o'ziga tegishli mulk ichida oddiy bog'bonning o'jar va qo'rs muomalasiga, iltifotsizligiga javoban odob doirasida, beg'araz nazokat bilan bahsga kirishishida cheksiz ulug'vorlik, shafqat, yumshoqtabiatlilik, xoksorlik, daryodillik kabi ma'naviy go'zalliklar mujassamlangan.

Hazrat Navoiy talqinlaridan ayon bo'lishicha, inson razilligi va tubanligining namoyon bo'lish alomatlari, turlari va xillari benihoya ko'pdir. Ko'ngil ochish, qiziqchilik uchun qilingan hazil agar birovning insoniy qadri va nafsoniyatiga tegsa, bunday hazilkash qabih va pastdir.

Faxriddin Ali Safiy tomonidan Hazrati Xoja Ubaydullo tilidan yozib olingan 120 rashhaning birinchisini "Rashahot"dan o'qiymiz: "Darveshlikning xulosasi ul tururkim, hamma kishidan yuk tortur va hech kishiga yuk qo'ymas na suvrat yuzidin, na ma'niy yuzidin»[73]. Naqshbandiya tariqatining nazariy va amaliy ahamiyatini yorqin namoyon qiluvchi mazkur rashha "Xamsatul-mutahayyirin"dagi 13-hikoyat mundarijasini belgilaydi va Mavlono Jomiy obraziga o'ziga xos joziba bag'ishlaydi: "Bir qatla faqir alarning qadimiy devonin Mavlono Abdussamadg'akim, zamonning xushnavislaridindur va xush tab'i ham bor, buyurub erdim va ulcha maqdur takallufdur qililib erdi"[74]. Shoir va o'z zamonasining xushxat kotibi Mavlono Abdussamad devonni ko'chirib tugatgach, qo'lyozmani asliyat matni bilan muqoyasa qilib o'qishni Alisher Navoiy ustoz Jomiyning o'zlaridan iltimos qiladilar. Alisher Navoiy istagi qondiriladi. "Alar ayttilar: "Bir-ikki kun munda turdik. Biz miqdore mulohaza qilali. Kotibin xushtab' kishi derlar. Shoyadki, ehtiyot qilib erkinkim,

[73] Safiy Faxriddin.Ali. Rashahot. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2003. – B. 329.
[74] Alisher Navoiy. Xamsatul-mutahayyirin. MAT. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 24.

muqobala qilurg‘a ehtiyoj bo‘lmag‘ay”[75]. Ammo, haqiqiy ahvol Mavlono Jomiy faraziga teskari bo‘lib chiqadi. Kotib devonni ko‘chirishda e’tiborsizlik oqibatida behad ko‘p xatoga yo‘l qo‘ygan, ba’zi sahifalarda baytlar ham matndan soqit qilingan edi: “Tonglasi faqir alar xizmatig‘a yettim, ayttilarkim: “Bu kitobni g‘arib nav’ bitibdur, anga o‘xsharkim, iltizom qilmish bo‘lg‘aykim, g‘alatsiz misra’ bitmagay, ba’zi yerda biror-ikkiror, balki ortuq ab’yot ham tark qilibtur, o‘zi-o‘q munda bo‘lsa, chun xushnavis kishidur, ko‘p ehtiyot jihatidin Shoyad xeyli ro‘zgori zoe’ bo‘lg‘ay”[76]. Bugungidek zamonaviy bosmaxonalar mavjud bo‘lmagan Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy davrida xattotlarning o‘rni va mavqei juda yuksak bo‘lgan. Xattotlik kasbi oldiga qo‘yilgan talablar ham shu soha kishilarining davr madaniy hayotida tutgan o‘rniga qarab belgilangan. Alisher Navoiy qit’alaridan birida chalasavod kotibni mansabidan chetlashtirmoq, boshini yormoq, mamlakatdan badarg‘a qilmoq kerakligini uqdirgan[77]. Xattotning e’tiborsizligi oqibatida yuzaga chiqadigan sahv-u xatolar ma’noga putur yetkazadi. Muallif g‘oyaviy-badiiy niyatining yorqin namoyon bo‘lishiga soya soladi. Fikrning joziba qudratini, badiiy ta’sir sur’ati va darajasini zaiflashtiradi. “Xamsatul-mutahayyirin”dan keltirilgan iqtibosdan ayon bo‘layotirki, Nuriddin Abdurahmon Jomiy o‘z “iste’dodi farzandi” – “so‘z gavharlari”ni xor qilgan, tahqirlagan kotib sha’niga tavozu’ talablariga xilof biror og‘iz so‘z aytmaydi. Aksincha, xushxat kotibning o‘z umrini zoe’ qilganligidan afsus chekadi: “...chun xushnavis kishidur, ko‘p ehtiyot jihatidin shoyad xeyli ro‘zgori zoe bo‘lg‘ay”.

Cheksiz andisha, xushfe’llik, xattot holiga achinish, uni ayash, shafqat va mehribonlik borki, Abdurahmon Jomiy so‘zlarida,

[75]O‘sha joyda.
[76]O‘sha joyda.
[77] Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. MAT. 3-jild. –Toshkent: Fan, 1988. – B. 558.

aybdorga nisbatan muomalada bunday maqomda boʻlish oson ish emas. Naqshbandiya tariqati “Hush dar dam” aqidasining axloq ziyosi bilan munavvar vujud, pokiza inson siymosidagina shunday odob nuri zuhur etadi.

Ikki ulugʻ alloma oʻrtasida uzoq davom etgan orifona munozara-yu mubohasadan soʻng kotib tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatolarni tuzatib chiqishni Mavlono Jomiy oʻz zimmasiga oladi. Ishni nihoyasiga yetkazgan ulugʻ alloma “oʻz muborak qalami bilan isloh” qilingan devoni nihoyasida quyidagi qitʼani bitib, ilova qiladi:

Xushnavise chu orazi xubon,
Suxanamro ba xatti xub orost.
Lek har jo dar oʻ zi sahvi qalam
Goh chize fuzudu gohe kost.
Kardam islohi on bo xati xesh,
Garchi naomad chunonchi dil mexost.
Har chi oʻ karda bud bo suxanam
Ba xati oʻ qusur kardam rost[78].

Qitʼaning mazmuni:

Bir xati chiroyli (kotib) goʻzallar yuzidek qilib,
Soʻzlarimni bezab chiqdi.
Lekin u har joyda qalami xatosi bilan,
Goh bir narsa orttirdi, goho esa, tushirib qoldirdi.
Men oʻz xatim bilan uni tuzatib chiqdim.
Garchi noqulay esa-da, koʻngil tilagandek boʻldi.
U mening soʻzlarimni ne chogʻlik buzgan boʻlsa,
Men uning xatiga shunday qusur yetkazdim

(Porsoxon Shamsiyev tarjimasi).

[78] Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. MAT. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 25.

Mashaqqatli va mushkul bir ishni hech bir minnatsiz amalga oshirish va shu ezgu amal vositasida boshqalarni (bunda xattotni va Alisher Navoiyni) xijolatning og‘ir yukidan qutqazish olijanoblikdir. Yurakni siqadigan, xotirni parishon qiladigan bir vaziyatdan muloyim tabassum, lutf-u madoro bilan chiqish mardlikdir. Birovlarning mahzun bir hissiyot uyg‘otadigan harakatidan ranjimaslik sobirlik, o‘zgalar qalbi va qadrini avaylash murodida barcha og‘irlikni o‘ziga olish, “birov gunohin o‘ziga tutib yukni tortish” (Bahouddin Naqshband) futuvvat, nasihatning achchiq dorilarini mutoyiba boliga o‘rab berish (Shayx Sa’diy ifodasi) zariflikdirki, “Xamsatul-mutahayyirin”dan keltirilgan qit’a mag‘zida va uning muallifi tabiatida barkamol inson axloqiga xos ana shu xususiyatlar mujassamlangan.

“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da darvesh shaxsi, iymon-e’tiqodi xususidagi mushohadalar talqin etiladi. Alisher Navoiy talqinicha, inson tabiatidagi aqliy kamolot va axloqiy barkamollikning tayanch omili, eng avvalo, ilmga e’tibordir. Bunday insoniy kamolotning negizi yoshlikdan shakllanadi.

Alisher Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asarida mavzuning bu qirrasi qaynoq mehr va qalb harorati bilan qalamga olingan: “Bot abnoyi jinsdin har bilik bobida mumtoz, balki ko‘prak zamonning tab’ va fazl ahliga foyiq va sarafroz bo‘lubdurlar”[79]. Alisher Navoiy Sayyid Hasan o‘rgangan fanlarni birma-bir raqam qiladi: sarf va nahv (grammatikaga oid ilmlar), lug‘at va arabiyat, mantiq va kalom, fiqh va hadis, tafsir, She’r va muammo, ta’rix, nujum va advor...[80]. Zamonasining yigirmaga yaqin fanlari bo‘yicha oz vaqtda kamolot kasb etish uchun zo‘r havas, kuchli ishtiyoq zarur edi. Ehtimol, majburiyat ortida ikki-uch fanni o‘rganish mumkindir. Ammo o‘ndan ortiq ilmni mukammal bilish uchun ilohiy iste’dod va

[79] Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. MAT. 15-jild. –Toshkent: Fan, 1999. – B.89.
[80] O‘sha joyda. – B.90.

katta qunt-u mehnat talab qilinadi. Ilm talabgorining bunday saʼy-u harakatini Ilohni bilish, unga yetish maqsadida jon-u dili bilan harakat qilayotgan, koʻz-u koʻngli bilan Haqqa yuzlangan solik holatiga qiyoslash mumkin. Ana shunday tavajjuh oqibatidagina ilm kamol topadi. Qadamini tariqat vodiysiga barqaror qoʻygan darveshning vujudi mashaqqat sahrosida rohatlanganidek, bunday ilm sohibining yuragi ilm oʻrganish-u oʻrgatishdan halovat tuyadi. Sayyid Hasan dunyoviy ilmlar bobida shunday maqomga yetgan: "Alar zohir ulumi ishtigʻolidin farogʻat topibdurlar"[81].

Xudparastlik shunday bedavo dardki, xudbin kimsa oʻz nafsi, oʻz koʻngli, oʻz zoti, oʻz soʻzini barchadan aziz sanaydi. Uning har qanday nomaʼqul ishi oʻziga xush, yoqimli va chiroyli koʻrinadi. U oʻz tabiatidagi qusurlarni mutlaqo koʻrishni istamaydi. Nuriddin Abdurahmon Jomiyning quyidagi bayti bu xususda yorqin tasavvur paydo qiladi:

Kibrsizlik lofin urma uni koʻrmoqdan koʻra,
Qorongʻu tun chumolining izin koʻrmak osonroq[82].

Alisher Navoiy taʼkidicha, faqat faqr tariyqi, fano koʻrasining oʻtigina kibr tomirlarini quritishga qodirdir. Shuning uchun ulugʻ adib "faqiri zotiy va fonii jibilliy" Sayyid Hasan shaxsidagi tugʻma xoksorlikni, tavozuʼ va hayoni kibrga mubtalo boʻlganlarga ibrat qilib koʻrsatadi. Yuqorida nomlari keltirilgan fanlarni koʻpchilikdan yaxshiroq bilgan Sayyid Hasan "...hayo va adab jihatidan, ham birovga ilzom-u xijolat yetmasun deb, koʻp soʻz aytmas ermishlar, balki koʻp majolisda takallum ham qilmas ermishlar"[83]. Mazkur

[81]Oʻsha joyda.
[82]Oʻsha joyda.
[83] Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. MAT. 15-jild. –Toshkent: Fan, 1999. – B.90.

jumla mantig‘i ko‘chirganimiz hadis mazmuniga teskari (zid) qiyoslash oqibatida uyg‘unlashadi.

Nega, Sayyid Hasanni bolalik davridanoq Boysung‘ur Mirzodan tortib shaharning jami allomalariga qadar tengqurlaridan ustun qo‘yadilar, qadr-qimmatini baland tutadilar? Chunki odobli yoshning muomala-munosabatida el-ulus ulug‘vorlik ko‘radi. Tavozu’ o‘z sohibini xalq nazariga salobatli qilib ko‘rsatadi. Ana o‘sha oliyjanob fazilatlari tufayli zamonasining ma’rifatli insonlari, yurtning ulug‘lari qalbida istiqbolli yoshga nisbatan samimiy muhabbat uyg‘onadi va bunday mehr ko‘ngillar mulkida mangu o‘rnashadi. Alisher Navoiy ta’kidicha, bunday go‘zal odob-u tavozu’ Sayyid Hasanning “zotida g‘olib”, asl-u nasabida bor. Shayx Muslihiddin Sa’diy ta’biri bilan aytganda, bulut hayot yomg‘irini quygani bilan tol daraxtida meva pishmaydi. Bo‘yra to‘qishga yaraydigan qamishdan ming uringan bilan shakar olib bo‘lmaydi. Sho‘rxok yerda gul unmaydi, lola-yu gul bog‘da, shirin zaminda ko‘karadi[84].

Sayyid Hasanni yoshligidanoq barchaga suyukli qilgan yana bir asliy (zotiy) fazilati bor. Bu – hayo. Alisher Navoiy talqinicha, hayo mavjud bo‘lgan vujudda vafo ham bor. Vafo bilan hayo ikki egizak farzand kabidir. Ular bir buloqning ikki ko‘zi, bir naqshin olmaning ikki pallasi yanglig‘ payvand, ajralmasdir. Qaysi inson tabiatidaki hayo bo‘lsa, unda vafo ham barqarordir. Ammo, hayo bilan payvasta vafo shunday pok xilqatli mahbubaki, u asl-u nasabi toza, tabiati beg‘ubor bo‘lmagan kimsaga rom bo‘lmaydi. “Bu ikki hamzod farzand” tabiatida shubha, gumon, qizg‘anchiqlik, gina-kudurat, hasaddan asar bo‘lmagan kishilarning vujudidan makon tutadi. Shuning uchun ham vafo ila payvasta hayo gulini davr chamanidan topish maholdir. Ba’zida jahon gulshani vafo ziynatidan bo‘shab qolgandek, insoniyat bog‘ida hayo gulining muattar hidlari taralmayotgandek, zamon vafosizlar ko‘ngli bilan sirlashayotgandek

[84]Sa’diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: Xalq merosi, 1993. – B.14-16.

taassurot qoldiradi. Ammo, kishilik dunyosining sardaftari – komil insonlarning vafo ila payvasta hayo quyoshi manguga dunyo zimistonini yoritib turadi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy: “Har kimda bu ikki yo‘q – andin odamiylik kelmak imkon yo‘q... Komillar – ahli hayo va noqislar – behayo”, – deya bitadi[85].

“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da qayd qilinishicha, Alisher Navoiy hijriy 860 (1455/56) yilda Sayyid Hasan bilan tanishadi. Alisherning 14-15 yoshlarida boshlangan samimiy va sadoqatli bu do‘stlik Sayyid Hasan hayotining nihoyasiga qadar davom etgan. Ular o‘rtasidagi munosabat ustoz-u shogirdlikdan, ota va o‘g‘illik maqomiga ko‘tarilgan.

Ulug‘ mutafakkirning nasriy asarlaridagi talqinlariga ko‘ra, chehrasida hilm alomatlari zuhur etib turgan xush axloqli insonning yuzi toza guldan nishon beradi. Bunday kishi ikkiyuzlamachilik, munofiqlik singari dil g‘ashliklaridan xoli bo‘ladi. Shuning uchun ham u el aro ko‘ngillar mahbubiga aylanadi. Bunday insonning pokiza siymosi ko‘zlarga zavq, yuraklarga huzur baxsh etadi. Nuroniy chehrasidan xalqqa xurramlik, shirin so‘zidan elga mamnuniyat yetadi.

El badaxloq, badbin kimsalarning shumligidan, biror falokat, baxtsiz hodisani sodir etish xavfidan tashvishda, tahlikada yashaydi. Xushxulq, **hilm**li kishidan esa nafaqat do‘st, dushman ham yomonlik kutmaganligi bois xavfsiz, xotirjamdir: “Osuda andin yor-u ag‘yorki, mundoq kishi bo‘lsun umridin barxurdor”[86]. Sayyid Hasan ana shunday hamida axloq sohibi bo‘lgan.

Alisher Navoiy talqinicha, Sayyid Hasan vujudi “**saxoi zotiy**” ila muzayyandir. Haq subhonahu va taolo asli yaratilishda xos bandalariga shunday layoqatni ato etadi. Ularning nazarlarini to‘q qilib qo‘yadi. Rasuli Akramning Abu Hurayradan rivoyat qilingan

[85] علي شير النوائي. محبوب القلوب Сводный текст. – М. – Л. Изд. АН СССР. 1948. – С. 114.
[86] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 101.

“Boylik matoning ko‘pligida emas, balki nazarning to‘qligida” hadislari shunday insonlarning axloqi, fe’l-atvori haqida aytilgandir[87].

Bunday insonlar boy yoki kambag‘alliklaridan qat’i nazar benihoya olijanob bo‘ladilar. Faqirlikdan qo‘rqmaydilar. Hech kimdan hech narsani ayamaydilar. Ko‘ngil uyi yaqin nuri ila munavvar bunday zotlarning saxiyliklari ortidan hech qanday minnat, armon, og‘riq va ozor kelmaydi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy: “Qone’ darveshning quruq noni, tome’ shohning xitoyi xonidin xo‘broqdur va forig‘i faqrandishning yovg‘on umochi olg‘uvchi g‘aniyning nabotiy kulochidin marg‘ubroq”, – deb yozadi[88].

Alisher Navoiy e’tiqodiga ko‘ra, insonning kimligi, odamiylik darajasi nafsga munosabatida ayon bo‘ladi. Xarobat ahlining aksariyatida na uy-joy bor (“bexonumon”), na kiyim-kechak (“oyog‘i yalang, boshi ham”). Ular bechorahol (“besar-u somon”) turmush kechiradilar. Hech narsalari yo‘q, ammo, hech narsaga ehtiyojlari ham yo‘q. Nafsini tuproqqa qorgan, Shohlik-u gadolik, bor-u yo‘q tashvishidan ozod bunday kishining **himmati** yuksak **osmondan-da balandroq**dir: “Nafsi garchi tufroqqa hamdast, himmati olida falak past”[89] . O‘ziga va oilasiga yetgudek sarmoyasi bo‘la turib, qasr ichida yashab yana maosh (tirikchilik) uyi ko‘ziga tor ko‘rinayotgan birodarlar uchun qanchalik ibrat bor, rind axloqining ayni qirralarida.

Sayyid Hasanni tug‘ma darvesh, ilohiyot foniysi deb ta’riflagan Alisher Navoiy unda Shayx Mavlono Muhammad Tabodgoniy xonaqosiga kelgunga qadar komil insonga xos qator fazilatlar mavjud-u mujassam ekanligiga e’tiborni tortadi. Ana o‘sha noyob xislatlardan biri “suchuk so‘z va mufrit xulq”dir. Shirin so‘z qalblar jarohatiga malham bo‘ladi. Ruhan ezilgan, o‘ksingan kishilarning

[87] Buxoriy I. Al-Jomi’ as–sahih . 3-jild. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B.131.
[88] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 54.
[89] O‘sha joyda. –B.45.

koʻnglini koʻtaradi. U har qanday tosh bagʻir insonga ham taʼsir qiladi, qalbini yumshatadi. Xira koʻngillar shirin soʻzdan ravshan tortadi. Qotib qolgan vujudlar undan junbushga keladi. Sayyid Hasanda muomala madaniyati, odamgarchilik hissi benihoya baland boʻlgan. Yigitlik ayyomida rindlar kecha-yu kunduz uning uyidan chiqmagan. Mezbon ularning bazmi, "ishrat va inshooti" uchun zarur boʻlgan barcha kerakli neʼmatlarni, asbob-anjomlarni muhayyo qilgan. Kechqurun majlis ahli odatiga koʻra rindlar sarxush boʻlgach, uxlashga hozirlik koʻrilgan. Sayyid Hasan uyqu oldidan hariflarining har biriga alohida gʻamxoʻrlik koʻrsatgan. Ularning mulozimlari borlarini xizmatkorlariga topshirgan. Xizmatchilari yoʻq, uy-joysizlariga koʻrpa-toʻshak soldirib, boshlari ostiga yumshoq bolishlar, oldlariga koʻzada suvlar qoʻydirgan. Baʼzilarining oyoq kiyimlarini, sallalari va roʻmollarini, xususan, roʻmol uchida omonat tugilgan boʻlsa, ularni ishonarli xodimlariga topshirib, sarishta-saranjom qilgach, xufton namozini ado qilib, oʻz hujrasida osoyishga mashgʻul boʻlgan.

Bunday doʻstlari Sayyid Hasan maskanini oʻz uyidan koʻra xavfsizroq deb bilgan. Uning huzurida oʻzini bexavotir, erkin his qilgan.

Barchadan oʻzini kichik va kam tutish, yaxshi-yu yomonga, ulugʻ-u kichikka xizmat huzurida boʻlish, farzandlariga, hatto xodim-u xizmatkorlariga, har qancha ularda intizomsizlik koʻrsalar-da, qattiq gapirmaslik, balki nasihatni "yumshogʻ va chuchuk til bila" qilish faqr-u fano ahliga, darveshlarga xos fazilatdir. Darvesh Sayyid Hasan Ardasher shaxsiyati shunday goʻzal axloqiy fazilatlar bilan muzayyan ekanligiga manoqibda gʻoyqatda qiziqarli va taʼsirchan lavhalar keltirilgan.

"Holoti Pahlavon Muhammad" manoqibida javonmardlik gʻoyalari badiiy ifoda etiladi. Alisher Navoiyning "Holoti Pahlavon

Muhammad” asari XV asrning II yarmi Xuroson kushtigirlarining[90] peshvosi, o‘z davrining yirik san’at arbobi, Shoir va mutaffakkir, favqulodda iste’dod va go‘zal axloqiy sifatlar sohibi Pahlavon Muhammadga bag‘ishlangan.

Manoqib “Bismilloh” dan so‘ng quyidagi satrlar bilan ochiladi:

Ey charx, ne davrlarki dast yetting,
Davringda muhabbat ahlini mast yetting,
Har kimniki, olamda zabardast yetting,
Oxir ajal ilgida ani past yetting.[91]

Ulug‘ adib misralari zamirida yirik falsafiy-hayotiy haqiqat mujassamlangan. Har qanday kuchli, jismoniy jihatdan baquvvat inson ham hayot gulshanida abadiy qolmaydi. Zabardast pahlavon ham ajal oldida ojiz, kuchsiz, boshi egikdir. Buyuk mutafakkir talqinicha, inson qay darajada yuksak maqomga erishmasin, barcha sohada o‘zidan balandroq insonlar ham mavjudligini fikridan uzoqlashtirmasligi darkor. Shundagina o‘zi qanchalik zabardast bo‘lmasin, ojizligini; qay darajadagi yuqori mansab kursisini zabt etib, dunyo molidan hisobsiz qo‘lga kiritmagan bo‘lsin, ularni Alloh mulk-u malakuti oldida sariq chaqaga arzimasligini, qanchalik bilimli olim bo‘lmasin, Haqning cheksiz ilmi qarshisida ularning nihoyatda kam ekanligini tan olib turadi. Biroq inson Allohning qudrat-u quvvati hamda o‘zining Haqqa mahkumligini ko‘rishi uchun uning ko‘ngil ko‘zi yorug‘ bo‘lishi, ezgulik yo‘lida “pir-u dardmandona” qadam tashlashi, “nafsida salomat” bo‘lishi zarur. Zero, “Angakim, yaqin ko‘zi ko‘rdur, Tengri do‘stlarini ko‘ra olmas va angakim tavfiq oyog‘i langdur, Tengri yo‘liga yugura olmas”[92].

[90] Kushtigir – f. Yakkama –yakka kurash tushuvchi, polvon, pahlavon. – Alisher Navoiysarlari lug ‘ati. –Toshkent: Fan,1972.-B.324.
[91] Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad.MAT.15-jild.- Toshkent:Fan,1999.-B.105.
[92] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 85.

O‘z zamonasida milliy kurashning yulduzi Pahlavon Muhammad va uning tarbiyasidagi yuzga yaqin polvonga mamlakat hukmdori Husayn Boyqaroning Shaxsan o‘zi har taraflama homiylik qilgan.

Manoqibda berilgan quyidagi talqinlarga e’tibor qaratsak: “(Pahlavonning) mijozida bazm-u saxo g‘olib va tab’ida shafqat-u raho mufrit, ulug‘larga zotiy niyozmandlik va xizmat va kichikroq notavonlarg‘a rasmi mehr-u shafqat va sarpayvandliq va mutavassitul-hollarg‘a ishi muloyamat va xo‘b zabonliq va fuqaro va masoking‘a varzishi muvofaqat va nafrasonlig‘”[93]. Aynan ana shunday fazilatlar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga, komil jamiyatni barpo qilishga olib keladi. Baxillik dardidan butkul poklangan odamning tabiatida saxovat g‘olib bo‘ladi. Insonning insonga achinishi, doimo boshqalarga Shafqat nazari bilan qarash; o‘zgalarning qayg‘u – tashvishini tortish; kambag‘al, zaifhol, muhtojlarga yordam berish; barcha bilan murosa qilib yashash Haq bilan nazari, tuyg‘ulari tutash komil insonga xos xislat-xususiyatlardir.

Husayn Voiz Koshifiy talqinicha, “ulug‘larga niyozmandlik” – o‘zidan ustun kishiga yetganda, odob saqlab, sukut qilish, undan ta’lim olishdir[94]. Alisher Navoiy ifodasidagi “xo‘p zabonliq” “Futuvvatnomai sultoniya”da “Shirin til bilan do‘stlarni siylash” tarzida tak’ya saqlashning zaruriy odoblari sirasida zikr qilinadi.

Pahlavonning tak’yasidan erta-yu kech odamlarning qadami arimagan. Kushtigir xizmatida bo‘lgan o‘nlab xodim-u oshpazlarning qo‘li turfa xil taomlar, lazzatli ovqatlar pishirish, dasturxonga xushta’m sharbatlar, shirin-shakar mevalar, har xil holva-yu shirinliklar tortishdan bo‘shamagan. Bu noz-ne’matlardan kambag‘al-bechoralar, miskin-u musofirlar hech bir takallufsiz

[93] Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. MAT. 15-jild. –Toshkent: Fan, 1999. – B. 112.
[94] محسني اخلاقي . الحروى لكاشفي اعلي الوئظبن حسين ملأ I.Qosimzoda shaxsiy kutubxonasidagi qo‘lyozma. – B. 36 a.

bahramand bo‘lganlar: “Kecharoqlik va kunduzlik yigirma to‘rt soatda Pahlavonning tak’yasida xoh safarda, xoh hazarda tabx ishtig‘olidin farog‘at yo‘q erdi, turluk-turluk at’ima erdi. Andoqki bu ne’mat-u ag‘ziyadan fuqaro va masokin-u muqim va musofir mahzuz erdilar”[95]. Davlatmand va e’tiborli kishilar, yurtning ulug‘lari, shahzodalar, hatto mamlakat hukmdori Husayn Boyqaro ham kushtigirning saxiy dasturxonidan bahramand bo‘lgan: “...Sultonus-salotin ham yetgach, bu mazkur bo‘lg‘on at’imalar ham tortilur erdi va yetmasalar erdi – Pahlavonning ushoqlari ko‘tarib tog‘ga elturlar erdi va agar eltmasalar erdi – yuqoridan kishi kelib, tilab elta borurlar erdi”[96].

G‘aribga non berish, boshpana berish mezbondan katta mardlik, shijoat, qat’iyat talab qiladi. Musofir kishining hayoti, tirikchiligi, holatini muhojirlik g‘urbatini boshidan kechirgan to‘g‘ri his qiladi. Alisher Navoiy musofirlik iztiroblarini o‘z taqdirlari misolida sinovdan o‘tkazgan edilar. Shuning uchun ham Pahlavon Muhammad shaxsiyatidagi g‘aribparvarlikka alohida urg‘u beradilar. “Futuvvatnomai sultoniya”da musofirning oldiga uch kun davomida dasturxon yozishni kanda qilmaslik uqtiriladi[97].

Manoqibda ta’kidlanishicha, mamlakatga turli manzillardan kelgan g‘arib-g‘urabolar, musofirlar o‘n kun, ba’zida bir oy-ikki oylab Pahlavonning tak’yasida qolib ketgan. Qo‘noqlarga har kuni ikki-uch mahal ovqat, yotib-turishlari, istirohat qilishlari uchun shinam uy; ulovlari borlarining ot, eshak va tuyalariga arpa-yu somon hamda yotoq hamisha tayyor bo‘lgan: “...har tarafdin kelgan fuqaro va g‘urabo va aksarash o‘n kun, balki bir oy – ikki oyg‘acha tavaqquf

[95]Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. MAT. 15-jild. –Toshkent: Fan, 1999. – B. 112.
[96]O‘sha joyda.
[97] Koshifiy HusaynVoiz. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. – Toshkent: Xalq merosi, 1994. – B.55.

qilsalar erdi – bu ma’kulot alarning ilayiga kulfatsiz, balki ikki-uch qatla tortilur erdi...”[98].

Alisher Navoiy o‘z adabiy qahramonlarining saxiylik, oliy himmatlilik kabi fazilatlarini yoritar ekan, aksariyat holatlarda badiiy matnda “kulfatsiz”, “betakalluf” kabi so‘zlarni qo‘llaydi. Kulfatsiz qilingan himmat baxillik, minnat, g‘ayirlik kabi qusurlardan xoli bo‘ladi.

Ulug‘ mutafakkir talqinicha, saodatga eltuvchi pokiza ruh manbai ham til, nahs, shumlik asosi ham til. Tilini o‘z ixtiyorida saqlay bilgan odam – oqil, tiliga erk bergan kishi – andishasiz va tubandir.

Javonmard ana shu ikki a’zo (ko‘ngil va til) sharofatidan insoniy kamolot cho‘qqisiga ko‘tarilgandir. Uning ko‘ksi – yaxshilik xazinasi. Tilidan esa bol tomadi. “Holoti Pahlavon Muhammad”dan o‘qiymiz: “Barcha sodoti mashoyix va ulamo-yu fuqaroning Mahbub ul-qulubi erdi va podshoh eshigida arkoni davlatdin oliyShon beklar va oliymakon ichkilar va sudur va soyir xaloyiqg‘a Pahlavonning suhbati navro‘z va bayramcha bor erdi, ...”[99].

Bashar farzandi uchun mehr-u shafqat tuyg‘usini yo‘qotishdan kattaroq musibat yo‘qdir. Qovog‘idan qor yog‘ib, yuzidan zahar tomib ko‘rsatilgan marhamat odamlar yuragini kemiradi. “Agar taom g‘azab bilan tayyorlangan bo‘lsa, unda xayr-u barakot yo‘qdir, havoyi nafs va shayton unga yo‘l topgandir”[100]. Katta hayotiy tajriba sohibi Alisher Navoiy Pahlavon Muhammad siymosini avlodlarga ibrat qilar ekan, mavzuning ayni qirralarini ham e’tibordan soqit qilmagan: “... Hattoki sultonzodalar tilamas erdilarkim, bir lahza onsiz (Pahlavonsiz) bo‘lmag‘aylar erdikim, podshohzodalardin

[98] الحروى لكاشفي اعلي الوئظبن حسين ملأ . محسني اخلاقي I.Qosimzoda shaxsiy kutubxonasidagi qo‘lyozma. – B. 36 a.

[99] Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. MAT. 15-jild. –Toshkent: Fan, 1999. – Б. 113.

[100] أنس الطالبين و عدة السالكين. صلاح الدين بن المبارك البخارى BM xazinasidagi 27772/11-raqamli qo‘lyozma. 1267- hijriy. – B. 47 a.

nechaki mu’tamad otlanib, Pahlavonning tak’yasiga borib, suhbatlig‘e qilg‘aylar erdi. Ul dag‘i barchasig‘a loyiq xizmatlar qilib, suhbatlar tuzib, ne’matlar tortib, sozandalig‘ va go‘yandalig‘ buyurub, samo‘ va raqs qilib, alarni xushhol va munbasit uzotur erdi”[101]. Manoqibdan keltirilgan mazkur iqtibos benihoya katta ma’naviy-ma’rifiy qimmatga ega. Husayn Boyqaro xonadoniga mansub shahzodalarning kushtigir tak’yasiga ochlikdan yoki in’om-ehson kutib kelmaganligi kun kabi ravshandir. Shuning uchun ham muallif masalaning ayni jihatiga o‘quvchi diqqatini qaratgan. Podshohzodalar ko‘ngli tortib, vujudini qamragan mehr g‘olib kelib Pahlavon suhbatiga oshiqqan.

Sog‘inch tuyg‘usi, komil insonni qo‘msash ishtiyoqi odamlarni kushtigir dargohiga yetaklagan. Ko‘chirilgan iqtibosning ikkinchi jumlasidan ayon bo‘layotirki, Pahlavon tak’yasiga tashrif buyurganlarga mehrini poyandoz qilgan. Har turli shirin taomlar, anvoyi noz-ne’matlar, hofiz-u sozandalar, raqs-u samo o‘z yo‘lida davom etgan, amal qilgan.

Pahlavon Muhammad kabi barkamol insonlarni barchaga suyukli qilgan yana bir fazilatlari bor. Bu – sabr (chidam, bardosh). Istagan kimsani qo‘pol muomalasi tufayli ranjitmaslik hamda o‘z zehni koyiganligini ham hech kimga sezdirmaslikdir. Istagan nodonliklarga, johilona xatti-harakatga ham bosiqlik bilan tahammul qilish Pahlavon qalbining javhari edi.

Ulug‘ mutafakkir shuncha tahlil-u talqin, ta’rif-u tavsifdan keyin ham bu nomdor kushtigir, Husayn Boyqaro qalamravidagi polvonlarning piri hamda Hirot javonmardlarining peshvosi, serqirrali olim tasvirida o‘z qalamini ojiz his qiladi. Alisher Navoiy tabiatidagi o‘ta xoksorlik bu o‘rinda ham o‘zidan xabar bergan. Shuncha go‘zal asarlar muallifi bo‘lgan adib bunda o‘z nomini tilga ham olmaydi, balki Pahlavondek mukammal inson shaxsining

[101] Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. MAT. 15-jild. –Toshkent: Fan, 1999. – Б. 113.

sharhida o‘zidan boshqa eng ulug‘ so‘z san’atkorlarining ham zaboni qisqa, kamchilikli; eng so‘zamol doston aytuvchilarning ham imkoniyatlari cheklangan ekanligiga ishora qiladi: “Alqissa, Pahlavonning barcha nav’ ishlarining xushlug‘i bayonida va har tavr siyrat va suratining dilkashlig‘ining sharhida zabonvarlar tili qosir va dostongustarlar nutqi ojizdur”[102].

Navbatdagi jumladan boshlab o‘quvchi e’tibori muallif va uning adabiy qahramoni munosabatlariga tortiladi: “Qirq yilg‘a yaqin bu faqir bila musohibi joniy, mahrami rozi nihoniy erdi”[103]. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”ning 121-tanbehida ‘Bashar jinsin rozingg‘a mahram bilma, balki malakni ham o‘zungga mahram qilma”, – deydi[104]. Ammo, “Holoti Pahlavon Muhammad”dan ko‘chirilgan ixcham iqtibosdan ayon bo‘layotirki, qalb orqali yaqin; matonati, qat’iyati; go‘zallikni his etish darajasi; o‘y, xayollari o‘z tabiati ila uyg‘un birodarlaridan ulug‘ mutafakkirning o‘zi ham sir yashirmagan.

Har qanday do‘stlik inson maishiy hayotining ikki nozik faslidagi imtihon – sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tsa, umrboqiylik kasb etadi. Birinchidan, inson turmushidagi yo‘qchilik, kambag‘allik, zaiflik yoki g‘ariblik uning do‘sti kim, dushmani kim ekanligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, do‘st amalga minganda, uning maqomi yuksalganda, u boylik va kuch-qudratga ega bo‘lganida do‘stlik yana bir og‘ir sinovga duch keladi. Alisher Navoiyning quyidagi fikri “Holoti Pahlavon Muhammad”dan yuqorida keltirilgan jumla mazmuni bilan birlashib, ayni hayot haqiqatini aks yettiradi: “Falokat ayyomidan zohir yuzidin taayyun va istitoat zamonig‘acha ko‘prak avqot bila ekandur”[105].

[102]O‘sha joyda. – Б. 114.
[103]O‘sha joyda.
[104]Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. MAT. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 124.
[105] Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. MAT. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 114.

XV asr 50-yillarining oxiri va oltmishinchi yillarining birinchi yarmi Alisher Navoiy hayotining qayg‘uli davridir. Otasi G‘iyosiddin Bahodir hamda homiy-u g‘amxo‘ri shoh Abulqosim Bobur foniy dunyodan rixlat qilgan, nufuzli va mehribon qarindosh-urug‘lari Mirsaid Kobuliy hamda Muhammad G‘aribiylar Abusaid Mirzo qo‘lida shahid bo‘lgan. Otadan qolgan mol-u mulki shoh Abusaid tomonidan musodara qilingan. Ulug‘ mutafakkir o‘z hayotining mazkur davrini nasriy asarlarida “ayni iflos-u falokat va sarnavish-u ranjurish” ayyomi deya xotirga oladi. Manoqibdan keltirilgan jumlada “taayyun va istitoat” zamoni deyilganda Alisher Navoiy tarjimai holining Husayn Boyqaro hukmronligi davridagi sanalari, ya’ni ulug‘ adibning “zohir yuzidin” amal va mansab, boylik va kuch-qudratga ega bo‘lgan paytidagi hayoti nazarda tutiladi.

Pahlavon Muhammad Alisher Navoiy maishiy hayotining bir-biridan tubdan farqlanuvchi har ikkala davrida ham do‘stlik shartlarini a’lo darajada bajargan. Do‘stga sodiqlikning oliy namunasini ko‘rsatgan. Alisher Navoiy qalbini o‘z e’tiqodining ko‘zgusi yanglig‘ asrab avaylagan. Abusaid Mirzo Xuroson mulkida o‘z hokimiyatini o‘rnatgan, Xuroson xalqi “har nav’ zulm” va tajovuz undan “voqe’ bo‘lsa”, bo‘ysunishga majbur bo‘lgan bir vaziyatda ota-ona, homiy-g‘amxo‘rlar, qarindosh-urug‘, mol-mulk, hovli-haramdan ajralgan; tug‘ilgan, kindik qoni tomgan Hirotdan yiroqlashgan Alisher Mashhadda g‘arib bir holatda, kutilmaganda mafosil (bo‘g‘imlar og‘rig‘i) kasaliga chalinib, bir xilvat, chekka joyda yotib qoladi. Tasodifiy ravishda o‘sha paytda yo‘li Mashhad sari tushgan Pahlavon Muhammad voqeadan xabar topadi: “Bu faqirning holidin xabar topg‘ondin so‘ngra har kun qadam ranja qilib, ulcha qoidayi Shafqat va yorlig‘ va tariqi muhabbat va g‘amxorliq bajo kelturur erdilar – angachaki maraz daf’ bo‘ldi”[106]. Manoqibdan

[106]O‘sha joyda. – B. 114-115.

keltirilgan iqtibos ortiqcha sharh-u izohlarsiz, Pahlavon vujudi birodarlikdek muqaddas tuyg‘u bilan to‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy va Pahlavon Muhammad shaxsiyatida o‘quvchini hayratda qoldiradigan darajada atvoriy jipslik va mutanosiblik bor. Hirot javonmardlarining peshvosi Pahlavon e’tiqod qo‘ygan maslakning (futuvvat) botiniy ruknlaridan biri – “tavozu’, ya’ni boshqalarni o‘zidan afzal bilmoq, barchaga kamtar, xoksor munosabatda bo‘lish...”[107]. Kichik abjadlaridan biri esa: “xoksorlik bila o‘zini tuproqqa aylantirishdir”[108]. O‘z-o‘ziga malomat nazari bilan qarash, bor nuqsonlar, qusurlar, ayblarni o‘ziga nisbat berish ham shu maslakning axloqiy talablaridan biridir. Mazkur ma’naviy go‘zalliklarning Alisher Navoiy shaxsida qay darajada zuhur etganligini ulug‘ mutafakkir va kushtigir orasidagi do‘stlik talqiniga yo‘naltirilgan quyidagi jumladan ham yorqin tasavvur qilish mumkin: “Mundin o‘tmaski, qirq yil bir meningdek xudroy va besarupoy, oshuftasor-u parishon ro‘zgor kishi bila musohiblik qilg‘ayki, xotirg‘a kelmaski, andin xotirg‘a g‘ubore o‘ltirmish bo‘lg‘ay va ko‘ngulga yetmaski, hargiz andin ko‘ngulg‘a ozore yetmish bo‘lg‘ay, balki andoq nisbat qilmish bo‘lg‘aykim, kundan kunga muhabbat rishtalari mahkamroq va mavaddat qoida va tariqi muakkad va mustahkamroq bo‘lmish bo‘lg‘ay...”[109].

Alisher Navoiy va Pahlavon Muhammad hayotning ayrim muhim sohalarida vafosizlik, oqibatsizlik, andishasizlik jabrini tortgan bo‘lsalar-da, odamlarga bo‘lgan qaynoq mehr-muhabbatlari baland bo‘lganligi tufayli el orasiga yaxshilik urug‘ini sochishda davom etganlar. Hayotning har qanday qaltis imtihon-sinovlariga ham ulkan sabr-u bardosh bilan javob berib, “Inson yaxshiliklarnig quli” hadisi

[107] Koshifiy Husayn.Voiz. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. – Toshkent: Xalq merosi, 1994. – B. 10.
[108] O‘sha joyda. – B. 15.
[109] Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. MAT. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 114.

hamda “Yaxshilikka yaxshilikdan boshqa mukofot yo‘q” oyati mohiyatidagi g‘oya bilan yashab, shu e’tiqodni omma orasida targ‘ib qilganlar. Aynan shu g‘oya va e’tiqod barcha ahli dil insonlar hayotining tamal toshidir.

3.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va xukamo” hamda “Tarixi muluki Ajam” asarlarining yaratilishi ma’lum tarixiy davrlar va jarayonlar bilan bog‘liq. Ma’lumki, Navoiy 1483-1485-yillar orasida turkiy tildagi mashhur “Xamsa” asarini yaratish bilan Xuroson hukmdori va o‘zining eng yaqin do‘sti bo‘lgan Husayn Boyqaroning yuksak iltifotiga sazovor bo‘ladi. Navoiyning shoh qoshida oshib borayotgan mavqe’-e’tibori Husayn Boyqaro saroyidagi bir guruh amaldorlarni tashvishga solib qo‘yadi. Ular shohning adolatparvar amirini markazdan uzoqqa jo‘natish yo‘lini izlay boshlaydilar. Xuddi shu paytda, xazinaning bo‘shab qolishi amirlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida keltirilishicha, o‘sha vaqtda Husayn Boyqaroga ma’lum miqdorda mablag‘ kerak bo‘lgan. Bu muammoni hech bir amir hal etolmagach, saroyda katta mavqega ega bo‘lgan Majididdin Husayn Boyqaro, agar uning aytganlariga rozi bo‘lsa, xazinani to‘ldirishga va’da beradi. Shoh rozi bo‘lgach, Alisher Navoiy davlat ishlaridan chetlashtirilib, 1487-yilda Astrobodga hokim qilib tayinlanadi. Navoiyning shoh huzurida faoliyat yuritishi adolatsizlik, nohaqlik, zulm va zo‘ravonlik yo‘li bilan xalqdan soliq yig‘ishga yo‘l bermas edi. Shuning uchun ham Navoiy mamlakat ishlaridan uzoqlashtirilib, uzoq yurtlarga jo‘natiladi. Ikkinchidan, Astrobod Xurosonning chegaraga yaqin viloyatlaridan biri bo‘lib, bu erda tinchlik va osoyishtalikni saqlab turish siyosiy ahamiyatga ega edi. Alisher Navoiy podshohning eng

yaqin do‘sti va ishonchli vakili sifatida ham siyosiy maqsadlar nuqtayi nazaridan bu yerga yuboriladi. Vatan sog‘inchi bilan yashagan Navoiy oradan ikki yil o‘tgandan so‘ng poytaxtga qaytishga muvaffaq bo‘ladi. Fisqu fasodlar fosh bo‘lgach, Majididdin saroy ishlaridan chetlashtiriladi va o‘rniga Nizomulmulk tayinlanadi.

Navoiy o‘zining tarixiy asarlarini ana shunday og‘ir damlarda yaratadi. “Tarixi muluki Ajam” asarining yaratilishi 1488-yilga borib bog‘lanishi to‘g‘risida bir qancha ma’lumotlarni uchratish mumkin. Lekin, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining yozilgan vaqti aniq emas. Manbalarda asarning yozilish sanasi 1485-1498 yillar orasi deb ko‘rsatilgan [110]. Ba’zi adabiyotlarda esa 1496-yili yozishga kirishildi, degan fikrlar bildirilgan. Olimlar bunday xulosaga kelishda Turkiyadagi To‘pqopi saroyi muzeyida saqlanayotgan Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan ko‘chirilgan “Kulliyot”ga asoslangan bo‘lishlari mumkin. Chunki asarning ko‘chirilgan davri Hazrat Navoiy hayotligi (1496-1497) yillariga borib taqaladi. “Kulliyot” tarkibiga kirgan “Kitobi tarix” ruknida “Tarixi anbiyo va hukamo” asari to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltirilgan. “Kulliyot”ning ko‘chirilgan vaqti bilan “Tarixi anbiyo va hukamo” yozilgan davrni almashtirmaslik lozim. Chunki asarning ko‘chirilgan va yaratilgan davri orasida juda katta farq mavjuddir.

Asarning yaratilgan davri to‘g‘risidagi fikrimizni asosli dalillash va aniq bir to‘xtamga kelishimizda Navoiyning asarda keltirgan so‘zlari e’tiborga loyiq va muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, muallif shunday deydi: “…yana biri Hazrati Jomiy maddazallaulaliykim Yusuf alayhissalomning husni va jamoli ta’rifdin mustag‘niydur...” (…yana biri Hazrati Jomiy (ulug‘ Tangri umrini uzaytirsin) kim, bular tasvirlagan Yusuf alayhissalomning

[110] O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1977. – 460 b.

husni va jamoli ta’rifga muhtoj emas)[111]. Demak, Navoiy bu asarni yozayotganda ustozi va piri Abdurahmon Jomiy hayot bo‘lgan va u Tangridan ustozining umrini uzun qilishni so‘ragan. Bu ma’lumotlarga asoslanib, asar 1492-yilgacha bo‘lgan davrda, ya’ni Abdurahmon Jomiy vafotidan oldin yaratilgan, deyishimiz mumkin. Agar asar 1496-1497-yillarda yaratilgan bo‘lganda, shoir ustozini tirik shaxs sifatida tilga olmas edi.

Bundan tashqari, fikrimizni Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida keltirilgan jumlalar ham tasdiqlaydi. Masalan, “Xamsa” shug‘lidin chun farog‘at topibmen, taxayyyul ul geti navardin salotin ta’rixi dashtig‘a chopibmen…”[112].

Demak, Navoiyning turkiy tildagi mashhur “Xamsa”sini yozib bo‘lgandan so‘ng, birinchi yaratgan asari tarixga oid, ya’ni tarixiy payg‘ambarlar va tarixiy shaxslar to‘g‘risidadir. Navoiy “Xamsa”ni yozib tugatgach, tarixiy asarlar yaratishga kirishgan. Agar Navoiy ushbu mavzudagi asarlarini 1490-yillardan keyin yaratganda edi, “Xamsa” dostonidan so‘ng birinchi yaratgan asarlari sifatida tilga olmas edi.

Navoiy bu asarlarini o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida bitta umumiy nom bilan “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”) deb ataydi: “Bu “Xamsa” shug‘lidin chun farog‘at topibmen, taxayyyul ul geti navardin salotin ta’rixi dashtig‘a chopibmen, chun noma savodi zulmatidin “Zubdat ut-tavorix” adosin tuzurmen, salotin o‘lgan otin bu hayvon suyi bila tirguzupmen”[113].

Demak, bu ikki tarixiy asar Navoiy nazarida bir turkum sifatida shakllantirilishi niyat qilingan va bitta umumiy nom bilan atalgan.

[111]Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. – Samarqand: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotining bo‘limi, 1990. – 138 b.
[112] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
[113] O‘sha asar.

“Tarixi anbiyo va hukamo” ushbu turkumning birinchisi bo‘lsa, “Tarixi muluki Ajam” uning ikkinchi qismidir.

Ko‘pchilik adabiyotlarda Navoiyning bu tarixiy asarlar to‘plami ikkita alohida asar sifatida tilga olinadi. Lekin, Alisher Navoiy “Kulliyot”ining O‘zR FA ShI fondlaridagi qo‘lyozmalarda hamda Turkiyadagi To‘pqopi saroyi muzeyida saqlanayotgan hazrat Navoiy hayotligida (1496-1497) Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan ko‘chirilgan “Kulliyot”da “Kitobi tarix” ruknida berilgan “Tarixi anbiyo va hukamo”dan so‘ng kelgan “Tarixi muluki Ajam” alohida abzats bilan ajratilmagan holda ekanligi va “Tarixi anbiyo va hukamo”ning «anbiyo alayhissalom so‘zi va ubbod va hukamo tarixi alal ijmol mazkur bo‘ldi. Endi Ajam muluki zikriga Shuru’ qiloli. Va min Ollohu-tavfiq vallohu a’lam bis-savob”[114], – degan jumlalar bilan yakun topishi uning yagona, umumiy bir tarix ekanligidan dalolat beradi. Demak, asar dastlab bir butun holda bo‘lgan, keyinchalik esa alohida asarlar sifatida o‘rganila boshlangan. Bunga sabab Navoiyning tarixchisi bo‘lgan Xondamirning quyidagi so‘zlari ta’siri bo‘lgan bo‘lsa, ehtimoldan xoli emas: “Va o‘sha zamonda ikki qisqa tarix, biri payg‘ambarlarning ahvollari haqida yozgan. Bu ikki qimmatli nusxada qiziq hikoyalar va ajoyib rivoyatlar keltirilgan”[115].

Asarlarning kompozitsion qurilishini yuqoridagi manbalarga asoslanib, ular sharq tarixshunosligi an’analariga tayanilgan holda yaratilgan, deyishimiz mumkin. Chunki sharq tarixshunosligi an’analari o‘z navbatida quyidagi shartlarga amal qilishini talab etar edi:

1) har bir tarix kitobi Odam (a.s)ning paydo bo‘lishi, undan so‘ng payg‘ambarlarning faoliyati to‘g‘risidagi voqealar bilan boshlanishi kerak;

[114] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
[115] Komil inson haqida to‘rt risola. (Fors-tojik tilidan N.Komilov tarjimasi) – Toshkent: MA’NAVIYAT, 1997.

2) so‘ngra Eronning afsonaviy sulolalariga oid voqealar tasvirlanishi va nihoyat muarrix bayon etmoqchi bo‘lgan voqealarga o‘tilishi lozim.

Bu O‘rta asrlarda qat’iy amal qilingan an’ana hisoblangan. Navoiy asarlarini kuzatadigan bo‘lsak, “Tarixi anbiyo va hukamo” asari Odam salovatullohu alayhning yaratilishi bilan boshlanib, so‘ng nabilar, ulardan so‘ng obidlar va hakimlar to‘g‘risida, “Tarixi muluki Ajam”da esa Eronning afsonaviy sulolalari haqida hikoya qilinadi.

Akad. Boturxon Valixo‘jayev “Alisher Navoiyning nasriy asarlari tasnif va tavsifi”ni berar ekan, shunday yozadi: “Alisher Navoiyning nasriy asarlarini yo‘nalish nuqtayi nazaridan quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin: ilmiy, tazkira, holot, ijtimoiy-axloqiy. Olim tazkira usulida yozilgan asarlari sirasiga tarix va falsafaga oid “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, falsafa va ahli mutasavvuflarga bag‘ishlangan “Nasoyim ul-muhabbat” hamda zamondosh shoirlardan bahs yurituvchi “Majolis un-nafois” singarilarni kiritadi va shunday yozadi: “Tarixi anbiyo va hukamo”- “Payg‘ambarlar va faylasuflar tarixi” deb nomlanuvchi bu asar aslida Alisher Navoiy tomonidan “Zubdat ut-tavorix”[116]. (“Tarixlar qaymog‘i”) deb atalgan jome’ asarning birinchi qismidir. Asarning yozilishi tarixi 1485-1498-yillar oralig‘ida deb taxmin qilinadi.

“Tarixi muluki Ajam” asari Alisher Navoiy tomonidan “Zubdat ut- tavorix” tarzida tilga olingan turkiy tildagi umumiy tarix haqidagi jome’ kitobning ikkinchi qismi bo‘lib, unda Ajam podshohlari tarixidan muxtasar so‘z yuritilgan. “Zubdat ut-tavorix”ning uchinchi qismida turk podshohlarining Husayn Boyqarogacha bo‘lgan tarixi tashkil etilishi nazarda tutilgan bo‘lsa-da, ammo, uni yozish amalga oshmagan ko‘rinadi”[117].

[116] Valixo‘jayev B. Alisher Navoiyning nasriy asarlari: tasnif va tavsif. Mumtoz siymolar. 1-kitob. – Toshkent: Abdulla Qodiriy n-dagi XMN, 2002.
[117] O‘sha asar

Adabiyotshunos olim Qobiljon Tohirov o‘zining “Alisher Navoiy- tazkiralar muallifi” maqolasida bu fikrlarni davom ettirib, shunday yozadi: “...Alisher Navoiyning yana ikkita asari ham tazkiraga o‘xshab ketadigan asardir. Ulardan biri “Tarixi anbiyo va hukamo” bo‘lib, uni payg‘ambar va hakimlar haqida tarix-tazkira deb hisoblash mumkin. “Tarixi muluki Ajam” asarini esa Eron podshohlari haqidagi tarix-tazkira desak, uncha xato bo‘lmaydi. Bu to‘rtala asarda ham tarixiy, falsafiy, adabiy ma’lumotlar jamlangan, faqat ularning har biri alohida sohaga mo‘ljallangan: “Tarixi anbiyo va hukamo” - ilohiyot, “Tarixi muluki Ajam”da - davlatchilik va siyosat.

Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” tipidagi yana bir tazkiraviy asari yozilmasdan qolgan. Unda Navoiy Yofasdan boshlab, Iskandar hamda keyingi to‘rt xoqon va sultonlar, Amir Temur va temuriylar haqida ma’lumot berib, oxirida Husayn Boyqaro tarixiga to‘xtalmoqchi bo‘lgan, ammo, afsuski, bu niyat amalga oshmagan”[118].

Navoiyning bu tarixiy asarlar to‘plami o‘z yakuniga etmagan, ya’ni muarrix yoritmoqchi bo‘lgan zamonaning odil shohi Husayn Boyqaro to‘g‘risidagi tarix yozilmay qolgan, ana shu jihatdan asar tugallikka ega emas. Navoiy har ikki asarida ham Husayn Boyqaro to‘g‘risida xudo nasib qilsa, asar yozajakligini bayon etadi. Jumladan: «Chun bu tarixdaki bitiladur, xotirda andoqdurkim, sultoni sohibqiron holot va insoni mazkur bo‘lg‘ay. Insho ollo taolo ul Yofas tarixig‘a mavqufdir. Chun so‘ngra bo‘lg‘usidur, muncha bila ixtisor qilildi»[119].

[118] Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. – Samarqand: G‘afur G‘ulom n-dagi AS nashriyotining bo‘limi, 1990.
[119] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.

Yoki:

Vale azmim emdi budurkim xudoy,
Agar bo‘lsa umrimg‘a muhlatfizoy.
Chekib turfa tarixingga xomani,
Qilib nuktag‘a tez hangomani.
Sifotingni avvaldin oxirg‘acha,
Xayoloti maxfiyu zohirg‘acha.
Valodat kunidin tutub to bu dam,
Borin sharh ila aylagaymen raqam.
Burunroq solib turfa bunyod anga,
Berib zikr obou ajdod anga, [120] -

kabi so‘zlarga duch kelishimiz mumkin. Demak, Navoiy Husayn Boyqaro tarixini va shu orqali temuriylar sulolasi tarixini yoritishga bag‘ishlangan bir buyuk tarixiy asar bitmoqchi bo‘lgan. Lekin, ba’zi sabablarga ko‘ra asar nihoyasiga etmagan.

Navoiy o‘zining tarixiy asarlarini yozishda Jaloliyning “Nizomut-tavorix”, Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Banokatiyning “Jome’ ut-tavorix”, “Tarixi Banokatiy”, Muhammad G‘azzoliyning “Nasihat ul-muluk”, Hamdulloh al-Mustavfiyning “Go‘zida”, Shuningdek, Salmon Forsiy, Ibn Abbos, Vahb binni Muhabbih kabi ko‘plab muhaddis va tarixchilarning asarlaridan foydalangan. Navoiy o‘zi keltirgan ma’lumotlarning tarixiy aniqligini isbotlashda o‘sha asarlardan parchalar keltirish yoki asarlarda qayd etilganini ta’kidlash bilan kifoyalangan. Masalan, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida “Odam alayhissalomni tufroqqa qirq kun rahmat yomg‘uri yog‘dirib, o‘z qudrati ilki bila taxlif qildikim, “Xammartu tiynata Odama biyaday arba’iyna sabohan” andin xabar berur”[121], deb hadis sharifdan foydalangan bo‘lsa, “Tarixi muluki Ajam” asarida esa

[120] O‘sha asar.
[121] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.

“Ammo “Nizomut tavorix” va “Jome ut-tavorix”i Jaloliy va Banokatiydagi ittifoq bila hujjatul - islom imom Muhammad G‘azzoliy (quddusa sirrihu) “Nasihat ul-muluk”ida ani Shis alayhissalomning qardoshidir”, deb Jaloliyning “Jome’ ut-tavorix”, Muhammad G‘azzoliyning “Nasihat ul-muluk” asarlaridan ma’lumotlar keltirish bilan asarning tarixiy aniqligini asoslashga intilgan.

E.E.Bertelsning “Navoiy ijodiy biografiyasi tajribasi” kitobida uning ilmiy-nazariy asarlari ro‘yxatida “Tarixi muluki Ajam”dan so‘ng “Tarixi Anbiyo” deb berishi sho‘ro davri an’anasiga ko‘ra, “Tarixi muluki Ajam”ning birinchi asar sifatida ro‘yxatlarga kirishiga sabab bo‘ldi. Biroq, “Tarixi anbiyo va hukamo” haqida dastlabki ma’lumot turk olimi Ogah Sirri Levendga tegishlidir. U o‘zining 1965-yilda Istanbulda bosilib chiqqan “Mir Alisher Nevai” kitobining I va IV tomlarida “Tarixi anbiyo va hukamo” asari to‘g‘risida umumiy tavsif beradi. I tomda Ogah Sirri Levend “Bu asar ikki bo‘lakdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lagida Odam alayhissalomdan Isogacha bo‘lgan payg‘ambarlar va Iso izdoshlari Jurjis va obidlar to‘g‘isida so‘z boradi, ikkinchi bo‘lagida esa hakimlarga baho beriladi”, deb yozadi[122]. IV tomda esa “Tarixi anbiyo va hukamo” to‘g‘risida umumiy axborot va unda zikr etilgan shaxslarning ro‘yxati keltirilgan.

Keyinroq “Tarixi muluki Ajam” o‘rganilishi barobarida “Tarixi anbiyo va hukamo” asari haqida ham fikrlar yuzaga chiqa boshladi. Asar matnini ikki marta nashrga tayyorlagan Latif Xalilov mazkur asarning matniy tadqiqiga oid nomzodlik dissertatsiyasi va “Adabiy meros” jurnalida e’lon qilingan maqolasida ushbu asar tarkibiga doir fikrlarni ilgari surdi. Undan so‘ng besh jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning ikkinchi jildida “Tarixi anbiyo va hukamo”ga kitobning

[122] Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческих биографий. – Москва–Ленинград: 1948.

eng so‘ngidan joy berildi va “…Shoir dunyoqarashidagi ziddiyatlar ifodasi”[123], deb baholandi. Navoiyshunos olima S.G‘aniyeva va akad. A.Qayumovlar o‘z kuzatishlarida uning talqiniga kirishdilar. Adabiyotshunoslikda Navoiyning payg‘ambarlar to‘g‘risidagi asarining nomlanishi bo‘yicha turli xil fikrlar bildirilgan bo‘lib, olimlarning ko‘pchiligi bu asarni “Tarixi anbiyo va hukamo” deb ataydilar. Faqat akad. Aziz Qayumov “Ammo, (anbiyo) nabilar bobida nabi bo‘lmagan yo‘lboshchilar to‘g‘risida hamda yazdonparastlikka mustaqil o‘tgan yetti kishi ”as’hobi kahf” to‘g‘risidagi hikoyalar borligi uchun asarning bu qismini “Ubbod” (obidlar) zikri” deb atash mumkinligi xususida o‘z fikrini bildiradi. Bundan tashqari, A.Qayumov turli nom va shakllarda tavsiya etilayotgan har ikki tarixiy asarlar (“Tarixi anbiyo va xukamo” va “Tarixi muluki Ajam”)ni bir yaxlit asar sifatida tushunish kerakligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, musulmon Sharqida tarix kitoblarning avvali Odam alayhissalom va payg‘ambarlar tarixi bilan boshlanib, so‘ngra salotin nasabi haqida bo‘lganini ”Tarixi Tabariy”, “Tarixi Banokatiy” va “Tarixi Damashkatiy” tajribasi ham dalillaydi. Alisher Navoiyning o‘zi ham ushbu intizomga rioya qilayotganini e’tirof qilib, «Banokatiy tarixi depturkim, yigirma ikki ming oy zibh bo‘ldi», deb yozadi.

Alisher Navoiy o‘zining tarixiy asarlarini “Zubdat ut-tavorix” “Tarixlar qaymog‘i” deb ataydi. Adabiyotshunos olimlardan B.Valixo‘jayev va Q.Tohirov asar “So‘zboshi”sida bu nomni “asar xarakterini ifodalovchi so‘z”, “muxtasar tarix” deb baholaydilar[124]. “Tarixi anbiyo va hukamo”ning ushbu Samarqand nashri ilmiy-tanqidiy matn nuqtayi nazaridan avvalgi nashrlarga nisbatan muayyan ustunliklarga ega ekanligi aniq ko‘zga tashlanadi. Bu

[123] O‘zbek adabiyoti tatixi. 5 tomlik. 2-tom. – Toshkent: FAN, 1977.

[124] Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. – Samarqand: G‘afur G‘ulom n-dagi AS nashriyotining bo‘limi, 1990.

nashrda mualliflar arab yozuvining kirill harflariga oʻtkazilishidagi transliteratsiya hodisasiga katta ahamiyat berganlar, unli harflar imlosida arab tili xususiyatlarining aks etishini nazarda tutganlar. Akad. B.Valixoʻjayev tadqiqotlarida ham bu asarlar turkiy tilda yozilgan ilk tarixiy kitoblar ekanligi taʼkidlangan[125]. Olim bu ikki asarning turkiy tilli xalqlar tarixShunosligi sohasidagi muhim ahamiyatini quyidagicha belgilaydi: "Demak, agar biz tilga olganimiz ikkita tarixiy asarni ("Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam") va Alisher Navoiy rejasidagi" (ammo, amalga oshmagan-yozilmagan) tarixiy asarni (Husayn Boyqaro ajdodlari, yaʼni turkiy, temuriyshohlar tarixi) nazarda tutsak, unda Alisher Navoiyning ajoyib bir niyati borligini anglashimiz mumkin, yaʼni Alisher Navoiy Odam Atodan Husayn Boyqarogacha boʻlgan anbiyo, hukamo, Ajam va turk podshohlarining (taʼkid bizniki-I.P) muxtasar tarixini yaratishni niyat qilgan koʻrinadi. Ammo, bu sharafli niyatning bir qismi bajarilib (anbiyo, hukamo va Ajam podshohlari tarixi), bir qismi – turkiy va temuriy podshohlar, jumladan, Husayn Boyqaro tarixini yozish nomaʼlum sababga koʻra amalga oshmay qolgan koʻrinadi. Agarda bu ish ham nihoyasiga etganda edi, unda Alisher Navoiy turkiy-oʻzbek tilida Odam Atodan boshlab Husayn Boyqarogacha boʻlgan tarixni muxtasar tarzda yaratgan boʻlardi.[126] Olim mulohazalarini "Tarixi anbiyo va hukamo" asarining Yofas paygʻambar zikri keltirilgan sahifalaridagi Navoiyning oʻz soʻzlari bilan dalillaydi, yaʼni: "...hozirgi kunlarda Sulton Sohibqiron (Husayn Boyqaro) holati va nasabi tarixini xudo xohlasa yozsam, degan niyat xotirimda paydo boʻldi. U Yofas (Nuh paygʻambarning oʻgʻli-Turon va Xutan hokimi, laqabi Abu Turk-B.V.) tarixiga tegishlidir va keyinroq unga navbat keladiganligi uchun shu

[125] Valixoʻjayev B. Alisher Navoiy sheʼriyati. – Samarqand: SamDU nashri, 2001,

[126]Valixoʻjayev B. Alisher Navoiyning nasriy asarlari: tasnif va tavsif. Mumtoz siymolar. 1-kitob. – Toshkent: Abdulla Qodiriy n-dagi XMN, 2002.

aytilganlar bilan kifoyalandim”.[127] Asarlar ilmiy qimmati haqida fikr yuritar ekan, olim ularda tilga olingan tarixiy shaxslar-payg‘ambarlar ham, hakim-faylasuflar ham Sharq va G‘arbga mansub ulug‘ siymolar ekanligini qayd etadi, Alisher Navoiyning mutafakkir sifatida umuminsoniy qadriyatlar haqida so‘zlaganligi va ulardan bahramand bo‘lishga da’vat etganligiga e’tiborni tortadi. Bundan tashqari, ulug‘ shoir bu asarlarida nozikfahm tarixshunos sifatida ko‘zga tashlanadi.

Keyingi yillarda “Tarixi muluki Ajam” asarining XVII asrlardayoq Xuroson hududidan ancha chetga chiqib, mashhur bo‘lganligi haqida yangi ma’lumotlar bayon etilmoqda. Jumladan, Italiyaning Bolonya universiteti kitob xazinasida saqlanayotgan bir qo‘lyozma fanga ma’lum qilindi. Bu asar “Risolat at-tavorix” deb nomlanib, 1640 (m) yilda “Tarixi muluki Ajam”ning usmonli turkchasiga qilingan tarjimasi ekanligi ma’lum bo‘ldi. Asar debochasida aytilishicha, u Rumga* (Rumning biror oliy darajadagi hukmdoriga) Shohona sovg‘a tariqasida keltirilgan va uning iltimosi bilan “Chig‘atoy turkiysidan Rum turkiysiga” tarjima qilingan.[128]

Shunday qilib, Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Tarixi muluki Ajam” nomli tarixiy asarlari o‘ziga xos ilmiy-badiiy qimmatga ega bo‘lib, navoiyshunos olimlar tomonidan hozirgi kungacha tadqiq etilib kelinmoqda.

Avvalo, bu ikki asar Sharq tarixshunoslik an’analariga to‘liq rioya qilingan holda yaratilganligi, ya’ni payg‘ambarlar tarixi bilan boshlanishi, so‘ng salotin zikriga o‘tilishi, unda xronologik izchillik nazarda tutilganligi va tarixiy ilmiylik tamoyiliga rioya etilganligini ta’kidlamoq lozim. Asarlarning tarixiy-adabiy ahamiyati muallifning

[127]Valixo‘jayev B. Alisher Navoiyning nasriy asarlari: tasnif va tavsif. Mumtoz siymolar. 1-kitob. – Toshkent: Abdulla Qodiriy n-dagi XMN, 2002.

* Musulmon dunyosida 1299-1923 yillar orasida 624 yil hukm surgan Usmonli Turk imperiyasini u eski Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya) hududlarida barpo etilgani uchun Rum saltanati, Usmonli imperatorini “Rum qaysari” deb atash rasm edi.

[128] Salohiy D. Navoiyning Rum diyoriga tuhfasi//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2006 yil, 2-son.

turkiy podshohlar, xususan, temuriy shohlar muxtasar tarixini yaratishni niyat qilganligida va bilvosita (Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan tafsilotlar munosabati bilan) shunday tarixiy asarlar yozilishi lozimligiga ishora etganligida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, insoniyat tarixi mazmuni (tagzamini) nuqtayi nazaridan bu ikki asar, avvalo, ilohiyot, so‘ng davlatchilik-siyosat tarixini aks ettirgani bois uni mazkur ketma-ketlikda, yaxlit bir asar sifatida tadqiq etmoq maqsadga muvofiq. Chunki bu ikki asar tarixiy-xronologik mazmun-mundarijasiga qo‘shimcha ravishda ma’naviy-didaktik va ma’rifiy nuqtayi nazarlardan ham bir-birini to‘ldiradi.

Uchinchidan, o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra asarlar fanning ikki aniq sohasi – tarixshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida chuqur o‘rganishni va aniq tadqiqotlarni talab etadi.

4.

Insonning axloqiy kamoloti yuzasidan bevosita bahs yuritadigan asarlar sharq xalqlari adabiyotida salmoqli o‘rin tutadi. Nosir Xusravning “Ro‘shnoinoma”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Chahor maqola”, Farididdin Attorning “Pandnoma”, Nasiriddin Tusiyning “Axloqi Nosiriy”, Sa’diy Sheroziyning “Bo‘ston”, “Guliston” asarlari, Nosiriddin Xusrav Isfahoniyning “Saodatnoma”, Ubayd Zokoniyning “Axloqul-ashrof” va “Dah fasl” asarlari, Jaloliddin Davoniyning “Axloqi Jaloliy”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” kabi ijtimoiy-axloqiy mavzuda yozilgan badiiyat durdonalari shunday asarlar sirasiga kiradi. “Mahbub ul-qulub” shunday yo‘nalishda o‘zbek tilida yaratilgan asarlarning dastlabki nasriy namunasidir. U 1500-1501-yillarda (hijriy 906-yilda) Alisher Navoiy hayotining oxirida yaratilgan.

“Mahbub ul-qulub” Alisher Navoiyning barcha asarlari kabi Allohga hamd va oxirgi Rasul(SAV) madhi bilan ochiladi. Uch qismdan iborat. Pandnomaning “Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolining kayfiyati” deb atalgan avvalgi qismi qirq fasldan tarkib topgan. Mazkur qismda Alisher Navoiy zamonasida faoliyat ko‘rsatgan barcha ijtimoiy toifalar keng talqin qilingan. Kishilarning ijtimoiy ahvoliga ko‘ra odobi masalasiga bag‘ishlangan asarning birinchi qismi “Odil podsholar haqida”gi fasl bilan boshlanib, “Darveshlar zikrida” deb nomlangan qirqinchi fasl bilan yakunlanadi.

“Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi qismi “Hamida af’ol va zamima xisol xosiyatida” deb atalgan bo‘lib, o‘n bobdan iborat. Ikkinchi qismda tariqat maqomlari chuqur tahlil qilingan. Avvalgi bob “Tavba zikrida”, o‘ninchi bob “Ishq zikrida” deb nomlangan.

Alisher Navoiy pandnomasining “Mutafarriqa favoyid va amsol surati” deb atalgan uchinchi qismi 130ga yaqin tanbehni o‘z ichiga oladi. Uchinchi qismda o‘nlab axloqiy fazilatlar va illatlar chuqur tahlil qilingan.

Navoiyshunoslikda “Mahbub ul-qulub” asariga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar bajarilgan[129].

Asarning 1939 –yilgi qisqartirilgan nashri matnshunos Yunus Latif tomonidan amalga oshirilgan. Lotin alifbosidagi ushbu nashr

[129] Alisher Navoiy. Mahbubul –qulub.-Toshkent:1939.-B.3-7.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.Yig‘ma matn.M.-L.,1948.-B.3-9.Alisher Navoiy. Mahbubul –qulub.Inoyat Maxsumov bayoni.-Toshkent:Adabiyot va san’at,1983.-B.3-10.Mallayev N.O‘zbek adabiyoti tarixi .1-kitob.-Toshkent:O‘qituvchi,1976.-B.519-533.O‘zbek adabiyoti tarixi .Besh tomlik,2-tom.-Toshkent:Fan,1977.B.341-357.Rustamov A. Nekotoriye grammaticheskiye osobennosti yazika “Mahbub ul-kulub”Alishera Navoi: Avtoref.dis…kand.filol.nauk.Toshkent,1958. Husanxo‘jayev I.Alisher Navoiy ta’lim-tarbiya haqida.-Toshkent:O‘rta va oliy maktab ,1963.Mamadov H .Navoiy badiiy prozasining leksik-stilistik xususiyatlari:filol.fan.nomzodi dis.Toshkent-Lelinobod,1969.G‘aniyeva S.Mahbubul-qulub.//O‘zbek tili va adabiyoti .1968,-N3.B.57-69.G‘aniyeva S.Alisher Navoiy ijodiyoti va nasr problemalari.-O‘zbek nasri tarixidan.-Toshkent:Fan,1982.B.36-59.Habibullayev A.Janroviye osobennosti proizvedeniya Alishera Navoi Maxbub al-kulub (v sravnitelnom aspekte).Dis.kand.filol.nauk.-TaShkent,1986.Habibullayev Alisher Navoiy pandnomasi.-Toshkent:Fan,1996.Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida saj’.-Toshkent:Fan,1978.Hayitov Sh. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”asarining manbalari va g‘oyaviy-badiiy tahlili:filol.fan.nomzodi.dis.Toshkent,1997.Dusanova T.Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida nasr va nazm sintezi.filol.fan.nomzodi.dis.Samarqand,2023.

so‘zboshi bilan ta’minlangan bo‘lib, unda “Mahbub ul-qulub”ning mazmuni va tuzilishi haqida muxtasar ma’lumot berilgan. Biroq nashr uchun asos bo‘lgan qo‘lyozmalar va ularning tavsifi berilmagan.

A.N.Kononov “Mahbub ul-qulub”ning yig‘ma matnini tayyorlab, 1948-yilda chop yettirdi. Yig‘ma matnni yaratish jarayonida asarning sakkiz qo‘lyozmasi jalb etilgan. O‘sha sermashaqqat izlanish tufayli “Mahbub ul-qulub”ning bir muncha mukammal nusxasi maydonga keldi. Mazkur ishning 1948-yilda amalga oshirilganligi inobatga olinsa, A.N.Kononovning bizning milliy madaniyatimiz oldidagi beqiyos xizmati oydinlashadi. Nashr manbai hisoblangan qo‘lyozma nusxalarga esa davrlar, turfa insoniy va ijodiy munosabatlarning o‘z izlarini qoldirganligi tabiiy. A.N.Kononov yig‘ma nashr uchun jalb qilingan qo‘lyozmalardagi farqlarni matnning “izoh” qismida aks ettira borgan. Tadqiqotning “izoh” qismidagi ma’lumotlar asosiy matnni saralash jarayonida yo‘l qo‘yilgan ko‘pgina noqisliklarni tuzatishga imkon beradi. Bu holat 1948-yilgi nashrning “izoh” qismi muhim ilmiy qimmatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Taniqli olim so‘zboshida qiyosiy matn uchun asos bo‘lgan qo‘lyozmalarga qisqa tavsif beradi. Mazkur matn ancha tugal va yaxlit bo‘lganligi tufayli ilmiy jamoatchilik uchun asosiy manba vazifasini ado etib kelmoqda. Biroq mashaqqatli ijodiy mehnat natijasida vujudga kelgan ushbu matn ham ayrim noqislik va noaniqliklardan xoli emas. Masalaning bu jihati Porsoxon Shamsiyev tomonidan quyidagicha qayd etilgan edi: “Navoiyning nasriy asarlaridan “Mahbub ul-qulub”ning yig‘ma matnini Leningradda prof. A.N.Kononov tayyorlab, 1948-yili, ya’ni rosa 20 yil muqaddam nashr etilganini yuqorida so‘zlab o‘tilgan edi. Tekst tuzishda jalb qilingan qo‘lyozmalarning ko‘pchiligi unchalik mo‘tabar nusxalar emasligini ham bilamiz. Buning ustiga, kitob benihoyat ko‘p texnik

va bosma xatolar bilan chiqqanligini ham qayd qilish zarur”[130]. Yig‘ma matnning jiddiy ijodiy izlanish natijasi ekanligini ta’kidlab, uning ilmiy qimmatiga yuqori baho bergan filologiya fanlari doktori M.Hamidova ham kitobda ancha noqisliklar borligini uqtiradi[131]. XX asrning 60-yillarga kelib navoiyshunoslik yangi bosqichga ko‘tarildi. Ulug‘ shoir asarlari, jumladan, “Mahbub ul-qulub”ning ham yangi-yangi qo‘lyozmalari topildi. Asarning ommaviy nashri amalga oshirildi. 1983-yilda esa uning I.Maxsumov tomonidan tayyorlangan tabdili o‘quvchilar qo‘liga tegdi.

“Mahbub ul-qulub” ning ommaviy nashri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori P.Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan. Asarning ommaviy nashrida qiyosiy matnda mavjud ko‘pgina bosma xatolar bartaraf etilgan. P.Shamsiyev qiyosiy matndagi ko‘pgina noaniq va matn mazmuniga to‘la mos tushmaydigan so‘zlarni asarning boshqa nusxalaridagi kalimalar bilan almashtiradi. 1948-yilgi nashrdan tushurib qoldirilgan ba’zi so‘z va jumlalarni tayanch matnda beradi. Alisher Navoiy uslubi va mantiq taqozosiga tayangan noshir mumkin qadar bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklamalar; kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shimchalarining ham o‘rinli qo‘llanilishiga erishadi.

“Mahbub ul-qulub” nashrlariga bitilgan so‘zboshilar orasida asarning Inoyat Maxsumov tomonidan tayyorlangan tabdiliga filologiya fanlari nomzodi Suyima G‘aniyeva tomonidan insho etilgan maqola alohida ta’kidga sazovor. “Mahbub ul-qulub”ning bosh g‘oyasi, tuzilishi, undagi fasllar va tanbehlar mazmuni, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy mavzular tasvirining hayotiy va haqqoniyligi to‘g‘risida S.G‘aniyeva birmuncha batafsil fikr

[130] Shamsiyev P.Alisher Navoiysarlari matnlarini o‘rganishning ba’zi masalalari:Filol.fan.dokt. …dis.-Toshkent ,1969.-B. 36.

[131]Qarang: Hamidova M.”Mahbub ul-qulub” ilmiy –tanqidiy tekstini tuzish uchun jalb qilingan qo‘lyozmalar.//Adabiy meros.1986.-N3.-B.26.

yuritadi[132]. Adabiyotshunos S. G‘aniyevaning boshqa bir qator tadqiqotlarida (yuqorida ishora qilindi) “Mahbub ul-qulub”dagi fasllar va tanbihlar mohiyati, badiiyati ancha keng yoritilgan.

Professor N.Mallayev “O‘zbek adabiyoti tarixi “darsligida “Mahbub ul-qulub”ning didaktik asar sifatidagi ahamiyatiga yuqori baho beradi. Olimning asardagi hikmatli so‘zlarni saralab, ularning qimmati va umrboqiyligi haqida bildirgan asosli mulohazalari alohida ahamiyatga ega. A.Rustamov, A.Hayitmetov, A.Abdug‘aforov kabi yirik olimlarning Alisher Navoiy ijodining turli muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida “Mahbub ul-qulub”ning g‘oyaviy-axloqiy qimmati, asarda Alisher Navoiy adabiy mahorati va fosh etuvchilik san’ati haqida muhim nazariy fikrlar bildirilgan[133]. “Mahbub ul-qulub”da ulug‘ mutafakkirning saj’ qo‘llash uslublari va musajja’ san’atining muallif ko‘zda tutgan g‘oyaviy maqsadga muvofiqligi masalalari professor B.Sarimsoqov tadqiqotlarida yaxshi yoritilgan[134].

“Mahbub ul-qulub”ning tahlili I.Husanxo‘jayevning “Alisher Navoiy ta’lim va tarbiya to‘g‘risida“ deb nomlangan kitobida va shu mavzuga bag‘ishlangan dissertatsiyasida ham uchraydi. I.Husanxo‘jayev asarning bola tarbiyasi va inson xulqini mukammallashtirishdagi ahamiyatiga to‘g‘ri baho bergan[135].

Mavzuni yoritishda “Mahbub ul-qulub” tahliliga bag‘ishlangan dissertasiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. A.Rustamov va H.Mamadovning dissertasiyalarida “Mahbub ul-qulub” tilshunoslik

---

[132] Qarang:Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub.-Toshkent.G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1983.-B.3-10.

[133] Abdug‘afurov Alisher Navoiy satirasi.-Toshkent :Fan,1966; Shu muallif Navoiy ijodida satira.-Toshkent:Fan,1972; Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati .-Toshkent:G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1979; Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy –tanqidiy qarashlari .-Toshkent: O‘zbekiston FA nashriyoti,1959. Shu muallif:Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan .-Toshkent:Fan ,1970.

[134] Sarimsoqov B. Saj’ va uning o‘zbek folklorida tutgan o‘rni.Filol.fanl.nomzodi…dis.T.,1973.

[135] Husanxo‘jayev I. Alisher Navoiy ta’lim –tarbiya haqida.-Toshkent: O‘rta va oliy maktab nashriyoti,1963.

yo‘nalishida o‘rganilgan. A.Habibullayevning “Mahbub ul-qulub”ning janr xususiyatlari” nomli tadqiqoti adabiyotshunoslik yo‘nalishida amalga oshirilgan. “Mabub ul-qulub”ni Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomiy Aruziy Samarqandiynig “Chahor maqola”, Farididdin Attorning “Pandnoma”, Sa’diy Sheroziyning “Bo‘ston”, “Guliston”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, “Ro‘shnoinoma”, Abduramon Jomiyning “Bahoriston” kabi kitoblari bilan qiyosiy o‘rgangan olim asarning badiiyati va g‘oyaviy mazmuniga doir muhim mulohazalar aytadi. Jumhuriyatimiz o‘z Mustaqilligini qo‘lga kiritgach, Alisher Navoiy ijodiga munosabatda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Ulug‘ shoir asarlarining talqini mukammallasha boshladi. A. Hayitmetov, A. Qayumov, A. Rustamov, B. Valixo‘jayev, N. Komilov, R. Vohidov, S. G‘aniyeva, Y.Isoqov, I. Haqqul, D. Salohiy, H. Karomatov, S. Olim, A. Habibullayev va boshqa olimlarimiz tomonidan yaratilgan maqola va risolalar fikrimizga dalildir. Asrlar davomida shakllangan milliy va madaniy qadriyatlarimiz o‘z o‘rnini topayotgan Istiqlol davrida “Mahbub ul-qulub” Alisher Navoiy ijodining asl sarchashmalariga tayangan holda tahlil qilina boshladi. Asarga xolisona yondashish, Allohning eng najib kashfiyoti bo‘lmish insonga xos hamida va zamima xislatlarni Alisher Navoiy tafakkurining tiyrak nigohi orqali anglash imkoniyati paydo bo‘ldi. Shunday talqin sharqshunos olim A.Habibullayevning keyingi yillarda yaratgan ayrim tadqiqotlarida nazarga tashlanadi[136]. Shavkat Hayitovning Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining manbalari va g‘oyaviy-badiiy tahlili mavzuida yozilgan nomzodlik dissertatsiyasida hamda shu tadqiqot mazmuni yuzasidan chop etilgan “Alisher Navoiyning ko‘ngil gulshani” monografiyasida

[136] Habibullayev A. Navoiy didaktik qarashlarining manbalariga doir. –Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. –Toshkent: Fan, 1993, -B. 155-164; Habibullayev A. Hadislarning badiiy inkishofi // O‘qituvchilar gazetasi. –1991. –11 iyun; Alimullo Habib. Ijtimoiy tarbiya va islom// Sharq mash’ali. –1994. –N1. –B. 14-16.

Navoiy pandnomasidagi ilohiy, tasavvufiy g‘oyalar keng tahlil etilgan. “Mahbub ul-qulub” islom mintaqa madaniyati hududida tarqalgan, o‘zigacha axloqiy tarbiyaga bag‘ishlab yaratilgan qadim turkiy she’riyat namunalari, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Unsur ul-Maoliy Kaykovus, Farididdin Attor, Shayx Sa’diy, Nosir Xisrav, Ubayd Zokoniy asarlari bilan qiyoslangan. Asosiy e’tibor esa diniy va dunyoviy g‘oyalarni axloqiy mavzuga singdirishda Alisher Navoiy pandnomasidagi ajralib turadigan belgilar, o‘ziga xosliklarni tabiiy va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan.

Axloqiy-ma’rifiy asarda ijtimoiy toifalar talqini. **“**Mahbub ul-qulub” matniga singdirilgan Qur’oni majid oyatlari, qissa va timsollarining fasl, bob, tanbehlar asosida turgan axloqiy masalalarni yoritishdagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. O‘z navbatida asarni ayni nuqtayi nazardan o‘rganish Alisher Navoiy ijodiga xolisona baho berish, uni yaxlit tarzda ilmiy tadqiq qilish imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Buyuk ijodkor badiiy mahoratining asl sarchashmadan, muqaddas moziydan nur emgan olmos qirralarini yoritishga shart-sharoit yaratadi. Maqsad va mohiyati bilan insoni komil tarbiyasini ko‘zda tutgan “Mahbub ul-qulub”da Odam Ato farzandlarini Allohga yaqin qilish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. “Bismillahir Rahmonir Rahiym” bilan boshlangan asar an’anaviy muqaddimasidagi har bir jumla shariati islomiya ruknlariga muvofiq holda zikr qilingan. “Navoiyning kitoblarida uyg‘unlik ularning muqaddima qismidayoq boshlanadi. Uning har bir asarining muqaddimasi shu asarning mundarijasiga uyg‘unlashgan”, - deb yozadi akademik Alibek Rustamov[137]. Professor Rahim Vohidovning ham ayni masalaga doir xulosasi ibratlidir: “Hayrat ul-abror” ning tabiati uchun falsafiy, ijtimoiy-siyosiy mayl mos tushadi. Shuning uchun bu asarda ruhiy kechinmalarni bo‘rttirishdan ko‘ra, falsafiy teran mushohadalarga

[137] Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.B. 147.

zo‘r beriladi. Ana shu hukm barcha na’tlar uchun ham xosdir”[138]. Ayni ta’kidlar «Mahbub ul-qulub» uchun ham begona emas. Ulug‘ Navoiyning Qur’onga munosabati, undagi insonparvarlik g‘oyalarini ijodiy rivojlantirish, axloqiy masalalarning badiiy talqinida qur’oniy mavzulardan foydalanishdagi mahorati asarning asosiy qismida muqaddimaga uyg‘un holatda davom etadi.

“Mahbub ul-qulub” avvalgi qismining dastlabki fasli “Odil salotin zikrida” deb nomlanadi. Muallif faslning birinchi jumlasidanoq o‘quvchi diqqatini asosiy mavzuga jalb qiladi: “Odil va oqil podsho ibodullohg‘a zillulloh”[139]. Sarlahva boshidagi so‘zni (“odil”) dastlabki jumla ibtidosida takrorlash bilan tasdir san’ati hosil qilingan. Tasdir yonida musajja’ san’ati ham turadi. “Oqil” bilan “odil”, “ibodulloh” va “zillulloh” kalimalarining ma’noviy uyg‘unligi tanosub san’atini hosil qiladi. Matndagi “zil”ning (soya, homiy) ma’nolari esa ikki talqinga yo‘l ochadi: a) odil va oqil podsho Allohning soyasidir; b) odil va oqil podsho Alloh bandalarining homiysi, himoyachisidir. “Odil podsholar zikrida”gi fasl zaminida adolatni targ‘ib qilish, shohning mamlakat tinchligi, ulusning farovon, baxtiyor hayotini ta’min etishdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish g‘oyasi turadi. Ulug‘ mutafakkir ta’kidicha, insoniyatga yo‘lboshchilik qilishga har kim ham munosib emas.

Asarning “Fosiq va badmaosh, bahodirlik lofin urg‘onlar zikrida”gi 7-faslida ham Alloh va shoh siymosi yonma–yon keladi. Axloqsiz va maqtanchoq navkarlardan tuzilgan qo‘shinning ma’naviy qiyofasi, eng avvalo, uning Allohga ibodat qilmasligi va podsho amrini bajarmasligida namoyon bo‘ladi. Fasl mana bu jumla bilan ochiladi: “Shoh eshigida yormoqni zoe’ qilg‘uvchi jamoatkim, alardin ne tengriga toatdur va ne shohga itoat”. Shundan keyin mamlakat va saltanat ofati hisoblangan ushbu toifaning Alloh

[138] Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 1994. B. 91.

[139] Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Yig‘ma matn. M.-L. ; 1948. B.8. Bundan keyingi iqtiboslar ham asarning shu nashridan olinadi va sahifasi qavs ichida ko‘rsatib boriladi.

va uning xalifasi dargohiga xush kelmas axloqiy noqisliklari birma-bir zikr qilinadi. Muallif shariat ahkomiga koʻra, kabira gunoh hisoblangan yolgʻonchilik, mayxoʻrlik, iymonsizlik kabi illatlarni ularga nisbat beradi: “Chin demaklari lof, maʼniliq soʻzlari gazof. Jurʼakashlikdinlari va kofirvashlik oyinlari”. Talmeh sanʼatini ishga solib, lofchi tabaqaning maqtanchoqlik xususiyatini yorqin koʻrsatadi: “Bazmda daʼvolari Hotamliq, razmda taloshlari Rustamliq”. Koʻrinadiki, ulugʻ adib Sharq kitobxoniga tanish saxiylik va qahramonlik ramzlarini badiiy tasvir asosida turgan ijtimoiy toifa mantiqiga qarma-qarshi qoʻyib, undagi axloqiy noqislikning muhim bir jihatini ustalik bilan ochadi. Hamvazn talmeh moddalari (Hotam, Rustam) va ular mohiyati toʻla-toʻkis aks etgan ohangdosh soʻzlar (bazm, razm) oqimi fikrni goʻzal shaklda yuzaga chiqargan. Maʼlumki, jangda askardan oʻta chaqqonlik va gʻayrat talab qilinadi. Navoiy fosiq lashkar tabiatini ochishda hajviy usullardan foydalanadi. Adib mohirligi bois “yurt qoʻriqchilari” ning kiyimlari, harbiy aslahalari hajviy vosita vazifasini bajaradi. Badiiy ifoda kinoyaviy tus olib, qahramonning jang maydoniga teskari boʻlgan, besoʻnoʻqay surati oʻquvchi koʻzi oldida gavdalanadi. Surat tasvirida siyratdagi befahmlik, beparvolik, maishatbozlik xususiyatlari namoyon boʻladi. Navoiy tasviricha, bunday askarning bosh kiyimiga sanchilgan jigʻadan “Nasri toyir” yulduzi qoʻrqib qochadi. Qoʻlidagi nayzasi esa samodagi “Simoki romih” yulduzi yuziga chandiq soladi. Besoʻnaqay sallasi pechidan oʻz yelkasi ozor tortadi.

Adib sarbozlar tabiatidagi shuhratparastlik, fosiqlik illatlariga eʼtiborni tortar ekan, mayxoʻr va yomon ishlar bilan shugʻullanuvchi kimsalar nasibasiga doʻzax bitilganligi haqidagi islomiy aqidani satrlari magʻiga singdiradi: “Mulk dushmani dafʼigʻa shuhratlari, shohgʻa mulk asrar minnatlari. Bu daʼvo boshigʻa yetguncha nechasini may oʻlturub, nechasini oʻzga fisq

do‘zaxga yetkurub”. Shundan keyingi jumlalar va fasl xotimasiga ilova qilingan qit’a to‘liq Qur’onning “Saf” surasi bilan hamohang. Alisher Navoiy nomunosib harbiy toifa tabiatini ochishda fasl boshida namoyon bo‘lgan uslubni davom ettirib, maqtanchoq lashkar xususiyatlarining iymon va islom talablariga zid jihatlarini ochishga urg‘u beradi. Talqin qilinayotgan harbiy tabaqaning jangdagi vaziyati ko‘chirganimiz oyati karimaga teskari (kontrast) qiyoslash oqibatida uyg‘unlashadi: “Muboriz afkanliklari o‘z holig‘a, safshikanliklari o‘z yasolig‘a”. Bular jang maydonida bahodirlik lofin uradilar va dushman safini buzish o‘rniga o‘z sheriklarini bosadilar.

Alisher Navoiy tijorat ahli axloqining XV asr xayotidagi eng ilg‘or tomonlarini hisobga olgan holda barkamol savdogar ma’naviy qiyofasining eng muhim qirralarini “Mahbub ul-qulub”ning bir sahifadan iborat “Tijorat ahli zikrida” deb nomlangan 26-faslida san’atkorona aks yettirishga erishgan. Adib mahorati tufayli 26-fasl tugal mazmunli, chuqur ma’noli mustaqil asar darajasiga ko‘tarilgan. Alisher Navoiy talqinicha, savdogar yoz jaziramasi, qish qahratonida dasht-u sahrolarning qumi, tog‘larning toshi ustida tuya suradi. Poyonsiz biyobonlar, qor, muz qoplagan daralar, jarliklardan o‘tadi. Har nafasda u baxtsizlikka uchrashi mumkin. Dengiz to‘lqinlari-yu daryo toshqinlarining shirin joniga zomin bo‘lishi xavfi bor. U sabr, mislsiz iroda, turli iqlim sharoitlarida yo‘l bosishning o‘ziga xos talablariga qat’iy amal qilishi tufayli bu azoblarni yengadi. Uning tinch turmushini iztirob va mashaqqatlarga aylantirishdan, aziz umrini uzoq va omonsiz xavf-xatar, iztirob, ranj, uqubatlarga tashlashdan maqsadi halol rizq topish: “Jibol toshi va dasht qumig‘a noqa surgan, bihor amvoji talotumidan naf va zarar ko‘rgan. Halol ro‘zi kasbiga masofatlar qat’ etgan, jamiyati zohir tilabu botin parishonlig‘lari anga yetgan”[140].

[140]Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Buxoro san’at muzeyi xazinasidagi 27780-raqamli qo‘lyozma. V.19b.

Alisher Navoiy savdogar siymosini yoritish uchun ixcham, ammo teran mazmunli so‘z va iboralar tanlaydi. Ixcham ifodaga keng mazmunni singdiradi: “Biri yuz bo‘lurdin boshida savdo, bo‘zi katon bo‘lurdin ko‘nglida tamanno”[141], Keltirilgan iqtibosda savdogar ruhiyatida kechadigan tashvish-u taraddudlar, mushkulotlar “biri yuz bo‘lurdin boshida savdo” birikmasi orqali ifodalanyapti. Matnda “biri yuz bo‘lurdin” o‘sha mashaqqat-u mushkulotlar darajasini oshirib, ta’kidlab ko‘rsatayotir. Bajarilgan ish - harakat (“bir”) bilan undan kutilgan natija (“yuz”) orasidagi nisbat-munosabat savdogar ruhi, ichki kechinmalari tahliliga xizmat qildirilgan.

Alisher Navoiy talqinicha, mol va pul qayg‘yusida, mol va pulni shirin jonidan aziz biladigan bunday tijorat ahli insoniy qadr-qimmatini yerga uradi. Topgan davlatiga ko‘zi qiymay, asl va qimmatbaho matolarni asrab, o‘zi eski chopon kiyadigan, lazzatli taomlar o‘rniga qattiq non kavshab, yovg‘on osh ichadigan bunday badbaxt kimsa o‘z joniga o‘zi jabr qiladi. Och-yalang‘och umr kechirgan isqirt va ochko‘z savdogarning umri azob va hasrat ichida o‘tadi. Yemay-ichmay va hatto o‘z moliga o‘zi o‘g‘ri kabi bojxona xizmatchilaridan yashirib (boj xirojini to‘lamaslik maqsadida) yiqqan mol-mulkini merosxo‘rlari ko‘kka sovuradi: “Yo‘qki, molin aziz asrab o‘zin xor etgay va o‘z molin tamg‘odin o‘g‘urlab o‘ziga mazallat yetgay yo vorissipor uchun yig‘ing‘ay yo hodisa qo‘zg‘ar uchun qozg‘ong‘ay”[142]. Ulug‘ adib ta’kidlaydiki, qanchalik davlatmand bo‘lmasin bunday kishi xoja (xo‘jayin, sohib, nufuzli savdogar) emas, balki mardikordir, malaydir: “Mundoq kishi xoja emas, muzdurdur va o‘z razillig‘idin hamisha ranjurdur”[143]. Saj’li

[141] O‘sha joyda.

[142] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Buxoro san’at muzeyi xazinasidagi 27780-raqamli qo ‘lyozma.-V.20a.

[143] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Buxoro san’at muzeyi xazinasidagi 27780-raqamli qo ‘lyozma.-V.20a.

jumlaning ikkinchi qismi xasis savdogarning fojeali qismati, vujididagi botiniy zilzilalar silsilasini ochishga yo‘naltirilgan.

Alisher Navoiy e’tiqod qo‘ygan ma’rifiy ta’limotga ko‘ra suhbat odobiga rioya qilish qat’iy talablardan biri edi, “suhbat orqali ko‘ngilni ko‘ngilga ulash, hikmat-u karomat bilan ta’sir etish hush ko‘rilar edi”[144]. Irfon sohiblarining suhbati barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim omil hisoblangan. Shuning uchun ham ulug‘ Navoiy “Dard ahlining nafasi bir o‘tdurkim, qatig‘ ko‘ngulni yumshatur va qurug‘ ko‘zni yig‘latur. Va so‘z ahlining dami bir yeldurki, anoniyat (manmanlik, takabburlik) xoshogin sovurur va g‘azab tufrog‘in supurur”, - deydi[145]. Oriflarning haroratli suhbati (“nafas”) yuzlab vayrona ko‘ngilni obod etadi. Xudbinlik va takabburlik dardiga yo‘liqqan kimsalarga najot yo‘lini ko‘rsatadi. Mazlumlar diliga yorug‘lik, umid bag‘ishlaydi. Haq oshiqlarining otash nafasi tosh yuraklarni ham eritadi. “Komil insondagi ma’rifat va ilohiy-ruhiy quvvat hamda madaniy zakovat pokiza axloq “ko‘zgusi”da zuhurlanadi va odamlar xulqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi”[146]. Shunday ekan, Alisher Navoiy talqiniga ko‘ra, jahongashta savdogar tijorat safarida yurar ekan, dunyo donishmandlari – “ma’rifat sarchashma”larini izlab topish, ularning orifona suhbatlaridan bahramand bo‘lishni ham maqsad qilishi zarur: “...safardin azizlar suhbatiga yetmak murodi bo‘lsa....”[147]. Zero, “Ul kishikim ma’rifat sarchashmasidin yiroqdir, barcha odamlardin badbaxtroqdir” (Hazrat Ali).

Alisher Navoiy savdo ahli axloqining badiiy tahliliga kirishar ekan, oddiy xalq manfaatidan kelib chiqadi. Savdogar timsolining

[144] Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. - Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at hamda «O‘zbekiston» nashriyotlari, 1999. -B.113.
[145] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Qiyosiy matni. - M. - L.: izd. AN SSSR, 1948. -B.85.
[146] Haqqulov I.Ch. O‘zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti (g‘oyaviylik, izdoShlik, obrazlar olami). Filol. fanl. dokt. ... dis. -ToShkent, 1995. -B.150.
[147] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Buxoro san’at muzeyi xazinasidagi 27780-raqamli qo‘lyozma.-V.20a.

Alisher Navoiy talqinidagi ifodasi negizida xalqqa xizmat, elning og‘irini yengil qilish, uning go‘zal, to‘q, farovon hayoti uchun fidoyilik ko‘rsatish kabi insoniy fazilatlar yotadi. Xuddi Shunday insonparvarlik g‘oyalari Alisher Navoiy pandnomasining “Vuzaro zikrida”, “Shayxul-islom zikrida”, “Quzot zikrida”, “Muftiyi faqihlar zikrida”, “Mudarrislar zikrida”, “Atibbo zikrida”, “Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida”, “Kotiblar zikrida”, “Dabiriston ahli zikrida”, “Imomlar zikrida”, “Muqriylar zikrida”, “Huffoz zikrida”, “Mutrib va mug‘anniylar zikrida”, “Nasihat ahli va voizlar zikrida”, “Bozor kosiblari zikrida”, “Soyir hunarvar va san’atpardoz zikrida”, “Dehqonlik zikrida”, “Qushchi va sayyod zikrida”, “Kadhudolig‘ sifati va xotunlar zikrida” deb nomlangan barcha fasllarida ham kuzatiladi.

Alisher Navoiy pandnomasi – tariqat maqomlarini anglashda muhim nazariy manbadir. Inson vujudida noshoyista xislatlarning yashashi nafs tufayli sodir bo‘ladi. Yomon xususiyatlardan ozod bo‘lishning eng oqilona yo‘li nafsni riyozat ila mavh etib, sabr-u qanoat bilan pok yashash, ruhni chiniqtira borib, ilohiy axloqqa erishishdir. “Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi qismi ayni masalalar xususida bahs qiladi. Alisher Navoiy sarlavhadayoq – “Hamida af’ol va zamima xisol hosiyati’’ - tasavvuf ta’limotining asl mohiyatiga e’tiborni tortadi. Va butun qismni “zamima xisol” dan qutilib “hamida af’ol”ga yetish maqomlarining talqiniga bag‘ishlaydi. Shunga ko‘ra, dastlabki bob “Tavba zikrida”deb nomlanadi.

“Tavba zikrida”gi bobdan bir necha jumlani ko‘zdan kechiraylik: “Tavbai haqiqiy mazmumi af’ol qabohatig‘a muttali’ bo‘lmoqdur va tavfiq rafiq bo‘lib, ul af’oldin ijtinob qilmoqdur. Tavba mujrim bandaning vaqti ko‘zgusin isyon zangidin oritur va niyoz masqali bila ul ko‘zgu yuzin yoritur…” (64). Haq madadiga tayanib qilingan tavba gunohkor bandaning ko‘ngil ko‘zgusini itoatsizlik zangidan tozalaydi. Tavba-baxtsizlik, yomonlik yo‘lining tugashi, to‘g‘ri

yo‘lga kirishning boshlanishidir. Alisher Navoiy shunday yo‘nalishdagi talqinni davom yettiradi. Nafsi ammora buzuqliklaridan bo‘yin tovlash, insonni razolatga solib, xijolatga qolishiga sabab bo‘ladigan barcha illatlardan ogoh bo‘lib, ulardan nafratlanish - tavbadir.

“Mahbub ul-qulub” ning 20, 22, 31, 37, 39-fasllarida, 10-bobida va 46, 94-tanbehlarida mavzu taqozosi bilan zohid va zuhd tilga olinadi. 63-tanbeh to‘lig‘icha zuhd va fisqning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan.

Zohir-u botini bir zohidlarga ulug‘ adib zo‘r ixlos bilan qaragan va ularning pok qalbi, mustahkam e’tiqodi, iymonli ruhi vositasida avlodlarni tarbiyalashni ko‘zlagan. 53-tanbehda o‘qiymiz: “Dunyo dor-ul havodisdur va onga ko‘ngul bog‘lamoqqa g‘aflat boisdur. Olam umrdek bevafodur va oning davlatig‘a e’timod qilmoq xato”.

Tasavvuf nazariyotchilari “faqr” atamasi bilan yuritadigan to‘rtinchi maqom “Mahbub ul-qulub”ning “Qanoat zikrida”gi 4-bobida talqin qilingan. Bob ibtidosidagi dastlabki ikki jumladayoq mazkur maqomning so‘fiyona mohiyati yorqin ochilgan: “Qanoat ibodat quvvati hosil bo‘lg‘oncha qut bila o‘tkarmakdur va ondin ortug‘ barchaning havasin xayoldin ketarmakdir. Va benavolig‘ bila nafsni ozurda tutmoqdur va mahrumliq bila quvoyi shahvoniyni pajmurda qilmoqdur». Faqrlik ibodatni ado etish madorini bag‘ishlaydigan miqdordagi ozgina taom bilan kifoyalanib moddiy dunyoning boshqa barcha matolaridan voz kechmoq ekan. Ma’lum bo‘ladiki, faqr-nafs yomonliklaridan xalos bo‘lish, do‘st-u dushmanga muhtojlikdan qutulish maqomi. Solik Haqqa haqiqiy banda bo‘lishi, faqrlik bilan faxrlanishi, bandaga niyoz ko‘rgazmoqdan ozod bo‘lmog‘i darkor.

Asar ikkinchi qismining 5-bobi sabr talqiniga bag‘ishlangan. Sabr o‘zni noz-ne’matlar ichida, rohatda yashashdan, tanparvarlikdan qutqazishdir. Sabr - qadamni mashaqqat maydoniga barqaror qo‘yish:

“Yaxshi-yomondin har ne eshitgan va ko‘rganga” toqat qilish, vujudni Alloh ibodatida toblash: “Va nafsini jins qilmoqdir ibodat mehnatida”. Diqqat qilinsa, “so‘fiyning toatdan halovat topishi” shu jumlada aks etgan. Chunki ibodat bilan hamjins bo‘lgan tanada nafs butkul mahf qilingan bo‘ladi. Agar jism nafs chizig‘idan chiqmas ekan, u toat bilan jinsdosh bo‘la olmaydi. Maishiy orzu-istaklardan poklangan, mashaqqat sahrosida rohatlanuvchi vujudgina toatdan lazzat tuyadi.

Donishmand ijodkor iltifot san’ati bilan bezalgan tasvirni davom ettiradi. Borgan sari o‘quvchining o‘z pandini tinglashga bo‘lgan ishtiyoqini orttira borib, tavakkul tabiatini kengroq ochadi. Navoiy uqtiradiki, birovning nasibasini birov yeya olmaydi, bu hayoti dunyoda har kim o‘z ulushini yeydi. Shunday ekan, tirikchilikning o‘tkinchi mashg‘ulotlariga behad berilish tavakkul noqisligidan darak beradi va rizq uchun ortiqcha urinish ma’naviy zaiflik nishonasidir. Adib Haqning ulug‘ sifatlarini anglagan, ma’naviy farog‘at izidan yuruvchi tavakkul ahli axloqini o‘quvchiga ibrat qiladi: “Tengri razzoqlig‘in bilgan ro‘zi uchun g‘am yemagay va qassomlig‘in bilgan rizq oz-u ko‘pida so‘z demagay”. Shu o‘rinda Navoiy so‘z ma’nosidagi qat’iyatni yanada oshirib, o‘quvchiga “ochiq lafz bila” murojaat etadi: “Ulki vahshu tayr rizqig‘a zomindur, senga yetkurmagaymu va ulki mo‘ru malaxqa ro‘zi berur senga bermagaymu?”.

“Mahbub ul-qulub”da kundalik hayot tarzida uchraydigan oddiy voqealar bayoniga yirik axloqiy-falsafiy ma’noni singdirish maqsadida Ilohiy kitob oyatlariga murojaat qilinadi. Bu jihatdan asar xotimasidagi mana bu jumlalar qiziqish uyg‘otadi: “Agar ul furja zohir bo‘lg‘an takmili uchun yana xisht solilsa, “arz ul-lohi vosi’atun” yuzin, balki kurrai arz davrasin tamom xisht solmoq lozim kelur. Bovujudu ulkim, bu mahol xayolni kishi taaqqul qilsa, tuganmagining imkoni yo‘qtur”.

“Mahbub ul-qulub” uchinchi qismidagi 1-8-tanbehlarda xudparastlikka qarshi kurash markaziy g‘oya hisoblanadi. Qism sarlavhasi ostida berilgan dastlabki jumlalardayoq kibr-u havoning insonlar tabiatida uchraydigan salbiy xususiyat ekanligi alohida urg‘u bilan uqtiriladi. 1-tanbehda xudbin Shaxsning o‘z nafsi, o‘z ko‘ngli, o‘z zoti, o‘z so‘zini o‘zgadan aziz sanash bilan bog‘liq tomonlariga e’tibor tortiladi. O‘zini Shayx Sa’diy va Amir Xisravdan baland qo‘yuvchi tuturiqsiz shoir, xunuk yozuvini Ja’far va Azxar kabi mashur kotiblarning bitiklaridan go‘zal taroshlovchi badxat xattot, o‘zini Atorudga qiyos qiluvchi beso‘naqay muzahhib timsolida xudbin axloqiga xos illatlar fosh etiladi. Chizgan tasviridan odam qo‘rqishiga qaramay, o‘zini Abdulhay va Moniydan iste’dodliroq sanovchi rassom va behuda bash yurituvchi madrasa ahli ham o‘shalar sirasiga kiradi. Adib o‘ziga zebu oro berish payidagi erkakni pardoz-u andozga mukkasidan ketgan ayolga chog‘ishtiradi. Va har ikkalasining xatti-harakatlarida ham xudparastlik alomatlarini ko‘radi. 3-tanbehda mazkur illatga berilganlar ustidan qat’iy, ixcham, shiddatkorona hukm chiqariladi: “Xudpisand-noxiradmand. Xudoro-shohidi ra’no… mutakabbir-mal’un… Xudparast-budparast….” Navoiy fikricha, bu ofatlardan insonni fano qutqaradi(101). So‘nggi jumla so‘fiyona ruh bilan yo‘g‘rilgan. 4-tanbehda “ko‘p demak va ko‘p yemak” xudparastlik turkumiga kiruvchi illatlar sifatida sharhlanadi.

Asarning 5-tanbehida xudparast kishilar toifalarga ajratilgan. Navoiyning so‘zlaridan 1-2-tanbehlarda siyrati chizilganlarning birinchi toifaga taalluqliligi anglashiladi. Ikkinchi toifa o‘ta jirkanch, nafratlanarli va qilmishlaricha hayvondan ham bir necha daraja past turadi. 5-tanbehda bu toifa tasviriga ancha keng o‘rin

berilgan va u navoiyshunos olimlar A.Abdug‘afurov, M.Muhiddinovlarning tadqiqotlarida tahlil qilingan [148] .

8-tanbehni xulosaviy, yakunlovchi tanbeh sifatida e’tirof etish maqsadga muvofiqdir: “Takabbur shayton ishi va biyiklik nodon ishi. Mutakabbir Tengri do‘stlari olida mat’un va Tengri qoshida mardud va mal’un. Xudpisand, ishi bori elga nopisand… Budparastliq yaxshiroqkim, xudparastliq”. Matndagi “Tengri do‘stlari”dan murod payg‘ambarlar, avliyolar, siddiqlar va barcha solih amal kishilardir. “Saxovat va himmat bobida”gi 11-tanbehda Navoiy yozadi: “Baxil behishtqa kirmas, agar sayyidi qurayshiy bo‘lsun va saxiy tomug‘qa bormas, agarchi bandai habashiy bo‘lsun”. Shu iboralar vositasida muallif islomning baynalmilal ta’limot ekanligiga e’tiborni tortgan. Islom dinida inson millati, davlati, irqiy belgilariga ko‘ra emas, ma’naviy olamiga qarab e’zozlanishi ta’kidlagan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. “Jomiy va Navoiy” to‘plami qaysi olim tomonidan tayyorlangan?

2. O‘zbek olimlaridan kimlar “Xamsatul-mutahayyirin”ga bag‘ishlab tadqiqot yaratganlar?

4. “Navoiyning ikki durdonasi” risolasining ilmiy yangiligi nimada?

5. “Xamsatul-mutahayyirin”da Mavlono Jomiy shaxsiyatiga xos qanday fazilatlar yoritilgan?

6. Alisher Navoiy “surat ahli” deganda kimlarni nazarda tutgan?

7. Komil inson qanday fazilatlari bilan el nazarida arjumand bo‘ladi?

[148] Qarang: Abdug‘afurov A. Alisher Navoiy ijodida satira. –Toshkent: Fan, 1972. -B.33-34; Muhiddinov M. Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson konsepsiyasi (“Xamsa”larning birinchi dostonlari asosida) Filol. fanlari dokt….dis. –Samarqand,1995.-B. 239-240.

9. Alisher Navoiyning “Komillar ahli hayo” hikmatini darvesh Sayyid Hasan Ardasher obrazi misolida izohlashga urinib ko‘ring.

10. “Saxoi zotiy” manoqibda Sayyid Hasanning tug‘ma fazilatlaridan biri sifatida qayd qilingan. Siz buni qanday tushundingiz?

12. Alisher Navoiy va Pahlavon Muhammad tabiatda qanday mantiqiy muvofiqlik bor?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai siltoniy yoxud javonmardlik tariqati. –Toshkent: Abdulla Qodiriy n-dagi XMN, 1994.

2. علي شير النوائي. محبوب القلوب Buxoro san’at muzeyi xazinasidagi 27780-raqamli qo‘lyozma. – 121 в.

3. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 14-t. – Toshkent: G‘afur G‘ulom n-dagi BA nashriyoti, 1966.

4. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 14-t. – Toshkent: G‘afur G‘ulom n-dagi BA nashriyoti, 1983.

5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998.

6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999.

7. Faxriddin Ali Safiy. Rashahot. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino n-dagi tibbiyot nashriyoti, 2003.

8. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М.: Наука, 1965. – 498 с.

9. Vohidov R. Sharqning buyuk allomasi. – Toshkent: FAN, 1989.

10. Vohidov R.Navoiyning ikki durdonasi – Toshkent: FAN, 1992.

11. Hayitov Sh. Barkamol inson timsoli. -Toshkent: Fan,2003.-94b.

12. Hayitov Sh. Javonmardlik haqiqati.-Toshkent:Fan,2005.-174b.

13. Olimov F. “Xamsatul-mutahayyirin” badiiyati. F.f.f.d. (PhD). -Toshkent, 2018.

14. Хабибуллаев А. Жанровые особенности произведения Алишера Навои «Махбуб уль-кулюб» (в сравнительном аспекте). Дисс. … канд.филол.наук. – Ташкент, 1986.

15 – MAVZU: ALISHER NAVOIY IJODINING XORIJDA O‘RGANILISHI

Dars rejasi:

15.1. Rus olimlari asarlarida navoiyshunoslik masalalari

15.2. Turkiyada navoiyshunoslik

15.3. Ozarbayjonda navoiyshunoslik

Tayanch so‘z va iboralar: *ijodiy ruhiyat, rus navoiyshunosligi, adabiy jamiyat, turkiy madaniyat, A.N.Samoylovich, E.EBertels, usmonlilar davlati, Jannat Nag‘iyeva.*

1.

Ma’naviy-adabiy durdonalarimizning katta qismi hozirgi kunda Rossiya, Italiya, Frantsiya, Turkiya, Amerika va boshqa chet el fondlarida saqlanadi. Bu fondlar tarkibi haqida rus va boshqa xorijiy tillarda 198 ta katalog tavsif tuzilgan[149]. Ulardan ma’lum bo’lishicha, turkiy-adabiy manbalar bo’yicha son va sifat jihatdan eng boy fond Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari instituti fondi (oldingi Osiyo muzeyi) hisoblanadi [150]. Hozirgi kunda institut fondida 2432 ta turkiy qo’lyozma mavjud bo’lib, shundan 953 tasi o’zbek mumtoz adabiyoti namunalaridan (devonlar, bayozlar, dostonlar, muxammasotlar va h.k), jumladan Alisher Navoiy asarlaridan iborat [151].

XX asrning birinchi yarmida rus adabiyotshunoslari Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga juda katta e’tibor berdi, shoir ijodi shu davrdagidek ko‘p va jiddiy o‘rganilgan emas. Rossiya olimlarining

[149]Дмитриева Л.В., Муратов С.Н. Каталоги, списки и обзоры тюркских рукописей XVIII–XXвв // Письменные памятники Востока. –СПб., 1969. –С.145–177.

[150]Акимушкин О.Ф. К истории формирования фонда мусульманских рукописей Института востоковедения АН СССР // Ежегодник ППВ. 1978-1979. – М.:Наука, 1987. –С.9–27.

[151] Дмитриева Л. Каталог тюркских рукописей. – М.: Наука, 2002.

xizmatlarini alohida ta'kidlagan G'.Karimov «Rus sharqshunosligida Navoiy ijodini o'rganish masalalari» nomli maqolasida ayni mavzuni birinchilardan bo'lib o'rtaga qo'ygan edi.[152] Adabiyotshunos N.Mallayev bu borada hali qilinajak ishlar ko'pligini qayd etar ekan: «*Shubhasiz, bizning nazarimizdan chetda qolgan (yoki bizga noma'lum bo'lgan) asarlar va ma'lumotlar ham ko'p. Biroq bularning hammasini qamrab olish maxsus tadqiqot ishlarini talab etadi»,* deb yozgan edi.[153] Shuning uchun ushbu o'rinda olimlarimiz «nazaridan chetda qolgan» ayrim ma'lumotlarni yoritish maqsad qilindi**.**

G'arb adabiyotida XVII asrdayoq Navoiy ijodi haqidagi dastlabki ma'lumotlar paydo bo'lgan. Davralarda shoir she'rlaridan namunalar o'qish, falsafiy baytlarini tahlil qilish tez-tez kuzatilgan. 1841 yilda fransuz sharqshunosi M.Katremer ilk bor Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» va «Tarixi muluki ajam» asarlarini nashr qildiradi[154]. XVIII asrdan boshlab Rossiya kutubxonalarida, qo'lyozma fondlarida ham Alisher Navoiy asarlari to'plana boshlaydi va XIX asr oxiriga kelib shoir asarlarining deyarli barcha qo'lyozmalari yig'iladi.

1855 yilda Sankt-Peterburg universiteti tarkibidagi Sharqshunoslik bo'limi[155] maxsus qaror bilan Sharqshunoslik fakultetiga o'zgaradi. Shu davrdan Navoiy asarlariga qiziqish yanada kuchayadi, shoir hayoti va ijodi bilan bog'liq mavzular o'quv rejasiga kiritiladi. Bu harakatlarning samarasida anchadan beri shoir she'riyatini o'rganayotgan universitet tolibi Mixail Nikitskiyga «Amir Nizomiddin Alisher: davlat arbobi va shoir sifatida» nomli magistrlik dissertatsiyasini yozish topshiriladi. Ko'p o'tmay bu

[152] Karimov G'. Rus sharqshunosligida Navoiy ijodini o'rganish masalalari//Sharq yulduzi. – Toshkent, 1967, –№9. –B.155–167

[153] Mallayev N. Asrlar e'tirofi va ta'zimi –Toshkent: Fan,1978. – Б.63

[154] Quatrimere M. Chrestomathie en turc oriental. Paris. 1841.

[155] Sharqshunoslik bo'limi 1820 yilda, universitetning tarix-filologiya fakulteti tarkibida tashkil qilingan (izoh -Gulnoz Xalliyevaga tegishli)

tadqiqot yuzaga chiqadi va 1856 yilda Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi nashrida chop etiladi[156]. Keyingi yilda prof. I.Beryozin tomonidan ilk bor turkiy adabiyot bo‘yicha xrestomatiya yaratiladi va unga Navoiy asarlaridan ham parchalar kiritiladi[157].

Mixail Nikitskiy o‘zigacha Yevropa adabiyotidagi tadqiqotlarni, shuningdek, shoir yashagan yillarga yaqin davrlarda yaratilgan forsiy va turkiy manbalarni sinchiklab o‘rganadi, ulardan unumli foydalanadi va adabiy-ilmiy jamoatchilikni Navoiy ijodining eng muhim qirralari bilan tanishtiradi.

Tadqiqot kirish, ikki qism va xotimadan tashkil topadi. Kirish qismida asarning yozilish tarixi, foydalanilgan manbalar, temuriylar davridagi ijtimoiy-ma’naviy hayot yoritilgan. Birinchi qismda Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, ikkinchisida shoir ijodiy merosi haqida bahs yuritiladi.

Navoiy ijodini tahlil qilishdan oldin M.Nikitskiy shoir haqida uning zamondoshlari va Yevropa tadqiqotchilari bildirgan fikrlarga, turkiy tilning rivojlanish bosqichlariga, Temurning «Tuzukoti Temur» asariga to‘xtaladi, undan ayrim parchalarni rus tiliga tarjimada keltiradi. Muallif turkiy tilning imkoniyatlari haqida yozar ekan, bu tilning sodda va ravonligi, sifatlashlarga bezangan «qo‘g‘irchoq» iboralardan xoli ekanini alohida ta’kidlaydi. Xondamir, Bobur, Jomiyning Navoiy haqidagi qarashlari qatorida, Mirzo Somiyning «Tuhfai Somiy» tazkirasidan shoir haqidagi «Navoiyga davlat ishlarining dabdabasidan ko‘ra, nasr va nazm bilan shug‘ullanish ko‘proq zavq keltirar edi» degan fikrini misol qilib keltiradi[158].

[156] Никитский М. Эмиръ Низам–Эд–Динъ–Али Ширъ. Государственном и литературном его значении. Санкт–Петербург. 1856. −104 с.

[157] Боровков А.К. Изучение жизни и творчества Алишера Навои // Сб. статей.–Ташкент:. 1940.–С.11-30.

[158] Никитский М. – С.55.

M.Nikitskiy Alisher Navoiyning ilmiy-ijodiy merosini «adabiyot gulzorining eng sara guli» deb baholaydi. Muallif o‘z fikrlarini Bobur, Husayn Boyqaro, Jomiy kabi shoir zamondoshlarining Navoiyga bergan baholari bilan rivojlantiradi. Olim Navoiyning Rossiyada mavjud qo‘lyozmalari haqida ma’lumot berar ekan, ularning ko‘pchiligi Yevropada yo‘qligi, ayniqsa, bir qancha asarlarni o‘zida jamlagan «Kulliyoti Navoiy» noyob manba ekanini ma’lum qiladi. Asar tarkibida «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ai sayyor», «Chihil hadis», «Nazm ul-javohir», «Siroj ul-muslimin», «Nasoyim ul-muhabbat», «Lison ut-tayr», «Mahbub ul-qulub», «Tarixi muluki ajam», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Majolis un-nafois», «Hayrat ul-abror» – jami 15 ta asar jamlanganligini ma’lum qiladi. Shuningdek, M.Nikitskiy Navoiyning avval turkiy, keyin forsiy asarlariga birma-bir qisqacha izoh beradi va parchalar keltiradi. Asarlarni ta’riflash barobarida bu borada Navoiy zamondoshlari va Yevropa olimlarining fikrlaridan ham misollar keltiradi.

Muallif Navoiyning «Tuhfat ul–afkor» asari haqida to‘xtalib, Davlatshoh Samarqandiy adibning barcha forsiy asarlari ichida bu qasidasini yuqori baholaganligini yozadi. Keyin Navoiyning ijodiy ruhiyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida qasidadan parcha keltirishini ma’lum qiladi. Ammo parcha «Tuhfat ul–afkor» asaridan emas, Mahmud Shabustariyning «Gulshani roz» dostonidan keltiriladi. Buni M.Nikitskiy tadqiqotidagi matnni Shabustariyning «Gulshani roz» va Navoiyning «Tuhfat ul-afkor» asarlari matni bilan qiyoslash asosida aniqladik. M.Nikitskiyning o‘sha davrda «Tuhfat ul-afkor»dan namuna keltirishining iloji yo‘q edi, chunki asarning qo‘lyozma nusxasi Fransiya milliy kutubxonasida saqlanadi. Aksincha, olim o‘qigan Sankt-Peterburg universitetining sharqshunoslik fakulteti kutubxonasida «Gulshani roz» asarining qo‘lyozmasi nusxasi mavjud bo‘lib, M.Nikitskiy undan foydalangan

va xato ravishda bu dostonni Navoiyga nisbat berib tahlil qilgan. Aytish joizki, bu matniy xatolar M.Nikitskiy tilga olingan oldingi tadqiqotlarda qayd etilmagan.

Xullas, M.Nikitskiy o‘z tadqiqotida rus sharqshunosligida birinchi bo‘lib Alisher Navoiyning serqirra faoliyatini imkon qadar yoritishga harakat qilgan. Bu dissertatsiya ayrim kamchilik va chalkashliklardan xoli bo‘lmasa-da, keyingi ishlarga asos manba bo‘lib xizmat qilgani hamda rus navoiyshunosligini boshlab bergani bilan ham alohida qimmat kasb etadi.

Ancha tanaffusdan keyin (1856–1926), XX asrning 20–yillaridan boshlab rus navoiyshunosligi yana rivojlana boshlaydi va asrning birinchi yarmigacha Navoiyning ilmiy-ijodiy faoliyati aks etgan bir qancha to‘plamlar, monografiyalar, maqolalar nashr etiladi[159].

XX asrning birinchi yarmida Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha qilingan tadqiqotlarni shartli ravishda 4 ta yo‘nalishda tasniflab o‘rganish mumkin:

1. Umumiy obzor xarakteridagi ilmiy ishlar.
2. Alohida asarlar o‘rganilgan tadqiqotlar.
3. Navoiy qo‘lyozma asarlariga tavsiflar.
4. Navoiy ijodiy merosi o‘rganilgan ishlarga yozilgan taqrizlar.

Navoiyning hayoti va ijodi, adib yashagan davrdagi siyosiy, ijtimoiy, adabiy muhit, masalaning o‘rganilishiga doir obzor xarakterdagi ilmiy ishlarda rus turkologlari eng umumiy, xarakterli jihatlarni yoritishga harakat qilganlar. A.K.Borovkov Navoiy merosining o‘rganilishiga doir maqolasida navoiyshunoslikning o‘tmishi va istiqboli haqida to‘xtaladi[160]. Maqola avvalida Navoiy

[159] Мир Али Шир // Сб.статей. –Л:.Изд АН, 1928. −175 с; Родоначальник узбекской литературы // Сб. статей. –Т.:Изд-во Узб. фи-лиала Академии наук, 1940. − 220 с; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. –М.: Наука, 1965.−499 с; Жирмунский В.М. Алишер Навои и проблема Ренессанса в восточных литературах // Ученые записки ЛГУ. Сер.филол. наук.1961. Вып.−№59. –С.86−97; Самойлович А.Н. Четверостишие туюги Наваи // Мусульманский мир. –Петроград, 1917. Вып.I. –С.10–22.

[160] Боровков А.К. Изучение жизни и творчества Алишера Навои // Сб. статей.–Ташкент:.

yashagan davr, adib ijodining xalqchilligi, o‘zbek va boshqa xalqlar adabiyotiga ta’siri, Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Keyin olim adib ijodi bo‘yicha ilmiy ish olib borgan M.Katremer, M.Nikitskiy, M.Belen, E.Bloshe tadqiqotlari, 1926-yilda Boku adabiy jamiyati tomonidan nashr qilingan «Navoiy» to‘plami xususida to‘xtaladi. A.K.Borovkovning qayd qilishicha, oktabr to‘ntarishiga qadar Navoiy shaxsi va ijodiga nisbatan 3 xil qarash bo‘lgan:

1. Navoiy- buyuk shoir, u faqat xoslar uchun yozgan;

2. Navoiy feodal jamiyatda yashagan va hukmron doiralar manfaatini ko‘zlagan;

3. Navoiy- tarjimon, u original asar yozmagan.

A.K.Borovkov ilmiy jamoatchilik orasidagi bu qarashlar Navoiy ijodini yuzaki o‘rganishdan, qiyosiy-tanqidiy ishlar olib borilmaganidan kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Olim Navoiy tavalludining 500 yilligiga tayyorgarlik navoiyshunoslikda yangi bosqichni boshlab bergani, yuqoridagi kabi «nazariya»larga chek qo‘yilgani haqida to‘xtalib, bu borada A.A.Semenovning maqolasi alohida ahamiyatga ega ekanini qayd qiladi, lekin, Navoiy asarlarining originalligini ancha oldin isbotlab bergan E.E.Bertelsning tadqiqotini[161] e’tiborsiz qoldiradi. Maqola so‘ngida A.K.Borovkov Navoiy asarlarining nihoyatda insoniy, hayotiy ekanligi, shuning uchun ham uning obrazlari, o‘xshatishlari va istioralaridan yashirin mistik sirni qidirish shart emasligini qayd qiladi.

1948-yilda E.E.Bertelsning Navoiy ijodiy biografiyasiga bag‘ishlangan monografiyasi e’lon qilinadi [162]. Tadqiqot tarkibidagi Navoiy ijodining o‘rganilishiga oid maqola avvalida shoir

1940.–С.11-30.

[161] Бертельс Е.Э Наваи и Аттар // Сборник Мир Алишер. Л.:1928.– С.24–83.

[162] Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии. – М. Л. : Изд-во АН СССР, 1948. – 272 с.

asarlarining o‘rganilishida uning o‘z davridayoq tuzila boshlangan va XX asrga qadar davom etgan lug‘atlarning ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Keyin olim Navoiy asarlarining Yevropaga tarqalish tarixi haqida to‘xtaladi. E.E.Bertels kuzatishlari asosida Yevropada mashhur bo‘lgan, 1597–1766 yillar davomida o‘n bir marta nashr qilingan Xristofor Armaniy asarining ikkinchi qismi Navoiyning «Sab’ai sayyor» dostonidagi voqealar tavsifiga to‘la mos kelishini ma’lum qiladi. Olim «Shoh Sarandipning uchta navqiron o‘g‘li sarguzashtlari» deb nomlangan bu asarni Navoiy asari bilan qiyoslash asosida XVI asrdayoq adib asarlari Yevropaga kirib borganini isbotlaydi.

E.E.Bertels Navoiy ijodining o‘rganilishini 3 bosqichga ajratadi va har bir bosqichning xarakterli xususiyatlarini ochib beradi. M.Katremer, M.Belen, E.Bloshe, I.Beryozin, M.Nikitskiy, V.V.Bartold kabi fransuz va rus olimlarning tadqiqotlari birinchi bosqichni tashkil qiladi. Bu ilmiy izlanishlarning xarakterli xususiyati Navoiyni forsiy adabiyotning tarjimoni, asarlarini taqlidiy asar sifatida tahlil qilishdan iborat.

1926 yilda Bokuda o‘tkazilgan turkologlar qurultoyida Navoiyning qamariy yil bo‘yicha (845–1385) 500 yilligini nishonlash haqida qaror qabul qilinadi. Bu qaror adib ijodiy merosini o‘rganishning ikkinchi bosqichini boshlab beradi. 1926 yilda Bokuda «Navoiy», 1928 yilda Sankt– Peterburgda «Mir Alisher» kabi ilmiy to‘plamlar nashr qilinadi. E.E.Bertels Bokuda o‘tkazilgan yubileyni muvaffaqiyatsiz bayram, nashr qilingan to‘plamni esa ilmiy asoslanmagan fikrlar majmui, deb baholaydi. Chunki, to‘plamdagi maqolalarning aksariyatida Navoiy asarlariga taqlidiy asar deb qarash davom etgan, Sulton Husayn Navoiyning nafaqat «ideal» do‘sti, balki she’riyatdagi «rahnamosi» deb ko‘rsatilgan. Aslida, E.E.Bertelsning Bokuda chop etilgan to‘plam haqidagi fikrlarida biryoqlamalik ham yo‘q emas. Majmuadagi I.Hikmat,

B.Cho‘bonzoda kabi olimlarning maqolalarida milliy o‘zlikka, turkiygo‘ylikka urg‘u berish kuchli edi. Ehtimol, rus olimiga to‘plamdagi ana shu jihat ma’qul kelmagan bo‘lishi mumkin.

1928-yilda V.V.Bartold tahriri ostida nashr qilingan «Mir Alisher» to‘plamining salohiyatiga E.E.Bertels yuqori baho beradi va undagi ayrim maqolalar mazmuniga ham to‘xtaladi. Ammo olim bizga noma’lum sababga ko‘ra Turkistondagi navoiyshunoslik masalalariga e’tibor qaratmaydi. Vaholanki, 20-30 yillar arafasida Fitrat, Vadud Mahmud, Cho‘lpon, Ashurali Zohiriy kabi olimlarning maqolalari shoir ijodiy merosining o‘rganilishida ilk qadamlar sifatida baholanadi.

Olimning ta’kidlashicha, Navoiyning 500 yilligini nishonlash haqidagi hukumat qarori adib ijodi o‘rganilishining uchinchi bosqichiga yo‘l ochib berdi. 1938–1939 yillardan boshlab Navoiy merosiga qiziqish yanada kuchaydi. Maqola so‘nggida E.E.Bertels Navoiydek daho ijodkor merosini o‘rganish doimiy jarayon ekanligi, shuning uchun uning merosini o‘rganib bo‘ldik deyishga hali ertaligi, lekin aynan shu yillarda navoiyshunoslik uchun mustahkam zamin hozirlangani va yosh mutaxassislar tarbiyalanganini alohida qayd etadi.

V.V.Bartold «Mir Alisher va siyosiy hayot» nomli obzor xarakteridagi asarida Navoiyning tarixiy biografiyasini qo‘lyozma manbalar asosida yoritib beradi[163].Olim monografiyada Alisher Navoiyning hayot yo‘lini, ijodiy faoliyatini bor holicha, real ko‘rsatishni maqsad qiladi. Chunki shoir biografiyasi yoritilgan ko‘p manbalarda Navoiy dunyodan uzilgan, darveshsifat, faqat she’ru shoirlik shaydosi qilib ko‘rsatilgan. V.V.Bartold o‘zigacha yozilgan tadqiqotlardagi kamchiliklarni yoritar ekan, aniq manba va tarixiy dalillarga suyanmay fikr aytish ilmiy etikaga to‘g‘ri kelmasligini

[163] Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь // Сб. Мир Али Шир. –Л:.1928. – С.100−165.

uqtiradi. Jumladan, u: «…fransuz tadqiqotchisi M.Belen Navoiyning vafoti borasidagi voqealar tasvirida Mirxond asariga ishora qiladi, vaholanki, Mirxondning o‘zi 1498-yilda Navoiydan oldin vafot etgan», deb yozadi. Shuningdek, ozarbayjon tadqiqotchisi Ismoil Hikmat 1926-yili ham Bokuda nashr qilingan «Navoiy» to‘plamidagi maqolasida M.Belen yozgan ayrim faktlarga tayanib noto‘g‘ri xulosalarga kelganini ma’lum qiladi.

Yu.Bregel olimning bu asariga yozgan so‘zboshisida: «V.V.Bartold bu ilmiy asari bilan nafaqat adabiy manbalarni mohirona tahlil qilish, balki manbaga ehtiyotkorlik bilan yondashish, obyektiv va to‘g‘ri talqin etish namunasini ham namoyon qila oldi», degan edi. Shu o‘rinda olim yana V.V.Bartolddan keyin yozilgan ishlarda, jumladan, E.E.Bertelsning «Navoi» tadqiqotida ham hech qanday yangilikni uchratmagani haqida yozadi. Bu fikrga qo‘shilish qiyin, albatta. Chunki V.V.Bartold adabiyotshunos bo‘lmagani uchun badiiy adabiyotning spetsifikasiga e’tibor bermaydi. Olim Alisher Navoiyning adabiy faoliyatini chuqur tahlil qilmaydi va shuning uchun ham tadqiqotining boshida «Mir Alisher musulmon forsiy adabiyotga to‘la qaram bo‘lgan turkiy madaniyat va adabiyotning vakilidir», degan noto‘g‘ri mulohaza bildiradi[164]. V.V.Bartoldning Navoiy ijodini noto‘g‘ri baholaganligini E.E.Bertels o‘z tadqiqotida ilmiy odob doirasida tanqid qilgan. Qolaversa, 1928-yildagi «Mir Alisher» to‘plamiga V.V.Bartoldning tahlil qilinayotgan ushbu ilmiy ishi bilan birga E.E.Bertelsning shoir asarlarining originalligi isbotlangan «Navoi va Attor» maqolasi ham kiritilgan. Bu faktga Y.Bregel e’tibor bermagan ko‘rinadi.

V.V.Bartold tadqiqoti «Eroniylar va turkiylar», «Hirot va uning ahamiyati», «Mir Alisher va Sulton Husayn «, «Iltifotsiz yillar», «Mir Alisher umrining oxirgi yillari» kabi fasllardan tashkil topgan.

[164] Бартольд В.В Мир Али Шир и политическая жизнь. –С.100

Bu fasllar orqali Navoiyning keng tarixiy biografiyasi bilan tanishish mumkin. V.V.Bartold asosan tarixiy biografik ma’lumotlarni bayon qiladi, u shoirning adabiy-estetik qarashlariga deyarli to‘xtalmaydi. Ammo, monografiyadan Navoiy hayotining eng mayda detallarigacha axborot olish mumkin. Bu ma’lumotlar shoir ilmiy biografiyasini yaxlit tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy hayoti va ijodini, badiiy asarlarining poetik xususiyatlarini, o‘zaro adabiy ta’sir masalalarini maxsus tadqiq qilgan A.N.Samoylovich, E.E.Bertels, A.N.Kononov, M.Salye kabi olimlarning ilmiy izlanishlari rus navoiyshunosligining asosiy qismini tashkil etadi[165].

Bu borada A.N.Samoylovichning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Olimning arxivida nashr qilingan ilmiy ishlaridan tashqari Navoiy merosiga doir ko‘plab manba va ma’lumotlar, shoir asarlari tavsifi yuzasidan bir qancha materiallar saqlanadi. A.N.Samoylovich Alisher Navoiyning aruz vazni nazariyasiga oid «Mezon ul-avzon» asari o‘rganilgan maqolasida[166] umumiy ma’lumot berish bilan birga undan parcha ham keltiradi. Maqola avvalida asar qo‘lyozma nusxalarining nihoyatda kamligi, Sankt-Peterburg Milliy kutubxonasida yagona nusxada mavjudligini yozadi. U mutaxassislar iltimosiga ko‘ra asardan ayrim parchalarni arab yozuvida keltirishni lozim topgani va shu bilan chegaralanganini ma’lum qiladi. Shu tariqa olim «Mezon ul-avzon» muqaddimasini, tuyuq, mustazod, qo‘shiq, muhabbatnoma haqidagi qismlarni va xotimani asl holda (arabiy yozuvda) taqdim etadi .

---

[165] Алишер Навои «Махбуб ул−кулуб». Сводный текст подготовил А.Н.Кононов. − М.−Л.:Изд. АН,1948; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. –М.: Наука, 1965.−499 с; Бертельс Е.Э. Наваи и литература Востока // Дружба народов. − М.,1941. −№6. − С.330−339; Салье М. Очерки по истории узбекской литературы. Алишер Навои // Звезда Востока.–Т.,1947. −№ 8.−С.79−93; Салье М.А. Текст, перевод, исследование два малоизвестных произведения Алишера Наваи. Дисс. ... канд. филол. наук. –Т., 1945. –164 с.

[166] Самойлович А.Н. Извлечения из трактата по просодии Мир Алишера Неваи «Мизан ул авзан» // Восточный сборник. Кн.I.−СПб.,1926. –С.105–114.

A.N.Samoylovich rus adabiyotshunoslari orasida birinchi bo‘lib Navoiy tuyuqlari haqida axborot bergan olimdir. Jumladan u maqolada «Mezon ul -avzon» asaridan olingan tuyuq haqidagi quyidagi parchani keltiradi: «Yana turk ulusi bataxsis chig‘atoy xalqi aro shoyi’ avzondurkim, alar surudlarini ul vazn bila yasab, majolisda ayturlar. Birisi «tuyug‘»dirkim, ikki baytqa muqarrardur va sa’y qilurlarkim, tajnis aytilg‘ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur»[167]. Olim xuddi shu parcha shoirning «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida ham mavjudligi, bu asar fransuz tadqiqotchisi M.Katremer tomonidan 1841-yilda nashr qilinganini qayd qilib o‘tadi.

A.N.Samoylovich tuyuq janriga xos ikki jihatga – tajnis va maxsus vazn masalasiga urg‘u beradi. Shuningdek, lug‘atlarda berilgan tuyuq so‘zining izohlariga ham to‘xtalib o‘tadi. A.N.Samoylovich M.Belen «Majolis un-nafois» asarini tarjima qilish jarayonida aynan tuyuq so‘zini noto‘g‘ri o‘qigani, shuning uchun ham asarning ettinchi majlisida keltirilgan Abu Bakr Mirzo va Sulton Iskandar she’rlarining tuyuq ekanini anglamaganini tanqid qiladi: tuyuqlarning aslini va tarjimasini, Navoiyning bu tuyuqlarga bergan bahosini ham keltirib o‘tadi.

Oradan yillar o‘tishi, adabiyotshunoslar biri ikkinchisining yozganlariga xolis munosabati natijasida navoiyshunoslik, tuyuqshunoslik asta-sekin teranlashdi. Olimning bu fikrlariga A.Bagirovning tuyuq janriga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotida ham munosabat bildirildi[168]. N.Mallayev Lutfiy, Navoiy, Amiriy, Komyob tuyuqlariga to‘xtalar ekan, A.N.Samoylovichning bu borada maxsus maqolalari borligini eslatib o‘tadi va olimning:

[167] [167] Самойлович А.Н. Извлечения из трактата. –С.107

[168] Багиров А. Туюг в тюркоязычной поэзии (формирование и развитие жанра): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Т., 1983.−19 с.

«Amiriy tuyuqlari kamolot jihatidan Navoiy tuyuqlari bilan tenglasha olmaydi» degan fikrini keltiradi[169].

Alisher Navoiy asarlarining alohida tadqiq qilinishida 1948 yili A.N.Kononov tomonidan tayyorlangan «Mahbub ul-qulub»ning yig‘ma-qiyosiy matni alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning kirish qismidagi ma’lumotga ko‘ra, olim bunda asarning 6 ta Sankt-Peterburg va 2 ta Toshkent nusxasiga tayangan[170]. Sh.Sirojiddinov bu tadqiqot ayrim manbalarda «ilmiy-tanqidiy», ayrimlarida «chog‘ishtirma» matn deb berilgani, ammo mazkur matnni yig‘ma-qiyosiy matn deb atash kerakligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Olim ta’kidlaganidek, yig‘ma-qiyosiy matn imkoniyat darajasida qo‘lga kiritilgan matnlarni o‘zaro qiyoslash natijasida tuziladi, bunda asarning hamma nusxalarini tekshirish maqsad qilinmaydi.[171]

E.E.Bertelsning «Navoiy» monografiyasida «Mahbub ul-qulub» haqida ham mulohaza yuritilgan. Jumladan, E.E.Bertels manbaning yaralish tarixi, tarkibi, undagi ayrim parchalar tahliliga to‘xtalib, Navoiyning bu falsafiy hikmatnomasini jiddiy asarlardan biri deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, «Mahbub ul-qulub» adabiyotdan o‘yin-kulgi, ko‘ngilxushlik izlovchilar uchun yozilgan emas. Bunda har bir jumla *boshdan kechirilgan, o‘ylab ko‘rilgan va taroziga solingan*, shuning uchun ham u kitobxondan jiddiy yondashishni talab qiladi. Olim «Mahbub ul-qulub»ni boy hayotiy tajribaga asoslangan va zamonaga baho berilgan asar sifatida baholaydi.[172]

E.E.Bertelsning «Navoiy» monografiyasida shoirning «Xamsa» dostonlariga ham maxsus fasl bag‘ishlangan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, asarning eng qadimgi qo‘lyozma nusxasi ham

[169] Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: Fan, 1974. B.79.
[170] Алишер Навои «Махбуб ул−кулуб». Сводный текст подготовил А.Н.Кононов. − М.−Л.:Изд. АН,1948.−177 с.
[171] Sirojiddinov Sh., Umarova S. O‘zbek matnshunosligi qirralari/ Toashkent: Akademnashr, 2015. B.18-19.
[172] Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии. – М. Л. : Изд-во АН СССР, 1948. – С.254.

E.E.Bertels sa'y-harakati bilan topilgan, fan uchun asrab qolingan[173]. Olim Navoiyning har bir dostonini Nizomiy va Dehlaviy dostonlariga qiyosan o'rganadi. Misollarda va rus tiliga tarjimada ularning xarakterli xususiyatlari, originalligini ochib beradi. Dostonlarning birma-bir tahlili asnosida olim quyidagi xulosalarga keladi:

1. Navoiyni ideallashtirish, uning obrazini modernizatsiya qilish shart emas, shoir ovozining bugungi kunda ham yangrayotganining o'zi unga berilgan yuksak bahodir.

2. «Hayrat ul-abror» dostonida shoirning falsafiy, axloqiy-ijtimoiy dunyoqarashining asosiy qirralari aks etgan.

3. Navoiyning «Layli va Majnun» dostonini yozishdan maqsadi ota–onaning farzand ustidan mutlaq hukmronligi qanday oilaviy fojialarga olib kelishini ko'rsatishdan iborat bo'lgan.

4. «Farhod va Shirin» fidokorona mehnat, insoniylik va muhabbat madhiyasidir. Shubha yo'qki, Farhod obrazida Navoiyga xos xususiyatlar ham aks etgan.

5.«Sab'ai sayyor» dagi hikoyatlar bir-biri bilan mustahkam «organik» aloqada bo'lib, asarning poetik butunligini ta'minlashga xizmat qilgan va Navoiyning kompozitsiya yaratish mahoratini ko'rsatgan. Bu asari bilan shoir temuriy shahzodalarga «maishat va lazzat botqoqligi» qanday fojialarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatgan.

6. «Saddi Iskandariy» chuqur falsafiy-siyosiy donolik xazinasi, shu davr siyosiy-ijtimoiy hayotining oynasidir. Doston tilining sodda va ravshanligi uni «Xamsa»dagi boshqa dostonlardan ajratib turadi, shuning uchun ham E.E.Bertels Navoiyni o'rganishni aynan shu dostondan boshlashni tavsiya qiladi. Akademik Aziz Qayumovning ta'kidlashicha, E.E.Bertels bu tadqiqotida katta mahorat va bilimdonlik bilan ish yuritadi.[174]

[173] Бертельс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. –М.: Наука, 1965.−С.450.
[174] Qayumov A. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom n-dagi AS nashriyoti, 1975. B.8.

XX asrning birinchi yarmida Navoiyning qo‘lyozma asarlari tavsifiga bag‘ishlangan 2 ta tadqiqot nashr qilingan. A.A.Semenov[175] Navoiyning O‘zbekiston milliy kutubxonasida mavjud qo‘lyozma asarlariga, S.A.Volin[176] Sankt-Peterburg kutubxonalaridagi manbalarga tavsif beradi. Bu mualliflardan ancha oldin A.N.Samoylovich ham Navoiy qo‘lyozmalari tavsifiga bag‘ishlangan maqola yozgan, ammo bu ish nashr qilinmagan va hozirda arxivda saqlanmoqda. Unda Navoiyning barcha nazmiy va nasriy asarlariga qisqacha tavsif berilgan hamda rus va chet el sharqshunosligida o‘rganilishi borasida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

A.A.Semenov tavsifida Navoiy asarlari ko‘chirilgan yiliga qarab, alifbo tartibida joylashtirilgan. Muallif ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashda eng qadimgi, shoir yashagan davriga yaqin qo‘lyozmalarning muhim ahamiyatga ega ekanligi, shuning uchun Navoiy asarlarini xronologik ketma-ketlikda keltirganligini ma’lum qiladi.

S.A.Volin tavsifi Rossiya Milliy kutubxonasi, Sankt-Peterburg davlat universiteti sharqshunoslik kutubxonasi va Osiyo muzeyi (hozirda Sharq qo‘lyozmalari instituti) kutubxonasida mavjud Navoiy asarlari qo‘lyozmalari asosida tayyorlangan. Maqola boshida olim turkiy qo‘lyozmalar tavsifi keltirilgan ilmiy manbalar nihoyatda kamligi, asosiy e’tibor forsiy va arabiy qo‘lyozmalar tavsifiga qaratilganini ta’kidlaydi. S.A.Volinning qayd qilishicha, Sankt-Peterburg kutubxonalarida Navoiy asarlarining 77 ta, O‘zbekiston kutubxonalarida 200 ta qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. Garchi soni ko‘p bo‘lmasa-da, qadimiyligi jihatidan Sankt-Peterburgdagi qo‘lyozmalar ustun turadi. Olim dastavval asarlarning Navoiy yozgan yiliga qarab ro‘yxatini beradi. Unga ko‘ra 1465 yilda shoirning

[175] Семенов А.А. Описание рукописей произведений Навои хранящихся в Гос. публичной библиотеке Узбекистана. –Т:.Гостехиздат,1940.−48 с.

[176] Волин С.А. Описание рукописей Навои в Ленинградских собраниях // Сб. Алишер Навои. –М.−Л:.Наука,1946. –С.203−233.

birinchi devoni, 1501 yilda oxirgi «Mahbub ul-qulub» asari bitilgan. S.A.Volin Sankt-Peterburgda «Muhokamat ul–lug‘atayn», «Siroj ul–muslimin», «Devoni Foniy»dan boshqa shoirning barcha asarlari mavjudligini ma’lum qiladi.

S.A.Volin va A.A.Semenov tadqiqotlarini qiyosan o‘rganish asosida quyidagi farqliklar aniqlandi:

Birinchidan, A.A.Semenov o‘zidan oldin yozilgan 11 ta, S.A.Volin 9 ta arabiy, turkiy, forsiy qo‘lyozmalar katalogini ko‘rib chiqishgan.

Ikkinchidan S.A.Volin tavsifida qo‘lyozma haqidagi umumiy ma’lumotlardan tashqari ularning dunyoning yana qaysi fondlarida va kataloglarda mavjudligi, kimning kolleksiyasi ekanligi ham qayd qilingan.

Uchinchidan S.A.Volin A.A.Semenovdan farqli ravishda har bir qo‘lyozmaning boshlanishi va oxirgi misrasini keltirib o‘tgan.

Bu tavsiflar ayrim kamchiliklardan holi bo‘lmasa-da, shu davrda Navoiy asarlarining o‘rganilishida muhim rol o‘ynadi. S.A.Volinning tadqiqoti hozir ham Rossiya va chet el navoiyshunoslari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Navoiy ijodiy merosining o‘rganilishida rus sharqshunoslari yozgan taqrizlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu taqrizlarda navoiyshunoslikning o‘ziga xos tomonlari: nuqsonlari, yutuqlari va istiqboli haqida mulohaza yuritilgan. Shu ma’noda ularni XX asr birinchi yarmi rus navoiyshunosligining «oynasi» deyish ham mumkin. Asosiysi, bu taqrizlar muayyan bir tarixiy davrda Navoiy ijodi bo‘yicha qilingan ishlar, ularning mazmun-mohiyati, bahosi haqida ma’lumot beradi.

E.E.Bertels 1947-yilda professor A.Sa’diyning «Navoiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotining oliy bosqichi sifatida» nomli doktorlik dissertatsiyasiga taqriz yozadi, ammo bu taqriz

1965-yildagina nashr qilinadi[177]. Olimning qayd qilishicha, dissertant ishning kirish qismida Shoir ijodining progressiv tomonlarini, ayniqsa, gumanizmining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash; Navoiy estetik qarashlarini uning salaflari qarashlari bilan qiyosiy o‘rganish, ijodiy yo‘lini aniqlash; Shoir lirikasi, ayniqsa, g‘azaliyotini tahlil qilish; «Xamsa»dagi asosiy obrazlar xarakteristikasini berish; Navoiy ijodining o‘zbek va tatar adabiyoti taraqqiyotiga ta’sirini yoritish kabi masalalarni o‘rganishni maqsad qilgan. E.E.Bertels dissertatsiyani yetarli darajadagi filologik ish deb hisoblamaydi. Chunki unda muallif xatto o‘zi foydalanayotgan manbani tekshirib ko‘rishni lozim topmagan. Toshkentda adib asarlarining noyob qo‘lyozmalari mavjud bo‘lishiga qaramay, duch kelgan qo‘lyozma yoki toshbosma bilan ishlaydi, shu sabab ayrim so‘zlarni xato o‘qiydi va talqin qiladi. Bu o‘rinda E.E.Bertels ishning 81–sahifasida keltirilgan «Ayyon vatan uzra to joni bor» misrasi aslida «Iyolu vatan uzra to joni bor» tarzida o‘qilishini, 67-betdagi «Ayni haqiqatdur majoz» tushunchasi «Moddiy olamga haqiqiy nigoh» deb emas, «Majoz mohiyati aslida haqiqat» tarzida talqin qilinishi kerakligini yozadi.

Olim «Xamsa» asosiy obrazlari xarakteristikasini berganda dissertant biroz adashganini, ya’ni Farhod xalq uchun kurashchi, Majnunda ijtimoiylikdan ko‘ra, psixologizm kuchli, Diloromni xalq qizi deb e’tirof etganini yozadi. E.E.Bertelsning fikricha, bu bilan tadqiqotchi o‘rinsiz «modernizatsiyaga» yo‘l qo‘yadi, asarga umuman aloqasi bo‘lmagan «yangiliklar»ni olib kiradi. Boshqacha aytganda, Navoiy qahramonlari zamona mayliga moslanadi. Adabiyotshunos B.Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, chinakam san’at durdonalari talqiniga siyosat aralashsa, asar interpretatsiyasi zamona mayliga moslansa, ilmiy xolislik yo‘qoladi, g‘oyaviy-estetik mohiyat ochilmaydi, ilmiy talqin muvozanati buziladi[178].

[177] Бертельс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. –М.: Наука, 1965.−С.453-459.
[178] Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: Muharrir, 2011. B.44.

A.Sa'diy tadqiqotidagi «Navoiy ijodining o'zbek va tatar adabiyoti taraqqiyotiga ta'siri» nomli faslni E.E.Bertels ishning eng muvaffaqiyatli qismi deb hisoblaydi. Uning fikricha, aynan shu faslda muallifning ko'p yillik tajribasi, ilmiy salohiyati namoyon bo'lgan.

Shuni aytish joizki, E.E.Bertelsdan ancha oldin jadid munaqqidi Vadud Mahmud ham A.Sa'diy ilmiy salohiyotiga munosabat bildirgan. Ilmda ta'kidlanishicha, «...20-yillar adabiy jarayonida, ancha-muncha maqolalari bilan tanilib qolgan A.Sa'diy bahs paytida (V.Mahmud bilan-X.G.) o'zining klassik she'riyatni yaxshi tahlil qila olmasligini, forscha va arabcha so'zlarga yaxshi tushunmasligini, ayniqsa, Navoiy shaxsi va ijodini baholashda bexosdan noo'rin iboralar qo'llab, «savodi»ni bildirib qo'yadi[179]. Bundan tashqari A.N.Samoylovichning arxivida A.Sa'diy ijodi bo'yicha yig'ilgan boshqa taqrizlar ham saqlanmoqda.

E.E.Bertels nazariga tushgan ilmiy ishlardan yana biri Oybek muharrirligida nashr qilingan «Ulug' o'zbek shoiri» to'plamidir. To'plam 1948 yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan chop qilingan.[180] Olim to'plamda jamlangan barcha maqolalarga (6 ta) o'z munosabatini bildiradi, yutuq va kamchiliklarni ko'rsatadi. Jumladan, E.E.Bertels to'plamning 16-sahifasidagi (Y.G'ulomov maqolasida) naqshbandiy darveshlar fan va madaniyatga qarshi bo'lgani haqida yozilgani, bu qarash noto'g'ri ekanini qayd etadi. Olimning fikricha, agar shunday bo'lsa, Navoiy va Jomiydek ikki buyuk daho aynan naqshbandiylik tariqatini tanlamagan bo'lar edilar. Shuningdek, V.Zohidovning «Navoiyning ayrim ijtimoiy-siyosiy qarashlari» nomli maqolasida muallif XV asr odamlarining tafakkur tarzini «modernizatsiya» qilgani, davr muhiti tahlilida ularga xos bo'lmagan (parazitizm, sinfiy kurash)

[179] Karimov B. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. – Toshkent: Universitet, 2000. B.66.
[180] Великий узбекский поэт // Сб. статей под редакцией Айбека.− Т.:Изд АН Р Уз. 1948.−159 с.

tushunchalarni kiritgani, matnda ayrim xatoliklar mavjudligi (masalan, 62-bet 3-iqtibosda G‘azzoliyning mashhur kitobi Ahmad Yassaviyniki deb ko‘rsatilgan) tanqid qilinadi.

E.E.Bertels A.I.Deych va Oybek hamkorligida yozilgan «Alisher Navoiyning g‘oyaviy olami» nomli maqolaga ham munosabat bildirib, unda bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni kuzatish mumkinligini qayd qiladi. Bir o‘rinda Navoiy so‘fiylardan farqli ravishda olamni bilish va tafakkurni ustun qo‘ygan deb yozilgan bo‘lsa, keyingi sahifada Navoiyning «haqiqatni anglashda aql ojizlik qiladi» degan fikri keltirilgan. Yana bir joyda Navoiy fatalizmga (taqdirga ishonish ta’limoti) qarshi turganini isbotlash uchun keltirilgan misollar aynan fatalizmni ifodalagan.

Taqriz oxirida E.E.Bertels bu kabi to‘plamlarni tayyorlashda o‘ta ma’suliyat bilan yondashish, noto‘g‘ri o‘qish va xato talqinning oldini olish kerakligini uqtiradi. Ayrim kamchiliklar bo‘lishiga qaramasdan, bu ilmiy majmua navoiyshunoslikda yana bir yangi qadam bo‘lganini alohida ta’kidlaydi.

A.N.Samoylovich ham o‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Navoiy va Bobur va boshqa shoirlar ijodi bilan bog‘liq ilmiy ishlarga o‘z munosabatini bildirib baholagan. 1928 yilda Sankt-Peterburgda chop qilingan «Mir Ali Shir» to‘plamida olimning bir yo‘la 4 ta ishga taqrizi e’lon qilinadi.[181]

A.N.Samoylovich taqrizlarida oldin shu mavzuda kim qanday ish olib borgani masalasiga to‘xtaladi. Masalan, turkman tadqiqotchisi A.Qulmuhammad tarjimasini baholash barobarida, undan oldin «Muhokamat ul-lug‘atayn»ni fransuz olimi M.Katremer nashr qildirgani (1841), «Aqdom» gazetasining noshiri Ahmad Javdatning Istambulda (1892) Valad Chalabiy tomonidan usmonli turk tiliga tarjima etilgan «Muhokamat ul-lug‘atayn»ni professor

[181] Великий узбекский поэт // Сб. статей под редакцией Айбека.− Т.:Изд АН Р Уз. 1948. −167-173с.

Najib Osim so‘zboshisi bilan e’lon qilganligi, Qo‘qon ziyolisi Ashurali Zohiriyning 1917 yilda asarning litografik nashrini amalga oshirgani haqida xabar beradi.

Demak, XX asr navoiyshunosligi rus adabiyotshunosligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bu sohani ko‘p yangi ma’lumot, tahlil va talqin bilan bilan boyitdi. E.E.Bertels ta’kidlaganidek, Navoiy ijodi muzeydagi eksponat yoki tarixning bir bo‘lagi emas, u barhayot va yashashda yana davom etadi.

2.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning durdona asarlari shoir o‘zi hayotligi davridayoq Sharq mamlakatlari va Yevropaga tarqalgan edi. Ulug‘ shoir asarlarining yuksak g‘oyaviy-badiiy ta’siri doirasidan Kichik osiyolik turkiygo‘y mualliflar ham samarali bahramand bo‘lganlar. Turk adabiyoti tarixi mutaxassislari Navoiy ijodining usmonli turk shoirlari, dostonnavislari ijodiga XV asrning oxirgi choragidan boshlangan, deydilar. Turkiyshunos V.S. Garbuzova Hamidullo Chalabiyning (1449-1509) 1499 yilda yozilgan “Layli va Majnun” dostoni uning Alisher Navoiyning genial asari bilan tanish bo‘lganligi haqida taassurot o‘yg‘otadi, degan fikrni bildiradi.[182] Ma’lumki, Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonini 1484-yilda yaratgan, Hamdi Chalabiyning dostoni esa bundan 16 yil o‘tib yozilgan. Dostonlar mazmun-mundarijasi diqqat bilan solishtirib o‘rganilsa, Hamdi dostonidagi voqealar rivojlanadigan muhit dostonda Navoiy badiiy uslubi ta’sirini eslatadi. Alisher Navoiy singari Hamdi ham o‘z dostonida Qays (Majnun) devonavor muhabbatining fojiali tarixiga asosiy e’tiborini qaratmaydi, balki Laylining og‘ir ruhiy kechinmalarini, maishiy ahvolini tasvirlaydi.

[182] Bu haqda qarang: Salohiy Isomiddin. Ezgu so‘z qudrati. – Samarqand: SamDU, 2004.21-26-b.

Hamdining dostoni shu jihatdan e'tiborga sazovorki, bu doston Navoiyning chinakam ijodiy ta'sirini sezish mumkin bo'lgan birinchi turk masnaviysidir. Bundan so'ng, turk shoiri Yusuf Nabining (1640-1712) 1705-yilda yozilgan "Xayrobod" dostonida ham Navoiy ijodining ta'siri sezilib turadi.

Alisher Navoiy lirikasining usmonlilar davlatiga tarqalish tarixi haqida aniq ma'lumotlar mavjud. Ulug' shoirning Onado'li mumtoz usmonli turk adabiyotiga ta'siri Turkiyaga yuborgan 33 ta tanlangan g'azali va devonida mavjud boshqa she'riy janrlarga turk shoirlari tomonidan naziralar bitish hodisasidan boshlanadi.[183] V.S. Garbuzova bu haqda shunday yozadi: "Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy she'riyatidagi insonni ulug'lash, gumanizm va vatanparvarlik g'oyalari, do'stlik va birodarlik taronalari shu davrdagi turk qalam sohiblari ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi. XV asrning ikkinchi yarmi – XVI asrda keng rivojlangan eng yaxshi turk g'azallari va qasidalari Navoiy lirikasidan ijodiy ilhomlangan holda yaratilgan edi".[184]

Fransuz tadqiqotchisi Belinning 1861-yili "Notice biographique et literature sur Mir Alishir Nevai" nomli asari nashr qilindi.[185] Belinning bu monografiyasi bilan "Majolis un-nafois" dan fransuzchaga tarjima qilingan parchalar turk tiliga ilk marta Ismoil Hikmat tomonidan 1908-yilda nashr etilgan "Maktab" majmuasining 1-7-sonlarida "Alisher Navoiy va chig'atoy shuarosi" sarlavhali maqolasidan olingan. Keyinchalik Najim Osimbey "Muhokamat ul-lug'atayn" ning Istambul nashri muqaddimasida (Istambul, 1923) buni xulosa sifatida takror tarjima qilib, nashr ettiradi. Monografiya

[183] Bu haqda mufassal ma'lumot Dr. Ro'zmanova R.U.ning "Alisher Alisher Navoiyn'analarining usmonli turk she'riyatiga ta'siri (Ahmad Posh ova Saydi Ali Rais Kotibiy ijodi misolida)" nomli nomzodlik dissertatsiyasida berilgan. – Toshkent, 2011.

[184] Garbuzova V.S. Turk adabiyoti klassiklari. – Toshkent, 1960. 55-56-b.

[185] Ushbu ma'lumotlar Dr. Ro'zmanova R.U.ning "Alisher Alisher Navoiyn'analarining usmonli turk she'riyatiga ta'siri (Ahmad Posh ova Saydi Ali Rais Kotibiy ijodi misolida)" nomli nomzodlik dissertatsiyasi Avtoreferatidan keltirilmoqda. – Toshkent, 2011. 10-13-b.

so‘zboshisi Ismoil Hikmat tomonidan 1926-yilda Bokuda “Navoiy majmuasi” da nashr qilinadi. Xuddishu majmuada Cho‘ponzodaning “Navoiy – tilshunos” nomli kichik maqolasi va Mirzo Muhsin Ibrohimiyning “Fors adabiyotining Alisher Navoiyga ta’siri” nomli maqolasi ham bor. Bu maqolada Nizomiyning “Maxzan ul-asror” va Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonlari qiyoslanadi.

Turkiya universitetlarida doktorlik va nomzodlik ishlari, o‘nlab ilmiy tadqiqotlar, turli anjumanlarga taqdim qilingan bayonotlar, Alisher Navoiy va asarlari uchun tayyorlangan kitoblar mavjud bo‘lib, ularni o‘quvchilarga tanitishga doir qilinayotgan ishlar bugungi kunda ham davom etmoqda.[186]

XVI asr tazkiralarida Alisher Navoiy o‘zining badiiy mahorati va o‘ziga xos uslubi bilan ko‘plab turk shoirlarini ta’sirlantirganligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Hofizi Ajam va Muhyining “Navoiy tarziga yaqin xushoyanda guftori bo‘lganligi”, Shohiyisharqiyning “Navoiy tarzini eslatishi”, Hifziyning “Navoiy tarzini bilganligi”, Shuhudiy, Saboiy, Zoyiiy va Zuhdiyning “Navoiyda mohir bo‘lganligi”, G‘iyosiy va Ulumiyning “Tarzi Navoiyda jahd ko‘rsatganligi” qayd etiladi.

Usmonli turk adabiyotida Alisher Navoiy g‘azallariga yozilgan naziralarda ikki xil farqli uslub qo‘llanilgan. Ba’zi shoirlar o‘z asarlariga Navoiy she’rining shakliy jihatlari bilan birga ichki ruhiy xususiyatini ham o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar, ba’zilari esa faqat tashqi shakliy ko‘rinishdan ilhomlanib, ichki xususiyatda o‘zgacha g‘oya va mazmunlarni qo‘llashgan. Muhyi, Muhibbiy, Ibn Kamol va Jamiliy kabi shoirlar Navoiyning g‘azaliyotini ham shakl, ham g‘oyaviy mazmun jihatidan tanzir etib, uning ruhiyatida qolishgan

[186] Qarang: Dr. Ro‘zmanova R.U.ning “Alisher Alisher Navoiyn’analarining usmonli turk she’riyatiga ta’siri (Ahmad Posh ova Saydi Ali Rais Kotibiy ijodi misolida)” nomli nomzodlik dissertatsiyasi Avtoreferati, 10-b.

boʻlsalar, Ahmad Posho, Najotiy, Xayoliy va Fuzuliy singari shoirlar oʻz uslubi hamda poetik mahoratiga ega boʻlishganligi kuzatiladi.

Alisher Navoiy lirikasining usmonlilar davlatiga tarqalish tarixi haqida aniq maʼlumotlar mavjud. Manbalarda yozilishicha, 1481-yillarga yaqin Navoiyning 33 gʻazali turk shoirlari nazariga tushadi. Bu gʻazallarni Turk sultoni Boyazid II ga Navoiyning oʻzi yuborgan edi. Boyazid II mazkur gʻazallarni onadoʻlilik shoir Ahmad Poshoga yuboradi va ularga nazira bogʻlashni shoirdan iltimos qiladi. Ahmad Posho esa zoʻr diqqat va ishtiyoq bilan sheʼrlarning hammasiga nazira yozadi. Shu narsa xarakterliki, Ahmad Posho ijodining oldingi davri oddiy xalq badiiy-tasviriy shakllaridan batamom uzoqlashish, arabcha, forscha til unsurlaridan, stilistik konstruksiyalardan haddan ortiq foydalanish bilan xarakterlansa, Navoiy sheʼrlari bilan tanishish uning ijodida gʻoyaviy-badiiy jihatdan toʻliq oʻzgarish sodir qiladi. Agar shoir oʻz ijodining birinchi davrida murakkab metaforalar bilan toʻla boʻlgan:

Taxt qoʻyib toqi falakka xisravi xovar quyosh –
Kiydi norinji qabo, osmonda nurafsar quyosh,
Masnadi sultoni subh boʻldi sariri osmon,
Sochdi feruziy tabaqlarda zaru gavhar quyosh…

kabi tushunilishi ogʻir sheʼrlar yozishga katta eʼtibor bergan boʻlsa, Navoiy gʻazaliyoti bilan tanishgach, mazmun va poetik shakl jihatidan xalqchillikka moyil boʻlgan quyidagi gʻazallarni bita boshladi:

Zulfingki uzoringda etar jilvalar, ey doʻst,
Tovusi jondurkim, ochar bolu par, ey doʻst.
Xattingki tilism etti labing doirasiga,
Shirinlik uchun mushk ila afsun yozar, ey doʻst.

Demak, Ahmad Posho Alisher Navoiy she’riyatiga murojaat qilib uning an’analarini davom ettirgan birinchi usmoniy turk shoiridir.

Alisher Navoiyning mukammal devoni usmonlilar davlatiga 1501-yilda keltirildi. Uni Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning tavsiyanomasi bilan Sulton Boyazid II huzuriga shoir Vaziriy olib borgan edi. Tabiiyki, bu voqeadan so‘ng Navoiy g‘oyalari, Navoiyning badiiy tasviriy uslubi Kichik Osiyo bo‘ylab keng tarqaldi.

XV asrda yashagan mashhur turk dengizchisi, olimi, tarixchi va shoiri Kotibiy taxallusli Seydi Ali Rais ham Navoiyning «… payravi bo‘lib, rezgilarini terib olish quvvatiga ega bo‘la olsam, shunga ham roziman». – deb ulug‘ Alisher Navoiyning baytlari bilan boshlanuvchi g‘azali poetik mazmun hamda badiiy shakl nuqtayi nazaridan Alisher Navoiyning mashhur «G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish» she’riga juda yaqin turadi. Usmonli turk va o‘zbek tillarida nazmning durustgina namunalarini bitgan bu shoirning she’rlari mazmunining hayotiyligi, badiiy omillarning tabiiyligiga hamda talab darajasida mu’tadilligi bilan Navoiy she’rlariga juda yaqin turadi.

Seydi Ali Rais Kotibiyning:
Ul yor kishiga mehribon bo‘lmas emish,
Oshiq o‘lan anga shodmon bo‘lmas emish.
Dil bulbulina gulshani kuyidin bo‘lak
Gulzori jahonda oshyon bo‘lmas emish…

kabi Navoiy ijodi ta’sirida bashariy muhabbatni aniq mazmunli satrlarda ko‘ylashining o‘zi ham XVI asr turk poeziyasi uchun ijobiy hodisa edi.

XV asr usmonli turk adabiyotida Alisher Navoiy ijodining kuchli ta’siri ostida qalam tebratgan shoirlardan yana biri Mehri Xotundir.[187] Mehri Xotunni taxminan 1460 yilda tavallud topgan deb hisoblaydilar. Aniqrog‘i, u 1456 yildan keyin Amaleda qozi oilasida tug‘iladi. Uning otasi Baloiy taxallusi bilan she’rlar bitib, ancha shuhrat qozongan ma’rifatparvar shaxs bo‘lib, Boyazid II ning o‘g‘li shahzoda Ahmad adabiy gurunglarning faol ishtirokchisi edi. Shahzoda Ahmad 1481-1512 yillarda Amaleda hukmronlik qilgan. U san’atni biluvchi va sevuvchi, she’rda iste’dodli shaxs bo‘lgan.

Mehri yoshligidan otasi nazoratida arab, fors tillarini, xususan, forsiy tildagi adabiyotni puxta o‘rganadi. U keyinchalik Shahzoda Ahmad saroyining yetuk shoiralaridan bo‘lib yetishadi. Yozma manbalarda 1505 yildagi bir bayramda o‘tkazilgan mushoirada uning birinchi o‘rinni egallagani haqida ma’lumotlar hamda bizning davrimizgacha etib kelgan devoni bu fikrga dalil bo‘la oladi.

Shoira ijodining ko‘pgina tadqiqotchilari uning vafoti sanasini 1506-1507 yillar deb ko‘rsatadilar. Mehri ijodining birinchi rus tadqiqotchisi V.D.Smirnov esa shoira 1514-yilda vafot etgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qiladi. Bu fikrni A.E.Krimskiy ham takrorlagan.

Mehri Xotunning bizgacha yetib kelgan she’rlari uning ijodini butunlay original deb baholashga imkon bermaydi. Biroq fors tilida poeziyaga taqlid qilish yo‘liga kirib olgan turk saroy shoirlari ijodidan uning ijodi o‘zining ayrim original jihatlari bilan ajralib turadi.

O‘rta asr turk shoirlari ijodidan farqli o‘laroq Mehri Xotun xotin-qizlarning aql va iste’dod sohasida erkaklardan qolishmasligi g‘oyasini tashviq etishda zo‘r ijodiy faoliyat ko‘rsatdi. O‘rni kelganda shuni ta’kidlash lozimki, uning bunday olijanob faoliyatida, birinchi navbatda, Alisher Navoiyning ijodiy dahosi rahnamolik qilgan. Buni quyidagi birgina muqoyasa misolida ham ko‘rish mumkin. Alisher

[187] Qarang: Salohiy Isomiddin. Ezgu so‘z qudrati. – Samarqand: SamDU, 2004.24-26-b.

Navoiy o‘zining badiiy epik asarlarida, «Mahbub ul-qulub» nomli ilmiy xarakterdagi nasriy kitobida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va roliga katta ijobiy baho berganidek, lirik asarlarida ham ularni muhabbat va ehtirom bilan ta’riflaydi.

Masalan, Navoiy:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq,
Pok xotunlar oyog‘ining izi.
Lut o‘g‘lin ko‘rki soldi tiyralik
Dinga nafs ilgida tab’i ojizi,
Dahr aro yoqti sayodat mash’alin,
Pokravlikdin Rasulolloh qizi

kabi baytlarda xotin-qizlarni sharaflasa, Mehri Xotun ham mazkur mavzuda shunday baytlar yaratadi:

Bugun bir g‘unchafam go‘rdim, dedimkim, hay, na jondur bu
Dedilar bu ruhi surma, o‘zga jondur bu
matlali g‘azali, shubhasiz, Alisher Navoiyning:
Ul oyni ko‘rgan el derlarki, mehri xovariydur bu,
Meni chun aylamish devona, dermenkim, paridur bu
matla’li g‘azali, yoxud:
Yuzingda may guli yo gul ochilg‘on bo‘stondir bu,
Gulungda qatra qay bo‘stondagi sudin nishondir bu…

Ko‘zimda qatra qonlar bog‘lag‘on ermas hamonokim,
Nazar bog‘inda shavqingdin ochilg‘on arg‘uvondir bu…

kabi baytlarni o‘z ichiga olgan g‘azallaridan bevosita ijobiy foydalanish asosida yaratilgandir. Buni Mehri Xotun g‘azalining Navoiy g‘azallariga o‘z vazni va qofiyalanishidan, shuningdek, gap qurilishidagi yaqinlikdan tashqari, «ko‘z», «qosh», «kiprik» kabi obrazlar orqali fikrning bayon etilishida hamda mavzu yaqinligida kuzatish mumkin.

Navoiyning usmonli turk adabiyotiga ta’sirini o‘rganish masalasi XX asrda yangidan kun tartibiga qo‘yildi va dastlab Nomiq Kamol, Gibb, Brovne, so‘ngra esa, Fuod Ko‘prulu, Ali Nihad Tarlan, Sadetdin Nuzhat Ergun, Mehmet Chavushoglu, prof Usmon Fikri Sertkoya, prof. Mustafa Isan, prof. Jamol Kurnaz, prof. Tahir O‘zgur, Eleazar Birnbaum va Sigrid Kleynmishel kabi tadqiqotchilar tomonidan qayta qalamga olindi. Bu jarayon yangi XX1 asrda ham samarali davom etmoqda.

3.

Qudratli qalami bilan turkiy tilli xalqlarning nafaqat badiiy adabiyoti, balki qalbi xazinasi va ruhoniy dunyosini yakqalam qilgan, betimsol nazmu nasri bilan boyitgan buyuk mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodiga bo´lgan qiziqish yillar sayin emas, asrlar o´tgan sayin yanada ortib bormoqda. Daho so´z san’atkori Navoiy o´zining “nazirai benaziri”da Ozarbayjon xalqining buyuk shoiri shayx Nizomiy Ganjaviyni adabiyot ahlining piri komili, deb oltin taxt uzra tasvirlashi bilanoq, Ozarbayjon xalqiga, uning forsiy tilga ham singib ketgan go´zal tabiatiga, uning axiylariga bo´lgan muhabbatini qalbiga chuqur singdirgan edi. O´zi esa o´z asridan boshlaboq Kichik Osiyoga devonlari vositasida tashrif buyura boshladi va bu jarayon davom etmoqda.

O‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari, Alisher Navoiy ijodining ozarbayjon mumtoz adabiyotiga ta’siri va adabiy merosining

Ozarbayjonda o‘rganilishi kabi masalalar I.Haqqulov, D.Salohiy, M.Sharipov, R.Qobulova, N.Ali, B.Cho‘bonzoda, M.Salmon, O.Mammad, H.Arasli, R.Eyvazova, O.Sertkaya, J.Nag‘ieva, Q.Aliev, A.Ulviy, A.Ziyatay, J.Demirji, P.Karimov, A.Erkinov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan[188].

Alisher Navoiy asarlarining Ne’matulloh Kishvariy va Sodiqbek Afshor Sodiqiy ijodi misolida ozarbayjon adabiyotiga ta’sirining mufassal tadqiqi hanuz kun tartibida turgan bo‘lsa ham, bu borada ayrim ilmiy yutuqlarga erishilgan. Jumladan, Ozarbayjonda navoiyshunoslik faoliyati 1902-yilda Bog‘chasaroyda Alisher Navoiy qalamiga mansub «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarining Ismoil Gaspirinskiy tomonidan arab alifbosidagi ozarbayjon tilida kitob holida nashr etilishi bilan boshlandi[189].

Ayniqsa, 1926-yil 5-martda Bokuda o‘tkazilgan turkologlar qurultoyida Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi nishonlanishi navoiyshunoslikda muhim qadam bo‘ldi. Yubiley natijalari chop etilgan «Alisher Navoiy haqida maqolalar» majmuasida Ismoil Hikmatning «Navoiy va turk adabiyoti», Bakir Cho‘bonzodaning «Navoiyning tili va tilchiligi haqida», Mirzo Muhsin Ibrohimiyning «Fors adabiyotining Alisher Navoiyga ta’siri» va boshqa maqolalar o‘rin olgan[190].

1902-2019-yillar davomida Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Vaqfiya», «Munshaot», «Mezon ul-avzon», «Holoti Pahlavon Muhammad» singari asarlari, «Xamsa» tarkibiga kirgan «Farhod va Shirin», «Sab’ai sayyor» kabi dostonlari hamda she’riyatidan ayrim namunalar «Tanlangan she’rlar», «Tanlangan

[188] Bu haqda qarahg: Султанов Т.И. Алишер Навоий ва озарбайжон адабиёти: тарихий илдизлар, анъаналар, ворисийлик (Кишварий ва Содиқий асарлари мисолида)//Фффд дисс. автореф. – Тошкент, 2019. 7-8-б.

[189] Nəcəfova M. Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələrinə dair // Azərbaycan müəllimi. – Bakı, 1964, 25 oktyabr. – S. 5.

[190] Əlişir Nəvai haqqında məqalələr. – Bakı: Azərbaycan Ədəbiyyatı Cəmiyyatı, 1926. – 107 s.

asarlar» nomlari ostida ozarbayjon tilida chop etilib, ozar xalqining ma’naviy mulkiga aylandi[191].

Hozirda Alisher Navoiyning «Xamsa» asari Ramiz Asker tomonidan ozarbayjon tiliga tarjima qilindi. Bu haqdagi tarjimon e’tirofini 2019 yil fevralda Toshkentda o‘tkazilgan «Alisher Navoiy va XXI asr» Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallarida chop etilgan «Alisher Navoiy asarlarining Ozarbayjonda tarjima qilinishi sahifalarining o‘rganilishi va ayrim masalalari» sarlavhali maqolasida uchratish mumkin[192].

Ozarbayjon adabiyotshunosligida navoiyshunoslik hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlamoqda. Ozarbayjonda har yili Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlab ilmiy seminar, adabiy kecha va Xalqaro konferensiyalar o‘tkazib kelinmoqda. Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasining Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti, Z.Bunyodov nomli sharqshunoslik instituti, Fuzuliy nomli qo‘lyozmalar institutida Navoiy ijodiy merosi keng tadqiq etilmoqda. Ozarbayjon oliy o‘quv yurtlarining til va adabiyot bo‘limlarida «Turkiy xalqlar adabiyoti» fani orqali Alisher Navoiy asarlari yoshlarga puxta o‘rgatilmoqda.

Alisher Navoiyning adabiy merosi XV asrdan boshlab to hozirga qadar ozarbayjon shoir va olimlarining diqqatini jalb etib kelmoqda. Shu sababli Ozarbayjonda yillar davomida Alisher Navoiyning ilmiy merosini o‘rganish va dunyo ilm ahliga tanitish sohasiga muhim hissa qo‘shgan Bakir Cho‘bonzoda, Hamid Arasli, Qulamhusayn Aliyev,

[191] Nəvai Əlişir. Mühakəmətül-lüğateyn – İki dilin mübahisəsi [Mətn]: Cağatay türkçəsindən tərcümə / Tərcümə və ön sözün müəllifi: Kamil Vəli Nərimanoğlu. – Baki: Yurt, 1999. – 64 s.; Vəqfiyyə. – Bakı: Azərnəşr, 1926. – 55 s.; Münşəat. – Bakı: Azərnəşr, 1926. – 88 s.; Mizan ül-övzan / Tərcümə, qəydlər və şərhlər filologiya elmləri doktoru Tərlan Quliyev. – Bakı: Nurlan, 2006. – 148 s.; Haləti Pəhləvan Məhəmməd / Tərcümə və ön sözün müəllifi Almaz Ülvi Binnətova. – Bakı: Avropa, 2018. – 24 s.; Fərhad və Şirin. – Bakı: Azərnəşr, 1948. – 311 s.; Yeddi səyyarə. – Bakı: Azərnəşr, 1947. – 124 s.; Yeddi səyyarə. – Bakı: Azərnəşr, 1979. – 124 s.; Seçilmiş şəirləri: müqəddimə və tərcümə Süləyman Rüstəmindir. – Bakı: Gənclik, 1975. – 96 s.; Seçilmiş əsərləri / Şərhlər, ön sözün və lüğətin müəllifi Həmid Araslı. – Bakı: Öndər, 2004. – 423 s.

[192] Аскер Р. Страницы изучения и некоторые вопросы перевода произведений Алишер Навои в Азербайджане // «Алишер Навоий ва XXI аср»: Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент: Навоий университети нашриёт-матбаа уйи, 2019. – Б. 200.

Jannat Nag‘iyeva, Nushaba Arasli, Temur Karimli, Tarlon Quliyev, Almaz Ulviy, Posho Karimov va boshqa olimlardan iborat navoiyshunoslar guruhi hamda navoiyshunoslikka doir muayyan ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi.

Qadimdan mavjud bo‘lgan o‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari[193] Alisher Navoiy davrida yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi hamda Navoiy va Husayn Boyqaro boshqargan Hirot adabiy maktabida etishgan Basiriy, Ziyoiy, Xulqiy, Allohiy, Shohqulibek, Susanibek, Paripaykar kabi shoirlarning xizmatlari tufayli Ozarbayjonga Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalari kirib bordi. Navoiy ijodining ozarbayjon adabiyotiga ta’sir ko‘rsatishida Tole’ al-Imoniy al-Haraviyning «Badoye’ ul-lug‘at», Aloyi binni Muhibiyning «Al-lug‘at un-Navoiyat val-istishhodat ul-chig‘atoiyat», Nizomiddin Muhammad Hodi al-Husayniy as-Safaviyning «Sangloh» va boshqa adiblarning lug‘atlari muhim manba vazifasini o‘tadi.

Ozarbayjon adabiyotining «oltin davri» chig‘atoy adabiyotining Navoiy davri bilan chambarchas bog‘liq. Bu davrda ozarbayjon adabiyotining Kishvariy, Sodiqiy, Fuzuliy singari buyuk shoirlarini yetishtirish orqali yangi bosqichga ko‘tarilishida Alisher Navoiy adabiy an’analarining ta’siri katta bo‘ldi. XV-XX asrlarda Ozarbayjonda Navoiy asarlari ta’sirida Kishvariy, Xatoyiy, Fuzuliy, Rahmatiy, Sodiqiy, Amoniy, Zafar, Soib, Qavsiy va boshqa ko‘plab shoirlar ijod qilib, taxmis, nazira, doston va tazkiralar yozish orqali ozarbayjon mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishdi.

Hozirda Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi Muhammad Fuzuliy nomli Qo‘lyozmalar Instituti fondida Alisher Navoiy asarlarining 61 qo‘lyozma nusxasi, devonlarining 37 to‘liq nusxasi,

[193] Qarang: Султанов Т.И. Алишер Навоий ва озарбайжон адабиёти: тарихий илдизлар, анъаналар, ворисийлик (Кишварий ва Содиқий асарлари мисолида)//Фффд дисс. автореф. – Тошкент, 2019. 13-15-б.

«Badoyi' ul-bidoya» devonining M-114 raqamli tarixan eng qadimiy va nodir nusxasining saqlanayotganligi Ozarbayjonda o'zbek adabiyotiga, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiyotiga bo'lgan yuksak ehtiromning yorqin natijasidir[194].

Bibliograf Maryam Najafovaning qayd etishicha, Ozarbayjonda navoiyshunoslik faoliyati 1902-yilda Bog'chasaroyda Alisher Navoiy qalamiga mansub «Muhokamat ul-lug'atayn»[195] asarining Ismoil Gaspirinskiy tomonidan arab alifbosidagi ozarbayjon tilida kitob holida nashr etilishi natijasida yuzaga keldi[196]. Shundan so'ng, 1907-yilda Aliog'a Hasanzodaning «Tarojumi ahvol (mashohir)» nomli maqolasi «Dabiston» jurnalida, 1914 yilda Farhod Og'azodaning «Alisher Navoiy» maqolasi «Adabiyot majmuasi»da, 1907-1916 yillarda «Tarojumi ahvol Alisher Navoiy», «Alisher Navoiy» sarlavhali maqolalar turkumi «Dirilik» jurnalida chop etildi.

Ozarbayjonda navoiyshunoslikning rivojlanishida akademik Hamid Araslining hissasi katta bo'ldi. Olimning «Nizomiy va Navoiy», «Buyuk o'zbek shoiri», «Navoiy va ozarbayjon adabiyoti», «Navoiyning hayoti, Navoiyning lirikasi, Navoiyning «Xamsa»si, Navoiy va asrimiz», «Alisher Navoiy», «Alisher Navoiy va ijodi», «Navoiy va Fuzuliy», «Buyuk shoir», «Qudratlishoir, ijtimoiy xodim» va boshqa maqolalari Navoiy merosining ozarbayjon adabiyotshunosligida o'rganilishi sohasida muhim manbalardir[197].

---

[194] Нагиева Дж. Бакинские рукописи Алишера Навои. – Баку: Элм, 1986. – С. 3.

[195] Əmir Əlişir Nəvai. Mühakimeyi lüğəteyn [Mətn] / Nəvai Əlişir; naşiri və ön sözün müəllifi İ.Qasprinski. – Baxçasaray, 1902 (1320 h.). – 21 s.

[196] Nəcəfova M. Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələrinə dair // Azərbaycan müəllimi. – Bakı, 1964, 25 oktyabr. – S. 4-6.

[197] Araslı H. Nizami və Nəvai // Ədəbiyyat qəzəti. – Bakı, 1940, 12 mart. – S. 1-3; Böyük özbək şairi (Ə.Nəvai haqqında) // Azərbaycan SSR EA Xəbərləri (Ədəbiyyat, dil və incəsənət seriyası). – Bakı, 1946. № 1. – S. 73-92; Nəvai və Azərbaycan ədəbiyyatı // Kommunist. – Bakı, 1948, 8 may. – S. 2-4; Nəvainin həyatı, Nəvainin lirikası, Nəvainin «Xəmsə»si, Nəvai və əsrimiz // Azərbaycan müəllimi. – Bakı, 1948, 31 may. – S. 4-12; Əlişir Nəvai // Pioner. – Bakı, 1948. № 5. -S. 6-7; Əlişir Nəvai və yaradıcılığı // İnqilab və mədəniyyət. – Bakı, 1948. № 5. – S. 50-63; Nəvai və Füzuli // Ədəbiyyat və incəsənət qəzəti. – Bakı, 1980, 30 may. – S. 2-4; Böyük şair // Ə.Nəvai. «Fərhad və Şirin» kitabı. – Baki: Azərnəşr, 1968. – S. 3-11; Qüdrətli şair, ictimai xadim (Əlişir Nəvainin anadan olmasının 525 illiyi münasibəti ilə) // Kommunist. – Bakı, 1968, 25 sentyabr. – S. 1-2.

Ozarbayjondagi fidoyi navoiyshunoslardan yana biri Jannat Nag‘ievadir. Ozarbayjonlik olima navoiyshunoslik faoliyatini 1961 yilda mualliflar guruhi bilan birgalikda «Navoiy va Jomiy asarlari qo‘lyozmalari tasviri»ni tuzishdan boshladi. Shundan so‘ng, J.Nag‘ievaning «Navoiy ijodining Ozarbayjonda o‘rganilishi tarixidan», «Navoiy asarlarining Ozarbayjonda tarqalishi masalasiga doir», «Klassiklarimizning asarlari Navoiy kutubxonasida», «Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasining ikki qo‘lyozmasi», «Navoiy devonlarining Boku qo‘lyozmalari», «Nizomiy Navoiyga duoyi xayr berur», «Ikki ko‘rkam shoir, ikki qalam do‘sti», «Navoiy asarlari ozarbayjon mualliflarining kolleksiyalarida», «Nizomiy san’atkorligining buyuk tarannumchisi», «Navoiy va ozarbayjon shoirlari», «Navoiy va Fuzuliyning bir jildda tutilgan devonlarining yana bir qo‘lyozmasi», «Ozarbayjon-o‘zbek aloqalarining buyuk tadqiqotchisi», «Navoiy merosiga muhabbat bilan», «Nazm ul-javohir», «Navoiy va Fuzuliy san’atiga maftunlik» sarlavhali maqolalari, «Alisher Navoiyning Boku qo‘lyozmalari», «Navoiy ensiklopediyasi lug‘ati» (mualliflardan biri), «Navai i azerbaydjanskaya literatura», «Ozarbayjonda Navoiy» kabi monografiyalari yuzaga keldi. Jannat Nag‘iyeva Alisher Navoiy hayoti, ijodi va ozar shoirlari ijodiga ta’siri mavzusida ozarbayjon, rus va o‘zbek tillarida 60 dan ortiq ilmiy maqola yozib, turli kitob, to‘plam, gazeta va jurnallarda chop ettirish orqali Ozarbayjonda navoiyshunoslik sohasining taraqqiy etishiga katta hissa qo‘shdi. Mumtoz adabiyotda yetarlicha tajriba to‘plagan Jannat Nag‘iyeva 1986-yilda 10.01.01 – Ozarbayjon adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha «Navoiy va ozarbayjon adabiyoti. XV-XIX asrlar» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi[198].

[198] Nağıyeva C. /müəlliflərdən biri/ Əlyazmalar kataloqu. / Nəvai və Camə əsərlərini əlyazmalarının təsviri. I c. – Bakı: Azərbaycan EA nəşriyyatı, 1961. – 272 s.; Nəvai yaradıcılığının Azərbaycanda öyrənilməsi tarixindən // Elm və həyat. – Bakı, 1973. №12. – S. 24-25; Nəvai əsərlərinin Azərbaycanda yayılması məsələsinə dair // Dil və ədəbiyyat məsələləri. – Daşkənd, 1973. № 5. – S.

Ozarbayjonda navoiyshunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining Ozarbayjondagi 61 nusxasi, devonlarining 37 nusxasi qiyosiy jihatdan o‘rganildi, «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Vaqfiya», «Munshaot», «Mezon ul-avzon», «Holoti Pahlavon Muhammad» «Farhod va Shirin», «Sab’ai sayyor» asarlari, ijodidan namunalar «Tanlangan she’rlar», «Tanlangan asarlar» nomlari ostida ozarbayjon tiliga o‘girib chop etildi[199].

Doktor Almazxonim Ulviyning “Alisher Navoiyning asri va nasri (ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarlari)”[200] nomli tadqiqoti Hazrat Navoiyning Ozarbayjonga yangi tashriflari uchun sabab

56-59; Klassiklərimizin əsərləri Nəvai kitabxanasında // Ədəbiyyat və incəsənət. – Bakı, 1976, 10 yanvar. – S. 3-4; Ə.Nəvainin «Məcalis ün-nəfais» təzkirəsinin iki əlyazması // Əlyazmalar xəzinəsində məcmuəsi. – Bakı, 1976. № 4. – S. 53-60; Nəvai divanlarının Bakı əlyazmaları // Əlyazmalar xəzinəsində məcmuəsi. – Bakı, 1979. № 5. – S. 45-55; Nizami Nəvaiyə xeyir-dua verir // Elm və həyat. – Bakı, 1979. № 2. – S. 11-12; İki görkəmli şair, iki qələm dostu (Ə.Nəvai və Ə.Cami) // Elm və həyat. – Bakı, 1981. № 8. – S. 32-33; Nəvai əsərləri azərbaycan müəlliflərinin kolleksiyalarında // Kitablar aləmində. – Bakı, 1984. № 3. - S.24-25; Nizami sənətkarlığının böyük tərənnümçüsü (rus dilində) // Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri səhifələrindən. – Bakı, 1985. – S. 109-127; Nəvai və Azərbaycan şairləri // Azərbaycan SSR EA Xəbərləri (Ədəbiyyat, dil və incəsənət seriyası). – Bakı, 1985. № 1. – S. 22-26; Nəvai və Füzulinin bir cildə tutulmuş divanlarının daha bir əlyazması // Elmi-nəzəri konfrans materialları. – Bakı, 1993. – S. 48-51; Azərbaycan-özbək əlaqələrinin böyük tədqiqatçısı (H.Araslı-90) // Kitabi Dədə-Qorqud-1300. – Bakı: Örnək, 1999. – S. 394-398; Nəvai irsinə məhəbbətlə // Vətən çağırır. – Bakı, 2005, 7 oktyabr. – S. 1-2; Nəzm ül-cəvahir // Kitabi Dədə-Qorqud-1300. – Bakı: Örnək, 1999. -S. 118-120; Nəvai və Füzuli sənətinə vurğunluq // Nəbz. – Bakı, 2008, 7 iyun. – S. 2-4; Əlişir Nəvainin Bakı əlyazmaları. – Bakı: Elm, 1986. – 136 s.; Навои и азербайджанская литература. – Ташкент: Фан, 1990. – 134 с.; Azərbaycanda Nəvai. – Bakı: Tural-Ə, 2001. – 264 s.; Əlişir Nəvai və Azərbaycan ədəbiyyatı. XV-XIX əsrlər: filol. elm. dokt. diss. avtoref. – Bakı, 1986. – 51 s.

[199] Əmir Əlişir Nəvai. Mühakimeyi lüğəteyn [Mətn]. / Nəvai Əlişir; naşiri və ön sözün müəllifi İ.Qasprinski. – Baxçasaray, 1902 (1320 h.). – 21 s.; Mühakəmətül-lüğateyn – İki dilin mübahisəsi [Mətn]: Cağatay türkçəsindən tərcümə / Tərcümə və ön sözün müəllifi: Kamil Vəli Nərimanoğlu. – Baki: Yurt, 1999. – 64 s.; Vəqfiyyə. – Bakı: Azərnəşr, 1926. – 55 s.; Münşəat. – Bakı: Azərnəşr, 1926. – 88 s.; Mizan ül-övzan / Tərcümə, qəydlər və şərhlər filologiya elmləri doktoru Tərlan Quliyev. – Bakı: Nurlan, 2006. – 148 s.; Haləti Pəhləvan Məhəmməd / Tərcümə və ön sözün müəllifi Almaz Ülvi Binnətova. – Bakı: Avropa, 2018. – 24 s.; Fərhad və Şirin. – Bakı: Azərnəşr, 1948. – 311 s.; Fərhad və Şirin. – Bakı: Azərnəşr, 1968. – 311 s.; Yeddi səyyarə. – Bakı: Azərnəşr, 1947. – 124 s.; Yeddi səyyarə. – Bakı: Azərnəşr, 1979. – 124 s.; Seçilmiş şəirləri: müqəddimə və tərcümə Süləyman Rüstəmindir. – Bakı: Gənclik, 1975. – 96 s.; Seçilmiş əsərləri / Şərhlər, ön sözün və lüğətin müəllifi Həmid Araslı. – Bakı: Öndər, 2004. – 423 s.

[200] Almaz Ulvi. “Alisher Navoiyning asri va nasri (ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarlari)”. - Boku: “Ilm va tahsil”, 2020, 570 bet

boʻldi. Bu tashrifning ancha samarali boʻlishi tadqiqotning nomidanoq maʼlum boʻlada.

Navoiyshunoslik fani mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilar oldiga shu davr va shu jamiyat kishisi maʼnaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib muayyan vazifalarni qoʻyadi. Ushbu vazifalar oʻz navbatida bu fan taraqqiyotining oʻziga xos bosqichlari, tadrijiy takomili uchun asos boʻla oladi.

Xususan, oʻzbek adabiyotshunosligida mutafakkir ijodkor asarlarini aniq muammoli masalalar nuqtayi nazaridan izchil oʻrganish tajribasi bor boʻlsa-da, uning hozirgi davr jahon fani uslubiy yoʻnalishlari, mezonlari, talablari darajasidagi taraqqiyot bosqichi uchun ozarbayjonlik olima tadqiqoti misolidagi asarlar nihoyatda zarur.

Alisher Navoiy ijodiy merosini oʻrganishga boʻlgan munosabat keyingi chorak asr davomida yangi xolisona ilmiy tamoyillar negizida, mafkuraviy qoliplardan xoli tarzda, yangi ilmiy yondashuvlar bilan davom etmoqda. Shu nuqtayi nazardan ulugʻ shoir nasriy merosi mavzulari va masalalari koʻlami, uning zamonasi va zamondoshlari hayoti bilan bogʻliq bitiklari tahlil etilgan mazkur tadqiqot fanimizning qiziqarli sahifalarini tashkil etishi tabiiy.

Qiziqarli jihati shundaki, Navoiy nasrining mavzu-mundarijasi, shu mavzu va mazmun yoʻnalishi hamda uslubida turkiy tilli adabiyotda yuzaga kelgan yangi janrlar va adabiy tamoyillar badiiy nasrning tadrijiy rivoji uchun xizmat qildi. Bu adabiy hodisaning qay tariqa yuzaga kelganligi, qay tarzda kechganligi, qanday namoyon boʻlganligi, xususiyatlari va bugungi kun uchun qanchalik muhim yoki ahamiyatsiz ekanligi masalalari Almazxonim Ulviyning fundamental tadqiqotida atroflicha yoritib berilgan.

Olima izlanishlarini Navoiy asrida ham, hozirgi kunda ham insoniyat jamiyati uchun doimiy dolzarb muammolardan biri boʻlmish barkamol inson timsolining badiiy talqini sohasiga

yo‘naltiradi va bu masalani mutafakkir adibning nasriy asarlari izchil tahlili orqali keng ko‘lamda amalga oshiradi. Binobarin, tadqiqot mavzusi ham, muallif keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda bir qator dunyo olimlari va izlanuvchilarini qiziqtirayotgan muammolar umumlashtirilib shakllantirilgan.

Tadqiqotda Navoiy nasri uslubi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari masalalari bo‘yicha barcha o´zbek va Ozarbayjon olimlari tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar imkon doirasida qamrab olingan, ularga doir kuzatuvlar ilmiy asoslangan, kontseptual xulosa yaratilib, shunga ko‘ra taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Olima tadqiq etilishi ko´zda tutilgan masalalarga jiddiy ilmiy munosabat bildiradi. U asarining avvalgi sahifalaridayoq tadqiqoti oldiga qo‘yilgan masalalarning zaruratini belgilovchi omillarni aniqlab qayd etadi. Ilmiy masalalar tahliliga kirishar ekan, Alisher Navoiy hazratlarining ilmiy, tarixiy, adabiy, manoqibiy va diniy-tasavvufiy asarlari zaminida turgan asosiy muammo – inson ma’rifiy kamoloti tasviri masalasiga e’tibor qaratadi.

Olima mutafakkirning “Majolis un-nafois” va “Nasoyim ul muhabbat” tazkiralarida, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” kabi manoqibiy asarlarida Navoiy asri ma’rifiy ilmi va madaniyati kamolotini o‘z shaxsiyatida namoyon etgan ulug‘shoirlar, she’rshunoslar, “ahli tab’”, avliyoulloh, piru ustozlari, do‘stu yorlari badiiy timsoli talqinini kuzatadi va ilmiy tahlil etadi.

Muallif mutafakkir adibning turli mavzu va janrlardagi nasriy asarlari badiiy o‘ziga xosliklari va estetik qiyofasi ranginligini prototiplarning muallifga bo‘lgan munosabatida, deb biladi. Chunonchi, Hazrati Jomiy muallifga pir va ustoz maqomida, Sulton Husayn Boyqaro samimiy do‘st, hammaslak, ijodiy hamkor sifatida, Shayxim Suhayliy ulug‘ shoirning “forsiydisoru turkiyshior yoru azizi” bo‘lib, Xoja Ahrori Vali va Xoja Fazlulloh Abullaysiy

Samarqandiy “farzandim” deya e’zozlab, Sayid Hasan Ardasher shoirning otaxoni va muqavviyi rutbasida, Pahlavon Muhammad esa do‘st, musohib, muhib, taqdiri o‘xshash bir inson mavqeida edilar. Olimaning ushbu sohadagi mulohazalari asosli bo´lib, tahlillari o‘quvchida qoniqish hissini o‘yg‘otadi.

Asarda lingvopoetik tahlil ham mavjud bo‘lib, ramziy-istioraviy iboralarning ma´no qatlamlari, mohiyati yorqin ochilgan. O‘z ijodida turkiy xalqlar adabiyoti yutuqlarini mujassamlashtirgan, asrining adabiy va madaniy hayoti rivojiga hissa qo‘shgan mutafakkir adib Alisher Navoiy nasriy merosidagi har bir badiiy obrazning ijtimoiy-axloqiy mohiyati tadqiqotda teran tahlillar orqali yoritilgan.

Olimaning Navoiy nasriga xos bo‘lgan badiiy xususiyatlarni tadqiq etish, ularning ma’no, kompozitsiya, obraz va tasvirdagi transformatsiyalashuv printsiplarining sabablarini ochib berish, bu tur va undagi janrlarning badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikda tutgan o´rni va ahamiyatini belgilash kabi masalalarga e’tibor qaratishi ham asarning muvaffaqiyatlaridan sanaladi.

Asarning o‘quvchida katta qiziqish o‘yg‘otadigan qismi Navoiyning diniy va tasavvufiy ijodiy merosining ma’rifiy nuqtayi nazardan tahlillaridir.

Tadqiqotning navoiyshunoslik fani rivojida tutadigan asosiy xizmati shunda ko‘rinadiki, unda Alisher Navoiy davri va zamondoshlari fonida adibning nasriy ilmiy va ma’rifiy asarlari tahlili asosida uzoq turkiy tilli adabiyot tarixida mavjud bo‘lgan adabiy tur takomilga yetishi, Hazrat Navoiyning bu sohada ham reformatorligi, turkona, xalqona uslubning sharq klassik uslublari doirasidagi taraq-qiyotini ko‘rsatuvchi adabiyotshunos olimligi va o‘zbek mumtoz nasrida yangi janrlar ijodkori sifatida namoyon bo‘lishi diqqat markaziga chiqariladi. Bu mavzudagi tahlillarida olima akademik Azizxon Qayumov va Jannatxonim Nagieva tadqiqotlariga tayanib, ish ko‘radi.

Asar tarkibi mukammal ishlangan, shoir shaxsi, hasbu holi, davri, ijodiy merosi, uning Ozarbayjon olimlari tomonidan o‘rganilishi, har bir fasldan keyin ma’rifiy va didaktik baytlar, she’riy parchalarning keltirilishi, bibliografiya, turli mavzulardagi ko‘rsatkichlar zamonaviy ilmiy tadqiqotchilik talablarini to‘la aks ettiradi. Bu asar Hazrat Alisher Navoiy biografiyasi, davri va nasriy ijodiy merosi bilan yaqindan tanish bo´lmagan o´quvchida ham biror savol qoldirmaydi, deb o´ylaymiz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Navoiy ijodini o‘rganishdagi Mirzo Somiyning fikrlarini tahlil qiling.
2. Navoiy shaxsi va ijodiga nisbatan turlicha qarashlar haqida batafsil ma’lumot bering.
3. Qaysi olimlarning maqolalari shoir ijodiy merosining o‘rganilishida ilk bor qadamlar sifatida qaralgan?
4. Navoiyning Turk Sultoni Boyazid II ga yuborgan g‘azallari haqida ma’lumot bering.
5. Alisher Navoiyning qaysi nasriy asarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va roli haqida ma’lumot bor?
6. Qaysi tilning imkoniyatlari sodda va ravonligi, sifatlashlarga bezangan «qo‘g‘irchoq» iboralardan xoli ekanligi bilan boshqa tillardan farqlanadi?
7. Turk olimlarining Navoiy nasriga xos bo‘lgan badiiy xususiyatlarni tadqiq etishi, ularning ma’no, kompozitsiya, obraz va tasvirlarni ifodalashdagi asosiy qarashlari haqida so‘zlang?

Zaruriy adabiyotlar:

1. Binnatova Almaz Ulvi. “Alisher Navoiyning asri va nasri (ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarlari)”. - Boku: “Ilm va tahsil”, 2020.

2. Garbuzova V.S. Turk adabiyoti klassiklari. – Toshkent, 1960.

3. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: Muharrir, 2011.

4. Nağıyeva C. /müəlliflərdən biri/ Əlyazmalar kataloqu. / Nəvai və Camə əsərlərini əlyazmalarının təsviri. I c. – Bakı: Azərbaycan EA nəşriyyatı, 1961.

5. Nağıyeva C. Azərbaycanda Nəvai. – Bakı: Tural-Ə, 2001.

6. Nağıyeva C. Əlişir Nəvai və Azərbaycan ədəbiyyatı. XV-XIX əsrlər: filol. elm. dokt. diss. avtoref. – Bakı, 1986.

7. Ro‘zmanova R.U.“Alisher Navoiy an’analarining usmonli turk she’riyatiga ta’siri (Ahmad Posh ova Saydi Ali Rais Kotibiy ijodi misolida)”. Nomzodlik dissertatsiyasi Avtoreferati. – Toshkent, 2011.

8. Salohiy Isomiddin. Ezgu so‘z qudrati. – Samarqand Alisher Navoiy n-dagi SamDU, 2004.

9. Xalliyeva G.I. XX asr rus sharqshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyoti tadqiqi.// F.f.d. diss. – Toshkent, 2016.

10. Бертельс Е.Э Наваи и Аттар // Сборник Мир Алишер. Л.:1928.– С.24–83.

11. Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии. – М. Л. : Изд-во АН СССР, 1948.

12. Навои и азербайджанская литература. – Ташкент: Фан, 1990.

13. Нагиева Дж. Бакинские рукописи Алишера Навои. – Баку: Элм, 1986.

14. Султанов Т.И. Алишер Навоий ва озарбайжон адабиёти: тарихий илдизлар, анъаналар, ворисийлик (Кишварий ва Содиқий асарлари мисолида)//Филол.ф.б. Фалсафа д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019.

SO‘NGSO‘Z

Alisher Navoiy o‘rta asrning o‘ziga xos muhitida yashab, ijod etdi. U hayot kechirgan davr – renessans, ya’ni inson go‘zalligi va har sohadagi mukammalligini kashf etish davri edi. Tashqi ko‘rinishdan nihoyatda mukammal yaratilgan insonning ichki dunyosi va shu ichki dunyoni ifodalovchi tili ham go‘zal bo‘lishi lozim edi. shu boisdan ham she’riyat bu davrning ruhiyatiga aylangan edi. Navoiy insoniyatni ma’rifatlantiruvchi o‘lmas ijodi bilan ana shu romantik sharoitga hayotiy realistik oqimni olib kirdi va she’riyatni o‘z davrining faol, kurashchan, insonparvar kuchlaridan biriga aylantirdi. Xuroson Vaziri a’zami Nizomiddin Mir Alisher Navoiy uchun aynan shu narsa kerak edi. Buyuk shoir ijodining umrboqiyligi va umumba shariyligi ham uning yetuklikka intilgan inson va jamiyat muammolarini ko‘tarib chiqishida, bu muammolarning betakror asarlarda mukammal yechim topishida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan buyuk Alisher Navoiy serqirra ijodini chuqur o‘rganish, bu bebaho xazinaga tinimsiz murojaat etish yosh avlod ma’naviyatini boyitadi, ularni zamonasining to‘g‘ri fikrlovchi, ongli va toza vijdonli kishilar sifatida shakllanishlari uchun xizmat qiladi.

GLOSSARIY

Av-adno – pastroq, yaqinroq

Ajz – 1. Ojizlik, zaiflik, kuchsizlik, notavonlik, iqtidorsizlik; 2. Xastalik; 3. Ojizlikni xoksorlikni tan olish

Anbar – xushboʻy modda, yoqimli hid

Anbarin – anbar (xushboʻy modda) tusli, xushboʻy, muattar, anbar aralashtirilgan; qorongʻi kecha

Anfos – damlar, nafaslar; til, ovoz, soʻz, soʻzlash ohangi

Asru – juda, nihoyatda; juda koʻp, behisob; tez, qattiq

Axgar – laxcha choʻgʻ, olov; oshiq

Ahmar - qizil

A'mo – koʻr, soʻqir; bilimsiz, nodon, bexabar; ojizlik qilmoq

Balogʻat – yetuklik, barkamollik, benuqsonlik; notiqlik.

Batho – Makkai makarrama atrofidagi Batho vodiysi

Bejihat – sababsiz, oʻrinsiz, behuda

Betoʻshaligʻ – oziq-ovqatsizlik, yemak-ichmaksizlik; yoʻl anjomisizlik

Besh emas – ortiq emas

Biaynih – xuddi oʻzi, aynan

Biym – xavf-xatar, qoʻrqinch, vahm, tahlika; bu yerda: xavotirli umid

Buroq – Muhammad alayhissalomni me'roj kechasi koʻkka olib chiqqan ot suratidagi farishta

Vallohu a'lam bissavob – toʻgʻrisini Alloh yaxshiroq biladi

Vara' – taqvo, parhyezkorlik, xudojoʻylik

Vasila – yoʻl, vosita, sabab, bahona, bois; tuhfa, sovgʻa

Gardun – osmon toqlari; dunyo, olam, jahon; arava; yuksak, baland

Dijam – xorlik, kamsitilish

Yogʻutmoq – yogʻdirmoq

Jabha – pe shona, manglay; yuz, oy yuzli

Jayb – 1. Cho‘ntak, kissa; 2. Yoqa, kiyimning yoqasi; 3. Yon, yaqinlik

Jom (jomi miyno) – qadah, may piyolasi; bu yerda: shafaq rangli jom

Joh – mansab, amal, martaba; davlat, boylik; buyuklik, sha’n-sharaf, shavkat, e’tibor

Juz (juzv, juz’) – bo‘lak, boshqa, o‘zga; mayda, oz, biror narsaning bir qismi, bir donasi; a’zo, badan a’zolari

Junun – jinnilik, aqldan ozganlik, savdoyilik; oshiqlik, beqarorlik

Jurm – gunoh, xato

Zalolat – xorlik, pastlik, haqirlik, tubanlik; gumrohlik, yo‘ldan ozganlik.

Zam-zam – 1. Qo‘ shish, jamlash; 2. Makkai mukarramadagi muqaddas quduq

Zarqu riyo – aldov, makr, riyo, hiyla; munofiqlik, ikkiyuzlamalik, g‘iybat, fisqu-fasod; tezak; qahr, g‘azab, jirkanch, yoqmas

Zihi – go‘zal, yoqimli, ko‘ngilga matlub; yaxshi, qanday yaxshi; ofarin

Zod – bola, farzand, avlod;

Zodi – oziq-ovqat; dastmoya; ruhiy ozuqa; safar asbobi; bola, farzand, avlod

Zol – qariya (kampir, chol); bir kechalik oy, hilol; ada shgan, gumroh, yo‘ldan ozgan; yomonlikka yo‘llovchi

Zulmoniy – qorng‘i, qop-qorong‘ilikka mansub, zulmatli

Zunnor – xristian dinidagilar beliga bog‘laydigan chilvir, belbog‘; but, o‘ziga sig‘intiruvchi, tortuvchi

Zunnor – xristian dinidagilarning beliga bog‘laydigan chilvir, belbog‘; but, o‘ziga sig‘intiruvchi, tortuvchi

Iktisob – o‘rganish, kasb qilish, qo‘lga kiritish, qozonish

Ilgi – “ilik” - qo‘l

Ilhod – dinsizlik, xudoga ishonmaslik;

Ir shod – to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, rahbarlik qilish;

Istishhod – misol keltirish, dalil, isbot

Kavnayn – ikki dunyo, jismoniy va ruhoniy olam; bu dunyo va oxirat

Kasofat – 1. Dag‘allik, qo‘pollik; g‘alizlik; 2. Ifloslik, yomonlik; 3. Xiralik, tutilish (quyosh)

Ka’ba – 1. Makka shahridagi ziyoratgoh, muqaddas sayilgoh, musulmonlar qiblasi; 2. Ko‘ngil

Kirdigoro – yaratuvchi, xudo, tangri taolo

Koj – shapaloq; iztirob, aziyat

Kudurat – xiralik, g‘a shlik, xafalanish; g‘am, qayg‘u; g‘ubor;

Kulbai xammor - mayxona

Kulbai ehzon – hazin uy, g‘am, hasrat uyi

Kunh – asl haqiqat, mohiyat; zot asli, mohiyati, o‘zligi

Kup – xum, may quyiladigan katta sopol idish

Kufvan ahad – (kufv – teng, barobar, o‘xshash); bu yerda: (aslida “kufuvan ahad”) **yo‘qtur sanga kufvan ahad** – senga hyech bir teng yo‘qdir

Lam’a – shu’la, nur; malohat yog‘dusi; sharq quyoshi, nuri; sevgili yor

Mamzuj – aralash, aralashtirilgan, maxlut

Marg‘ub – yoqimli, sevimli, ma’qul; dilkash, xushro‘y

Mahol – 1. Qiyin, og‘ir; 2. Vaqt, zamon.

Mahsub – hisobga olingan, sherik, bir qatordagi

Ma’yub – mayib, aybli

Mizoj – 1. Tabiat, xulq, atvor; 2. Holat, ahvol

Miy’od – muddat, vaqt;

Mo fiho – undagi, uning ichidagi

Molishi hajr – ishqalash, suyka sh; jazolash, azoblash, qiyna sh; jazo, tanbeh

Mosivalloh – xudodan boshqa

Muvasvasa – vasvasaga soluvchi, vasvasa qiluvchi

Mudoro – 1. Murosa qilish, chiqishish, kelishish, iltifot, lutf; 2. Sulh tuzmoq, yara shmoq

Mujda - xabar

Mukavvanot – vujudga keltirilgan, vujudga kelgan, mavjudot, maxluqot

Mukaddar – xiralangan, zang bosgan; xafa, g‘amgin, mahzun

Mun’im – ne’mat beruvchi, rizq beruvchi, saxovatli

Mo‘r - chumoli

Musallo – namoz o‘qiydigan joy, masjid, namozgoh; joynamoz

Musiqor – muzika asbobi; xush ovozli afsonaviy qu sh

Musqil – sayqal, jilo beruvchi; yorituvchi

Muhaqqar – haqirlangan, tahqirlangan; arzimas, kam, ozgina; past, kichkina

Muhlik – o‘ldiruvchi, halok qiluvchi; halokatli

Nadomat – pu shaymon, afsuslanish, taassuf

Namrud – rivoyatlarga ko‘ra, payg‘ambar Ibrohim alayhissalomni o‘tda kuydirmoqchi bo‘lgan podshoh

Nasim – shabada, mayin esuvchi shamol

Naxl – nihol

Na shot – shodlik, xursandchilik

Na’im – ne’mat, farovonlik; shodlik, xurramlik

Na’l – taqa; etik va kovu shning tagiga qoqiladigan temir nag‘al; kavu sh, sandaliya; taqa shaklidagi tamg‘a

Na’layn – etik, juft kavu sh, poyafzal

Niyoz – 1. Ehtiyoj, muhtojlik; 2. Yalinish, yolvorish, iltijo; 3. Atash, nazr qilish

Nilgun – ko‘k rangli, ko‘k rangli gumbaz, osmon

Nilgun toram – koʻk rangli osmon gumbazi Zihi – goʻzal, yoqimli, koʻngilga matlub; yaxshi, qanday yaxshi; ofarin; xuddi oʻzi, juda, eng

Nihoniy – maxfiy, pinhoniy

Novak – oʻq, kamon oʻqi; kiprik; oʻq otmoq, jarohatlamoq

Nubuvvat – nabiylik, paygʻambarlar guruhi, Haq taolo insoniyatga yuborgan elchilar guruhi

Obi hayvon – tiriklik suvi, abadiy hayot bagʻishlovchi suv

Payk – xabarchi, jarchi; elchi

Pargor – sirkul, pargar

Ruq'a – xat, maktub; yamoq

Rutab – hoʻl, nam Ravza – bogʻ, bogʻcha; jannat; mozor, ziyoratgoh; bob, boʻlim fasl

Sabur – sabrli, toqatli, chidamli, bardo shli

Samad – abadiy, jovidon; xudo sifatlaridan biri

Safo (ahli safo) – koʻngli sof, pokiza kishilar; sufiylar

Sidq (ahli sidq) – sodiqlar, sadoqatlilar, toʻgʻrilar

Sipehroso – osmon, falak kabi; baland, yuksak

Solik – yoʻlga kirgan, yoʻlda yurgan; tasavvuf yoʻliga kirgan; zohid; obid; musofir; gʻarib; ogoh musofir; sufiylik ixtiyor qilganlar; yoʻl topish uchun urinmoq, yoʻllanmoq

Suho – 1. Hulkar toʻplamidagi yulduzlarning eng xirasi; 2. Juda kichik, arzimas

Tavq – boʻyinbogʻ, boʻyinga osadigan ziynat; tuzoq; baʾzi qu shlarning boʻynidagi halqa shaklidagi chiziq; tomoq osigʻi; laʾnat tavqi, aybdorlarni qiyna sh uchun boʻyniga kiygiziladigan yogʻoch boʻyunturuq; baqbaqa chizigʻi, aylanasi

Tagʻayyur – oʻzgarish, boshqa tusga kirish; gʻazablanmoq

Tajalliy – koʻrinish, jilvalanish

Taqrir – muqarrar qilish, tasdiqlash, bayon qilish, soʻzlash

Taqsir – qusur, kamchiliklar, ayblar

Tan gulbuni – bu yerda: badanning guldek goʻzal va pok kulbasi

Taxayyul – xayol surish, oʻylash, tasavvur.

Tifl – bola, bolalar

Topok – tipichilash, bezovtalanish

Fano – baqosizlik, yoʻq boʻlish, oʻlish; oʻzlikdan kechish, oʻzni unutish, tasavvuf yoʻliga kirish; oʻlim, ajal

Fard – yolgʻiz, yakka, tanho; ajragan, xoli; maʼno jihatidan mustaqil yakka bayt;

Fardligʻ – yagonalik, birlik, toqlik

Fasohat – soʻzning ochiq, rav shan, chiroyli va qoidaga muvofiq boʻlishi.

Foniy – baqosizlik, yoʻq boʻlish, oʻlish; oʻzlikdan kechish, oʻzni unutish, tasavvuf yoʻliga kirish;

Xazro – koʻk, ya shil; osmon

Xay – ter tomchisi

Xa shxo sh – koʻknori oʻsimligi, koʻknori urugʻi

Xijolat – uyalish; sharmanda boʻlmoq.

Xirad - aql

Xoma - qalam

Xotam – muhr

Xuffo sh – koʻr shapalak

shar' – shariat;

shafi' – himoyachi, vositachi

E'lom – eʼlon qilish, bildirish, maʼlum qilish

Yasrib – Madina shahrining qadimgi nomi

Qiyrgun – qoramoy rangli, qop-qora, tim qora

Qosid – elchi, xabarchi; qasd qiluvchi, niyat etuvchi

Qurb – 1. Yaqinlik, yaqin boʻlish; 2. Qobiliyat; 3. Loyiqlik

Qoʻryo – 1. Chodir, kapa; 2. Xarobaxona; vayrona

Gʻabro – yer, yer yuzi, yer shari

G‘aflat – hushyorsizlik, har narsaga befarq qarashlik; loqayd qiladigan, sergaklikni yo‘qotadigan uyqu

G‘izo – oziq-ovqat, yegulik, taom

G‘ussa – g‘am, qayg‘u Za’f – quvvatsizlik, holsizlik, xastalik, kasallik

Havodis – hodisalar, voqyealar, kundalik o‘zgarishlar; ko‘ngil g‘a shlik hodisasi;

Hamd – 1. Maqtov, madh; 2. shukr, ta shakkur, rahmat; 3. Madhu sano, maqta sh va sano aytish.

Hampo – hamqadam, hamroh

Haros – qo‘rquv, vahima, qattiq hayajon

Hibs (habs) – qama sh; hibsga solish; qamoqxona, zindon

Hidoyat – to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, to‘g‘ri yo‘l topish, to‘g‘ri yo‘lga kirish.

Hirz – 1. Saqlaydigan, asraydigan; 2. Sehr-joduni qaytaradi; 3. Tumon o‘rnini bosadi

Hubob – suv yuzida paydo bo‘ladigan pufakchalar; osmon gumbazi; foniy dunyo; aylana

Huzn – ham, qayg‘u, xafalik, g‘amginlik

Hulla – bezakli kiyim, ziynat libosi; nafis matodan tikilgan kiyim

QISQA BAYON

Ushbu darslik respublika oliy o‘quv yurtlari Sharq va sharqshunoslik fakultetlari Filologiya va fanlarni o‘qitish ixtisosligi bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘zbek adabiyoti tarixi fanining “Navoiyshunoslik” kursi mavzularini qamrab oladi. Unda navoiyshunoslikni o‘rganishga oid rus, turk, ozarbayjon, fors-tojik va asosan o‘zbek olimlari tomonidan yaratilgan boy ilmiy-adabiy merosning mavzu ko‘lami, tarixiy-ilmiy ahamiyati va g‘oyaviy xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Mutafakkir shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy hayoti, ijodiy faoliyati, ilmiy, tarixiy, adabiy merosi haqidagi ma’lumotlar darslikdan o‘rin olgan bo‘lib, ushbu ma’lumotlar sohasida taniqli olimlar tomonidan amalga oshirilgan tahlil va talqinlar ham keltitrilgan. Tadqiqot mazmunan to‘rt qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida mutafakkir shoirning hayoti, lirik ijodiy merosi, devonlari, shoir she’riyatida janrlar poetikasi, badiiy san’atkorlik mahorati va orifona g‘oyalar ifodasi kabi masalalar yoritilgan. Shoir hayotining Samargand davri bilan bog‘liq tafsilotlari imkon qadar kengroq tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning ikkinchi qismi Alisher Navoiyning turkiy tilda yaratgan “nazirai benazir”i – “Xamsa” dostonlari va ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Uchinchi qism Alisher Navoiyning ilmiy merosi va diniy-tasavvufiy asarlari tadqiqiga bag‘ishlangan.

Darslik Sharq va sharqshunoslik yo‘nalishi ixtisosligi talabalariga mo‘ljallab yozilganligi bois, undan buyuk mutafakkir ijodining rus, turk va ozarbayjonlik mutaxassislar tomonidan o‘rganilishi haqidagi ma’lumotlar ham o‘rin oldi.

Darslikda mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar, har bir mavzuga doir zaruriy adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

РЕЗЮМЕ

Данный учебник написан для студентов бакалавриата Восточных и востоковедческих факультетов высших учебных заведений республики, специализированных на обучение Филологических дисциплин. В ней освещены основные темы курса «Навоиведение» предмета истории узбекской литературы. В учебнике даётся обзор научно-критических исследований по навоиведению русских, тюркских, азербейджанских, персидско-таджикских, более подробно узбекских учёных и писателей, также необходимая информация по изучению тем, исторической значимости и идейных своеобразий данного материала.

В учебнике исследуется материал, освещающий жизненный путь и творческую деятельность, вопросы научного, исторического, литературного наследия великого поэта и мыслителя, государственного деятеля Алишера Навои. Исследование по своему содержанию состоит из четырёх частей, в первой части даётся подробная информация о жизнедеятельности и лирическом наследии поэта, о структуре и об идейном содержании его “диванов” – сборников стихотворений, о жанровом своеобразии и художественном мастерстве, также о духовно-мистическом содержании ряда твоерний поэта.

Во второй части учебника помещены исследования по изучению идейно-художественных особенностей “Хамсы” – пятерицы великого поэта.

В третьей части освещаются вопросы научного наследия поэта и идейного содержания его религиозно-суфийских произведений.

В учебнике дана информация об изучении творчества Алишера Навои за рубежом – русскими, тюркскими и

азербейджанскими учёными, имея ввиду интересы и требования студентов-востоковедов.

В учебном пособии также помещены вопросы и задачи для укрепления знаний по изученным темам, рекомендована необходимая литература по каждой теме занятий.

SUMMARY

This textbook is written for undergraduate students of the Oriental and Oriental Studies faculties of higher educational institutions of the republic, specialized in teaching Philological disciplines. It covers the main topics of the course "Navoiving" of the subject of the history of Uzbek literature. The textbook provides an overview of scientific and critical studies on the study of Russian, Turkic, Azerbaijani, Persian-Tajik, more detailed Uzbek scholars and writers, as well as the necessary information on the study of the topics, historical significance and ideological originality of this material.

The textbook examines the material covering the life and creative activity, issues of the scientific, historical, literary heritage of the great poet and thinker, statesman Alisher Navoi. The content of the study consists of four parts, the first part provides detailed information about the life and lyrical heritage of the poet, about the structure and ideological content of his "sofas" - collections of poems, about genre originality and artistic mastery, as well as about the spiritual and mystical content of a number of your poets.

In the second part of the textbook, there are studies on the study of the ideological and artistic features of "Khamsa" - the five of the great poet.

The third part covers the issues of the poet’s scientific heritage and the ideological content of his religious and Sufi works.

The textbook provides information about the study of Alisher Navoi’s work abroad by Russian, Turkic and Azerbaijani scholars, taking into account the interests and requirements of students of oriental studies.

The textbook also contains questions and tasks to strengthen knowledge on the topics studied, and the necessary literature on each topic of the lessons is recommended.

MUNDARIJA

TAQDIM 3
1-mavzu: NIZOMIDDIN MIR ALISHER NAVOIY IJODINING O‘RGANILISHI. HAYOTIGA DOIR MUHIM MA’LUMOTLAR 8
1.1. Alisher Navoiy ijodiy merosining o‘rganilish tarixi va manbalari. 8
1.2. Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosi. Shoir yoshlik lirikasida hayotiy tafsilotlar. 13
1.3. Alisher Navoiyning Samarqand davri hayoti. 18
2-mavzu: ALISHER NAVOIYNING LIRIK MEROSI. DEVONLARI 25
2.1. Alisher Navoiy she’riyati misolida Sharq devonchiligi an’analarining yangilanishi. 25
2.2. Alisher Navoiy ijodida qadimiy turkona she’riyat an’analarining yangilanishi. 30
2.3. Navoiyning turkiy tildagi devonlari. 41
2.4. “Devoni Foniy”. 50
3-mavzu: ALISHER NAVOIY SHE’RIYATI VA JANRLAR POETIKASI 54
3.1. Alisher Navoiyning o‘z davrida keng tarqalgan lirik janrlardagi asarlari. 54
3.2. Ijtimoiy ruhdagi g‘azallarda g‘oya-mazmun va badiiy obraz takomili. 63
3.3. Navoiy sheriyati va musiqa 69
4-mavzu: ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA TASAVVUF MASALALARI 74
4.1. Navoiy lirikasida ijtimoiy-ma’rifiy ruhdagi g‘azallar 74
4.2. Navoiy lirikasida ishq-muhabbat mavzusi 83
4.3. Diniy-orifona she’riyat namunalari 88
5-mavzu: BADIIY SAN’ATLAR VA UNING ALISHER NAVOIY SHE’RIYATIDAGI O‘RNI 102

5.1. Alisher Navoiy she'riyatida adabiy-estetik tamoyillar va uslub xususiyatlari. 102
5.2. Poetik matnda shakl va mazmun masalasiga doir. 112
5.3. Navoiy she'riyatida badiiy timsol talqini. 116
6-mavzu: XAMSANAVISLIK AN'ANASI VA ALISHER NAVOIY "XAMSA" SI 124
6.1. Alisher Navoiy «Xamsa» si yaratilishi arafasida Xuroson ijtimoiy-madaniy muhiti ko'rinishlari 124
6.2. Alisher Navoiy «Xamsa» si va sharq xamsachiligi an'analari 128
7-mavzu: "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONI 136
7.**1**. Dostonning tuzulishi va mavzulari. 136
7.2. Sulton Husayin Boyqaro va Shoh G'oziy. 144
7.3. "Hayrat ul-abror" da komil inson tasviri. 146
8-mavzu: "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONINING TIMSOLLAR OLAMI 153
8.1. Doston kompozitsiyasi va mavzulari. 153
8.2. Farhod va Shirin timsollari talqini. 163
8.3. Dostondagi boshqa obrazlar tasviri. 170
9-mavzu: "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA MUALLIF BADIIY NIYATINING IFODALANISHI 174
9.1. "Layli va Majnun" qissasi tarixi va sharq epik she'riyatidagi talqinlari. 174
9.2. Dostonning kompozitsion qurilishi. 181
9.3. "Layli va Majnun" – eng mahzun ishq qissasi. 186
10-mavzu: "SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING TARKIBIY TUZILISHI 191
10.1. Dostonning tarkibi va asosiy g'oyalari. 191
10.2. Doston qurilmasidagi yangicha talqin. 195
10.3. Romantik hikoyatlarning g'oyaviy-badiiy qimmati. 199

11-mavzu: “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINIG G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI..... 205
11.1. “Saddi Iskandariy” – jangnoma-qahramonlik dostoni..... 205
11.2. Aleksandr Makedonskiy va badiiy adabiyot. 213
11.3. Navoiy “Xamsa”si badiiy-estetik tamoyillarining keyingi davr o‘zbek dostonchiligiga ta’siri. 220
12-mavzu: “LISON UT-TAYR” DOSTONI VA UNDAGI OBRAZLAR TIZIMI 227
12.1. Dostonning tarkibiy tuzilishi. 227
12.2. Dostonning goyaviy xususiyatlari. 233
12.3. Ramziy timsollar tahlili**. 239**
13-mavzu: ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI 247
13.1. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida qiyosiy tilshunoslik masalalari 247
13.2. “Mezonul-avzon” - adabiyotshunoslikka doir asar 252
13.3. “Majolis un-nafois” asarida davr adabiy muhiti va shaxsiyatlar talqini 262
14-mavzu: ALISHER NAVOIYNING DINIY-TASAVVUFIY ASARLARI 268
14.1. “Nasoyimul-muhabbat” – diniy-tasavvufiy nasr namunasi.. 268
14.2. Yodnoma-asarlar – Holotlarda ma’rifiy talqin. 274
14.3. Tarixiy asarlar – ma’rifiy-xronologik nasr namunasi..... 299
14.4. “Mahbub ul-qulub” – axloqiy-ma’rifiy nasr namunasi. 310
15-mavzu: ALISHER NAVOIY IJODINING XORIJDA O‘RGANILISHI 328
15.1. Rus olimlari asarlarida navoiyshunoslik masalalari. 328
15.2. Turkiyada navoiyshunoslik**. 346**
15.3. Ozarbayjonda navoiyshunoslik. 353
SO‘NGSO‘Z 365
QISQA BAYON 373
REZYUME 374
SUMMARY 376

ОГЛАВЛЕНИЕ

1-тема: ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА НИЗАМАДДИНА МИРА АЛИШЕРА НАВОИ. ИНФОРМАЦИЯ О ЖИЗНЕННОЙ ПУТИ ПОЭТА.....8

1.1. История изученя и источники творческого наследия Алишера Навои. 8

1.2. Жизнь и литературное наследие Алишера Навои. Лирика молодости.....13

1.3. Алишер Навои в Самараканде. 18

2-тема: ЛИРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ. ДИВАНЫ.....25

2.1. Совершенствование Алишером Навои традиции составления диванов - сборников стихов в восточной поэзии. 25

2.2. Возобновление в творчестве Алишера Навои традиций старинной тюркской поэзии.....30

2.3. Диваны Алишера Навои на тюркско-узбекском языке. 41

2.4. Персидский диван поэта – «Дивани Фани». 50

3-тема: ПОЭТИКА ЖАНРОВ В ЛИРИКЕ АЛИШЕРА НАВОИ 54

3.1. Произведения Алишера Навои в традиционных лирических жанрах. 54

3.2. Совершенство лирики социального содержания и художественного образа. 63

3.3. Лирика Навои и музыка. 69

4-тема: ВОПРОСЫ СУФИЗМА В ЛИРИКЕ АЛИШЕРА НАВОИ 74

4.1. Изображение социально-духовных идей в лирике Навои. .74

4.2. Тема любьви в лирике Навои. 83

4.3. Образцы религиозно-духовной лирики. 88

5-тема: МЕСТО ПОЭТИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ В ЛИРИКЕ АЛИШЕРА НАВОИ.....102

5.1. Литературно-эстетические принципы и особенности стиля в лирике Алишера Навои.....102
5.2. О вопросе формы и содержания в поэтическом тексте. ...112
5.3. Интерпретация художественного образа в лирике Навои. 116
6-тема: ТРАДИЦИЯ «ПЯТЕРИЦЫ» И «ХАМСА» АЛИШЕРА НАВОИ 124
6.1. Социально-культурная атмосфера Хорасана в преддверии создания «Хамсы» Алишера Навои. 124
6.2. Традации поэтики восточных пятериц и «Хамса» Алишера Навои 128
7-тема: ПОЭМА «ВОСХИЩЕНИЯ ПРАВЕДНЫХ» 136
7.1. Структура и темы поэмы. 136
7.2. О Салтане Хосейн Баайкара и Шахи Гази 144
7.3. Изображение духовно совершенной личности в поэме «Восхищение праведных». 146
8-тема: МИР ОБРАЗОВ ПОЭМЫ «ФАРХАД И ШИРИН» 153
8.1. Композиция и содержание поэмы. 153
8.2. Интерпретация образов Фархад и Ширин 163
8.3. Изображение в поэме других образов и персонажей. 170
9-тема: ИЗОБРАЖЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ МЫСЛИ АВТОРА В ПОЭМЕ «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН» 174
9.1. История сказаний о «Лейли и Меджнун» и его интерпретация в восточной эпической поэзии.....174
9.2. Идейно-художественные особенности поэмы.....181
9.3. «Лейли и Меджнун» - самая мрачная история любьви 186
10-тема: КОМПОЗИЦИОННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ПОЭМЫ «СЕМЬ СКИТАЛЕЦ» 191
10.1. Структура и основные идеи поэмы 191
10.2. Новая интерпретация идейной структуры поэмы. 195

10.3. Идейно-художественная ценность романтических рассказов 199
11-тема: ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ОСОБЕННОСТЬ ПОЭМЫ «ВАЛ ИСКАНДЕРА» 205
11.1. «Вал Искандера» - поэма о мужестве и доблести 205
11.2. Александра Македонский и художественная литература 213
11.3. Влияние художественно-эстетических принципов пятерицы 11.4.Навои на развитие эпического жанра узбекской литературы 220
12-тема: СТРУКТУРА ОБРАЗОВ В ПОЭМЕ «ЯЗЫК ПТИЦ» 227
12.1. Композиция поэмы 227
12.2. Идейон-художественная особенность поэмы 233
12.3. Анализ символических образов 239
13-тема: НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ 247
13.1. Вопросы сравнительного языкознания в произведении . 247
13.2. «Суждение о двух языках» 252
13.3. «Метрика стихосложения» - как источник литературоведения 262
14-тема: РЕЛИГИОЗНО-СУФИЙСКИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АЛИШЕРА НАВОИ 268
14.1. «Дуновения любви» - образец религиозно-суфийской прозы 268
14.2. Интерпретация суфийских идей в «Холот» ах – «Жизнеописания»х поэта 274
14.3. Два исторических произведения – образцы духовно-хронологической прозы 299
14.4. «Возлюбленный сердец» - образец духовно-нравственной прозы 310

15-тема: ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ ЗАРУБЕЖОМ.....328
15.1. Вопросы навоиведения в исследованиях русских ученых 328
15.2. Навоиведение в Турции 346
15.3. Навоиведение в Азербейджане 353
ПОСЛЕСЛОВИЕ 365
РЕЗЮМЕ.....374
SUMMARY 376

CONTENTS

Topic 1: STUDY OF THE WORK OF NIZAMADDIN MIR ALISHER NAVOI. INFORMATION ABOUT THE POET'S LIFE 8

1.1History, study and sources of Alisher Navoi's creative heritage. 8

1.2Life and literary heritage of Alisher Navoi. Lyrics of youth. 13

1.3Alisher Navoi in Samarakand..... 18

Topic 2: LYRICAL HERITAGE OF ALISHER NAVOI. SOFAS 25

2.1. Alisher Navoi's improvement of the tradition of compiling divans - collections of poems in oriental poetry. 25

2.2. Renewal of the traditions of ancient Turkic poetry in the work of Alisher Navoi. 30

2.3. Alisher Navoi's sofas in Turkic-Uzbek language..... 41

2.4. Persian divan of the poet – "Divani Fani". 50

Topic 3: POETICS OF GENRES IN ALISHER NAVOI'S LYRICS..... 54

3.1. Alisher Navoi's works in traditional lyrical genres. 54

3.2. Perfection of lyrics of social content and artistic image..... 63

3.3. Navoi's lyrics and music. 69

Topic 4: ISSUES OF SUFISM IN ALISHER NAVOI'S LYRICS..... 74

4.1. The Image of Social and Spiritual Ideas in Navoi's Lyrics. 74

4.2. The theme of love in Navoi's lyrics. 83

4.3. Samples of religious and spiritual lyrics. 88

Topic 5: THE PLACE OF POETIC DEVICES IN ALISHER NAVOI'S LYRICS..... 102

5.1. Literary and Aesthetic Principles and Features of Style in Alisher Navoi's Lyrics. 102

5.2. On the Question of Form and Content in a Poetic Text. 112

5.3. Features of the aruza metric in Navoi's lyrics. 116

Topic 6: THE TRADITION OF "FIVE" AND "HAMSA" BY ALISHER NAVOI.....124
6.1. Socio-cultural atmosphere of Khorasan on the eve of the creation of Alisher Navoi's "Khamsa".....124
6.2. Traditions of the poetics of the Eastern fives and "Khamsa" by Alisher Navoi. 128
Topic 7: POEM "THE RAPTURES OF THE RIGHTEOUS"..136
7.1. Structure and themes of the poem. 136
7.2. About Saltan Hossein Baaykara and Shahi Ghazi.....144
7.3. The depiction of a spiritually perfect person in the poem "The Raptur1e of the Righteous". 146
Topic 8: THE WORLD OF IMAGES OF THE POEM "FARHAD AND SHIRIN" 153
8.1. Composition and content of the poem.....153
8.2. "Farhad and Shirin" - heroic-adventure poem.....163
8.3. The depiction of other images and characters in the poem. ...170
Topic 9: DEPICTION OF THE AUTHOR'S ARTISTIC THOUGHT IN THE POEM "LEYLI AND MAJNUN".....174
9.1. The History of the Legends of "Leyli and Majnun" and Its Interpretation in Eastern Epic Poetry 174
9.2. Ideological and Artistic Features of the Poem 181
9.3. "Leyli and Majnun" is the darkest story of love.....186
Topic 10: COMPOSITIONAL ORIGINALITY OF THE POEM "SEVEN WANDERERS" 191
10.1. Structure and Main Ideas of the Poem 191
10.2. A new interpretation of the ideological structure of the poem.....195
10.3. The Ideological and Artistic Value of Romantic Stories.....199
Topic 11: IDEOLOGICAL AND ARTISTIC PECULIARITY OF THE POEM "ISKANDER'S SHAFT".....205
11.1. "The Shaft of Iskander" - a poem about courage and valor..205

11.2. Alexander the Great and fiction 213
11.3. The Influence of the Artistic and Aesthetic Principles of the Five Navoi on the Development of the Epic Genre of Uzbek Literature 220
Topic 12: THE STRUCTURE OF IMAGES IN THE POEM "THE LANGUAGE OF BIRDS" 227
12.1. Composition of the poem 227
12.2. Ideological and artistic feature of the poem 233
12.3. Analysis of Symbolic Images 239
Topic 13: SCIENTIFIC HERITAGE OF ALISHER NAVOI ... 247
13.1. Issues of Comparative Linguistics in the Work "Judgment on Two Languages" 247
13.2. "Metrics of Versification" as a Source of Literary Criticism 252
13.3. Interpretation of the Literary Atmosphere and Creative Aspects in the Anthology "Majalis An-Nefais" 262
Topic 14: RELIGIOUS-SUFI WORKS OF ALISHER NAVOI. 268
14.1. "Breaths of Love" is an example of religious-Sufi prose 268
14.2. Interpretation of Sufi Ideas in "Holot" – "Lives" of the Poet 274
14.3. Two Historical Works – Samples of Spiritual and Chronological Prose 299
14.4. "Beloved of Hearts" is an example of spiritual and moral prose 310
Topic 15: STUDY OF ALISHER NAVOI'S CREATIVITY ABROAD 328
15.1. Issues of Navoi Studies in the Studies of Russian Scientists 328
15.2. Navoi in Turkey 346
15.3. Navoi Studies in Azerbaijan 353
AFTERWORD 365
SUMMARY 376

DILOROM SALOHIY, GULNOZ XALLIYEVA,
SHAVKAT HAYITOV, IRODA PARDAYEVA

NAVOIYSHUNOSLIK

Oliy o‘quv yurtlari Sharq fakultetlarining Filologiya va tillarni o‘qitish mutaxassisligi ta’lim yo‘nalish i uchun
DARSLIK

Muharrir: Karimova Safiya
Tex.muharrir: Sohibov Shohzod
Musahhih: Mamatkarimova Munira

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti,
140104, Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93.

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosmaxona tasdiqnomasi:

4268

Bosishga ruxsat etildi: 15.10.2024-yil.
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.
“Times New Roman” garniturasi. Ofset bosma usuli.
Hisob-nashriyot t.: 24,2 Shartli b.t.: 15,4
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma №. 283.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi.
Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy.